

Ravshan Rajabov

JAHON SIVILIZATSIYALARI TARIXI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan 7010101 Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish
metodikasi (Tarix) mutaxassisligi talabalari uchun darslik
sifatida tavsiya etilgan*

Toshkent
«Zilol buloq» nashriyoti
2024

UO‘K 94(075.8)

КБК 63.3ya73

R 14

Rajabov, Ravshan

Jahon sivilizatsiyalari tarixi. –Toshkent, “Zilol buloq”
nashriyoti, 2024. 430 b.

Muharrir:

G. Temirov – *tarix fanlari doktori*

Taqrizchilar:

M.A. Raximov – *tarix fanlari doktori, professor*

M. Ismoilova – *tarix fanlari nomzodi, dotsent*

Ushbu o‘quv darsligi shu nomda nashr etilgan o‘quv qo‘llanmani qayta ishlash va fanning yangi ma‘lumotlari bilan to‘ldirish asosida tayyorlandi. Darslikda insoniyat tarixida o‘tmishda va hozirgi kunlarda mavjud bo‘lgan sivilizatsiyalar tarixi va ularning mazmun mohiyati tavsiflangan. Sivilizatsiyalarning genezisi, tuzilishi va almashuvi jarayoni yoritilgan. Fanni atroflicha o‘zlashtirish uchun savol va topshiriqlar, mustaqil ish mavzulari berilib, mustaqil o‘qish uchun manba va adabiyotlar tavsiya etilgan.

Darslik **7010101 Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (Tarix) mutaxassisligi** va tarix ta‘lim yo‘nalishi yo‘nalishi talabalari va o‘qituvchilari hamda qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

ISBN 978-9943-5821-9-4

© Ravshan Rajabov, 2024.

© «Zilol buloq» nashriyoti, 2024.

I bob. SIVILIZATSIYA NAZARIYASI

1-mavzu. SIVILIZATSIYALAR TUSHUNCHASI

1. Sivilizatsiya tushunchasi. 2. Lokal sivilizatsiyalar

1. Sivilizatsiya tushunchasi. Tarix fanining eng asosiy vazifasi insoniyat sivilizatsiyasini tadqiq etishdir. Tarix fani metodologiyasida insoniyatning madaniy-tarixiy taraqqiyotini katta qismlarga bo'lib organish uchun ma'lum bir metodologik tushunchalar shakllantirilgan. Bunday bilish orqali ko'pgina jamiyatlarga tegishli bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarni belgilash mumkin bo'ladi. Madaniy-tarixiy xillashtirishda to'rt asosiy mezon asos qilib olingan:

1. Ma'naviy hayotning umumiy fundamental belgilari; 2. Tarixiy-siyosiy taqdir va iqtisodiy taraqqiyotning umumiyliigi va o'zaro qaramligi; 3. Madaniyatlarning o'zaro bir-biriga bog'lanib ketgani; 4. Taraqqiyot istiqboli nuqtai-nazaridan umumiy manfaatlar va umumiy vazifalarning mavjudligi.

Ushbu mezonlar asosida fanda sivilizatsiyalarning to'rt asosiy xili ajratiladi: 1. Tabiat hamjamiyatlari (hayot kechirishning tabiat bilan uyg'unligi shakllari); 2. Sivilizatsiyaning sharqona xili; 3. Sivilizatsiyaning g'arb xili; 4. Sivilizatsiyaning zamonaviy xili.

Qadimgi Rimda "sivilizatsiya" iborasi lotincha "sivaticus"-o'rmonli, qo'pol, yovvoyi ma'nosiga qarshi qo'llanildi. Boshda sivilizatsiya so'zi uch ma'noda: 1. madaniyat-sinonimi ibtidoiy davrdan keyingi ijtimoiy taraqqiyot darajasi, 3. moddiy va madaniy ijtimoiy taraqqiyot darajasini ifoda qiladi. Italyan faylasufi Jan Batista Viko (1668-1744) alohida xitoy sivilizatsiyasi mavjudligini e'tirof etib, sivilizatsiyalarning ko'pligi g'oyasini ilgari surgan. Viko, Volter va I. Gerder asarlarida sivilizatsiya tushunchasi yetakchi bo'lmadi, ularning asarlarida lokal sivilizatsiya tushunchasi ham yo'q edi.

Sivilizatsiya tushunchasini ilk bor fanga faylasuf Adam Fergyuson (1723-1826) kiritdi. Fergyusson sivilizatsiya tushunchasida insoniyat jamiyatining taraqqiyotida ijtimoiy sinflarni, shaharlar, yozuv mavjud bo'lgan bosqichni ko'zda tutdi. Shotland olimi jahon tarixini yovvoyilik – varvarlik – sivilizatsiya bosqichlarida bo'lib davrlashtirdi. Bu g'oya

XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida fanda etirof etildi va XIX asr davomida keng tarqaldi. Fergyussonning davrlashtirishidan amerikalik etnograf Lyus Morgan o‘zining “Qadimgi jamiyat” asarida (1877) va Fridrix Engels “Oila xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi” (1884) asarini yozishda unumli foydalandila boshlandi.

Tarixiy jarayonning ko‘p xilligi tarixiy taraqqiyotning muqobil konsepsiyalarini paydo bo‘lishiga shart-sharoit yaratdi. Tarixni madaniy-tarixiy talqini (interpretasiyasi)da sivilizatsiya yondashuvi paydo bo‘ldi. Bu yondashuvga ko‘ra tarixiy jarayonning asosiy tuzilma birligi sivilizatsiya bo‘ldi. Sivilizatsiya atamasi latınca civil-shaharlik, fuqarolik, davlatchilik ma’nosidan kelib chiqdi.

Sivilizatsiya so‘zi ilk bor ikki ma’noda fransuz yozuvchisi va tarixchisi P’er Simon Ballanshenning “Chol va o‘smir” asarida (1820) ishlatildi. Keyinchalik, sharqshunos olimlar Ejen Byurnufen va Kristian Lassenening “Pali to‘g‘risida ocherk” asarlarida, olim va sayohatchi nemis Aleksandr fon Gumboltning hamda boshqa tadqiqotchilar asarlarida shunday ma’noda ishlatildi. Sivilizatsiya so‘zini lokal ma’noda, bu atamadan ko‘plikda fransuz tarixchisi Fransua Gizo foydalandi. Lekin u tarixiy taraqqiyotni chiziqli-bosqichli tarzda tushinishda qoldi.

“Sivilizatsiya” iborasi 1819-yilda ilk bor ko‘plik ma’nosida ishlatildi. Bu xalqlarning taraqqiyotida sivilizatsiyaning ko‘p xilligini tan olishdan guvohlik berdi. F.Gizo “Yevropada sivilizatsiya tarixi” (1828-yil), keyin “Fransiyada sivilizatsiya tarixi” (1830-yil), P.Bokl “Angliyada sivilizatsiya tarixi” (1857 – 1861y) nomli asarlarini sivilizatsiya ruhida yozadilar.

Sivilizatsiya iborasi universal va ko‘p ma’noli bo‘lib, bu atamani yuzga yaqin tushunchasi mavjud. Sivilizatsiya iborasi, sivilizatsiya yondashuvi va sivilizatsiyaning tizim sifatida tahlil qilish ijobiy hol bo‘ldi. Sivilizatsiyaning tarkibiy qismlarini o‘zaro bog‘langani har bir sivilizatsiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradigan yaxlit tizim sifatida tushinishga yordam beradi. Gordon Chayld sivilizatsiyani “shahar jamiyati” sifatida tushuntirib, qadimgi sharqda ilk sivilizatsiyalarni shakllanishida shaharlarni o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatib “urbanizatsiya inqilobi” tushunchasini kiritdi. Shahar, ma’muriy, hunarmandchilik-savdo, va madaniy-diniy markaz sifatida sivilizatsiyaning o‘zagini tashkil etadi. Shaharda moddiy va intellektual zahiralari to‘planadi. Shahar hudud yoki hududlarni o‘ziga tortadigan, to‘playdigan markaz, shu sababli sivilizatsiyani shaharsiz tasavvur qilish mumkin emas.

Tarixiy tadqiqotlarga “Sivilizatsiya” va “madaniyat” atamaları nisbatan yaqinda paydo bo‘ldi. Ularni fanga fransuz va ingliz ma’rifatparvarlari kiritgan deb hisoblanadi. Fransuz tarixchisi L.Fevr “sivilizatsiya”

soʻzi ilk bor fransuz matnida 1766-yil, ingliz matnida 1773-yil, “madaniyat” atamasi 1774-1793 yillar oraliqida paydo boʻldi deb taʼkidlaydi. “Madaniyat” tushunchasi mazmuni ham shunga yaqin edi. Madaniyat maʼrifat, maʼnaviy takomillashuv, inson ruhining ozod boʻlishi fan va sanʼatning rivojlanishi maʼnosini bildiradi. Vaqt oʻtishi bilan sivilizatsiyalarga koʻplab mamlakatlar va xalqlarning yaxlitligi va ularning rivojlanish darajasi sifatida qarash tushunchasi tarqala boshladi.

Sivilizatsiya tushunchasiga turlicha taʼrif beriladi: 1) Umumfalafiy-atrof-muhit bilan almashuv yoʻli bilan materiyaning barqarorligi va oʻz-oʻzini rivojlantirish qobiliyatini taminlaydigan materiya harakatining ijtimoiy shakli (kosmik tuzilma hajmida insoniyat sivilizatsiyasi); 2) Tarixiy tafakkurda – tarixiy jarayonning yaxlitligi va bu jarayon davomida insoniyatning moddiy-texnik va manaviy yutuqlari yigʻindisi (insoniyat sivilizatsiyasi); 3) Ijtimoiylikning maʼlum bir darajasiga erishish bilan bogʻlangan umumjahon tarixiy jarayoni va ijtimoiy ongning tabaqalanishiga nisbatan qaram holda oʻz-oʻzini boshqarish bosqichi; 4) Vaqt va kenglikda cheklangan jamiyat.

XX asrda tarixchilar qadimgi sharq jamiyatlarini oʻrganib, sivilizatsiya bosqichida turgan turli jamiyatlar orasida sifat jihatdan farqlar mavjud boʻlishi mumkinligini angladilar va insoniyat tarixiy taraqqiyotida bir emas, bir necha sivilizatsiyalar mavjudligini eʼtirof eta boshladilar.

Fanda sivilizatsiyalar nazariyasini rivojlantirgan madaniy-tarixiy maktab XIX asrning ikkinchi yarmida shakllana boshladi. O. Shpengler, A. Toynbi, N. Danilevskiy, P. Sorokin va A. Kreber (1861-yil, Zalsburg) va K. Yaspers sivilizatsiyalarni qiyosiy oʻrgandilar. A. Toynbi sivilizatsiyaning yaxlitlikda shakllanishida diniy etiqodning alohida oʻrnini koʻrsatdi. Sivilizatsiyalar diniy eʼtiqod, meʼmorchilik, tasviriy sanʼat, axloq va urf-odatlar yoʻnalishlarida maʼlum bir assotsiatsiyalarini keltirib chiqaradigan insoniyat hamjamiyatlarining xillarini aks ettiradi deb tasdiqlandi.

Demak sivilizatsiyalar-odamlarning eng oliy koʻrinishdagi madaniy birliklaridir. Insoniyat madaniyatining koʻp asrlik tarixida baʼzi xalqlar buyuk sivilizatsiyalarni yaratdilar. Tarixda mavjud boʻlgan sivilizatsiyalar va bu sivilizatsiyalarning mazmun-mohiyati toʻgʻrisida madaniy-tarixiy maktablar nazariyotchilari oʻrtasida nihoyasiz munozaralar muntazam davom etib kelmoqda. Olimlar sivilizatsiyaning global va lokal koʻrinishlarga ajratdilar.

2. Global yoki jahon sivilizatsiyasi – bu yer kurrasida mavjud boʻlgan, bundan 7 ming yil oldin paydo rivojlanib kelayotgan iumuminsoniyat sivilizatsiyasi. Hozirgi kunda yer yuzida mavjud boʻlgan local sivilizatsiyalarning yigʻindisi jahon sivilizatsiyasini tashkil qiladi. Lekin

u shaklan yaxlit bo'lsada, aslida mazmunan xilma-xil va turli ko'rinishda bo'ladi. Uning yaxlitligi markazida ijtimoiy-biologik birlik bo'lgan odam urug'i turadi. Odam urug'i yer sivilizatsiyasining yaratuvchisi va harakatlantiruvchi kuchidir. Hozircha yer sayyorasida odam urug'i yashar ekan bu sivilizatsiya yaxlit-bir butun bo'ladi. Boshda savdo-iqtisodiy aloqalar mamlakatlar, hududlar va qit'alarni qamrab oldi. Keyin esa madaniy-ijtimoiy, siyosiy va boshqa yo'nalishlar aloqalar boshlandi. Taraqqiyot jarayonining jadal sur'atlari mamlakatlar, millat va xalqlarning o'zaro aloqasining kuchayishi, yaqinlashib boririshi va qo'shib ketishi bilan tavsiflanadi. Bu jarayon mamlakatlar, hududlar, millatlarning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma'naviy jihatlardan bir-biri bilan yaqinlashuvida yaqqol ko'rinadi. Bilimlar va qadriyatlar yuqori axborot texnologiyalari asosida tez tarqalib, shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarning to'la qondirish imkoniyatini yaratadi. Global sivilizatsiyani tarix, sotsiologiya fanlari tadqiqi har tomonlama va izchil o'rganadi.

Bugungi kunda yer sayyorasining barcha xalqlari tarixiy taqdirining umumiyligi yaqqol ko'rinadi. Bugun davlatlar, millatlar va hududlar o'rtasida integratsiya, uning asosida globallashuv juda jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda.

Lokal sivilizatsiya iborasi ilk bor fransuz faylasufi Sharl Renuvening "Qadimgi falsafa uchun rahbarlik" (1844) asarida paydo bo'ldi. Bir necha yildan so'ng fransuz tarixchisi va yozuvchisi Josef Gobino "Inson irqining tengsizligi to'g'risida tajriba" asarida (1853-1855) 10 ta sivilizatsiyani ajratdi, qaysiki ularning har biri o'z taraqqiyot yo'lini bosib o'tadi. Sivilizatsiyalarning har biri paydo bo'lib, ertami kechmi halok bo'ladi. Ammo olimni sivilizatsiyalar o'rtasidagi madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy farqlar qiziqitirmadi. Uni faqat sivilizatsiyalar tarixida umumiy bo'lgan oqsuyak zodagonlar jamiyatining yuksalishi va halokati qiziqitirdi.

Gobinoga yaqin g'oyani nemis tarixchisi Genrix Rikkert ilgari surdi. Insoniyat tarixi bu yaxlit jarayon emas, aksincha madaniy-tarixiy organizmlarning yonma-yon kechadigan jarayonlari yig'indisi, ularni bir chiziqqa joylashtirish mumkin emas. Rikkert birinchi bor sivilizatsiyalar chegarasi, ularning o'zaro ta'siri, ularning ichidagi tuzilmalar munosabati muammolariga e'tiborni qaratdi. Shu bilan birga Rikkert butun dunyoni Yevropa ta'sir qiladigan obyekt deb qaradi. Bu yevrosentrizm g'oyasi edi. Bu uning konsepsiyasida sivilizatsiyalarga toifaviy yondashuvga, ularning to'la qiymatligi va o'ziga mosligini inkor qilish mavjudligini shartladi. Lokal sivilizatsiyalar yaxlit tizimlar bo'lib, halqasimon sikllar, qonunlar bilan rivojlanadigan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va manaviy tizim osti majmuasidan iborat.

Rus olimi N.Y. Danilevskiy o‘zining “Rossiya va Yevropa” asarida (1869) keksayib borayotgan Yevropa sivilizatsiyasiga yosh slavyan sivilizatsiyasini qarshi qo‘ydi. Slavyanparast Danilevskiy biror bir madaniy – tarixiy tip boshqalarga qaraganda yuqori rivojlangan, yuksakroq deb davol qilishi mumkin emas degan tushunchani ilgari surdi. Lekin u bu fikridan chekinib ba’zan slavyan xalqlarini g‘arbdagi qo‘shnilaridan ustun qo‘ydi.

Har bir madaniy-tarixiy tip yoki sivilizatsiya ma’lum bir bosqich yoki evolyutsiyaning fazalarini bosib o‘tadi. Har bir sivilizatsiyaning ichki evolyutsiyasi uning boshqa ijtimoiy-tarixiy tiplar bilan o‘zaro aloqasining mantig‘iga bo‘ysindirilgan bo‘ladi. A. Toynbi va N. Danilevskiy-lar talqini bo‘yicha keksaygan sivilizatsiyalar o‘limga yuz tutadi, uning o‘rniga yosh sivilizatsiyalar keladi

Lokal sivilizatsiyalar nazariyasini shakllanishida nemis faylasufi va madaniyatshunosi Osvald Shpenglarning xizmati katta bo‘ldi. U o‘zining “Yevropaning so‘nishi” asarida (1918) tarixni “Qadimgi dunyo- O‘rta asrlar - Yangi davr” ga shartli bo‘lishga qarshi chiqib, jahon tarixi – tirik organizm kabi tug‘ilish, shakllanish va o‘lish fazasini boshdan kechiradigan qator bir-biridan mustaqil madaniyatlardan iborat g‘oyasini yo‘qlab chiqdi. U yevrosentrizm nazariyasiga qarshi chiqib, tushkunlik fazasini boshdan kechirayotgan g‘arb jamiyati ham o‘zidan oldin o‘tgan misr, antik va boshqa qator sivilizatsiyalar duch kelgan so‘nishni boshdan kechiradi deb tushuntirdi. Madaniyatning halokati madaniyatdan sivilizatsiyaga o‘tish bilan tavsiflanadi. Shpengler konsepsiyasida “shakllanayotgan madaniyat” shakllangan sivilizatsiyaga qarama-qarshi qo‘yiladi. O. Shpengler dunyoning barcha madaniyatlari bir markaz-Yevropa madaniyati atrofiga aylanadi, yevropa xalqlari va g‘arbiy yevropa sivilizatsiyasi boshqa xalqlar va sivilizatsiyalar ustidan ustivorligi, madaniy sohada yevropa xalqlarining turmush tarzining boshqalardan ustun turishini, hamda Yevropaning jahon tarixida alohida o‘ringa ega ekanligi da’vosini ochiq va ochiq bo‘lmagan shaklda ilgari suradigan an’ana va siyosiy mafkuraga qarshi chiqdi. “Yevropa markaz mafkurasida” Garbiy yevropa mamlakatlari bosib o‘tgan tarixiy yo‘l yagona to‘g‘ri yo‘l yoki namunaviy deb hisoblanadi. Insoniyat tarixida mavjud bo‘lgan Yevropa, Hindiston, Bobil, Xitoy, Misr, Arab va Meksika madaniyatlari bir xil mavqeda ekanligini ta’kidladi. Ularning birortasi ustuvor o‘rinni egallamaydi. Ammo barchasi tarixning umumiy manzarasida bir xil ahamiyatga ega. Buning ustiga ularning ma’naviy konsepsiyalari va yuksalish qudratining ulug‘vorligi ko‘p hollarda “yevropa markaz” goyasi ellin ulug‘vorligidan yuqori bo‘ladi. Har bir buyuk madaniyatning o‘z birinchi obrazi, sof

ko‘rinishi yoki mukammal shakli va ifori mavjud. Ularning har birida dunyoni alohida his qilish, alohida istak, umid va qiziqishlar xos.

Fanda garb olimlari tomonidan qadimgi yunon madaniyatining nihoyasi Qadimgi Rim sivilizatsiyasi bo‘ladi degan goya ilgari suriladi. Aslida bu ikki madaniyat boshqa-boshqa madaniyat. Qadimgi yunon sivilizatsiyasi qisqa vaqt mil. avv-VIII-IV asrlarda alohida shaharlar shaklida mavjud bo‘ldi va mil. avv IV asrda halok bo‘ldi. Qadimgi Rim sivilizatsiyasi esa qadimgi sharqning ko‘p ming yillik buyuk madaniyati yutuqlarini o‘zlashtirib, o‘ziga xos ulug‘vor va qariyb ming yil davom etgan o‘ziga xos ulug‘vor sivilizatsiyani yaratdi. Zamonaviy G‘arbiy Yevropa sivilizatsiyasi takrorlanmas va vaqt bo‘yicha cheklangan noyob hodisa sifatida IX asrda tug‘iladi, XV-XVIII asrlarda o‘z yuksalishini boshdan kechiradi, XIX asrda sivilizatsiyaning qarishi bilan u “so‘na” boshlaydi.

Ingliz tarixchisi Arnold Toynbi lokal sivilizatsiyalar nazariyasini rivojlantirdi. A. Toynbi lokal sivilizatsiyalar to‘g‘risida (1934-1961-yillarda yozilgan) “A study of History” (“Tarixni tushunish”-“Постыжение истории”) nomli 12 jildli asarida batafsil tavsif beradi. U insoniyat tarixini qator bir-biridan mustaqil lokal sivilizatsiyalarga ajratdi. Bu sivilizatsiyalar taraqqiyotning bir xil ichki ko‘rinishiga ega. Sivilizatsiyalarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va tushkunligi tashqi ilohiy turtki va energiya, chaqiriq va javob, ketish va qaytish omillari bilan tavsiflanadi. A. Toynbi lokal sivilizatsiyalarni turli xil madaniy-tarixiy tuzumlar sifatida tushuntirib, ularga evolyutsiya ko‘rinishidagi dinamik tuzilma deb qaradi. Lokal sivilizatsiyalar-umumiy taqdir bilan bog‘langan umumtarixiy progressning ritmida sinadigan va aks etadigan, ba’zida uning epitsentrida, ba’zida undan uzoqlashadigan alohida mamlakatlar, mamlakatlar guruhi va etnoslarning iqtisodiy-geografik, diniy, etnik, madaniy-tarixiy o‘ziga xosliklarini ifodalaydi. Har bir lokal sivilizatsiya o‘ziga xosligi, jahon sivilizatsiyalari ritmi bilan u yoki bu darajada mos bo‘lgan o‘z ritmiga ega.

Toynbi o‘tmish tarixni o‘rganish asosida bu uchinchi avlod sivilizatsiyalar, ularning har birida birinchi va ikkinchi avlod o‘tgan, deb xulosa chiqardi. U jahon tarixida mavjud bo‘lgan 37 sivilizatsiyadan 21 tasini sinchiklab o‘rgandi va insoniyat tarixining keyingi 6 ming yilini tasvirladi. “O‘z o‘tmishdoshlarining qisqa hayot kechirgan, hududiy cheklangan va kam sonli ibtidoiy jamiyatlariga nisbatan sivilizatsiyalar hayoti davomiyroq, ular keng hududlarni egallaydi, sivilizatsiyalarni qamrab olgan odamlar soni odatda ko‘ra ulkan. Ular boshqa jamiyatlarni assimilyatsiya qilish va bo‘ysundirish yo‘li bilan tarqalish an‘anasiga ega”. (50. k. 80).

Sivilizatsiyalar asta-sekin rivojlanadi, o'zining hayotiy sikliga ega. Ular statik formatsiyalarni emas, evolyutsiya tipidagi dinamik tashkilotni o'zida aks ettiradi. (o'sha joyda 87-bet) Ularning har biri o'z taraqqiyotida paydo bo'lish (genezis), o'sish, buzilish va yemirilish fazalarini bosib o'tadi. To'rt yoki besh ming yilliklar davomida sivilizatsiyalarning yemirilishini umumiy va keng tarqalishi sababi hududiy ekspansiyaning oqibati, ijtimoiy hayotning harbiylashuvi (militarizm)dir. Militarizm lokal davlatlarni o'zaro urushlarga tortib, sivilizatsiyani yemiradi. Ijtimoiy yemirilish geografik ekspansiya uchun qulay shart-sharoit bo'ladi. "Tushkunlikni boshidan kechirayotgan jamiyat o'z hayotiy kuchlarini ulkan hajmdagi moddiy loyihalarga yo'naltirish bilan o'z o'limining kuni va soatini orqaga surishga harakat qiladi. Bu olamda hukm qilingan o'z layoqatsizligi va o'lim taqdirini, o'layotgan ongini aldashga urinish demakdir."

A. Toynbi hozirgi kunda hayot bo'lgan quyidagi sivilizatsiyalarni ko'rsatadi: 1. G'arb xristianlari birlashgan G'arb jamiyati; 2. Janubiy-Sharqiy Yevropa va Rossiyada joylashgan pravoslav-xristian yoki Vizantiya jamiyati; 3. Shimoliy Afrika va O'rta Sharqdan buyuk Xitoy devorigacha bo'lgan Islom jamiyati. 4. Tropik va subkontinental Hindistonda hinduizm jamiyati; 5. Janubi-Sharqiy Osiyoning subtropik va mo'tadil hududlaridagi Uzoq Sharq jamiyati.

A. Toynbi lokal sivilizatsiyalarning yemirilish mexanizmini ochib beradi. U "Atrof-muhit ustidan hokimiyatni mustahkamlanib borishi bilan o'sish emas, buzilish va yemirilish jarayoni boshlanadi. Bu ichki urushlar eskalatsiyasida ko'rinadi. Urushlarni davom etishi buzilishga olib boradi, u kuchayib, yemirilishga o'tadi" deb ta'kidlaydi.

Ijtimoiy darz ketishlar, yemirilishlar kuchayadi. Jamiyatning barcha qatlamlarida aynish-yemirilish boshlanadi. Buzilish lahzasida turg'unlik boshlanadi va yana vaqtinchalik jonlanish keladi. Bu universal davlatga asos solinish lahzasi bilan mos keladi. Lekin bu jarayon o'z navbatida yangi turg'unlikni bildiradigan buzilish bilan tugaydi, uni ortidan jonlanish boshlanmay, so'nggi yemirilish keladi."

Sivilizatsiyalarning yemirilishida tashqi ta'sirlar sezilarli rol o'ynashi mumkin. Toynbi aytgan tashqi proletariat ko'p hollarda stagnatsiyadagi jamiyat chegaralarini portlatadi. Toynbi konsepsiyasida lokal sivilizatsiyalarning hayotiy sikllarining to'la qiyofasi, uning almashinuv mexanizmlari asoslab beriladi. Katta tarixiy burilishda lokal sivilizatsiyalarning differentsiatsiyasi jarayoni kuchayadi, ularning ba'zilar buzilish va yemirilish bosqichlarida turadi. Bu amerikalik professor S.Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" kitobida (1997-yil chop etilgan) ke-

lajakdagi urushlar sivilizatsiyalar urushi bo‘ladi deb bashorat qilishiga asos bo‘ldi

XX asr oxirida S.Xantington “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” nomli asarida A.Toynbining sivilizatsiyalarning o‘xshashligi mezonlarini o‘zlashtirib oldi va Toynbi sivilizatsiyada diniy e‘tiqodlarning o‘rniga asosiy e‘tibor berdi deb ko‘rsatdi.S.Xantington ham Toynbi kabi hozirgi dunyoda sakkiz: g‘arb, konfutsiylik, yapon, islom, hind, provaslav-slavyan, Lotin Amerikasi va Afrika sivilizatsiyalarining mavjudligini qayd qiladi. Uning fikricha, xalqaro kun tartibida sivilizatsiyalararo munosabatlar muammosi asta-sekin birinchi o‘ringa chiqadi. Harbiy qurollar, asosan, ommaviy qirg‘in qurollari muammolari, inson huquqlari va aholi migratsiyasi masalalari bu muammolar tarkibiga kiradi. Hozirgi globalashuv va integratsiya jarayonlari kuchayib borayotgan bir paytda garb sivilizatsiyasida yemirilish, aynish yaqqol ko‘rinmoqda deb ta‘kidlaydi olim. Xantington axborot texnologiyalari, yuqori texnologiyalar va jahon hamjamiyati hozirgi sivilizatsiyaning tushkinligini bartaraf qilishi uchun quyidagi tamoyillarga rioya qilishishart deb hisoblaydi: Rivojlangan mamlakatlar rivojlanayotgan va qashshoq mamlakatlarga nisbatan ekspansiyasidan voz kechishi; rivojlanayotgan va qashshoq mamlakatlarni barqaror rivojlanishiga komaklashuvi; ekologik muammoni hal qilishda barcha mamlakatlarni o‘zaro hamkorligini ta‘minlash; yuqumli kasalliklar, qashshoqlikga qarshi kurashda uzoqqa mo‘ljallangan hayotiy dasturlarni tizimli va ta‘sirli tadbirini ta‘minlash kerak bo‘ladi.

Tabiat hamjamiyatlari. Insoniyat sivilizatsiyasining ibtidosi insonning bolalik davri ibtidoiy jamoa davridan boshlanadi. Hozirgi vaqtda Hind okeani orollari, Avstraliyaning ichki tumanlari, Braziliyaning tropik o‘rmonlari va Afrikada paleolit davri sharoitida yashab turgan urug‘-qabilalar mavjud. Olimlar ming yillar davomida paleolit texnologiyalaridan foydalanib,tabiat qo‘ynida u bilan uyg‘un yashab kelayotgan urug‘-qabilalarni **Tabiat hamjamiyatlari** sirasiga kiritdilar.Tabiat hamjamiyatlariga tarixan tabiat yil sikllari doirasida hayot kechiradigan turli etnos, xalq, elat va urug‘-qabilalar kiradi. Sivilizatsiyaning bu xilida yashaydigan xalqlar tarixiy vaqtdan tashqarida yashaydilar. Bu xalqlarning ijtimoiy ongida o‘tmish va kelajak mavjud emas. Ular uchun bugun o‘tayotgan vaqt va mifologik vaqt mavjud. Mifologik vaqtda ilohlar va vafot etgan ajdodlar yashaydi. Bu xalqlar hayot kechirish va uni qayta tug‘ilishi uchun zarur atrof-muhitga o‘ta yuqori darajada moslashib ketganlar. Ular o‘zlarini hayot kechirish maqsadlarini, uning mazmun-mohiyatini, inson va tabiat o‘rtasidagi juda mo‘rt uyg‘unlikni, tabiat bilan uyg‘unlikni buz-

maydigan urf-odat, an'analarni, mehnat usullarini saqlab qolishda deb biladilar.

Hamjamiyatning butum hayoti tabiat sikliga bo'ysundirilgan. Odamlar ko'chmanchi yoki yarim ko'chmanchi-turmush tarzida hayot kechiradilar. Ma'naviy madaniyat tabiat kuchlarini (olov, tuproq, quyosh, suv, shamol) ilohiylashtirish bilan bog'langan. Tabiatni ilohiy kuchlari va hamjamiyat o'rtasidagi aloqani urug'-qabila oqsoqollari hamda kohinlar (shomon, afsungar) bajaradi ushbu hamjamiyatda. Dunyoni tafakkur va hissiy o'zlashtirish vositasi sifatida mifologiya chiqadi. Afsonani qabul qilish obraz-yaxlit ko'rgazmali tuzilma orqali amalga oshiriladi. Hamjamiyat o'ta an'anaviylik bilan sug'orilgan, o'zgarishlar yopiq doira ichida sodir bo'ladi, olg'a tashlangan taraqqiyot mavjud emas. Allazamonlarda o'rnatilgan tartib-qoidalarini o'zgarimasligi uchun tadqiqat tizimi – tabu muntazam qo'llab-quvvatlanadi. Qat'iy va mustahkam tabu – bu har qanday o'zgarishlarga qo'yilgan to'siq. Ijtimoiy tashkilotga jamoaviylik: urug', qabila, hukmronlik qiladi. Hamjamiyatda boshqaruv urf-odat, an'analarga asoslanib ish ko'radigan urug' oqsoqoli orqali amalga oshiriladi. Yo'lboshchi saylab qo'yiladi yoki merosiy bo'ladi.

Nemis faylasufi K. Yaspers ham sivilizatsiyalar tarixini tahlil qilib, qadimgi sharq sivilizatsiyalari taraqqiyoti davrini tarixgacha bo'lgan bosqich deb hisoblaydi. Insoniyatning ma'naviy asoslari mil. avv. VIII-II asrlarda qo'yildi deb ta'kidlaydi. Bu vaqtni u "tayanch vaqt" deb belgilaydi.

Sharq sivilizatsiyasi. Insoniyat tarixidagi ilk sivilizatsiyalar sharqda mil.avv. IV-III ming yilliklarda Old Osiyo, Hindiston, Xitoy, O'rta Osiyo va Eronda shakllangan. Hozirgi kungacha mavjud bo'lgan sharq sivilizatsiyasi ko'p qirrali boy mazmunga ega. Sharq sivilizatsiyasining mazmun mohiyati bir necha ming yillar davomida shakllanib uning qadriyatlarini shakllanib umuminsoniyat qadriyatlarining o'zagini tashkil etadi. Qadimgi va o'rta asrlar Sharq sivilizatsiyasiga xos xususiyatlar:

1. An'anaviylik, turmush-tarzi va ijtimoiy tuzilmalarning hayotiy shakllarini qayta ishlab-chiqarish va saqlash;
2. Inson hayot faoliyatining barcha shakllarini o'ta barqarorligi, sokinligi, bir maromdagi va zaif turli xillik;
3. Tabiat ilohlarning kuch-qudrati irodasiga irodasiga qaramlik, o'z faoliyati, taqdirini oldindan belgilab qo'yilishiga ishonish;
4. Insonning ma'naviyati, iroda kuchini dunyoni bilish va shu asosda o'zgartirishga emas, balki xayolotga berilish, itoatkorlik, tabiat bilan mistik yaxlitlik, ichki ma'naviy hayotga bor vujudini jalb qilish;
5. Shaxsiy-individuallikning rivojlanmagani. Ijtimoiy hayotning jamoaviy birdamlikka yo'naltirilgani;
6. Hayotning siyosiy tashkiloti-mutlaq monarxiya, davlat hokimiyatining jamiyat ustidan to'la hukmronligi yoki kuchli ta'siri. Hayotning

iqtisodiy asosi jamoa mulki va davlat mulkiga asoslangani. Xususiyl mulkning qonun bo'yicha to'la himoyalanganmagani. Sharq sivilizatsiyasida garb olimlari mutlaq monarxiyaning o'rnini bo'rttirib ko'rsatadilar. Aslida esa sharqda hukmdorning mutlaq hokimiyati diniy va boshqa jamoa tashkilotlari orqali qat'iy nazorat ostiga olingan. Hukmdor ushbu tashkilotlarning fikrini e'tiborga olishga majbur bo'lgan. Sharq sivilizatsiyasi mil. avv. IV ming yillikda boshlanib uzoq yashab keldi.

Sharq sivilizatsiyasi XX asrgacha tabiat bilan uygunlikda rivojlandi va yashadi. Lekin Osiyoga garbning ekspansiyasi natijasida garbning xomashyo bazasi va arzon ishchi kuchi o'chogiga aylangan Osiyo sivilizatsiyasining tabiat bilan uyg'unligi buzildi. Shu bilan birga turmush tarzi ham o'zgara bordi va garb sivilizatsiyasining kuchli ta'siri hamda bosimi o'stiga tushib qoldi. Bu bosim oqibatida ko'hna sharqning qadriyatlari yemirila boshlandi. Lekin sharqqa xos an'anaviylik, madaniy-ma'naviy qadriyatlarga sodiqlik, jamoaviylik hozirgacha saqlanib kelmoqda.

G'arb sivilizatsiyasi. G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikaning madaniy-tarixiy taraqqiyotining ma'lum bir bosqichlarini o'z ichiga olgan sivilizatsiya xili. Bu sivilizatsiyaga texnika va texnologiya taraqqiyoti kuchli ta'sir o'tkazdi va bu ta'sir ostida uning asosiy qadriyatlari shakllandi. Tarix falsafasi vakili Maks Veber g'arb sivilizatsiyasining qadriyatlarini quyidagicha belgilaydi: 1. Yangilikka intilish, dinamizm; 2. Inson shaxsiga hurmat, uning manfaatlarini ustuvorligini e'tirofi; 3. Individuallik, shaxs avtonomiyasiga yo'nalganlik; 4. Ratsionallik; 5. Erkinlik, tenglik, bag'rikenglik; 6. Xususiyl mulkka hurmat; 7. Demokratiyani boshqa davlat boshqaruvidan afzal ko'rilishi. G'arb sivilizatsiyasi ma'lum bir taraqqiyot bosqichida texnogen sivilizatsiya tusini oladi.

G'arb sivilizatsiyasining qadriyatlarini boshqa sivilizatsiyalarning qadriyatlariga qarshi qo'yilmasligi hozirgi kunning dolzarb vazifasi bo'ladi. Chunki g'arb sivilizatsiyasining qadriyatlari ko'pincha boshqa sivilizatsiyalarga qarshi qo'yiladi. Misol uchun musul'mon sivilizatsiyasidagi mavjud asriy qadriyatlardan ayollarga munosabat, an'anaviy turmush tarziga nisbatan bosim o'tkazish yaqqol ko'rinadi. Har bir sivilizatsiya o'z qadriyatlari asosida yashash huquqiga ega. G'arb sivilizatsiyasi o'z siyosiy-iqtisodiy manfaatlarini amalga oshirish maqsadida boshqa sivilizatsiyalarni ichidan buzishga harakat qiladi. G'arb mafkuraviy ta'sir o'tkazishning qudratli vositalari OAV, internet va boshqa vositalardan unumli foydalanadi.

Texnogen sivilizatsiya. Bu sivilizatsiya XV-XVII asrlarda, Gʻarbiy Yevropada sivilizatsiyaning alohida koʻrinishi sifatida shakllanib, XX asrgacha dunyoning boshqa hududlariga tarqaldi. Bu madaniyatning asosiy belgisi ilmiy ratsionallik, inson tafakkuri va ilmiy-texnika inqilobi ustuvor qadriyat boʻladi. Texnogen sivilizatsiyada fan va ilmning yetakchi oʻrni yaqqol koʻrindi. Fan va inson bilimi-tafakkuriga asoslangan iqtisodiy infrastruktura jamiyatning boshqa sohalarini oʻz taʼsiri ostiga olib ularning taraqqiyotini mazmun mohiyatini belgiladi. Texnogen sivilizatsiyaning oʻziga xos belgilari: 1. Ishlab-chiqarishda ilmiy-texnika inqilobining tizimli tadbiq etilishi natijasida texnika va texnologiyaning jadal oʻzgarishi; 2. Fan va ishlab-chiqarishni qoʻshilishi natijasida ilmiy-texnika inqilobi sodir boʻladi. Bu inqilob inson va tabiatning oʻzaro munosabatini oʻzgartirdi, odamning ishlab-chiqarishdagi oʻrni ham oʻzgardi; 3. Texnogen sivilizatsiya insonning turmush-tarzini oʻzgartirdi, shaxsning yangi qiyofasi shakllandi. Bu sivilizatsiya asosida oldin industrial, keyin post industrial sivilizatsiya shakllandi.

Sivilizatsiya yondashuvi. Hozirgacha insoniyat sivilizatsiyasini oʻrganishda sobiq SSSR respublikalarida tarixni oʻrganishning markcha metodologiyasi hukmron edi. Koʻpchilik olimlar insoniyat taraqqiyotining mazmun-mohiyatini sivilizatsiya yondashuvi asosida oʻrganishga asoslanadilar. Bu yondashuv asosida insoniyatning oʻtmishini oʻrganish natijasida odamlar tarixini oʻrganish yaʼni tarixni insoniylashuvi yuz beradi. **Inson tarixining boshlanishi va nihoyasi goyasi** asosida insoniyat oʻtmish taraqqiyotini sivilizatsiya yondashuvi asosida oʻrganish metodining asosi boʻladi. Bu universal metod, chunki bu metod insoniyat jamiyati tarixini organishda barcha mamlakatlar va hududlarni hisobga olishga asoslanadi. Insoniyatning tarixiy taraqqiyotini tadqiq qilganda sivilizatsiya tamoyillari asosida mamlakat yoki mamlakatlar guruhi ilmiylik, xolislik va tarixiylik tamoyillari asosida oʻrganiladi. Bu yondashuv tarixiy jarayonlarni, ularning oʻziga xos xususiyatlarini chuqur tushunish, har bir jamiyatni oʻz qadriyatlariga egaligi va uning insoniyat sivilizatsiyasidagi munosib oʻrni aniqlashga yordam beradi. Sivilizatsiya yondashuvi asosida tarixni oʻrganishning eng qimmatli nufuzi tarixni koʻp xillikda, koʻp chiziqli jarayon sifatida qarashdir.

Sivilizatsiya yondashuvi asosida tarixiy jarayonni tushunishda maʼnaviy-axloqiy va intellektual omillar yaʼni diniy eʼtiqod, madaniyat va xalqlarning mentalitetiga tegishli orin ajratiladi. M.A.Barg insoniyat taraqqiyotini sivilizatsiya yondashuvi asosida oʻrganishni boshqa qa-

rashlardan asosiy farqini quyidagicha tushuntirdi: Har qanday tarixiy davrni “ uning mazmun-mohiyatini inson o‘lchovi orqali” ochsa bo‘ladi. M.A. Bargning fikri bo‘yicha, sivilizatsiya yondashuvi tadqiqotchini “tarix sub’yektini obyektivlashtirishning barcha shakllari orqali” bilishga yo‘naltiradi. Sivilizatsiyalar konsepsiyasi tarixning obyektiv va subyektiv jihatlarini qo‘shgan holda ilk bor tarixning o‘z metodologiyasini qurish imkoniyatini ochadi. Ushbu metodologiya tarixiy jarayonni xolisiy tahlili va subyektiv iroda boshlanishini dinamik ko‘rinishda tasavvur qilishga imkon beradi. Insonni u yoki bu (iqtisodiy, sinfiy, siyosiy va boshqa) farqlar bo‘yicha emas, balki uni yaxlitligicha qarashga imkon beradi. Sivilizatsiya yondashuvi yer kurrasining turli hududlarini ijtimoiy-tarixiy evolyutsiyasi yo‘llarini ko‘p xilligini ko‘rish va o‘rganish imkoniyatini ochadi.

Hozirgi kunda mavjud bo‘lgan jamiyatlarning otmishi, buguni va yaqin kelajagini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu sivilizatsiyalar milliy va umuminsoniy qadriyatlariga asoslangani uchun ularni saqlab qolish va zamonga mos rivojlanishini taminlashda sivilizatsiyalarni tarixiy huqta nazardan organish muhim vazifa boladi. Hozirgi vaqtda turli sivilizatsiyalarning yonma yon mustaqil yashashi, bir biriga nisbatan ozaro hurmatni saqlab qolishi insoniyat sivilizatsiyasining barqarorligi va yaxlitligini ta‘minlash omili bo‘lib xizmat qiladi.

Tayanch iboralar. A. Toynbi, local, texnogen, daryo sivilizatsiyasi, yaxlit jarayon, “Rossiya va Yevropa “asari, Simon Ballanshen, oxirgi ming yillik sivilizatsiyalari yemirilish, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya

Takrorlash uchun savollar

1. Jahon sivilizatsiyasi tushunchasini ochib bering.
2. Lokal sivilizatsiyalar konsepsiyasini tadqiqotchilarini ayting.
3. Sivilizatsiyaing to‘rt korinishini tavsiflang
4. O. Shpengler va Toynbi konsepsiyalarini qiyosiy tafsiflang.

Mustaqil ish mavzulari

1. Sivilizatsiyalar tushunchasi
2. A. Toynbining local sivilizatsiyalar nazariyasi. Jahon sivilizatsiyalarining almashinuv konsepsiyasi.
3. Osvald Shpenglarning “Yevropaning halokati” asari.
4. Jahon sivilizatsiyasining mazmun mohiyati

2-mavzu. SIVILIZATSIYA TUZILMASI

1. Inson, oila, xalq, aholi. 2. Ishlab-chiqarishining texnologik usuli. 3. Ishlab chiqarishning iqtisodiy usuli, Iqtisodiy (ishlab-chiqarish) munosabatlari tuzilmasi. 4. Ijtimoiy-siyosiy tuzima. 5. Insonning ma'naviy dunyosi, ijtimoiy ongining tuzilishi

Har qanday sivilizatsiya o'zining tizim va tuzilmasiga ega bo'ladi. Sivilizatsiyalar muntazam o'zgarishda bo'lib tizimli o'zgarishlar, zamonga mos tizimli yangi mazmun-mohiyatni shakllantiradi. Bu tuzilma umumiy mazmunga ega bo'lib, tuzilma shaklan o'zgarishi mumkin. Lekin mazmun o'zgarmaydi balki taraqqiyotga mos holda boyib boradi.

Sivilizatsiyani tashkil topgan yaxlit bir tuzilma, tirik organism-tuzilma sifatida quyidagicha tasavvur qilish mumkin: 1. Inson, oila, xalq, aholi 2. Ishlab-chiqarishining texnologik uslubi. 3. Ishlab chiqarishning iqtisodiy usuli, iqtisodiy (ishlab-chiqarish) munosabatlari tuzilmasi 4. Ijtimoiy-siyosiy tuzilma 5. Insonning ma'naviy dunyosi.

1. Inson, oila, xalq, aholi. Sivilizatsiyaning poydevori – inson, oila, xalq, aholi bo'ladi. Insoiyat sivilizatsiyasining markazida uning yaratuvchisi inson turadi. Hazrati inson ma'lum bir bilim, mafkuragaga asoslanib sivilizatsiyani quradi. Inson tabiatning mahsuli va u biologik va ijtimoiy mavjudot. Odam o'zini yaratgan tabiatdan ajralib, o'zining sun'iy dunyosini yaratdi. Oz jamiyatini barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladigan va o'ziga mos bo'lgan qonun-qoidalarini yaratdi. Inson nafaqat bu qonunlarga bo'ysunadi, balki ulardan o'z maqsadlarida foydalanadi.

Insoniyatning ikki yoqlamaligi, jism va ruhning intilishlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni rimlik tarixchi Gay Sallyustiy Krisp mil. avv. I asrda shunday ta'kidlagan edi: "Barcha bizning mavjudligimiz jism va ruhga bo'linadi. Ruh odatda hukmronlik qiladi, jism xizmat qiladi va bo'ysunadi. Xudolar bilan teng ruhga egalik qilamiz, jismga-hayvon bilan." (23. k.35.) Insondagi jismoniy va ruhiylik asoslari bir-birizsiz yashashi mumkin emas. Lekin ulardan har biri o'z shaxsiy, insonning hayotiy sikl, fazalari bilan o'zaro bog'langan qonun bo'yicha rivojlanadi. Insoniyatning ko'p ming yillik tarixi davomida odamning gavda va fiziologik xususiyatlari biologik tur sifatida deyarli o'zgarmadi. Lekin insonning ma'naviy dunyosi, ayniqsa, uning bilim doirasi va malakasi, ularni ta'lim tizimi orqali uzatish ko'p marta boyidi. Inson evolyutsiyasi

jarayoni borishida urug' jamoasining maqsadli faoliyati davomida moddiy va ma'naviy madaniyat rivojlanib bordi. Odam o'z mehnat faoliyati jarayonida moddiy madaniyatni unsurlari bo'lgan buyumlarni tobora ko'proq yarata boshladi

Bilim darajalari, estetik baholari, axloqiy qoidalari, ma'lumot darajalari bilan turli odamlar, ularning guruhlari o'z saviyasi bilan farq qiladilar. Har bir kishi individual, takrorlanmas, u hazrati inson, noyob qobilyatlar egasi. Jamiyatsiz odam yo'q, odamsiz jamiyat yo'q. Jamiyat tarixi-bu ko'pgina odamlarning, ularning taqdirining, anglangan harakatlarning tarixidir. Sivilizatsiyalar tarixi, odamlar tarixi jamiyatning o'zgarishidagi bosqichlar-bu izchil, to'la, ziddiyatli hamkorlik va ko'pgina shaxslarning kurashidir. Ularning ongi va faoliyatida tarixiy qonuniyat yaqqol ko'rinadi, merosiy genotip saqlanib qoladi va boyiydi. Insonlarning maqsadli faoliyati tufayli jamiyatning bir tarixiy bosqichdan boshqasiga o'tishi yuz beradi. Inson ruhiyati qadimdan hozirgacha o'rganilib kelinadi, lekin uning ko'p qirralari oxirigacha ochilgani yo'q. Yakka bir odam ko'p qiyofali, o'zgaruvchan, ba'zida sirli va u o'z xatti-harakati va intilishlarini o'zi yoki boshqalar tushunaolmaydi, lekin aynan millionlab va milliardlab individlarning hamkorligi va qarama-qarshiligidan taraqqiyot yuz beradi.

Oila ikki jinsning nikoh asosida birgalikda yashashi asosida tashkil topadi. Oila barcha ijtimoiy-etnik birliklar (urug', qabila, elat, xalq, millat)ning asosi bo'ldi. Oila jamiyatning birlamchi bo'g'ini, uning molekulasi bo'ldi. Oila insoniyat urug'ining saqlanib qolishi va rivojlanishining asosiy omilidir. Aynan oilada odamning biosotsial genotipini takror ishlab chiqarish amalga oshadi. Oilada odamlar avlodining almashuvi yuz beradi. Avlodlar almashuvi sivilizatsiyaning jonli organism ekanligini va uni faoliyatini uzluksizligini ta'minlaydi. Oilada odam asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondiriladi, boshlang'ich bilim va ko'nikmalarni o'rtiriladi. Oilada insonning irodasi va qiziqishlari shakllanadi.

Oila ijtimoiy takror ishlab chiqarishning boshlang'ich va oxirgi nuqtasidir. Oilaga jamiyatda yuz berayotgan barcha jarayonlar o'z ta'sirini o'tkazadi. Oila har qanday noqulay sharoitda o'zini saqlab qolishga harakat qiladi. Oilaning buzilishi oxir-oqibatda jamiyatning aynishi va halokatiga olib keladi. Insoniyatning ijtimoiy taraqqiyoti davomida oila ozgarib bordi. Ilk bor haram oila, qon-qarindosh oila, juft oila va patriarxal oila ko'rinishlari shakllandi. Sivilizatsiyalar tarixi neolit davrida monogam (yaqin qarindoshlarning bir necha avlodlarini o'z tarkibiga olgan katta oila) oilani ijtimoiy-iqtisodiy birlik sifatida shakllanishidan bosh-

landi. Yangi sivilizatsiya boshlanishi bilan oilaning tarkibi va funksiyasi, uning moddiy va ma'naviy takror ishlab chiqarishdagi o'rni o'zgaradi.

Oilada ijtimoiy qayta ishlab chiqarishning maqsad va mohiyati amalga oshiriladi. Hozirgi jamiyatda uy xo'jaligida foydali mehnatning 30-40%igacha sarflanadi. Shaxsiy tomorqa xo'jaligida oila iste'mol qiladigan oziq-ovqatning bir qismi yaratiladi. Uyda esa shaxsiy xizmatlar (uyni tozalash, ovqat tayyorlash, kir yuvish, tarbiya, ta'mirlash va boshqalar)ning asosiy qismi amalga oshiriladi. Oila kop' qamrovli ijtimoiy funksiyalarni bajaradi. Inson individ, shaxs sifatida o'zining ma'naviy dunyosiga ega. Inson oiladan, jamiyatdan axborot oqimi va energiyani simirib oluvchi, bu oqimlarni o'zgartirilgan holda takrorlab beruvchidir. Oilalarning to'plami demokratik qonunlar bo'yicha rivojlanadigan, jamiyatning ehtiyojlari tuzilishi va umumiy hajmini belgilaydigan xalq aholini tashkil qiladi.

Urug'. Paleolit davrida bir necha qon-qarindosh oilalar bir urug'ga birlashdilar. Urug' bir joyda yashab, uning mashguloti, mehnat qurollari, olingan o'lja, mahsulot umumiy edi.

Qabila. Etnosning ilk shakli qabila bo'lgan. Qabila bir hududda yashab o'z tiliga ega bo'ladi. Har bir qabilada o'zining yo'lbo'shchisi, eng muhim masalalarni muhokama qiladigan qabila kengashi mavjud edi. Qabilaning o'z urf-odat, an'analari shakllandi. Bir hududda yashagan bir necha urug'lar qabilaga birlashdilar. Ularning kelib chiqishi, tili, xo'jalik mashg'uloti bir xil edi.

Etnos. Etnos kelib chiqishi bir urug'-qabiladan bo'lgan, ma'lum bir hududda yashab umumiy xo'jalik va til-madaniyat va tarixga ega bo'lgan odamlarning birligi. Har bir etnosning o'ziga xos turmush tarzi, xo'jalik hayoti tili va madaniyati uzoq vaqt davomida tabiiy-iqlim sharoiti, yashash hududi, tarixiy o'tmishi kabi omillar ta'siri ostida shakllanadi. Etnosga uzoq vaqt yashagan geografik joyi, tabiiy-iqlim sharoitlari uning xo'jalik hayoti, turmush tarzi, tashqi qiyofasi va xarakteriga ta'sir qiladi.

Ba'zi etnologlar, etnoslarning ikki ko'rinishini belgilaydilar: faqat madaniy til birligiga ega bo'lgan (etnikoslar) va ijtimoiy-potestar (lotin tilida potestus-hokimiyat, etnologiyada-davlatgacha bo'lgan jamiyatda hokimiyatni tashkillashtirish) tashkilot bilan bog'langan birlik (etno-ijtimoiy organizmlar). Ibtidoiy jamoaning ilk davrida eng qadimgi etnoslar – qabilalar mavjud edi. Lekin ular hali etno-ijtimoiy organizm bo'lmay, etnikos edilar.

Elat. Urug'-qabilachilik munosabatlarining rivojlanishi jarayonida etnosning bir ko'rinishi elat shakllandi. Til, xo'jalik hayoti bir xil bo'lgan bir necha urug'-qabila yoki bir qabilani tabiiy ko'payishi jarayonida elat

shakllanadi. Elat urug‘-qabiladan yuqori turgan etnik birlik bo‘lib, unga bir hududga yashagan qon-qarindosh bo‘lgan urug‘-qabilalar bir tilda gaplashib, bir xil xo‘jalik va urf-odat, an‘analarga ega bo‘ldilar.

Xalq. Tarixiy taraqqiyot jarayonida madaniyati, hududi, diniy e‘tiqodi, tili, umumiy tarixiy o‘tmishining yaxlitligi bilan farqlanadigan madaniy-etnik birlik. Xalq son jihatdan elatdan katta bo‘lib tili, ijtimoiy ruhiyati, urf-odati va an‘analarining yaxlit holda madaniyatda mujassam bo‘lishi bilan ajralib turadi. Xalq iborasi siyosiy ma‘noda ham ishlatiladi.

Millat – umumiy kelib chiqishi, umumiy muassasalari, iqtisodiyoti, madaniyati ijtimoiy ruhiyati, turmush tarsi, yagona hududga ega bo‘lgan odamlarning katta uyushmasidir. Millatlarning ko‘pchiligi o‘z davlatchiligiga ega. Davlat va jamiyatni taraqqiyotida millat muhim o‘rin tutadi. O‘zligini anglagan millat ma‘naviy-madaniy jihatdan mustahkam va kuchli bo‘ladi. Millat milliy g‘urur, irodani o‘z ichiga olgan milliy qadriyatlarga ega bo‘ladi. Milliy qadriyatlar, milliy g‘urur va iroda millatni harakatga keltiradigan kuch bo‘lib bo‘lib xizmat qiladi. Millatga xos xususiyatlar: yagona tarix va hudud, umumiy iqtisodiy tizim, yagona til-milliy ruh, birdamlik tuyg‘usi.

2. Ishlab-chiqarishining texnologik usubi. Har qanday sivilizatsiya yashashi uchun moddiy ne‘matlarni ishlab chiqarishga majbur bo‘ladi va ishlab-chiqarishni tashkil etishda ma‘lum bir texnologiyalardan foydalanadi. Texnologiya – inson faoliyatida foydalanadigan texnologiyalar, ishlab chiqarishning tashkil etilishining shakl va tamoyillari, ishlab chiqarishda foydalaniladigan asbob-uskuna va dastgohlar hamda tabiiy ishlab chiqarish kuchlari to‘plamidir. Arxeologlar insoniyat tarixining ilk bosqichlarini mehnat qurollari tayyorlanadigan (tosh, jez, temir) xomashyoga ko‘ra alohida davrlarga bo‘ladilar. Texnologiya jamiyat taraqqiyotida tub burilishlarni yuz berishida ustivor omil bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Shuningdek usul bu insonni o‘zgarishida ham muhim o‘rin tutadi.

Ibtidoiy jamoa davrida insonning muskul kuchi, hayvonlarning kuchi energiyaning asosiy manbasi edi. Bundan 40-50 ming yil ilgari odamlar 100 dan ortig‘q mehnat qurollarini tayyorlaganlar. Mehnat qurollari doimo takomillashib bordi. Mezolit davridan boshlab insonni va hatto alohida oilaning yashashini yengillashtiradigan texnik vositalar: o‘q-yoy, irg‘utiladigan nayza, garpun, bolta, to‘r va h.k lar paydo bo‘ldi. Mil. avv. V-III ming yilliklarda muhim texnologik kashfiyotlar qilindi: gildirak, plug, kulolchilik, bo‘yinturuq va mis metallini quyish boshlandi. III – II ming yilliklarda jez va temir texnologiyalarini tarqalishi dehqonchilik va

hunarmandchilikni rivojlanishiga sabab bo'ldi. XV-XVI asrlardagi sanoat inqiloblari haqiqiy texnologik to'ntarishlarga olib keldi.

XVIII-XIX asrlardagi sanoat inqiloblari texnologiyalarda tub o'zgarishlar qilib mashinashgangan industrial jamiyatni shakllantirdi. XX asrning 40-50 yillaridagi ilmiy-axborot inqilobi energetika, qishloq xo'jaligi, sun'iy materiallar ishlab-chiqarish va kosmosni o'zlashtirishda katta yutuqlarga erishildi. Ayniqsa axborot texnologiyalari kompyuter, internet va tezkor aloqaning rivojlanishiga olib keldi. Yanada murakkab mehnat qurollari, keyin mashinalar, murakkab texnik tizimlar yaratildi. Yangi non'anaviy yoqilg'i manbalari ochildi. Hozirgi kunda boshqaruv va nazorat funksiyalarini katta qismini odam o'zi kashf qilgan priborlar, dasturlangan nazorat tizimlariga berdi.

Insoniyat tarixida ishlab-chiqarishning texnologik usubi muntaзам o'zgarib bordi. Ishlab chiqarishning industrial usuli besh texnologik ukkladni o'z ichiga oladi. Ulardan birinchisi, manufaktura ishlab chiqarish usulidan meros qilib olingan texnika asosida quriladi; ikkinchi, uchinchi va to'rtinchisi ishlab chiqarishning industrial usulining o'zida rivojlanishning tizimli bosqichini ifodalaydi. Zamonaviy beshinchi texnologik ukklad XX asr oxirida rivojlangan mamlakatlarda yetakchi bo'lgan postindustrial ishlab chiqarishning texnologik usuliga o'tish bo'ldi.

Har bir texnologik ukklad o'z navbatida, 10 yil davomida bir-biri bilan o'zaro bog'langan texnika avlodlarini o'z ichiga oladi. Ularning har biri yirik kashfiyotni, ba'zida yangilikni amalga oshiradi. Hozirgi zamon uchun hisoblash, kompyuter, lazer, kosmik-raketa texnikasini ko'rsatish mumkin. Har bir avlod umumiy texnologik tamoyil, ko'pgina modifikatsiyalar va texnik modellarni amalga tadbiiq qiladigan yanada yuqori darajadagi (ilmiy texnika yo'nalishidagi) texnologik siklni shakllantirish va joylashtirish bosqichi bo'ladi. Ishlab chiqarishning aralash texnologik usullari texnologik ukkladlar, texnikaning avlodlari, umumiy maydonlar, har xil faoliyatning o'tish davrlarini hosil qiladi. Bu uzluksiz texnik o'zgarishlarni ta'minlaydi. Shu bilan bir vaqtda texnikaning yangi avlodi, texnologik ukklad va ishlab chiqarish usulining qaror topishi navbatdagi texnik o'zgarish, u yoki bu hajmdagi va murakkablikdagi texnologik to'ntarishni belgilaydi.

3. Ishlab chiqarishning iqtisodiy usuli, iqtisodiy (ishlab-chiqarish) munosabatlar tuzilmasi. Iqtisodiy usul tarkibiga qayta ishlab chiqarishning tuzilishini mulkchilik shakllari, ishlab chiqarish vositalari va uning natijalarini o'zlashtirish kiradi. Shu bilan birga ishlab chiqarishning iqtisodiy usuli ishlab chiqarilgan mahsulotni jamiyat a'zolari o'rtasi-

da taqsimlash usullari; ayirboshlash usullari, jamiyatda ishlab chiqarilgan mahsulotning aylanishi va iqtisodiy boshqaruv shakllarini ham o'z ichiga oladi.

Neolit sivilizatsiyasi jamoa mulki, teng taqsimot, natural ayirboshlash, ijtimoiy mehnat taqsimotining ilk shaklidagi mehnat faoliyatini bevosita boshqarishga asoslangan edi. Ilk sinfiy jamiyatlarda xususiy o'zlashtirish (yakka yoki jamoa)ga asoslandi.

O'rta asrlar va industriya davrida sharq va g'arbda yerga dehqonlar, feodallar va qisman davlat va cherkov egalik qildi. Erkin dehqonning kichik yer ulushi va mehnat qurollariga egaligi uzoq asrlar saqlanib qoldi. "Erkin shaharlar"da sanoat, qurilish, savdoda yollanma mehnat unsurlari bilan yarim burjua mulkchiligi, rivojlangan bozor-pul mexanizmi shakllandi. Industrial jamiyatda kapital va yollanma mehnat, bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy tuzum mos bo'ldi.

4. Ijtimoiy-siyosiy tuzilma. Ijtimoiy-siyosiy tuzilma sivilizatsiya-ning mazmun mohiyatini belgilashda muhim o'rin tutadi; Har qanday jamiyat turli sinflar, ijtimoiy qatlam, tabaqa, guruh va guruhchalar yig'indisidan tiborat organizmdir. Jamiyatdagi ijtimoiy qatlam va guruhlar o'rtasida, davlat va jamiyat o'rtasida ma'lum bir munosabatlar hukm suradi. Ijtimoiy munosabatlar jamiyatning murakkab tizimini ifodalaydi. Jamiyatshunoslik fani odamlarni ma'lumoti, psixologiyasi, turmush shart-aharoitlari, bandligi va daromadi asosida turli ijtimoiy qatlam va guruhlarga bo'linishini o'rganadi. Garb jamiyatshunoslik fanida jamiyatni oily, o'rta va qashsoq tabaqa va stratlarga bo'lish konsepsiyasi ustivor oringa ega. Jamiyatshunos olimlar tomonidan odamlarning bir qatlamdan ikkinchi qatlamga erkin o'tishi ularning ijtimoiy mobilligi, shaxsiy qobiliyati va harakatlarga bog'liq bo'lishi aniqlandi.

Jamiyatning ijtimoiy munosabatlari shakllangan tizim va tuzilmaga ega bo'ladi: a) Aholining turli guruhlari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar-jins, yosh (erkaklar va ayollar, bolalar, kattalar va keksalar), ijtimoiy qayta ishlab chiqarishda va mehnat taqsimotida turli o'rinlarni egallaydilar (turli sinflar, jismoniy va aqliy mehnat kishilari, shahar va qishloq aholisi).

b) Etnik va milliy-bir hududda (mamlakatda) yashovchi va madaniyat, iqtisodiyot, tarixiy an'analar, til birligiga ega bo'lgan odamlar guruhlari o'rtasidagi; turli irq, millatlar, milliy guruhlar o'rtasidagi munosabatlar;

s) Siyosiy partiyalar o'rtasida alohida ijtimoiy guruhlar, sinflar, mamlakatlar, etnoslar manfaatlarini himoya qiladigan yoki boshqa si-

yosiy kuchlar bilan hamkorlikda yoki qarama-qarshilikdagi munosabatlar, shu bilan birga, bu qarama-qarshiliklar, qurolli to'qnashuvlar, urushlar, mustamlakachilik bosqinlari shiddatli shakllarni olishi mumkin. Ichki siyosiy munosabatlar (bir davlat, mamlakat ichida) va tashqi siyosat (turli mamlakatlar o'rtasida) farqlanadi.

d) Davlat-huquqiy hokimiyatning turli shakllarida aks etuvchi, uning huquqiy norma tizimlarini amalga oshiruvchi, davlat va huquqni himoya qiluvchi organlar, ularga rioya qilishni ta'minlaydigan kuchdir. Davlat mamlakat ichida turli funksiyalarni (qayta ishlab chiqarish, huquq-tartibot, aholining ma'lum bir qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, davlat tuzumini o'zgartirishga urinayotganlarni harakatini bostirish) va tashqi siyosatda boshqa mamlakatlar bilan munosabatlarni o'rnatish, tashqi iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish va boshqa vazifalarni bajaradi.

Insoniyat sivilizatsiyasining har bir davri va bosqichlarida mos bo'lgan o'z tizim va tuzilmasi va ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning taraqqiyot darajasiga ega bo'ladi. Taraqqiyot jarayonida jamiyat sohalari-ning asta-sekin kuchayishi, munosabatlarning yangi ko'rinishi va tiplarining paydo bo'lishi umumtarixiy qonuniyatdir.

Agar neolit sivilizatsiyasida yosh-jins guruhlarini o'rtasidagi ijtimoiy mehnat taqsimotida (chorvadorlar, dehqonlar) qo'shni jamoalar, urug'-qabilalar o'rtasidagi munosabatlar yetakchi o'rin egallagan bo'lsa, keyingi bosqichda esa munosabatlar yanada ko'p marta murakkablashdi. Sinflar, siyosiy guruhlar, davlatlar, huquqiy tizimlar va davlat boshqaruvi paydo bo'ldi. Soliqlar yig'ish, armiyaga xizmat qilish, madaniyat sohasida xizmat qilish bilan shug'ullanadigan odamlar qatlami ajralib chiqdi. Bu jamiyatning shakllanishida, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muhim rol o'ynadi. Har bir keyingi sivilizatsiyada bu muassasalar ajraldi, takomillashdi. U keyingi sivilizatsiyalarda ham saqlanib qoldi.

Markscha ta'limotning asosiy tamoyillaridan biri davlatning yo'q bo'lib ketishi, sinfsiz jamiyat tushunchalari edi. Davlatning funksiyasi xilma-xil, u jamiyatni o'z-o'zini tashkillashtirishini kutilgan natijasi edi. U ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi munosabatlarni muvozanatini ta'minlash funksiyasini bajaradi. Bir sivilizatsiyadan boshqasiga o'tishda huquqiy tizimning, siyosiy muassasalarni o'zgarishi bilan ijtimoiy-siyosiy sohaning yetakchilarini almashuvi yuz beradi. Ijtimoiy-siyosiy sohada jiddiy o'zgarishlar kuzatiladi.

Sivilizatsiya siklining har xil fazalarida ijtimoiy-siyosiy sohalarni tartibga tushgan darajasi bir xil emas. Sivilizatsiya bir taraqqiyot bosqichidan boshqasiga o'tish jarayonida ijtimoiy qarama-qarshiliklar, tur-

li siyosiy partiyalar, davlatlar o'rtasidagi kurash keskinlashadi. Bunday o'tish davrida insonda, ishlab chiqarishning texnologik va iqtisodiy usullarida tub o'zgarishlarga mos yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar yuzaga keladi. Bu davrda yangi munosabatlarning huquqiy negizlari yaratiladi. Jamiyatning turli sohalarida eski qonunlarning o'rnini yangilari olib boshlaydi. Jamiyatning tizim va tuzilmasida tub o'zgarishlar kiritiladi. Ijtimoiy tabaqa, guruhlar, qatlamlar o'rtasida kelishuv, murosalar jarayoni boradi.

5. Insonning ma'naviy dunyosi, ijtimoiy ongning tuzilishi.

Ma'naviyat sohasiga axloq normalari to'plami, har bir kishining yurish-turishini yetuk baholash, uni boshqa oila a'zolari va ijtimoiy guruhlar bilan o'zaro munosabatlari kiradi. Axloq normalari har bir kishining yurish-turishida nima yaxshi, nima yomon degan mezonlarni beradi. Bu yurish-turish qoidalari oilaviy, milliy an'analar, diniy qonunlar, davlat uchun muhim bo'lgan huquq normalarida singdirilib, mustahkamlanadi.

Asta-sekin ijtimoiy fan va boshqa fanlar rshakllandi. Ijtimoiy zakovatning qudratli to'liqini, uning yadrosi-ilmiiy bilim insonning o'z-o'zini rivojlanishi, jamiyatning dinamik taraqqiyoti va uning tarixiy doiraviy aylanishlari bo'yicha harakatida birinchi manba sifatida chiqdi. Ijtimoiy ong bu ko'pchilikni tashkil etgan jamiyatni o'zligini anglash darajasidir.

Agar o'ng yarim sharning faoliyatini to'plangan natijasi fan bo'lsa, madaniyat chap yarim sharning faoliyati mevasi, atrof-dunyoni aniq obrazli hissiy qabul qilishdir. San'at bu – insonning o'zini estetik baholashi, go'zallik va xunuklikni qabul qilishi, tabiatning mukammalligi va insonning go'zalligini tushunishidir. San'atning turli xil turlari (tasviriy san'at, haykaltaroshlik, me'morchilik, musiqa, vokal, xoreografiya, teatr, kino, adabiyot, ommaviy axborot vositalari va kitob bosish) madaniyatni tashkil etadi. Ulardan bir nechtasi (qoyatosh tasvirlari, raqs, qo'shiq aytish) paleolit davrida yuzaga kelgan edi. XX asrda esa faqat kino, radio, televidenie va videosan'ati paydo bo'ldi.

Har bir jamiyat o'z qadriyatlari va axloq normalari asosida yashab keladi. Insoniyat asrlar davomida shakllangan, avloddan avlodga o'tib keladigan qadriyatlar asosida yashaydi. Qadriyatlar umuminsoniy va milliy ko'rinishda bo'ladi. Nihoyat, kishilik jamiyatining siyosiy partiyalar, davlat tashkiloti qatorida, ularning faoliyatini maqsadlari majmuasi bo'lgan mafkura ham ijtimoiy ong, ma'naviy dunyo tarkibiga kiradi. Mafkura diniy shaklda ham mavjud bo'ladi, lekin lekin u e'tiqod sohasi bilan cheklanmaydi. Diniy mafkura jamiyatning barcha sohalariga tegishli o'z

qarashlariga ega va jamiyat a'zolarini hayot faoliyatida diniy qadriyatlar asosida amal qilishga chaqiradi.

Jamiyat ma'naviy hayotining barcha sohalari o'zaro aloqada, bir-biri bilan yaqindan bog'langan ijtimoiy ongning hayotbaxsh harakatida ma'lum bir bosqichni ifodalaydi. Jamiyat uchun tub burilish lahzalarida ma'naviy sohasida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Eskirib qolgan ilmiy paradigmalar yemiriladi, ularning o'rniga yangilari keladi. Badiiy uslublar, ta'limning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllari o'zgaradi. Axloq normalari yangilanadi. Ma'naviy oqimlarning eskilari siqib chiqariladi. Ularning o'rniga yangilari shakllanadi, diniy e'tiqodlar jonlanadi.

Jamiyatning tushkinlik davrlarida ma'naviy dunyoda tushkinlik, xilma-xilliklar. turli xil yangi fikr goyalar suzib yuradi. Bu davrda tushkinlik kayfiyatda bo'lgan insonning mudroq holatda turgan xurofotga berilishi kuzatiladi. Ijtimoiy ongda yuzaga kelgan bo'shliqni to'ldirish uchun turli mafkuralar, g'oyalar o'rtasida kurash boshlanadi. Jamiyat o'ziga foydali deb bilgan mafkura va g'oyalarni qabul qilib, ma'naviy tushkunlik bartaraf etiladi. Ijtimoiy ongning yangi mazmuni qaror topadi, tarqaladi, rivojlanadi va takomillashadi.

Tayanch iboralar: mafkura, ishlab chiqarish usuli, ijtimoiy ong, lokal, jahon sivilizatsiyasi, A. Toynbi, O. Shpengler, S. Xantington, I. M. Dyakonov, ma'naviy dunyo, ma'naviy tushkunlik, diniy e'tiqod, axloqiy normalar, texnologik sikl, faza

Takrorlash uchun savollar

1. Oilaning paydo bo'lishi tarixi
2. Texnologiyalar nima uchun o'zgaradi?
3. Ishlab chiqarish usulining jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini aniqlang
4. Jamiyatning ijtimoiy sohasiga nimalar kiradi?

Mustaqil ish mavzulari

1. Sivilizatsiyaning tarkibiy tuzilmasi.
2. Otish davrida ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar.
3. Inson sivilizatsiyaning yaratuvchisi va ijodkori.

II BOB. EVOLYUTSIYA

3-mavzu. INSON EVOLYUTSIYASI

1. Homo sapiens: Til. Nutq. 2. Oilaning vujudga kelishi. Irqlar. Diniy e'tiqod. Mifologiya 2. Qadimgi jamiyatlar odamlari qobiliyati va ehtiyojlarining o'sishi. 3. Inson bilim va ko'nikmalarining progressi. 4. Inson faoliyati motivlari va manfaatlari dinamikasi.

Insoniyat sivilizatsiyasining yatuuvchisi, o'zagi, harakatlantiruvchi kuchi insondir. Shu sababli sivilizatsiyalar tarixini o'rganish odam-hazrati insonni biologik-ijtimoiy tur sifatida shakllanishini o'rganishdan boshlanadi.

1. Homo sapiens: Til. Nutq. Jamiyatdagi barcha o'zgarishlarni – uning ildizi, boshlang'ich bo'linmas atomi – inson, uning ehtiyojlari va bilim ko'nikmalari, faoliyatining motiv va manfaatlarning o'sishidan izlash lozim.

Zamonaviy odamning antropogik shakllanishi paleolit nihoyasida tugallandi. Etnograflar va tarixchilarning tasdiqlashicha, odamning biologik tip sifatida rivojlanishi tugallangan. Tarixiy vaqtga qaraganda, biologik vaqtning ohangi anchagina sekinroq va bir necha ming yillar davomida to'planib qoladigan biologik turdagi o'zgarishlar, sakrash fursati sezilmasligi, ko'rinmasligi mumkin. Haqiqatdan, vorisiylik va o'zgaruvchanlik, bioijtimoiy genotip, ijtimoiy boshlanish, ijtimoiy dinamika va genetika qonuniyatlarining roli sezilarli bo'ladi.

Bu davrda bosh miyaning hajmi va massasi sezilarli o'zgarmadi, lekin uning tuzilishi murakkablashdi. Bunga odamning faoliyat turlarini kengayishi va ko'payishi, takror ishlanadigan va beriladigan axborotning ko'p marta o'sishi sabab bo'ldi. Shu bilan birga inson iste'mol qiladigan oziq-ovqat xilma-xilligining ko'payishi bilan yeyiladigan ovqat tarkibida miya faoliyatini faollashtiradigan oqsil mahsulotlari va vitaminlar miqdori ham ko'paydi.

Odamlarda xavfli tashqi muhitga moslashuv uchun maqsadli faoliyat va birdamlikda hayot kechirish jarayonida ularning miyasi tobora rivojlana bordi. Birdamlikdagi mehnat faoliyati jarayonida odamlar o'z konikma va malakalarini shakllantirib kashfiyotchilik, ixtirochilikni amalga oshirdilar. Evolyutsiya jarayonida odam miyasi tez o'sib bordi. Bundan ikki yuz ming yil oldin yashagan odamning miyasi hajmi zamonaviy odamning miyasi hajmiga deyarli tenglashdi. Odam miyasining jadal

rivojlanishi yerdagi boshqa mavjudotlarga nisbatan o'zini xavfsizligini ta'minlash va va tirik qolishi uchun keng imkoniyatlarni yuzaga keltirdi.

Til – odamlarning muloqot vositasi, tafakkur va ifodalash vositasi. U ijtimoiy hayotning barcha sohalariga xizmat qiladi. Til siz jamiyat hayotini tasavvur qilib bo'lmaydi. Nutqni amalga oshirish shakllari biologik, lekin tilning barcha funksiyalari ijtimoiy. Tadqiqotchilar nutq va tilni shakllanishida olti bosqichni ajratdilar: nutqqacha bo'lgan bosqich, nutq arafasidagi, qichqiriq-chaqiruvlar, ko'p ma'noli so'z-gaplar, ko'p sonli va tabaqalashgan so'z-gaplar, nutqlar bilan bog'liq bosqich.

Til odamning miyasi rivojlanishi jarayonida rivojlandi. Gominidlarning bosh miyasi hajmini jadal o'sishi bilan birga mehnat faoliyati sohasining kengayishi, ijtimoiy aloqalarning murakkablashuvi va o'zini o'rab turgan atrof-muhitni uzluksiz bilishga intilish ilk tilni rivojlanishiga jiddiy ta'sir qildi. Bu ijobiy vaziyat neandertal turida nutq funksiyasi tuzilishida, tilning rivojlanishida muhim o'rinni egalladi. Neandertallarning jismoniy rivojlanishi jumladan tomoq, jag'dagi o'zgarishlar artikulyatsiyaning samarali bo'lishiga olib keldi. Neandertallarning nutqi zamonaviy nutqqa yaqinlashdi.

Tadqiqotlarga ko'ra odamning so'zlashuvi pitekantroplar va neandertallar davriga to'g'ri keladi. Individual so'zlashuv va til boshda mavjud bo'lmagan vorisiylik bilan shartlanmagan edi. So'zlashuv va til ontogenetik taraqqiyot va ijtimoiy muhitda o'zlashtirilishi mumkin. So'zlashuv va tilni rivojlanishida uch bosqichni ajratish mumkin: pitekantroplarda g'ijiraydigan va burun tovushlari mavjudligi, so'zlar-predmetlar-buyumlarni belgilash, faqat ayrim hollarda so'z-gapga o'tadigan, dialogik so'zlashuv; neandertallar-zamonaviy yoki zamonaviy artikulyatsiyaga yaqin, ayrim unilalarda ishlatishda qiyinchiliklar; eng oddiy grammatikani sintaksisni o'zlashtirish, monologik nutqni paydo bo'lishi; zamonaviy odamlar- zamonaviy artikulyatsiyani to'la o'zlashtirish. Imo-ishora kommunikatsiyasi tizimi o'zaro tushunish uchun rivojlandi. Til leksikasi asta-sekin o'sdi va uni amalda odamlar orasidagi munosabatlarda ishtiroki kuchaydi. Bu uning boyishiga olib keldi. Qachon nutq paydo bo'lgani to'g'risida aniq ma'lumotlar yo'q.

Ibtidoiy jamoa davrida til rivojlanib borgan. Turli urug'-qabilalar ko'p tillar va ularning shevalarida gaplashganlar. Bir-biridan uzoqda yashagan va aloqada bo'lmagan urug'-qabilalarning tillari bir-biridan farq qilgan. Lekin yaqinda joylashgan qo'shni tillar o'zaro tushunarli bo'lgan. Yaqin qo'shnilar bir-birlari bilan mahsulot ayirboshlash, nikoh aloqalari va boshqa munosabatlarni amalga oshirganlar. Til aloqa vositasi bo'lib, ular bir-biriga tushunarli bo'lib, o'zaro boyigan. Tabiiy fonetik til-odamlar o'rtasidagi ijtimoiy muloqotning eng muhim vositasi bo'ldi. Til taf-

akkur bilan bevosita bog'langan va odamning xatti-harakatini boshqaradigan vosita. U borliq to'g'risidagi amalda ortirilgan ma'lumotni uzatish vositachisi. Tillar fonetik o'ziga xosligi, qurilishi, grammatik qurilmasi va so'z tarkibi bilan bir-biridan farq qiladi. Tillar rivojlana borib, dialektlardan qo'shilib hosil bo'ladi. Dialekt ma'lum bir hududda birgalikda yashaydigan, ijtimoiy yoki xo'jalik faoliyati umumiy bo'lgan bir guruh odamlar so'zlashadigan til yoki tilning bir ko'rinishi.

Tillar va dialektlar yozuvli yoki yozuvsiz bo'ladi. Tillardan ko'ra dialektlar yozuvga kamroq ega bo'ladi. Asosiy til dialektda so'zlashuvchi etnoslarning taraqqiyoti, ularning hududiy bo'linib ketishi natijasida dialektlarda o'zgarishlar yuz berib, mustaqil tilga aylangan. Bir-biriga qarindosh bo'lgan, kelib chiqish asosi bir tildan bo'lgan tillar bir oilani tashkil qiladi. Oila o'z navbatida shoxlarga bo'linadi. Taxminiy hisoblarga ko'ra hozir 6500 ga yaqin til va ko'p miqdorda dialektlar mavjud.

Tilning umumiyliги etnik birliklar bilan, boshqacha aytganda, bir madaniyat (til ham qo'shiladi)ga ega bo'lgan odamlar birligi bo'lgan etnik birliklar o'zligini anglash o'zligi nomida aks etadi. Bunda asosiy yutuq-ikkinchi signal tizimining o'zlashtirilishi, atrof dunyoni qabul qilish qobiliyati, uning imkoniyatlari va tahdidlarini nafaqat bevosita qabul qilish, balki so'z yordami bilan – dastlab og'zaki (bunday qabul qilishning ibtidoiy ko'rinishi ba'zi oliy mavjudotlar – maymunlar va delfinlarda kuzatiladi), keyin esa u ramzlar yordamida yozma bo'ldi. Bu keyingi avlodning tirik qolishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plash va uzatish imkoniyatini kengaytirdi. Inson miyasining chap yarim shari funksiyasining o'sishiga yordam berdi. Shu bilan bir vaqtda inson aqliy qobiliyatlarining differensiyasi kuchaydi. Zakovat potentsiali neolit jamiyatida nisbatan sezilarli bo'lmagan aql-zakovat ilk jamiyatlarda sezilarli hajmlarda o'sdi.

Insoniyatning jismoniy tuzilishi ming yillar davomida sezilarli o'zgaradi. Odamning bo'yi hozirgidan ko'ra, past bo'lgan. Antropolog olim M. M. Gerasimovning rekonstruksiyasiga ko'ra neolit odamining tashqi qiyofasi hozirgidan amalda farq qilmagan.

2. Oilaning vujudga kelishi. Oilaning vujudga kelishi insoniyat tarixiy taraqqiyotida buyuk hodisa bo'ldi. Oila insoniyat sivilizatsiyasini biologik poydevorini qo'ydi. U odamni o'zining biologik tur sifatida saqlab qolishi va ko'payishi hamda kelgusi avlodni tizimli davom ettirishi uchun mustahkam zamin yaratdi. Natijada odam yer sayyorasida o'zini tur sifatida saqlab qolib, tabiat dunyosida mavjud bo'lgan barcha mavjudotlar hukmdoriga aylandi. Insoniyat tarixining ilk bosqichi-jamoa arafasi odamlar guruhida biologik va ijtimoiy asoslar o'rtasidagi kurash jinsiy munosabatlar va bola ko'rishda yotadi. Bunda hayvoniy instinktlar

alohida kuch bilan ko‘rinadi va oqibatda u rivojlanayotgan urug‘ jamiyati kuchli tazyiqqa uchrab, o‘zgarishi mumkin edi.

Fan keyingi o‘n yilliklarda maymunlarning yashash tarzini o‘rganishda katta yutuqlarga erishdi. Hozirgi maymunlarning bir xillari – shimpanze va gorilla juft oila bo‘lib yashaydilar. Boshqa o‘ndan ortiq maymunlar esa yirik, kuchli erkak maymun boshchiligida, haram oila bo‘lib yashaydilar. Haram oilada yo‘lboshchidan tashqari, boshqa yosh erkaklar ham mavjud bo‘lib, yo‘lboshchi bilan raqobatga bardosh bera olmasligi sababli, jinsiy ko‘payishda ishtirok etmaydilar. Bir necha oilalar podaga birlashadilar, lekin urg‘ochi maymunlar uchun doimo janjal bo‘lib turadi. Poda yo‘lboshchisi vaqt o‘tishi bilan qarib, o‘z kuch-qudratini yo‘qotishi bilan uning o‘rnini endigina kuchga kirgan erkak maymun egallaydi. Ba’zida podaga yo‘lboshchilik, raqiblar o‘rtasida qonli to‘qnashuvlar natijasida aniqlangan.

Odam ajdodlarida ham shunga o‘xshash tartiblar bo‘lgan. Har holda haram oila yoki boshqa zoologik oila podaga teskari edi. Shu sababli, etnologlarning fikricha, jamoa arafasidagi odamlar guruhi unda zoologik oilalarning singib ketishi va balog‘atga yetgan erkaklarning o‘zaro yon berish ko‘nikmasi mavjudligi tufayli shakllandi. Bunday guruhda boshqarilmaydigan, tartibsiz jinsiy munosabatlar – promuskuitet (lotincha promiscuus-aralash, hammabop-jinslar ortasida hech nima bilan cheklanmagan munosabatlar) o‘rnatiladi. Olimlar hozirgi zamonda yashayotgan ibtidoiy urug‘-qabilalarda **promuskuitet**, orgiastik bayramlarning mavjudligida jinslarning ilk davrdagi jinsiy erkinliklarning qoldiqlarini ko‘rish asosida shunday xulosaga keldilar.

Odamlar jamoasini o‘zining xavfsizligini ta’minlash ehtiyoji, o‘zining kelajagini yaratishga intilishi jinsiy aloqalarni tartibga solishga majbur qildi. Oilaning evolyutsiyasi davom etdi. Vaqt o‘tishi bilan jinsiy aloqalar tartibga solindi. Urug‘ jamoasi yuqori paleolitda matriarxat shaklida vujudga keldi. Urug‘ ichida jinsiy aloqa – nikoh (egzogamiya) ta’qiqlandi va urug‘dan tashqari uylanish tavsiya qilindi. Egzogamiya atamasini fan-ga XIX asrning 60-yillarida Mak Lennan kiritdi. Mak Lennanning fikricha, egzogamiyaning asoslari jangovar yovvoyilarning urushga yaroqsiz bo‘lgan qizlarni o‘ldirib yuborishlari va shu sababli, o‘zlariga chetdan xotin izlashga majbur bo‘lganlariga borib taqaladi.

Darvin cho‘ponlarga yordam berib, bug‘u podasini haydaydigan itlarning erkaklari begona urg‘ochi itlarni o‘z podalaridagi urg‘ochi itlardan afzal ko‘rishlariga e’tibor qaratdi. Egzogamiyaning kelib chiqishini bir-biri bilan kundalik muloqot qiladigan qarindoshlar o‘rtasidagi jinsiy aloqaga o‘zaro jirkanish yuzaga kelganida deb tushuntiradi. L. Mor-

gan egzogamiyaning ta'qiqlarini paydo bo'lishi sababini, yaqin qarindoshlar orasida jinsiy aloqalarning biologik zararli oqibatlarni oldini olishdir deb tushuntiradi.

Qator olimlar (Yu.I.Semyonov), egzogamiyaning paydo bo'lishini ibtidoiy jamoalar ichida xo'jalik hayotini tartibga solish zaruriyati bilan bog'laydilar. Qaysiki, tartibga solinmagan jinsiy aloqalar uzluksiz rashk asosida uzluksiz to'qnashuvlarga olib kelib, jamoaning xo'jalik va ijtimoiy jipsligining yemirishiga olib keladi. Bunday salbiy holatlarga qarshi jamoa o'z ichida jinsiy aloqalarni cheklab, umuman ta'qiqlashga erishadi. Bundan tashqari jamoa ichidagi jinsiy aloqalarning tartibga solish sog'lom avlodni shakllanishi uchun shart-sharoit yaratdi. Bu odamning tabiiy-ijtimoiy mavjudot sifatida tabiat olamida uzoq vaqt hukmron bo'lishi uchun tashlangan ilk qadam edi.

Jinsiy hayotni jamoa doirasidan chiqarib, uni mustahkamlash, boshqa jamoalar bilan o'zaro munosabatlarni barqaror qilish uchun ikki egzogam guruhni bir muntazam o'zaro nikohga birlashtirish asta-sekin endogam qabilaning paydo bo'lishiga olib keldi. Aholining o'sishi bilan endogam guruhlar yana yangi guruhlarga bo'linib ketdi. Egzogam guruhlarning hayotga qobilligi, o'zini saqlab qolishi yuqori darajada bo'lib, ular o'z qo'shnilarini siqib chiqardilar. Egzogamiya anglangan rag'batlantirish, qon-qarindoshlar o'rtasidagi nikohlarga tabu (ta'qiq) keng tarqaldi va uzoq davom etdi.

Bu hol jamoada odamlar o'rtasida va jamoaning qo'shni jamoalar bilan turli munosabatlarni tartibga solinishiga shart-sharoit yaratdi. Ilk jamoaga qaraganda, shakllangan jamoa haqiqiy jamiyat edi. Unda ibtidoiy jamoachilik, yaqin hamkorlik va jamoachilarning ahilligi o'zining yuqori cho'qqisiga chiqdi. Bu davrda urug jamoasi a'zosi o'zi tegishli bo'lgan urug tarkibiga singib ketgan edi. Urug a'zosi o'z ongi, yurish-turishi, xatti-harakatida jamoaga to'la tegishli; u ongida ham o'zini jamoadan ajratmaydi va jamoadan tashqarida ozini tasavvur qila olmaydi; jamoa a'zosining yurish turishi jamoaning an'analari, urf-odatlari va cheklovlari bilan tartibga solingan. Individning shaxsiy hayoti ham jamoa tomonidan tartibga solinadi. Individ tugilishi bilan jamoaning diqqat markazida bo'lib, hayotining birinchi kunlaridan jamoaning yosh va jinsga tegishli bo'lgan ta'lim-tarbiyasini olishga kirishadi.

Bunday ta'lim-tarbiya individning butun hayoti davomida umrining oxirigacha davom etadi. Jamoa a'zosining bu qadriyatlarga amal qilishi ixtiyoriy va ongli. Individning "men tushunchasi jamoa tarkibiga singib ketgan. Jamoa qadriyatlari hech qachon va har qanday vaziyatda ham buzilmagan va o'z mazmun mohiyatini saqlab qo'ladi. Jamoa qadriyat-

larini o'zgartirishga urinish yoki unga rioya qilmaslik qattiq jazolangan. Faqat vaqt o'tishi bilan jamoa hayoti o'zgarishi natijasida ayrim odatlar eskirib jamoa iste'molidan chiqib ketishi mumkin edi.

Qon-qarindoshlik asosida oilalar urug' jamoasiga, keyin esa bir necha urug' jamoalari qabilaga birlashib mehnat faoliyati amalga oshirildi, ovchilik, terimchilik, dehqonchilik va chorvachilik sohalarida bu yaqqol ko'rinadi. Natijada, qarindoshlik aloqalari ijtimoiy ahamiyat kasb etdi. Bu hol o'tmish jamoa arafasi guruhi o'rniga kelgan ishlab chiqaruvchi jamoani qonunlashtirgan asosiy unsur edi. Bu jarayon taxminan mil. avv. 40 ming yilliklarda boshlangan.

Urug' tashkiloti paydo bo'lishi bilan ibtidoiy jamiyatdagi dual eg-zogamiyaga mos, jinlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladigan alohida muassasa-nikoh paydo bo'ldi. Ya'ni er-xotin, ota-onalarning bolalar bilan munosabatini tartibga soladigan oila muassasasi vujudga keladi. Nikohning boshlang'ich shakli to'g'risidagi masala hali yechilmagan. Etnologiya va qisman arxeologiyaning ma'lumotlari bo'yicha tarixiy rekonstruksiya nikohning ikki asosiy tushunchasini beradi. Birinchisi: boshlang'ich ko'rinish guruhiiy nikoh bo'lib, keyinchalik, yakka nikoh (ikki jins o'rtasidagi) va yakka oilaning turli shakllari bilan almashadi. Ikkinchisi: boshidan yakka nikoh va yakka oila mavjud bo'lib, ular o'z rivojlanish jarayonida turli shakllarni oldilar.

Birinchi tushunchani ilk bor etnograf olim L. G.Morgan shakllantirdi. U bir-birini tizimli almashtiradigan oilalarning besh shaklini ko'rsatdi: qon-qarindosh oila (bir avlodning barcha odamlari o'rtasidagi nikoh birligi), punalual oila (shunday birlik, lekin undan sblinglar (qarindosh aka-singillar) chiqarib tashlanadi), juft (mustahkam bo'lmagan va iqtisodiy asosdan mahrum er-xotinlar birligi), oraliq patriarxal oila (er hokimiyati bilan ifodalangan oila) va monogam (yakka er-xotin nikohi birligi) oila. Ikki birinchi shakllar guruhiiy nikohga asoslangan, qolganlari yakka nikohga asoslangan. Lekin tezda qon-qarindosh va punalual oilaning mavjudligiga qarshi dalillar olindi. Bir qism olimlar qarindoshlikning eng ibtidoiy tizimining tahliliga va saqlanib qolgan qator oila-nikoh tartiblariga asoslanib, bu konsepsiyani yo'qlaydilar. Qarindoshlik tizimining ikki tipi mavjud: klassifikatsiyalangan yoki klassifikatorli va tasvirlanadigan. Har ikkalasi ham sof holda ifodalanmaydi. Sinfiiy jamiyatlarga xos bo'lgan tasviriiy tizimlarda alohida qarindoshlar uchun – "ota", "ona", "o'g'il", "qiz" atamalari mavjud. Bunga teskari, aksincha ibtidoiy jamiyatlar uchun xos bo'lgan klassifikatsiya tizimlarida, o'sha bir xil atamalar bilan ma'lum bir yosh va nikoh klassifikatsiyadagi yoki

toifasidagi barcha erkak va ayollar belgilanadi. Guruhiy qarindoshlik guruhiy nikohning tarixiy ustuvorligi konsepsiyasi tarafdorlari bu holatni o'z qarashlarining eng muhim dalili deb qaraydilar.

Guruhiy nikohning ikkinchi dalili sifatida, ilk ibtidoiy jamoa sharoitida etnologiya belgilangan nikoh birligining ba'zi belgilarida ko'riladi. Jumladan, bu Avstraliya aborigenlarida nikoh sinflari deb ataladigan tizimda aniqlangan. G'arbiy Viktoriya avstraliyaliklarida qabila ikkiga: Oq va Qora kakaduga bo'lingan. Bu har bir yarim yillikdagi erkak tug'ilganidan boshlab boshqa yarim yillikdagi ayollarning eri deb hisoblanadi. Ayollar ham shunday deb hisoblaganlar. Boshqa avstraliyaliklarda ham shunga o'xshash va yanada murakkabroq to'rt yoki sakkiz nikoh sinflari mavjud. Nikoh sinflari tizimi, tegishli sinf erkak-ayollari amaldagi guruhiy nikohda bo'ladi degani emas. Chunki ular o'zlariga tegishli sinfdagi erkak yoki ayolni ma'lum bir vaziyatlarda (misol uchun, ayrim bayramlarda yoki uydan uzoqda borganda) o'zlarining potensial xotinlari yoki erlari deb hisoblab ular, bilan jinsiy aloqaga kirishlari mumkin.

Avstraliya aborigenlarida nikoh umumiyligining boshqa belgilari ham mavjud. Jumladan, erkaklar yoki ayollarga bir necha "qo'shimcha" xotin yoki er huquqini beradigan "pirauru" yoki "piraungaru" odati mavjud. Bu nikohdan tashqari aloqalar bo'lib, ular keng qo'llaniladi. Aynan shunday nikohlar tegishli marosim bilan rasmiylashtiriladi. Bunga o'xshash nikohlar shunday rivojlanish bosqichida bo'lgan boshqa qabilalarda, misol uchun, semanglarda ma'lum. Ular etnograf N.N. Mikluxo-Maklay tomonidan tasvirlangan: "Qiz bir erkak bilan bir necha kun yashab, ko'ngilli ravishda erining roziligi bilan boshqasiga o'tadi. U bilan qisqa yoki davomiy turadi. Shunday tarzda, u guruhning barcha erkaklari bilan jinsiy aloqada bo'ladi. Shundan so'ng u yana birinchi eriga qaytadi, lekin u bilan doimiy birga qolmaydi. Vaqtinchalik yangi nikohlarga kiradi, ular tasodif va xohishga bog'liq bo'ladi. Erkak ham o'z xotinlari bilan xuddi shunday munosabatda bo'ladi.

Olimlarning ko'pchiligi, guruhiy nikohning birlamchiligini inkor qiladilar. Hatto eng quyi baliqchilar, ovchilar va termachilarda ham just nikoh va oila mavjud bo'lganini dalil qilib ko'rsatadilar. Bu bosqichdagi arxeologik topilmalar uncha katta bo'lmagan bir o'choqli uylarni keng tasvirlaydi. Bir o'choqli va katta jamoa uylari azaldan bo'lganligini bilvosita isbotini ko'rish mumkin. Olimlarning fikricha, ilk nikoh davrida er-xotinlar birgalikda turmaganlar, o'z guruhlarida yashab qolganlar, qayerdadir epizodik, masalan, o'rmonda uchrashganlar. Oila-nikoh muassasining ibtidoiy jamoa davrida shakllanishi jamiyatning keyingi taraqqiyotiga hayotbaxsh ta'sir ko'rsatdi.

Dehqonchilikka o'tish natijasida oilaning iqtisodiy funksiyasi keskin o'sdi. So'qa va plug dehqonchiligi asta-sekin jamoa doirasida alohida oilalarning mashg'uloti bo'lib qoldi. Plug dehqonchiligining rivojlanishi vaqtidan dehqonchilik mehnati ayollardan erkaklarga o'tdi va erkak oilaning boshlig'iga aylanadi. Yetishtirilgan mahsulot jamoa a'zolari o'rtasida taqsimlanmaydigan bo'ldi. Mulk esa otadan uning o'g'illariga meros qoladigan bo'ldi. Ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulk asoslari shakllana boshladi.

Jamiyat iqtisodiy tuzulmasining ilk bo'g'ini bo'lgan oilada inson jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi sifatida takror ishlab chiqarila boshlandi. Oila asosan dehqonchilik vachorvachilik bilan shugullandi. Hunarmandchilik paydo bo'ldi. Oilaning ichida mahsulot ayirboshlash yo'q edi. Oilada natural ayirboshlash mavjud bo'lib, ishlab-chiqarilgan mahsulot teng taqsimlanar edi.

Jez davrida iqtisodiy tabaqalanish va oilalarning mulkiy bo'linishi kuchaydi. Boy va qashshoq oilalar hamda qullar paydo bo'ldi. Oilaning funksiyalari va ahamiyati uch sivilizatsiya davomida jiddiy o'zgardi va ancha o'sdi.

Oilaning biologik funksiyasi insoniyat urug'ini kishilar avlodlar almashuvi asosida davom ettirishdir. Odatda oila uch aralash avlodni birlashtiradi: faol harakat qiladigan (kattalar), yetishib keladiganlar (bolalar) va ketadiganlar (qariyalar)dir. Oila ijtimoiy genotipni saqlaydigan va meros qilib beradigan asosiy bo'g'in edi. Jamiyatda tabaqalanish kuchayishi, ijtimoiy qatlamlar, toifalarning paydo bo'lishi bilan oila yordamida mavjud ijtimoiy farqlar merosiy uzatildi.

3. Irqlarga ajralish farazlarga ko'ra bundan 90-ming yil oldin neoantropning Afrikada, Osiyo va Yevropaga kirib kelishidan boshlanib, asosan bundan 50 ming yil oldin tugallandi. Hozirgi zamonaviy odam bir turga mansub insoniyatning birligi, kelib chiqishining umumiyligi, tuzilishining o'xshashligi, avlodining ma'lumligi turli irq vakillari o'rtasidagi nikohdan kelib chiqadi. Barcha odamlarning aqliy va jismoniy rivojlanishining umumiy darajasi bir xil.

Homo sapiens turi ichida uch katta irq: negroid, yevropoid va mongoloid ajratiladi. Ularning har biri kichik irq'larga bo'linadi. Irqlar o'rtasidagi farqlar teri rangi, ko'z, burun, lab shaklining o'ziga xosligiga borib taqaladi. Bu farqlar odam populyatsiyalarining mahalliy tabiat sharoitlariga moslashuvi natijasidir. Odamning butun yer kurrasida tarqalishi irqiy ajralishga olib keldi. Geografik hudud, iqlim, ma'lum bir hududda uzoq vaqt boshqalardan ajralib yopiq yashash, irq'larning shakllanishida

sezilarli ta'sir qildi. so'nggi paleolit odamlarining bosh chanoqlari topilmalarida hozirgi vaqtda mavjud insoniyat irqiy bo'linishining asosiy xususiyatlari yetarlicha aniq ifodalangan. Ular qit'a chegaralari bo'yicha aniq mos tushadi

Yevropoid irqi ko'proq Yevropada, mongoloid – Osiyoda, negroid irqi Afrika va Avstraliyada shakllandi va joylashdi. Chegara hududlar – O'rtayerdengizi, Yevropa qirg'oqlari yaqinida yevropoid irqi, Afrikada – negroid guruhlari; Kavkaz va O'rta Osiyoda mongoloid va yevropoid irqi vakillari o'rtnashdi. Janubiy va Janubiy-Sharqiy Osiyoda negroidlar mongoloid va yevropoidlar bilan aralashdi. Uch asosiy irqning morfologik har xillikda shakllanishida asosiy o'rinni ikki omil egalladi – turli qit'alarda har xil bo'lgan tabiiy muhitga moslashuv; qit'alar o'rtasida yetarlicha keskin ajralib turadigan tabiiy chegaralar tufayli butun bir qit'alarning bepoyon kengliklarida yopiq, boshqalardan ajralgan holda yashashga moslashuv yuz berdi. Faqat mil. avv. 30-25 ming yilliklarda uch katta irq – mongoloid (Osiyo - Amerika), negroid, avstraloid (ekvatorial) va yevropoid (Yevropa - Osiyo) shakllandi. Ularning orasida oraliqdagi va aralash (gibrid) tiplar mavjud.

Genetik koddagi qo'yilgan va ko'pgina bir xil bo'lmagan tabiiy yashash sharoiti bilan bog'liq bo'lgan farq mavjud. Lekin bu farqlar turli irqning vakillarini aqliy va jismoniy qobiliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi

4. Diniy e'tiqod. Ibtidoiy jamoa davrida diniy tasavvurlarning animizm, fetishizm, totemizm, magiya va shomonlik ko'rinishlari mavjud edi. Ilk diniy tasavvurlarning unsurlari neandertallar yashagan davrga borib taqaladi. Neandertal qabrlari (Teshiktosh neandertali qabri, Germaniyada Neandertal vodiysida) Osiyo va Evropada koplak saqlanib qolgan. Neandertallarning dunyoqarashiga kora go'yo "ruh" o'lgan kishining tanasiga qaytishi mumkin. O'shanda tirik odamlarga kerak bo'ladigan narsalar u dunyoda mayitga kerak bo'ladi deb o'ylaganlar. Shu sababli neandertallardan boshlab qabrlarga mehnat qurollari, qurol, buyumlar va ozuqa qo'yilgan.

Animizm – tabiat hodisalarining barchasida ruhlar mavjudligiga ishonish, odamni nomoddiy ruhiy mavjudotlar bilan muloqot qilishi mumkinligiga ishonch. Animizm iborasini fanga paleolit sharoitida yashaydigan urug'-qabilalarni kuzatgan ingliz etnografi E. Taylor kiritdi. Animizm diniy e'tiqodning eng boshlang'ich ibtidosi deb ko'rsatdi. Ibtidoiy odamlar inson uchun tushunarsiz, uning tanasidan tashqarida g'ayri tabiiy kuchlar bor deb tasavvur qilganlar.

Fetishizm – (portugal tilida tumor ma’nosini bildiradi. Magiya xossalari mavjud bo’lgan jonsiz narsalarga sig’inish). Bu so’z XVIII asrda golland sayyohi Villem Bosman tomonidan fanga kiritilgan. Insonni tasavvurini band qilgan har qanday buyum – qurigan daraxt, xarsang tosh toshlarga sig’inish ob’ekti-fetishga aylanishi mumkin. Agar hayvon tishi, oyog’i, terisi parchasi yoki suyagi egasiga omad keltirsa u sehrli kuchga ega fetish bo’lishi mumkin.

Totemizm – hayvonlar ruhiga sig’inish, avlodning yagona bir umumiy ajdod-totemdan tarqalganiga ishonish. Bu e’tiqod uzoq vaqt urug’ning birligini saqlab qolishga imkon berdi. Totem (amerika hindulari – algonkinlar tilida – “ototam” – “aka” ma’nosini bildiradi) har qanday hayvon, qush, baliq, o’simlik, hasharot bo’lishi mumkin. Har bir urug’, qabila, urug’ jamoasi o’zining ilk ajdodi sifatida biror bir jonivorni e’tirof etadi. Misol uchun turkiy xalqlarning totemi – kumush bo’ri bo’lgan. Amerika hindularida totem hisoblangan hayvonning ayrim sifatleri odamni ismini bir qismini tashkil etgan. Chingachguk Ulkan Ilon, Ayyor Tulki, O’tkir ko’zli Lochin. Totemizm qadimda – ovchi urug’-jamoalarida keng tarqalgan. Ovchi urug’-qabilaning totemi-bo’ri yoki qoplon kabi hayvonlar bo’lgan. Totem hisoblangan hayvon o’ldirilmagan, u doimo urug’-qabilani qo’llab quvvatlaydi deb ishonganlar va totem-jonivorga qurbonlik va har xil rasm-rusumlar bilan hurmat ko’rsatganlar.

Shomonlik – odamlar va oliy ruhiy kuchlar o’rtasida vositachilik qilishni bildiradi. Shomon tegishli marosim asosida, u yoki bu vosita yordamida o’zini trans, ekstaz holatiga keltiradi: Bu turli mast qiladigan narsalar (misol uchun giyohvand moddalar), do’mbira sadolari hamrohligida raqsga tushish bilan birga amalga oshiriladi. Raqsga tushayotgan shomonning og’zidan ko’pik ketadi, ba’zi hollarda tutqanog’i tutib qoladi. U tushunarsiz tilda so’zlarni qichqiradi. Bu shomoni ruhlar bilan muloqot qilayotgani, ruhlar shomonning biror bir istagini bajarayotgani (misol uchun bemorni davolayotgani) belgisi hisoblanadi.

Magiya – sehrgarlik moddiy borliqdan ajralgan ruhlar dunyosi borligiga asoslanadi, unga u yoki bu tarzda ta’sir qilish mumkin deb hisoblaydi. Magiya sirli kuchlarga ta’sir qilib, ularning yordami bilan atrof-muhitga ta’sir qilish e’tiqodi magiya moddiy borliqdan ajralagan ruhlar dunyosi mavjudligiga, unga u yoki bu tarzda ta’sir qilish mumkin deb ishonishga asoslanadi. Magiya – sehrgarlik, davolash, odamni issiq-sovuq qilish, ob-havoga ta’sir o’tkazish kabi ishlarni amalga oshiradi. Misol uchun: yomg’ir chaqirish, bolgusi ovni omadli bolishi uchun magiya marosimi amalga oshirilgan. Magiyada ko’zmunchoq, tumor taqish, turli afsunlar oqish yomon ko’zlardan, balo-qazodan asrash vositasi bo’lgan

Magiyada g'ayri-tabiiy yo'llar bilan, ma'lum bir harakatlar yoki harakatsizlik bilan (tabu-taqiqlarga rioya qilish) istalgan natijaga erishish mumkin deb hisoblanadi. Ov bilan bog'langan magiya marosimlari g'or tasviriy san'atida yaqqol ko'rinadi. G'or tasvirlarida qadimgi odamlar ov qilishi kerak bo'lgan hayvonlar tasvirlangan, Ba'zi tasvirlar qizil yoki sariq bo'yoq bilan belgilangan. Bu qizil rangga bo'yalgan kalta nayzalarning izi, bo'lg'usi ovda hayvonlarni o'lishini bildiradigan "qon" ramzi qadimgi ovchilarga ovda omad olib kelishini bildirgan. Bo'lg'usi ov oldidan g'orda ovchilar magiya marosimi o'tkazib, raqs tushib ov o'ljasi bo'lgan hayvon tasviriga kalta nayzalar otganlar. Bu bo'lg'usi ovni go'yoki omadli bo'lishini taminlagan.

Dafn marosimlari diniy tasavvurlar bilan bog'langan. Dafn marosimi qadimgi odamning ilk dunyoqarashini aks ettiradi. Dafn qilingan odam tanasiga qizil bo'yoq sepilishi, quyosh botishi va chiqishiga qarab mayitni qabrga qo'yilishi, qabrda turli buyumlarni qo'yilishi qadimgi odamning o'lim va hayot, tug'ilish, u dunyoda hayotning davom etishi to'g'risidagi dunyoqarashini aks ettiradi. Dafn e'tiqodi keyin barcha dinlarda saqlanib qoldi va umuminsoniy qadriyatga aylandi. Ilk odamni qiziqtirgan hayot va o'limning abadiy muammosi qadimdan hozirgi kungacha uzluksiz munozara mavzusi bo'lib qolmoqda.

5. Mifologiya. Xalq og'zaki ijodi folklor-mifologiya, manaviy hayotning ko'rinishini ilk shakli, odamni qurshab turgan dunyoni va o'zini shu dunyoda anglashidir. Ibtidoiy jamoa davridan mifologiya dostonlar, ertaklar, afsonalar, rivoyatlar, topishmoqlar va matallar shaklida paydo bolgan. Odam tabiat hodisalarini, osmon jismlari, o'zi uchun sirli bo'lgan koinotni, o'z hayotini, og'ir, xavf-xatarga to'la o'z hayotining qiyinchiliklarini, o'z oldida turgan muammolarni yechimini; o'z orzu-umidlarini, o'zi suyangan qadriyatlarini mifologiyada ifodaladi.

Madaniyat sohasida – tasviriy va musiqa san'ati va me'morchilik rivojlandi. Yozuvning kashf etilishi va o'zlashtirilishi ikkinchi axborot inqilobi (birinchisi-insoniyat paydo bo'lgan ilk davrda nutqning paydo bo'lishi) bo'ldi. Tabiiy va aniq fanlarning empirik asoslarini yaratilishi, sun'iy sug'orish tizimining yaratilishi va boshqarilishi, metall quyishni rivojlantirish, dengiz kemalarini qurish, dengiz sayohatlariga chiqish, hunarlarni rivojlantirishga imkon yaratdi. Quyosh taqvimi, suv va quyosh soatlari yaratildi. Matematika, anatomiya, qurilish va dehqonchilik fanlari asoslari qo'yildi. Ilk o'quv yurtlari paydo bo'ldi.

Urug'chilikdan ilk davlatchilikka, o'tilishi iqtisodiy-ijtimoiy o'zgarishlar odamni o'zini ham o'zgartirdi. Bilim, malaka, iroda, muloqotning kuchayishi, shaharlarda bilim-malakalar, mahsulotlar bilan ayirboshlash-

ning kuchayishi shaxsning yutuq va boyligi uchun asos, faol elitaning ajralib chiqishiga olib keldi.

Ehtiyojlar odamni muntazam harakatga keltiruvchi omil bo'ldi. Ehtiyojlar doimo o'sib bordi, xilma-xil bo'ldi va ehtiyojlarning o'sish va xilma xil bo'lishi hozirgacha to'xtamadi. Inson ehtiyojlarini to'rt asosiy guruhga bo'lish mumkin: odam biologik mavjudot sifatida kuch va mehnat qobiliyatini takror tiklash bilan oziq-ovqat, uyqu, hordiq, kiyim va poyafzal va h.k.larga bo'lgan ehtiyojlar paydo bo'ldi. Iqtisodiy ehtiyojlar kengayib bordi. ishlab chiqarish vositalari va yaratilgan mahsulotlarni o'zlashtirish, ularni taqsimlash va ayirboshlash, boyluk to'plash va ularni meros bo'yicha uzatish va h.k. ehtiyoji. Shu tarzda uzluksiz ijtimoiy takror ishlab chiqarishning uzluksizligi ta'minlanadi; Bu ijtimoiy ehtiyojlar guruhiga oila-qarindoshlik, etnomilliy, ijtimoiy-guruhiy, umuminsoniy ehtiyojlar kiradi.

Ma'naviy ehtiyoj – bu inson va jamiyatning intellektual potensialining taraqqiyotini aks ettiradi. Bu atrof dunyo va o'z-o'zini bilishga ehtiyoj; dunyoni estetik baholash va obrazli qabul qilish bilan aloqador; ta'limga ehtiyoj, bilimlarni to'ldirish va yangilash, jamiyatning boshqa a'zolari bilan tartibga solingan adolatli munosabatlarga bo'lgan ma'naviy ehtiyojlar, jamiyatning ko'pgina a'zolari uchun hayotning mazmuni va maqsadini belgilaydigan mafkuraviy va asosan diniy ehtiyojlar.

Mezolit va neolit boshida odamning faqat o'z xavfsizligini ta'minlash yoki, tirik qolish va qorin to'ydirish kabi biologik ehtiyojlari mavjud edi. Asta-sekin odam ishlab-chiqaruvchi xo'jalikka o'tish jarayonida uning ehtiyojlari miqyosi va soni ortib bordi. Shu jumladan ma'naviy ehtiyojlar ham paydo bo'ldi. Jez asrida iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy ehtiyojlarning keng doirasi paydo bo'ldi. Qadimgi Misr, Xitoy, Hindiston va O'rta Osiyoda yirik shaharlardagi bunyod qilingan ulkan saroylar, ibodatxonalar va sag'analar buning guvohidir.

Ehtiyojlarning hududiy ajralishi kuchaydi. Agar paleolit va mezolit davrida turli hududlarda urug' jamoasi - qabilalarning ehtiyojlari tarkibidagi farq uncha katta bo'lmagani va eng avvalo, tabiiy muhitning har xilligi bo'lsa, dehqonchilik va chorvachilik, hunarning rivojlanishi bilan ehtiyojlarning orasidagi farq va ularni qondirish darajasi muntazam o'sib boradi.

Tayanch iboralar: Homo sapiens, biologik vaqt, mongoloid, gibrid, bioijtimoiy, biosfera, iqtisodiy ajralish, eroziya, ijtimoiy genotip, plug, kolonizatsiya, ma'naviy, biologik ehtiyojlar, qobiliyatlar dinamikasi, biologik evolyutsiya.

Takrorlash uchun savollar

1. Mezolit va neolit davrlarida mehnat quollarining rivojlanishi va takomillanishining asosiy bosqichlarini ayting?
2. Insoniyat sivilizatsiyasi jarayonida metallarni o'zlashtirish, metall mehnat **quollaridan** foydalanish qanday o'zgarishlarga olib keldi?
3. Qadimgi jamiyatlar taraqqiyotining turli bosqichlarida qaysi energetika manbalari yetakchi edi?
4. Qadimgi jamiyatlarda mehnat taqsimotining o'ziga xos ko'rinishlarini ayting?
5. Qadimgi jamiyatlarda mehnat kooperatsiyasi va iqtisodlashuv mehnat unumdorligiga qanday ta'sir etdi?

Mustaqil ish mavzulari

1. Homo sapiensning genezisi.
2. Til, nutq va oilaning vujudga kelishi. Irqlar
3. Diniy e'tiqod. Mifologiya
4. Inson qobiliyati va ehtiyojlarining o'sishi
5. Inson bilim va ko'nikmalarining progressi.
6. Inson faoliyati motivlari va manfaatlari dinamikasi.

4-mavzu. SIVILIZATSIYA ARAFASI. NEOLIT SIVILIZATSIYASI

1. Insoniyat jamiyati arafasi. 2. O'tish davri Mezolit. 3. Neolit sivilizatsiyasi.

1. Insoniyat jamiyati arafasi – Homo Sapiens (neandertallar va kroman'on) zamonaviy qiyofadagi odamning kirib kelishidan boshlanadi. Neandertallar bundan 300 ming yil oldin paydo bo'lgan tur bo'lib, ular Osiyo va Yevropaning bepoyon hududlarida ovchilik va terimchilik qilib kezib yurganlar. Neandertallar tafakkur qobilyatiga ega bo'lib, ov va terimchilik uchun qurollar tayyorlaganlar. Ular past bo'yli, yelkalari keng bo'lib, sal bukchayib yurganlar. Iqlimning noqulayligi, xavfli tashqi dunyo tufayli ular zorg'a 30 yoshgacha umr kechirganlar.

Neandertallarning Fransiyadagi Levalluaz hududidan topilgan tosh mehnat qurollariga ko'ra mehnat qurollarini yasash usuli levalluaz texnologiyasi deb nomlanadi. Neandertallar aniq zarba berish yo'li bilan toshni ushatib universal qurol tayyorlash malakasiga ega bo'lganlar. Olimlar bundan 250 ming yil oldin tayyorlangan tosh uchlik yog'och nayzani topdilar. Olimlar bu qurolni tadqiq qilinganlarida, neandertallar yog'och nayzaga tosh uchlikni hayvon payi yoki hayvon terisidan qilingan qa'yish bilan bog'laganlarini ko'rdilar. Bundan tashqari neandertallar tosh uchlikni nayza sopiga qayin daraxti yelimi bilan yopishtirganlar. Olimlar neandertallarining qayin daraxtidan yelim olish texnologiyasini rekonstruksiya qildilar. Neandertallar hayvon bosh chanog'i ustiga qayin po'stlog'i o'ramini qo'yib, uni 400 gradus haroratda qizdirib yelim (qatron) mum olganlar va nayza uchini yog'ochga ana shu mum bilan yopishtirganlar. Neandertallarga tegishli bunday topilmalar Osiyo va Yevropaning ko'pgina hududlaridan topilgan.

Neandertallar rivojlangan tafakkurga va tilga ega bo'lganlar. Ular atrof-muhit va o'zlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lganlar. Osiyo va Yevropadan topilgan neandertal qoldiqlari neandertallarda ilk diniy tasavvurlar shakllanganidan dalolat beradi. Qabrlarda tosh mehnat qurollari (O'zbekiston, Teshiktosh g'ori), chig'anoqlardan teshib ishlangan munchoq (Ispaniya) topilgan neandertallarda dafn marosimlari shakllangan; Ispaniyada 10 neandertal qoldiqlari topilib, ulardan 3 ayol skeleti alohida qo'yilgan. Ayol skeleti yonida qoplon panjasi qo'yilgan. Hozirgi Amerika hindularida ham ayiq panjasini o'lja ramzi sifatida qabrga qo'yish

rusumi mavjud. Neandertallar ramzlardan foydalanganlar. Ispaniyada topilgan neandertal qoldiqlari suyagidan yasalgan uchi o'tkir qurolida qizil rangli pigment, qizil mineral qoldig'i mavjud. O'rtayer dengizi qirg'oqlarida chig'anoqlardan neandertallar kosmetika maqsadida foydalanganlar. O'zlarini boshqalardan ajratish uchun ular badanlarini qizilga bo'yan-ganlar.

Bundan 40 yil oldin muzlikning yangi bosqichi boshlanib Afrikadan Osiyo va Yevropaga homo sapiens kirib keldi. Ular neandertallarga qaraganda ancha rivojlangan edi. Homo sapiens keyingi 10 ming yil davomida neandertallar bilan yonma-yon yashadi. Neandertallar turi 30 ming yil oldin o'lib ketdi.

Tadqiqotlarga ko'ra hozirgi odamlarning 4 foizida neandertallarning qoni oqadi. Hozirgi zamon fani neandertallar genomini (genom-xromosomalar to'plami) DNK sini, uning 30 ming yil oldingi qoldiqlari bo'yicha tikladi. 4 yil davomida neandertal ayol skeleti DNKsi ustida tadqiqot olib borildi. Ayol skeleti DNKsi bilan har 5 xil etnik guruhning vakillarini DNKsi taqqoslandi. Tadqiqotlarda Osiyo va Yevropa etnik guruh-lari neandertal DNKsini meros qilib olganlari aniqlandi. Afrikaliklarning DNKsi esa unga o'xshamaydi. Zamonaviy odamning DNKsida neandertallar DNKsi 1 foizdan 4 foizgacha, xitoyliklarda neandertallar DNKsi kam miqdorda 2% ni, yevropaliklarda esa 4% ni tashkil etadi. Italiyaning Toskana viloyatidan topilgan neandertal qoldiqlari ularning zamonaviy odam bilan yaqin aloqada bo'lganini ko'rsatadi. Neandertallar geni hozirgi odamga immunitetni berdi. Neandertallarning geni bizga o'tdi, ular hayotiy meros qoldirdilar. Bu immunitet afrikaliklarda yo'q edi.

Aqlli odam yerda biologik evolyutsiya natijasida paydo bo'ldi. Uning asosiy nihoyasi o'ta murakkab, nozik, bilishning mukammal quroli bo'lgan odam miyasining shakllanishi edi. Har bir tirik jon-zot o'zining sezish organlariga ega. U atrof-muhitda yuz beradigan o'zgarishlarni adaptatsiya qilishga yordam beradi (Aks holda, undagi keskin o'zgarish-larda u yoki bu tur, hatto, urug' yo'q bo'lib ketadi). Faqat odam tabiatdan qabul qilingan axborotni takror ishlash in'omini oldi. Aqliy xulosa qilish, umumlashtirish, atrof-muhitga moslashish va uni o'zgartirish, uning alohida unsurlarini o'z ehtiyojlariga moslashtirish qobiliyatiga ega bo'ldi.

Zamonaviy odamning paydo bo'lishi, uning gavdasining tuzilishi va hayot tarzida boshqa o'zgarishlar ham yordam berdi: tik yurish; ovqatga o'simlik va hayvon mahsulotlarini ishlatish, bu ovqatni xilma-xil qildi, odamlarni halokatli vaziyatlarda tirik qolishiga yordam berdi; mehnat qurollaridan foydalanish boshda ibtidoiy, keyin yana murakkab olovni o'zlashtirish.

Yuzlab avlodlarning tajribalari asosida ijtimoiy hayotning qoidalari ishlab chiqildi. Jamiyatning birinchi bo‘g‘ini sifatida juft oila hamda urug‘ jamoasi (minimal-25, maksimal-200-500 odam) shakllandi. Oilalar o‘zlariga eng oddiy turar joylar qurdilar yoki g‘orlarda joylashdilar. Jamoa hayvonlar podasining harakati orqasidan yurib kun ko‘rdi. Aholi zichligi juda oz bo‘lib, 50-100 km²ga bir odam to‘g‘ri kelar edi. Bu hozirgi Xorazm viloyati (yer maydoni 40 ming km²) yoki Daniya hududi (44 ming km²)da bor-yo‘g‘i ikki ming yoki bir ming kishi yashashi mumkin edi.

O‘rta va yuqori paleolit davomida ishlab chiqarish tashkiloti yuzaga keldi. Uning asosida yosh-jins taqsimoti va mehnatning oddiy kooperatsiyasiga asoslangan urug‘ jamoa tashkiloti turar edi. Erkaklar ov-bal-iqchilik va mehnat qurollari tayyorlash bilan shug‘ullanar edilar. Ayollar termachilik, ovqat tayyorlash, olovni saqlash, bola tarbiyasi bilan shug‘ullanar edilar.

Nutq-so‘zlashning rivojlanishi muloqot qilish, to‘plangan tajriba va dastlabki bilimlarni uzatishga yordam berdi. Ibtidoiy san‘at paydo bo‘ldi. G‘orlar: Altamir g‘ori (Ispaniya), Lasko g‘ori (Fransiyada), Kapova g‘ori (Boshqirdiston), Zarautsoy g‘ori (O‘zbekiston), Sarmishsoy (O‘zbekiston) hayvonlar, ov manzarasi tasvirlari saqlanib qolgan. Dunyoda ibtidoiy diniy e‘tiqodlar-totemizim, animizm, magiya, dafn marosimlari, bag‘ishlov marosimlari tarqaldi.

Oqibatda aqlli odam o‘zining ajdodlariga qaraganda, nafaqat biologik, balki ma‘lum ijtimoiy farqlarga ega edi: Odamning nutq-so‘zlashuv qobiliyati bolib, Homoning o‘tib ketgan ajdodlariga qaraganda, anchagina rivojlangan ehtiyojlar va ko‘nikmalarga ega bo‘ldi; turli xil qurollarini tayyorlash va foydalanish; birlamchi hamkorlik va mehnatning yosh-jinsiy taqsimoti; oila va urug‘ jamoasi, ilk bilimlar, ibtidoiy san‘at, birgalikda yashash va animistik e‘tiqodlar. Mehnatning natijalarini o‘zlashtirish shakllari endigina yuzaga kelayotgan edi. Faqat mehnat qurollariga shaxsiy egalik qilish bilan cheklanish, ovchilik, o‘ljalar, termachilik mahsulotlarining natijalarini jamoa bo‘lib bir tekisda taqsimlash mavjud edi. Hali ijtimoiy guruhlar, davlat va huquq yo‘q edi. Bu ming yillarga cho‘zilgan jamiyat arafasi boldi. Bu davrda odamlarning ibtidoiy jamoalar Osiyo, Afrika, Yevropa, Amerikaning bepoyon hududlarida joylashgan edi. K.Yaspers urug‘ jamoa davri yutuqlarini quyidagicha tafsifladi:

1. Olovdan foydalanish va mehnat qurollarini yasash ko‘nikma-malakasining shakllanishi odamni boshqa mavjudotlardan farq qilishiga va asta-sekin o‘zini jismoniy va ma‘naviy kamol topa borishiga sabab bo‘ldi.

2. Nutqning paydo bo'lishi. Hayvonlarning o'zaro bir-birlarini tushunishi, o'z hissiyotlarini ichki sabablar bilan ifodalashidan tubdan farq qilgan predmetli dunyoning mazmunini uzatadigan nutqda anglanadigan fikrlash va nutqning ob'ekti bo'lib xizmat qiladigan ifodalash qobiliyati faqat insonga xos.

3. Odamning inson sifatida kamol topishining omillaridan biri uning o'z-o'zini nazorat qilishga qodir bo'lishidir. Misol uchun, urug jamoasi davrida tabu ya'ni taqiq orqali odam ozini faoliyatini va his-tuygusini tiyib turishi mumkin edi.

4. Urug' jamoasi va jamiyatlarning tashkil topishi. Odam ongli holda oz turmush tarzini jamoa asosida qurdi va uni yuqori shakllarga – davlat va jamiyat shakliga olib keldi. Oqibatda bu vaqt ichida insonning ijtimoiy genotipi shakllandi. U nafaqat o'z tirikchiligi va tabiat injiqliklaridan ko'proq mustaqil bo'lishi va mehnat qurollari hamda texnologiyalarni qo'llashi uchun, eng avvalo, muloqot vositalari va fikrlarni uzatish, kishilik hamjamiyatlarini tashkil etishda insonning genotipi aks etdi. Axloqiy norma va ma'naviy dunyo insonning o'zini anglashida ko'rindi.

2. O'tish davri: Mezolit. Mezolit jamiyatga o'tish davri ekanligini qanday asoslash mumkin? O'tish davri qadimgi Old Osiyo (Misr, Mesopotamiya, Falastin, Sharqiy O'rtayer dengizi sohillari va Kichik Osiyo) uchun taxminan mil. avv. XIII-IX ming yilliklarga tengdir. Bu vaqtda yirik ekologik tushkunlik yuz berdi muz erishi natijasida. Yerning yashashga yaroqli quruqlik qismida iqlim sharoitlari, flora va fauna o'zgardi. Iqlimning isishi sovuqqa moslashgan hayvonlarni bir qismini qirilib ketishiga, bir qismini odamlar tomonidan qirib yuborilishi va qolgan qismi shimol ko'chdi. Yirik hayvonlar kamaydi yoki iqlim va odamning ongli faoliyati tufayli qirilib ketdi. Natijada asosiy oziq-ovqat manbai bo'lgan ovning unumdorligi pasaydi. Endilikda tez yuguradigan mayda hayvonlar va qush-parrandalar ov oljasiga aylandi. Insonyat tarixida o'q-yoy mil. avv. 70 ming yillarda paydo bo'ldi. Mezolit davrida oddiy o'q-yoy takomillashtirildi. Takomillashgan o'q yoyni paydo bo'lishi ovni unumdorligini oshirdi. "Kamon o'q, kamon ipi – degan edi F.Engels, juda murakkab qurolni tashkil qiladi. Uni kashf qilish uzoq to'planadigan tajriba va rivojlangan aqliy qobiliyat, shuningdek, bir vaqtning o'zida boshqa kashfiyotlarni bilishni talab qiladi". Odamlar mehnat qurollarini takomillashtirishga majbur boldilar. Urug' jamoalarida o'q uchlari, nayza, gapunlar, otildigan kalta nayzalar tayyorlana boshlandi.

Dengiz va daryo qirg'oqlarida yashaydigan odamlar baliq ovida suyak qarmoq va to'rlardan foydalana boshladilar. Ilk bor Old Osiyodaloydan

idishlar tayyorlash kashf qilindi. Ibtidoiy jamoalar ogir iqlim sharoitlarida tirikchilik uchun yangi ovqat manbalarini izlab, noqulay iqlim sharoitlariga moslashishga harakat qildilar. Bu jarayon ming yillarni qamrab oldi. Mezolit davrida echkilar, qo‘ylar, eshak (oldinroq it), keyinchalik yirik shoxli mollar, cho‘chqa madaniylashtirildi. Albatta, suyak va tosh motigalar bilan yerga ishlov berish kam hosilli, qo‘lga o‘rgatilgan hayvonlar sut, jun, go‘sht berar edi. Lekin bu yirik texnologik to‘ntarishning boshlanishi edi. Qaysiki, u yangi iqtisodiy ukladning shakllanishiga yordam berdi. Mehnat unumdorligiga qarab jamoa va oilalarning mulkiy tabaqalanishi kuchaydi. Ilgari foydalanilmagan o‘tloqlar, ekishga yaroqli bo‘lgan yerlarni o‘zlashtirish ehtiyoji tug‘ildi. Urug‘-qabilalar o‘rtasida yer, o‘tloq, podalar uchun to‘qnashuvlar kuchaydi. O‘sha davrga tegishli qoyatosh tasvirilarida jang manzaralari mavjuddir. Ovchilik qurollari (o‘q-yoy, o‘qlar, nayza, tayoq)dan odamlarni o‘ldiradigan qurol sifatida foydalanila boshlandi.

Dehqonchilik mashg‘uloti o‘troq turmush tarzini shakllantirdi. Endilikda odam muqim bir joyda yashab qolib o‘zining oziq ovqatga bolgan ehtiyojini qondirish imkoniyatiga ega boldi. Shu sababli u ko‘pgina o‘troq manzilgo‘hlar, qo‘rg‘onlarni barpo qila boshladi. Ba’zida devorlar bilan o‘ralgan (Falastinda Iyerixon, Kichik Osiyoda Chatalguyuk, Suriya va Hindistonda Bahor kabi) qo‘rg‘onlar paydo bo‘ldi. Dehqonchilikni paydo bo‘lishi qadimgi odamni biologik mavjudot sifatida tiri qolish imkoniyatini kuchaytirdi va insoniyat sivilizatsiyasining bo‘lg‘usi taraqqiyotiga mustahkam zamin yaratdi. Lekin dehqonchilik uchun yerlarni uzluksiz o‘zlashtirilishi, o‘sibliklar navlariga ta’sir qilish ekologik tushkinlik va halokatni, insoniyatning hayot xavfsizligiga ham ulkan xavfni tug‘dirdi.

Aholining migrasiyasi kuchaydi. Dunyoning iqlim sharoiti qulay bo‘lgan hududlari odamlar tomonidan o‘zlashtirila boshlandi. Chorvadorlar yaylovlarning o‘t-xashak zahiralarini tugatib, boshqa hududlarga ko‘chdilar. Tabiiyki, ular o‘zlari ko‘chib borgan yangi hududlarda yashab turgan boshqa urug‘-jamoalar bilan to‘qnashdilar. Yer-suv, serot yaylov va otloqlar uchun urush-janjallar kughaydi. Mil. avv. 8-7 ming yilliklarda Osiyo qabilalari Shimoliy Afrika, Yaqin Sharqning cho‘l-yaylovlariga ommaviy ravishda ko‘chib joylashdilar.

Insonning ma’naviy dunyosida ham o‘zgarishlar ro‘y berdi odamlar ilk qadriyatlarni shakllantirdilar. Dehqonchilik va chorvachilikni o‘zlashtirgan jamoalar tabiiy jarayonlar, o‘simliklarni o‘stirishning mavsumlari, hayvonlarni o‘stirishning ko‘p yillik sikllarini bilishning yuqoriroq darajalariga tayandilar. Yil mavsumlari boyicha tegishli hayotiy bilim-

ga ega bolgan urug jamoalari ilk dehqonchilik kalendarini tuzdilar. Lekin tabiat kuchlariga ishonish, magiya, sehrgarlik odamning doimiy hamrohi bolib qolaverdi.

Ovchi qabilalar ham tobora kamayib borayotgan hayvonlarni ov qilishning yangi takomillashgan usullaridan tuzoq qo'yish, to'rlar, chuqur o'ralardan foydalana boshladilar. Hayvonlarni madaniylashtirish, ularning mahsuldor nasllarini etishtirish konikmasi shakllana boshladi. Yuzaga kelayotgan jamiyatning tuzilishi murakkablashdi. Faoliyat turlari ko'paydi (tosh, yog'och, suyakdan mehnat qurollarini tayyorlash; yerga ishlov berish; mol boqish; dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash; uy-joy qurilishi va h.k.)

Mezolit davrida takror ishlab chiqarishning ibtidoiy uch sohali tuzilmasi mavjud edi. Oziq-ovqat yetishtirish yetakchi o'rin tutib, mehnat qurollarini tayyorlash uncha katta hajmda emas edi (toshdan mehnat qurollari, o'q-yoy, nayza va hokazo tayyorlash).

Mezolit davrida mehnat va mahsulotning 2/3 qismi ov, baliqchilik va termachilikka to'g'ri kelar edi.

Mezolitda jamoaning birdamlikdagi mehnati, tosh, suyak va yog'och qurollarni ishlab chiqarish, takror ishlab chiqarishning o'zlashtiruvchi xildagi paleolit usuli ustuvor edi. Lekin dehqonchilik va chorvachilik uchun mehnat qurollarining to'plamidan foydalanadigan takror ishlab chiqarishga yo'naltirilgan neolitga xos bo'lgan ishlab chiqarish usuli tug'ildi.

Mezolit davrida ibtidoiy, ijtimoiy-iqtisodiy ukkladga xos bo'lgan ishlab chiqarish vositalari jamoa bo'lib o'zlashtirish va bir tekis taqsimotga asoslangan edi. Lekin yangi oila mulkchiligi, patriarxal oila ichida bir tekis taqsimot va natural ayirboshlashga asoslangan ukklad shakllana boshladi.

Mezolit davrida barcha ishlab chiqarilgan mahsulot (sarf qilingan xomashyolarni qoplash uchun foydalanilgan, uning ko'p bo'lmagan qismidan tashqari) yakka tartibda yoki jamoa iste'moli uchun yo'naltirilar edi. Qo'shimcha mahsulot amalda yo'q edi

Jamoa iqtisodiy ichidagi munosabatlar, mahsulot taqsimotini tartibga solishni murakkab, tabaqalashtirilgan qoidalarini talab qilar edi. Natijada mezolit davridagi mavjud qarama-qarshiliklarni yengib o'tish natijasida uning bag'rida birinchi sivilizatsiya-neolit tug'ildi.

Quyi paleolitning navbatdagi bosqichi Shell davrida (Fransiyadagi Shell qishlog'i nomidan olingan. Bu qishloqdan toshdan yasalgan qo'l randasi topilgan) uch burchakli nayza uchlari yordamida yovvoyi hay-

vonlarni ovlash yoki ulardan himoyalaniş, go'shtni maydalalab yeyiř va o'simliklarni qazib olish mumkin edi. Yuqori paleolit (mil. avv. 40-10 ming yillik) va o'rta paleolitga o'tiř (mustye davri) mehnat qurollari-ning yanada rivojlanish davri bo'ldi. Qo'l randasi yoki qirg'ich ko'pincha ushatilgan toř siniqlaridan tayyorlandi. Qo'l randasidan yog'och va teriga iřhlov beriř, silliqlash va kesishda foydalanilgan.

Yuqori paleolit (mil. avv. 40-10 ming yil)ga o'tiř nayza va irg'itiladigan nayzalar, nayzalarning suyak uchlari, garpun, toř bolta va keskichlar tayyorlash boshlanadi. Mezolit davrida o'q-yoyning kashf etiliři ulkan kashfiyot bo'ldi. O'q-yoy ovchilarning mehnat unumdorligini ko'p marta oshirdi va jangovar qurol bo'ldi. Shuningdek, mikrolitlar-kichik toř qurollardan keng foydalanila boshlandi. Mikrolitlar kichik plastinalar (toř parchalari) yoki ushatilgan toř parchasi bo'lib, nayza uchi, o'qlar, uloqtiriladigan nayzachalar, garpunlar sifatida iřhlatilgan. Ilk dehqonlarning motiga shaklidagi qurollari va toř yorg'ichoqlari paydo bo'ladi. Baliqchilikda qarmoq va to'rlar qo'llaniladigan bo'ldi. Sopol idishlar tayyorlash boshlandi.

Mezolit davrida yetakchi bo'lgan biojtimoiy farqlar: jins bo'yicha farqlar, erkaklar va ayollar avlodining saqlanishi va uni takror iřhlab chiqariřning asosi barcha sivilizatsiyalarda saqlanib qoldi. Insoniyat tabiiy tarixi arafasining birinchi bosqichlarida, guruhiy nikohning so'ngida jamoada avlod hisobi ayol urug'idan olib borilgan. (matriarxat). Mezolit davridan boshlab o'q-yoyning paydo bo'liři, neolit davrida dehqonchilik va chorvachilikka o'tiliři, xususiy mulkchilikning yuzaga kelishi bilan oila va jamiyatda birinchilik erkaklar qo'lga o'tdi. Ayollar va erkaklar soni o'rtasidagi zaruriy nisbat-taxminiy tenglik tabiiy qonunlar bilan kafolatlandi.

1. Ijtimoiy hayot. Yosh farqlari bo'yicha aholi chaqaloq va bolalar, o'smir yoshli, katta va keksalar yosh guruhlariga bo'lindilar. Jamiyatning har bir a'zosi, agar uning hayot yo'lini biron-bir sabab uzib qo'ymasa, bu fazalar orqali o'tgan. Birinchi va so'nggi fazadagilar jamiyatning boshqa mehnatga qobiliyatli a'zolari qo'llab-quvvatlashiga muhtoj edi.

Urug'-jamoalarda o'smirlarni katta yoshlilar qatoriga o'tiř jarayoniga jiddiy e'tibor berilgan. Og'ir, xavf-xatarga to'la hayot sharoitida katta yoshli erkaklar urug' jamoani xavfsizligini ta'minlash, zaruriy oziq-ovqat topishda muhim o'rin tutganlar. Erkaklar jamoani xavfsizligi va o'z hududida tinch yashashi uchun mas'ul edilar. Shu sababli jamoa a'zolarining har biri kuchli va irodali, jamoa himoyasiga tayyor turishlari zarur edi. Shu sababli o'smirlikdan balog'at yoshiga yetiř vaqtida ular turli

sinovlarga duch qilinganlar. Inisiatsiya – balogʻat yoshga yetish bagiʻshlov sinovlari boʻlgan. Oʻsmirlar balogʻatga yetish sinovlaridan oʻtib, bagiʻshlov marosimidan soʻng erkaklar safiga qoʻshilganlar. Shu lahzadan oʻsmirning mavqei oʻzgarib, u haqiqiy erkak jamoaning toʻlaqonli aʻzosi hisoblangan.

Urug jamoasida davriy ravishda avlodlarning almashuvi yuz beradi. Avlod yoki urugʻga xos xususiyatlar urugʻning manfaatlarini faol ifodalovchilari bilan belgilanadi. Ular odatda ozroq boʻlib, lekin aynan ular eski qotib qolgan oz umrini yashab boʻlgan anʻanalardan voz kechadigan oʻzgacha fikrlaydigan odamlar boʻlgan. Oʻtmishga ketayotgan, lekin oʻz mavqegini saqlab qolishga urinadigan kekxa avlod vakillarining qoloq qarashlari (konservatizm)ni yoshlar yengishga harakat qiladilar. Avlodlar kurashi oʻzgarishlarning yuzaga kelishi va hayotbaxsh olgʻa qadam tashlashidir. Avlodlar oʻrtasida dunyoqarashlarning har xilligi ixtilofning sababi boʻladi. Yosh avlod oʻz ota-bobolarini orttirgan tajriba, bilim-koʻnimalarini oʻzlashtirish bilan birga ularni eski qarashlarini qabul qilmaydilar.

Mezolit davrida odam hayotining oʻrtacha davomiyligi uncha katta emas edi. Avlodlar almashinuvi (15-20 yilda bir marta) tez-tez yuz berib, aralash avlodlar orasidagi farq sezilarli emas edi. Mehnat qurollarini takomillashuvi ishlab chiqaruvchi xoʻjalikka oʻtilishi oziq-ovqat ratsionini boyitib, uning sifatini yaxshiladi. Shu sababli har bir keyingi tarixiy bosqichda hayotning oʻrtacha davomiyligi, avlodlar oʻrtasidagi oraliq oʻsdi.

Sohada yuz beradigan oʻzgarishlar iqtisodiy sabablarga ham bogʻliq boʻladi. Mezolit va ilk neolitda ijtimoiy oʻzgarishlar deyarli yuz beradi. Lekin ijtimoiy oʻzgarishlar kelajakda paydo boʻladigan mulkiy tengsizlik va mehnat taqsimoti tufayli yuz beradi.

3. Neolit sivilizatsiyasi. Insoniyat sivilizatsiyaning boshlanishi dehqonchilikni paydo boʻlishi yaʻni neolit inqilobi bilan bogʻlaynadi. Neolit sivilizatsiyasining asosiy mazmuni oʻsimliklarni tasodifiy oʻstirish va yovvoyi hayvonlarni ayrim hollardagina qoʻlga oʻrgatishdan asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini muntazam, maqsadli yoʻnaltirilgan holda dehqonchilik va chorvachilik asosida ishlab-chiqarishga oʻtish edi.

Dehqonchilikning paydo boʻlishi odamni alohida biologik tur sifatida saqlanib qolishiga va hozirgi sivilizatsiyaning mavjud boʻlishiga olib kelgan asosiy omil boʻldi. Jismoniy jihatdan oʻta zaif va gavdasi nozik boʻlgan mavjudot – odam biologik turini nafaqat oʻzini saqlab qoldi, balki barcha boshqa biologik mavjudotlar ustidan hukmron boʻlgan dahshatli

bir biologik turga aylana bordi. Ulkan mavjudotlar (dinozavrlar, ulkan kitsimonlar, qilichsimon tishli yo‘lbarlar, mamontlar iqlimga moslasha olmay qirilib ketdi. Lekin mavjudotlar orasida o‘ta himjon va nozik bo‘lgan, lekin o‘ta ayyor va makkor, nihoyatda shafqatsiz tur bo‘lgan odam ozini saqlab qoldi. Odam nihoyatda aqlsiz, o‘zligini anglamagan biologik tur sifatida yashab kelmoqda.

Odam o‘zining yashsashi uchun zaryr bolgan oziq – ovqat mahsulotlarini ozi ishlab chiqarishga asta – sekin o‘tish boshlandi. Ishlab chiqarish xo‘jaligi – dehqonchilik va chorvachilik paydo bo‘ldi.

Jahon fanida o‘simliklarni madaniylashtirish muammosi XIX asrdan boshlab o‘rganilgan. Shvetsariyalik botanik A. Dekandol (1803-1896) butun hayotini madaniy o‘simliklar muammosini o‘rganishga ga bagishladi. Uning 250 kitobining uchdan bir qismi madaniy o‘simliklarning kelib chiqishi va botanik geografiyaga bagishlangan. Dekandol birinchi asarini 28 yoshida, so‘ngi asarini o‘limidan besh yil oldin 1883 yilda chop etdi. Dekandol “Botanik geografiya” asarida (1855) va bu asarning ikkinchi jildida alohida madaniy o‘simliklarning kelib chiqishini o‘rgandi va o‘sha davrda to‘plangan tarixiy va botanik-geografik materiallarni umumlashtirdi. Olim 247 xil o‘simlikni madaniylashgan o‘choqlarini aniqladi. Bu o‘choqlarni aniqlashda botanik-geografik, tarixiy-arxeologik va lingvistik maxsus metodlarni ishlab chiqdi. Dekandolning tadqiqoti hozirgacha fan tarixida botanik geografiya yo‘nalishida tengi yo‘q hisoblanadi. Dekandol bilan bir vaqtda Charlz Darvin bu soha bilan shug‘ullandi. Darvin tadqiqotida madaniy o‘simliklarni tahlil qilishda Dekandolning asarlaridan to‘la foydalandi va ularga suyandi. Dekandolning asarlarini yuqori baholab va uning asarlaridan foydalangan bu sohada tadqiqot olib borgan rus olimi N. I Vavilov bo‘ldi. Lekin Vavilovning tadqiqoti tugallanmay qoldi. N.I. Vavilov dehqonchilik paydo bo‘lgan dunyoning turli hududlarida joylashgan yetti markaz yoki o‘choqni ajratdi:

1) Janubiy-G‘arbiy Osiyo o‘chog‘i (Ichki va Sharqiy Kichik Osiyo, Eron, Afg‘oniston, O‘rta Osiyo). Bu hududda yumshoq bug‘doy, javdar, kanop, olma, nok, shirin olcha va bir qator boshqa o‘simliklar madaniylashtirilgan.

2) Hindiston yarim oroli, Hindi-Xitoy. Bu yerda sholi, tariq va arpaning bir necha turlari, soya, Osiyo paxtasi kelib chiqqan.

3) Tog‘li va Sharqiy Xitoyning daryo va vodiylari. Bu yerda sholg‘om, sitrus mevalari, choy, no‘xat, tut daraxtlari kelib chiqqan.

4) Oʻrtayer dengizi mamlakatlari (Kichik Osiyo qirgʻogʻi, Suriya, Falastin, Misr, Tunis, Jazoir, Marokko, Italiya, Ispaniya va Bolqon yarim oroli). Bu hududlarda anjir, noʻxat, zaytun, xurmo, suli madaniylashtirilgan. Bugʻdoy, tariq boshqa markazlardan olib kelingan, lekin yangi sharoitda ular ancha oʻzgaradi

5) Sharqiy Afrikaning togʻli hududlari, asosan Efyopiya. Bu yerda N. I. Vavilovning fikricha, bugʻdoy, tariq, sorgo va kofe mustaqil madaniylashtirilgan. 6) Janubiy Meksika. Bu yerda mais (shirin kartoshka), Amerika paxtasi va kakao kelib chiqqan.

7) Peru-Boliviya kartoshkaning vatani.

Inson birinchi madaniylashtirgan osimlik tariq edi. Undan keyin boshqa donli ekinlar oʻzlashtirila boshlandi. Mil. avv. 10-8 ming yilliklarda Falastin, Kichik Osiyo, Eronda; mil. avv. 6 ming yillikda Misrda; mil. avv. 5-4 ming yillikda Oʻrta Osiyoda gʻalla ekila boshandi.

Neolit davrida ov, baliqchilik, termachilikning ulushi keskin kamaydi. Birinchi oʻringa dehqonchilik va chorvachilik chiqdi. Mehnat qurollari, kulolchilik buyumlari, ishlab chiqarish, uy-joy qurilishi ulushi oʻsdi. Mahsulotning koʻp qismi jamoa xoʻjaligida ishlab chiqarildi va teng taqsimotga asoslanildi. Oilaning paydo boʻlishi bilan oilaning ulushi yaratiladigan va oʻzlashtiriladigan mahsulotda koʻpaydi. Jamoa birgalikda bajaradigan umumiy ishlar ozroq ulushni tashkil etdi. Neolit davrida iqtisodiyotning pogʻonaviy tuzilishi uch darajali boʻlib qolaverdi. Lekin ikki asosiy daraja oʻrtasidagi nisbat aksincha boʻldi. Oila xoʻjaligi natural mahsulotning 2/3 qismini oʻz isteʼmoli uchun, qolgan bir qismini esa jamoa xoʻjaligi ishlab chiqardi.

Urugʻ – qabilalar oʻrtasida yer-suv, yaylovlar uchun toʻqnashuvlar jez asrida jamiyat hayotining bir qismiga aylandi. Urushlar oqibatida turli sohalarda inson faoliyati jadallashib, aholi soni tartibga solindi. Neolit sivilizatsiyasi jamoaning barcha aʼzolarini teng huquqli va shaxsiy erkinligi bilan ajralib turar edi. Oila aʼzolari uning boshligʻiga qatʼiy boʻysuib, xoʻjalik faoliyati bilan mashgʻul boʻlganlar. Oila jamoaning ichki urf-odatlariga qatʼiy amal qilib yashar edi.

Neolit davrida ijtimoiy hayot urug-jamoa, keyin esa qabila miqyosida oʻz-oʻzini boshqarish asoslarida amalga oshirildi. Saylangan oqsoqollar toʻplangan anʼana va urf-odatlarga tayanib urugʻ aʼzolari urugʻ oqsoqolni saylaganlar boshqaruvni amalga oshirganlar. Aholi sonining oʻsishi va uning turli ijtimoiy guruhlariga boʻlinib ketishi turli tabaqalar oʻrtasida ijtimoiy munosabatlarni murakkablashtirdi. Bu ziddiyatli munosabatlarni

tartibga solish zaruriyati, boy tabaqa huquqini himoya qilish, noaniqlikni tugatish lozim edi. Urug‘-qabila oz hududi xavfsizligini qo‘shni dushman urug‘lardan tahdididan himoya qilishga muhtoj edilar.

Mehnat qurollari. Neolit sivilizatsiyasida mehnat qurollari oddiy bo‘lib toshdan tayyorlangan. Neolit odami termachilik va ovchilik, ilk dehqonchilikda foydalanish uchun yog‘och, tosh va suyaklardan mehnat qurollari tayyorlashga o‘tdi. Odamlar ibtidoiy qurollar bilan o‘simlik urug‘lari va ildizlarini qazish, terish va ularni ekishni amalga oshirdilar tosh, kremniy, yog‘och va suyak parchalariga ishlov berib, ularga kerakli shakl berishga o‘rgandilar. Quyi paleolitning dastlabki bosqichida tosh madaniyati – qo‘pol ishlov berilgan, bodomsimon shakldagi tosh qurollar tayyorlangan. Bunday tosh qurollar (Toshning bir tomoniga ishlov berilgan bunday tosh qurollarga olimlar chopper deb ataldi) Sharqiy Afrikadagi Olduvay g‘oridan topilgan (Olduvay madaniyati). Neolitga o‘tish davrida dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik va harbiy ishda foydalanish uchun turli mehnat qurollari keng tarqaldi. Toshdan qurollar tayyorlashning yangi texnikasi o‘zlashtirildi. G‘alla o‘roqlari va pichoqlar silliqlash, parmalash orqali tayyorlana boshlandi. Loydan pishirilgan sopol idishlar yasaldi.

Endi mehnat qurollari turli sohalarda foydalanish uchun maqsadli tayyorlana boshlanishi an‘anaga aylandi. Dehqonchilik uchun maxsus mehnat qurollari majmuasi shakllandi (qirg‘ich, so‘qa, yog‘och plug, o‘rish uchun g‘alla o‘roq va pichoqlar, hosilni saqlash uchun sopol xumlar). Qurollarni tayyorlashda kremniy, obsidian, suyak, hayvon shoxlari bilan bir qatorda yanada mustahkam va ishlov berish qiyin bo‘lgan nefrit, jadeit kabi menerallar ishlatildi.

Mehnat qurollarining takomillashuvi ibtidoiy odamlarning turmush tarzini tubdan o‘zgartirgan bir necha ming yilliklarni qamrab olgan chuqur to‘ntarish edi. Uch ming yil ichida odamning o‘zi kam o‘zgardi. Lekin oila va ibtidoiy jamoa tirikchilikning barqaror manbalariga ega bo‘ldi. Insonning imkoniyatlari ham kengaydi. Odam ovqatga ishlatadigan tabiat mahsulotlarining miqdori o‘sdi. Mehnat qurollari, buyumlarning turli xillari qo‘llanila boshlandi.

Aholi asosan jins-yosh mehnat taqsimotiga asoslangan faoliyat (ov, termachilik, baliqchilik), asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanadigan asosiy turlariga bo‘lindi.

Dehqonchilik va chorvachilikda yanada murakkab bo‘lgan mehnat qurollari paydo bo‘ldi. Ortirilgan malaka va ko‘nikmalar avlod-

dan-avlodga uzatildi. Oziq-ovqat va boshqa sochiladigan narsalar, don, urug'larni saqlash uchun sopol idishlar kashf qilindi. Ikkinchi mehnat taqsimoti natijasida to'qimachilik dastgohi, teriga ishlov berish qurollari va tikuvchilik kashf qilindi.

Mehnat qurollarining takomillashuvi bilan mehnat unumdorligi o'sdi. Endilikda dehqon oilasi o'ziga ajratilgan chek yerdan o'zi uchun yetarli mahsulotni yetishtirishi mumkin edi. O'troq hayot kechiradigan dehqonchilik jamoalari, aholining ko'payishi himoya devorlari bilan o'rab olingan qo'rg'onlarning bunyod qilinishiga olib keldi. Bu qo'rg'onlarda yuzlab uylar, ustaxonalar, ibodatxonalar mavjud edi. Shunday neolit manzilgohlari Old Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqda topilgan. Qurilish, mehnat qurollari yasash bilan alohida odamlar shug'ullana boshladilar. Shunday qilib, ijtimoiy mehnatning **uchinchi taqsimoti - hunarmandchilikning ajralib chiqishi yuz berdi.**

Jamiyat tuzilmasining murakkablashuvi, ekin ekish, hosilni yig'ishtirish muddatlarini aniqlash uchun tabiat sikllarini kuzatish, turli mashg'ulotlar o'rtasida mehnatni taqsimlash (ayniqsa, dehqonchilik va chorvachilik mavsumiy bo'lgani uchun), bu mashg'ulotlarni marosim va diniy sig'inishlar bilan birga olib borish, jamoani qo'shni dushman jamoadan himoya qilish uchun bo'lgan zaruriyat to'rtinchi yirik mehnat taqsimoti-yo'lbooshchilar, jangchilar va kohinlarga ajralishiga olib keldi.

Iqtisodiy munosabatlarda yirik siljishlar yuz berdi. Ovchilik, baliqchilik, termachilik barchani mulki edi. Jamoa ovchilik hududlarida o'z egaligini mustahkamlashga harakat qilsada, lekin uning chegaralari shartli edi. U jamoalarni yangi sero't, boy hududlarga yovvoyi hayvonlarning o'tlab yurishi orqasidan tez-tez ko'chish bilan o'zgarib turar edi. Ekish, ishlov berishga yaroqli bo'lgan hududlar, poda uchun yangi o'tloqlarni o'zlashtirish ko'p yillar davom etdi. Asta sekin jamoalar o'zlari yashagan hududlardagi yerlarga egalik qila boshladilar. Neolit sivilizatsiyasida jamoa mulkchiligi va teng taqsimot ustuvor edi.

Urug' jamoalari ijtimoiy mehnat taqsimotining rivojlanishi natijasida mashg'ulotlarning ma'lum bir turlariga ixtisoslashdi. Bu jamoa ichida va boshqa jamoalar bilan ayirboshlashning o'sishiga olib keldi. Ayirboshlash shaxsiy va o'sib borayotgan ijtimoiy ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirdi. Turli mashg'ulotlar bilan shug'ullanadigan jamoalar o'rtasida ayirboshlash muntazam tus oldi.

Neolit davridan boshlab urug'-qabilalar oqsoqollari, kohinlar, harbiy yo'lbooshchilar asta-sekin urug' jamoasiga tegishli unumdor yerlar, chor-

va, harbiy o'ljalarning kattagina qismini o'zlashtirib oldilar. Bo'lg'usi yuqori tabaqaoqsuyak zodagonlar ana shunday shakllandi. Bu tabaqa umumiy mulkning kattagina qismini xususiy mulkka aylantirishning tashabbuskori bo'ldi. Jamoaning boshqa oddiy a'zolari bir qism yer ulushi, chorva va mehnat qurollariga egalik qilib, mayda xususiy mulkchilikning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Oddiy jamoachi dehqonlar o'zlariga tegishli yerlarga ishlov berib tirikchilik qildilar. Ekin yerlarining bir qismi, o'tloq-yaylovlar hamda o'rmonlar, suv havzalari jamoa mulki sifatida yana uzoq vaqt saqlanib qoldi. Yaqin kelajakda ekin yerlari, chorva, mehnat qurollariga mayda mulkchilikning shakllanishi ko'rinayotgan edi. Bu mulkning egasi dastlab patriarxal oila bo'ldi. Mahsulot ayirboshlashning rivojlanishi va shahar xo'jaligining o'sishi bilan bunday ixtisoslashuv kuchaydi. Oilalari bu mashg'ulotlar bilan tizimli shug'ullanib, kasb-hunar mahorati sirlarini avloddan-avlodga uzatdilar. Savdogarlar, amaldorlar, sudyalalar, mirzalar, va koinlar guruhlari paydo bo'ldi. Mulkiy va kasbiy farqlar asosida jamiyat yopiq toifa-kastalarga bo'lindi. (masalan, Hindiston).

Ilgari tenglik hukm surgan urug' jamoasining ijtimoiy tabaqalanishi boshlandi. Jamoa oqsoqollari, qabila yo'l boshchilari, sehrar va folbinlar, harbiy yo'l boshchilar an'anaviy jamoa tengligini buzib, asta-sekin eng yaxshi yerlar, yaylovlar, jamoa boyligini o'zlashtirib oldilar. Odiy jamoachi – dehqonlardan bir qismi o'z yerlarida tun-kun mehnat qilib boyib ketganlari ham bor edi. Ana shunday dehqonlar ham boyib ketgan. Sug'orma dehqonchilik hududlarida bir necha qon-qarindosh urug'lar birlashib qabilani tashkil etdilar. Eng yaxshi yerlar, sero't o'tloq, yaylovlar uchun urug'-qabilalar o'rtasida qonli to'qnashuvlar kuchaydi.

Insonning ma'naviy dunyosida o'zgarishlar yuz berdi. Atrof dunyoni bilish darajasi o'sa bordi. O'tgan ajdodlar to'plagan keng va turli xil bilimlarsiz tabiat sikllariga ko'ra, dehqonchilik qilish, hayvonlarni boqish, hunarmandchilik, qurilish bilan shug'ullanish mumkin emas edi (o'sha davrlarda avlod faol hayotining o'rtacha davomiyligi 15-20 yil bo'lsa, ming yillik davomida 50-60 avlod o'tdi). Astronomiya, arifmetika, biologiya, tibbiyot va agronomiya fanlarining kurtaklari paydo bo'ldi. Dunyoni bilish e'tiqodlar, rivoyat, ertak va afsonalarni tuzilishida aks etdi. Urug' jamoasi hayotida yuz yillar davomida turli qoida, normalar, "tabu" paydo bo'lishi diniy e'tiqodlarni yanada murakkablashtirdi. Axloq va ilk e'tiqodni bir-biridan ajratish qiyin edi. Turli xil bilimlar va ko'nikmalarning hajmi ancha o'sgani uchun ularni keyingi avlodlarga uzatish muddati

uzaydi. Neolit inqilobi nihoyasida paydo bo'lgan jamiyatning asosiy belgilari ana shunday edi.

Neolit davrida chorvachilik va dehqonchilikning paydo bo'lishini Chayl Gordon neolit inqilobi deb atagan edi. Neolit davrini bir necha bosqichlarga bo'lish mumkin: Ilk neoliy mil avv. 7-6 ming yilliklarni qamrab olgan. Bu davrda Old Osiyo va Yaqin Sharqda ilk dehqonchilik o'choqlari paydo bo'ldi. Yetuk yoki o'rta neolit (mil. avv. 5-4 ming yilliklar boshlari). Bu bosqichda neolit sivilizatsiyasining qudrati namoyon bo'ldi. U Nil, Hind, Frot, keyin Amudaryo, Sirdaryo, Yanszi daryo vodiylarida dehqonchilik keng tarqaldi.

Mil. avv. 4-ming yillikda ilk metall misdan foydalanish bilan navbatdagi davr-eneolit (mis-tosh asri) boshlandi. Eneolit davrida yetakchi metall dastlab mis va oltin, keyin bronza paydo bo'ldi. Tosh qurollar, hatto, eng mukammal mikrolitlar tayyorlanish juda mashaqqatli mehnatni talab qilar edi va turli xil murakkablashgan ehtiyojlarni qondirish uchun qo'llashda yetarlicha ishonchli bo'lmadi. Sof metallar bo'lgan oltin, misni qo'llash qulayroq, mustahkam, qayishadigan, ularga istalgan shaklni berish, ularga turli metallarni qo'shish mumkinligini odamlar o'z tajribalarida ko'rdilar. Qo'rg'oshin va misni qo'shib, bronza hosil qilish mumkin bo'ldi.

Lekin mis, qo'rg'oshin, oltin konlari kam uchragani uchun. Eneolit davrida ko'pgina urug'-qabilalar bu xomashyolardan foydalanish imkoniyatiga ega emas edilar. Bu metallardan foydalanish ekin ekishga yaroqli yerlarda aholi zichligining o'sishiga, bu metallar mavjud bo'lmagan joylarda aholining o'sish sur'atlarini pasayishiga olib keldi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, mil. avv. 5000-yilda yer yuzida aholining o'sishi 0,9 kishi, bir yilda ming kishiga to'g'ri kelsa, aholining umumiy soni 30 mln kishini tashkil etdi. Mil. avv. 2000-yilda aholi o'sishining o'rtacha yillik sur'ati 4,5 marta-0,2 kishigacha, aholi soni 3-ming yil davomida boryo'g'i 20 mln ga ko'paydi. (54. C. 151.). Hosildor yerlar, metallga boy hududlarga egalik qilish uchun xalqlar o'rtasida shafqatsiz to'qnashuvlar muntazam tusga kirdi. Urushlar insoniyatning doimiy hamrohiga aylandi. Ma'lumotlarga ko'ra insoniyat tarixida ko'hna zamonda boshlangan katta, kichik urushlar hozirgacha uzluksiz davom etib keladi. Bu urushlar oqibatida shu kungacha 4 mlrd odam halok bo'lgan.

4. Ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari. Neolit sivilizatsiyasi ishlab-chiqarishni tashkil etishning oldingi shakllariga qaraganda harakatchan, ixcham shaklini meros qilib oldi. Bu ishlab chiqarish uncha katta bo'lmagan oilalar guruhi mehnatiga asoslangan edi. Mehnat taqsimotining faqat yosh-jins taqsimoti va yirik hayvonlarni birgalikda ov

qilish yoki yangi joylarga ko‘chib o‘tishda birgalikdagi mehnat qilish mavjud edi. Olimlarning aytishicha, Janubiy Fransiyada mezolit madaniyatiga oid g‘orlardagi mezolit manzilgohlarda o‘rtacha 6-18 kishigacha odam yashagan.

Nisbatan bir xil jamoa xo‘jaligining yosh-jins taqsimotiga asoslangan mehnatning o‘rniga tuzilishi bo‘yicha murakkab bo‘lgan mehnatning ijtimoiy taqsimotiga asoslangan ko‘p sohali xo‘jalik paydo bo‘ldi. Faoliyatning ma‘lum bir turiga ixtisoslashgan samarali mehnat qurolini qo‘llash orqali uning unumdorligini ko‘p marta oshirish mumkin edi. Buning uchun mehnat kooperatsiyasi va uning natijalarini ayirboshlash zarur edi. Ayirboshlash turli xil ehtiyojlarni to‘la qondirish uchun zarur bo‘ldi. Mehnat kooperatsiyasi va taqsimoti, uning natijalari va ayirboshlashiga asoslangan jamiyat shakllandi. Ayirboshlash faoliyati va iqtisodiy munosabatlarning yanada yuqori va turli xil shakllari uchun shart-sharoit yaratildi.

Oilaviy xo‘jalik ukladida neolit davrida yetakchi o‘rinni egalladi va ikki sivilizatsiyalarda ishchi kuchini takror ishlab chiqarishni ta‘minladi. Shuningdek keyingi sivilizatsiyalarda sezilarli rol o‘ynagan kichik va yirik xususiy mulkka asoslangan ikki uklad shakllana boshladi. davlat mulkchiligiga asoslangan uklad ham paydo bo‘ldi.

Neolit jamiyatida ishlab chiqarilgan mahsulot asosan oilaviy iste‘mol uchun edi. Bu davrda Jamoa iste‘moli keskin kamaydi. Dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilik bilan tizimli shug‘ullanish ishlab chiqarish vositalarini takror ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan mahsulot ulushini ko‘paytirishni talab qildi. Qo‘shimcha mahsulot tizimli ishlab chiqarila boshlandi. Bu o‘z navbatida jamg‘arish va noishlab chiqarishga sarflandi.

Neolit davrida mehnat qurollarining rivojlanishi bilan ilk dehqonchilik madaniyatlari paydo bo‘ldi: Nil vodiysida Badari madaniyati (mil. avv. 6-5 ming yillik), Pasargad hududidagi dehqonchilik madaniyati (Janubiy Eron), Karial Shaxir va Qalai Yarmol (Shimoliy Eron), Xassun va Xalaf (Old Osiyo mil. avv.6 – 5ming yillik), Oltintepa madaniyati (O‘rta Osiyoda mil. avv. 5 ming yillik) shakllandi. **Tayanch iboralar:** Tarixgacha bo‘lgan davr, aqlli odam, neolit inqilobi, ilk sivilizatsiya, urug‘, mehnat qurollari, ilk jamiyat

Takrorlash uchun savollar

1. Tarixgacha bo‘lgan davrda aqlli odam genotipi shakllanishining asosiy belgilarini aniqlang.
2. Neolit inqilobining tarixiy mazmuni va ahamiyati nimadan iborat?
3. Xususiy mulkchilik va bozorning paydo bo‘lishi progress edimi?

4. Ilk sinfiy sivilizatsiyalarning asosiy yutuqlarini aniqlang.

Mustaqil ish mavzulari

1. Ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari.
2. Urug' jamoasining tashkil topishi.
3. Sinfiy jamiyat genezisi.
4. Dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi.
5. Mezolit va neolitda mehnat qurollari.

5-mavzu. MA'NAVIY-MADANIY HAYOT

1. Ma'naviy-madaniy hayot 2. Yozuvning paydo bo'lishi
3. Fanning ilk qadamlari. 4. Ilk diniy tasavvurlar. 5. Mifologiya.

1. Ma'naviy-madaniy hayot. Sivilizatsiya tuzilmasida madaniyat-ma'naviyat alohida va o'ziga xos unsur hisoblanadi. Madaniyat-ma'naviy unsur insoniyatning mazmun-mohiyatini ifodalaydi. Insoniyat o'zi to'plagan bilim va konikma va malakalarni kelgusi avlodiga qoldirishga harakat qildi. Inson o'zini saqlab qolish, yanada yaxshi yashash uchun ta'lim tizimini joriy qildi. Ta'lim – bu to'plangan bilim va ko'nikmalar, estetik qadriyatlar, axloqiy norma, g'oyalar va maqsadlarni avlodlardan-avlodga merosiy uzatish omili va metodlaridir. Tajriba-ko'nikmani uzatish hayvonlarga ham xos xususiyatdir. Ayiqning onasi ayiqchani ikki yil o'rgatadi. Qushlarga esa o'rganish maktabi bir necha oy yoki haftalar bilan cheklanadi. Bu yerda instikt hal qiluvchi rolga ega.

Insonda esa boshqacha. Oila va jamiyatda ta'lim-tarbiya bir-ikki o'n yillikka cho'zilib ketadi. Ta'lim va tarbiyaning ilk o'chog'i oila bo'ladi. Oilada ilk bilim ko'nikmalar olish boshlanib, maktab, litsey-kollej, oliy o'quv yurti bilan tugaydi. Bilim-ko'nikmalarni to'ldirish odam hayotining so'nggi damlariga qadar davom etadi. Ta'lim mustaqil ijtimoiy muassasaga, xalq xo'jaligining sohasiga aylandi va shu bilan bir vaqtda inson ma'naviy dunyosi unsurlarining takror ishlab chiqarish shakli, uning bosqichma-bosqich ko'tarilishi bo'ldi. Shu bilan birga, bir qismi eskirib qolgan bilimlar va ko'nikmalar, qadriyatlar, norma, g'oyalar yo'qoladi, "yuviladi" va bir vaqtning o'zida ma'naviy dunyoning boyligi o'sadi, yangi avlodlarning tajribasini singdirib, yanada ko'p xilli va murakkab bo'ladi.

Olimlarning aytishicha, biologik vorisiylik yadrosi unsurlarining barcha o'xshashligi bilan insonning o'zi ham rivojlanayotgan borliqning mahsulidir. Miyasiz ong mavjud bo'lmaydi. Miya bu neytronlar majmua-

sining o'ta murakkab tuzilishidir. Odam o'zini yaratgan borliqning kengligidan ajralib, statistika qonunlari, jamiyat dinamikasi va genetikasiga bo'ysunib, o'z taqdiriga ega bo'ldi. Inson nafaqat bu qonunlarga bo'ysunadi, balki uni biladi va ulardan o'z maqsadlarida foydalanadi. Bilim darajalari, estetik baholari, axloqiy qoidalari, ma'lumot darajalari bilan turli odamlar, ularning guruhlari o'z saviyasi bilan o'ta farq qiladilar. Ularning manfaatlari ko'p hollarda qarama-qarshi. Shuning uchun tarixiy progressning yo'li mashaqqatli va o'nqir-cho'nqirdir.

Insoniyatning ikki yoqlamaligi, jism va ruhning intilishlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni rimlik tarixchi mil. avv. I asrda Gay Sallyustiy Krisp shunday ta'kidlagan edi: "Barcha bizning mavjudligimiz jism va ruhga bo'linadi. Ruh odatda hukmronlik qiladi, jism xizmat qiladi va unga bo'ysunadi. Xudolar bilan teng ruhga egalik qilamiz, jismga-hayvon bilan". (23. k.35.) Insondagi jismoniy va ruhiylik asoslari bir-birisiz yashashi mumkin emas. Lekin ulardan har biri o'z shaxsiy, insonning hayotiy sikl fazalar bilan o'zaro bog'langan qonun bo'yicha rivojlanadi. Insoniyatning ko'p yillik tarixi davomida odamning gavda va fiziologik xususiyatlari biologik tur sifatida deyarli o'zgarmadi. Lekin insonning ma'naviy dunyosi, ayniqsa, uning bilim doirasi va malakasi, ularni ta'lim tizimi orqali uzatish ko'p marta boyidi.

Inson evolyutsiyasining jarayonini borishida urug' jamoasining maqsadli faoliyati davomida moddiy va ma'naviy madaniyat rivojlanib bordi. Odam o'z mehnat faoliyati jarayonida moddiy madaniyatni unisurlaari bo'lgan buyumlarni tobora ko'proq yarata boshladi

Inson moddiy va ma'naviy dunyosining barcha boyligi uning o'z mehnatini natijasi, o'z-o'zini rivojlantrishidir. U ollohning ijodi, boshqa sayyoradagilarning ehsoni emas. Tarix-jamiyat taraqqiyotining yilnomasi, uning mag'lubiyat va g'alabalari, yutuq va omadsizliklari, tarixiy progressning bosqichdan bosqichga azobli harakatidir. Inson bioijtimoiy mavjudot sifatida tabiat qo'ynida yashaydi va u bilan abadiy bog'liq bo'ladi. Inson tabiatdan ajralib chiqib o'zi uchun sun'iy dunyo yaratgan bo'lsada, u tabiatdan tashqari yashay olmaydi. Lekin o'zining onasi bo'lgan tabiatga qarshi turib uni yemirilishini tezlashtirmoqda. Lekin biologik xususiyat insonni barcha qurshab turgan tabiat, moddiy dunyo, uning cho'qqisi-tabiat bilan va unga xos bo'lgan siklik dinamika va irsiyat, vorisiylik, o'zgaruvchanlik va tanlov, avlodlar almashuvi bilan bog'lab turadi.

Inson tafakkuri zakovati bilan tabiatni o'ziga qaram qilib uning podshosiga aylandi. Tabiatning bitmas tuganmas boylklarini boshda oqilo-

na keyin esa isrofgarchilik bilan o'zlashtira boshladi. Inson o'zining tobora o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun tabiat qonuniyatlari va o'z-o'zining tuzilish qonuniyatlari, hodisa va jarayonlarning mohiyatlarini bilishda intildi. Bu bilish oxir-oqibatda fanlarni tarmoqlangan daraxtining mazmuni va avloddan-avlodga to'plangan bilimlarni amaliy faoliyatda ongli foydalanishning asosi bo'ldi. Amaliy faoliyatning natijalari bilimning haqiqiyiligini muntazam tekshiradi, tuzatadi va to'ldiradi. Bilimlarning to'plangan zahirasini boyitadi. Insonning ko'p ming yillik tarixi davomida yaratilgan butun sun'iy tabiat-bu faqatgina insoniyatning bilimi, aql va tafakkurining mahsuli xolos. Sun'iy tabiatga insoniyat mehnati bilan o'zgartirilgan tabiiy buyumlar, texnologik usullar, qurilgan ishlab chiqarish inshootlari, san'at asarlarigina emas, balki mahsulot va pul, birja va banklar, mulkchilik shakllari va bozor muassasalari, ijtimoiy va siyosiy tashkilotlar, davlat tashkilotlari va siyosiy tuzilmalar kiradi.

3. Yozuvning paydo bo'lishi. Taxminan bundan 37 ming yil oldin odamlar suyaklarda belgilar qo'yib, hisoblashning eng oddiy vositasi sifatida toshchalardan foydalana boshladilar. Mutaxassislar ba'zi g'or tasvirlarida yozuvning ibtidosi bo'lgan belgi va ramzlarini aniqladilar. Yozuv o'z taraqqiyotida to'rt bosqichni bosib o'tdi. Piktografik yozuv yoki rasmi yozuv birinchi bosqich hisoblanadi. Piktografiya (lotin tilida pictus-manzarali chizilgan va yunoncha grapho-yozaman) tosh, yog'och, loy kabi ashyolarga muloqot uchun ataylab tasvirlashdir. Piktografik yozuv piktogramma deb ataladigan rasm vositasida tushunchani alohida so'zlarga bo'lmay uzatadi. Shunga tegishli ravishda piktogrammaning alohida unsurlari yaxlitlikning bir qismi sifatida chiqib, faqat bir-biri bilan bog'liqlikda to'g'ri tushunilishi mumkin. Piktogramma sxematik tasvir bo'lib, badiiy qiymati ahamiyatli bo'lmay, rasm nimadir xabar beradi. U kinga kerak bo'lsa, to'g'ri bilishi – anglashi lozim edi. Toshga bitilgan piktogramma petroglif deb ataladi. Uning shakllanishini asosiy manbasi ibtidoiy tasviriy san'at edi. Ibtidoiy san'atning ilk izlari yuqori (so'nggi) paleolit (mil.avv 40-25 mingyilliklar)ga tegishli. Piktografiya shakllanishining to'la tugallanish davri neolit davri (mil.avv 8-6 ming yil). Budavrdada piktografiya hikoyaga qo'shimcha emas, xabarlarini mustaqil uzatish uchun foydalanila boshlagan.

Piktografiyaning o'rniga ideografik yozuv keldi. Bu inson tafakkurining yanada rivojlanishi, odamning katta mavhumlashtirishlarga qobiliyatining shakllanishi, nutqning alohida unsurlar – so'zlarga bo'lish qobiliyatining shakllanishi bilan bog'liq edi. Ideografiya (yunon tilida

idea tushuncha va grafo-yozaman ma'nosini bildiradi) so'zlarda jo qilingan, uzoqlashtirilgan tushunchalarni bildiradi. Ideografik yozuv xabarni so'zma-so'z belgilaydi. So'z tarkibini uzatishdan tashqari, so'z tartibini ham uzatadi. U qat'iy o'rnatilgan va barqaror yozilgan grafik belgilarga ega. Bunda yozuvchi piktografiyadan farq qilgan holda, ularni kashf qilmay, tayyor to'plamdan foydalanadi. Ideografik yozuv piktografiya asosida paydo bo'ldi. Bu jarayon bir necha ming yillarni o'z ichiga oladi. Shartli piktogramma alohida uhnsurlarga bo'lindi va mustaqil mazmun kasb etib, so'z ma'nosining shartli belgisiga aylandi. Davlat va jamiyatning paydo bo'lishi ideografik yozuvning yanada rivojlanishiga olib keldi. Tez yozish, murakkab va uzun matnlarni uzatish ehtiyojlari paydo bo'ldi. Bu rasmlarni yanada sxemalashtirish, ularni yanada shartli belgilar-mixxat va iyerogliflarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Neolit davrida ma'naviyatning poydevori uchun shart-sharoitlar yaratildi. Lekin o'sha davrning madaniy yodgorliklari bizgacha kamroq saqlanib qolgan. Kam sonli jamoalarning qo'rg'onlarda to'planishi, mehnat unumdorligining o'sishi, bo'sh vaqtning ko'payishi-bularning hammasi neolit san'atining rivojlanishiga turtki bo'ldi. Bu san'at uylar, sopol xumlar, ibodatxona devorlarining bezaklari va tosh ustunlarda o'z ifodasini topdi.

Bolalar, o'smirilar uchun hayotning o'zi maktab bo'lgan. Ovchi urug'larda bolalar yoshligidan kundalik hayotda qushlar, mayda hayvonlarni ovlab qorin to'yg'azishga o'rgandilar. Ular qush-hayvonlarni yurish-turishini kuzatib, amaliy bilim oldilar. Foydali, dorivor o'simliklarni bilganlar va amalda foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lganlar. Neolit davrida ham ta'lim asosan oilada amalga oshirilar edi. Bola yoshligidan tabiat hodisalarini kuzatar, o'z oilasi, jamoa hayotiga qo'shilar edi. O'smir bola boshda uyda, keyin esa dalada, ustaxonada oddiygina yoki yordamchi yumushlarni bajarar edi. O'smir qachonki, zaruriy bilim va ko'nikmalarni egallagach, oilasi, katta yoshli jamoa a'zolari oldida o'ziga xos sinovlardan o'tganidan so'ng, u kattalarga qo'shilib, jamoaning to'la huquqli a'zosi – ovchi, harbiy, dehqon, cho'pon, hunarmand bo'lar edi. Bu marosim inisiatsiya deb atalgan.

Bolalik va o'smirlikda egallangan bilimlar va ko'nikmalar doirasi hajmi uncha katta emas va oddiy edi. Xavfli va qiyin hayot, tirik qolish va rivojlanish katta kuch va tafakkur, ko'p mehnat, harbiy marosim, an'analarni mohirona bajarishni talab qilar edi. Hayot shafqatsiz va og'ir, xatoga yo'l qo'yish halokat edi. Hali ta'lim jarayoni mustaqil bo'lmay,

faoliyatning alohida turi emas edi. Aqliy mehnat bilan faqat mag-sehrgarlar, shomonlar shug'ullanganlar. Lekin ular ham diniy marosimlar, aqliy mehnat faoliyatini bajarib bo'lgach, kundalik tirikchilik ishlari ya'ni ov, termachilik ishlari bilan band bo'lar edilar. Ahvol jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida tubdan o'zgardi.

Mezolit va neolit davrlarida axloq normalari va diniy dunyoqarash chambarchas bog'langan va bir-birini to'ldirib mustahkamlar edi. Jamoa asrlar davomida shakllangan va deyarli o'zgarmaydigan urf-odat, an'ana, axloq normalari asosida yashar edi.

Urf-odat, an'analariga rioya qilish, ular abadiy ularni buzish mumkin emas deb hisoblagan, insonga bo'ysinmaydigan oliy kuchlarga murojaat qilinib, urf-odat, an'analarni ajdodlar kelajak avlodga vasiyat qilgan. Ularning o'rniga yangiliklar qiyinchilik bilan kiritilgan an'analar. Ular bajarilmasa yoki buzilsa, insonning jazolanishi muntazam uqtirib borilar edi.

3. Fanning ilk qadamlari. Mehnat jarayoni davomida, ayniqsa, odamni o'rab turgan tabiiy muhit to'g'risida foydali bilimlar to'planib bordi. Ovchilik, baliqchilik va terimchilikka asoslangan o'zlashtiruvchi xo'jalikda odam o'zining xo'jalik hududi to'g'risida ko'proq bilimga ega bo'la bordi. Odam o'z mehnat faoliyati davomida o'ziga kerakli bo'lgan amaliy bilimni egalladi. Ozining hayotiy ehtiyoj-manfaatlarini qondirish uchun ana shu amaliy bilimlarni egalladi.

Avstraliya aborigenlari, bushmenlar misolida ko'rinadiki, ibtidoiy jamoa odamlari amaliy geografiya, meteorologiya, astronomiya, zoologiya va botanika, mineralogiya sohasida boy ma'lumotlarga ega bo'lganlar. O'zlarining xavfsizliklarini ta'minlash, yashash, och qolmaslik uchun ular ov joylari topografiyasi, hayvonlarning yuradigan yo'llari va qiliqlarini, o'simliklarning foydali va zararli xususiyatlari, turli minerallar, yog'och turlari va boshqa narsalarning xossalarni bilishlari; ob-havoni oldindan bilish, joyni, shamol yo'nalishlarini aniqlash, izlarni o'qishlari shart edi. Ibtidoiy ovchilar joyga ustalik bilan moslashganlar va relyefning o'ziga xos xususiyatlaridan mohirona foydalanganlar. Ular yovvoyi hayvonlar yuradigan barcha so'qmoqlar, daralarni bilib, ularni doimo nazorat ostida saqlaganlar. Ibtidoiy ovchilar hayvon va qushlar izlarini bilibgina qolmay, ularning oxirgi izlari yo'nalishini ko'zdan kechirib yoki g'or og'zidagi chiqishni hidlab, u yerda hayvon bor-yo'qligini ayta olganlar. Termachilar bir necha yuz yeyishga yaroqli o'simlik turlari, jumladan, qaynatish yo'li bilan zaharini yo'q qilish mumkin bo'lgan o'simliklarni bilganlar. Hozirgi etnologlardan biri, ibtidoiy odamning tunda yo'lni topish uchun yulduzli osmonni yaxshi bilish zarurligining guvohi bo'lgan. U yer-

ning sun'iy yo'ldoshi uchirilgani to'g'risida yangi "yulduzning" paydo bo'lganiga e'tiborni jalb qilgan bushmendan bilganini hikoya qiladi.

Amaliyotda fizik va kimyoviy bilim asoslari jamg'arila bordi. Tabiatga fizik ta'sir qilish ilk qurollardan boshlandi. Odam murakkab tuzilmali qurolni o'zlashtirib, richagni kashf qildi. Otiladigan nayza va kamonni ixtiro qilib, qurolning otish masofasini 2-3 marta oshirdi. O'rmon qabilasi veddlar kamonni oyoqlari bilan tortib, kamon o'qini 330 metr uzoqlikda otadilar, bug'uni 35 metr masofadan aniq nishonga olib, urib yiqitadilar.

Tibbiyot, farmakologiya va toksikologiya kabi amaliy sohalar yaxshi rivoj rivojlangan. Odamlar suyakning sinishi, yaralar, jarohat, lat yeyish, chiqqan suyaklarni davolashning amaliy usullarini yaxshi bilganlar. Kasal tishlarni sug'urib olish, shamollash, yaralar, zaharli chaqishlarni davolashni oddiy jarrohlik operatsiyalarini bilganlar. Mezolit davridan bosh suyagini trepanatsiya qilish, singan oyoq-qo'llarning qismlarini amputatsiya qilish ko'nikmasiga ega bo'lganlar. Ibtidoiy odam o'ngacha sanashni bilgan. Doira, to'g'ri chiziq, nuqtaning tosh, yog'ochdagi tasvirlari topilgan. Vaqt hisobi mavsumlar bo'yicha bo'linib chiqarilgan.

Sug'orish inshootlarini qurish geometriya va matematika asoslarining shakllanishiga sabab bo'ldi. Uy-joy, diniy e'tiqod inshootlari, mudofaa devorlarini qurish va suv havzalarida suzish uchun transport vositalaridan foydalanish matematika va mexanikaning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Metall rudalarini quyishning paydo bo'lishi bilan metallshunoslik qandaydir darajada kimyo fani asoslarining paydo bo'lishiga olib keldi. Uzoq joylarga suzish, harbiy yurishlar, podaning orqasidan ko'chib yurish, uzoq-uzoqlarga ozuqa izlab urug'larning ko'chishi va astronomik kuzatishlar geografiya fani va xarita tuzishning rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Polineziyaliklar o'zlarining ming kilometrlarga cho'zilgan uzoq sayohatlarida oqim, shamol yo'nalishlari, dengiz yo'llari va orollarni aks ettiradigan tayoqcha, qamish poyalari, toshchalar, chig'anoqlar hamda xaritalardan foydalanganlar. Ovchilik, termachilik, dehqonchilik va chorvachilik mashg'ulotlari flora va fauna to'g'risida ulkan ma'lumotlar jamg'armasini shakllantirdi. Odamlar o'simliklarning foydali xususiyatlarini o'rgandilar va o'simliklardan shifobaxsh malhamlar tayyorlab, yara-jarohatlar, turli kasalliklarni davolash malakasini hosil qildilar. Yirtqich hayvonlar yetkazgan jarohatlar, harbiy to'qnashuvlarda yarador bo'lish jarrohlikni keltirib chiqardi. Ilk metall jarrohlik asboblarini yasash imkoniyatini yaratdi.

Bo'yoqlarni tayyorlashni odam bundan 7-6 ming yil oldin boshladi. Asalarichilikni odam bundan 7 ming yil oldin o'rgandi. Shu vaqtda odam-

lar oziq ovqat mahsulotlarini konservalashni kashf qildilar. Amur daryosi baliqchilari bundan 6 ming yil oldin sho‘r baliq tayyorlash uchun maxsus o‘ra qazganlar. Janubiy Amerika hududlari mil.avv. 4 ming yillikda bizon terisi tashlangan o‘raga suv quyib, chog‘ bo‘lgan toshlarni tashlaganlar qaynayotgan suvda miya suyagi yog‘larini eritganlar. Yog‘ni unday tuyilgan quritilgan go‘sht va meva-rezavorlar sharbati bilan aralashtirib, kubik shaklida quritganlar. Oqsil, yog‘ va vitaminlarga boy bo‘lgan bu mahsulot uzoq turgan.

San‘at jamiyat va davlatning vujudga kelishi arafasida rivojlandi. Suyak, yog‘och, metall, yarim qimmatbaho toshlar, oltin va kumushdan nafis san‘at asarlari yaratildi. Kochmanchi sak-skif sivilizatsiyasida san‘atda “hayvon uslubi” shakllandi. Bu uslubda nafis san‘at asarlari paydo bo‘ldi. Bular sirasiga oltin va kumush haykalchalar, harbiy qurollar (xanjar, pichoq, nayza, qalqon, qilich, oybolta, sovut va dubulg‘a), zargarlik buyumlari, idish-tovoqlar, hashamatli kiyimlar va egar-jabduqlar kiradi. Badiiy quymachilik, metall buyumlarga oltin zarhal berish, suyak, tilla-kumush bilan ziynatlangan soplari, qimmatbaho toshlar va metallar bilan qo‘shib ishlangan harbiy qurol-yarog‘lar, uy-ro‘zg‘or buyumlari, kiyim-bosh va poyafzallar paydo bo‘ldi. Turli hayotiy manzaralar, ov, o‘simlik, hayvonlarning nafis tasviri tushirilgan pichoq, xanjar, qilich, qalqon soplari va idish-tovoqlar yasala boshlandi. Metallarga badiiy ishlov berish san‘atini yuksak rivojlanganini namunalari skif-sarmat, sak qabilalaridan qolgan buyumlarda ko‘rish mumkin.

4. Ilk diniy tasavvurlar. Odam doimo ko‘plab ta’qiqalar, “tabu” va qattiq jazodan qo‘rqib yashar edi. Chunki og‘ir va shafqatsiz hayot, dushman jamoalarning tahdidi, yirtqich hayvonlarga yemish bo‘lish xavfi, tabiiy ofatlar, muntazam kasalliklar qurshovida yashagan odamlar qudratli xudolarni urf-odat, marosim raqslari, qurbonliklar bilan yumshatish, shafqatli qilishga urinar edilar. Tabiat kuchlari ilohiylashtirilgan (animizm). Ajdodlarga sig‘inish vasiyat qilingan urf-odat, qoidalarga qat‘iy bo‘ysunish, chekinganlarni jazolash bilan mustahkamlanar edi. Kohinlar va oqsoqollar diniy-axloqiy norma va urf-odatlarga rioya qilinishini nazorat qilib, odamlar tajriba, ko‘nikma qoidalarini to‘plab amalda qo‘llaganlar va kelgusi avlodga qoldirganlar.

Ibtidoiy jamoa davrida diniy tasavvurlarning animizm, fetishizm, totemizm, magiya va shomonlik ko‘rinishlari bo‘lgan. Ilk diniy tasavvurlarning unsurlari neandertallar yashagan davrga borib taqaladi. Neandertal qabrlari Osiyo va Evropada koplak saqlanib qolgan. (Olkamizda Teshiktosh neandertali qabri Boysun togida saqlanib qolgan) Neander-

tallarning dunyoqarashiga kora go‘yo “ruh” o‘lgan kishining tanasiga qaytishi mumkin. O‘shanda tirik odamlarga kerak bo‘ladigan narsalar dunyoda o‘lganlarga ham kerak bo‘ladi deb o‘ylaganlar. Shu sababli neandertallardan boshlab qabrlarga mehnat qurollari, qurol, buyumlar va ozuqa qo‘yilgan.

Animizm – ibtidoiy diniy e‘tiqod ko‘rinishi ruhlarga va tabiat hodisalarining barchasida ruhlar mavjudligiga ishonish, odamni nomoddiy ruhiy mavjudotlar bilan muloqot qilishi mumkinligiga ishonish. Ibtidoiy odam tabiat hodisalarini tushunishga ojiz bo‘lgan. O‘z hayoti va tanasida yuz beradigan hodisalar (tush ko‘rish, o‘lim, turli kasalliklar)ni tushunmagan. Jon tana bilan bog‘liq, u odam vafot qilganda chiqib ketadi deb tushunganlar. Ruh va tananing bog‘liqligi mavhum tushunchasi shakllangan. Ruhlar ikki xil – ezgu va yovuzga bo‘linadi. Ular odamlarga yordam beradi, ruhlarni yumshatish uchun, qurbonlik keltirish kerak deb o‘ylaganlar.

Fetishizm – (fransuzcha; portugalcha g‘ayritabiiy xususiyatlarga ega bo‘lgan jonsiz narsalarga sig‘inish) qurigan daraxt, xarsang toshlarga sig‘inish. Ibtidoiy jamoa davri barcha urug‘-qabilalariga xos bo‘lgan. Ko‘zmunchoq, tumor yovuz ruhlardan himoya uchun taqib yurilgan.

Totemizm – hayvonlar ruhiga sig‘inish, avlodning yagona bir umumiy ajdod-totemdan tarqalganiga ishonish. Bu e‘tiqod uzoq vaqt urug‘ning birligini saqlab qolishga imkon berdi. Totem (amerika hindulari – algonkinlar tilida – “ototam”-“aka” ma’nosini bildiradi) har qanday hayvon, qush, baliq, o‘simlik, qoya yoki hasharot bo‘lishi mumkin. Har bir urug‘, qabilaning totemi bo‘lgan. Amerika hindularida, totem – urug‘ bo‘lgan. Misol uchun turkiy xalqlarning totemi – kumush bo‘ri bo‘lgan. Amerika hindularida totem odamni ismini bir qismini tashkil etgan. Misol uchun Chingachguk Ulkan Ilon, Ayyor Tulki, Otkir ko‘zli Lochin. Totemizm qadimda – ovchi urug‘-jamoalarida keng tarqalgan.

Urug‘ jamoalarida ruhlarni shod qilish, ulardan yordam so‘rash uchun turli marosimlar o‘tkazilgan. Bu marosimlarni bajargan kishilar – shomonlar deb atalgan. Shomonlik – odamlar va oliy ruhiy kuchlar o‘rtasida vositachilik qilishni bildiradi. Odam tegishli marosim asosida, u yoki bu vosita yordamida (masalan raqs tushish) o‘zini trans, ekstaz holatiga keltiradi: Bu turli mast qiladigan narsalar (misol uchun giyohvand moddalar), do‘mbira sadolari hamrohligida raqsga tushish bilan birga amalga oshiriladi. Raqsga tushayotgan shomonning og‘zidan ko‘pik ketadi, ba’zi hollarda tutqanog‘i tutib qoladi. U tushunarsiz tilda so‘zlarni qichqiradi. Bu shomonni ruhlar bilan muloqot qilayotgani, ruhlar shomonning biror

bir istagini bajarayotgani (misol uchun bemorni davolayotgani) ramzi hisoblanadi. Shomolnar urug‘ jamoasining ovchilik yoki chorvachiligini samarali bo‘lishiga bag‘ishlab ov oldidan marosim uyushtirganlar.

Urug‘ jamoachilik davrida odamlar o‘z muammolarini yechimini topishga ruhlar yordam beradi deb ishonganlarva ruhlar dunyosi bilan aloqa qilishga uringanlar. Shu sababli vujudga kelgan magiya-sehrgarlik moddiy borliqdan ajralgan ruhlar dunyosi borligiga, unga u yoki bu tarzda ta‘sir qilish mumkin deb hisoblaydi. Magiya sirli kuchlarga ta‘sir qilib, ularning yordami bilan atrof-muhitga ta‘sir qilish e‘tiqodi bo‘lib, u moddiy borliqdan ajralgan ruhlar dunyosi mavjudligi, bu sirli dunyoga u yoki bu tarzda ta‘sir qilish mumkin deb ishonishga asoslanadi. Magiya – sehrgarlik davolash, odamni issiq-sovuq qilish, ob-havoga ta‘sir o‘tkazish kabi ishlarni amalga oshiradi. Misol uchun: yomg‘ir chaqirish, bolgusi ovni omadli bolishi uchun magiya marosimi amalga oshirilgan. Magiyada ko‘zmunchoq, tumor taqish, turli afsunlar oqish yomon ko‘zlardan, balo-qazodan asrash vositasi bo‘lgan. Magiya totemizm va animizm bilan bog‘liq. Magiya bilan jodugarlik bir ma‘nodav kelmaydi. Magiyau dunyodagi kuch va unga u yoki bu tarzda ta‘sir qilish mumkin.

Magiya-sehrgarlik. Magiya bu e‘tiqod bilan bog‘liq insonni tabiat kuchlariga, jonivorlarga, buyumlarga, uning taqdiriga ta‘sir qilish qobiliyati oliy g‘ayri tabiiy kuchlarni o‘ziga bo‘ysunadi yoki ularga turli duolar tumor va marosimlar yordami bilan ta‘sir qiladi. Ibtidoiy jamoa davri odamining hayotini ajralmas qismi bo‘ldi. Magiya-sehrgarlik marosimlari ibtidoiy odamning ruhiyatiga ta‘sir qilib, uni o‘ziga ishonchini orttirgan. Shomon odamlar va oliy kuchlar o‘rtasida vositachi bo‘ladi, shu bilan birga himoya qiluvchi, davolovchi, zarar keltiradigan sevgi-muhabbat, harbiy mashg‘ulot, kasb bo‘yicha marosimlarni o‘tkazib, afsun o‘qigan. Shomon tabib vazifasini ham bajargan, u dorivor o‘tlar, fizio-psixoterapeya, jarrohlik va manual terapeya-afsun-jodu o‘qish bilan be‘morni davolagan. Shomon yomg‘ir mavsumi oldidan yomg‘ir chaqirgan, baxtsizlik, urush-janjal, rashk va boshqa maishiy muammolarni ins-jinlarni chaqirib, tegishli marosimlarni bajarib hal qilgan. U fol ochib, dushmanlik qilganni yoki kasallik sababini aniqlagan, sehr-jodu qilgan. Shomon bir vaqtning o‘zida tabib, sehrgar, afsungar vazifasini bajargan. Davogar bu vazifani bajarish uchun turli sinovlardan o‘tgan, undan oldin uzoq yillar shogird turgan

Magiyada g‘ayri-tabiiy yo‘llar bilan, ma‘lum bir harakatlar yoki harakatsizlik bilan tabu-taqiqlarga rioya qilish) istalgan natijaga erishish

mumkin deb hisoblanadi. Ov bilan bogʻlangan magiya marosimlarini gʻor tasviriy sanʼatida yaqqol koʻrinadi. Gor tasvirlarda qadimgi odamlar ov qilishi kerak boʻlgan hayvonlar tasvirlangan, Baʼzi tasvirlar qizil yoki sariq boʻyoq bilan belgilangan. Bu qizil rangga boʻyalgan kalta nayzalarning izi, boʻlgʻusi ovda hayvonlarni oʻlishini bildiradigan “qon” ramzi, qadimgi ovchilarga ovda omad olib kelishini bildirgan. Bolgusi ov oldidan gorda ovchilar magiya marosimi otkazib, raqs tushi ov oljasi bolgan hayvon tasviriga kalta nayzalar otganlar. Bu bolgusi ovni omadli boʻlishini goyoki taminlagan. Jodugarlik u dunyo toʻgʻrisidagi diniy eʼtiqod tasavvurlaridan faqat yovuz ruh goyasini oʻzlashtirib oldi va uni sehrgarlik rasm-rusunlari bilan oziga xizmat qildirish mumkin deb hisobladi.

Dafn marosimlari diniy tasavvurlar bilan bogʻlangan. Dafn marosimi ilk qadimgi insonning dunyoqarashini aks ettiradi. Dafn qilingan odam tanasiga qizil boʻyoq sepilishi, quyosh botishi va chiqishiga qarab mayitni qabrga qoʻyilishi, qabrda turli buyumlarni qoʻyilishi qadimgi odamning oʻlim va hayot, tugʻilish, u dunyoda hayotning davom etishi toʻgʻrisidagi qunyoyarashini aks ettiradi. Dafn eʼtiqodi keyin barcha dinlarda saqlanib qoldi va umuminsoniy qadriyatga aylandi. Ilk odamni qiziqtirgan hayot va oʻlimning abadiy muammosi qadimdan hozirgi kungacha uzluksiz munozara mavzusi boʻlib qolmoqda.

Mifologiya. Mifologiya ibtidoiy madaniyatning negizi, ibtidoiy olamni idrok etishining asosiy vositasi, odamning badiiy tafakkurning ibtidosi. Mifologiyada urugʻ ajdod-avlodlarining oʻtmishda tabiat ofatlari, dushmanlarga qarshi matonatli kurashlari yorqin aks ettirilgan. Maʼnaviy hayotning koʻrinishini ilk shakli sifatida u odamni qurshab turgan dunyoni va oʻzini shu dunyoda anglashidir. Ibtidoiy jamoa davridan mifologiya ertaklar, afsonalar, rivoyatlar, topishmoqlar va dostonlar shaklida paydo bolgan. Odam tabiat hodisalarini, osmon jismlari, oʻzi uchun sirli boʻlgan koinotni, oʻz hayotini, ogʻir, xavf-xatarga toʻla oʻz hayotining qiyinchiliklarini, oʻz oldida turgan muammolarni yechimini. oʻz orzu umidlarini, oʻzi suyangan qadriyatlarni mifologiyada ifodalagan. Mifologiyada urugʻ ajdod-avlodlarining oʻtmishda tabiat ofatlari, dushmanlarga qarshi matonatli kurashlari yorqin aks ettirilgan.

Dastlab tarixiy xotira, tarixiy ong unsurlari ham **mifologiya bagʻrida paydo boʻldi**. Har bir urugʻ oʻzining kelib chiqishi va oʻzidan oldin oʻtgan ajdod-avlodlari, ularning mashgʻulotlari, urf-odatlari, turmush tarzi toʻgʻrisida tasavvurlarga ega boʻldi. Urugʻ jamoasi oʻz oʻtmishida yuz bergan ahamiyatli voqea-hodisalarni xotirada saqlab qolish va keyingi avlodga uzatish uchun mifologiyadan foydalandi. Bular toʻgʻrisida

turli afsona, rivoyat vaeposlar yaratildi. Urug' jamoasi va uning a'zolari o'z urug'larining kelib chiqishi, geneologiya daraxti to'g'risida tasavvur-bilimni shakllantirdilar. Shajara daraxtini tasavvur qilish urugning uzoq o'tmishi, kechasi va buguni to'g'risida yaxlit bilim tizimini yuzaga keltirdi. Qator paleolit jamoalarida shajarashunoslikning o'ziga xos tarixiy bilim sohasi sifatida mavjudligi etnologiyada asoslanadi. Polineziyada urug' odatda 20 avlod bo'yicha hisoblanadi. Bu orollarni o'zlashtirishdan boshlab hisoblanadi. Hatto Markiz orollarida 159 avlodning afsonaviy ajdodi osmondan boshlab sanaladi.

Inson estetikasi. Inson doimo go'zallikka intilib yashagan. Insoniyat tarixining ilk ibtidoiy jamoa davridayoq odamlar go'zallikni his qilganlar. Ular dastlab go'zallikni tabiatdan jonivorlardan izlaganlar. Erkaklar tabiatning mo'jizasi bo'lgan otni gavda tuzilishi, nafis yugirishini ko'rib zavqlanganlar. Otni qo'lga o'gatib uni yuvib taraganlar. Yo'lbarsning sakrashini soatlab kuzatib uning ajoyib, ulug'vor harakatidan hayratlanib bu jonivorni suyak, tosh va devoriy sur'atlarda aks ettirganlar. Urug' jamoasining katta yoshli tajribali keksalari ularga jonivorlardagi chaqqonlik, ulug'vorlik sifatlarini ko'rib yigit va qizlarga jonivorlardagi sifatarni ko'rganlar va tegishli ikkinchi nom (Misol uchun Chingachguk ulkan ilon, Ohu ko'zli Mayo) berganlar. Jamoaning qizlari go'zallikni juda nozik va nafis his qilganlar, o'zlarini sochlarini gullar bilan yoki gulchambar bilan bezaganlar, yuzlariga turli tabiiy bo'yoqlarni surtganlar.

Tayanch iboralar: Ma'naviyat, madaniyat, fan, fan kurtaklari, farmakologiya, diniy e'tiqod, magiya, animizm, totemizm, mifologiya.

Takrorlash uchun savollar

1. Yozuvning evolyutsiyasini ko'rsating.
2. Fanning kurtaklariing paydo bo'lishining sabablarini aniqlang.
3. Ilk diniy tasavvurlarni tasvirlang.
4. Mifologiya to'g'risida tushuncha bering.

Mustaqil ish mavzulari

1. Ibtidoiy jamoa davrida ma'naviy hayot.
2. Amaliy bilimlar genezisi.
3. Insoniyat sivilizatsiyasida inson evolyutsiyasi jarayoni
4. Ilk diniy tasavvurlarning shakllanishi

III bob.

SIVILIZATSIYA. LOKAL SIVILIZATSIYALAR

6-mavzu. SHARQ SIVILIZATSIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

1. Sharq sivilizatsiyasining o'ziga xosa xususiyatlari
2. Qadimgi Misr sivilizatsiyasi

1. **Sharq sivilizatsiyalarining o'ziga xosa xususiyatlari. Quyosh sharqdan chiqqanidek Insoniyat sivilizatsiyasi ham sharqdan boshlandi.** Qadimgi Sharqning buyuk sivilizatsiyalari bir necha ming yillar davomida shakllandi. Sharqning sivilizatsiyalari insoniyatning kelajak madaniy, ma'naviy, siyosiy taraqqiyotining asoslarini yaratdi. Umuminsoniy qadriyatlarning huquqiy, madaniy-ma'naviy g'oyalarining asoslari ana shu sivilizatsiyalar bag'rida yotadi. Sharq sivilizatsiyasi mil. avv. IV-III ming yilliklarda Old Osiyo (Osiyo so'zi ehtimol - ossur tilida sharq ma'nosini bildiradi), Hindiston, Xitoy, O'rta Osiyo va Eronda shakllandi.

«Qadimgi Sharq» geografik tushunchasi shimoli-g'arbiy Afrikadan Tinch okeanigacha va buyuk chollardan Hind okeani va Sahroyi Kabirgacha bolgan ulkan hududni qamrab oladi. Qadimgi Sharq deb shartli ataladigan bepoyon geografik hudud g'arbdan sharqqa qadimgi Karfagen joylashgan hozirgi Tunisdan Xitoy, Yaponiya va Indoneziyagacha, janubdan shimolga hozirgi Efiopiyadan Kavkaz toglari va Orol dengizining janubiy qirg'oqlarigacha cho'zilib ketgan. Bu yerda qadimda mavjud bolgan ko'p sonli Sharq davlatlari insoniyat sivilizatsiyasining tarixida muhim rol o'ynaydi: Qadimgi Misr podsholigi, Shumer, Bobil, Xett, Osuriya davlatlari, Finikiya, Suriya va Kichik Osiyodagi shahar-davlatlar, Falastindagi, Eron tog' tizmasidagi kichik davlatlar, jum-ladan, Yaqin Sharq hududlarini o'z tarkibiga kiritgan qudratli Ahmoniyar davlati, O'rta Osiyodagi qator katta-kichik davlatlar, Hindiston, Xitoy, Koreya, Yaponiya va Janubi-Sharqiy Osiyo hududlaridagi davlatlar

Qadimgi Sharq jamiyatlari uzoq davom etgan notekis tarixiy taraqqiyot yolini bosib o'tdilar. Ba'zi qadimgi Sharq mamlakatlari yuksak ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyot darajasiga erishdilar (Qadimgi Misr, Shumer, Finikiya, Kichik Osiyo, Qadimgi Hindiston va Xitoy, Eron hamda O'rta Osiyo). Bu hududlarda yuksak rivojlangan madaniy, iqtisodiy va siyosiy markazlar shakllandi va qo'shni mamlakatlarga o'z ta'sirini o'tkazdi. Buyuk chollarda ko'chmanchi chorvachilikka asoslangan xojalik asosida o'ziga xos sivilizatsiya shakllandi. Mil. avv.

IV-III ming yilliklarda Qadimgi Sharqning turli sivilizatsiya markazlari (Misr, Shumer, Hindiston) nisbatan yopiq rivojlandi. Mil. avv. II ming yillikning o'rtalaridan Yaqin Sharqning turli hududlaridagi yuksak taraqqiyot natijasida hududlar o'rtasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar o'rnatildi. Mil. avv. I ming yillikda esa bu aloqalar yanada kuchaydi va madaniyatlarning o'zaro ta'siri natijasida Sharqning turli mamlakatlari madaniyatlari boyidi. Shu tarzda Qadimgi Sharq dunyosining yaxlitligi amalga oshdi.

Buyuk chollar sivilizatsiyasi. Qadimgi Sharq sivilizatsiyalari bilan yonma-yon yashagan yana bir o'ziga xos bo'lgan. Buyuk chollar sivilizatsiyasi deb nomlanhgan mil. avv. III-I ming yilliklarda Shimoliy Xitoy O'rta Osiyo, Sibir, Oltoy, Uraldan toki Shimoliy Qora dengiz, Dnepr bo'ylarigacha cho'zilib ketgan bepoyon chol-dasht, sahro va togli hududlarda yashagan ko'chmanchi sak-skif xalqlarining betakror, ulugvor madaniyati edi. Bu turli tillarda gaplashadigan, bir-biriga qon-qarindosh bolgan etnoslar sahro, chollar, tog' va dashtlarda yashagan ko'chmanchi, yarim o'troq, chorvador-ovchi, terimchi hamda dengiz-daryo qirg'oqlaridagi baliqchi urug'-qabilalari edi. Fanda ko'chmanchilar nomadlar deb ataladi. Ko'chmanchilar asriy urf-odatlar va an'analari, o'z boshqaruvi tizimi va tuzilmasi asosida yashadilar. Ko'chmanchi jamiyatlarda boshqaruv yo'lboshchilikning turli darajalariga asoslangan edi. Turli darajadagi yoboshilar urug'-qabilalarni, qabilalar ittifoqi hatto ko'chmanchi davlat tuzilmalarini boshqarganlar (misol uchun, Old Osiyoda gikso-slar, amoriylar; Xitoyda inlar; O'rta Osiyoda sak, massagetlar o'z davlat tuzilmalariga ega bolganlar). Ko'chmanchi urug'-qabilalar, elatlar va xalqlar qadimgi Sharq davlatlari bilan yonma-yon yashadilar. Ular bilan iqtisodiy-madaniy aloqalarga kirishdilar va o'zlarining o'ziga xos noyob madaniyatlarini yaratdilar. Qadimgi Sharq davlat va jamiyatlari ko'chmanchilar bilan gohida do'stona, gohida ziddiyatli munosabatlarda boldilar. Ko'chmanchilar qo'shni davlatlarga dushman hujumini qaytarishda harbiy yordam ko'rsatdilar va harbiy ishni o'rgatdilar.

Ko'chmanchi xalqlar-nomadlarning buyuk sivilizatsiyasi qadimgi Sharq sivilizatsiyasning tarkibiy bir qismi edi. Bu jamiyatlarda hokimiyatning toifaviy tashkillashuvi, ijtimoiy tabaqalarning mavjudligi, ortiqcha mahsulotni sovg'a, olja shaklida vertikal taqsimoti mavjud bo'lgan. Yo'lboshchi urf-odatlar, an'analar va diniy e'tiqod yorliqlari asosida o'z funksiyasini bajargan. Buyuk chollar sivilizatsiyasi Sharq va G'arbda ko'pgina davlat va jamiyatlarning shakllanishida turli darajada ishtirok etdilar. Aslida barcha davlat va jamiyatlarning ibtidosi ko'chmanchi nomadlarga borib taqaladi. Har qanday davlatni tashkil etgan xalqning

ajdodlari ko'chmanchilar edi. Ilk o'troq hayotga o'tgan ovchi-terimchilar aslida ko'chmanchi edilar. Kochmanchi urug'-qabilalar hududlarda davlatlar bilan, o'troq aholi bilan yaqin aloqada bo'ldilar, ularni himoya qildilar. Va ular bilan muntazam savdo-ayirboshlashni amalga oshirdilar. Hududlarda savdo karvonlarini xavfsizligini ta'minlab ularga hamrohlik qildilar.

Sharq jamiyatlari bir-biriga o'xshash va olaquroq turli ijtimoiy qatlam va guruhlardan iborat edi. Qadimgi Sharq jamiyatini jamoachi dehqonlar, chorvadorlar, hunarmand-savdogarlar, qullar, harbiylar, kohinlar, oqsuyak zoda-gonlar, amaldorlar va saroy a'yonlari tashkil etgan. Jamiyatlarda ijtimoiy tabaqalarning mavqeyi, o'rni qat'iy belgilangan bolib, bunday jamiyatlar asrlar davomida shakllangan urf-odatlar asosida yashadilar (Hindiston). Har bir ijtimoiy qatlamning jamiyatda o'z o'rni bor edi. Bu jamiyat kasb-hunar bo'yicha jamoachi dehqonlar, chorvador, hunarmandlar, savdogarlar, diniy e'tiqod xizmatchilari jamiyati boldi. Bu jamiyatlarda jamoaning birdamligi, o'z-o'zini boshqarish, malum bir an'ana, urf-odat asosida yashash tarzi ustuvor edi. Qadimgi Sharq tarixini o'rganish jarayonida jamiyatlarda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni, chuqur ziddiyatlarni ko'rish mumkin.

Qadimgi Sharq jamiyati turli ijtimoiy qatlamlardan tashkil topgan. Hukmdor, uning oilasi, qarindosh-urug'lari, saroy a'yonlari, aslzoda boylar, oliy amaldorlar, harbiy sarkardalar, boy savdogarlar, kohinlar oliy tabaqani tashkil etgan. O'rta va mayda yer egalari, mayda hunarmandlar, savdogarlar, harbiylar, kichik kohinlar hamda jamoachi dehqonlar quyi qatlamni tashkil etgan. Jamiyatning eng quyi pog'onasida qaram kishilar va qullar turgan. Misr va Shumerda yer-mulkka ega bo'lmagan, davlat va ibodatxona xojaliklarida mehnat qilib, eva-ziga mahsulot bilan ish haqi olganlar. Qadimgi Misrda bu toifadagi odamlar ro'yxati tuzilib, ular yoshligidan kasb-hunarga o'rgatilgan. XX asr boshlarida topilgan qadimgi Bobil podshosi Xammurapining qonunlar to'plamida va yana Xett qonunlarida aholi, birinchi navbatda, erkin odamlarga va qullarga bolinadi.

Iqtisodiyotning asosiy sohasi dehqonchilik bolgani uchun aholining aksariyat ko'pchiligi qishloqlarda jamoa bo'lib yashaganlar, shahar aholisining katta qismi ham yerga boglangan. Shahar aholisining bir qismi ko'p hollarda o'zlarini zaruriy oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun shahar atrofida dehqonchilik qildilar. Hunarmandlar o'z kasblari bilan oilani boqa olmaganlari uchun dehqonchilik qilishga majbur edilar. Ayrim shaharlar ichki va tashqi savdo bilan shug'ullanib, o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega bolganlar (Bobilda Borsippa, Sippar, Ossuriyada Ashshur).

Qadimgi Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'og'idagi shahar-davlatlar Tir, Sidon, Arvadda iqtisodiyotning asosiy sohasi dengizchilik, xalqaro savdo va hunarmandchilik bolgan.

Qadimgi Sharqda ishlab chiqarish usulining o'ziga xos xususiyati yerga jamoaning egaligidir. Xuddi shu xususiyat sharqshunos olimlarning Yevropadan farq qilgan holda Osiyo ishlab chiqarish usuli tushunchasining shakllantirishlariga asos boldi. Shubhasiz, Osiyo ishlab chiqarish usuli haqidagi masala murakkab va munozaralidir. Bu mavzudagi munozara hali-hanuz davom etmoqda. Lekin Osiyocha ishlab chiqarish usuliga asoslangan o'ziga xos jamiyat (ba'zan uni hatto mahalliy emas, balki universal jamiyat deb e'tirof qiladilar) bolmaganligi borgan sari ko'proq ma'lum bolib qolmoqda.

Qadimgi Sharq davlatchiligi. Urug'-qabila yo'l boshchisining urug'chilik an'analarga asoslangan hokimiyati asta-sekin u yoki bu shakldagi mutlaq hokimiyatga aylandi. Lekin urf-odat va an'analar butunlay yo'qolib ketmadi, aksincha davlat boshqaruvi va jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutdi. Qadimgi Sharq davlati podshosi mutlaq hokimiyatining o'ziga xos xususiyati davlat boshlig'i – hukmdorning alohida mavqeyi edi. Podsho sud, ijroiya va qonunchilik hokimiyatini o'z qolida to'plagan bolib, shu bilan birga, u eng oliy mavqeli, xudolarning noibi, ularning avlodi yoki xudolardan biri hisoblangan. Podsho – Mutlaq hokimiyati turli mamlakatlarda turli darajada shakllandi. Mutlaq hokimiyatning toliq ko'rinishini qadimgi Misrda, Eron va Xitoyda, cheklangan ko'rinishini esa Xett davlati Parfiya misolida ko'rish mumkin. Hukmdorning mutlaq hokimiyati aslida kuchli nufuzga ega bo'lgan koinlar tomonidan nazorat qilingan. Misr, Ossuriya, Bobil, Ahmoniyalar davlatida oliy tabaqa koinlar hukmdorning faoliyatini nazorat qilib turganlar. Parfiya podshosini koin kengashi hokimiyatdan tushirishi mumkin edi. Yangi podsholik davrida Misr fir'avni koinlar taxt vorisini masalasida koinlarni fikrini e'tiborga olishga majbur bo'lgan. Ahmoniyalar davlatida zardushtiylik koinlari hukmdorga maslahatchi, ma'naviy-madaniy va mafkuraviy sohalarni boshqarganlar.

Sharq iqtisodiyotining asosi sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik edi. Sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik xojaligini yolga qo'yish uchun ko'p sonli jamoalarni uyushtirish va sug'orish inshootlarini qurish va ta'mirlash zarurati qadimgi Sharqda davlat hokimiyatining kuchayib ketishiga va ayrim joylarda hukmdorning cheklanmagan hokimiyati paydo bolishiga olib keldi.

Sug'oriladigan yerlarning barchasi davlat mulki hisoblangan. Hukmdor oilasiga ham katta-katta yer mulklar qaragan. Mamlakat hududidagi

daryo, ko‘llar, o‘rmon va o‘tloqlarning katta qismi ham davlat ixtiyorida bo‘lib, hokimiyat ularni ijaraga bergan. Bundan tashqari soliqlar, boj to‘lovlari, istilochilik urushlaridan olingan o‘ljalar va qullar va boshqa har xil tushumlar davlat xazinasini boyitgan. Bu moliyaviy zahira hukmdor davlat hokimiyatini kuch-qudratini oshirgan.

Moddiy resurslarning va qonunchilikning podsho qo‘lida to‘planishi podshoning mutlaq hokimiyatini paydo bo‘lishiga olib keldi. Ulkan moddiy resurslar, qonunchilik va podsho shaxsini ulug‘lash asrlar-ming yillar davom etdi (misol uchun, qadimgi Misr va qadimgi, o‘rta asrlar va yangi davrlarda Xitoy davlati). “Podshoning amri vojib” iborasi shundan kelib chiqadi. Davlat hokimiyatining xojalik hayotiga faol aralashuvi ko‘p sonli ma‘muriy boshqaruv apparatini vujudga keltirdi. Qadimgi Sharqda podsho hokimiyatining mutlaq shakllari paydo bo‘lsada, u juda mo‘rt bolgan. Hukmron sulola oilasi, uning urug‘-aymog‘i ko‘p sonli bolib, ular markaziy davlat boshqaruvida yuqori lavozimlarni egallab olganlar. Sulolaning boshqa vakillari hududlarda merosiy hokimiyatga ega bolib, ular doimo markaziy hokimiyat nazoratidan chiqib, mustaqil bolish ucun isyon va fitnalar uyushtirganlar.

Podshoning markazlashtirish siyosatiga qarshi turgan eng katta va xavfli kuch bu mamlakatning turli hududlarida merosiy yer-mulkka ega bolgan urug‘-qabila yoboshchilari va oqsuyak zodagonlar bolgan. Eron, Parfiya, Xitoy va Hindistonda qadimda mavjud bolgan davlatlar tarkibiga o‘nlab kichik davlatlar, o‘lkalar turli darajadagi shartnoma, bitim va kelishuvlar asosida kirganlar. Ular ham doimo mustaqil bolishga intilganlar. Aynan ana shu omillar Ahmoniylar sulolasini, Xitoyda Sin va Xan, Parfiyada Arshakiylar sulolasining hukmronligini zaiflashtirib, oxir-oqibatda bu qudratli davlatlarning halokatiga sabab bolgan.

Qadimgi Sharqda shahar-davlatlarning shakllanishini dajla va frot daryolari oralig‘ida janubida, Suriya va sharqiy O‘rtayer dengizi shahar-davlatlari misolida ko‘rish mumkin. Shahar – davlatlarda davlat hokimiyatining ichki va tashqi siyosatini belgilashda, davlat boshqaruvida boy hunarmand-savdogarlar, katta yer egalari va kohinlar yetakchi o‘rinni egallaganlar. Shahar-davlatlarda boy savdogar-hunarmandlar, dehqonlar va kema egalari o‘zlarining oralaridan shahar hokimini saylaganlar.

Insoniyat sivilizatsiyasi tarixida ilk qonunlar qadimgi sharqda shakllangan. Qadimgi Sharq jamiyatlarida qonunchilik shakllanishi davlat, jamiyat va fuqaro o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda ustuvor ahamiyat kasb etadi. Qadimgi shumer davlatida bundan 5 ming yil oldin ilk qonunlar to‘plami ishlab chiqilib hayotga tadbiiq etilgan. Shumer podshosi Shulga qonunlari, Eshnunna qonunlari Bilalama, Ur Nammu va

Xammurabi qonunlari to'plami Insoniyat sivilizatsiyasining ilk o'chog'i Ikki daryo oralig'i sivilizatsiyasini bir necha ming yil barabar taraqqiyotini ta'minlash omili bo'ldi.

3. Qadimgi Sharqda yer egaligi. Qadimgi Sharqda davlat hokimiyati shakllanishi jarayonida jamoa yer egaligidan tashqari, davlat yerlari, ibodatxonalarqa qarashli yerlar va xususiy yerlar mavjud bo'lgan. Amalda esa yerlarning katta qismi ko'p sonli qishloq jamoachil dehqonlarining ota meros yeri edi. Oddiy jamoachi dehqon o'ziga tegishli yerida ishlab tirikchiligini o'tkazgan. Yaylov, o'tloqlar, lalmi yerlar, daryo, ko'llar va o'rmonlar jamoa mulki hisoblangan. Bunday toifadagi yerlarning bir qismi davlatga ham tegishli bo'lgan. Davlat hokimiyati ixtiyorida bo'lgan bunday yerlar jamoa yoki xususiy kishilarga ijara asosida foydalanishga berilgan. Shu bilan birga, bir qism yer podsho va ibodatxonalar ixtiyorida bo'lgan. Bunday yerlarda podsho va ibodatxona xo'jaliklari tashkil qilinib, qullar va qaram kishilar ishlaganlar. Davlat va ibodatxona yerlari ijaraga berilgan. Oddiy jamoachi yilning ma'lum kunlarida, ma'lum muddat sug'orish tarmoqlarining ta'miri va yangi kanallar qurilishida mehnat qilishi majburiy edi. Bir qism yer saroy a'yonlari, zodagonlar, amaldor va harbiylarga berilgan. Yerdan foydalanadigan barcha ijtimoiy qatlam toifalar davlatga yer solig'i to'lab, turli majburiyatlarni o'taganlar. Barcha to'lov-majburiyatlar o'talgandan so'ng, yer egalari yerni to'la tasarruf qilishlari va sotish huquqiga ega bo'lganlar.

O'z yeriga ega bo'lgan oddiy jamoachi dehqon davlatga belgilangan soliqlarni to'lashi va ko'p sonli majburiyatlarni o'tashi lozim edi. Sug'orma dehqonchilik juda katta kuch, mehnat talab qilar edi. Qurg'oqchilik, hosilsizlik, turli tabiiy ofatlar tufayli jamoachi dehqon o'z yeridan ajralib qolishi xavfi kuchli bo'lgan. Qiyin ahvolda qolgan jamoachi dehqon bunday hollarda qarzga botib o'z yeridan ajralib qolgan. Qadimgi sharq hukmdori mamlakatda ishlab chiqariladigan qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik mahsulotlaridan mahsulot va pul shaklida soliq yig'imgilariga ega bo'lgan, shu tariqa hukmdor xazinasida katta moddiy boylik to'planagan. Hukmdor bu moddiy boylikka cheksiz xo'jayinlik qilgan.

Ekin yerlarining bir qismi podsho va ibodatxonalar mulki bo'lgan. Bunday yerlarda podsho va ibodatxona xo'jaliklari tashkil qilinib, bu xo'jalikda qullar va qaram kishilar ishlaganlar. Davlat va ibodatxona yerlari ijaraga berilgan. Misr, Ossuriya, Bobil davlatlarida ibodatxonalar katta yer-mulklariga egalik qilganlar. Bundan tashqari ibodatxonalar podsho hokimiyatidan, katta yer egalardan va boshqa oddiy fuqarolardan ekin yerlari, chorva, pul mablag'i, ustaxona, savdo do'konlarini xayr-ehsonga olganlar.

Oddiy jamoachi yilning ma'lum kunlarida, ma'lum muddat sug'orish tarmoqlarining ta'miri va yangi kanallar qurilishida mehnat qilishi majburiy edi. Ayrim vaziyatlarda katta yer egalari ba'zilariga va ibodatxonalariga soliq to'lovidan ozod qilish immunitet yorlig'i berilgan. Oddiy jamoachi yilning ma'lum kunlarida, ma'lum muddat sug'orish tarmoqlarining ta'miri va yangi kanallar qurilishida mehnat qilishi majburiy edi.

Qulchilik. Sharqda qulchilik munosabatlari Yevropaga qaraganda oldinroq vujudga kelgani sababli, qadimgi Sharqda qulchilik o'ziga xos patriarxal – xonaki shakl kasb etgan. Qadimgi dunyoda qulchilik doimo turli manbalardan toldirib borilgan. Qullar qatlami urushlarda asir tushganlar, qarzi yoki jinoyati uchun qul qilinganlar, ajnabiy qul, sotib olingan qullar, oilaning kichik a'zosidan qul qilinganlardan tashkil topgan. Qul oilasida tug'ilgan bola ham qul bolgan.

Xufiya (yashirincha) qullikning eng qadimgi shakli patriarxal oila bolgan. Patriarxal oilada ota oilaga tegishli yer-mulkning egasi hisoblangan va oilaning barcha a'zolari oila boshlig'iga itoat qilishga majbur bolganlar. Ota oilaning barcha a'zolariga nisbatan tug'ma quldor huquqiga ega bo'lgan. Ota o'z farzandini 3 marta qullikka berish huquqiga ega bo'lgan (Bobil) yoki qarzni to'lash uchun farzandlarining birortasi vaqtinchalik qullikka berilgan.

Diniy e'tiqod. Ibadatxonalar. Sharq dunyosida davlat va jamiyatning tarkibiy qismining asosiy unsurlaridan biri diniy e'tiqod bo'lgan. Diniy tashkilot davlat va jamiyatning ma'naviy-madaniy sohalarini boshqargan. Iqtisodiy-ijtimoiy hayotga ham diniy muassasa kuchli ta'sir o'tkazgan. **Ibadatxonalar mamlakatdagi yekin yerlarini katta qismiga egalik qilganlar.**

Qadimgi Sharqdagi quldorlik qadimgi Yunon va Rim klassik qulchiligidan farq qiladi. Qullar sonining kamligi, ularning ishlab chiqarish jarayonida zaif ishtiroki Qadimgi Sharq qulchiligining asosiy xususiyati edi. Asosiy ishlab chiqaruvchilar erkin jamoachi dehqonlar bolgan. Qullar Sharq jamiyatlarining xo'jalik hayotida sezilarli o'ringa ega bo'lmaganlar, yordamchi ishlarda band bo'lganlar (uy qorovuli, cho'pon, otboqar, cho'ri va h.k.). Ko'p hollarda qullar oilaning a'zosi hisoblanganlar. Qulga oila qurishga ruxsat berilgan. Xojayin qul oilasiga ham g'amxo'rlik qilgan. Lekin ayrim jamiyatlarda mil. avv. I ming yillikda ularning soni jamiyat taraqqiyotining rivojlanishi bilan birga o'sib borgan (Yangi Bobil). Qullar qarzi uchun qul qilinganlar, jinoyatchilarning qulga aylantirilishi, sotib olingan qullar, tabiiy ko'payish hamda urushda asir olinganlar hisobiga ko'payib borgan. Ayrim hollarda ba'zi mamlakatlarda (Misr, Bobil, Ossuriya) qullar podsho, ibodatxona yerlarida,

zodagonlarning xojalik yerlarida ham mehnat qilganlar. Qulning huquq va majburiyatlari qonun hujjatlarida o'z aksini topgan (Bobil, Ossuriya).

Qadimgi Sharq jamoasi. Qadimgi Sharq jamiyati tuzilishining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri, bu asosiy ijtimoiy va hududiy birlik – qishloq jamoasining mavjudligidir. Har qanday qadimgi Sharq davlati bir necha shaharni hisobga olmaganda, o'z tashkilotiga ega bolgan ko'pgina qishloq jamoalaridan iborat bolgan. Qon-qarindosh urug' jamoasi, qo'shni jamoa – bu malum bir hududda yashab, boshqa jamoalar va davlatga nisbatan huquq va majburiyat bilan boglangan yopiq tashkilot edi. Qishloq jamoasi asrlar davomida mavjud bolgan urf-odat, an'analar asosida yashagan. Urf-odat, an'analar asr davomida o'zgarmagan, ularni buzgan odamlar qattiq jazolangan. Barcha qilinishi kerak bo'lgan ishlar jamoada muhokama qilingan va ko'pchilik ovozi bilan barchani qanoatlantiradigan qaror qabul qilingan. Jamoa boshqaruvi odat asosida amalga oshirilgan. Jamoa tashkiloti davlat hokimiyati va jamoa a'zosi o'rtasida vositachi, sud ishlarini olib boruvchi, davlatga turli soliq tolovlari amalga oshirishda kafolatchi, qishloq jamoasini hashar va boshqa ishlarga safarbar qilish tashkilotchisi bolgan. Shu sababli davlat hokimiyati dehqon jamoasini qo'llab quvvatlagan.

Katta daryolar havzasida joylashgan ilk sivilizatsiyalar iqtisodiyotining asosi sug'orma dehqonchilik edi. Aholining deyarli 90-95 foizi dehqonchilik bilan shug'ullanar va qo'shni dehqon jamoasi bolib yashar edi. Qishloq jamoasi bir yoki bir necha urug'dan tashkil topgan. Keyinchalik esa qishloq jamoasi turli urug'larga mansub oilalardan tashkil topgan qo'shni jamoaga aylangan.

Jamoaning asosi bolgan katta patriarxal oilada uch avlod yashagan (bobo-buvi, ota-ona, ularning uylangan o'g'illarining oilalari). Oila boshlig'i – ota (pater) jamoa oldida o'z oila a'zolari uchun mas'ul bolgan. Patriarxal oilada urf-odat, an'analarga rioya qilib yashash ustuvor ahamiyatga ega edi. Oila boshlig'i bolgan ota vafotidan keyin oila parchalanib ketmagan, balki katta o'g'il oila boshlig'i o'rmini egallagan. Oila boshlig'i ota oila mulkiga mas'ul bolib, uning kichik a'zolari oila boshlig'i rozilgisiz mulkiy oldi-sotdi ishlarini amalga oshira olmaganlar. Qadimgi Bobilda ota o'z xotini, o'glini o'zi olgan qarzning tolovi uchun malum muddatga qullikka berish huquqiga ega bolgan. O'z mulkiga ega bolmagan yersiz qaram kishilar davlat va ibodatxonalarda majburan ishlab, evaziga oziq-ovqat olganlar. Ular rasman erkin bolsalar-da, oilali bolib, qullarga yaqin qaram ahvolda yashaganlar (Misr, Mesopotamiya).

Jamoa ichida mulkiy tabaqalanish kuchli bo'lib, jamoada boy va kambag'al jamoachilar bilan bir qatorda yersiz oddiy jamoachilar ham

ko‘p bo‘lgan. Shunga qaramasdan, jamoada yashash va ishlab chiqarishning jamoachilik shakli saqlanib qoldi. Jamoa mulkchiligi, jamoa birdamligi xususiy mulkchilikning rivojlanishiga to‘siq edi. Jamoa tashkilotining barqarorligi ishlab chiqarish va hayot kechirishning jamoachilik shakli saqlanib qolishi, qadimgi Sharq iqtisodiyoti, ijtimoiy tuzilishi, davlat hokimiyati shakllarini ham belgilab berdi.

Davlat hokimiyati dehqon jamoasining mustahkam bolishidan manfaatdor bolgan. Sharqning barcha hududlarida sun‘iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilikni iqtisodiyotning asosi bo‘lishi davlat hokimiyatining sun‘iy sugorish inshootlarini qurish, ta‘mirlash va ishchi holatida ushlab turishda tashkilotchi bo‘lishga majbur qilgan. Davlat hokimiyati bu sohada qishloq dehqon jamoasiga tayanib ish ko‘rgan. Qishloq dehqon jamoasi sun‘iy sugorish inshootlarini qurish va ta‘mirlash ishlari-ga jalb qilingan. Barcha sharq mamlakatlarida aholining turli tolovlarni o‘z vaqtida amalga oshirishi, har xil majburiyatlarni o‘tashida davlat hokimiyati jamoa tashkilotining kafolatchi rolida chiqishidan unumli foydalangan. Bundan tashqari, qishloq jamoasining asriy urf-odat, an‘ana va qadriyatlarga tayanib yashashi, jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashiga xizmat qilgan. Qishloq dehqon jamoasining barqarorlikni ta‘minlashda davlat hokimiyatiga tayanch bo‘lishi mamlakatda barqarorlikni saqlashda muhim omil bolgan.

Turli iqlim zonolari Sharq sivilizatsiyasining xilma-xilligini ta‘minladi. Sharqdagi barcha qadimgi jamiyatlari tabiat bilan uyg‘un yashab, tabiiy shart-sharoit va iqlim sharq iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy hayotiga ta‘sir qildi.

2. Qadimgi Misr sivilizatsiyasi. Qadimgi Misr sivilizatsiyasi mil. avv. to‘rtinchi ming yillikdan mil. avv. 30 yilgacha mavjud bo‘lgan. Misr Afrika qit‘asining shimoli-sharqiy qismida joylashgan. Suvaysh bo‘yni orqali Misr Old Osiyoning madaniy markazlari bilan boglangan. Misr Nil daryosi orqali Tropik Afrika va O‘rtayer dengiziga tutashgan.

Qadimda Misr Nil daryosining birinchi ostonasidan boshlab, (kengligi 3 km.dan 20 kmgacha) aytiladi. Yuqori Misr, deltaning quyi qismi Quyi Misr deb atalgan (“Yegipet” nomi yunoncha, Misrning poytaxti Memfis misrcha “Xekau-Ptax” yoki “Xikupta” – “xudo Ptaxning ruhi qal‘asi” ma‘nosini bildiradigan so‘zdan kelib chiqqan). Qadimda misrliklar o‘z mamlakatlarini Nil vodiysining haydalgan qora tuproqli yeriga qarab, Kemet – “qora yer” deb ataganlar.

Qadimgi Misr tarixi mil. avv. IV ming yillikning II yarmidan davlat va sinfiy jamiyatning paydo bolishidan mil. avv. VI asrda Misrning Ahmoniyalar davlatiga qo‘shib olingan davrigacha bo‘lgan davrni o‘z ichi-

ga oladi. Qadimgi Misrda yashagan urug'-qabilalar mil avv. Ikkinchi IV ming yillikning yarmigacha urug'-jamoachilik tuzumida yashaganlar. Mil. avv. – IV ming yillikning II yarmida urug' jamoalarida xususiy mulk paydo bo'lib, ijtimoiy tabaqalanish boshlanadi. Ilk sug'orish inshootlari qurila boshlanib, ilk davlatlar-sepat paydo bo'ladi.

Mil. avv. XXXI asrda kichik davlatchalarning birlashuv jarayoni bo-radi Nil vodiysida Yuqori va Quyi Misr sepatlarining birlashuvi natijasida Yuqori va Quyi Misr podsholiklari vujudga keladi. Mil. avv. XXX asrda podsho Mina ikki davlatni bir davlatga birlashtirib misr fir'avnlarning birinchi sulolasiga asos soldi.

Qadimgi Misr iqtisodiyotining yetakchi sohasi sugorma dehqonchi-lik edi. Podsho hokimiyatining eng muhim vazifalaridan biri Nil vodi-ysida sug'orish inshootlarini qurish, ta'mirlash va ishchi holatida saqlab turishni tashkillashtirish bo'lgan.

Nil daryosining minerallarga boy loyqa suvi mo'l-ko'l hosil olishga imkon bergan. Misrda Nil daryosidan tarmoqlangan sun'iy sug'orish in-shootlarini qurilishi, o'z vaqtida suv inshootlarini ta'mirlanishi va ishchi saqlanishi natijasida dehqonlar mo'l hosil olganlar. Shu sababli qadimgi Misrda hech qachon ocharchilik bo'lmagan. Tosh o'roqlar bilan bir qa-torda mis o'roqlar ham ishlatilgan. Mis metalli juda taqchil va qimmat bo'lgani uchun tosh qurollarni siqib chiqara olmagan. Ekinlardan tariq va bug'doyning 2 xili, piyoz, sarimsoq, bodring va ko'katlar ekilgan. Bu davrda, ayniqsa, quyi Misrda bog'dorchilik, poliz ekinlari (sarim-soq, bodring, piyoz, har xil ko'katlar) ekilib, uzumchilik keng tarqaladi. Misrliklar xojalik tarixida birinchi bo'lib asalarichilikni kashf qilganlar. Misrliklar asalarichilikni bundan ming yil oldin bilganlar. Yuqori Misrda asosan donli ekinlar yetishtirilib, ularning bir qismi Nil daryosi bo'ylab shimolga jo'natilgan.

Qadimda Nil daryosida baliq mol-ko'l bo'lib, daryo suvlarida baliq-ning 100 turi, timsoh va begemotlar suzib yurgan. Nilning okun balig'i 100 kilogacha og'irlikda bo'lgan. Qirg'oq to'qaylarida 300 ga yaqin parranda, sahro bilan chegarada sherlar, giyena, shoqol, gepard, sirt-lonlar, antilopalar va tuyaqushlar yashagan. Boy fauna va flora aholini oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini to'la qondirgan, bu aholining tez ko'pay-ishiga olib kelgan. Aholi. Nil vodiysida qadimgi aholi Saxara sahrosi, Liviya va Efiopiyadan mil. avv. VI ming yillik oxirida kelib joylashgan. Bu etnik guruhlarining qo'shilishidan qadimgi Misr xalqi kelib chiqqan. Qadimgi misrliklarning tashqi ko'rinishi quyidagicha bo'lgan: ancha baland bo'yli, toladan kelgan, keng to'g'ri yelkalar, dumaloq, anchagina turtib chiqqan dahan, yo'g'onroq to'g'ri burun, qorachadan kelgan teri,

timqora to'g'ri soch, qora bodomsimon ko'zlar, qalin mijjalar. Qadimgi misrlikning soqoli qirilgan, sochlari qisqa qirqilgan. Kiyimlar qisqa, old yubka, lungidan iborat bo'lgan. Bolalar 11 yoshgacha qip-yalang'och yurganlar.

Ovqat. Arpa noni, emmer bo'tqasi, qovurilgan, qaynatilgan va quritilgan baliq, go'sht jumladan parranda go'shti, piyoz, sarimsoq va bodring. Qadimda misrliklar dunyo tarixida birinchi bolib pivoni kashf qilganlar va arpadan tayyorlangan pivo asosiy ichimlik bolgan. Qadimda misrliklar ovqat ratsioni boy bo'lgan. Misrning barcha shahar va qishloqlari Nil daryosi qirg'og'ida joylashgani uchun baliqni ko'p iste'mol qilganlar.

Fir'avn hokimiyati. Mil. avv. uchinchi ming yillikda Misr fir'avnlari istilochilik urushlari olib borib, Sinay yarim orolini qo'shib oldilar, janubiy Falastin va Nil vodiysining janibida birinchi ostonagacha Misrni ta'sir doirasiga oldilar.

Bu davrda Misrda kuchli markazlashgan davlat shakllandi. Fir'avning qolida bepoyon yer zaxirasi, oziq-ovqat va ishchi kuchi to'plangan bo'lib, bular uning qudratli hokimiyati asosi bolgan. Xufu va uning avlodlari "Ra o'g'li" unvonini qabul qildilar. Misrning qonuniy podshosi Quyosh xudosisining yerdagi ayol bilan yaqinligidan tug'iladi tushunchasi shakllanadi. Fir'avn odam qiyofasidagi yerdagi iloh deb tasavvur qilingan. U xudo Xor (Gor)ning ifodasi, xudo Raning o'gli, u o'limidan keyin iloh Osiris sifatida ulug'langan va unga sig'inish uchun sag'ana-piramidalar oldida ibodatxonalar qurilgan. Hech kimga podshoning muqaddas nomini aytishga ruxsat berilmagan. Chunki misrliklar e'tiqodiga ko'ra, uning nomini aytish fir'avnga zarar yetkazishi mumkin bolgan. Shu sababli, uning nomi "ulug' uy", "katta uy" (pero, fir'avn so'zi shundan kelib chiqqan) deb atalgan. Fir'avnlar o'zlarining ilohiy "Quyosh" bilan qarindosh ekanliklariga ishonganlar va o'zlarini samoviy hukmdor deb e'tirof etganlar. Oddiy xalq uchun fir'avn "katta xudo", "samo hukmdori" deb ulug'langan. Fir'avn o'zini yerdagi "katta iloh: deb tushungan. Yuqori Misrning qadimgi poytaxtini nomi Nexebt bo'lgan. Kalxat qiyofasida tasvirlanadigan ma'buda ham Nexebt deb atalgan. Ma'buda Nexebt fir'avn saroyining ma'budasi bo'lgan. Keyinchalik fir'avnning homiysi sanalib, uning tepasida qanotlarini yozib turib, himoya qilayotgan kalxat korinishida tasvirlangan. Fir'avnga oddiy fuqaroning harom nafasi tegmasligi uchun unga tik qarash mumkin bo'lmagan. Fir'avn xalqning oldiga chiqqanda odamlar tiz cho'kib, boshlarini yerga qo'yib uni o'tib ketishini kutganlar. Qadimgi podsholik davrida fir'avn hokimiyati ramzlari yuzaga kelgan. Uning yaqinlari ham tiz cho'kib kaftlarini ko'zlarini oldiga qo'yib muro-

jaat qilganlar. Qadimgi podsholikning gullab-yashnagan davrida fir'avn hokimiyati bag'oyat qudratli bolgan bolib, u nafaqat oddiy misrliklar uchun, balki fir'avnning eng yaqinlari uchun ham yetishib bolmaydigan balandlikda turgan (bir oliy amaldor qabr toshi yozuvida unga faqat podsho taxti oldidagi yerni emas, balki fir'avnning oyog'ini o'pishga ruxsat berilganini faxrlanib yozadi). Fir'avn o'zini oddiy xudo emas, balki "katta xudo" deb ulug'lagan.

Hatto qudratli kohinlar ham fir'avnga ta'zim bajo keltirganlar. Fir'avn oliy bosh kohin vazifasini ham bajargan. Bosh kohin sifatida fir'avn kohinlar ishtirokisiz xudoga murojaat qilishi, qurbonlik keltirishi va ibodatxonalarga kirishi mumkin bolgan. Fir'avn oliy bosh kohin sifatida o'zi ham diniy qonun-qoidalarga qat'iy rioya qilgan. Har yili bir marta fir'avn ibodatxona atrofida qipyalang'och bolib yugurib aylanib chiqishi shart bolgan. Fir'avn hokimiyati ramzlari shakllangan. Quyi Misr podshosining homiysi ilon qiyofasida tasvirlangan ma'buda Uto sanalgan. Quyi va Yuqori Misr yagona davlatga birlashgandan so'ng fir'avn Quyi va Yuqori Misr podshosi unvoniga sazovor bo'lgan va ilon va kalxat fir'avn hokimiyatining ramzlariga aylangan. Fir'avn qo'lida sopi egilgan aso va hokimiyat ramzi bo'lgan ko'p dumli qamchi ushlagan holda taxtda o'tirgan. Fir'avn bog'lar qo'ynida joylashgan, hashamatli yog'och qasrda yashagan. Saroy urf-odat, rasm-rusumlari, marosim va an'analari shakllangan. Fir'avnning o'g'liga ism qo'yish marosimiga muqaddas kitoblarni qiroat qilib o'qiydigan xerixeb lavozimidagi oily darajali kohin chaqirilgan, saroydagi tantanalarda xerixeb muqaddas matnlarni o'qib, amr-ma'ruf qilgan. Saroy an'analari – marosimlari, Fir'avnning xususiy hayoti: oziq-ovqati, kiyimi, sayohati va poklanishi qat'iy qoidalar bilan belgilab qo'yilgan. Fir'avnlardan biri Pepini II ning sag'onasi arxeologlar tomonidan o'rganilgan. Qadimgi Misr podsholigining fir'avni Pepi II mil avv. 2200 yillar atrofida hukmronlik qildi. U 6 yoshda taxtga chiqib 60 yildan ko'proq hukmronlik qildi. Qadimgi misr tarixida unga yaqin 60 yil hukmronlik qilgan Ramses II ni ko'rsatish mumkin. Pepi II xudoning o'g'li bo'lib, o'zi ham xudo edi.

Davlat boshqaruvi. Qadimgi podsholik davridan boshlab Misr davlat boshqaruvi uch bo'g'indan iborat bo'lgan shakllangan tizim yuzaga kelgan: markaziy, viloyat (sepat), mahalliy (qishloq-jamoa). Sepat boshqaruvi markaziy boshqaruvning kichikroq ko'rinishidagi shakli bo'lgan. Fir'avn hokimiyati zaiflashgan paytda sepatlarning katta boylik to'plagan noiblari markaziy hokimiyatga bo'ysunishdan boshtortganlar.

"Jad-jad", "Kanbet" atamalari qishloq-jamoa kengashlari nomini bildirib, ular mahalliy sug'orish tizimini kuzatish bilan birga, jamoada

sud ishlarini ham amalga oshirganlar. Qishloq jamoa kengashlari sepat hokimiyatlariga bo'ysundirilgan va ularning a'zolari kichik amaldorlarga aylanganlar. Davlat boshqaruvi tizimi fir'avnning tanho hukmronligiga asoslangan. Fir'avnning eng yaqin yordamchisi oliy amaldor - chati (bosh vazir) bolgan. U barcha amaldorlarga rahbarlik qilar edi. Shuningdek, u sun'iy sug'orish ishlarini tashkil etgan. Chorva mollarini nazorat qilish, hunarmandlar, harbiy ish, soliq majburiyatlarini, qurilish ishlarini nazorat qilish ham vazirning zimmasiga yuklatilgan. Fir'avn oyoq kiyimini olib boruvchi lavozimidagi amaldor bir vaqtning o'zida qo'shin bosh qo'mondoni, saroy oqsoqoli, Yuqori Misrni boshqaruvchisi, bino quruvchi, biror-bir ibodatxonaning bosh kohini vazifalarini ham bajargan. Yuqori lavozimli amaldorlarning vazifa doiralari kengayib, qisqarib turgan. Ular faqat harbiy boshliq bola olmaganlar. Zodagonlar yuqori lavozimlarni egallagan bolsalarda, hunarlarni egallashdan tortinmaganlar. Ular ustaxonalarga, qurilish ishlariga boshchilik qilganlar.

Josearning vorislari davrida fir'avn qattiq nazorat qiladigan davlat boshqaruv apparatining shakllanishi tugallanadi. Sepatlarning mustaqilligi tugatilib barcha sepatlarda fir'avnning soliq yiguvchi amaldorlari yurganlar. Davlat boshqaruvida turli lavozim va unvonlar joriy qilingan. Qadimgi podsholik davridagi yozma manbada fir'avn saroyidagi unvon va lavozimlar birma bir sanab o'tiladi: "Mahalliy hokim", "yagona do'st", "xerixeb imi uz "Nexen qo'riqchisi", "Nexeb boshlig'i", Quyi Misr podshosi xazinachisi "yagona do'st", xerixeb, tarjimonlar boshlig'i (?) "janub boshlig'i"ning barcha maxfiy ishlarini bajaruvchi, o'z hukmdorining ishonchli vakili..". "Mahalliy knyazlar, Yuqori Misr podshosi xazinachilari, saroyning yagona do'sti, Yuqori va Quyi Misr boshliqlari va shahar boshliqlari, tarjimonlar boshliqlari, Yuqori va Quyi Misr kohinlari boshliqlari va (boshqarma) boshliqlari"¹.

Qadimgi davrda iqtisodiyotda podsho xojaligi, ibodatxona xojaligi, xususiy xojalik va dehqon-jamoa xojaliklari mavjud bolgan. V-VI sulolalar davrida zodagonlarning yirik xojaliklari iqtisodiy hayotda ustuvor o'rinni egallagan. Misrning ko'pchilik aholisi davlatga tegishli yerlarda, ibodatxonalar yerlarida, zodagonlarning katta-katta ekinzorlarida, hunarmandchilik ustaxonalarida ishlaydigan qaram ishchilar bolgan. Bu odamlarning o'z xojaligi bolmay, o'z mehnatlari uchun oziq-ovqat ulushi olganlar va o'z ixtiyorlari bilan ish joyini tashlab keta olmaganlar. Xususiy kishilarga qaram qullar oz bolgan.

O'rta va past darajadagi amaldorlar ish haqini natura tarzida olar

¹ Хрестоматия по истории древнего востока М. изд. Вост лит. 1963. стр 29

edilar. Mil. avv. III ming yillik o'rtalarida oliy amaldorlarga davlat xojaligidan yirik yer maydonlari muntazam foydalanishga berilgan. U ko'pincha mansab bilan birga, otadan o'g'ilga meros bolib o'tgan. Oliy amaldorlar ixtiyoridagi davlat yerlari davlatning oliy nazorati ostida turgan. Ishchilar davlat tomonidan mehnat majburiyati tartibida sug'orish inshootlari, qurilish va boshqa ishlarga jalb qilinganlar. Misrda aholining asosiy qismi qishloqda dehqon jamoalarida yashagan.

Mil. avv. XVIII asrda Misr zaiflashib, Arabiston sahrolaridan kelgan ko'chmanchi qabilalar-giksoslar tomonidan bosib olinadi. Ko'chmanchi Giksoslarning hukmronligi mil. avv. XVI asr boshlarida tugatiladi. XVI asr boshlarida hukmronlik qilgan fir'avn Yaxmos Efiopiyaning shimoliga yurish qilib, Efiopiyaning shimolini Nilning ikkinchi ostonasigacha Misrga bo'sundiradi. Bu yerda o'rta podsholik davridagi eski Buxan qal'asi janubda Misrning tayanch nuqtasi bolib qoladi.

Bu davrda Misr qo'shinlari qayta tashkil qilinadi. Misrliklar giksoslardan jang aravasini o'zlashtirib oldilar. Jang aravalari takomillashtirilgan va armiyaning zarbdor kuchiga aylangan. Misrda ot zavodlari tashkil qilinib, xojalikning yangi sohasi - yilqichilik paydo boladi. Davlat hokimiyati tomonidan harbiy maqsadlar uchun ot zavodlari tashkil qilinadi va ularni oliy mansabdor boshqargan. Piyodalar armiyaning asosiy qismini tashkil etgan. Armiya safini og'ir qurollangan kamonchi va nayzachilar toldira boshlaydi. Piyodalarning qurollari yangilangan. Qilichning og'ir, to'g'ri va yengilroq o'roqsimon turlari paydo boladi. Yaxshiroq himoyalalanish uchun askarlar charm sovutlap o'rniga plastinkali sovut kiya boshlaganlar. Qo'shinning yangi turi – harbiy dengiz floti paydo bo'ladi. Misrliklarga kemalarni finikiyaliklar qurib berganlar

Armiya moddiy ta'minoti yuqori darajada yo'lga qo'yilgan. Isti-lochilik urushlarida askarlarning jasorati yaxshi rag'batlantirilgan. Jang paytida misr harbiysi g'animni qancha ko'p o'ldirsa shuncha ko'p haq to'langan. Misr askari o'zi o'ldirgan dushman askarining o'ng qo'lini chopib olgan va dalil sifatida ko'rsatgan. Shundan so'ng unga o'ldirilgan dushman askarlari soni bo'yicha haq to'langan. Arxeologlar askarlarning chopilgan o'ng qo'llarini qazib ochganlar. Mudofaa inshootlarini (fortifikatsiya) qurish san'ati takomillashgan. Misrliklar bosib olingan hududlarda mustahkamlangan qal'alarni qura boshladilar. Qo'shinni toldirish tartibi o'zgaradi. Askar olishning yangi qoidasiga ko'ra, har 10 balog'atga yetgan erkaklardan biri harbiy xizmatga chaqiriladigan bolgan. Ammo bu tartib qo'shinni toliq toldirish imkoniyatini bermagan. Shu sababli, XIX sulola davridan boshlab yollanma chet el askarlari qo'shinning yarmini tashkil qila boshladi.

Sug'orma dehqonchilikda suvni yuqoriga chiqarib beradigan mexanizm "shoduf" ixtiro qilinadi va omoch takomillashadi. Yangi o'simliklar o'zlashtirilgan (chechevitsa, smola daraxtlari). Bog'dorchilikda Osiyodan mevali daraxtlarning yangi navlari: zaytun, shaftoli, bodom, olma va qaroli daraxtlarini o'zlashtirish boshlangan.

Qo'ychilikda ko'p jun beradigan, shoxlari qayrilgan qo'chqorlar, mayin junli qo'ylar zoti paydo boldi. Chorvaning yangi turlari (xachir, tuya) paydo boladi. Yilqichilik mustaqil sohaga aylanadi. Cho'chqa podalarining soni ko'payadi va tovuqlar paydo bo'ladi. Suriya va Falastindan yirik qoramol, echki-qo'ylar, Efiopiyadan ho'kizlar olib kelingan. Bunday mol-kol chorvaning bolishi Misrda chol hayvonlarini qo'lga o'rgatishdek an'anani xojalikda yo'q bo'lishiga olib kelgan. Shu vaqtdan boshlab antilopa, ohu, arxarlar poda hisobida tilga olinmaydi, tasvirlarda uchramaydi. Ular faqat qurbonlik keltirilgan va it, mushuk, maymun kabi uy hayvoni sifatida saqlangan

G'ildirakli jang aravalari tarqala boshlaydi. Ikki g'ildirakli ot qo'shilgan arava harbiy maqsadlarda yoki zodagonlarning marosimlarda chiqishlarida foydalanilgan. Yuklar avvalgidek hokiz qo'shilgan chanalarda tashilgan. Tutmos III Finikiyada yasalgan qayiqlarni Suriya va Frot orqali hokiz qo'shilgan g'ildirakli aravalarda olib kelgan.

Me'morchilik, qurilish sohasi yuqori darajada rivojlangan. Bir necha yangi shaharlar, jumladan, Per-Ramzes nomli yangi shahar qurilgan. Noyob san'at namunalari hisoblangan me'morchilik inshootlari barpo qilindi: Luksor va Fivada Amon ibodatxonalari, fir'avn sag'ana-ibodatxonasi. Fir'avn Ramzes Abidosda Osiris ibodatxonasini qurgan. Nubiya-da qoyatoshda Abu-Simbel ibodatxonasi (balandligi 33 m., kengligi 38 m., uzunligi 65 m) barpo qilinadi. Bundan tashqari, bu yerda Ramzes II ning balandligi 24 m bolgan haykali va uning oyog'i ostida bolalarining 200 haykallari qo'yilgan. Xapuning o'g'li me'mor Amenxotep tomonidan Amenxotep ibodatxonasi klassik uslubda bunyod qilingan. Bu me'morning haykali Karnakdagi ibodatxonalarning biri oldida turibdi.

Misrning hududini fir'avn Amenxotep I yanada janubga Nilning ikkinchi ostonasigacha kengaytiradi. Uning vorisi harbiy boshliq Tutmos podshoning singlisi Yaxmosning eri bolgan. Tutmos I fir'avn taxtiga o'tirishi bilan qo'zg'olon ko'targan Efiopiyaga yurish qilib, qo'zg'olonn bo'stiradi va Nilning 3 ostonasidan ham o'tib, 4 ostonasigacha bosib oldi. Bu yangi podsholik davrida Misrning janubga yurishlarining oxirgi nuqtasi edi. 3 ostonada Misrning yangi tayanch qal'asi quriladi.

5. Exnaton (Amenxotep IV)ning diniy-siyosiy islohoti (mil. avv. 1365 - 1348-yillar). Misr jamiyati ma'naviyat-mafkurasi, ta'lim soha-

si kohinlar qolida bo'lgan. Kohinlar yopiq tabaqa bolib, bu tabaqa o'z navbatida oliy, o'rta va quyi kohinlar guruhlariga bo'lingan. Kohinlar diniy marosimni bajarish va diniy vazifalari bilan bir qatorda ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat-san'at bilan Ularga ibodatxonalarda dunyoviy va ilohiy ta'lim berilgan. Salohiyatli kohinlar ilm-fan bilan shugullanib, taqvim tuzganlar. Davlat hokimiyatida yuqori ma'muriy-sudyalik lavozimlarni ham kohinlar egallagan. Kohinlar me'mor, haykaltarosh va rassom sifatida ulkan inshootlar qurilishida boshchilik qilganlar. Misr iqtisodiyotining asosi sug'orma dehqonchilik ishlari kohinlarning yo'l-yo'riqlari asosida bajarilgan.

Kohinlar Misrda imtiyozli, yopiq ijtimoiy tabaqani tashkil etganlar, ayniqsa, ko'p sonli yaxshi uyushgan kohinlar yopiq tabaqasi boyib ketgan. Ibodatxonalar minglab gektar yerlar, chorva mollari, qullar va boshqa moddiy boyliklarga egalik qilganlar. Xudo Amon bayrog'i ostida Fiva hukmdorlari giksoslarni haydab chiqarganlar. Shu sababli yangi podsholik sulolalari davrida fir'avnlarning homiysi Misr bosh xudosi Amon ibodatxonasi alohida ta'sirga ega bolgan. Fivadagi Amon ibodatxonasi fir'avnlari o'n minglab qullar, ekin yerlari minglab bosh qoramol va oltin-kumushlar hadya qilganlar. Karnak va Luksorda xudo Amon sharafiga hashamatli ibodatxonalar qad ko'targan. Mamlakatda Amon ibodatxonasi kohinlarining mavqeyi kuchayib ketgan. Ular Misr iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotiga kuchli ta'sir ko'rsata boshlaganlar. Jumladan, Amon ibodatxonasining oliy kohinlari taxt vorisining nomzodini ko'rsatishdek imtiyozli huquqni olganlar. Oliy tabaqa kohinlarining boyib ketishi, ularning zodagonlarni chetlatib, davlatning ichki va tashqi siyosatiga aralashuvi noroziliklarga sabab bolgan. Natijada Amenxotep IV hukmron tabaqaga suyanib, diniy islohot o'tkazadi. Amon xudosi kohinlarining kuch-qudratini sindirishga jur'at qiladi. Amenxotep IV (mil. avv. 1365 – 1348-yillar) davrida Misr xudolaridan Aton - "Quyosh shu'lasini" xudosi birinchi o'ringa qo'yila boshlanadi. Fir'avni Amenxotep hukmronligining oltinchi yilida Aton Misrning yagona va oliy xudosi deb e'lon qilinadi. Fir'avni o'zini Atonning yagona o'gli deb Amenxotep ("Amon rozi") ismini Exnaton ("Atonga yoqadigan") ismiga almashtiradi.

Exnaton Fiva kohinlari bilan uzil-kesil aloqani uzib, Fivadan chiqib ketadi. O'rta Misrda (hozirgi El Amarna) go'zal saroy va ibodatxonalar bilan bezalgan yangi poytaxt Axetaton (Aton shahri)ga ko'chib keladi. Axetaton shahrida oliy xudo Atonga bag'ishlab ibodatxona quriladi. Bu ibodatxonaning xarobalari 1883, 1891 va 1912-yillarda qazib chiqarilgan. Exnatonning barcha saroy amaldorlari, uning yaqinlari ham yangi Quyosh xudosining kohinlari bilan birga Axetaton shahriga ko'chib

kelganlar. Exnaton Fiva kohinlari va sepatlardagi kuchli zodagonlarning qudratini vaqtincha zaiflashtirishga muvaffaq boladi. Juda katta yer-suv, moddiy boylikka ega bolgan Amon ibodatxonasi kohinlari Exnatonning qat'iy chora tadbirlariga qarshi chiqishga jur'at eta olmay va vaqtinchalik chekinadilar.

Islotchchi fir'avn vafotidan so'ng eski e'tiqod kohinlari hujumga o'tib, o'z mavqelarini tiklashga qat'iy kirishadilar. Fiva kohinlari Exnaton va u barpo qilgan shaharlarni la'natlaydilar. La'natlangan Aton shahri tashlab ketiladi. Exnatonning vafotidan keyin Tutanxamon davrida poytaxt Memfisga ko'chirilgan. Exnatonning kuyovi fir'avn Tutanxaton (mil. avv. 1347 - 1338-yillar) Fiva kohinlariga yon berib, Amon e'tiqodini qaytadan tiklashga va hatto o'z ismini ham o'zgartirib, Tutanxamon "Amonning tirik qiyofasi" deb atashga majbur bolgan. Tutanxamon 9 yoshida taxtga o'tiradi, lekin amalda Misrni Atonning bosh kohini Eye va harbiy boshliq Xoremxeb boshqarganlar. Tutanxamon 20 yoshga yetmay vafot etadi (mil. avv. 1338-yil). Yaqinda Tutanxamonning mo'miyolangan jasadı tekshirib ko'rilganda bu yosh fir'avn fitna qurboni bo'lgani tasdiqlandi. Tutanxamon boshiga ogir predmet bilan urib o'ldirilgani aniqlandi. Uning bevasi o'z siyosiy mavqeyini saqlab qolish uchun xett shahzodasiga turmushga chiqishga rozi boladi. Xett shahzodasi Misrga keladi, lekin Misr zodagonlari shahzodani oldiradilar. Tutanxamonning bevasi kohin Eye bilan nikoh qurishga majbur bo'ladi, kohin Eye taxtga chiqib XVIII sulolaning so'nggi fir'avni bo'ldi (mil. avv. 1338 - 1334-yillar).

Fir'avn Ramzes II (mil. avv. 1290-1224) hukmronligi 67 yil davom etgan, bu fir'avn 87 yoshida vafot etadi. Ramzes II baland bo'lyi, chiroyli erkak bo'lgan, uning mo'miyolangan jasadı va uch mingdan ortiq haykali saqlanib qolgan. Ramzes II ning oilasi katta bo'lib 74 xotini, 111 o'g'li va 68 qizi bo'lgan. Malika Nefertiti Ramzes II ning birinchi xotini bolgan. Abu Simbeldagi Ramzes II ning ibodatxonasidagi rel'yef-tasvirlarda bu go'zal malikaning tasviri mavjud.

Ramses II haqiqiy jangchi- fir'avn bo'lib o'zi armiyani jangga olib kirgan va dushman bilan yuzma-yuz olishgan. Bu fir'avn Luqsor, Karnak, Abidos shaharlarida hozirgi Livanning poytaxti Bayrut yaqinida va boshqa hududlarda ko'plab ibodatxonalar quradi. Nil daryosining sharqiy qismida Ramzes II yangi poytaxt Per-Ramzes shahrini ham qurgan. Uzoq vaqt Ramzes II ning katta o'g'illaridan biri Memfis xudosi Ptaxning bosh kohini Xaemuas voris bolgan, lekin u otasining olimigacha yashamadi. Natijada Ramzes II ning keksayib qolgan o'n uchinchi o'gli Merneptax (mil. avv. 1224 -1214-yillar) taxtga chiqadi. Bu fir'avnning vafotidan keyin Misr davlatning tushkinlik va yemirilish jarayoni boshlanadi.

Ramzes III vorislari davrida Misr zaiflasha boshlagan Mil. avv. 1075-yillar atrofida XX sulolaning soʻnggi vakili Ramzes XI vafoti bilan Misr ikki qismga bolinadi va Quyi Misrni birlashtirgan, markazi Tanis shahri bolgan ikkinchi davlat paydo boladi.

Mil. avv. XI asrda Misr chet elliklar hukmronligi davrida. Soʻnggi podsholik davrida Misr (Mil.avv. XI asrdan - Mil.avv. VI asrgacha

Misrda liviyaliklar hukmronligi (mil. avv. 950 - 730-yillar). Liviya sulolasiga asos solgan Sheshonki (mil. avv. 945 - 924-yillar) gʻayratli hukmdor bolgan. Efiopiya sulolasining Misrga hukmronligi (mil. avv. 715-664-yillar). Nubiya (Efiopiya qadimgi Misr tilida Kush deb aytilgan.) Ossuriya mil. avv. 674-669 yillarda Misrni bosib olgan. Ossur sulolasi Misrda mamlakatni 16 yil mil. avv 671 - 656-yilgacha boshqaradi. Ossurlar mamlakatni birlashuviga yol qoʻymaslik uchun "bolib tashla, hukmronlik qil" siyosatini amalga oshirib, mamlakatni 20 nomga bolib boshqardilar.Ularning har biri bevosita ossur podshosiga boʻysungan.

Mil. avv. 656-yilda ossuriyaliklar Misrdan haydab chiqariladi. Sais viloyati hokimlari Misrni birlashtirishga boshchilik qiladilar.Sais sulolasi davrida Misr soʻnggi bor oʻz taraqqiyotining yuqori bosqichiga chiqadi. Biroq bu Misr davlati va madaniyatining soʻnggi marta, lekin kuchsizroq rivoj topgan davri edi.Mamlakatda qonunchilik yaxshi yolga qoʻyilgan. Davlat hokimiyati jamiyatda adolat oʻrnatishga harakat qilgan. Adolat oʻrnatishning bir yoli jinoyatchining ikkinchi marta jinoyat qilishining oldini olish bolgan. Misol uchun, soxta pul yasovchilarning ikki qoli kesilgan. Davlat sirlarini oshkora qilganlarning tili kesilgan. Hujjatlarni soxtalashtirganlarning bir qoli kesilgan. Oldi-sotdi shartlari, garov majburiyatlari aniq belgilanib, guvohlar ishtirokida muhr bilan tasdiqlangan. Foiz berilgan qarz miqdoridan oshib ketmasligi belgilangan. Qarzi uchun qul qilish bolmagan. Qulni oldirish erkin misrlikni oldirish bilan teng jazolangan. Qasamni buzganlar ham shunday jazolangan.

Sais davrining keyingi podsholari Uaxibra (Apriy) bilan Yaxmos II (Amazis) (mil. avv. 569 - 525-yillar) oʻzlaridan oldingi firʼavnlarning siyosatini davom ettirganlar. Misrda yashagan yunonlarning nufuzi oʻsib borgan. Uaxibraning yunonlarga moyillik siyosati Misr aholisi oʻrtasida norozilik tugʻdirgan va yunonlar va ularning homiysi boʻlgan firʼavnga qarshi qoʻzgʻolon koʻtarilgan. Sarkarda Yaxmos isyonchilarga bosh bolib, firʼavn Uaxibraning asosan yunon yollanma askarlaridan tuzilgan qoʻshinlarini tor-mor keltirgan va hokimiyatni oʻz qoliga olgan. Firʼavn Amazis hukmronligi davrida (mil. avv. 570 - 526-yillar) mamlakatning ahvoli yanada yomonlashgan. Ahmoniy hukmdor KambizII mil. avv. 525-yilda Misrni bosib oladi. Misr mil. avv. 525 yildan -332 yilgacha

yunon makrdon bosqinigacha Ahmoniyalar davlati tarkibida bo'ldi. Mil. avv. 312 yildan - mil. avv. 30 yilgacha Misrda makedon sulolasi Ptolemeylar hukmronlik qildi. Lekin qadimgi Misr davlatchiligi an'analari, iqtisodiyoti va madaniyati yashashda davom etdi. Fa2qat mil. avv. 30 yilda Misr Rim davlati provinsiyasiga aylanishi bilan qadimgi Misr sivilizatsiyasi tugadi.

Qadimgi Misr madaniyati

1. Misr madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari. 2. Diniy e'tiqod. 3. Til, yozuv, ta'lim tizimi. 4. Adabiyot. 5. Tasviriy san'at va me'morchilik. 6. Ilmiy bilimlar.

Misr madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari. Misr madaniyati to'rt ming yil davomida shakllangan. Qadimgi Misr madaniyatining taraqqiyotini nima belgiladi? Birinchi navbatda, Qadimgi Misr ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari, Nil vodiysining o'zlashtirilishi, dehqonchilikning oqilona tashkil qilinishi, umummisr iqtisodining yuksak taraqqiyoti madaniy o'sishning moddiy asosini yaratdi. Shu bilan birga, madaniyat sohasidagi yutuqlar ta'lim, fan, qadimgi misrliklarning umumiy ma'naviy taraqqiyotining yuksalishi bu ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va davlatni takomillashtirishning asosiy sabablaridan biri bolgan.

Qadimgi Misr madaniyatining qator o'ziga xos xususiyatlari, uning takrorlanmas tizimini hosil qiladi. O'ziga xoslik va takrorlanmaslikning sababi Nil vodiysining geografik joylashuvi natijasida boshqa xalqlarning madaniy yutuqlarini o'zlashtirishning qiyinligi edi. Nil vodiysining tabiiy sharoiti butun Misr madaniyatida chuqur iz qoldirdi. Xojalik hayotida Nil daryosining yetakchi o'rnini, dengizdan uzoqlik, Nilni o'rab turgan jonsiz sahro, qumli bo'ronlari, jazirama issig'i va yirtqich hayvonlari bilan qadimgi misrliklarning dunyoqarashi va diniy e'tiqodi, qadriyatlarining butun tizimi xususiyatini belgilaydi.

Tabiatning dahshatli kuchlari oldidagi qo'rqinch, dahshatli, sirli xudolar, ularning ulug'vorligi va qudrati qadimgi misrliklarning dunyoqarashiga singib ketgan edi. Oddiy odamlar qudratli xudolar va ularning yerdagi o'g'li fir'avnlar, uning amaldorlari oldida o'zlarining juda zaifligi va kuchsizligini his qilganlar. Oddiy misrliklar xudoning o'g'li fir'avn xudolar homiyligi bilan Nil vodiysida sun'iy sugorish asosida dehqonchilikni tashkil qilib, umumjamo'a mehnatini tashkillashtirib, misrliklarga mo'l-ko'pchilik va farovon berdi deb hisoblar edi.

Bularning barchasi fir'avnga xudo sifatida qilish, unga farovon hayot, dahshatli va sirli xudolardan himoya qilgani uchun minnatdorchilik

qadimgi misr madaniyatida aks etdi va misr madaniyatining mazmun mohiyatini belgiladi. Misr madaniyatiga chuqur an'anaviylikka sodiq qolish, unga qat'iy rioya qilish misr sivilizatsiyasining nihoyasigacha saqlanib qoldi. Misrliklarning yillar davomida o'zlarining madaniy qadriyatlar tizimiga biror-bir yangilik kiritishdan qochadilar. Aksincha, ularda o'zlariga ma'lum g'oya, qonun, badiiy uslublarni asrash va amaliyotga tatbiq qilish uzoq asrlar asosiy tamoyil bolib qoldi. Albatta, bu hol yangi unsur, g'oya va uslublarni inkor qilmadi, ammo ular asta-sekin paydo bolgan. Shu sababli, Misr ustalari doimo rioya qilgan an'anaviylik va konservatizm Misr san'ati uchun xos bolgan konseptuallik va yuqori malakalilik, mohirlik, uyg'unlikni o'zida aks ettirib, nihoyasiga yetkazib ishlangan. Bu faqat Misr madaniyatiga tegishli qonun va obrazlarning yaratilishiga olib keladi.

Diniy e'tiqod. Misrda ilk diniy e'tiqod kurtaklari urug'chilik jamoasi davrida paydo bolib, juda uzoq taraqqiyot yolini bosib o'tgan. Diniy an'analar mustahkam va turg'un bolgan, fetishizm, totemizm, ayniqsa hayvonlarga topinish Misrda uzoq davom etgan. Qadimgi misrliklarning diniy e'tiqodi Nil vodiysi tabiiy shart-sharoitlarining o'ziga xos xususiyatlarini, qadimgi Misr jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotining alohida tomonlarining xayoliy aks etishi edi. Misrliklar oy, quyosh, Nil vodiysi va uning atrofidagi sahro, yirtqich hayvonlar va tabiatning har xil kuchlarini ilohiylashtiradilar. Ular sun'iy sug'orish tizimini tashkil qiladigan, insonlar ustidan amr qiluvchi fir'avnga e'tiqod qilganlar.

Qadimda misrliklar daraxtlar, o'simliklar va tabiat kuchlariga sig'inanlar. Lotos (nilufar) guli Yuqori Misrning muqaddas ramzi hisoblangan. Quyosh xudosi Ra eng qudratli iloh hisoblangan. Misr «Quyosh mamlakati», hukmdor- fir'avn esa «Quyoshning o'gli» deb e'tirof etilgan.

Misrda mingga yaqin turli xil mahalliy va umummisr miqyosidagi ilohlarga e'tiqod qilingan. Qaysi nom hokimi - umummisr hukmdori fir'avnlik taxtiga o'tirsa, shu nomning xudosi umummisr xudosi ga aylangan. Boshda Fiva shahrining xudosi Amon butun mamlakatda yaratuvchi xudo sifatida keng tarqalgan. Yangi podsholik davridan Amon quyosh xudosi Ra bilan birlashtirilgan. Misol uchun, nom markazi bolgan Fiva Misr poytaxti bolganda, hech kimga ma'lum bolmagan Fiva xudosi Amon xudolar ichida bosh xudo deb tan olingan. Oliy xudo quyosh xudosi Ra yaratuvchi xudolar Ptax va Amonning ko'pgina vazifalarini olish bilan Misrning bosh xudolaridan biriga aylangan. Amon-Ra dunyoning yaratuvchisi, podsho hokimiyati, Misr harbiy qudratining homiysi bolgan. Osiris olayotgan va uyg'unlayotgan tabiatning aksi, u dunyoning hukmdori,

podsho hokimiyati homiysi bolgan. Uning rafiqasi Isida - ona xudo, onalik va er-xotinlik muhabbatining homiysi bolgan. Ularning o'gli ham osmon va yoruglik ifodasi, fir'avn homiysi bolgan. Donolik va hisob xudosi - Tot; qudrat ramzi - ma'buda Soxmet, osmon xudosi Xatxor Quvonch va sevgi xudosi bolgan. Sia – bilim xudosi, Maat – adolat xudosi bolib, adolat, aql kabi mavhum tushunchalarni ifodalagan.

Yangi podsholik davrida fir'avn Amenxotep IV (Exnaton) diniy islohot o'tkazib, yakka xudolikni joriy qiladi. Exnaton misrliklarni iloh Atonga («Quyosh shu'lasi») sig'inishga da'vat etadi. Quyosh ramzi turlicha: qanotli sher, ko'p qo'lli sher qiyofasida, sherning qo'llari esa nur qiyofasida, lochin ko'rinishida tasvirlangan.

Misr diniy tasavvurlarida fetishizm va totemizm qoldiqlari saqlanib qolgan. Misrliklar o'z xudolarini hayvon, ilon, qurbaqa tarzida tasavvur qilishlari shu sababli edi. Xudo Apis kuchli buqa qiyofasida, ma'buda Soxmet - sher, Tot - pavian, suv girdobi xudosi Sebek - timsoh, Yuqori-Quyi Misr birligi timsoli bo'lgan ma'buda Uadjet ilon-kobra ko'rinishida tasvirlangan.

Ibodatxonalar ko'p sonli kohinlarni ta'minlash, bayram va ziyofatlarni tashkil qilish uchun o'z xojaliklariga ega bolgan. Fir'avnlar, zodagonlar ibodatxonaga hadya qilgan yerlarda ko'plab odamlar ishlagan. Ibodatxonalar nafaqat mamlakatni diniy, madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynab qolmay, oily tabaqa kohinlar davlat siyosatiga faol aralashganlar. Sulolaviy tushkunlik paytida yangi fir'avnning tanlanishi bevosita Amon-Ra oliy kohinlariga bogliq bo'lgan. Misr Nubiya, Falastin va Suriya bilan yaqin aloqada bolgani sababli, chet el xudolari Anat, Astarta, ma'bud Reshefa (Semit), Dedun (Kush xudosi) Misr xudolari panteoniga qabul qilingan.

Diniy tasavvurlarning paydo bolishi ilk davrda vujudga kelgan madaniyatga borib taqaladi. Unda odamlar totem hayvonga, qabila boshlig'iga sig'inishgan. Qadimgi podsholik davridan misrliklar hayvon qiyofasidagi xudolarga sig'inganlar. Mushuk qiyofasidagi ma'buda Bastet Quyosh xudosi Raning qizi bolgan. Misrliklarning xudolari hayvon qiyofasida: Anubis - oliklar saltanatining podshosi, bo'ri boshli qilib tasvirlangan. Tot - aql va yozuv xudosi. Soxmet - sher boshli urush ilohasi, suv to'lqini xudosi Sebek timsoh qiyofasida chiqadi. Ma'buda - begemot Tavaret ma'budasi chaqaloq va homilador ayollarning ko'zi yorishiga yordam bergan. Ayrim jonivorlar (timsoh, mushuk) ilohiy hisoblanib, ular ibodatxonalarda saqlanib, yaxshi parvarish qilingan. Har bir muqaddas jonivorlarni parvarish qilish uchun alohida xizmatchilar, erkak va ayollar belgilangan va bu lavozimlar otadan o'g'ilga o'tgan. Shaharning

har bir aholisi quyidagi tarzda muqaddas jonivorlar oldiga o‘zining ilti-fotini ko‘rsatadi. Ma’lum jonivor bag‘ishlangan xudoga ibodat qilib bol-gandan keyin ular o‘zlarining bolalari boshidagi sochini tola yoki boshin-ing yarmini, uchdan bir qismi sochini oladi va keyin sochni kumushga olchaydi. Sochlar kumushning qancha og‘irligiga tortsa, shunchasini xodimaga beradi, u buning evaziga jonivorlarga yemish uchun baliq ke-sadi. Bu jonivorlar uchun ovqatlanish shunday usulda. Agar kimdir bu jonivorlardan qaysi birini ataylab oldirsa, uni olim bilan jazolaydilar; agar ataylab bolmasa - kohinlar belgilagan jarimani tolaydi. Kim agarda ibis yoki kaxlatni oldirsa, har ehtimolga qarshi o‘lishi lozim.

Bizgacha yetib kelgan bir ma’lumotda shunday yozilgan: Agar uyda mushuk o‘lib qolsa, bu uyda yashovchi odamlar faqat qoshlarini qiradilar, agar it olsa, hammalari o‘zlarining badanidagi jun boshidagi sochlar-ini oladilar. Mushuklarning jasadini Bubastisga olib boradilar u yerda mo‘miyolab, muqaddas joyda dafn qiladilar. Itlarni esa har bir kishi o‘z shahrida muqaddas sag‘analarda dafn qiladi.

Misrning ayrim viloyatlarida timsohlar muqaddas hisoblangan, boshqa viloyatlarda ular muqaddas hisoblanmagan, hatto ularga dushman kabi munosabatda boladilar. Fiva aholisi va Meridov koli viloyati tim-sohni muqaddas hisoblagan. U yerda bittadan qolga o‘rgatilgan timsohni saqlaganlar. Bu timsohning qulog‘iga shisha, oltin bilan baldoq taqadilar, oldingi oyoqlariga halqa o‘tkazadilar. Bu timsohga belgilangan alohida ovqat beradilar, u tirik ekan, uni g‘amxo‘rlik bilan parvarish qiladilar, olimidan keyin mo‘miyolab, muqaddas joyda dafn qiladilar. Elefantina shahri aholisi aksincha timsohlarni muqaddas hisoblamaydi va hatto ul-arni ovqatga ishlatadilar»

Xudo Amonning timsoli buqa – Apis kuch-qudrat ramzi hisoblangan. Misrliklar bu muqaddas buqaga sigir tanlashda ham alohida ahamiyat berishgan. Va uning o‘rniga yangi tug‘ilgan buzoqchani izlashgan. Bu-zoqcha qora rangli, peshonasida uchburchak shakldagi oq belgisi bolishi kerak edi. Bunday hayvonni topish juda mushkul bolgan. Agar buqa o‘lib qolgudek bolsa, unga bag‘ishlangan katta xarajatlar talab qiladigan ma-rosimlar o‘tkazilgan. Apisga bagishlangan marosimlardan biriga 100 ta-lantgacha pul sarflangan. Marosimlardan keyin Apisning murdasi mo‘mi-yolangan, Arxeologik qazishmalarda bir qabrda dafn etilgan mo‘miyolan-gan Apisning 64jasadi topilgan. Misrliklar muqaddas mavjudotlarni jasadini ham mo‘miyolaganlar va ularni maxsus joylarda abadiy saqla-ganlar. Arxeologlar 5 millionga yaqin qushlar va boshqa jonivorlar ning mo‘miyolangan jasadlari saqlangan omborlarni topdilar. Qadimgi Misrda mo‘miyolangan mushuklarning jasadlari XIX asrda Angliyaga olib kelin-

ib, aukSIONda har biri 3 funt atrofida sotilgan. Lekin savdo yaxshi bormagan. Sotilmagan mo‘miyolangan mushuklar ingliz ekin yerlariga o‘g‘it sifatida ishlatilgan.

Diniy marosimlarda barcha ilohlarga atab madhiyalar aytilgan. Gor (Xor) zulmatni yenguvchi xudo hisoblanib, u lochin qiyofasida tasvirlangan. Gor Osirisning o‘gli bolgan. «Osiris va Gor» afsonasi ayniqsa, Misr dinini o‘rganishda katta ahamiyatga ega. Afsonada aytilishicha, hosildorlik xudosi Osiris qachonlardir Misrning podshosi bolgan. U odamlarga yerga ishlov berishni, boglar yaratishni o‘rgatadi. U o‘z akasi Set tomonidan oldiriladi. Set zulmat va yovuzlik xudosi hisoblangan. o‘g‘li Setni ochiq maydonga kurashga chaqirib, uni yengadi. Shundan so‘ng Gor g‘olib chiqishi uchun o‘z ko‘zini Osirisga berib, uni qayta tiriltiradi. Qayta tirilgan Osiris esa yerga qaytmaydi va u yerosti oliklar saltanatining podshosi bolib qoladi. Shunday qilib, uning yerdagi merosxo‘ri sifatida Gor tiriklar saltanatida qoladi.

Ibodatxonalariga diniy etiqod xizmatchilari – koinlar xizmat qilgan. Koinlarning boshqa bandalardan farqi ular sochlarini taqir qirib, bosh kiyim kiymaganlar. Koinlar qatлами bir necha guruhlariga bo‘lingan: ibodatxonaning to‘laqonli egalari bo‘lgan bag‘ishlanganlar – zodagon koinlar, oily koinlar va payg‘ambarlar; xudoning kiyim-kechaklari va marosimlar bilan shug‘ullanadigan stolist deb atalgan koinlar; Ulardan keyin quyi guruhni tashkil etgan bag‘ishlanmagan oddiy koinlar turgan. Agar oddiy xalqning farzandlari koinlarning talablariga javob beradigan bo‘lsa ular koinlar qatlamiga qabul qilingan. Koinlar toat-ibodat qilish, marosimlarni o‘tkazish bilan birga ibodatxonada ilm-fan bilan shug‘ulanganlar.

Dafn marosimlari. Misr madaniyatida olim bilan hayot doimo bir-biriga qarama-qarshi turgan. Ajalsiz ruh Misr dinida alohida o‘rin egallagan. Mana shu ajalsizlikka intilish ko‘mish marosimlarining shakllanishiga olib kelgan. Diniy marosimlarda har bir odam alohida xususiyatga ega bolgan. Masalan, sax inson jismi, shunt - uning soyasi, rek - uning ismi, ax - uning arvohi hisoblangan. Bu yerda eng muhim rolni Ra - insonning joni, ya’ni ajalsizlikning negizi o‘ynagan. Misr diniga ko‘ra, Ra o‘z jismiga birikishi va qayta dunyoga kelishi kerak bolgan. Chunki odam olganda faqat uning jismi oladi, ammo ruhi abadiy yashash uchun narigi dunyoliklar saltanatiga mangu yashash uchun ketadi. Qadimgi misrliklarning ana shunday diniy tasavvurlari asosida odamning jasadini abadiy saqlash fikri tug‘iladi va mo‘miyolash jarayoni vujudga keladi. Shuningdek, ularning tanasiga hech qanday shikastlar yetmasligi uchun yoki boshqa shovqinlardan xalos bolish uchun piramidalar qurish fikri

tugʻiladi. Olik 70 kun ichida moʻmiyolanib, keyin esa koʻmilgan.

Qadimgi misrliklar eʼtiqodiga koʻra odam tanasining har qanday qismi yoki boʻlagi unga zarar keltirish uchun ishlatilishi mumkin boʻlgan. Shu sababli vafot etgan kishining organlari alohida maxsus idish-kanoplarda saqlangan. Marhumning yuragi odam boshli kanop (maxsus idish-xumcha)da, oʻpkasi pavian maymoni boshli idishda, qoʻrni shogʻol boshli, ichak-chavogʻi lochin boshli kanopda saqlangan. Kanoplarga yozilgan duolar ularni himoya qilgan. Qadimgi Misrda oʻlganlarning jasadini moʻmiyolash toʻgʻrisida shunday maʼlumot beriladi: «Boshda ular burun orqali temir ilmoq bilan miyani ajratib oladilar. Bu usul bilan faqat miyaning bir qismini, qolgan qismini dorilarni purkash yoli bilan oladilar. Keyin oʻtkir efiof toshi bilan kindikni kesib, butun qorin qismini ichki aʼzolardan tozalaydilar. Qorin qismini tozalab va uni palma vinosi bilan yuvib, ustalar uni yangi ezilgan xushboʻy moddalar bilan tozalaydilar. Nihoyat, qorinni toza ezilgan mirra (xushboʻy oʻsimlik qatroni), kasiya (xushboʻy oʻsimlikdan olinadigan modda) va boshqa xushboʻy moddalar (ladandan boshqa) bilan toldirib ... (uni) yangidan tikadilar. Shundan keyin jasadni 70 kun natriy eritmasiga soladilar. Biroq 70 kundan koʻp muddatning tugashi bilan jasadni yuvib, visson gazlamasidan lentalar-ga kesilgan bint bilan (uni) oʻrab, kamyed (yelim oʻrnida ishlatiladigan modda) surkaladi» 1. Shundan soʻng moʻmiyolamgan jasad odam gavadasi shaklidagi tobutga solingan. Tobut marhumning mablagʻiga qarab qimmat yoki arzon yogʻochdan tayyorlangan. Moʻmiyolangan jasad tobutda saqlangan. Tobut ichki va tashqi tomondan turli sehrli duolar bilan qoplangan, duolar marhumga u dunyoda yordam berishi kerak bolgan. Marhumning ichki aʼzolari maxsus idishlar - kanopalarga saqlangan. Odam boshli idishda jigar, pavian (maymun) boshli idishda oʻpka, shoqol boshli idishda qorin, lochin boshli idishda ichaklar saqlangan. Bizgacha bir necha firʼavnlarning moʻmiyolangan jasadlari, muqaddas hisoblangan qushlar, jonivorlarning moʻmiyolangan tanasi millionlab nusxada yetib kelgan.

Moʻmiyolangan marhumni tobutini koʻmish oldidan xudo Anubis niqobidagi kohin soʻngi marosimni oʻtkazgan: Odam shaklidagi tobut vertical tarzda qoʻyilgan. Va uning yuzigacha sehrli asboblardan tashqari tekkanlar. Bu marosim u dunyoda marhumni gapirishi, eshitishi va koʻrishiga imkon bergan. Shu tarzda qadimgi misrliklar tasavvuriga koʻra, marhumning ruhi 70 kundan soʻng narigi dunyoga mangu yashash uchun joʻnatilgan. Oʻliklar saltanatiga borgan odamlarni ikkinchi oʻlim kutgan. U dunyoda marhum Osiris va Anubis xudolari oʻtkazadigan sudda odam oldirmagani, oʻgʻrilik qilmagani, yolgʻon gapirmagani toʻgʻrisida qasam

ichishi lozim bolgan. Bu o'g'itlar asosan «Oliklar kitobi», «Darvozalar kitobi», «Yerosti g'orlari kitobi» kabi diniy kitoblarda aytilgan. Yangi podsholik davridan sag'analarga «Oliklar kitobi»ning mazmunini o'zida aks ettirgan papirus yozuvlari qo'yilgan.

Til, yozuv, ta'lim tizimi. Qadimgi misrliklarning tili va yozuvi ming yillik tarix davomida o'z taraqqiyotining 5 bosqichini bosib o'tdi: Qadimgi podsholik davridagi til; O'rta Misr mumtoz tili (bu tilda noyob adabiy asarlar yaratilgan); Yangi Misr tili (mil. avv. XIV-VIII asrlar). 2. Demotik til (mil. avv. VIII - milodiy V asri).3. Kopttili (milodiy III-VII asrlari)

Qadimgi podsholik aholisi tilini Yangi podsholik aholisi tushunmagan. Misr tili chetga chiqmagan. Milodiy III asrdayoq qadimgi Misr tili o'lik edi. Uning o'rniga yangi kopt tili keladi. Asrda kopt tilini arab tili siqib chiqargan. Hozirgi kunda Misrda faqat 4,5 mln kishi kopt tilidan foydalanadi. Misr yozuvi mil. avv. IV ming yillik oxirida rasm-yozuv, pik tografiya asosida kelib chiqqan. Faqat O'rta podsholik davriga kelib rivojlangan yozuvga aylangan. Mil. avv. II ming yillikda 700 iyeroglif keng ishlatilgan. Yozuv uchun material sifatida tosh (inshoot, sag'ana, haykallar), loy taxtachalar (ostrakon), yog'och, charm va papirus xizmat qilgan.

Misrdan bizgacha maktab matnlari yozilgan papiruslar yetib kelgan. Jumladan, o'quvchilarning yozuvlari, o'quv qollanmalar, o'quvchilarga namuna uchun adabiy matnlar. Misrliklar yozuvni «Ilohiy so'z» deb aytganlar. O'qituvchilar o'quvchilar uchun mashqlar, ko'rsatmalar tuzganlar. Misrda o'qish va yozishni bilgan kishilar qadrlangan. Zodagonlar o'zlari va bolalarining savodli bolishiga jiddiy e'tibor berganlar.

Misrda maktablar bir necha bosqichli bolib, o'qish pullik bolgan. Har 1000 misrlikdan faqat 4 kishi savodli bolgan. O'gil bolalarga o'z otalarining kasb hunarlari o'rgatilgan. Qizlar asosan oila xo'jaligini yuritish, to'qish, tikish va ovqat tayyorlashga o'rgatilgan. Davlat boshqaruvi uchun savodli kotib-mirzolar tayyorlash maktablarida ta'lim olish sharaf hisoblangan. O'ziga to'q misrliklarning bolalari o'qish-yozish arifmetika o'rgatilgan. Zodagonlar farzandlarini mirzalar maktabiga o'qishga berganlar. Maktabda o'quvchilar mashqlarni loy taxtachaga tirnab yozganlar. Bizgacha qadimda misrlik o'quvchilar yozib o'qituvchiga tekshirish uchun berilgan va tuzatilgan ko'plab loy taxtachalar va tosh parchalari yetib kelgan. Qadimgi Misr manbalaridan birida Xeti o'gli Pepini poytaxtdagi kotiblar maktabiga olib borayotib, yo'l bo'ylab u o'g'liga kotiblikning boshqa kasblardan afzalligini 10 dan ortiq boshqa kasb bilan qiyoslab tushuntiradi. U turli xil kasblarning og'ir, mashaqqatli ekani,

bu kasb egalarining och-yalong'och hayotini yorqin tasvirlaydi. Mirzalar jamiyatda katta obro'ga ega bolganlar. Bizgacha mirzalarning ko'p sonli haykallari yetib kelgan.

Sopol va tosh parchalaridan tashqari yozuv uchun papirusdan foydalanilgan. Papirus so'zi qog'oz tayyorlash uchun ishlatilgan Nil daryosida o'sadigan qamishning bir turi nomidan olingan. Papirus qog'ozini tayyorlash uchun ustalar qamish poyasining ustki qavatini olib tashlab, o'zagini olib tasmalar kesib, suvga bo'ktirganlar. Keyin esa ularni bir-birigustiga qo'yib bo'lga bilan urib bir xil tekis qogoz holatiga keltirganlar. Shundan so'ng qog'ozning usti bir tekis bo'lishi uchun yog'och bolg'a bilan urib tekislaganlar. Yozuv uchun papirusdan tashqari gips, loy taxtacha yoki charm ham ishlatilgan. Yog'och ko'miri va qurumdan suv qo'shib rang tayyorlangan. Qamish poyasidan yozuv qalamlari va hayvon junlaridan mo'yqalam tayyorlangan. Barcha fanlarni atroflicha o'rganish bilan kohinlar shug'ullanganlar. Qadimgi Misrda tibbiyot sohasi yaxshi pivojlangan. Mamlakatda maxsus tibbiyot maktablari bolib, ularda tabiblar tayyorlangan.

Adabiyot. Misrliklar dunyoda eng qadimgi qiziqarli g'oyalar, badiiy obrazlar bilan sug'orilgan boy adabiyotlarni yaratdilar. Adabiyotning rivojlanishi uchun qulay omil bolib xalq og'zaki ijodi xizmat qilgan. Ilk adabiy asarlar mil. avv. IV ming yillikda shakllangan. Ertaklar, didaktik nasihatnomalar, zodagonlar tarjimayi hollari, diniy matnlar va poetik asarlar Qadimgi podsholik davridayoq paydo bolgan.

O'rta podsholik davrida janrlarning xilma-xilligi ko'payadi. Yuqori darajada yozilgan prozaik asarlar yuzaga kelgan (Sinuxet hikoyasi). Yangi podsholik davrida Misr adabiyoti g'oyaviy-badiiy jihatdan mukammallashish davrini boshdan kechiradi.

Misr adabiyotida nasihatnoma va bashoratlar didaktik janri tolaroq aks etgan. Nasihatnomalardan eng qadimgisi «Ptaxotep nasihatnomasi»dir. Keyingilari «Gerakleopol podshosi Axtoyning o'gli Merikaraga nasihati», «Fir'avn Amenemxet I ning nasihatnomasi» kabi asarlarda davlatni boshqarish yo'l-yo'riqlari bayon qilingan. «Axtoyning o'gli Duaufaga nasihati»da mirzalikning boshqa kasblardan afzalligi ko'rsatiladi. Yangi podsholik davrida nasihatnomalardan «Ani nasihati», «Amene-mope nasihati»da turmush axloqi va an'anaviy axloq qoidalari batafsil bayon qilinadi.

Ertaklar Misr adabiyotida alohida bir janr sifatida shakllandi. Ulardan eng «Fir'avn Xufu va sehrgarlar», «Kema halokatiga uchraganlar», «Egri va to'g'ri», «Ikki aka-uka» va «Fir'avn Petubastis to'g'risida»gi bir

necha ertaklardir. Misr adabiyotining «Sinuxet hikoyasi» qissasi, «Arfa chaluvchi qo‘shig‘i» poetik asari kabi namunalari o‘sha davrda yuksak adabiy janr shakllanganligining dalilidir. Turli janrlar orasida adabiyot alohida o‘rin tutadi.

Qadimda afsonalar, qayta ishlangan diniy madhiyalar Osiris mash-aqqatlari, xudo Raning yerosti podsholigiga sayohati hikoya qilingan sikllari mashhur bolgan. «Ko‘ngli qolgan kishining o‘z ruhi bilan suh-bati» nomli falsafiy dialog shaklida yozilgan asar diqqatga sazovor. Dia-logda dunyodagi adolatsizlik, huquqsizlik va yovuzlikdan azob chekkan kishi taqdiri hikoya qilinadi.

Tasviriy san‘at va me‘morchilik. Nil daryosining qadimgi misr-liklarni farovon hayotini, Misrning siyosiy qudratini ta‘minlashi me‘mor-chilik va tasviriy san‘atning gullab-yashnashiga sabab bo‘lgan. Me‘mor-chilik va tasviriy san‘atda qadimgi misr davlatchiligi va jamiyatning ma‘naviy qadriyatlarini ao‘z aksini topdi. Qadimgi Misr shahar va qishloq-larining barchasi hayot manbai bo‘lgan Nil daryosi sohillarida barpo qilingan. Barcha inshootlar fir‘avn saroylaridan boshlab oddiy xalqning uyigacha xom g‘ishtdan qurilgan. Faqat ibodatxonalar toshdan qurilgan. Ko‘pchilik uylarning tomlarini palma yog‘ochi ko‘tarib turgan, pol tuproq bilan pishitilgan. Ba‘zida boy misrliklarning uylari devorlari alebastr bi-lan suvalib, rasm-tasvirlar chizilgan. Ularning turar-joyi yotoqxona, meh-monxona, oshxona va xojalik binolaridan iborat bolgan. Tom va devorlar somonli loy bilan suvalgan. Uy ichida karavotlar, stul, skameykalar bolgan, kechqurun salqin tushganda odamlar yassi tomlarda o‘tirishgan yoki salqin boglarda sayr qilib yurganlar. Hovlidagi boglarda xurmo, anor, uzum, zan-gori va qizil gulli lotos o‘sgan. Boylarning uylari zax va toshqindan himoya qilish uchun baland ko‘tarilgan tuproq supalar ustiga qurilgan.

Misr me‘morchiligi, haykaltaroshligi va rel‘yef san‘atida badiiy vo-sita va bosh maqsadlarning asosiy mazmuni shakllantirgan. San‘atning diniy e‘tiqod bilan chirmashib ketgani yaqqol seziladi. “Oliklar kitobi”-da misrliklar u dunyoda ham bu hayotni davom ettirishlari, farovon va osoyishtalikda yashashlari aytiladi. Shu sababli qadimgi misr rassomlari sagona va piramidalarining devorlarida misrliklarning turmush tarzini ular mehnat qilayotgan, xo‘jalik bilan shugullanayotgan amaldagi hay-oti tasvirlangan. Rassomlar ko‘pincha zangori-ko‘k va sariq ranglardan foydalanganlar. Mil. avv. III ming yillikdayoq Misr san‘atining yetak-chi g‘oyaviy yo‘nalishlari bolgan xudo va fir‘avnlarning cheksiz qudra-ti g‘oyasi tashkil etgan. Bu g‘oyalar piramida va ibodatxonalar, ulkan haykallarni yaratishda o‘z aksini topgan. Me‘morchilikda iloh – fir‘avn piramida – qabrlari, ibodatxonalar qurish ustuvor ahamiyat kasb etgan.

Sagʻanalarning ikki xili: yer usti sagʻana lari (VI sulola piramidalari) va qoyaga oʻyilgan sagʻanalar (Yangi podshohlik davrida) keng tarqaladi.

Piramida va sagʻanalar qurish uchun I-II sulola firʻavnlari dafn qilingan mastabalar (xom gʻishtdan qurilgan sagʻana) namuna boʻlib xizmat qilgan. III sulola firʻavni Joser uchun balandligi 60 m bolgan zinapoyasimon ilk piramida mastaba oʻrnida quriladi. Bu kichrayib borayotgan olti ustma-ust qoyilgan mastaba edi. IV sulola firʻavni Xufu piramidasi (146,6 m balandligi, uzunligi 233 m, maydon hajmi 54 ming. kv.m, tonna 2,3 mln tosh). Xufu piramidasi qurilishi toʻgʻrisida Nazari papirusida yozib qoldirilgan. Nazari Xufu piramidasi qurilishiga tosh yetkazib beradigan guruhning boshligʻi boʻlgan. Papirusda Xufu piramidasi qurilishi kunma kun yozib borilgan. Qurilishda 20-22 ming kishi ishlagan. Qurilayotgan piramidadan 300 metr uzoqlikda Nil daryosida port qurilgan. Kemalar Qizil dengizdan Sinay yarim oroliga oʻtib mis xom ashyosini olib kelganlar. Mehnat qurollari tigʻlar misdan yasalgan. Gʻazodan 12 km uzoqlikdan ohaktosh va qurilish kerak boʻlgan boshqa yuzga yaqin buyumlar olib kelingan. Xufu piramidasi 1 million kv.m. tosh kemalarda tashib kelingan. Kemaning uzunlig 43 metrdan 50 metrgacha boʻlgan. Piramida qurilgan silliqlangan ohaktoshlar quyosh nurida yarqirab turgan. Xufu moʻmiyolangan jasad granit tobutda dafn qilingan. Bu granit 80 km uzoqlikdan olib kelingan. Uning oʻgʻli Xafraning piramidasi (balandligi 140 m, uzunligi asosi 220 m) bunyod qilinadi. Xafra piramidasi soʻng piramidalar kichik hajmda qurila boshlangan.

Qadimgi Misrda ibodatxonalar qurilishi oʻziga xos meʼmorchilik shaklida boldi. Karnak va Luksorda xudo Amon-Raga bagʻishlab ibodatxonalar quriladi. Bu ibodatxonalar xarobalari bizgacha yetib kelgan. Ular juda ulkan, atrof manzaraga uygʻun qoʻshilib ketgan, hashamatli bezalgan edi. Ibodatxonada yuzlab keng xonalar, katta hovlilar, xudolarning ulugvor haykallari, sfinks, pilonlar va xiyobon (alleya)lar mavjud bolgan. Karnak ibodatxonasida kolonna zali 5,5 ming kv.metr bolib, 134 ustun bor. 12 markaziy ustunning balandligi 21 m, eni 10 m, aylanasi 15 m. Ibodatxonada 500 ta toshdan, 17 ming jezdan yasalgan haykal va haykatchalar mavjud bolgan. Ular qadimda yashirib qoyilgan joydan topilgan.

Misr ibodatxonasi ulkan ustunlar, devorlar va baland darvozalar bilan oʻralgan. Ustunlar yuqoridan pastgacha yozuv va tasvirlar bilan qoplangan. Ular hayot ramzi bolgan yashil rang bilan boʻyalgan. Dayr-al Bahrdagi malika Xatshepsut ibodatxonasi va Ramzes III ning Madinat Abudagi (Fiva) ibodatxonalari hashamatli qurilgan. Yana shunday ibodatxonalar qoyalarga oʻyib bunyod qilingan (Ramzes III ning Nubiyadagi Abu Simbel ibodatxonasi). Ibodatxonalar binolari xomashyosi ohaktosh va granitdan boʻlgan.

Ramzes II ning Abu Simbeldagi ibodatxonasida teng kunlikda galeyanning 70 metr uzunligida quyosh nurlari fir'avn haykali yuziga tushgan, boshqa barcha kunlarda u yarim qorong'ilikda turgan. Hindiston g'or ibodatxonalari ham shunday rejalashtirilgan. Shumer, Misr yoki Amerika piramidalari uchlariga hali birinchi quyosh nurlari tushganda, ularning poydevori qorong'ilik qa'rida turgan. Misrliklar birinchi bolib ibodatxonalarning shiplariga chambaraklar qo'ydilar, yo ruglik yuqorida chambaraklarda ko'p marta bolinib, turlicha aks etadi, pastda esa yengil yarim qorong'ilik hukm suradi.

Karnakda Tutmos I ga bag'ishlangan obelisk-ustun qurilgan. Obelisk to'rtburchak ustun shaklida bolib, kokka intiladi. Uning devorlari tola iyerogliflar bilan qoplangan. Obelisklar ibodatxonalar oldida bunyod etilgan. Karnak ibodatxonasi oldida qurilgan Xatshepsut obelisining balandligi 33 metr. Fransiyaga olib ketilgan hozir Parij shahrining "Kelishuv" maydonidagi yana bir obeliskning balandligi 11 metr. Misrdagi yana bir me'morchilik san'ati namunasi – podsho saroyi qarorgohi monumental shaklda qurilgan. Barcha ibodatxona va saroylar rel'yeflar, boy devoriy rangtasvirlar bilan bezatilgan.

Misr me'morchilik san'ati dunyo me'morchiligining asosi bo'lib xizmat qiladi. Misrliklar qadimgi yunon me'morlarining ustozlari bo'ladilar. Chunki yunon shaharlarida queilgan barcha me'moriy inshootlar misr me'morchiligining kichik hajmdagi takroriy ko'rinishidir. Negadir yunon me'morchilik san'ati tarixida yunon me'morchiligi namunalari misr me'morchiligi bilan qiyoslanmaydi? Qadimgi Misrda haykaltaroshlik san'ati yuksak darajada rivojlangan. Fir'avnlar, zodagonlar va ilohlar ramzi bo'lgan hayvonlarni haykallari ishlangan. Bizgacha o'nlab fir'avnlarining haykallari va byustlari yetib kelgan. Yangi podsholik davri fir'avni Ramzes II ning uch mingga yaqin haykali bizgacha yetib kelgan. Ramzesning haykallari dunyoda ishlangan eng ulkan haykallar hisoblanadi. Uning Tanis shahrida ishlangan haykalining balandligi 27 metr, ogirliги 900 tonna bo'lib, yaxlit bitta toshdan yo'nilgan.

Podsholar vodiysi Fiva yonida Yangi podsholik fir'avni Tutanxamonning sag'anasidan qimmatbaho buyumlar topilgan (1922-yil). Sag'anada oltin tobut, qora eben daraxtidan, yarim tiniq alebastr, qimmatbaho tosh va metallardan tayyorlangan (ziynatlangan taxt, marosim harbiy qurollari, ko'plab bezaklar) buyumlar qadimgi Misrda dekorativ - amaliy san'atning yuqori darajada rivojlanganidan dalolat beradi.

Fir'avn va boshqa qatlam vakillari uchun sag'onalar qurilishi uzluksiz davvom etgan. Bunday inshootlar quriladigan joylarda qurruvchilar-

ning katta shaharlari vujudga kelgan. Bu shaharda barcha xizmat ko'rsatish binolari (turarjoylr, nonvoyxonalar, turarjoylar, oshxonalar, ustaxonalar, kasalxonalar, omborlar, hammomlar va h.k) mavjud bo'lgan. Bu shaharda me'morlar, rassomlar, xattotlar kabi san'at kishilari alohida mahallalarda yashaganlar. Ana shunday shaharlardan biri Dayr al Madinada qazib ochildgan. Dayr al Madinadagi shaharda qadimgi rassom va me'morlarning sag'onalari qazib ochildgan. Sag'onalarda ko'plab buyumlar topilgan: sopolga nozik did va nafosat bilan ishlangan sur'atlar mavjud. Bir eskizda sagona derazasining o'lchami va unga ketadigan xarajatlar tushirilgan. Ko'rinishidan rassomlar sopolga sur'atlarning eskizini chizgangan. Xattotlar bir vaqtini o'zida rassomlik vazifasini ham o'taganlar. Dayr al Madinadagi qishloqda yashagan me'mor Xaning sag'onasidan 500 xil buyum topilgan. Buyumlarning orasida me'mor Xaga me'morchilikdagi xizmatlari uchun fir'avn Tutmos IV sovg'a qilgan oltindan ishlangan me'mor bolg'achasi bor. Hozir Italiyadagi Turin muzeyida ana shu me'mor Xaning haykalchasi saqlanadi.

Qadimgi misr ustalari uy-ro'zg'or buyumlarini yashashni san'at darajasiga ko'targanlar. Kedr yog'ochi, eben daraxti va fil suyagidan hashamatli mebellar yasalgan. Xontaxta, kreslo va boshqa turli o'tirgichlar bilan fir'avn va zodagonlarning uylari jihozlangan. Fir'avn Tutanxamon qabridan ana shunday nafis ishlangan kreslo bizgacha yetib kelgan.

Ilmiy bilimlar. Misr madaniyatida fan yetakchi o'rin tutadi. U asosan matematika, astronomiya, tibbiyot yo'nalishlarida rivojlangan. Misr kalendari osmon jismlari va Nil daryosining mavsumiy o'zgarishi asosida tuzilib, yil uch mavsum, har mavsum to'rt oyga bolingan. Har oy uch o'n kunlik dekadani tashkil etgan. Yilda 36 dekada bolgan. Oxirgi oyga 5 kun qo'shib, kalendar va astronomik yil (365 kun) tenglashtirilgan. Sutka 24 soatga bolinib, yozda kunduz soatlari uzoq, qishda qisqa bolgan. Misrliklar yulduzlarning aniq kattaligini olchaganlar. Suv va quyosh soatlarini kashf qilganlar. Misrliklar kvadrat, doira, uchburchak maydonlarining hajmini olchash metodlarini ishlab chiqdilar. Yer maydoni qurilishlarda binolar balandligi ushbu metodlar bilan aniqlangan. Ular o'nlik tizimda hisoblashni kashf qilganlar. Uzunlik olchovi sifatida podsho tirsagi - 52 sm, qisqa tirsak - 45 sm.ga teng bolgan. Misrliklar o'nlik sanoq tizimini kashf qildilar, qo'shish, ayirish, bolish va ko'paytirishni bilganlar. Misrliklarning astronomiya, matematika va boshqa fanlar sohasidagi yutuqlarini yunon-rim madaniyati o'zlashtirgan edilar.

Misr jarrohlari butun Old Osiyoga mashhur bolganlar. Bizgacha 10 tibbiyot papirusi yetib kelgan. Tabiblar 100 ga yaqin kasallikni davolash

usullarini bilganlar. Qon aylanishi va yurak faoliyati to'g'risida bilimga ega bolganlar. Misrliklar ilk bor yog'ochdan tish protezini qo'yanlar, bosh miyaning trepanatsiyasini amalga oshirganlar. Shifokorlar tayyorlaydigan maxsus tibbiyot maktablari tashkil etilgan. Qadimgi Misrning tibbiyot retseptlari, magiya matnlaridan o'rta asrlarda arablar va Yevropa tibbiyoti foydalangan. Mo'amiyolash san'ati yuksak darajada rivojlanishi tabibning odam anatomiyasini sinchiklab o'rganishlari uchun muhim omil bolgan. Misr koinlari osmon jismlarini kuzatib, yulduzlarning ilk xaritasini tuzdilar. Misrliklar qadimgi so'z ensiklopediyalarini tuzganlar.

Misrliklarning turmush tarzi. Qadimda misrliklar qanday yashaganlar. Oddiy aholi qamishga loy suvalib qurilgan kulbalarda yashagan. Boy uylari paxsa va xom g'ishtdan bunyod etilgan. Qadimgi podsholik davrida uylar tor bo'lib, xom g'isht, loydan qurilgan. Bu davrga tegishli poli loy bilan suvoq qilingan uylar qazib ochilgan.

Qadimgi podsholik davrida oddiy odamlar bellarini bir parcha mato bilan o'rab yurganlar yoki oldingi tomonga oddiygina ola quroq lattali belbog'-kamar ilganlar va ish vaqtida umuman yalong'och bo'lib olganlar. Faqat ba'zilar (ovchilar, baliqchilar) gavdaning beldan yuqori qismini yopganlar, chunki ularning mashg'ulotlari shuni talab qilgan. Yosh bolalar 11 yoshgacha qipyalong'och yurganlar.

Misrda Nil daryosi vodiysida sun'iy sugorishga asoslangan dehqonchilik yuksak darajada rivoj topgan. Misrda bug'doy, tariq va boshqa donli o'simliklardan mo'l-ko'l hosil olingan. Shu sababli aholining barcha tabaqalari to'q va farovon yashaganlar. Misrda galladan mo'l hosil olingan. Shu sababli oddiy aholi ham bugdoy unidan non yopib yegan. Nil daryosi va ko'llarda baliq serob bo'lgani uchun, baliqdan qovurilgan, qaynatilgan, dimlangan, quritilgan sho'r baliqdan xilma-xil taomlar tayyorlangan. Quritilgan baliq hatto yoqilgi sifatida ishlatilgan. Zodagonlarning ziyofatlari uchun dehqonlar gozlarni semirtirganlar. Piyoz, sarimsoq va go'sht keng iste'mol qilingan. Pivo ichimligi barcha ijtimoiy tabaqalar uchun kundalik ichimlik bo'lgan.

Qadimda misrliklar qanday yashaganlar? Oddiy aholi qamishga loy suvalib qurilgan kulbalarda yashagan. Boy uylari paxsa va xom g'ishtdan bunyod etilgan. Qadimgi podsholik davrida uylar tor bo'lib, xom g'isht, loydan qurilgan. Bu davrga tegishli poli loy bilan suvoq qilingan uylar qazib ochilgan.

Qadimgi podsholik davrida oddiy odamlar bellarini bir parcha mato bilan o'rab yurganlar yoki oldingi tomonga oddiygina ola quroq lattali

belbogʻ-kamar ilganlar va ish vaqtida umuman yalongʻoch boʻlib olganlar. Faqat baʼzilar (ovchilar, baliqchilar) gavdaning beldan yuqori qismini yopganlar, chunki ularning mashgʻulotlari shuni talab qilgan. Yosh bolalar 11 yoshgacha qipyalongʻoch yurganlar.

Misrliklar Nilni ona daryo sifatida ulugʻlab "Misr Nilning sovgʻasi" deb aytganlar. Ekinlar. Arpa, bugʻdoy, kunjut, kanop, emmer (polba), xurmo, kokos palmalari, akatsiya (qurilish materiallari uchun), uzum va mevali daraxtlar oʻsgan. Asosiy ovqat hisoblangan baliq moʻl-koʻl boʻlib u qovurilib, qaynatilib, dudlanib va quritilgan holda isteʼmol qilingan. hatto quruq baliq oʻtin oʻrinda ishlatilgan. Chorva mollari. Qoʻy, echki, sigir, eshak, choʻchqa boqilgan. Mil. avv. II ming yillikkacha antilopa podalari ham yarim yovvoyi holda boqilgan, lekin ular madaniylashmagani uchun voz kechilgan. Nil daryosi vodiysida sunʼiy sugʻorishga asoslangan dehqonchilik asosida bugʻdoy, tariq va boshqa donli oʻsimliklardan moʻl-koʻl hosil olingan. Shu sababli oddiy aholi ham bugʻdoy unidan non yopib yegan. Nil daryosi va koʻllarda baliq serob boʻlgani uchun, baliqdan qovurilgan, qaynatilgan, dimlangan, quritilgan shoʻr baliqdan xilma-xil taomlar tayyorlangan. Quritilgan baliq hatto yoqilgʻi sifatida ishlatilgan. Zodagonlarning ziyofatlari uchun dehqonlar gʻozlarni semirtirganlar. Piyozi, sarimsoq va goʻsht keng isteʼmol qilingan. Pivo ichimligi barcha ijtimoiy tabaqalar uchun kundalik ichimlik boʻlgan

Qadimgi Misrda aka-singillar oʻrtasida nikohga ruxsat berilgan. Oʻgʻil va qiz bolalarning sochlari taqir qilib olingan, lekin bir tutam soch tolasi boshning bir tomoniga qoʻyilgan va oʻsiganda jamalak qilib oʻrib qoʻyilgan. Firavn sulolasidan boʻlgan qizlarning boshqalardan ajratib turadigan belgisi soch tutami yoki mayda oʻrilgan soch tutami yonogʻidan pastga tushib turgan. (Keyinchalik zodagonlarning qizlari ham shunday qilib sochlarini oʻrganlar. Bolalar oʻn uch yoshgacha qip-yalangʻoch yurganlar. Katta yoshli misrliklar sochlarini taqir qilib yoki kalta qirqib kambagʻallar esa oʻz aksini suvda koʻrish bilan cheklangan. Zodagonlar sochlarini kalta qirqib, boshlariga parik kiyganlar. Ziyofatlarga borganda parik kiyib, oʻzlariga xushboʻy yogʻ surtganlar. Soch oqarganda satang erkak va ayollar uni boʻyaganlar. Sochni siyraklashishiga qarshi turli dorilardan foydalanganlar. Shunday malhamlardan biri eshakning tuyogʻi, itning panjasi, xurmo danagi va yogʻ qoshib tayyorlangan.

Qadimgi davrda Misrda zodagon ayollar modaga asoslanib sochlarini turmaklab, nafis kiyimlarni kiyganlar. Tannozi ayollar zaharli boʻlsada ohak bilan yuzlarini oqartirganlar. Erkak zodagonlar sochlarini taqir qirib, boshlariga parik kiyganlar. Badanlariga xushboy moy surib yurganlar.

Har kun xos mahramlar kechqurun bu yog‘larni badandan maxsus suyak girg‘ich bilan qirib tashlaganlar.

Zodagon erkak va ayollar atir-upadan, surmadan keng foydalanganlar, zodagon ayollar orasida alebastr bilan yuzlarini oqartirish va ko‘zlari ostini qora surma bilan bo‘yash keng tarqalgan. Lab bo‘yogi va yuzni qizartirishda misrlik ayollar qizil rangli oxradan foydalanganlar. Ayollar ham yasama soch va parik kiyganlar. Ayollar xushbo‘y hid tarqatadigan daraxtning qatronini chaynaganlar. Usti yarqiroq qilib ishlov berilgan mis va bronzadan oyna tayyorlanib, unga yog‘och yoki fil suyagidan ushlagich yasalgan. Kambagallar esa aksini faqat suvda ko‘rgan. Kiyim uchun kanopdan to‘qilgan rangi oq matolar ishlatilgan. Jundan mato to‘qilmagan, chunki misrda issiq kiyimga ehtiyoj bo‘lmagan. Kiyim ham oq rangli kanop ko‘ylak, kambagallar uchun gavdaning beldan past qismi oralgan lungi bo‘lgan. Bolalar 11-2 yoshgacha qip yalangoch yurganlar. Firavn Tutaxamon qabridagi devoriy tasvirda Tutaxamon yubkada rafiqasi Anesemxet esa uzun ko‘ylakda tasvirlangan. Paxta va ipak Misrga keyinroq mil. avv. I ming yillikda kirib kelgan.

Misrliklar yuqumli kasalliklarga qarshi turish uchun piyoz, sarimsoq va sholgomni muntazam iste‘mol qilganlar. Qadimda misrliklar yaqinlariga vaqti vaqti bilan guldasta sovg‘a qilganlar.

Shahar va qishloqlarda yashaydigan barcha aholi maxsus ro‘yxatda o‘z tirikchilik manbalarini ko‘rsatishlari kerak bo‘lgan. Qadimda Misrda o‘g‘rilar kastasi ham bo‘lib, kastaning oqsoqoli ham bo‘lib, o‘g‘rilar uning ro‘yxatida hisobga turib, o‘g‘irlangan barcha buyumlarni oqsoqolga topshirishlari lozim bo‘lgan. Jabrlangan odam o‘g‘irlangan buyumlar ro‘yxatini qaysi kun va soatda o‘g‘irlangani ko‘rsatib o‘g‘rilar oqsoqoliga topshirganlar. Kasta oqsoqoli o‘g‘irlangan narsalarni egasi buyumlarni qiymatini chorak qismini to‘lagandan keyin o‘g‘irlangan buyumni qaytargan. Ana shu chorak qism o‘g‘rining daromadi bo‘lgan. Qadimgi misrliklar tuzilishi bo‘yicha murakkab, mazmunan boy madaniyat yaratganlar. Bu madaniyat ko‘pgina Yaqin Sharq xalqlarining madaniy taraqqiyotiga hayotbaxsh ta‘sir ko‘rsatdi.

Tayanch iboralar: Qadimgi sharq, sharq jamoasi, qulchilik, sepat, Nil, manbalar, fir‘avn, Amrat madaniyati, ieroglif, tibbiyot, mo‘miyolash.

Takrorlash uchun savollar

1. Qadimgi sharq davlati va jamiyatining o‘ziga xos xususiyatlari sharq davlatchiligining o‘ziga xos xususiyatlarini ayting.
2. Qadimgi tarixini o‘rganish manbalarini xillashtiring.
3. Qadimgi Misr tarixini davrlashtiring.

4. Qadimgi Misr ijtimoiy-iqtisodiy hayotini tavsiflang.
5. Qadimgi Misr madaniyatini yutuqlarini ko'rsating.

Mustaqil ish mavzulari

1. Qadimgi Sharq davlati va jamiyatining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Qadimgi sharq jamoasi.
3. Qadimgi Misrdagi ilk dehqonchilik manzilgohlari.
4. Qadimgi Misr tarixi manmashunosligi va tarixshunosligi.
5. Qadimgi Misr madaniyati.

7-mavzu. IKKI DARYO ORALIG'I (MESOPOTAMIYA) **SIVILIZATSIYASI**

1. Ikki Daryo oralig'i (Mesopotamiya). Shumer sivilizatsiyasi.
2. Shumer davlatining siyosiy tarixi. 3. Shumer jamiyati. 4. Shumer-Bo-bil madaniyati

1. Ikki Daryo oralig'i. Shumer sivilizatsiyasi.

Dajla va Frot daryolari oralig'i qadimda «Ikki Daryo oralig'i» hudud Fors qoltig'i, Arabiston choli, Suriya, Arman Tavri va Zagros toglari bilan chegaralangan. Hudud janubiy va shimoliy yoki Quyi va Yuqori **Ikki daryo oralig'iga** bolinadi. Janubda shumer xalqi jahon sivilizatsiyasining g ilk o'chog'ini yaratdi. Shumer sivilizatsiyasi butun Old Osiyo madaniyat va keyin butun dunyoning boshqa hududlari taraqqiyotiga hayotbaxsh ta'sir qildi. Tarixiy adabiyotda Dajla va Frot oralig'i yunon tilida Meopotamiya deb ataladi. Garb olimlari bu atamani hozirgi kungacha qo'llab keladilar. Bu bilan garb olimlari yunon tilini targ'ib va tashfiq qilmoqchi bo'ladilarmi? bu bizga no'ma'lum. Har bir hududni o'z nomi bilan aytish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu sababli qadimgi Dajla va Frot daryolari oralig'ini Ikki Daryo oralig'i iborasini qo'llash to'g'ri bo'ladi.

Ikki Daryo oralig'ining janubida Old Osiyoning eng unumdor yerlari bor, lekin mineral xomashyo va yog'och taqchil. Sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik mol-kol hosil olishga imkon yaratadi.

Shumer sivilizatsiyasi. Mil.avv. IV ming yillikda Ikki daryo oralig'ining janubiga shumerlar kelib o'nashadi. Tarixiy manbalarning ma'lumotlariga ko'ra shumerlarning asl vatani Oltoy o'lkasi bo'lgan. XIX asrda Taniqli sharqshunos olimi Z.A.Ragozina bu haqda shunday yozadi: "...Oltoy toglarining Sibir tizmasi qadimdan turli rudalarga mo'l-ko'lligi bilan dongi ketgan, Oltoy vodiylaridan esa son- sanoqsiz

turon qabilalari kelib chiqdilar va janub va shimolga sochilib ketdilar, ularning ko'pchiligi o'sha yerda hozirgacha yarim ko'chmanchi bolib yashab qolganlar, oddiygina faraz qilish mumkinki, o'sha yerdan bizning shumer – akkadlar chiqqan bo'lishlari mumkin” (РагозинаЗ. А. История Халдеи. Москва. 1998. стр 132.). Mifologiyada ham shumerlar Oltoy-dan kelib chiqqani togrisida ma'lumotlar mavjud.

XIX asrning 70 yillarida ba'zi yevropa olimlari shumer xalqi va shumer dxalqi va davlati tarixda mavjud bo'lganini inkor etishga urindilar. 1870 yillarda Jozef Galevi nomli bir sharqshunos o'ttiz yil davomida ketma-ket maqolalar yozib shumer tili somiylar tomonidan suniy ishlab chiqilgani va somiylar Bobilga asos solgani to'g'risida yozadi. Lekin mixxat bo'yicha taniqli olim Oppertning Bobil xalqi va tilini kelib chiqishi shumerlardan ekanligi to'g'risidagi chuqur ilmiy tahlillari asosidagi xulosalari va tez orada olib borilgan arxeologik qazishmalar shumerlarni tarixiy-geografik xaritalarda tasdiqladi. Galevi va boshqa bir necha kishilarning fikri asossizligini ko'rsatdi. .

Shumerlarning turkiy xalq ekani mifologiya, diniy e'tiqod va lingvistik manbalarida o'z tasdigini topdi. Turkshunos olimlar, filologlar qadimgi shumer tilini turkiy til bilan qiyoslab shumerlarning turkiy xalq ekanini aniqladilar. Ana shunday olimlardan biri taniqli qozoq filologi Oljas Sulaymonovning AziYA asarida qadimgi shumer so'zlarini hozirgi turkiy xalqlar so'zlari bilan qiyosladi. Biz quyida O'Sulaymonovning ushbu qiyoslashini keltiramiz:

1. shumer tilida turkiy tilda

2. ada ota ota ada

ama ona ona, apa, ana

3. amar go'dak bola, bala, qiluvchi so'zlarda

nevara, chevara, shevara

4. tu tug'ish, tug'u, tuvuv,

5. turu

6. tud

7. tir tiriklik, hayot tirik, tiri

8. yer er er, erkak

9. shuba (sipa) cho'pon chuban, hupan, chaban, cho'pan.

10. gin kel, gel, kil

11. bilga ajdodqahramoni Bilga ismida uchraydi (akkad tilida-Gilgamesh) Bilga dono (qadimgi turk tilida) so'zni tashkil topishi: bil; bilim; bilik; bilgan qadimgi turkiy tilda hukmdor ismiga qo'shib aytiladi: Bilga hoqon

12. me men men, man, bin, ben, ban

13. ze sen. sen, san, sin.

2. Shumer davlatining siyosiy tarixi. Mil. avv. III ming yillikning birinchi yarmida **Ikki daryo oralig'ining janubida** qator shumer davlatlari: Eredu, Ur, Larsa, Uruk, Kish va Lagash paydo boladi. Keyinchalik Mesopotamiya shimolida ham Ashshur, Mari, Nineviya va boshqa shaharlar paydo boladi. Mil. avv. III ming yillikda Shumer janubida 17 shahar-davlat mavjud bolgan. Mil. avv. III ming yillik boshlaridan shumerlar jezni o'zlashtira boshladilar. Arxeologiya ma'lumotlari asosida bu davr fanda Ilk sulola davri (mil. avv. 3000 - 2300-yillar atrofi) deb nomlanadi. Shumer an'anasiga ko'ra, mamlakat tarixi «to'fon»gacha va «to'fon»dan keyingi davrga bolinadi. Haqiqatan ham, mil. avv. 2900-yillar atrofida «tofon», ya'ni Dajla va Frot daryolarida katta toshqin yuz bergani Quyi Mesopotamiyada olib borilgan arxeologik qazishmalar orqali o'z isbotini topgan.

Shumer shahar – qishloqlari xavfsizlikni ta'minlash uchun paxsa devorlar biln o'rab olingan. Shumer askari charm qalpoq, charm qalqon, nayza va jangovar boltalar bilan qurollangan. Shumerlar g'ildiragi yaxlit yog'ochdan ishlangan ikki va to'rt g'ildirakli jang aravalarini yasaganlar. Bu aravalarga otga o'xshash qulonlar va xachirlar qo'shilgan. Jang aravasini ikki yoki to'rt xachir yoki qulon tortgan. Shumer davrlarining uzoq vaqt yashashining asosiy omillaridan biri mamlakat tinchligini, chegaralarni daxlsizligini ta'minlashning yaxshi yo'lga qo'yilgani edi. Davlat hokimiyati harbiy ishni rivojlantirishni birinchi o'ringa qo'yan. Lekin shumer davlatlarini zaiflashuviga va oxir oqibat halokatiga asosiy xavf bu tashqi dushman hujumi emas balki shumer davlatlari o'rtasigi doimiy nizo-janjallar bo'lgan. Shumer davlatlari o'rtasida, hududda yetakchilik uchun, ekin yerlari, yaylovlar uchun, savdo yo'llari uchun doimo to'qnashuvlar bo'lgan. Bunday to'qnashuvlar odatda golibning galabasi mag'lub shaharning qaram qilinishi yoki o'zaro kelishuv bilan tugagan.

Shumer davlati va jamiyatining shakllanishida diniy e'tiqod, uning markazi bo'lgan ibodatxona alohida o'rinni egallagan. Shumerlarning ilk hokim va podsho;lari koinlardan bo'lgan. Ibodatxonalar ekin yerlarining salmoqli qismiga egalik qilgan. Ibodatxona yerlari bolinmagan va u ibodatxonaning abadiy mulki bolgan. Ibodatxonaning bir qism yerlariga qaram kishilar tomonidan ishlov berilgan, bir qismi esa bolaklarga bolinib, ijaraga berilgan yoki ibodatxona xizmatchilariga, shuningdek, ibodatxonaga xizmat ko'rsatadigan savdogar-hunarmandlarga foydalanishga berilgan. Ibodatxonaning katta miqdordagi moddiy mablaglari o'z xarajatlariga va uzoq davom etadigan diniy bayramlarni tashkil qilishga (bu bayramda shaharning barcha aholisi qatnashgan) sarflangan. Bir

qism mahsulot zaxira sifatida favqulodda vaziyatlar uchun saqlangan. Ibodatxonaning o'z harbiy qismi bo'lib, uning ta'minoti ham ibodatxona zimmasida bolgan. Ibodatxona yer-mulki, uning kirim-chiqimlari qat'iy hisob-kitob qilib borilgan. Ibodatxona shumerlar uchun jamiyatning ma'naviy-madaniy va siyosiy markazi edi Bu tashkilot ko'rinadigan va ko'rinmaydigan iplar bilan butun jamiyatni o'z atrofiga birlashtirgan edi. Ibodatxona xo'jaligi juda katta bo'lib uning ywrlarida erkin jamoachi dehqonlar, qaram kishilar, qullar ishlagan, chorva mollarini boqqanlar. Ibodatxona yerlari dehqonlarga ijaraga berilgan, uning do'kon va ustaxonalari boshqa mulklari ijaraga berilgan. Bundan tashqari ibodatxona sudxo'rlik va savdo bilan shugullangan. Ibodatxonaga kohinlardan tashqari musiqachilar, raqqoslar, temirchilar, kulollar, oshpazlar va boshqa yuzlab kishilar xizmat qilgan.

Davlat boshqaruvida podsho oldidagi oqsoqollar va kohinlar muhim o'rin tutgan. Shumer davlatlari ma'muriy-hududiy jihatdan bir necha shahar va qishloqlarga bo'lingan. Shahar boshqaruvi oqsoqollar kengashi tomonidan boshqarilgan Kengash a'zolari asosan oqsuyak zodagonlar, kohinlar va obro'li shahaliklar ishtirok etgan. Qishloq dehqon urug jamoasi an'ana va urf-odatlari bilan yashaydigan dehqonlar jamoasidan iborat bo'lgan. Qishloq dehqonlar jamoasi saylaydigan oqsoqol tomonidan boshqarilgan. Qishloq jamoasiga tegishli masalalar jamoa kengashida hal qilingan. Davlat hokimiyati jamoachi dehqonlardan turli tol'ovlarni undirishda va majburiyatlarni bajarishda qishloq dehqon jamoasini boshqaradigan jamoa o kengashidan foydalangan.

Shumerlarda boshda ibodatxona kohini en- shahar hokimi vazifasini o'tagan. U urushda qo'shinga boshchilik qilgan. Tinchlik vaqtida esa xo'jalikni boshqarib, diniy e'tiqod marosimlarini tashkil etgan kohinlik vazifasini o'tagan. Bu lavozimga shahar jamoasida "jangchilar yig'ini" jamoaning erkin a'zolari saylaganlar. Shahar jamoasining kundalik ishlarini "oqsoqollar kengashi" bhajargan.

Keyinchalik shumer jamiyati taraqqiy etishi bilan enning hokimiyati kuchayib lugal unvoni bilan podsho hokimiyati yuzaga keladi. Shumer davlatlarida lugal- mutlaq podsho hokimiyati paydo bo'ladi. Podshoga alohida hurmat-ehtirom ko'rsatilgan. Podsho hokimiyati ilohlarning amri bilan bu lavozimni egallab, ularning irodasini bajaradigan kishi deb ulug'langan. Unga xizmat qilish muqaddas va podshoga qarshi har qanday faoliyat ilohlarga qarshi gunoh deb hisoblangan. Podsho ma'budaning turmush o'rtog'i deb hisoblangan. Miso uchun, "En-Merkar va Aratta hokimi" poemasida En-Merkar eng avvalo ota, "kohin-ma'budaning turmush o'rtog'i va Urukning quruvchisi" bo'lgan. Arxeologlar Ur

shahri lugali (podshosi) deb faraz qilinadigan Meskalambuganing (mil. avv. 3-ming yillik) sagonasida boy xazinaga duch keldilar. Sag'onada shumer odatiga ko'ra o'ng yonboshida yotgan mayitning boshida sof oltindan ishlangan qalpoq, qo'lida og'ir oltin kosa ushlagan, mayitning oldi va orqasida oltin kosalar qo'yilgan, tirsagida oltin shamdon, o'ng va chap yelkasida bittadan oltin va kumush qotishmasidan ishlangan ikkita bolta qo'yilgan. Mayitning belidagi keng kumush kamariga oltin xanjar osilgan, oltin halqaga osilgan lazurit toshidan bo'lgan egov; gavdaning yuqori qismida lazurit va oltindan ishlangan yuzlab munchoqlar, aftidan ular ancha oldin chirigan kiyimdan to'kilgan., mayitning orqasida bosh kiyimning bir to'da oltin bezaklari, bilakuzuk, oy shaklidagi baldoq, oltin simdan o'rama shaklida uzuk, tumor qo'yilgan.

Bu sagona sak-skif, xunnlarning qabr qo'rg'onlariga o'xshashligi ajablanarli emas, chunki shumerlar ushbu xalqlarning bir shoxchasi bo'lganidan dalolat beradi. Shumer podsholarining sag'onalarida oltin-kumush va qimmatbaho toshlardan iborat xazinalardan tashqari, uning yaqinlari va xizmatchilari dafn qilingan: Korinishidan hokimning qabrida yotgan odamlar o'z xo'jalari bilan u dunyoga ravona bo'lishga ahd qilib, o'zlari bilan olib kelgan zaharni ko'ngilli ravishda qabul qilganlar. Podsho Abarga sag'onasida ana shunday hamrohlardan oltin besh erkak va ayol skeleti topilgan. Abarganing rafiqasi Shubatning sag'onasida 25 mayit skeleti mavjud. No'malum podshoning sagonasida 6 erkak va 68 ayolning skeleti yotibdi. Erkaklar kirish yaqinidagi devor yonboshida, ayollar to'g'ri qatorlarda polga yotibdilar. Ularning barchasi tartib bilan sal yigilgan oyoqlari va yuziga ko'tarilgan qo'llari bilan yonboshlab yotqizilgan. Ular bir birlariga tiqilib qo'yilgan, birinchi qatorda yotganlarning boshi boshqa qatorda yotganlarning oyoqlarida turibdi. Bu yerda mayitlarning chiroyli joylashtirilishi majburiy o'limdan dalolat bermaydi. Aftidan shumerlarda dafn marosimlari rasm-rusumlari uzoq vaqt davomida shakllangan. Arxeologik qazishmalarda qadimgi davrda talangan qabrlar ham uchraydi. Podsho Abarganing sog'onasining yonida uning rafiqasi malika Abarga dafn etilgan. Go'rkovlar malikaning qabriga kirish qismini buzib bir qism xazinani o'g'irlab chiqish joyini malikaning kiyimlari solingan sandiq bilan to'sib tuproq bilan qabrni to'ldirganlar.

Shumer jamiyatida boy zodagonlar, o'ziga to'q dehqon va hunarmandlar bilan bir qatorda kambag'al qatlam ham mavjud bo'lgan. Shumer kambag'allari to'g'risidagi maqollar lot taxtacha yozuvlarida bizgacha yetib kelgan: "Agar kambag'al vafot etsa, uni uyg'otmang; agar uning noni bo'lsa tuzi yo'q, tuzi bo'lsa noni yo'q, agar unda go'sht bo'lsa xantal yo'q, agar xantal bo'lsa go'sht yo'q", "Qarz zang kabi kambag'alni kemiradi", "Mening uyim qarzlarga botgan, men uni qurgan bo'lsam-

da, men unga va o'z yer ulushimga ham xo'jayinlikni qila bo'lmayman", "Kambag'alning so'zi nimaga arziydi", "Kambag'al mamlakatda mumkin bo'lmaydi".

Sun'iy sugorishga asoslangan dehqonchilik shumerlarning boy-badavlat yashashi uchun muhim omil bo'ldi. Mil. avv. III ming yillik boshlarida Ikki daryo oralig'ining janubida shumerlarning aholisi g'ayrimutajam shaharlari, dehqon jamoalari yashaydigan qishloqlar, iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan hudud bo'lgan. Shumerda Ur, Uruk, Larsa, Kish, Lagash va Umma shaharlari barpo etilgan. Mil. avv. III ming yillikda Ikki daryo oraligi iqtisodiyotida sug'orma dehqonchilik yetakchi o'rinni egallagan, sug'oriladigan yerlardan mo'l-ko'l hosil olingan. Lekin yerlarni muntazam sugorish ekin yerlarini sho'rlanishi va zaxning ko'tarilishiga olib kelib, yerning tuproq tuzilmasi buzilib eroziya yuz bergan. Aholining tez o'sishi go'sht-sut, jun va teriga bo'lgan ehtiyojlarning kuchayishi chorvachilikni ham jadal rivojlanishiga olin kelgan.

Shumerdagi mo'l hosil beradigan sug'orma dehqonchilik ko'p sonli aholini yetarli ozuqa bilan ta'minlashi mumkin edi. Xojalikda ishlab chiqargan mahsulotning bir qismi ayirboshlangan. Shumer shaharlarida hunarmandchilikning turli sohalari yuqori darajada rivojlanadi. Metallga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi bilan metallurgiya sohasi birinchi o'ringa chiqib oladi. Metall quyish, kavsharlash, payvandlash usullari o'zlashtiriladi. Savdo hunarmandchilikdan ajralib chiqadi. Iqtisodiyotning rivojlanishi, ijtimoiy-mulkiy tabaqalanishni kuchayishi bilan yerni oldi-sottisi kuchayib borgan. Yagona olchov birligi jumladan og'irlik olchov birliklari joriy qilingan. Hududda mehnat qurollari tayyorlash uchun zarur bolgan tosh, metall va yog'och xomashyosining tanqisligi qo'shnilar va uzoq hududlar bilan ayirboshlash va savdoni rivollantirish ehtiyojini tug'dirgan. Natijada qo'shni shahar-davlatlar va boshqa hududlar bilan savdo-ayirboshlash aloqalari jadal rivojlanib boradi. Shaharlarda faqat mahsulot ayirboshlash bilan shug'ullanadigan maxsus savdogarlar - tamkarlar paydo bo'ladi. Tamkarlar dehqon jamoasini, shaharlarni kerakli xomashyo va buyumlar, mehnat qurollari hamda boshqa mahsulotlar bilan ta'minlaganlar. Ular ichki va tashqi savdo bilan faol shug'ullanganlar. Shumerlar Kichik Osiyo, Misr, Arabiston va fors qo'ltig'i orqali Hindiston bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'yadilar. Eron va O'rta Osiyo bilan ham aloqalar o'rnatilgan. Hozirgi Turkmaniston hududidan arxeologlar shumerlarga tegishli bo'lgan buyumlarni topganlari buning dalili bo'ladi. Shu sababli davlat hokimiyati tashqi savdoni doimo rag'batlantirgan.

Ikki Daryo oralig'ida markazlashgan davlat tuzish uchun Lagash

va Umma davlatlari o'rtasida kurash boradi. Mil. avv. XXIV asrda bu kurashda Umma davlati g'olib chiqadi va barcha Shumer davlatlarini yagona davlatga birlashtiradi. Uruk shahri bu davlatning poytaxti bo'ladi. Mil. avv. XXIII hokimiyat tepasiga akkad shahri hokimi Sargon keladi. Keyin esa mil. avv. XXII-XXI asrlarda Ur shahri hokimlari sulolasi hokimiyat tepasiga keladi.

Utuxengal Shumerning mustaqilligini qayta tiklaydi va podsholik tojini kiyadi. Ikki daryo oralig'ida yana shumerlar yetakchi bo'lgan yaxlit davlatga aylanadi va bu davlatda shumer tili yana rasmiy tilga aylanadi. Utuxengaldan keyin uning safdoshi Ur podshosi Ur-Nammu taxtni egallab, yangi sulolaga asos soladi va poytaxtni Ur shahriga ko'chiradi. Ur-Nammu sulolasi III Ur sulolasi deb aytiladi. Ur-Nammu (mil. avv. 2106 - 2094-yillar) va uning o'gli Shulga (mil. avv. 2093 - 2046-yillar) davrida Ikki daryo orlig'ida qarovsiz qolgan sun'iy sugorish tizimi to'la qayta tiklanadi. Ur, Nippur va Lagashda yangi sug'orish inshootlari qurilgan. Ibodatxona - zikkuratlar va podsho sag'analari bunyod etilgan. Ur shahrida ulkan zinapoyasimon minora - zikkurat qurilgan. Uning saqlanib qolgan birinchi qavati maydoni 65x43 m, balandligi 10 m bolgan. Ur devorining balandligi 8 m, qalinligi 24 m bolgan. Mamlakatda siyosiy-ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun qonunlar to'plami tuziladi. Bu qonunlar to'plamidan parchalar bizgacha yetib kelgan. Shulga (mil. avv. 2093 - 2046-yillar) davrida mamlakatda iqtisodiyot barqaror rivojlanadi. Shulga qariyb ellik yil hukmronlik qilib podsho hokimiyatini mustahkamlaydi. Hunarmandchilik bilan shug'ullanadigan podsho ustaxonalari ishi yolga qo'yilgan. Tashqi savdo kengaytiriladi. O'lchov birliklari tartibga solinadi.

Buzilgan sun'iy sug'orish tizimi toliq qayta tiklanib, yangi-yangi kanal va to'g'onlar qurilgan. H dehqonchilik xojaliklari tashkil qilindi. Mesopotamiyada ekin yerlarining katta qismi - ibodatxonalar yerlari davlat qaramog'iga o'tkazilib, yersiz va kam yerli odamlar bu xojalikda ishlatilgan. III sulola davrida asosiy yer zaxirasi podsho qolida to'planagan. Ulkan davlat xojaligi Mesopotamiyaning barcha ibodatxona yerlarini birlashtirib, u markazdan turib boshqarilgan. Ikki daryo oralig'idan o'tadigan xalqaro savdo yo'llarining xavfsizligini ta'minlash uchun bu yo'llarda himoya uchun qal'alar quriladi.

Ur shahrining boy arxivida barcha ibodatxona yer-mulklarining bat-afsil xatlangan hujjatlari saqlanib qolgan. Ibodatxona yerlarida ishchi guruhlari mehnat qilganlar. Ishchi guruhlarning ish miqdori qat'iy belgilanib, shunga yarasha mahsulot ulushi olganlar. Ur shahri xarobalaridan topilgan minglab mixxat hujjatlari eng mayda xojalik operatsiyalari

ustidan qattiq nazorat oʻrnatilganidan guvohlik beradi. Oʻsha davrda podsho oshxonasi uchun hisobdan chiqarilgan ikki kaptar toʻgʻrisidagi masʼul xodim va nazoratchilar muhri bosilgan mixxat hujjati maʼlum.

Shumer podsholigining davlat boshqaruvi. III Ur sulola davrida qadimgi Sharq podsho hokimiyatining tugallangan shakli edi. Podsholar cheklanmagan hokimiyatga ega bolib, «Ur podshosi», «Shumer podshosi» unvonlariga, baʼzida «Dunyoning toʻrt iqlimi podshosi» unvoniga ega bolganlar. Ur sulolasining taniqli podsholaridan biri Shulga “toʻrt iqlim podshosi”, “qoraboshlilar otasi”, “ogʻzi ochilgan sheʼr” va quyosh ilohi kabi unvonlariga ega boʻlgan. Shulga faol tashqi siyosat yuritadi. Mamlakat sharqiy chegaralaridagi dushman qutiylarga qarshi urush olib boradi. Ur davlati tarkibiga Mesopotamiya, Suriya, Finikiyaning bir qismi, Zagros toglari, undan sharqdagi bir necha hududlar va Elam kirgan. Sulola bu hududlarda oʻz hokimiyatini kuch ishlatish, muzokara-kelishuvlar va sulolaviy nikohlar tuzish yoli bilan mustahkamlashga harakat qilgan

Boshqaruv apparati koʻp sonli amaldorlardan iborat bolib, amaldorlar davlat xojaligini boshqarishda turli qonun-qoidalar, hujjatlarga asoslanganlar. Davlat hokimiyati jamiyatning barqaror rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish uchun tegishli qonun hujjatlarini qabul qilgan.

Mil, avv. XVIII asrda Ikki daryo oraligʻi amoriylar sulolasi tomonidan yagona davlatga birlashtiriladi. Bobil shahri bu davlatning poytaxtiga aylanadi. Bu shaharda I Bobil yoki amoriylar sulolasi hukmronlik qilib, uning boshqaruvi tarixda qadimgi Bobil (mil. avv. 1894-1595-yillar) davri deb nom oladi. Bu shaharda I Bobil yoki amoriylar sulolasi hukmronlik qilib, uning boshqaruvi tarixda qadimgi Bobil (mil. avv. 1894-1595-yillar) davri deb nom oladi. Amoriy podshi Xammurapi davrida qadimdan mavjud boʻlgan humer qonunlari asosida yagona qonunlar kodeksi tuzilgan. Ushbu qonunlar kodweksida oila huquqi, mulk, jinoyat, davlat huquqi atroflicha ishlab chiqilgan. Xammurapi qonunlar toʻplami orqali jamiyatning asosiy qatlamlari – erkin odamlar-jamoa aʼzolari; huquqiy erkin boʻlgan, lekin jamoa aʼzolari boʻlmagan qatlam; podsho xoʻjaligida ishlaydiganlar va qullarni koʻrish mumkin. Qonunlar xususiy mulkni himoya qilgan; Jazo chorasi koʻrilganda aybdorning ijtimoiy holati hisobga olingan; qullar qattiq jazolangan. Qonunlarda harbiylarning mavqei alohida koʻrsatilgan: ular podshoning birinchi chaqirigʻi bilan yurishga chiqishlari majburiy boʻlgan, askar asir tushganda davlat hokimiyati uni asirlidan qutqarib olishi kerak; harbiy xizmat uchun askarlar davlatdan yer ulushi olganlar, olingan yerlar merosiy boʻlib oʻtib askar qarzga botsa qarzi uchun tortib olinmasligi qonun bilan koʻrsatilgan.

Ikki daryo oralig'ida mil. avv VII-VI asrlarda so'ngi bor markala-shgan davlat kuchaygan (mil. avv.626 -539 yillar). Bu davr tarix fanida yangi Babil davlati deb nom olgan. Shundan so'ng qo'shni Ahmoniyar davlati mil. avv. 539 yilda Yangi Babil davlatini bosib oladi.

Shumer-Babil madaniyati 1. Yozuv. 2. Kutubxona. 3. Maktab. 4. Adabiyot. 5. Diniy e'tiqod. 6. Ilmiy bilimlar. 7. San'at. 8. Me'mor-chilik.

Yangi Babil podsholigi davrida Babil shahri Old Osiyodagi fan-madaniyatning markaziga aylanadi. Bela ibodatxonasi bronza darvo-zlar orqali kiriladigan katta hovli bunyod qilingan. Ziyoratgoh ulkan zi-napoyasimon piramida shaklida bolib, uning quyi qismida taxtda o'tirgan oltin iloh va qurbonlik qilinadigan joy bolgan. Yuqorida tilla ashyolar bilan bezatilgan boshqa ibodatxona bolgan. Ilohlar tola tilladan bolmay, balki sirtiga tilla suvi yuritilgan.

1. Yozuv. Mesopotamiya - jahon sivilizatsiyasi va qadimgi shahar madaniyatining ilk o'choqlaridan biri. Mesopotamiya madaniyati bir necha ming yillar davomida rivojlangan hamda qo'shni madaniyatlarga hayotbaxsh ta'sir qilgan. Mesopotamiyada ilk bor yozuv, adabiyot, fan, ta'lim tizimi o'z davriga nisbatan mukammal rivojlangan. Ilk xalq og'za-ki ijodi, aniq fanlarbu hududda boshqa hududlarga nisbatan juda erta rivojlandi. Mesopotamiya madaniyati o'ziga xos xususiyatga ega bolib, bu yerda yaratilgan uyg'un madaniyat jahon sivilizatsiyasining ajralmas bir qismini tashkil etdi. Mesopotamiya madaniyatining yutuq va kashfi-yotlari qadimda va o'rta asrlarda boshqa madaniyatlar va xalqlar tomonidan o'zlashtirilib, dunyo madaniyatining keyingi taraqqiyotiga poyde-vor bolib xizmat qildi.

Bu madaniyatning ilk asoschisi shumerlar bolib, uning yutuqlar-ini Babil va Ossuriya o'zlashtirdi. Mil. avv. IV ming yillikdan shumer madaniyati uzoq yashash davrida o'ziga xos ichki yaxlitlik, an'a nalarning merosiyligi saqlanib qoldi. Shumerlar dunyoga o'ziga xos yozuvni berdi. Shumerlar kashf qilgan mixxat yozuvi mil. avv. uchinchi ming yillikdan mil. avv. yettinchi asrgacha xalqaro yozuv ifatida foydalanilgan. Chunki bu yozuv judda sodda va tushunarli bo'lib, o'rganish juda oson bo'lgan. Shumerlar boshda rasmlı yozuvlarnı joriy qilganlar. Qo'shni xalqlar bu qulay yozuvni o'zlashtirib oldilar. Bu yozuvda huquqiy, siyosiy, xojalik va adabiy matnlar bitildi.

Shumer mixxati uzoq vaqt davomida shakllandi. Dastlab shumer yozuvi piktografik shaklda alohida buyumlar, tasvirlar tarzida ifodalandi. Asta-sekin u barcha tushunadigan mixxatga aylandi. Mixxatda 600 belgi bor edi. Mil. avv. XXIV asrda mukammal shumer matnlari paydo bolgan.

Amerika arxeologlari Nippur shahridagi eng qadimgi shumer ibodatxonasini va ibodatxona kutubxonasini topish baxtiga muyassar bolganlar. Uning ko'p sonli xonalarida 50 ming loy taxtachalarga shumer tilida bitilgan matnlar topildi. Yozuvlar loy taxtacha, tosh, haykallar, vazalar va muhrlarga bitilgan.

Ilk shumer yozuvining namunalari bolgan ko'p miqdordagi loy taxtachalar qadimgi Uruk va Jamdat Nasrdan topilgan. Shumer yozuvlarini taniqli shumershunos olim Adam Falkenshteyn tadqiq qilgan(1976). Shumer mixxati Mesopotamiya sivilizatsiyasining asosiy ildizi bo'lib, uning barcha jihatlarini birlashtirgan an'analarini saqlab qolish imkoniyatini bergan

Ikki daryo oralig'ida o'rmonlar yo'q edi, lekin loy mol-kol edi. Loy taxtacha yozuv uchun asosiy xomashyo bo'lib xizmat qildi. Odatda, loydan 7-9 sm uzunlikda taxtachalar tayyorlanib, u tuzlardan kuydirish yoli bilan tozalangan. eng muhim matnlar yozilgan loy taxtachalar (davlat hujjatlari, podsho yozuvlari, kutubxonada saqlanishi lozim bolgan asarlar) kuydirilgan. Qolgan taxtachalar oftobda quritilgan. Yozuvlar ba'zida tosh va metall taxtachaga ham yozilgan.

Mil. avv. I ming yillikda Ikki daryo oralig'ida yozuv uchun teri va chetdan keltirilgan papirusni ishlata boshlaganlar. Bu vaqtda loy taxtacha,teri va papirusdan tashqari yog'ochdan qilingan uzun taxtachaga mum surtib, mixxat belgilarini tushirganlar. Mil. avv. VII asrdan boshlab oromiy tili va yozuvi kirib kelgan paytda mixxat yozuvlari sekin-asta muomaladan chiqqan.

2. Kutubxonalar. Bobil va Ossuriya madaniyatining eng noyob yutuqlaridan biri kutubxonalar edi. Kutubxonalar saroylar, maktablar, ibodatxonalar va xususiy kishilar tomonidan tashkil etilgan. Mil. avv. II ming yillikda Ur va Nippur shaharlarida adabiy va ilmiy matnlar ito'plangan kutubxonalar paydo bolgan Shumer shaharlarida kutubxonalaridan tashqari Nineviya, Kalku, Ashshur va boshqa shaharlarda ham kutubxonalar mashhur edi. Loy taxtachalarga podsho annallari, muhim tarixiy voqealar xronikasi, qonunlar to'plami, adabiy asarlar va ilmiy matnlar yozilgan. Arxeologik qazishmalar natijasida qadimgi Xarran viloyatidagi Sultontepadan Qurdi-Nergal degan odamning xususiv kutubxonasi topilgan. Bu kutubxonada adabiy asarlarning nusxalari, duo-afsunlar yozilgan taxtachalar, tibbiyot matnlari mavjud bolgan.

Ossuriya podshosi Ashshurbanipal (mil. avv. 669 - 635) poytaxt Nineiya shahrida gi kutubxonasidan 30.000 taxtachadan iborat matnlar bizgacha yetib kelgan. Ashshurbanipalning o'zi o'qimishli odam bo'lgan. Podshoning buyrug'i va nazorati ostida kotiblar xususiy arxivlar va ibo-

datxonalarda saqlanayotgan qadimgi nodir hujjat va matn lardan nusxa ko'chirganlar. Ashshurbanipal kutubxonasining alohida ilmiy qimmat shundaki, bu kutubxonada dunyoda birinchi marta kitoblar tizimli to'plangan va ular sohaviy bilimlar asosida ma'lum tartibda joylashtirilgan. Ko'pgina kitoblar bir necha nusxada mavjud bolgan. Katta matnlar bir xil hajmdagi loy taxtachalarda bayon qilingan. Shunday matnlar qirqdan yuztagacha taxtachaga yozilgan. Har bir taxtachada undan foydalanandan so'ng o'z o'rniga qaytarish imkonini beradigan tartib raqamlari qo'yilgan. Ashshurbanipal kutubxonasida tarixiy mazmundagi («annallar», solnomalar), matnlar, qonunchilik hujjatlari, madhiyalar, duolar, tibbiyot va astrologiya matnlari, duoyibadlar, shumer-akkad lug'atlari, epik dostonlar va bashoratlar to'plangan. Insoniyat sivilizatsiyasining bu nodir xazinasi mil. avv. 612-yilda Nineviya shahri Bobil va Midiya qo'shinlari qamal qilib bosib olinganda yonib ketgan podsho kutubxonasi xarobalarida saqlanib qolgan 25 ming taxtachalar edi.

3. Arxivlar (archivum - lotincha - hujjat saqlanadigan joy). Shumer davlati va jamiyati siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayot yuksak darajada rivojlandi. Muhim davlat va xo'jalik hujjatlarini saqlash ehtiyoji arxivlarni paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. DEng qadimgi arxivlar mil. avv. III ming yillikning birinchi choragiga tegishli. Bu davrda arxiv ma'lumotlari yozilgan taxtachalar namlikdan saqlash uchun mumlangan savatlarda saqlangan. Mil. avv. asrga oid Ur shahri arxivi maxsus xonadagi yog'och tokchalarda saqlangan. Mil. avv. XVIII asrga oid boy arxiv Mari shahri podshosi saroyidan, Uruk shahridan mil. avv. VIII-VI asrlarga oid 2500 xojalik hujjatlari arxivi topilgan.

4. Maktablar. Qadimgi shumer shaharlarida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayoida savdo-hunarmandchilik ehtiyojlari va davlat xizmati savodli odamlarga bolgan ehtiyojni kuchaytirgan. Mixxat yozuvlarini o'qish ma'lum bir kasbiy tayyorgarlikni talab qilgan. Shu sababli, dunyo tarixida ilk talim o'choqlari – maktablarni shumerlar tashkil qildilar. Ilk maktablar ibodatxonalar oldida bolib, keyinchalik ulardan tashqarida ham mavjud bolgan.

Shumer maktabi «edubba» («taxtachalar uyi») deb atalgan. Maktabning boshida «taxtachalar uyi otasi» turgan. Bir vaqtning o'zida u o'qituvchi vazifasini ham bajargan. Maktabda o'qituvchilar - «katta akalar» hamda nazoratchi - «qamchidan foydalanadigan» o'qituvchilar ham ishlagan. Maktabda ta'lim olish pullik bo'lgan. Maktabda o'g'il bolalar ta'lim olganlar, o'quvchilar «taxtachalar uyi o'g'illari» deb atalgan. O'qish uzoq va mashaqqatli bolgan. O'quvchilar shumer tili, yozuvning murakkab tizimini o'rganishi, adabiy asarlardan nusxa ko'chirish ko'nikmasi-

ni olishi, ilohiyotshunoslik, matematika, geografiya, tabiatshunoslik va tibbiyot sohasidagi ilmiy bilimlarni o'zlashtirishlari lozim bolgan. Maktabda o'quvchilar ko'pincha badiiy adabiyot va ish hujjatlaridan nusxa ko'chirib, mashq qilganlar.

Arxeologik qazishmalar vaqtida shumer maktab binolari va o'quvchilarning mashq daftarlari topilgan. Bu mashq daftarlari loy taxtachalardan iborat bolib, ular qum ostida juda yaxshi saqlanib qolgan. Ana shu loy taxtachalarga yozilgan mashq daftarlari hozirgi kunda olimlar tomonidan o'rganilib, juda ko'p qadimgi shumer rasmiy va adabiy to'plamlari qayta tiklangan. Maktab o'quvchisining hayoti to'g'risida bizgacha bir necha matnlar, shumer maktablari inshootlari qoldiqlari yetib kelgan. Qadimgi Uruk shahrining mil. avv. IV ming yillik oxiri - III ming yillik boshlariga tegishli qatlamlari qazib ochilganda birinchi o'quv qollanmalari bolgan loy taxtachalar topilgan. Shuruppak shahri xarobalaridan mil. avv. III ming yillik o'rtalariga tegishli katta miqdordagi «maktab matnlari» mavjud. Ko'rinishidan keyinchalik maxsus kotiblik jamiyatning savodli kishilariga ehtiyoj o'sib borishi bilan maktablari butun mamlakat bo'ylab tarqalgan.

Qadimgi Shumer va keyingi davrda Bobil maktablarida asosan davlat va ibodatxonalar uchun kotiblar tayyorlangan. Maktablar ta'lim va madaniyat o'chog'i bo'lgan. Yuqori sinf o'quvchilari kelajakda tor ixtisoslashuvga qarab, grammatika, astronomiya va matematikadan bilim olganlar. O'zini fanga bag'ishlamoqchi bo'lgan o'quvchi bo'lsa, huquq, astronomiya, tibbiyot va matematikani o'rgangan. Maktabda jismoniy jazo keng qollanilgan.

Bizgacha bundan 5 ming yil oldin mavjud bo'lgan shumer maktabining o'quvchisini mixxat yo'zuvida yozgan matni yetib kelgan. Ushbu matnda o'quvchi maktabda o'rnatilgan qat'iy tartib-qoidadan shikoyat qiladi: «Maktabda menga nazoratchi darsga kechikib kelganim uchun tanbeh berdi. Men o'qituvchiga daftarimni ko'rsatganimda o'qituvchi meni o'zlashtirishim past bolgani uchun kaltakladi. Ko'chada yurganimga ehtiyot bolmaganim uchun nazoratchi menga tanbeh berdi va kiyimni yirtish kerak emas, deb meni urdi. Keyin maktab direktori menga mashq uchun bergan matnni tushunmaganim uchun o'qiy olmadim. Shunda nazoratchi menga, nima uchun ruxsatsiz gapirding, deb meni urdi. Kuzatuvchi nima uchun ruxsatsiz ta'zim qilding, deb meni urdi, tartibni nazorat qiluvchi, nima uchun ruxsatsiz o'rningdan turding, deb meni urdi. Xizmatchi, sen nima uchun ruxsatsiz ketib qolding, deb meni urdi. Tayoqli odam, nima uchun ruxsatsiz qolingni cho'zding, deb meni urdi. Bunday hayotdan bezdim, kotibning taqdiri mening jonimga tegdi». Qadimgi

shumer maktabida ta'lim tizimi yuqori darajada shakllangani va ta'lim muassasalarida qat'iy tartib- qoida o'rnatilgani ko'rinib turibdi.

5. Adabiyot. Ikki Daryo oralig'i dunyo tarixida mifologiyaning qadimgi boy adabiy yodgorliklari topilgan hudud hisoblanadi. Ilk Shumer adabiy matnlari mil. avv. 3 ming yillik boshlarida yozilgan. Shumer adabiyotiga oid epik asarlar, afsonalar, madhiya, doston, ertak va maqollar to'plami bizgacha yetib kelgan. Shumer shahrining qo'shni dushman qabilalar hujumlari natijasida halokati to'g'risida ma'lumot beradigan asarlar alohida o'rin tutadi. «Ur shahri aholisining halokatining motam yig'isi» (mil. avv. XX asr oxiri) asarida shahar qamali paytida ayollar, qariyalar va bolalarning ochlikdan qiynalishi, yong'inda qolgan uylarda halok bolganlarning tafsilotlari tavsiflangan.

Shumerlar quvnoq, hayotga tashna bo'lgan odamlar bo'lgan. Ozlarining bir necha ming yillik turmush tarzi, hayoti aks etgan hajviy va ibratomuz naqlari, aforizmlarni yozma holda to'plab saqlab kelganlar. Shumer adabiyotida shumerlarning kundalik hayotida yengil hajv ko'rinib turadi. Misol uchun, mulkdan qanday foydalanish kerak? Degan savolga shumer yozuvchisi shunday javob beradi.

Baribir bu dunyodan o'tamiz, kel, barchasini xarj qilamiz!

Eh, hali uzoq yashash kerak, kel, yana jamg'aramiz!

Shumer adabiyotida xilma-xil janrlarni uchratish mumkin. «Atraxasis» (poemasi odamni yaratilishi va dunyo to'foni to'g'risida hikoya qiladi. «Enuma elish» («Qachonki yuqorida...»)) dostoni qadimgidiniy kosmologik adabiyotning nodir namunasidir.

Shumer adabiyotining eng mashhur namunasi afsonaviy qahramon Bilgamesh to'g'risidagi epik afsonalar to'plamidir. Bilgamesh to'g'risidagi ilk qo'shiq va ertaklar mil. avv. 3 ming yillikda paydo bolgan. Bu ertaklar shumer, bobil, xurrit va xett tillarida mixxat yozuvda yozilgan. Doston tarkibiga "To'fon" afsonasi ham kiradi. Asarning loy taxtachalarga bitilgan to'laroq nusxasi Nineviya shahrida Ashshurbanipal kutubxonasidan topilgan. Dostonda abadiy hayotni izlash hikoya qilinib, inson hayotining mazmuni to'g'risida fikr yuritiladi. Gilgamesh dostoni qadimda Old Osiyoning barcha xalqlari orasida keng tarqalgan, shu sababli uning turli tillardagi variantlari mavjud. Mil. avv. II ming yillik oxirida Bobilda «Ha, men donolik ilohini sharaflayman» nomli falsafiy mavzudagi asar saqlanib qolgan. U aybsiz, mashaqqat chekkan kishining shafqatsiz taqdiri to'g'risida hikoya qiladi. Shu mavzuga yaqin «Bobil teoditsiyasi» (so'zma-so'z tarjimasi «Xudoni oqlash») poemasi mil. avv. IX asrda paydo bolgan. Uning muallifi podsho saroyida kohin bolib xizmat qilgan Esagil qul Ubbib nomli kishi bolgan. Asarda obilliklarni qiziqtirgan

diniy-falsafiy g'oyalar o'z aksini topgan. Mil. avv. X asrga oid «Qul, menga bo'ysun» asari hayotga umidsizlik ruhida yozilgan. U xojayinning o'z quli bilan suhbat tarzida bayon qilinadi.

Katta badiiy qiymatga ega bolgan Ossuriya podsholarining annalari ossur armiyasi yurish qilgan begona mamlakatlar tabiati to'g'risida bir maromda yozilgan. Mashhur ossur asarlaridan biri Ossur podshosining dono kotibi va maslahatchisi Axikarning qilmishlari to'g'risidagi qissadir. Bu qissada ayyor Axikar o'zini xafa qilgan kishidan uch marta o'choladi. Qissa tolaroq holda suriya tilida saqlanib qolgan.

6. Diniy e'tiqod. Qadimgi shumer jamiyatining ma'naviy-mafkuraviy hayotida diniy e'tiqod hukmron o'rinni egallagan. Mil. avv. IV-III ming yilliklar chegarasida Shumerda batafsil ishlab chiqilgan, keyinchalik, Bobilda o'zlashtirilib, rivojlantirilgan teologik tizim yuzaga kelgan. Har bir Shumer shahri o'z xudo homiysiga ega bolgan. Bundan tashqari, barcha shumer shaharlari sig'ingan xudolar bolgan. Bu osmon xudosi Anu, yer xudosi Enlil, suv xudosi Enki yoki Ea kabi ilohlar tabiat hodisalari kuchlarini aks ettirgan. Ko'pincha ular koinot jismiga o'xshatilgan. Har bir xudoga alohida vazifa yuklatilgan. Enlil - taqdir xudosi, shaharlar asoschisi hamda motiga va omoch kashfiyotchisi; shumer quyosh xudosi Utu (keyingi davrda Bobilda- Shamash); xudo Enlilning o'gli Ninnar; sevgi va hosildorlik ma'budasi Innana (Bobil va Ossuriya panteonida Ishtar); abadiy hayot, tabiat xudosi Dumuzi (Bobilda - Tamuz) keng tarqalgan.,

Urush xudosi, kasallik va o'lim xudosi Nergal (Marsen) Mars sayyorasiga o'xshatilgan. Bobil bosh xudosi Marduk - Yupiter sayyorasiga, Nabu (Mardukning o'g'li) donolik, yozuv va hisob xudosi Merkuriy sayyorasiga o'xshatilgan.

Xudolardan tashqari ko'p sonli ezgulik devlariga sig'inilgan. Turli xil kasalliklar sababchisi bolgan yovuz devlarni rahmdil qilishga harakat qilganlar. Devlar yarim odam, yarim hayvon tarzida tasvirlangan. Odamlar o'zlarini odam boshli, qanotli hokiz sifatida ifodalaganlar. Qanotli ulkan haykallar Ossuriya podsholari saroylariga kirish joyini qo'riqlagan.

Shumerlar u dunyoga ishonganlar. Ularning tasavvurida u dunyo soyalar podsholigi, qaysiki, oliklar ochlik va chanqoqlikdan qiynaladilar, loy, chang bilan ovqatlanadilar. Shuning uchun marhumlarning bolalari ularga qurbonlik keltirishga majburlar. Shumerlarning Ur va Uruk shaharlaridagi qadimgi qabristonlar o'rganilgan. Qabriston shahar devori tashqarisida joylashgan. G'ishtdan qurilgan sag'analar devor boylab chozilib ketgan. Sag'analarning uzunligi 2 metr, kengligi 1 metr, balandligi 1,5 metr. Bu sag'analarda mayitlarning boshi ostiga go'sht qo'yilgan:

o'ng qoli chap qoli ustiga qo'yilib, barmoqlarining uchi bilan mis idishni ushlab turibdi. Sag'ana devorlari ovqat va suv uchun ko'zalar qo'yilgan. Uruk shahrida mayit oval shakldagi loydan qurilgan sag'anaga dafn etilgan. Sag'ana tuproq supa ustiga ko'tarilgan inshootda qurilgan. Sag'analarda qurol qoldiqlari, bilaguzuklar, oltin va kumush uzuk va boshqa bezaklar topilgan.

7. Ilmiy bilimlar. Shumerlar dunyoni ilmiy bilishda o'sha davrga nisbatan yuqori yutuqlarga erishdilar. Shumerliklar sanoqning oltmishlik tizimini yaratdilar. Uning asosida 1, 60, 600, 3600 sonlari yotar edi. Keyinchalik o'nlik tizim - 1, 10, 100 sonlari asosida paydo bolgan. Shumerlar arifmetikaning to'rt qoidasi: bolish, algebraik tenglamani kvadrat va kub darajasiga ko'tarib, ildiz chiqarib yechishni bilganlar. Ular geometriya fanining asoslarini yaratdilar va «pi» sonini kashf qilganlar. Aylana uzunligi, aylana maydoni, kesik piramida hajmi, to'g'ri burchakli uchburchakning tomonlari o'rtasidagi nisbatini hisoblashni bilar edilar. Uzunlik va og'irlik olchov birliklari ishlab chiqilgan.

Shumerlar dunydagi birinchi astronomlar bo'lib ilk kalendarni yaratdilar. Ular birinchi bo'lib osmon jismlarining harakatini boshqaradigan samo jismlari qonunlarini aniqladilar. Shumer astronomlariga zodiakning o'n ikki ramzlari deb ataladigan yulduzlar aniq bo'lib, ularning quyoshning aylanishi va oying harakatiga munosabati ma'lum edi. Shu sababli ular yilni o'n ikki oyga bo'ldilar. Sutkani ham o'n ikki soat etib belgiladilar. Shumerlarda kun quyoshning chiqishidan emas, botishidan boshlangan. U har biri 2 soatdan bolgan 12 qismga bolinib, har bir kundan yetti kunlik hafta tashkil topgan.

Shumerlarning har bir soati bizning ikki soatga teng edi, soat 60 minutga bo'lindi, bizning hisobga ko'ra ularning har bir minuti ikki minutga teng bo'ldi. Ular samoni olti qismga bo'ldilar, har bir qism 60 gradusdan iborat bo'lib. shu asosda shumerlar 60 va 12 sonlarini arifmetika uchun asos qilib oldilar; ular vaqtni "siki" bilan o'lchadilar yoki 60 tadan, 600, 3.600 yil. Ular 60 lik tizimni o'lchov birliklariga ham va og'irliklarga qo'lladilar. Shumerlar hozirgi kalendaridagi haftani ham ishlab chiqdilar. Shumer astronomlari quyosh tizimidagi besh planeta Mars, Merkuriy, Yupiter, Venerava, Saturn (o'sha vaqtda boshqa nomda)ni bilar edilar. Ularning tushunchasiga ko'ra har bir planetani alohida iloh boshqargan. Haftaning birinchi va ikkinchi kuni bosh yoritgichlar Quyosh (Babbar) va Oy (Nannar) ga tegishli bo'lgan. "Besh planeta" va "Yetti yoritgich"ga bag'ishlab yetti va besh qavatli zikkuratlar bunyod etilgan; "Oliy uchlik" "Anu(oily samo egasi) ga, Ea(suv osti egasi) ga va Enlil (osmon osti dunyosi egasi)ga bag'ishlab uch qavatda zikkuratlar qurilgan.

Shumer astronomlari oy kalendarini yaratdilar. Har bir oy 29 yoki 30 kundan iborat bolib, yil 12 oy, 354 kundan iborat bolgan. Oy kalendarining quyosh kalendaridan farqi bir yilda 11 kunni tashkil etgan. Shu sababli, har 3 yilda qo‘shimcha o‘n uchinchi oyni kiritish talab qilindi. Yil mart-aprel oyi («nisan» oyi)dan boshlangan. Mil. avv. III ming yillikda har bir Shumer shahrining o‘z kalendari bor edi. Astronomlar quyosh va oy tutilishini bilar, kometa, meteoritlarning paydo bolishi, yer qimirlashlarini belgilar edilar. Shumerlar haftaning yettinchi kunini og‘ir kun deb hisoblaganlar. Bu to‘g‘risida shunday yozuv mavjud: “7-mening kunim. Xalqlarning otasi olovda qovurilgan va olov yordamida tayyorlangan hech qanday boshqa ovqat. Ichki kiyimini u almashtirishi mumkin emas, chiroyli kiyim kiyishi mumkin emas. Uqurbonlik keltirishi mumkin emas, hokim aravada yurishi mumkin emas. Saroyda qabul bo‘lishi mumkin emas. Kohin muqaddas joyga kirishi, maslahat so‘rashi mumkin emas. Tabib bemorga qo‘lini uzatishi mumkin emas. Shu kun dushmani qarq‘ash yaramaydi. Kechqurun podsho ilohlar oldiga hadyalar bilan turishi kerak. Shunda u duolari ilohlarga manzur bo‘lishi uchun qurbonlik keltirishi lozim”. (3. A. Рагозина История Халдеи с отдаленнейших времен до возвышения Ассирии. М.1998 стр 164) Shumerlarning bu kun yani shanba kunni yoqtirmaslik odatini bir necha ming yildan keyin yahudiy- lar qabul qildi.

Bobil astronomiya va matematikasi mil. avv. V asrda katta yutuqlarga erishgan. Bu vaqtda Uruk, Sippar, Bobil va Borsippada mashhur astronomiya maktablari faoliyat ko‘rsatgan. Shumer-Bobilda matematika fanlaridan amaliy maqsadlar uchun foydalanganlar. Zamonaviy olimlar Shumer-Bobil astronomiyasi taraqqiyotini sinchiklab o‘rganib, ularning bu sohadagi bilimlari yunonlarnikiga qaraganda keng bolganini e‘tirof etadilar. Har bir shumer shahrida zikkurat bunyod qilingan. Zikkurat, odatda, mahalliy bosh xudo ibodatxonasi oldida uch-to‘rt qavatdan yetti qavatgacha xom g‘ishtdan qurilgan minora bolgan. Shumerlar zikkurat- larning yuqori qavatlaridan turib osmon jismlarini muntazam kuzatganlar. Shumerlar bu yerdan turib dehqonchilik uchun taqvim muddatlari bilan boglangan astronomik kuzatishlar olib borganlar. Ana shu ko‘p asrlik kuzatishlari natijasida matematik astronomiya vujudga kelgan. Astronomlar yulduzlar o‘rtasidagi masofani astronomik hisoblab chiqqanlar.

Shumer-Bobilda ko‘p sonli astronomik jadvallar vujudga kelgan. Bobilda mashhur astronomlar – Naburian (mil. avv. VI asr) va Kiden (mil. avv. IV asr) yashagan. Naburian oy fazalarini aniqlash tizimini ishlab chiqadi. Kiden quyosh yilini 365 kun, 5 soat, 41 daqiqa va 41,6 soniya hisobladi. U yil hisobi davomiyligida bor-yo‘g‘i 7 daqiqa, 17 soniyaga

xato qilgan. Astronomiya astrologiya bilan boglangan. Bobil olimi Beroyes mil. avv. 270-yilda Kos orolida astronomiya maktabini ochgan. Bu maktab orqali yunonlar Bobil matematikasi bilan tanishadilar. Yevropa astronomiyasi Uygʻonish davriga kelib faqat shu darajaga yetadi. Bobil astronomlarining bilimlari yunonlarga qaraganda keng bolgan. Mil. avv. VIII asrdan boshlab Bobilda yilnomalar muntazam yozib borilgan, geografik xaritalar, maʼlumotnomalar, joy rejasi tuzilgan. Astronomlar dunyo xaritasini tuzib, uning markazida Bobil shahrini tasvirlaganlar.

Shumer zikkuratini yuqori qismining tashqi devori havorang sirlangan gʻishtlar bilan qoplangan bolib, bu yerda ziyoratgoh joylashgan. Bu xudoning istiqomatgohi bolib, xudo tunda bu yerda uxlab hordiq chiqargan.

Bizgacha qadimgi shumer tibbiyotining koʻp matnlari yetib kelgan. Mesopotamiya shifokorlari chiqqan va singan suyak boʻgʻinlarini davolay olganlar. Jarrohlar suyaklarni amputatsiya qilish, yiringlagan yaralarni ochish va tozalash, bosh chanogʻini ochishni amalga oshirganlar. Tibbiyot duo-afsunlar, fol ochish bilan yaqin boglangan. Tabiat hodisalari, osmon jismlari, tush koʻrish va hayvonlarning ichki organlariga (jigar, yurak) qarab fol ochish keng tarqalgan. Tabiblar afsungarlar, kohinlar deb hisoblangan. Qadimgi Mesopotamiyada terapevtlar, jarrohlar, akusherlar, veterinarlarni bolgan. Ular koʻp kasalliklarni davolaganlar: koʻzga tushgan pardani (kataraktani) olganlar, yaralarni ochganlar, singan suyaklarni oʻstirganlar, jigar, oshqozon-ichak kasalliklarini davolaganlar. Kasallik belgilarini aniqlash, tashxiz qoʻyishni bilganlar. Bizgacha tibbiy maʼlumotnomalar, qollanmalar yetib kelgan. Dori-darmon tayyorlashda oʻsimlik, hayvon va minerallardan foydalanilgan. Kimyo, biologiya, botanika, mineralogiya, farmatsevtika fanlari boʻyicha katta miqdorda bilimlar toʻplangan.

Mil. avv. III ming yillikda shumerlar Hindistonga boradigan yolni ochganlar va Hindiston bilan savdo aloqalarini yoʻlga qoʻyganlar. Mil. avv. I ming yillikda Efiopiya va Ispaniyaga boradigan yolni bilganlar. Bizgacha yetib kelgan geografik xaritalar shumer va bobilda geografik bilimlar yuqori darajada rivoj topganidan dalolat beradi.

8. Sanʼat. Qadimgi Mesopotamiya sanʼatining shakllanishi va keyingi taraqqiyotiga shumerlarning badiiy anʼanalari hal qiluvchi rol oʻynaydi. Tosh oʻymakorlik mil. avv. III ming yillik boshlarida shakllandi. Toshga naqshlar oʻyish (gliptika) mil. avv. I asrgacha yuksak darajada rivojlanadi. Relyef tasvirlar toshdan ishlanib, relyeflarda hayvonlar, jang manzaralari tasvirlangan. Mil. avv. XXIV-XXIII asrlarda Mesopotamiya yagona davlat boʻlib birlashgan paytda podsholarning ideallashtirilgan portret-tasvirlari paydo boladi.

Mil. avv. II ming yillik boshlaridan qurbonlik keltirish, saroy hayoti manzaralari tasvirlangan freska san'ati rivojlangan. Mesopotamiya san'ati mil. avv. VIII-VII asrlarda Ossuriya davlatining gullab-yashnagan davrida o'zining yuqori cho'qqisiga chiqadi. Bu asosan rel'yef san'atida o'z aksini topgan. Bu davrda ulug'vor saroy va ibodatxonalar barpo qilina boshlangan.

Me'morchilik. Mesopotamiya me'morchiligi o'zining ulug'vorligi, ulkan, hashamatli inshootlari bilan ajralib turadi. Me'morchilik san'ati yuksak darajada rivojlangan. Me'morlar sho'rlash, zax va namlikka chidamli mustahkam inshootlarni qurganlar. Mil. avv. I ming yillikda Mesopotamiyada yirik savdo-hu-narmandchilik madaniyat markazlari bolgan katta shaharlar paydo boladi. Mesopotamiyadagi Ossur podshosi Sinaxxerib tomonidan mil. avv. 705 – 681-yillarda qurilgan, maydoni bo'yicha Old Osiyoda eng katta shaharlardan biri Ossuriya poytaxti Nineviya bolgan. Shahar 729,7 ga yerni egallab, shaharda 170 ming aholi yashagan. Amerikalik arxeolog K. Tompson 1932-yil Nineviya shahrida podsho Sinaxxerib qurgan, shaharni suv bilan ta'minlaydigan akvedukni qazib topadi.

Ikki Daryo oralig'ining eng katta madaniy va savdo-hunarmandchilik markazi Bobil shahri bolgan. Shahar asrlar davomida shakllanib, ulug'vor inshootlar quriladi. Bobilda 200 ming kishi yashab, shaharda 2 xiyobon, 4 katta shoh ko'cha, 53 ibodatxona va 600 ziyoratgoh bolgan. Ayniqsa, Bobil shahri Yangi Bobil podsholigi davrida yuksalib, yangi saroylar, ibodatxona-zikkurat va mudofaa devorlari bunyod qilingan Yangi Bobil podshosi Navuxodonosor II Bobilni o'tib bolmas mustahkam devor bilan o'rab olgan. Navuxodonosor II shunday yozuv qoldirgan: «Men Bobilni sharqdan mustahkam devor bilan o'rab oldim. Men xandaq qazidim va uning yonbag'irlarini asfalt va pishiq g'isht bilan mustahkamladim. Xandaq poydevorida baland va kuchli devor bunyod qildim. Men kedr yog'ochidan keng darvoza yasadim va ularni mis taxtacha bilan qopladim. Yomon niyatni o'ylagan g'animlarni Bobilga yon tomonlardan kirmasliklari uchun men uni dengiz to'lqinlari kabi kuchli suv bilan qurshadim. Men istehkomlarni puxta mustahkamladim va Bobil shahrini qal'aga aylantirdim».

Uch qator devor bilan o'ralgan Bobil shahrining tashqi devorlarida 100 bronza darvoza qurilgan. Devorlar eniga keng bo'lib, devor ustida bir necha jang aravasi yonma yon yurgan. Frot daryosini Bobil shahri bo'yicha qirg'og'i 30 km.ga cho'zilib ketgan, u ko'priklar bilan shaharga qo'shilgan. Shahar devorida 250 minorada qo'riqchilar turgan. Ikki Dar-

yo oralig‘i shaharlarini obodonlashtirishda davlat hokimiyati katta e‘tibor bergan.

Bobildagi Ishtar darvozasi va unga boradigan tantanalar ko‘chasi hashamatli qilib bezatilgan. Darvoza va ko‘cha rangli sopol plitkalar bilan qoplangan. Plitkalardan birida podsho Navuxodonosor II ning shunday yozuvi saqlangan: «Men Navuxodonosor, Bobil podshosi, Nabopolasarning o‘gli Bobil ko‘chasini ulug‘ Marduk tantanalari uchun Shadudan tosh plitalar to‘shadim. Marduk ilohim, bizga abadiy hayot bag‘ishla». Ishtar darvozasi havorang sirlangan g‘ishtlar bilan qoplanib, oq, sariq yol va rel‘yeffrizi bilan bezatilgan hamda sariq, qizil yol bilan sherlarning yurishi tasvirlangan.

Podsho Navuxodonosor II o‘z rafiqasi midiyalik malika Ametis (Semiramida) uchun qurgan osma boglar (Afonada malika Semiramida boglari) ham Bobil shahrida bolgan. Bu inshoot qadimgi dunyoning yetti mojizasidan biri hisoblangan. Umumiy maydoni 15 ming kvadrat metrni tashkil etgan ko‘p qavatli katta inshoot bolib, unda salqin xonalar bo‘lgan. Inshoot tomiga gullar, daraxtlar, butalar o‘tqazilgan. Osma bog‘ suv ko‘tarib beradigan chig‘ir bilan qullar tomonidan aylantirilib sug‘orilgan. Bog‘ning har bir terassasining maydoni g‘ishtdan bolib, uni salmoqli tosh ustunlar ko‘tarib turgan. G‘ishtlar ustiga tosh taxtalar, keyin qalin gips qatlami, qamish va asfalt to‘shalgan. Namlikdan qalin qo‘rg‘oshin taxtalar himoya qilgan. Bu plitalarga to‘kilgan tuproqda asriy daraxtlar ildizlarini erkin qo‘yishlari mumkin edi. O‘simliklar uchun kerakli suv eng yuqori qavatda joylashgan hovuzga Frot daryosidan nasoslar bilan ko‘tarib quyilgan.

Ossuriya shaharlari kabi Bobil sherlar haykali, rel‘ef tasvirlari bilan bezatilgan. Bobil shahrining saroylari, devorlari va maydonlarini bezab turgan qanotli hokizlar, sherlar (shadu)ning rel‘yef tasvirlari va haykallari yuksak san‘at asarlari hisoblanadi. Qanotli ho‘kiz va sher haykallari saroylar oldiga qo‘yilgan. Ular saroyning homiysi va himoyachisi bolgan. Britaniya muzeyida Ashshurbanipalning saroyidagi qanotli sher saqlanadi. Ossur podshosi Sargon saroyidan 26 juft hokizning alebastr haykali topilgan. Mesopotamiya rassomlari jang manzaralari, marosim yurishlarini juda yengil tasvirlaydilar. Yovvoyi hayvonlar, xonaki jonivorlar hayotiy – ingichka oyoqli, kishnab turgan otlar kabi yengil, ixcham gavdali itlar tasvirlari jonli aks ettirilgan.

Mesopotamiyada shisha ishlab chiqarish juda erta mil. avv. XVII asrda boshlanadi. Temirdan foydalanish esa kechroq – mil. avv. XI asrda boshlanadi. Mesopotamiyaning ilmiy bilimlari, san‘ati, me‘morchiligi, dini, yozuvi va adabiyoti mukammalligi, hayotiyligi, nafisligi vayuk-

sak mazmuni bilan qadimda ko'pgina Sharq xalqlari madaniyati uchun o'Ichov mezonini bo'lib xizmat qilgan.

Shumer – Babil sivilizatsiyasining siyosiy nazariya va amaliyoti, madaniy-ma'naviy, huquq, falsafa, tarixshunoslik sohalarida erishgan yutuqlari Old Osiyo, o'rta sharq, arabiston yarim oroli va Shimoliy Afrika mamlakatlari boshqa mamlakatlar tomonidan o'zlashtirib olinadi Shumer-Babil dashakllangan ma'muriy tizimni forslar o'zlashtirib olganlar (mamlakatni satrapliklarga bo'lish, satraplikni fuqarolik va harbiy hokimiyatlarga ajratish). Ahmoniylar Shumer-Babil podsholarining saroy inshootlari me'moriy qurilishi, bezaklari, saroy rasm-rusumlarini o'zlashtirib oladilar.

Shumer-Babil hukmron tabaqalari asrlar davomida iqlim va ijtimoiy muhitga mos kiyinish etikasini shakllantirdilar. Qudratli Ossuriyaning oqsuyak-zodagonlari, saroy ahli qimmatbaho qizil rangli zarbof kiyimlar, oltin-kumush, qimmatbaho toshlar bilan ziynatlangan harbiy qurollar, yelpig'ich va soyabon tutgan xizmatkorlar hamrohligida ko'chaga chiqqanlar. Podshoning o'zi toj kiyib, oq uzun kiyim orqasiga tashlangan ko'k lentalar va qo'lida podsholik ramzi bo'lgan aso bilan fuqarolar oldiga chiqqan. Podsho oliy kohin vazifasini bajargani uchun uning kiyimida ossuriyaliklar sig'inadigan yulduzlar tasviri bo'lgan.

Qadimgi Shumerda harbiy san'at yuqori darajada rivojlangan. Dunyo harbiy san'ati tarixida ilk bor mil. avv. III ming yillikda shumer askarlari yog'ochdan to'rtburchak shakldagi, chetlari qisman mis parchalari bilan hallangan jangchi gavdasini to'la yopadigan to'rtburchakli qalqondan foydalanganlar. Bunday qalqonlar bir-biriga taqab qo'yilib, butun bir askarlar qismini himoya qilgan. Shu tarzda qadimgi davrda ilk falanga yuzaga kelgan. Shumer jangchilari dunyo tarixida birinchi bo'lib, jangovar qalpoqlardan foydalanganlar. Mil. avv. III ming yillikka oid mis va oltin qalpoqlar Ur shahri podsho qabrlaridan topilgan. Ayniqsa, Ossuriya qurol-yarog'i haqiqiy san'at asari bo'lgan, oliy navli po'lat qilichlar, xanjarlar, qalqon va kamonlar mohirona tayyorlangan. Xanjar taqib yurish uni egasining nasl-nasabi ulug' ekanidan dalolat bergan. Xanjarlarning sopi hayvon kallasi tasvirida nafis ishlangan Urush xudosi, kasallik va o'lim xudosi Nergal (Marsen) Mars sayyorasiga o'xshatilgan. Babil bosh xudosi Marduk – Yupiter sayyorasiga, Nabu (Mardukning o'g'li) donolik, yuzuv va hisob xudosi Merkuriy sayyorasiga o'xshatilgan.

7. Ilmiy bilimlar. Qadimgi da dunyoni ilmiy bilishda o'sha davrga nisbatan yuqori yutuqlarga erishilgan. Shumerliklar sanoqning oltmishlik tizimini yaratadi. Uning asosida 1, 60, 600, 3600 sonlari yotar edi. Keyinchalik, o'nlik tizim – 1, 10, 100 asosida paydo bolgan. Mesopotamiya-

ning qadimgi aholisi arifmetikaning to'rt qoidasi: bo'lish, algebrik tenglamani kvadrat va kub darajasiga ko'tarib, ildiz chiqarib yechishni bilganlar. Mesopotamiyaliklar geometriyaning asoslari bilan tanish bo'lib, « π » sonini kashf qilganlar. Aylana uzunligi, aylana maydoni, kesik piramida hajmi, to'g'ri burchakli uchburchakning tomonlari o'rtasidagi nisbatini hisoblashni bilar edilar. Uzunlik va og'irlik olchov birliklari ishlab chiqilgan.

Shumerlar dunyodagi birinchi astronomlar bo'lib Misr, Xitoy bilan bir qatorda ilk kalendarni yaratdilar. Ular birinchi bo'lib osmon jismlarining harakatini boshqaradigan samo jismlari qonunlarini aniqladilar. Shumer astronomlariga zodiakning o'n ikki ramzlari deb ataladigan yulduzlar aniq bo'lib ularning quyoshning aylanishi va oying harakatiga munosabati ma'lum edi. Shu sababli ular yilni o'n ikki oyga bo'ldilar. Sutkani ham o'n ikki soat etib belgiladilar. Shumerlarda kun quyoshning chiqishidan emas, botishidan boshlangan. U har biri 2 soatdan bolgan 12 qismga bolinib, har bir kundan yetti kunlik hafta tashkil topgan.

Shumerlarning larning har bir soati bizning ikki soatga teng edi., soat 60 minutga bo'ldi., bizning hisobga ko'ra ularning harbir minuti ikki minutga teng bo'ldi. Ular samoni olti qismga bo'ldilar, har bir qism 60 gradusdan iborat edi. Shu asosda shumerlar 60 va 12 sonlarini arifmetika uchun asos qilib oldilar; ular vaqtni "silk" bilan o'Ichadilar yoki 60 tadan, 600, 3.600 yil. Ular 60 lik tizimni o'lchov birliklariga ham va og'irliklarga qo'lladilar. Shumerlar hozirgi kalendaridagi haftani ham ishlab chiqdilar. Shumer astronomlari quyosh tizimidagi besh planeta Mars, Merkuriy, Yupiter, Venerava Saturn (o'sha vaqtda boshqa nomda)ni bilar edilar. Ularning tushunchasiga ko'ra har bir planetani alohida iloh boshqargan, harbiriga supada bunyod etilgan. Uch supaga ko'tarilgan terrasalar haftaning bir kuni bag'ishlangan. Haftaning birinchi va ikkinchi kuni bosh yoritgichlar Quyosh (Babbar) va Oy (Nannar) ga tegishli bo'lgan. "Besh planeta" va "Yetti yoritgich"ga bag'ishlab yetti va besh qavatli zikkuratlar bunyod etilgan; "Oliy uchlik "Anu (oily samo egasi)ga, Ea(suv osti egasi) ga va Enlil (osmon osti dunyosi egasi)ga bag'ishlab uch qavatda zikkuratlar qurilgan.

Shumer astronomlari oy kalendarini yaratdilar. Har bir oy 29 yoki 30 kundan iborat bolib, yil 12 oy, 354 kundan iborat bolgan. Oy kalendarining quyosh kalendaridan farqi bir yilda 11 kunni tashkil etgan. Shu sababli, har 3 yilda qo'shimcha o'n uchinchi oyni kiritish talab qilindi. Yil mart-aprel oyi («nisan» oyi)dan boshlangan. Mil. avv. III ming yillikda har bir Shumer shahrining o'z kalendari bor edi. Astronomlar quyosh va

oy tutilishini bilar, kometa, meteoritlarning paydo bolishi, yer qimirlashlarini belgilar edilar.

Shumerlar haftaning yettinchi kunini og'ir kun deb hisoblaganlar. Bu to'g'risida shunday yozuv mavjud: "7 – mening kunim. Xalqlarning otasi olovda qovurilgan va olovda yordamida tayyorlangan hech qanday boshqa ovqat, ichki kiyimini u almashtirishi mumkin emas, chiroyli kiyim kiyishi mumkin emas. U qurbonlik keltirishi mumkin emas, hokim aravada yurishi mumkin emas. Saroyda qabul bo'lishi mumkin emas. Kohin muqaddas joyga kirishi, masalihat so'rashi mumkin emas. Tabib bemorga qo'lini uzatishi mumkin emas. Shu kun dushmani qarq'ash yaramaydi. Kechqurun podsho ilohlar oldiga hadyalar bilan turishi kerak. Shunda u duolari ilohlarga manzur bo'lishi uchun qurbonlik keltirishi lozim". (З. А. Рагозина История Халдеи с отдаленнейших времен до возвышения Ассирии. М.1998 стр.164) Shumerlarning bu kun yani shanba kunni yoqtirmaslik odatini bir necha ming yildan in yahudiylar qabul qildi.

Shumerlarning ilmiy yutuqlari, madaniyati Ikki daryo oralig'ining boshqa xalqlari tomonidan to'la o'zlashtirildi va davom ettirildi. Bobil astronomiya va matematikasi mil. avv. V asrda katta yutuqlarga erishgan. Bu vaqtda Uruk, Sippar, Bobil va Borsippada mashhur astronomiya maktablari faoliyat ko'rsatgan. Shumer-Bobilda matematika fanlaridan amaliy maqsadlar uchun foydalanganlar. Zamonaviy olimlar Shumer-Bobil astronomiyasi taraqqiyotini sinchiklab o'rganib, ularning bu sohadagi bilimlari yunonlarnikiga qaraganda keng bolganini e'tirof etadilar. Har bir shumer shahrida zikkurat bunyod qilingan. Zikkurat, odatda, mahalliy bosh xudo ibodatxonasi oldida uch-to'rt qavatdan yetti qavatgacha xom g'ishtdan qurilgan minora bolgan. Shumerlar zikkuratlarning yuqori qavatlaridan turib osmon jismlarini muntazam kuzatganlar Shumerlar bu yerdan turib dehqonchilik uchun taqvim muddatlari bilan boglangan astronomik kuzatishlar olib borganlar. Ana shu ko'p asrlik kuzatishlari natijasida matematik astronomiya vujudga kelgan. Astronomlar yulduzlar o'rtasidagi masofani astronomik hisoblab chiqqanlar. Shumer-Bobilda ko'p sonli astronomik jadvallar vujudga kelgan.

Mesopotamiya me'morchiligi o'zining ulugvorligi, ulkan, hashamatli inshootlari bilan ajralib turadi. Me'morchilik san'ati yuksak darajada rivojlangan. Me'morlar sho'rlash, zax va namlikka chidamli mustahkam inshootlarni qurganlar. Yangi Bobil podshosi Navuxodonosor II Bobilni o'tib bolmas mustahkam devor bilan o'rab olgan.

Uch qator devor bilan o'ralgan Bobil shahrining tashqi devorlarida

100 bronza darvoza qurilgan. Devorlar eniga keng boʻlib, devor ustida bir necha jang aravasi yonma yon yurgan. Frot daryosini Bobil shahri boʻyicha qirgʻogʻi 30 km.ga choʻzilib ketgan, u koʻpriklar bilan shahar-ga qoʻshilgan. Shahar devorida 250 minorada qoʻriqchilar turgan. Arxeologik qazishmalar bu fikrni tasdiqlaydi.

Ikki Daryo oraligʻi shaharlarini hukmdorlar tomonidan obodonlash-tirishda davlat hokimiyati katta eʼtibor bergan. Bobildagi Ishtar darvo-zasi va unga boradigan tantanalar koʻchasi hashamatli qilib bezatilgan. Darvoza va koʻcha rangli sopol plitkalar bilan qoplangan. Plitkalardan birida podsho Navuxodonosor II ning shunday yozuvi saqlangan: «Men Navuxodonosor, Bobil podshosi, Nabopolasarning oʻgli Bobil koʻchasini ulugʻ Marduk tantanalari uchun Shadudan tosh plitalar toʻshadim. Mar-duk ilohim, bizga abadiy hayot bagʻishla». Ishtar darvozasi havorang sir-langan gʻishtlar bilan qoplanib, oq, sariq yol va relyef frizi bilan bezatil-gan hamda sariq, qizil yol bilan sherlarning yurishi tasvirlangan.

Podsho Navuxodonosor II oʻz rafiqasi midiyalik malika Ametis (Semiramida) uchun qurgan osma boglar (Afsonada malika Semirami-da boglari) ham Bobil shahrida bolgan. Bu inshoot qadimgi dunyoning yetti mojizasidan biri hisoblangan. Umumiy maydoni 15 ming kvadrat metrni tashkil etgan koʻp qavatli katta inshoot bolib, unda salqin xonalar boʻlgan. Inshoot tomiga gullar, daraxtlar, butalar oʻtqazilgan. Osma bogʻ suv koʻtarib beradigan chigʻir bilan qullar tomonidan aylantirilib sugʻoril-gan. Bogʻning har bir terrasasining maydoni gʻishtdan bolib, uni salmoqli tosh ustunlar koʻtarib turgan. Gʻishtlar ustiga tosh taxtalar, keyin qalin gips qatlami, qamish va asfalt toʻshalgan. Namlikdan qalin qoʻrgʻoshin taxtalar himoya qilgan. Bu plitalarga toʻkilgan tuproqda asriy daraxtlar ildizlarini erkin qoʻyishlari mumkin edi. Oʻsimliklar uchun kerakli suv eng yuqori qavatda joylashgan hovuzga Frot daryosidan nasoslar bilan koʻtarib quyilgan.

Mashhur astronomlar – Naburian (mil. avv. VI asr) va Kiden (mil. avv. IV asr) yashagan. Naburian oy fazalarini aniqlash tizimini ishlab chiqadi. Kiden quyosh yilini 365 kun, 5 soat, 41 daqiqa va 41,6 soniya hisobladi. U yil hisobi davomiyligida bor-yoʻgʻi 7 daqiqa, 17 soniyaga xato qilgan. Astronomiya astrologiya bilan boglangan. Bobil olimi Be-royes mil. avv. 270-yilda Kos orolida astronomiya maktabini ochgan. Bu maktab orqali yunonlar Bobil matematikasi bilan tanishadilar. Yevropa astronomiyasi Uygʻonish davriga kelib faqat shu darajaga yetadi. Bobil astronomlarining bilimlari yunonlarga qaraganda keng bolgan. Mil. avv. VIII asrdan boshlab Bobilda yilnomalar muntazam yozib borilgan, geo-

grafik xaritalar, ma'lumotnomalar, joy rejasi tuzilgan. Astronomlar dunyo xaritasini tuzib, uning markazida Bobil shahrini tasvirlaganlar.

Shumer zikkuratini yuqori qismining tashqi devori havorang sirlangan g'ishtlar bilan qoplangan bolib, bu yerda ziyoratgoh joylashgan. Bu xudoning istiqomatgohi bolib, xudo tunda bu yerda uxlab hordiq chiqargan.

Biggacha qadimgi shumer tibbiyotining ko'p matnlari yetib kelgan. Shumer shifokorlari chiqqan va singan suyak bo'g'inlarini davolay olganlar. Jarrohlar suyaklarni amputatsiya qilish, yiringlagan yaralarni ochish va tozalash, bosh chanog'ini ochishni amalga oshirganlar. Tibbiyot duo-afsunlar, fol ochish bilan yaqin boglangan. Tabiat hodisalari, osmon jismlari, tush ko'rish va hayvonlarning ichki organlariga (jigar, yurak) qarab fol ochish keng tarqalgan. Tabiblar afsungarlar, kohinlar deb hisoblangan. Qadimgi Mesopotamiyada terapevtlar, jarrohlar, akusherlar, veterinarlar bolgan. Ular ko'p kasalliklarni davolaganlar: ko'zga tushgan pardani (kataraktani) olganlar, yaralarni ochganlar, singan suyaklarni o'stirganlar, jigar, oshqozon-ichak kasalliklarini davolaganlar. Kasallik belgilarini aniqlash, tashxiz qo'yishni bilganlar. Biggacha tibbiy ma'lumotnomalar, qollanmalar yetib kelgan. Dori-darmon tayyorlashda o'simlik, hayvon va minerallardan foydalanilgan. Kimyo, biologiya, botanika, mineralogiya, farmatsevtika fanlari bo'yicha katta miqdorda bilimlar to'plangan.

Mil. avv. III ming yillikda shumerlar Hindistonga boradigan yo'lni ochganlar va Hindiston bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'yanlar. Mil. avv. I ming yillikda Efiopiya va Ispaniyaga boradigan yo'lni bilganlar. Biggacha yetib kelgan geografik xaritalar shumer va bobilda geografik bilimlar yuqori darajada rivoj topganidan dalolat beradi.

San'at. Qadimgi Mesopotamiya san'atining shakllanishi va keyingi taraqqiyotiga shumerlarning badiiy an'analari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tosh o'ymakorlik mil. avv. III ming yillik boshlarida shakllandi. Toshga naqshlar o'yish (gliptika) mil. avv. I asrgacha yuksak darajada rivojlanadi. Relyef tasvirlar toshdan ishlanib, relyeflarda hayvonlar, jang manzaralari tasvirlangan. Mil. avv. XXIV-XXIII asrlarda Mesopotamiya yagona davlat bo'lib birlashgan paytda podsholarning ideallashtirilgan portret-tasvirlari paydo boladi.

Mil. avv. II ming yillik boshlaridan qurbonlik keltirish, saroy hayoti manzaralari tasvirlangan freska san'ati rivojlangan. Ikki Daryo oraliq'ining san'atining birinchi yuksalish davri Shumer davriga to'g'ri keladi. Shumer davrida san'atning asosiy qonunlari, tartib-qoidalari shakllanib, u

o'zining mukammal yaxlit manzarasini oldi. Keyingi Bobil va Ossuriya-ning san'atida o'z davomini topdi. Shumerning me'morchilik san'atidagi ulug'vorlik, nafislik va yaxlitlik, yaxlit dastada ifodalanish Bobil va boshqa Old Osiyoning barcha poytaxt va shaharlari me'moriy inshootlari uchun qonuniyatga aylandi. Bu asosan rel'yef san'atida o'z aksini topgan. Bu davrda ulug'vor saroy va ibodatxonalar barpo qilina boshlangan.

Shaharlar. Mil. avv. I ming yillikda Ikki Daryo oralg'ida yirik savdo-hu-narmandchilik va madaniyat markazlari bolgan katta shaharlar paydo boladi. Ossur podshosi Sinaxxerib tomonidan mil. avv. 705 - 681-yillarda qurilgan, maydoni bo'yicha Old Osiyoda Bobildan keyin aholi soni bo'yicha ikkinchi o'rinda turgan Kichik Osiyodagi o'ssur poytaxti Nineviya shahri bo'ldi.. Shahar 729,7 ga yerni egallab, shaharda 170 ming aholi yashagan. Amerikalik arxeolog K. Tompson 1932-yilda Nineviya shahrida podsho Sinaxxerib qurgan, shaharni suv bilan ta'minlaydigan akvedukni qazib topdi.

Ikki Daryo oralig'ining eng katta madaniy va savdo-hunarmandchilik markazi Bobil shahri edi. Bobilda 200 ming kishi ashab, shaharda 2 xiyobon, 4 katta shoh ko'cha, 53 ibodatxona va 600 ziyoratgoh bolgan. Bobil shahri Yangi Bobil podsholigi davrida yuksalib, yangi saroylar, ibodatxona-zikkurat va mudofaaOssuriya kabi Bobilda ham qanotli hokizlar, sherlar (sha- du)ning rel'yef tasvirlari va haykallari yuksak san'at asarlari hisoblanadi. Qanotli ho'kiz va sher haykallari saroylar oldiga qo'yilgan. Ular saroyning homiysi va himoyachisi bolgan. Britaniya muzeyida Ashshurbanipalning saroyidagi qanotli sher saqlanadi. Ossur podshosi Sargon saroyidan 26 juft hokizning alebastr haykali topilgan. Mesopotamiya rassomlari jang manzaralarining tantanali marosim yurishlarini juda yengil tasvirlaydilar. Yovvoyi hayvonlar, xonaki jonivorlar ingichka oyoqli, kishnab turgan otlar, ixcham gavdali itlar tasvirlari hayotiy, jonli tasvirlanadi.

Mesopotamiyada shisha ishlab chiqarish juda erta mil. avv. XVII asrda boshlanadi. foydalanish esa kechroq - mil. avv. XI asrda boshlanadi. Mesopotamiyaning ilmiy bilimlari, san'ati, me'morchiligi, dini, yozuvi va adabiyoti qadimda ko'pgina Sharq xalqlari madaniyati ravnaqining olchov mezoni bolib xizmat qilgan.Mesopotamiya sivilizatsiyasining siyosiy nazariya va amaliyoti, huquq, falsafa, tarixshunoslik sohalarida erishgan yutuqlari boshqa mamlakatlar tomonidan o'zlashtirib olinadi. Ossuriyada shakllangan ma'muriy tizimni forslar o'zlashtirib olganlar (mamlakatni satrapliklarga bo'lish, satraplikni fuqarolik va harbiy hokimiyatlarga ajratish). Ahmoniylar, keyin esa Ptolemeylar va Salavkiylar Ikki

Daryo oralig'ida qadimgi davlat boshqaruvining saroy rasm-rusumlarini o'zlashtirib oladilar.

Shumer Bobil madaniyatini o'zlashtirgan Ossuriyaning oqsuyak-zodagonlari, saroy ahli qimmatbaho qizil rangli zarbof kiyimlar, oltin-kumush, qimmatbaho toshlar bilan ziynatlangan harbiy qurollar, yelpig'ich va soyabon tutgan xizmatkorlar hamrohligida ko'chaga chiqqanlar. Podshoning o'zi toj kiyib, oq uzun kiyim orqasiga tashlangan ko'k lentalar va qolida podsholik ramzi bolgan aso bilan fuqarolar oldiga chiqqan. Podsho oliy kohin vazifasini bajargani uchun uning kiyimida ossuriyaliklar sig'inadigan yulduzlar tasviri bolgan.

Qadimgi Shumerda harbiy san'at yuqori darajada rivojlangan. Dunyo harbiy san'ati tarixida ilk bor mil. avv. III ming yillikda shumer askarlari yog'ochdan to'rtburchak shakldagi, chetlari qisman mis parchalari bilan hallangan jangchi gavdasini tola yopadigan to'rtburchakli qalqondan foydalanganlar. Bunday qalqonlar bir-biriga taqab qo'yilib, butun bir askarlar qismini himoya qilgan. Shu tarzda Shumerda qadimgi davrda ilk falanga yuzaga kelgan. Shumer jangchilari dunyo tarixida birinchi bolib, jangovar qalpoqlardan foydalanganlar. Mil. avv. III ming yillikka oid mis va oltin qalpoqlar Ur shahri podsho qabrlaridan topilgan. Ayniqsa, Ossuriya qurol-yarog'i haqiqiy san'at asari bolgan, oliy navli polat qilichlar, xanjarlar, qalqon va kamonlar mohirona tayyorlangan. Xanjar taqib yurish uni egasining nasl-nasabi ulug' ekanidan dalolat bergan. Xanjarlarning sopi hayvon kallasi tasvirida nafis ishlangan.

Tayanch iboralar: Shumerlar, manbalar, Dajla, shumer davlati, Bobil, Shulga qonun, amoriylar, yangi Bobil, yozuv, arxiv, loy taxtacha, Gilgamesh, maktab

Takrorlash uchun savollar

1. Shumer sivilizatsiyasining yutuqlari.
2. Qadimgi Shumer davlatining siyosiy tuzumi.
3. Qadimgi shumer-bobil tili, yozuvi va adabiyoti.
4. Bobil me'morchiligi va tasviriy san'ati.

Mustaqil ish mavzulari

1. Shumerlarning etnik tarixi bo'yicha manba va adabiyotlar.
2. Shumer jamiyati: ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.
3. Xammurapi qonunlarida qadimgi Bobilning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.
4. Yangi Bobil podsholigining ichki va tashqi siyosati.

8-mavzu. HIND SIVILIZATSIYASI

1. Hindistonning eng qadimgi sivilizatsiyasi. 2. Oriylar migratsiyasi. 3. Qadimgi hind sivilizatsiyasining yangi davri. 4. Qadimgi hind madaniyati 5. Nind sivilizatsiyasi V-XX asrlarda.

1. Hindistonning eng qadimgi sivilizatsiyasi. Hind yoki uning eng katta markaziga qarab Xarappa sivilizatsiyasi deb aytiladi. Hind daryosi vodiysida hozirgi Pokiston hududida ilk hind sivilizatsiyasi yuzaga keldi. Qadimgi Hind sivilizatsiyasi mil. avv. III ming yillik o'rtalarida yuzaga keldi. Bu qadimgi sivilizatsiya Hind daryosi vodiysida XX asr boshlarida o'tkazilgan arxelogik qazilmalari natijasida hind daryosi vodiysida Moxenjo – Daro, Xarappa, Chanxa – Daro, Lotxala, Kalibangan va Rupor shaharlari ochildi. Moxenjo Daro, Xarappa bu sivilizatsiyaning markaziy shaharlari bo'lib bu shaharlarda hunarmandchilik va savdo rivojlangan.

Qadimgi hind shaharlari aholisi sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik – savdo bilan shug'ullanganlar. Bu hududda sug'orma dehqonchilik rivojlanib sug'orish inshootlari tizimi vujudga keldi. Sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi jarayonida aholini ijtimoiy tabaqalanishi boshlangan. Dehqonlar, hunarmand – savdogarlar tabaqalari shakllangan. Asta sekin harbiy va kohinlar qatlami ajralib chiqqan. Davlat hokimiyati aholidan soliq to'lovlarini undirgan, aholi mehnat majburiyatini o'tagan. Qadimgi hind shaharlari shumer shaharlari hamda Afg'oniston va O'rta Osiyo bilan savdo aloqalarini o'rnatganlar. Qadimgi hind sivilizatsiyasi o'z ozuviga ega bo'lgan, Bizgacha muhrlarga o'yilgan qisqa yozuvlar yetib kelgan. Rivojlangan diniy e'tiqod vujudga kelgan. Bizgacha, qadimgi hind ilohlari nomlari, ma'budalarning haykalchalari va eng qadimgi hind taqvimi yetib kelgan. Qadimgi hind diniy e'tiqodi ilohlari, rasm-rusumlari keyingi hind sivilizatsiyasiga transformatsiya qilgan. Qadimgi hind sivilizatsiyasi tabiat ofatlari natijasida mil. avv. XVIII asrda halokatga uchragan.

2. Oriylar migratsiyasi. Mil. avv. 1700 yillar atrofida oriylar O'rta Osiyodan Hindiqush tog'laridan o'tib Hindistonning shimoli-g'arbiga (hozirgi Pokiston hududi) joylashadilar va asta-sekin Hindistonning butun shimoliy qismiga tarqalganlar. Oriylarning Hindistonga migratsiyasi tilshunoslik va etnografik ma'lumotlar bilan tasdiqlangan. 2000 yillarda o'tkazilgan genetik tadqiqotlar kelgindi aholining Hindiston aholisini ko'payishiga salmoqli ta'sir qilganini tasdiqlaydi. Gaploguruh R1 a1 Hindistonning oliy tabaqalari braxman va kshatriylarda 46 foizgacha boradi. Hind va O'rta Osiyo populyatsiyalari uchun ba'zi Y xromosoma gaplo guruhlarining umumiyliги ularning qadimdan qo'shnichilikda

yashaganidan dalolat beradi. Aslida qadimda Oʻrta Osiyo va Hindiston qoʻshnichilikda yashagani bilan izohlanadi. Aslida qadimdan Oʻrta Osiyo va Hindistondagi etnik guruhlar bir-biriga qarindosh boʻlgan.

Oriylar dehqonchilik bilan shugʻullanib, sholi ekadilar. Iqtisodiyot rivojlanib shaharlar, savdo-hunarmandchilik jadal taraqqiy etib patriarxal qulchilik, sinfiy jamiyat yuzaga keladi. Oriylar Hindistonning markaziy va janubiy qismigacha siljib bordilar va mahalliy aholi bilan aralashib ketib qator davlatlarni tashkil etadilar. Ular Gang daryosi vodiysida ilk davlatlarni tashkil qildilar. Bu davlatlar orasidan Koshala va Magadxa davlatlari kuchayib borgan. Mil. avv. I ming yillik oʻrtalarida Magadxa davlati kuchayib ketib, uning poytaxti Pataliputra (hozirgi Patna shahri) yirik siyosiy va madaniy markazga aylanadi. Mil. avv. VI asr oʻrtalarida Nand sulolasi hokimiyatga kelib Gang daryosi havzasi va ehtimol janubiy Hindistonni ham egallaydilar.

Nand sulolasi davrida Hindiston hududida varnalarga asoslangan jamiyat shakllanadi. Toʻrt yopiq qatlam – brahmanlar, (kohinlar), kshatriylar (harbiy zodagonlar), vayshilar (boshda jamoachi dehqonlar, keyinchalik ularning orasidan hunarmand va savdogarlar ajralib chiqqan) shudralar (toʻla huquqqa ega boʻlmagan, qaram dehqon va hunarmandlar) shakllanadi. Ushbu toʻrt qatlamdan tashqari “tegib boʻlmaydiganlar” yaʼni marginal qatlam- oʻz urugʻi, oilasi va qatlami bilan aloqasini uzgan, qashshoqlar guruhi shulardan paydo boʻlgan. Ular hech qanday huquq va mulkka ega boʻlmay eng ogʻir va iflos ishlarni bajarganlar. Ular toʻrt qatlam yashagan qishloqlar atrofida yashaganlar.

Mil. avv. IV asr oxirida nand sulolasi zaiflashib, hokimiyatga maurilar sulolasi miloddan avvalgi 322-187 yillar keldi. Maurilar mil. avv. IV-III asrlarda hukmronlik qilganlar Maurilar davlatining yuksalish davri sulolaning uchinchi hukmdori Bindasarining vorisi Ashoki hukmronligiga toʻgʻri keladi. Uning davrida Oʻrta Osiyodagi davlatlar Parfiya, Yunon-Baqtriya bilan sinxron (hamohang) bordi. Bu qadimgi sivilizatsiyalar taraqqiyotining oʻxshash davridan dalolat beradi. Har bir yuksalishda uning orqasidan tushkunlikning uzoq davri, katta-kichik davlatlarning yemirilishi, oʻzaro ichki urushlar, tashqi bosqinlar, iqtisodiyot va madaniyatni tushkunligi hamrohlik qildi.

Hindiston shimolida Kashmir va Himolaydan janubda Maysurgacha, shimoliy-gʻarbda hozirgi Afgʻonistondan sharqda Bengal qoʻltigʻigacha boʻlgan hududda Magadxa davlati vujudga keldi, (mil. avv. I ming yillik oʻrtalari). Gʻarb va Sharqning koʻpgina davlatlari, xalqlari bilan aloqalar oʻrnatildi. Markazlashgan boshqaruv tizimi shakllanadi. Oʻz-oʻzini boshqarishga asoslangan shahar-respublikalar mavjud edi. Buddaviylik dini

tarqaladi va kasta tuzumi hukmron bo'ldi. Dehqonchilik, savdo-hunarmandchilik, madaniyatda yuksak yutuqlarga erishildi. Quchilik keng tarqaldi. Asosan erkin jamoachi dehqon-hunarmandlar mehnati yetakchi o'rinda bo'ldi. Madaniyatda yuksak natijalarga erishildi va yozuv keng tarqaldi. Maurilar sulolasi podshosi Ashokining toshga o'yilgan ko'plab qonunlari saqlanib qolgan. Ashoki saroyi binosi ajoyib me'morchilik san'ati yutug'i edi.

Hindiston hududida keyingi yuksalish Guptalar davlati davri (milo-diy IV-V asrlari)da ro'y berdi. Chandragupta II podsholigi vaqtida Shimoliy Hindistonning katta qismini o'z ichiga olgan ulkan davlat vujudga keldi va bu davlat ikki yuz yil davomida yashadi. Bu mamlakat iqtisodiyoti va madaniyatida yangi yuksalish O'rta Osiyo, Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari, Uzoq Sharq, O'rtayer dengizi mamlakatlari bilan tashqi aloqalarni rivojlanish davri edi. Uchinchi yuksalish Kushon imperiyasi davrida sodir bo'ldi. Lekin bu o'tish davrida ya'ni o'rta asrlarga o'tish davriga to'g'ri keladi. Hindiston va O'rta Sharq Yevropaga qaraganda o'rta asrlarda taraqqiyotda Yevropadan oldinda bo'lgan.

Qadimgi hind madaniyati.

Vedalar. Hind adabiyoti, tasviriy san'at, me'morchiligida diniy g'oyalarning ta'siri kuchli bo'lgan. Qadimgi hindlarning adabiyot, san'at, fan va falsafada erishgan yutuqlari jahon sivilizatsiyasining tarkibiy qismlaridan birini tashkil etadi. Hind sivilizatsiyasi boshqa mamlakatlar, xalqlar, ayniqsa, Janubi-sharqiy Osiyo, Markazi Osiyo va Uzoq Sharq madaniyati taraqqiyotiga hayotbaxsh ta'sir qilgan. Qadimgi Hind adabiyotining mashhur yodgorligi «Rigveda»ning minglab madhiyalari va so'nggi veda adabiyotlari oriyalarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va diniy e'tiqodlari to'g'risida boy ma'lumot beradi.

Qadimgi Hindistonda xudolar pog'onasi mavjud bo'lmagan. Xudolar samoda yashaydi, hind oriyalari xudolar tasviriga sig'inganlar. Qurbonlik keltirish olovga moy quyish va arpa donini tanlash bilan ifodalangan. Go'yoki, qurbonlik tutun bilan samoga ko'tarilib, xudolar qurbonlikdan to'yib, yerdagi bandalariga ovqat yuboradilar. Dastlab ibodatxonalar qurish rasm bolmagan. Kohinlar yopiq tabaqa bo'lgan. So'nggi veda davrida kohinlar imtiyozli alohida brahmanlar toifasi varnasini tashkil qilganlar va jamiyatda boshqa varnalardan mavqelari baland bo'lgan. Uch varnadan birortasining tola huquqli a'zosi bo'lish uchun faqat bu varnada tug'ilish emas, balki brahman o'qituvchining uyida o'qish va maxsus bag'ishlov marosimlaridan o'tishi lozim edi. Bag'ishlov marosimida bolaga muqaddas ip ilganlar. Bu «ikkinchi tug'ilish» hisoblangan. Shudralarga marosimda ishtirok etishga ruxsat berilmagan. «Ikkinchi tug'ilish» marosimi veda matnlarini o'qish va diniy sirlarni bilish huquqini bergan. Veda matnlarini

o'qituvchidan o'quvchiga faqat og'zaki uzatganlar. Natijada vaqt o'tishi bilan ijtimoiy muhitning ta'siri ostida matnlar mazmuni o'zgarib borgan.

Hinduizm. Qadimgi Hindistonning m'anaviy hayotida diniy e'tiqod muhim o'rin tutgan. Hinduizm asosiy diniy e'tiqod edi (hozirgi kunda Hindiston aholisining 80 foizidan ko'prog'i shu dinga e'tiqod qiladi 250 mln kishi islom diniga sig'inadi). Hinduizm asosini qadimgi Hindistonning arxaik e'tiqodlari: daraxtlar, tog', suv havzalari, ilon, sigir va maymun kabilarga sig'inish tashkil etadi. Hinduizm qadimgi davrdan boshlab ma'buda onaga sig'inish an'anasi hozirgi kunda ham katta rol o'ynaydi. Hinduizm bosh yaratuvchi xudo g'oyasi mavjud. Brahma – dunyoning yaratuvchisi va boshqaruvchisi. U yerda ijtimoiy qonunlarni o'rnatadi (dharma), jamiyatni vernalarga boladi va gunohkorlar, shakoklarni jazolaydi. Vishna – himoya qiluvchi ma'bud, Shiva – vayron qiluvchi ma'bud, xudo Vishna – hayvonlar: sirtlon, baliq, toshbaqa yoki insonlarqiyofasida odatda, qora tanli podsho yoki cho'pon (krishna) qiyofalarida namoyon boladi. Bu iloh yana boshqa kichik xudolar timsoliga kirishi mumkin. Vishna odatda, podsho tojida, ba'zida dunyo iloniday yastanib yotgan holda tasvirlanadi.

Hinduizm ayrim dindorlar bosh xudo deb, sopol parchalarini ilib olgan asket (darvish) yoki raqqos qiyofasida ifodalanadigan Shivani hisoblaydilar. Shivaga Ko'pincha Shivaga unga bag'ishlangan muqaddas hokiz hamrohlik qiladi. Qadimgi davr oxiri va hozirgi kunlarda hinduizm dindorlar Vishna va Shivaga e'tiqod qiluvchi ikki oqimga bolinadi. Indra – chaqmoq xudosi; Varuna – dunyoda tartib va adolatni saqlovchi xudo; Agni – uy o'chog'i himoyachisi, uy va odamlarni saqlovchi xudo; Yama – u dunyo xudosi.

Hinduizmning muqaddas matnlari vedalar hisoblanadi. Hinduizm ibodatxonada toat-ibodat qilish rasm bo'lmagan. Bayram tantanalarining eng muhim qismi tantanali yurishlar, namoyishlar bolib, xudoning tasviri olib yurilgan. Ibadatxona oldida uning xizmatchilari – kohinlar, raqqoslar va musiqachilar yashagan. Hinduizmning asosiy kitoblaridan biri «Bxagavagita» («Xudoqo'shiqlari») poemasi bolib, «Mahobhorat» tarkibigakiritilgan. Hinduizmning axloqida sabr-toqat qilishga chaqirish an'anasi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Mil. avv. 1350-yillar atrofida kohinlar diniy e'tiqod qoidalari, huquq to'g'risidagi barcha hujjatlarni to'plaganlar. Bu to'plam Vedalar (bilim) deb ataladi. Unda xudoga e'tiqod, qurbonlik marosimlari bayon qilingan, xudolarga tog' o'simligidan tayyorlangan sharbat, guruch, sut va yog' ehson qilingan. Odam iste'mol qilishi kerak bolgan oziq-ovqatga alohida e'tibor berilgan. Har bir jonivorda vafot etgan kimnidir: do'stning, qarindoshning yoki ajdodning ruhi bo'lish ehtimoli borligi uchun brahmanlar

go'shtli ovqatni umuman taqiqlaganlar. Xalqning ongiga bu tushunchani qat'iy singdirish mumkin emasligini hisobga olib, faqat qoramol go'shtini yeyishni qat'iy taqiqlaydilar. Chunki sigir muqaddas hayvon hisoblanib, uning suti va yogxudolarga qurbonlik keltirilishi lozim bo'lgan.

Brahmanlar piyoz va sarimsoqdan boshqa sutli va o'simliklardan tayyorlangan ovqatni iste'mol qilishni tavsiya qilganlar. Kimki taqiqlangan ovqatni iste'mol qilsa yoki boshqa gunoh qilsa, sudni kutib o'tirmay, o'zini o'zi jazolashi lozim. U ming marta duolarni takrorlashi yoki ro'za tutishi yo o'zini oldirishi lozim. Misol uchun, kim taqiqlangan ovqatni yesa, u 30 kun davomida faqat guruch yeyishi kerak. Kim mast bolsa, 30 kun guruch qaynatmasini ichishi, qachonki uning ichki a'zolarini kuydirishi kerak, shundan so'ng uning gunohlari yuviladi. Kim sigirni tasodifan oldirib qo'ysa, u sochini qirishi, oldirilgan sigirning terisiga o'ralib, molxonaga borib sigirlarga sig'inishi, ularga xizmat qilishi kerak. Agar Kshatriy ataylab brahmanni o'ldirsa, o'zini kamondan otilishi qo'yib berishi yoki olguncha o'zini o'zi 3 marta olovga tashlashi kerak. Brahman uchun bu yo'riqnomalar yanada qattiq bo'lgan. Ularning majburiyatlari ipidan-ignasigacha belgilangan, qanday holda turib ovqatlanishlari, qol va barmoqlarini qaysi qismi bilan poklanishlari, hayotning har qanday vaziyatlarida o'zlarini qanday tutishlari ko'rsatiladi. An'anaga ko'ra kasta bo'yicha kasbni o'zgartirish taqiqlanadi. Nikohni bolalikda o'qitish odati tarqalgan. Beva vafot etgan erining jasadiga gulxanda kuydirilgan paytda o'zi ham birga yonishi eng savob ish hisoblangan.

Buddaviylik e'tiqodi. Mil. avv. VI asrda Hindistonda yangi e'tiqod buddaviylik kirib kelgan. Bir necha asr o'tgach, buddaviylik butun dunyoga tarqalib, uch dunyo dinining biriga aylanadi. Lumbuni (Nepal) hududida kshatriy oilasida tug'ilgan Siddxartxa (mil. avv. 566 - 486-yillar) yangi buddaviylik dini asoschisi bo'ladi. Siddxartxa 29 yoshida bu dunyo ne'matlaridan voz kechadi. Shakyamuni («Shakya urug'idan tarki dunyo qilgan») nomini olib 7 yildan keyin Varanasi shahri yonida o'z mustaqil targ'ibotini boshlaydi va keyin esa 40 yil Gang daryosi havzasida daydib yurib, o'z ta'limotini targ'ib qiladi. U Sarnatxada (Banoras shahri yonida) ilohiy nur olib, Budda («nurlangan») nomini oladi. Budda dini insonning axloqiga jiddiy e'tibor beradi.

Hayot va azob, hayot yerda yashash, uning lazzatlaridan bahramand bo'lish istagida paydo boladi. Istaklardan xoli bo'lish 8 yo'l bor: to'g'ri qarashlarga ega bo'lish, to'g'ri fikrlar, o'zini to'g'ri tutish, to'g'ri harakat, to'g'ri so'z, to'g'ri fikrlar namunasi, to'g'ri xotira, to'g'ri turmush tarzi, to'g'ri o'zligiga kirishga intilish.

Budda o‘z ta’limoti bilan bevosita xalqqa maydon va bozorlarda tushunarsiz sanskritda emas, balki xalqning oddiy tilida murojaat qilgan. U o‘z ta’limotida yerdagi barcha odamlar tengligini targ‘ib qiladi. Bir-birini og‘irini yengil qilish, yovuzlikka qarshi turishni aytadi. Gunoh qilgan odam uchun og‘ir jazolar kerak emas, gunohkor qalban chuqur tavba qilishi lozim. Oddiy xalq Buddani qo‘llab-quvvatlaydi, uni Vishnaning bir qiyofasi deb tushunganlar.

Budda ta’limotining o‘ziga xos xususiyati u hayotni azoblanish deb tushuntiradi. Azoblanish olim va kasalliklar bilangina bog‘liq emas. U insonning o‘z nafsini tiya olmasligidadir. Budda ta’limotining mohiyati to‘rt haqiqatda ifodalanadi: birinchi haqiqat – hayot, ahmoqona yoki baxtsiz hayot, lekin har qanday hayot, umuman, hayot – yovuzlik, azoblanish; ikkinchi haqiqat – hayotning va qayta tug‘ilishlarning sababi istak-hayotga, huzur-halovatga, hokimiyat va boylikka chanqoqlik; uchinchi haqiqat yozuvlikdan hayotni qutqarish imkoniyati; to‘rtinchi haqiqat – bu qutulishga erishish yo‘li mutlaq tinchlanish orqali har qanday hissiyot, istaklardan tiyilish, saqlanish. Har bir dindor intilishi kerak bo‘lgan oliy maqsad bu – nirvanaga erishish, ya’ni bu dunyoning har qanday huzur-halovati, orzu-istaklaridan xoli bolish; bunday odam boshqa qayta tug‘ilmaydi.

Buddaviylik e’tiqodida ilk o‘qituvchini tasvirlash an’anasi yo‘q bo‘lgan. Faqat Budda ramziga tayanadigan asosiy e’tiqod inshooti stupa – soyabon ostidagi sun’iy tepalik bo‘lgan. Keyinchalik Buddaga nisbatan munosabat o‘zgaradi. Uning tasviri paydo bo‘ladi. Ibadatxonalar qurilib, Budda ilohiy mavjudot ekanligi aytila boshlanadi. Dindorlar bu dunyo hayotidan, oilasidan, mulkidan, tashqi an’anaviy aloqalardan va ruhiy boglanishlardan kechishi lozim. Buddaning izdoshlari qizg‘ish kiyimda, sochlari taqir olingan. Ular qishloq va shaharlarni kezib, sadaqa so‘rab yurganlar. Ularni bxikshu (gadoy) deb ataganlar.

Budda dini uchun diniy marosim hech qanday ahamiyatga ega emas edi. Dindorlar avvalgiday to‘y, olim marosimlariga brahmanlarni chaqirar edilar. Budda matnlari sodda xalq tilida tuzilgan bo‘lib, tushunarli bo‘lgan. Brahmanlar esa sanskrit adabiyotini aholining ko‘p qismidan yashirganlar. Budda dini, ayniqsa, shahar aholisi o‘rtasida keng tarqalgan. Chunki shahar paydo bo‘lishining o‘zi an’anaviy urug‘chilik, ijtimoiy aloqalarning yemirilishi, xususiy mulkning paydo bo‘lishi va shaxsning jamoadan ajralishi bilan bog‘liq bo‘lgan.

Buddaviylik e’tiqodiga qudratli davlatlarning hukmdorlari homiylik qilganlar. Chunki budda matnlarida dunyoga hukmronlik g‘oyasi ilgari surilib, qaysiki, hukmdor orqali adolat podsholigiga asos solinishi g‘oyasi mavjud bo‘lgan. Adolatning tarqalishi, bir vaqtning o‘zida hukmdor

hokimiyatining kuchayishi bilan birga boradi. Bu diniy g'oya ilgari surilgan adolat g'oyasiga to'g'ri kelishini bildiradi. Dastlab budda dini xudozilar dini bo'lgan. Chunki xudo har bir insonning qalbida, u o'zini anglab yetishi lozimligi g'oyasi kuchli bo'lgan. Dunyoning oxirati va uning kelajagida qutqaruvchi Buddaning kelishi tushunchasi shakllana boshlagan. Xudoga sig'inish rasm-rusumlari, ibodat va qurbonlik keltirish marosimlari paydo boladi, afsun o'qish, tumorlar katta t ma'noga ega bo'lgan diniy-falsafiy g'oyalar bilan sug'orilgan diniy mazmundagi to'plamlarnio'ziga singdirgan.

Adabiyot. Qadimgi hind adabiyoti mazmuni umuminsoniy qadriyatlar bilan sug'orilgani bilan yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu sababliqadimgi hind adabiyoti, falsafasi va madaniyati Yevropa va Amerikaning taniqli olimlari e'tiborini jalb qilib keladi. Taniqli olim I. Gerder, yozuvchi shoirlar I. Gyote, G. Getne, G. Gesse, S.Sveyg, L. Tolstoy, R. Rollan, R. Kipling va boshqalar qadimgi hind syujet va motivlaridan foydalan-ganlar. Gerder, Gyote, F. Shiller jahon adabiyotining yuksak namunalaridan biri bo'lgan Kalidasining «Shakuntala» dramasini o'qib, hayratga tushganlar. Bu dramani dunyo adabiyotining eng ajoyib namunalaridan biri deb e'tirof etganlar. Gyote hind afsonalari syujeti asosida bir qancha yaratgan (ayniqsa, uning 1794-yilda yozgan mashhur «Xudo va raqqos» balladasi). Mashhur Amerika yozuvchilari U.Emerson, G.Toro va U.Uitmen ijodiy faoliyatiga qadimgi hind falsafasi kuchli ta'sir o'tkazadi.

Qadimda hind adabiyoti turli jjanrlarda shakllana boshladi. Hind xalq og'zaki ijodining nodir namunalari “Maxobxarat” va “Ramayana” dostonlari insoniyat tarixidagi ilk dostonlar bo'ladi. «Mahobhorat» dostonining asosiy syujeti - ikki podsho sulolalari Pandavlar va Kauravlarning raqobati, Kuru dalasidagi 18 kunlik jang to'g'risidagi qissani tashkil etadi. Poema muallifi an'anaga ko'ra, donishmand Vyasa hisoblanadi. «Ramayana» qissasi asosida podsho Ramning devlar podshosi Ravan o'g'irlab ketgan sevgilisi Sitani qutqarish uchun Lanka oroliga yurishi hikoyasi yotadi.

Qadimgi Hindistonda adabiy ijod nazariyasi, jumladan, poeziya yuqori darajada rivojlangan. She'r yozish qoidasi batafsil ishlab chiqilgan. Poetika janrida traktatlar tuzilgan. Poetika fanining bir necha maktablari asta-sekin paydo bo'lgan. Bu maktablarda poeziyaning mohiyati, badiiy usullar, janrlar va poetik til to'g'risida ilmiy munozaralar olib borilgan.

Mil. avv. I ming yillikning II yarmida budda adabiyoti shakllanadi. Milodiy I – II asrlarda yashagan shoir Ashvagxosha «Buddxacharita» (Buddaning hayot tasviri) poemasida xalq poeziyasining kuchli ta'siri seziladi. Ilmiy va didaktik ruhdagi adabiyotlardan biri bo'lgan Panini tuzgan sanskrit grammatikasi mil. avv. V – IV asrlarda yaratilgan. Bu

asar mutaxassislarining fikricha, jahon fanida XIX asrgacha tilning eng mukammal bayon qilingan asaridir. Hindistonda bir necha yozuvlar shakllangan. Uning ilk namunalaridan biri Ashoki yozuvlaridir.

Guptalar davrida milodiy 320-600 yillar Hind teatri rivojlangan. Qadimgi hind teatri sahnasida qo‘yiladigan asarlarda diniy motivlar asosiy o‘rinda turgan. Bu davrda dramaturgiya bo‘yicha maxsus traktatlar paydo boladi. Milodiy I asrda turli adabiy janrlarning rivoji davom etgan. Chandragupta II davrida mashhur dramaturg Shakun Kalidasi ijod qilgan. U mashhur «Shakuntala» dramasiining muallifidir. «Panchatatra» deb atalgan kitobda masallar to‘plangan. Uning arabcha tarjimasi «Kalila va Dimna» deb ataladi.

Me‘morchilik va san‘at. Maurilar davridan so‘ng ming yil davomida hind me‘morchilik va tasviriy san‘atining noyob yodgorligi bo‘lgan g‘ordagi Ajanta ibodatxonasi (qurilish mil. avv. II asrdan milodiy VII asrigacha davom etgan) va budda monastirlari yaratilgan. Ajanta ibodatxonasi 29 g‘orda qurilgan budda majmuasi bo‘lib, ichki devorlari va shiftlari tasvirlar bilan qoplangan. Budda hayotidan keltirilgan turli manzaralar, har xil mifologik mavzular budda afsonalarini tasvirlaydi. Bundan tashqari, kundalik hayot va saroy mavzusidagi (podsho ovi, elchilar qabuli va boshqalar) holatlar tasvirlangan. Ajanta ibodatxonasi tasvirlariga o‘xshash noyob tasvirlar Shri-Lankadan ham topilgan.

Hindistonda qadimda ulug‘vor saroylar, shaharlar qurilgan Qadimda ko‘p inshootlar yog‘ochdan bunyod qilingani uchun ular saqlanib qolmagan. Salavkiylar elchisi Megasfen yozuvlariga ko‘ra Mauriylar podshosi Chandraguptaning ulkan saroyi yog‘ochdan qurilgan. Hind arxeologlari Chandraguptaning poytaxti Pataliputraning poytaxtida faqat tosh ustunlarning qoldiqlarini qazib topganlar. Milodiy I asr boshlarida qurilishda toshdan keng foydalanila boshlanadi. Bu davr diniy me‘morchiligi hinduizm, buddizm ibodatxonalarining g‘or majmualarida o‘z aksini topadi. Ana shunday g‘or majmualaridan Karle (Bombey yaqini) va Ellordagi ibodatxonalaridir. Karledagi g‘or ibodatxonasining balandligi 14 m, kengligi ham 14 m, uzunligi 38 m.ga yaqin. Markaziy zalda tosh ustunlar, ko‘plab haykallar va ibodat uchun stupa mavjud. Ellordagi g‘or ibodatxonasi majmuasi qurilishi Guptalar davrida boshlanib, bir necha asrlar davom etgan.

Maurilar davridan so‘ng g‘isht va toshdan qurilishda keng foydalaniladi. Hozirgacha saqlangan obidalar ichida g‘arbiy Hindistondagi budda monastirlari diqqatga sazovor Yer ustidagi monastirlardan biri Sanchida bunyod qilingan. Sanchida tepalik ustida ulkan budda monastiri binosi qurilgan. Yana bir noyob san‘at yodgorligi Ashoki yozuvlari bitilgan tosh ustunlardir. Bu ustunlar mamlakatning turli viloyat

va shaharlaridagi maydon, ko'chalarga qo'yilgan. Bu yozuvlarda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti uchun muhim bo'lgan Ashoki qonunlari, yo'riqnomalari aks etgan.

Maurilardan so'ng haykaltaroshlikning mahalliy maktablari vujudga kelgan. Ulardan eng mashhurlari Shimoli-g'arbiy Hindistondagi Gandxara, Shimoliy Hindistonning markaziy qismidagi Madxur va Dekan viloyatidagi maktablardir. Milodiy I asrdan Gandxara maktabida O'rta Osiyo, madaniyatining ta'siri yaqqol ko'rinadi. Gandxara uslubi Kushon podsholigi davrida Markaziy va Sharqiy Osiyoning budda madaniyatiga yaqib bo'lsa, Madxur va Dekan maktablari Hind tasviriy san'ati an'analari bilan ko'proq bog'langan. Ana shu qadimiy maktablar asosida o'rta asrlar Hind va Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari madaniyati shakllangan.

Fan. Qadimgi hindlar matematika, astronomiya, tibbiyot va tilshunoslikda katta yutuqlarga erishganlar. Hind fanining ilmiy yutuqlari boshqa xalqlarning madaniyatiga katta ta'sir o'tkazgan. Qadimgi hind kashfiyotlari Yevropada faqat yangi davrdagina amalga oshiriladi. Dunyo matematika va astronomiyasi tarixida milodiy V-VI asr boshlarida yashagan olim Aryabxataxa alohida o'rin egallaydi. U «pi» sonining ahamiyatini aniqlaydi va chiziqli tenglamani yechishning o'ziga xos yo'lini taklif qiladi. Bu zamonaviy matematika yutuqlariga yaqin edi. Hind matematikasining yana bir ajoyib yutug'i nol bilan hisoblashning o'nlik tizimi yaratilishi edi. O'nlik tizim arablar tomonidan o'zlashtirilib, ular orqali boshqa xalqlarga tarqalgan. Hozir undan butun dunyo foydalanadi. Qadimgi hind raqamlarini belgilash tizimi zamonaviy nomerlash tizimini belgiladi va zamonaviy arifmetikaning asosida yotadi. Mavhum son to'g'risidagi ta'limot va raqamli tizimning yuqori darajasi ishlab chiqilishi algebra fanining yutug'i bo'lgan. Antik fanda faqat geometriyaga e'tibor berilgan edi. Qadimgi hindlar esa matematika fanini rivojlantirganlar. O'rta osiyolik olimlardan al-Xorazmiyning matematika bo'yicha asari hind matematikasining yutuqlaridan foydalanilgan holda yaratilgan va bu asar 1145-yilda lotin tiliga tarjima qilingan.

Zamonaviy matematikada foydalaniladigan «raqam», «sinus» va «ildiz» atamaları hindlar tomonidan taklif qilingan. Astronomiya fanida ham hindlar katta yutuqlarga erishadilar. Matematika, astronomiya fanlari bo'yicha V asrda mashhur olim Aryabxata harakatning nisbiyligi asosida yerning o'z o'qi atrofida va quyosh atrofida aylanishini faraz qilgan.

Falsafa. Qadimgi Hindistonda falsafa fani yuqori darajada rivojlangan. Faylasuflar dunyoning doimo o'zgarib turishi g'oyasini, koinotning atom tuzilishi g'oyasini ilgari surganlar. Falsafada materialistik oqim bo'lgan lokayata maktabi vujudga keladi. Lokayata maktabi dunyo asosan 4 unsurdan: olov, suv, havo va tuproqdan tuzilgan deb hisoblaydi.

Hind materialistlari diniy «erkin bolish» va xudolarning kuch-qudratlilik g'oyasiga qarshi chiqadilar. Bilimning asosiy manbasi hissiy qabul qilish deb hisoblaydilar. Mashhur faylasuf, targ'ibotchi Shankara Vedanta idealistik falsafa maktabini yaratgan.

Qadimgi hind tibbiyotida uzoq yashash fani – ayurveda shakllangan. Hind tabiblari inson sogliglga iqlimning ta'sirini, o't-giyohlarning xususiyatini o'rganganlar. Shaxsiy gigiyena va parhezga alohida e'tibor qaratadilar. Hind tibbiyoti asarlarida 300 xil jarrohlik amaliyoti va 120 jarrohlik asbobi eslatib o'tiladi. Tibet tibbiyoti qadimgi hind ayurvedasiga asoslangan. Qadimda hindlar barcha fanlar va san'atlar asosida so'z yotadi, deb hisoblaganlar. Mashhur tilshunos Paninining «Ashtadxyai» («Sakkiz kitob») nomli grammatik asarida til materiali ilmiy tahlil qilingan va mukammal til nazariyasi shakllantirilgan.

Qadimgi hind madaniyati bilan O'rta Osiyo madaniyati juda yaqin aloqada boldi va bizning madaniyatimizning shakllanishida hind madaniyatining ta'siri qadimdan kuchli ta'sir qilgan. O'z navbatida, hind madaniyati bizning ajdodlarimiz yaratgan madaniyat namunalarini o'zlashtirgan. Har ikkala buyuk madaniyatning bir-biriga hayotbaxsh ta'siri xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirdi. Hind madaniyati va san'atida O'rta Osiyoning ta'siri me'morchilik san'atida yaqqol ko'rinadi.

Hind sivilizatsiyasi IV-XX asrlarda. Hindiston hududida IV-VI yangi Guptalar sulolasi hukmronlik qildi. Mamlakatning shimoli g'arbida O'rta Osiyodan eftalitlar kelib o'z davlatlarini tashkil etdilar. Eftalitlar hukmdori Toroman 490 yilda Hind-Gang vodiylarini egalladi. VI-VI-II asrlarda bir biri bilan o'zaro raqobatda bo'lgan Shimoliy Hindiston, Bengaliya, Dekan va eng chekka Janub siyosiy markazlari shakllandi. VII-VIII asrlarda Shimoliy Hindistonda Xarsha davlati hukmronlik qildi. Bu davlat feodal-toifaviy tuzilmaga ega edi: mamlakat katta kichik vassal davlatlar va kichik feodal yer mulklariga bo'linib, ularning tepasida oliy hukmdor turar edi. Oliy hukmdorga faqat ayrim viloyatlar tegishli edi. Hindistonga eftalitlar bilan bir vaqtda paydo bo'lgan gujaratlar Panjob, Sind, Multan va Malvada o'rtnashib qoldilar. O'rta Osiyodan kelgan etnoslar va mahalliy aholining assimilyatsiyasi jarayoni natijasida rajput etnik birligi shakllandi. Rajputlar tez orada Gang vodiysi va markaziy Hindistonga siljib, bu boy viloyatlarni egallab oldilar. Rajput davlatidan taniqlisi Malva davlati bo'ldi.

VIII asr boshlarida Shimoliy Hindistonda bir necha mustaqil davlatlar mavjud edi. Hind vodiysining quyi hududlariga 712-713 yillarda arab xalifaligining Muxammad ibn Qosim boshchiligidagi arab qo'shinlari bostirib kirdi. Arablar Sind va Multon viloyatlarida o'rtnashib qoldilar. Tez orada bu hududlar Arab xalifaligidan ajralib ikki mustaqil musul-

mon davlati tashkil topdi. XI asrda Hindistonning katta qismi Maxmud Gʻaznaviy davlati tarkibiga kirdi. XIII-XVI asrgacha Shimoliy Hindiston Dehli sultonligi musulmon davlati tarkibida boʻldi. XIII asrda vujudga kelgan Dehli sultonligi hukmdorlari Markaziy va Janubiy Hindistonni qoʻshib olish uchun urush olib bordilar. Bosib olingan hududlarning hokimlari, oʻzlarini Dehli sultoni vassali deb tan olib, har yili oʻlpon toʻladilar. 1398 yili Amir Temur Hindistonga yurish qilib, bu mamlakatni oʻz davlatiga qoʻshib oldi. Sohibqiron Hindostonga noib etib tayinlagan Panjob hokimi Xizirxon Said 1441 yilda Dehlini bosib olib, Saidlar sulolasiga asos soldi. Ushbu sulolaning soʻngi vakili Ibrohim Lodiy 1526 yilda Panipat jangida Temuriy Bobur Mirzo qoʻshiridan yengildi.

Temuriylar sulolasining vakili Bobur Hindistonda Boburiylar davlatiga asos soldi (1526-yil). Bu davlat uch yuz yildan koʻproq yashadi (1526-1858-yillar). Sharqning ulkan imperiyalaridan biri Boburiylar sulolasi davrida Hindistonda fan-madaniyat gullab yashnadi. Boburiylar sulolasining vakillaridan biri mashhur podsho Akbarshoh (1556-1605-yillar) oʻz atrofiga turli eʼtiqodga mansub olimlarni toʻpladi. Diniy siyosatda tolerantlik siyosatini amalga oshirdi. Keng xalq ommasi manfaatlarini koʻzlab, odilona ijtimoiy siyosat olib bordi. Islohotchi podsho qator tub iqtisodiy-madaniy va siyosiy islohotlar oʻtkazdi.

Iqtisodiy-ijtimoiy hayot. Hindistonda iqtisodiyotning asosiy sohasi sugorma dehqonchilik edi. Hind-Gang daryo vodiylarida dehqonlar paxta, sholi, tariq, kunjut va boshqa dukkakli ekinlar ekib moʻl hosil yetishtirdilar. Namligi oʻrtacha boʻlgan hududlarda asosiy ekin bugʻdoy, tariq, noʻxat boʻlgan. Rajaston va Sind ning yarim chol va choʻl hududlarida va Gang vodiysining gʻarbiy qismida chorvachilik rivojlanadi.

Hunarmandchilik va savdo rivojlanib, Gujaratdan Old Osiyo, Oʻrta yer dengizi havzasiga arzon paxta matolar va qimmatbaho matolar eksport qilingan. Hind poʻlati, qant, qimmatbaho toshlar va don mahsulotlari bu hududlarda bozori chaqqon mahsulot boʻlgan. Hind hunarmandchilik mahsulotlari Janubi-Sharqiy Osiyoga ham chiqarilgan. Ishlab chiqarishning rivojlanishi aholi sonining sezilarli oʻsishiga olib keldi. Manbalarga koʻra birinchi ming yillik oxirida Hindistonda 50 mln kishi yashagan. Aholining koʻpayishi bilan shaharlar ham koʻpayib boradi. Shaharlarda mohir hunarmandlar, savdogarlar, ziyolilar va turli xil ishlarni bajaruvchi yollanib ishlovchi kishilar toʻplangan. Ayniqsa Boburiylar sulolasi hukmronlik qilgan davrda Hindistonda dehqonchilik, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo jadal rivojlandi. Markaziy hokimiyatni iqtisodiy roli ham kuchaygan. Davlat devoni ekishga yaroqli barcha yerlardan foydalanish ustidan nazorat qilib turgan. Davlat dehqonlardan yetishtirilgan mahsulot-

ni uchdan birini soliq sifatida olgan. Markaziy viloyatlarda bozor munosabatlarini kuchayishi oqibatida dehqonlar soliqni pul bilan to'laganlar. Barcha bosib olingan yerlar davlat jamg'armasi (xolisa) hisobiga o'tgan. Xolisa davlat mulki sifatida xarbiy xizmatchilarga davlatga ko'rsatgan xizmatlariga jogir-ya'ni shartli harbiy ehson sifatida berilgan, Jogirdorlar datda bir necha ming gektar yerga ega bo'lib, bu yerdan olingan daromad hisobiga davlat uchun harbiy qismni saqlab turish majburiyatini o'taganlar. XVII asrda Bengaliya iqtisodiy markazga aylanadi. Bu yerdagi Patna va Dakka shaharlarida nafis gazlamalar to'qish, selitra va tamaki ishlab chiqarish rivojlanadi. Janubda yangi to'qimachilik markazi Madras paydo bo'ladi. Gujaratda kemasozlik sohasi kengayib ketadi. Podsho Akbar poytaxtni Jamna daryosi bo'yidagi Agra shahriga ko'chiradi. Bu dengizga chiqish imkoniyatini ochdi. XVI-XVII asrlarda Hindistonda bozor munosabatlarini shakllanish jarayoni kuzatiladi.

Dehli sultonligi davrida yevropaliklar Hindistonga suqilib kirdilar. Portugal Vasko da Gama 1498 yilda g'arbiy Hindiston qirg'ogidagi Kalkutta shahriga keldi. Portugallar 1500-1501 yillarda uch harbiy ekspeditsiya uyushtirib Goa orolini bosib oldilar va Hindistonning dengiz savdosiga to'siq qo'ydilar. Mamlakatni ichki hududlari bilan aloqasini qiyinlashtirdilar. Bu Hindistonning taraqqiyotiga kuchli zarba bo'ldi. XIX asrda Hindistonga eyevropa mustamlakachilari yopirildi. Angliya va Fransiyaning Hindistonni egallashi uchun kurashi Yetti yillik urush (1756-1763) yakunlari bilan Fransiya Hindistondan siqib chiqarildi. Angliya Hindistonni mustamlakaga aylantirishi ta'minlandi. Angliya Hindistonni talab ulkan boyliklarni qo'lga kiritdi bu dastlabki kapital jamgarish va sanoat o'ntarishini boshlash va jadallashtirish uchun yetarli darajadagi kapital mablag' bo'ldi. Dastlab Angliya hind xalqiga katta miqdorda soliqlar soldi va hind rojalarining boyliklarini tortib olib ulkan boyliklarni Angliyaga o'qib keldi. XIX asrning o'rtalaridan Hindiston ingliz sanoat mahsulotlari sotiladigan asosiy bozorlardan biriga aylandi. inglizlarning arzon matolari hind to'quvchilarining tushkinlikka uchrab xonavayron bo'lishiga olib keldi. Inglizlar harbiy strategik maqsadlarda Hindistonga temir yo'llar qurdilar. Hindistonning iqtisodiyoti ingliz sanoati manfaatlariga bo'ysundirildi.

Yer egaligi. Hindistonda Jamoachi dehqonlar o'z merosiy yerlariga egalik qilganlar, lekin yerning oldi-sottisi va ijaraga berish jamoa tashkilotining doimiy nazoratida bo'lgan. Ibadatxona va monastrlarning yerlari, Ekin yerlarining katta qismi katta yer egalarning merosiy mulki bo'lgan. Hindistonda qishloq jamoasi azaliy tashkilot bo'lib, bir qism yerlar ana shu jamoaning mulki hisoblangan. Davlatga tegishli yerlar

xolisona deb atalgan. Hukmdorlar davlat yerlarini bir qismini davlatga ko'rsatgan xizmati uchun vassallarga berilgan.

O'rta asrlarda hind davlatlarida istilochilik urushlarida qo'lga kiritilgan harbiy o'lja, bosib olingan hudud taqsimlangan: urug'-qabilaning har bir a'zosi o'z ulushi – gras (“bo'lak” yutib yuborish mumkin bo'lgan qultum “ma'nosini bildiradi) olgan. Grassning miqdori urug'-qabila yo'lbochisi yoki kichik bir viloyat, tuman hokimi-rojaga qarindoshlik darajasiga ko'ra belgilangan. Grass olgan kishi o'z yo'lbochisining birinchi chaqirig'i bilan harbiy yurishga chiqishi shart bo'lgan. Grass harbiy qurol-yaroq, kim-kechak, otni olish va tirikchilik qilish imkoniyatini bergan.

Hukmdor bir qism yerlarni davlatga xizmati uchun odamlarga vaqtinchalik foydalanish sharti bilan patta (boshda “patta” – “yorliq” ma'nosini bildirgan, shundan “yorliqqa binoan olingan mulk”) bergan. Odatda bunday shartda olingan mulkdan foydalangan kishining merosiy mulki bo'lib qolgan. Hukmdorlar, xususi kishilar ibodatxona va monastirlarga yer-mulk, hatto qishloqlarni hadya qilganlar, oqibatda bu yerlar ham ibodatxona va monastirlarning mulkiga aylangan. Hindiston mustamlakaga aylangach ingliz mustamlakachilari hind dehqonlaridan doimiy o'lpon- yer soligini joriy qildilar. Dehqonlar yerga merosiy egalik huquqidan mahrum bo'ldilar. Dehqonlar o'z yerlarini tashlab ketdilar. Oqibatda Hindiston qishloq xo'jaligi tushkinlikka uchradi.

Hindiston shaharlari savdo-hunarmandchilik markazlari bo'lgan. O'rta asrlar va yangi davrda hind shaharlari rivojlangan va ko'plab yangi shaharlar paydo bo'lgan. Bu shaharlar ming yillar davomida to'plangan shahar madaniyati, turmush tarzini o'zlashtirib ularni davom ettirib yashagan.

O'rta asrlarda Hindiston madaniyati. Diniy e'tiqod. O'rta asrlarda Hindistonda buddaviylik e'tiqodi o'z ahamiyatini yo'qota bordi. Hinduizm e'tiqodi diniy-falasafiy va boshqa sohalarda o'ziga dushman bo'lgan diniy oqimlar bilan kurash olib bordi. An'anaviy hinduizm e'tiqodi, xalqning qadimiy diniy tasavvurlari o'rta asrlarda buddaviylikning rivojlanishiga yo'l bermadi Hindistonda buddaviylik monastirlari va ziyoratgohlari vayronaga aylandi yoki tashlandiq holatga kelib qoldi, hinduizm ibodatxonalari esa ko'psonli va gavjum edi. Buddaviylik o'zvatani tark etdi, faqat maxayana oqimi Himolayda, xinayana Shri Lankada saqlanib qoldi. VIII asrda Hindistonga islom dini kirib keldi. Boburiylar davrida davlatning diniy siyosatida katta o'zgarishlar yuz berdi. Musulmon shaharlarida savdo hunarmandchilik qatlamlarida maxdiylik harakati paydo bo'ldi.

Fan. Hind olimlari matematika, astronomiya va tibbiyot sohasida katta yutuqlarga erishdilar. O'rta asrlarda hind olimlari boshchiligidagi qurilgan rasa-

dxonalar hozirgi kunga qadar saqlanib kelmoqda. Hind astronomlari yerning o'z o'qi atofida aylanishi va uning shar shaklida ekanligi farazini yaratdilar. Hind tabiblari odam bosh suyagini ochib og'ir jarrohlik asboblari va og'riqni bosadigan dori-darmonlardan foydalanishni bilganlar. Hind tabiblari o'z bilimlari va mahoratlari bilan butun Sharq dunyosida mashhur edilar.

O'rta asr me'morchiligi. O'rta asrlarda Hindistonda tosh va g'ishtlardan minorali ibodatxonlar qurish keng tus oldi. Ushbu ibodatxonalarining ko'rinishi ulkan mevalarni eslatardi. Hindistonda katta qoya toshlar yoki g'orlar ichida o'yib solingan ibodatxonalar ham bo'lgan. Markaziy Hindistonda g'or ichida o'yib qurilgan ibodatxona ayniqsa mashhur edi. Ajanta ehromlarining qurilishi mil.avv. II asrda boshlanib, oradan IX asr o'tgach tugallangan. U konussimon tog' bag'rida, tog' chuqurligida inson qo'li bilan qazilgan g'ordan iborat. Unda turli haykallar va rasmlar ishlab bezatilgan 29 ta ehrom va jom'e joylashgan. Ularning devoriga bo'rtma naqsh sur'atlar solingan bo'lib, bu suratlardan hindlarning turmushi va hayotiga old ma'lumotlar olish mumkin. Ibadatxonalar ichi baland ustunlar bilan bezatilgan, devoriga yuksak didli insonlar ham lol qoladigan naqshlar solingan. Hinduiylik diniga oid xudolarning ulkan haykallari jezdan quyilgan yoki toshdan o'yib yasalgan.

Boburiylar davrida Hindistonda me'morchilik san'ati yuksak darajaga ko'tarildi. Poytaxt Agra (Jannat bog'i)da dunyoning yetti mo'jizasidan biri hisoblangan Toj Mahal maqbarasi qurildi. Uning ijodkori bu dunyoning odami emas edi. 1628-yil Hindiston taxtiga o'tirgan shahzoda Xurram (taxtga chiqishda Shohjahon nomini oldi) turli me'moriy inshootlarni bunyoq qildi. Bo'lg'usi hukmdor bir kuni bozorda Mumtozbegimni (Arjumanbonu) ko'rib qoladi va unga uylanadi. Arjumanbonu 14 -o'g'lini tug'ayotgan paytda vafot qiladi. Shohjahon bilan Arjumanbonuning sevgisi samoviy sevgi edi. Chuqur qayg'uga tushgan Shohjahon rafiqasi uchun abadiy sevgi yodgorligini barpo qildi. Shohjahonning o'zi bino loyihasini chizdi. Uning qurilishi 20 ming kishi ishladi. Butun dunyodan olib kelingan qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar, marmar asosiy xomashyo bo'ldi. Bino devorlari qurondan olingan so'zlar bilan bezaldi. Inshootning kirish peshtog'ini 22 minora bezab turadi. Maqbara ichida Arjumanbonu va Shohjahonning sog'onalari qo'yilgan. Maqbarada rejalashtirilgan ulkan bog' barpo qilingan. Bog'-saroylar qurilishi san'ati temuriylar uslubiga borib taqaladi. Lekin bu bog' inglizlar tomonidan yo'q qilinib, ingliz uslubida ko'k o'tloq qilingan. Hukmdor binoni qurondan keltirilgan parchalar bilan inshoot devorini yuksak mahorat bilan bezagan xattotni munosib taqdirlaydi.

Shohjahon me'moriy inshootlar qurishga mablag'ni ayamadi. U rafiqasi maqbarasiga qarama-qarshi turgan daryoning boshqa tomonida o'zi uchun mahobatli maqbara qurishga kirishadi. Uning taxt vorisi bo'lgan o'g'li davlatni moliyaviy halokatdan saqlab uchun Shohjahonni taxtdan tushirdi. Hukmdor yana 8 yil qamoqda umr kechirdi. Shohjahon vafotidan so'ng Toj Mahalga dafn qilinadi.

Musulmon me'morchiligi XIII asrdan boshlab Hindiston me'morchiligiga katta ta'sir ko'rsatdi. Boburiylar sulolasi Movarounnahr, Erondagi me'morchilik an'alarini hind me'morchiligiga olib kirdilar. Yangi hukmdorlar masjidlar, go'zal madrasalar va maqbaralar, sharqona saroylar qurdirdilar. Jumladan, Shoh Jahon podsholigi yillarida qurilgan va hozirgi kunga qadar "Hindiston marvaridi" yoki dunyoning yetti mo'jizasining biri bo'lgan Agra shahridagi Toj Mahal maqbarasi fikrimiz dalilidir. Podsho Shohjahon davrida Dehli shahridagi Jom'e masjidi, Qizil fort qal'a-saroyi va boshqa me'morchilik durdonalari yaratildi. Boburiylar davrida rassomchilik san'ati ayniqsa gullab-yashnagan. Boburiy hukmdorlar o'z saroylariga Iroq, Eron va O'rta Osiyodan rassom, ustalar vamusavvirlarni taklif etdilar. Ular hind tasviriy va amaliy san'atini boy tajriba bilan boyitdilar. Natijada hind san'ati o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko'tarildi. Yuksak mahoratga ega bo'lgan musavvirlar kitoblar, tarixiy asarlar, ajoyib miniaturalar bilan bezashgan. Keyingi ming yillik davrida bu mamlakatni asosan, turkiy sulolalar boshqargani natijasi o'laroq urdu tilining vujudga kelishi va shakllanishida boshqa tillar bilan birga, turkiy tili faol ishtirok etdi.

Boburiylar davrida Hindistonda me'morchilik san'ati yuksak darajaga ko'tarildi. Poytaxt Agra (Jannat bog'i)da dunyoning yetti mo'jizasidan biri hisoblangan Toj Mahal maqbarasi qurildi. Uning ijodkori bu dunyoning odami emas edi. 1628-yil Hindiston taxtiga o'tirgan shahzoda Xurram (taxtga chiqishda Shohjahon nomini oldi) turli me'moriy inshootlarni bunyoq qildi. Bo'lg'usi hukmdor bir kuni bozorda Mumtozbeginni (Arjumanbonu) ko'rib qoladi va unga uylanadi. Arjumanbonu o'n to'rtinchi o'g'lini tug'ayotgan paytda vafot qiladi. Shohjahon bilan Arjumanbonuning sevgisi samoviy sevgi edi. Chuqur qayg'uga tushgan Shohjahon rafiqasi uchun abadiy sevgi yodgorligini barpo qildi. Shohjahonning o'zi bino loyihasi chizdi. Maqbara qurilishida 20 ming kishi ishladi. Butun dunyodan olib kelingan qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar, marmar asosiy xomashyo bo'ldi. Bino devorlari Qur'oni Karimdan olingan so'zlar bilan bezaldi. Inshootning kirish peshtog'ini 22 minora bezab turadi. Maqbara ichida Arjumanbonu va Shohjahonning sog'onalari qo'yilgan. Hukmdor bino devorlarini Qur'oni Karimdan keltirilgan par-

chalar bilan yuksak mahorat bilan bezagan xattotni munosib taqdirlaydi. Shohjahon bu inshoot qurilishiga xazinadagi ulkan mablag'ni sarfladi va bino qarshisida yana bir shunday muhtasham inshoot barpo qilishni rejalashtiradi. Lekin xazinani bo'shab qolganidan qattiq tashfishga tushgan uning vorisi va amaldorlar Shohjahonga qarshi fitna yushtirib uni taxtdan tushiradilar. Maqbara qarshisidagi saroyga 20 yil uy qamog'ida umrini o'tkazib vafot etadi. Maqbarani ulkan bog' qurshab turgan. Lekin bu bog' inglizlar tomonidan yo'q qilinib, ingliz uslubida ko'kalam o'tloq bilan almashtirilgan. Ushbu bog' qat'iy reja asosida barpo qilingan. Bog'-saroylar qurilishi san'ati temuriylar uslubiga borib taqaladi. Temur va temuriy hukmdorlar mamlakatlarda bog'larni bir necha shakllarda bunyod qilish rejasini ishlab chiqib yuzlab bog'larni bunyod qilganlar.

Boburiy hukmdorlar ilm-fan taraqqiyotiga katta e'tibor berdilar. Sulola asoschisi Bobur Mirzo Amritsar shahri va Dehlida kutubxonalar uchun katta mablag' sarf qilib maxsus binolar qurdi va bu kutubxonalarda nodir qo'lyozmalarni to'pladi. Uning vorislari ham kutubxonalarni kitob jamg'armasini ko'paytirishni davom etdilar. Yuzlab tarjimonlar kutubxonalarda o'tirib yuzlab nodir qo'lyozmalarni tarjima qilib ko'paytirib xalqni e'tiboriga havola qildilar. Kutubxonalarda 52 ming jild kitob, 400 ming kitob to'plangan. Bu kutubxonalar ingliz mustamlakachilar davrida talon toroj qilindi. Gamil'ton nomli kimsa Boburiylar kutubxonalaridagi mingdan ortiq nodir qo'lyozmalarni terib olib, ularni ingliz kutubxonalariga juda qimmat narxlarda sotildi.

Boburiy Akbarshoh Hindistonda tolerantlik siyosatni yuritdi. Mamlakatning musulmon va hind aholisi o'rtasida barqaror do'stlik rishtasini bog'lash uchun hind va islom e'tiqodlarini birlashtirishga harakat qildi.

Osiyo mamlakatlari tarixini davrlashtirish. Osiyo mamlakatlari tarixini davrlashtirish Yevropa sivilizatsiyasini davrlashtirishdan farq qiladi. Osiyo sivilizatsiyasi tarixdan ma'lumki insoniyat sivilizatsiyasining beshigi hisoblanib, mil. avv. 4 ming yillikdan boshlangan. Bu sivilizatsiyani davrlashtirishda mezon bo'lib quldorlik jamiyatidan feodal jamiyatga o'tish rmas balki madaniyat taaqqiyotini mezon sifatida olish to'g'riroq bo'ladi. Chunki XIX asrda K. Marksning: "Osiyochoa ishlab-chiqarish" tushunchasi ham ishlab-chiqarish usuli asosida shakllantirilgan. Bundan tashqari Osiyoda hech qachon qulchilik ishlab-chiqarishda yetakchi rol o'ynamadi. O'ziga xos qurg'oqchil iqlim, sun;iy sugorishga asoslangan dehqonchilik iqtisodiyotning asosiy sohasi bo'lib qoldi.

Osiyo va Afrikani tarixini qiyidagi xronologiya asosida davrlashtirish mumkin: Ibtidoiy jamoa davri – insonni paydo bo'lishidan mil. Avv. IV ming yillikkacha bo'lgan davr; Ilk davlat va jamiyatlar davri mil. avv.

IV ming yillikdan - mil. avv. II asrgacha; Mil. avv. II asrdan XVII asrgacha. Bu davrda Osiyo mamlakatlarida davlat va jamiyatlar an'anaviy rivojlanishda davom etdi; XVII asrdan - XX asrgacha Yevropa bilan ziddiyatli munosabatlar davri va tushkinlik, Yevropa mustamlakachilik va unga qarshi kurash davri; Osiyo sivilizatsiyasi XX asrda - mustaqillik, tiklanish jarayonlari; Osiyo XXI asrning birinchi yigirma yilligida – yangi sivilizatsiyaning tug'ilish davri.

Yevropa tarixchilari Osiyoning qadimgi sivilizatsiyalar davridan keyingi taraqqiyotini Yevropa nuqtai nazaridan davrlashtiradilar. M.Dyakonovning fikricha, Xitoyda o'rta asrlarga o'tish II asrda, kichik Xan sulolasi davrida tugallandi. Eng boy yer egalari barcha dehqon xo'jaliklarini o'z homiyliklari ostiga olib, ulardan natural to'lovlarni undirib, ular uchun davlat solig'i to'lovini amalga oshirdilar. Dehqonlar shaxsiy qaram bo'lib qoldilar va yerga birlashtirilib, feodal sudiga buysunishga majbur edilar.

Ilk feodalizmning birinchi bosqichi uch podsholik davrida (220-280-yillar) mamlakat hududida uch davlat (Vey-shimolda, Shu-markaziy qismda va U-janubda) shakllandi. Er. avv. IV asrdan so'ng o'rta asr Xitoy sivilizatsiyasi shakllandi deb aytish mumkin.

Shu vaqtdan Xitoy lokal sivilizatsiyasining gullab-yashnash davri boshlanadi. Bu davrda antik jarayonlar jadallashdi. Markaziy Osiyo hududlaridan kelgan syunnu, sanbi, sian, szye, di qabilalari markaziy tekislikda tub joy Xitoy aholisi bilan aralashib ketdilar. Bu vaqtga kelib Xitoyning ikki asosiy shevasi shakllandi. Savdo va pul muomalasi jadal rivojlandi. XIII asrda bank cheklari kiritildi. IX asrda kitob bosish kashf qilindi.

Hindistonda o'rta asrga o'tish V-VIII asrlarni qamrab olgan. Qul mehnati ulushi kamaydi va bir qism qullar erkinlikka chiqdilar, lekin qaram bo'lib qoldilar. Ilgari erkin jamoachi dehqonlar endilikda feodalga qaram dehqonga aylandilar. Bir qism yerlar amaldorlarga davlat uchun ko'rsatgan xizmatlari uchun mukofot tarzida foydalanishga yoki meros qilib berildi. Jamiyatning feodallashuvida yirik yer-mulklarga va bu yerlarga birlashtirilgan dehqonlarga ega bo'lgan monastirlar muhim o'rin tutdilar. Hindistonning o'ziga xosligi shundaki, o'rta asrlarda va XX asrgacha toifaviy kasta tizimi ayrim o'zgarishlar bilan saqlanib qoldi.

Osiyo, Amerika va Afrika XIX asrgacha o'z an'naviy ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotlarida yashadilar. Faqat XIX asrdan bu hududlar Yevropaning bozor munosabatlariga asoslangan qonun-qoidalarni qabul qila boshladilar.

Yevropa tarixiy adabiyotida feodal, feodalizm iborasi va tushunchasi XVIII asrda kiritilgan. Sharq mamlakatlari tarixini o'rganishda bu iboralarni qo'llash tog'ri bo'ladimi? Yevropa adabiyotida ilk feodalizmga o'tish modeli Eron, Hindiston va Xitoyda kuzatiladi. Bu hududlarda

quldorlik munosabatlarining klassik ko‘rinishi shakllanmadi. Feodal munosabatlarning paydo bo‘lishi asta-sekin turli shakllarda amalga oshdi.

O‘rta Osiyoda feodalizmga o‘tish mil.avv. I asrda boshlanib, milodiy II asrida tugallangan. Hududda qulchilik qullar qatlam sifatida shakllanmadi. Xonaki qulchilik mavjud bo‘lgan. Bu paytda Parfiya, Kushon, Xorazm, So‘g‘d, Davon davlatlarida katta yer egaligi shakllana boshlaydi. Bu hududlarda yirik feodallarning mustahkamlangan qasr-qo‘rg‘onlari shakllanib, ularda qaram dehqonlar paydo bo‘ladi. Ammo erkin jamoachilarning yer egaligi bu hududlarda azaldan saqlanib qolgan.

Ilk feodal sivilizatsiyasining genezisining musulmon modeli VII asrda islom dinining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Islom dini Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikaning qator xalqlari tomonidan qabul qilinib, keng tarqaldi. VII asrda arablar Yaqin Sharq, Eron, Misr, O‘rta Osiyoni egalladilar. VIII asr boshlarida Janubiy Italiya, Sitsiliya, Korsika, Sardiniyani bosib oldilar. Arab istilolari natijasida ulkan musulmon davlati-xalifalik vujudga keldi.

Orta Osiyo uchun o‘rta asrlar qachondan boshlanadi degan savolga fanda hozirgacha aniq bir javob berilmagan. Ko‘rinishidan Orta Osiyo o‘rta asrlarga Yevropadan oldinroq milodiy birinchi asrlarda o‘tgan. Chunki Orta Osiyoda mavjud bo‘lgan Kushon, Parfiya davlatlarida yer egaligida asosan erkin jamoachi dehqonlar aholining ko‘pchiligini tashkil etgan. Katta yer egalari urug‘-qabila yo‘lboshchilari, boyib ketgan dehqonlardan iborat bo‘lgan. Bir qism yerlar jamoa ixtiyorida boshqa qismi davlat ixtiyorida bo‘lgan. Biz statistik ma‘lumotlarga ega bo‘lmaganimiz sababli Orta Osiyoda yer egaligining shakllari, miqdoriy ko‘rsatgichlari to‘g‘risida faqat faraz qilamiz xolos.

Takrorlash uchun savollar

1. Moxenjandaro sivilizatsiyasining asosiy yutuqlari nimada edi?
2. Oriylarning Hindistonga migratsiyasi qanday o‘zgqarishlarga olib keldi.Hind sivilizatsiyasini o‘rganish uchun asosiy manbalarni turkumlang
3. Boburiylar sulolasi davrida hind madaniyatidagi yutuqlarni ko‘rsating.
4. XX asr Hind sivilizatsiyasining mazmun mohiyatini tavsiflang

Mustaqil ish mavzulari

1. Qadimgi hind sivilizatsiyasining mazmun mohiyati
2. Qadimgi va o‘rta asrlar hind madaniyati
3. Yangi davrda Hindistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti.
4. K.Marksni Britaniyaning “Hindistonga mustamlakachiligi va uning oqibatlari” asarining mazmuni.

9-mavzu. Qadimgi Xitoy mil.avv. II -mil.avv. III asrgacha

1. Mamlakat va aholi 2. Xronologiya va davrlashtirish 3. Qadimgi Xitoy tarixi manbalari 4. Tarixnavislik, arxeologik topilmalar 5. Ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi, ilk davlatlarning shakllanishi 6. Mil. avv. VIII-III asrlarda Xitoy

Mamlakat va aholi. Xuanxe daryosi xitoy sivilizatsiyasining o‘chog‘i. Xuanxe hududida yomg‘irlar ko‘p bo‘lgani uchun sun‘iy sug‘orishga ehtiyoj bolmagan. Tuproq unumdor bo‘lgani uchun tosh davrida daryo vodiysida donli ekinlar ekilgan. Dehqonchilik mil. avv. I ming yillik o‘rtalaridan boshlab Yanszi daryosi havzasini ham qamrab oladi.

Mil. avv. IV-III ming yilliklarda Xuanxe havzasida Yanshao madaniyatini aborigen paleosiyo aholisini siqib chiqargan protosinotibetliklar yaratganlar. Mil. avv. I ming yillikda Xuanxening o‘rta oqimida inlar va chjoularning o‘zaro ta‘siri natijasida qadimgi Xitoy etnosi vujudga keladi. Bu etnosning shakllanishida janubda yashagan paleosiyo va austroosiyo Janubiy Osiyo tillarida so‘zlashuvchi (Tailand, Vetnam, Indoneziyadan kelgan) etnoslar ishtirok etganlar.

Qadimgi Xitoy tarixi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti asosida quyidagicha davrlashtiriladi:

Ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi va ilk davlatlarning vujudga kelishi (mil. avv. II ming yillik).

Mil. avv. VIII-III asrlarda qadimgi Xitoy.

Xitoyda birinchi markazlashgan davlat - Sin imperiyasi (mil. avv. 221-207-yillar).

Qadimgi Xitoy II-III asrlarda.

Mil. avv. IV-III ming yilliklarda Xuanxe daryosining o‘rta oqimida Yanshao madaniyati tipidagi neolit manzilgohlari vujudga kelgan. Dehqonchilik, cho‘chqa va it boqish asosiy mashg‘ulot bo‘lgan. Maxsus o‘choqlarda 1400 haroratda idish-tovoqlar toblanadi.

XIX asrning 70-yillarida Xitoyning shimoli-sharqida Lunshan madaniyati topiladi. Bu madaniyat mil. avv. XXIV-XVI asrlarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda kulolchilik charxi paydo bo‘ladi. Mil. avv. XVII-XIII asrlarda Xuanxe daryosining quyi oqimida yashagan in va sya qabilalar ilk davlat birlashmasini tashkil qilganlar. Inlarning yo‘lboshchisi (van) urug‘-qabila oqsoqollari yordami bilan davlatni boshqaradi. Rivoyatga ko‘ra qaram qabilalardan biri shan qabilasi yo‘lboshchisi Tan isyon

ko'tarib in yo'boshchi o'rniga van bo'ladi. U in va shan qabilalarini bir davlatga birlashtirgan.

Mil. avv. XII asrda yosh va kuchli chjoular davlati armiyasi zaiflashib borayotgan In davlatiga qarshi urush boshlaydi. O'zaro urushlar girdobida qolgan Shan-In davlati kuchli va yaxshi qurollangan chjou armiyasi hujumini qaytarishga ojiz bo'lgan. Mil. avv. 1027-yilda lashkarboshi U-van bosh chiligida chjou armiyasi hal qiluvchi jangda Shan-In armiyasini yanchib tashlaydi. Shu lahzadan Chjou sulolasi davri boshlanadi (mil. avv. XI-III asrlar). Chjoular davrining boshlanishida uning tarkibida 200-300 mahalliy hokimlik bor edi. Bu katta-kichik hokimliklar o'rtasida doimiy urushlar, to'qnashuvlar oddiy hol edi. Ular bosib olgan hududlarda nisbatan katta, lekin mustahkam bolmagan davlat birlashmasini tashkil qilganlar.

U-Vanning o'g'illari, qarindosh-urug'lari va ayrim zodagonlar katta yer-mulkarni, aholisi bilan merosga olib, berilgan mulkning hajmiga qarab yangi merosiy mulk egalarga eski In davlatida mavjud bo'lgan **gun, xou, bo, szi yoki nan martabalari berilgan (chjoxou)**. Chjoular-ga inlarga qarshi kurashda ittifoqdosh bo'lgan qabila yo'l boshchilari ham shunday merosiy mulk va martabalarga ega bo'lganlar. U-Vanning kichik o'g'illari ham «merosiy mulklar hokimlari» hisoblangan. Chjoular inlardan jez quyish san'ati, yozuv va ot-aravalarni o'zlashtirdilar Chjou davlati asoschisi U-Van vafotidan so'ng uning vorisi, ukasi Chjou Gun merosiy mulk egalarning o'zboshimchaliklariga qarshi kurashib, Van hokimiyatini mustahkamlash siyosatini yuritgan.

Chjou jamiyatida ijtimoiy qatlamlar qat'iy belgilangan tartibda yashagan. Chjou sulolasi davrida davrida jamiyat besh ijtimoiy qatlamga ajralgan:

1. Van - «odamlar orasida yagona» hukmdor turgan. 2. Chjou - merosiy hudud hokimlari, Chjou oliy aslzodalari. 3. Dafu - urug' qabila guruhlari boshliqlari. 4. In - katta oila boshliqlari. 5. Oddiy kishilar. Bu davrda ko'plab asirlar qul qilinadi.

Malum bir ijtimoiy qatlamga mansublik asosida kishi va oilasining turmush tarzi qat'iy belgilangan: kiyim; uyning hajmi, jihozlanishi, katta va kichiklarning darajasi bo'yicha o'zaro salomlashuvi, hatto qabrda o'tqaziladigan daraxt miqdori, marosimlar, kiyim, ovqat odamning ijtimoiy toifadagi o'rniga aniq mos kelishi kerak edi. Chjou jamiyati oqsuyaklar jamiyati bo'lgan. Oqsuyaklar oddiy xalqdan o'zlarini ajratganlar. Ular o'z shajaralari, merosiy an'analari asosida yopiq yashaganlar. Bu saylanma ijtimoiy qatlamga kirish oson bolmagan. Hatto tadbirkorlik bilan boyigan odam o'z ijtimoiy qatlamidan chetga chiqa olmagan. Hunar

va savdo oddiy odamlarning ishi hisoblangan. Oddiy xalq hududiy jamoalarga birlashgan. Yer umumiy egalikda hisoblanib, oilalar o'rtasida muntazam qayta taqsimlanishi kerak bo'lgan. Odatda, oilalar katta bolib, voyaga yetgan o'g'illar otaning hokimiyati ostida qolganlar, ota vafotidan keyin ham oila mulki bolinmagan.

Van hokimiyatining ilohiyligi Chjou qabilalarida eng oliy xudo osmon e'tiqodidan keltirib chiqarilgan. Chjou Vani osmon oliy ilohining o'gli deb e'lon qiladi. Van Osmon mamlakatida eng oliy mulkdor, boshqalar esa uning xizmatkori hisoblangan. Shu bilan birga, «Van Chjouni o'z xizmatkori deb hisoblaydi, Chjou o'z xizmatkori deb dafuni tan oladi, dafu inni o'z xizmatkori deb biladi» tushunchasi hukm surgan.

Mil. avv. VIII-III asrlarda Xitoy. Mil. avv. VIII asr boshlarida chjoularning Xuanxe daryosi yuqori oqimi havzasida yashagan jun qabilalari bilan to'qnashuvi kuchayadi. Jun qabilalari kelib chiqishi chjoularga qarindosh bo'lgan. Lekin ular turmush tarzi va xojalik yuritish shakli bilan bir-biridan farq qilgan. Chjou hukmdori Yuvan davrida (781 - 771-yillar) yarim ko'chmanchi junlar bilan hal qiluvchi to'qnashuv yuz beradi. Merosiy yer mulklarining egalari chjouxou (merosiy hudud hokimlari)larining mustaqillikka intilishi Van hokimiyatini zaiflashtirgan. Chjou Pixvan chjouxoular isyoni va junlar hujumini qaytara olmaydi. U poytaxt hududini tashlab ketishga majbur boladi. Chjou davlati hududlari keskin qisqaradi. G'arbdagi qo'shnilar tazyiqi ostida mil. avv. 770-yil poytaxt sharqqa - hozirgi Loyan hududiga ko'chiriladi. Shu sababli, Xitoy tarixida mil. avv. VIII-III asrlar Sharqiy Chjou davri deb ataladi. Junlardan mamlakatni himoya qila olmagani uchun hukmdor - vaning obro'-e'tibori tushib ketadi. Endilikda vaning hokimiyati zaiflashib, Chjou hokimlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga aralasha olmagan. Chjou hokimlari amalda mustaqil siyosat yurita boshlaydilar. Shu tarzda mil. avv. VIII asr oxirida Xitoyda o'zaro nizolar girdobida bo'lgan 150 ga yaqin mustaqil, yarim mustaqil davlatlar paydo boladi. Lekin ular mamlakatning an'anaviy birligi ramzi sifatida Chjou vani oliy hokimiyatini rasman tan olganlar.

Bu davrda ijtimoiy tabaqalanish murakkablashadi. Qullar va qaram aholining soni o'sadi. Temir qurollar paydo bolib, tovar-pul munosabatlari, aholi tez ko'payadi. Sun'iy sug'orish inshootlarini qurish avj oladi. Shahar hunarmandchiligi-savdo rivojlanib, tanga-pul paydo bo'lgan.

Van tomonidan yer-mulklar zodagonlar, harbiy larga taqsimlab beriladi. Yerga xususiy mulkchilik paydo bo'ladi. Oddiy xalq ichidan boy odamlar paydo bo'ladi. Qishloqda jamoachilik an'analari zaiflashib xususiy mulkchilikning roli o'sib boradi.

Mil. avv. VII asrdan chjoularning Xuanxening yuqori oqimidagi jun qabilalari bilan to'qnashuvi avj olgan. Ko'chmanchilar birlashib, chjoularga xavf tug'dirganlar va ular Chjou davlatlarining o'zaro urushlarida ishtirok etganlar. Bu davrda Xitoy hududida tili va madaniyati bilan Xitoy etnosidan farq qiladigan, rivojlanish darajasi va hududining kattaligi bilan o'rtalikdagi podsholiklardan qolishmaydigan mahalliy etnik asosda paydo bo'lgan besh qudratli davlatdan to'rttasi varvar davlatlari bo'lgan: shimoli-g'arbdagi Jun podsholigi - Sin, Yanszining o'rta oqimida Man podsholiklari - Chu va U, ular eng janubdagi etnik jihatdan olaquroq, vyetnamliklarning ajdodlariga qarindosh aholi yashagan Yue davlati bo'lgan. To'rt davlatdan faqat Sin podsholigi Sharqiy Chjou vanining hokimiyatini rasmiy tan olgan. Bu vaqtda mavjud bo'lgan 200 davlatdan o'ttizga yaqini qoladi. Ularning ichidan kuchli yetti davlat (Sin, Yan, Chu, Vey, Chjao, Xan, Si) ajralib chiqadi.

Xuanxening o'rta oqimi va Buyuk Xitoy tekisligidagi davlatlar o'zlarining madaniy an'analari birligi bilan boshqalardan ajralib turgan. Ularning barchasi Osmon o'g'li sifatida Chjou vanining diniy va oliy hokimiyatini rasman tan olganlar. Bu davlatlar hududida Xuasyao (Xitoy) etnosining madaniy-genetik birligining shakllanish jarayoni borgan. Mil. avv. I ming yillik o'rtalarida o'rtalikdagi podsholiklar (Chjungo) ning barqaror etnomadaniy- siyosiy jamlanmasi paydo boladi va ularning qolgan chekka «dunyoning to'rt iqlimi» varvarlaridan ustunligi tushunchasi shakllanadi.

O'rta podsholiklar qo'shni xalqlar bilan muntazam aloqada bo'ldilar. Bu aloqalar jarayonida xalqlarning assimilatsiyasi va murakkab o'zaro ta'siri yuz bergan. Jumladan, xuasyao (Xitoy) etnosining shakllanishida Xitoy tekisligida mil. avv. VII-VI asrlarda o'troqlashgan, sak-skif dunyosiga mansub Di qabilasi muhim o'rin tutadi. Kelib chiqishi sak qabilalaridan bo'lgan Di qabilasi Xitoy tekisligida o'z davlat va jamiyatini tashkil qiladi. Oq Di qabilalari Shimoliy Xitoyda ham o'zlarining yana bir davlatlarini tuzganlar. Di davlati qo'shni qabila-etnoslar bilan yaqin aloqada bo'lgan. XX asrning 70-yillarida o'tkazilgan arxeologik qazishmalarda bu vaqtda Oq Dilar tashkil qilgan Chjunshan Xebey podsholigining yuqori madaniy darajasi to'g'risida guvohlik beradigan ko'plab yodgorliklar ochilgan. Topilmalar ichida mil. avv. I ming yillik o'rtalaridagi jez quyma san'atining eng yaxshi badiiy namunalari mavjud. Jez qimmatbaho xomashyo bolib, undan diniy marosimlar uchun idishlar, ot-arava uchun jez bezaklar tayyorlangan.

Vanlar rivojlanmagan iqtisodiy sharoitda zodagonlarga xizmati uchun yer-mulk berganlar. Bunday yer-mulk vaqtinchalik foydalanishga

berilib, Van uni qaytarib olishi mumkin bo'lgan. Bunday yerlarni meros qilib qoldirish muntazam tus oladi. Mil. avv. VI asrdan Chjou merosiy mulk egalari bo'lgan urug' oqsuyak-zodagonlari Van hokimiyatiga jiddiy tahdid tug'dirganlar. Vanlar esa oqsuyak-zodagonlarning imtiyozlarini yo'q qilishga harakat qilganlar.

Jang aravalarining soniga ko'ra davlatlarning kuch-qudrati aniqlangan yoki baho berilgan. Xitoy jang aravasi o'z o'qi atrofida tez burilib, manyovr qilishga moslab yasalgan. Arava uchun otlar qo'shni Mo'g'ul-istondan olib kelingan. Mo'g'ul otlarining oyog'i kalta va bo'yni semiz bo'lgan. Aravaga qo'shiladigan otlar uzoq o'rgatilgan. Chjou qabilalari yo'l boshchisi bir vaqtning o'zida harbiy boshliq kohin vazifasini ham o'tagan.

Zodagonlar van qo'shinining zarbdor qismi bo'lgan jang aravalari egalari bo'lgan. Oqsuyak-zodagonlarning davlat hokimiyatini zaiflashtirishga urinishlariga qarshi Chjou vanlari zodagonlarga tegishli jang aravalari qismlarini tugatib, armiyani aholidan olinadigan piyodalardan tuzganlar. Jang aravalaridan mil. avv. III asrgacha foydalanilgan. Jang aravalaridan ko'ra otliq askarlar qismi samarali bo'lgan. Sin davrida ot-aravalar harbiy ishda faqat yuk tashishda foydalanilgan.

Mil. avv. VI-V asrlarda jamoa yerlarini qayta taqsimlash an'anasi tugaydi. Yer oilalarning mulkiga aylanadi. Jamoachilarning mulkiy taqabalanish jarayoni kuchaygan. Chunsyu davri oxirida xususiy qo'rg'on, bog'-polizlarni garovga qo'yish va begonalashtirish amaliyoti boshlanadi. Qarzi uchun qul qilish dastlab «o'g'il qilib olish» va «bolalarni garovga berish» shaklida bo'lgan. Qullarni belgilash uchun umumiy nom «nubey» so'zi paydo bo'ladi. Bu so'z keyingi asrlarda ham o'z ma'nosini saqlab qolgan.

Mil. avv. I ming yillik o'rtalaridan qadimgi Xitoy jamiyatiga tub o'zgarishlar davri kirib keladi. Temir quyishni o'zlashtirish dehqonchilik va hunarmandchilikning jadal rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratgan. Temir mehnat qurollaridan keng foydalanish yekin yerlarini kengayishiga olib kelgan. Xuanxe va Yanszining yuqori oqimida ilk suv inshootlari paydo boladi. Sun'iy sug'orish inshootlarini barpo qilish barcha daryo vodiylarini qamrab olgan. Sug'orma dehqonchilikning kengayishi kuchli davlatlarning daryo vodiylarini bosib olishiga olib keladi. Qishloq xojaligi va hunarmandchilikda bozorga yo'naltirilgan yirik xususiy xojaliklar paydo bo'lgan. Dehqonlarni yersizlanishi boshlanib, xususiy qulchilik kuchayadi.

Sin davlati mil. avv. X asrdan Chjou sulolasiga tobe davlat bo'lgan. Bu davlatning hududi Shensi viloyatining shimoli-g'arbi, Gansu va Si-

chuanning sharqiy qismini o‘z ichiga olgan. Xuanxening quyi oqimida joylashgan Si podsholigi O‘rta Xitoy tekisligida yetakchi davlatga aylanadi. Mil. avv. 650-yilda Chjou hokimlarining qurultoyida Si davlatining yetakchiligi rasmiy e‘lon qilingan. Si davlati Xuan-gu (mil. avv. 685 - 643-y) vafotidan so‘ng zaiflashadi. Uning o‘rniga boshqa bir Szin davlati hukmdor Ven-gun (mil. avv. 636 - 628-y.) davrida kuchayib ketgan. Mil. avv. VII asr oxirida Xuanxe daryosining o‘rta oqimida joylashgan Di qabilalari Szin qo‘shinlari tomonidan tor- mor qilinadi. Szin davlati bu vaqtda boshqa bir Chu davlat bilan raqobatga kirishadi. Boshda Chu davlatining qoli baland keladi, faqat mil. avv. 575-yilda Szin davlati Chu qo‘shinlari ustidan g‘alaba qozonadi.

Mil. avv. V asrda 7 davlat Xitoyda yetakchilik ucnun kurash olib borganlar. Bu vaqtda Xitoyning shimoli-g‘arbida - Sin davlati, Shandun yarimorolida - Si, janubda - Chu, shimoli-sharqda - Yan, Xuanxening o‘rta oqimida - Xan, Chjao va Vey davlatlari bo‘lgan. Uzoq davom etgan o‘zaro urushlardan keyin bu davlatlar ichidan Sin davlati g‘olib chiqqan.

Mil. avv. V asrning ikkinchi yarmidan - III asrgacha Xitoyning «yetti qudratli» davlatlaridan uchtasi - shimoli-sharqiy Yan, Chu va Sin xuasyao (xitoy etnosi)ga mansub bolmagan. Chu davlati Yanszi o‘rta oqimida joylashgan bolib, asta-sekin kuchaygan. Uning hokimi mil. avv. 704-yilda butun Chjou Xitoyi oliy hukmdorlariga tegishli bo‘lgan Van unvonini qabul qiladi. Temirdan mehnat qurollari ishlab chiqish, sugorish inshootlarini qurish keng yolga qo‘yiladi. Chu davlati tajovuzkor tashqi siyosat olib borib, 45 ta kichik davlatchani bosib olib mil. avv. V-III asrlarda eng katta va eng ko‘p aholiga ega bo‘lgan davlatga aylanadi.

Mil. avv. V asr boshlarida Yanszi daryosining quyi oqimida joylashgan U va Yue davlatlari o‘rtasida kurash boshlangan. U qo‘shinlari jangda Yuey qo‘shini ustidan g‘alabaga erishadi va shimolga yurish qilib, Su, Lu va Sun davlatlarini qaram qiladi va mil. avv. 482-yilda U davlatining yetakchiligi tan olinadi. Lekin taxminan 10 yildan so‘ng Yuey o‘z raqibini tiz cho‘ktiradi va shimoliy davlatlarning ko‘pchiligini bo‘ysundiradi. Mil. avv. 403-yilda Szin davlati 3 mustaqil Chjao va Xan davlatlariga bolinib ketadi.

Mil. avv. 359 - 348-yillarda Sin podsholigida vazir Shan Yan islohotlar o‘tkazadi. Bu islohotlarning maqsadi siyosiy markazlashtirish, mamlakatni ma‘muriy-hududiy qayta qurish, kuchayib ketgan urug‘ zodagonlarining qudratiga chek qo‘yish va urug‘-jamoalari ichida ijtimoiy tabaqalanish jarayoni natijasida jamoaning o‘zgarishi bilan soliq tizimini tartibga solish bo‘lgan. Shan Yan butun mamlakat miqyosida yagona qonunchilik va sud tizimini joriy qilgan. Garov va yer sotish ishlari qonunlashtirilgan.

Yer ulushining hajmi cheklanishini bekor qiladi. Bo'sh yotgan yerlarga boshqa viloyatlardan dehqonlar ko'chirib keltirilgan.

Dehqonchilik, hunarmandchilik va savdoni pivojlantirish uchun hukumat rag'batlantirish va davlat tomonidan ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlarga qarz berish yo'lga qo'yiladi. Soliq tizimi isloh qilinib, hosildan emas, yerning hajmiga ko'ra soliq belgilangan. Eski merosiy unvonlar bekor qilinadi. Shan Yan qo'shinda zodagonlarning harbiy qudrati asosi bo'lgan jang aravalarini tez harakat qiladigan otliq qo'shin bilan almashtirgan. Jez qurollar o'rnini temir qurollar egallaydi. Qurol tayyorlash huquqiga faqat davlat ega boladi. Sin qo'shinining jangovar qobiliyati o'sadi. Bu islohotlar natijasida Sin davlati kuchayib ketadi.

Xitoy tarixida ilk bor yerga xususiy mulkchilik huquqi qonunlashtiriladi. Yerning oldi-sotdisiga ruxsat beriladi. Katta patriarxal oilalar voyaga yetgan o'g'illar soniga qarab 2-3 barobar ko'p soliq to'lashlari kerak edi. Shu tarzda xazina boyigan, oilalar bo'lingan. Davlatning butun hududi okruglarga, okruglar tumanlarga bo'lingan. Hududlar tarixiy shakllangan chegaralarni hisobga olmay tuziladi. Bu mahalliy oqsuyaklar hokimiyatining zaiflashuviga olib keladi. Quyi ma'muriy bo'linish bir-birining kafolatini olgan 5-10 kishidan iborat guruhgacha bo'lingan. Bunday guruh a'zolaridan birining qilmishi uchun barcha jazolangan. Kafillikka olish harbiy bo'linmalarda ham mavjud bo'lgan. Qonunni har qanday buzish qattiq jazolangan. Xazinani to'ldirish uchun ayrim xo'jalik sohalari davlat monopoliyasiga aylantiriladi (tuz qazib chiqarish). Qo'riq yerlarga ishlov berila boshlanadi.

Shan Yan ijtimoiy faollikni rag'batlantiradi. Zodagonlarning yangi darajasi (rangi) ularning davlatga shaxsiy, birinchi navbatda, harbiy xizmatlari uchun beriladigan bo'lgan. Zodagonlikning 20 darajasi huzur-halovatda yashashga kafolat bermagan. Agar kimdir harbiy xizmatni o'tamagan bo'lsa, zodagonlik darajasi tortib olingan. Aksincha, davlatga harbiy xizmat ko'rsatgan oddiy odamga zodagonlik darajasi berilgan. Natijada davlat xizmatiga qobiliyatli odamlarning kelishiga yo'l ochilgan. Zodagonlarga shaxsiy qobiliyatiga qarab ma'muriy lavozimlarni egallash huquqi beriladi. Bunday mavqega ega bo'lganlar tegishli miqdorda belgilangan yer-mulk, qullarga ega bo'lish huquqiga ega bo'lganlar.

Islohotchi vazir keyinchalik davlat xazinasini to'ldirish uchun zodagonlik darajasini sota boshlaydi. Bu katta boylikka ega zodagonlarga hokimiyatda yuqori lavozimlarni egallashlari uchun yo'l ochadi. Shan Yan biroz vaqt o'tib, jinoyatda ayblanib, qatl qilinadi. Lekin uning islohotlari natijasida mamlakat iqtisodiyoti rivojlanib, davlat xazinasiga soliq tushumi ko'payadi. Sin siyosiy-iqtisodiy jihatdan boshqa qo'shni

davlatlar orasida kuchli davlatga aylanadi. Mil. avv. IV asrda qolgan boshqa davlatlarda ham markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlashga qaratilgan, ijtimoiy-iqtisodiy hayotni barqaror qiladigan bir qator islohotlar oʻtkaziladi.

1. Sin sulolasi davri (mil. avv. 221 - 207-yillar) 2. Xan sulolasi boshqaruvi (mil. avv. III asrning oxiri - milodiy III asr)

Sin sulolasi davri (mil. avv. 221 - 207-yillar). Amaldor Shan Yaning islohoti natijasida Sin davlati qudratli davlatga aylanadi. Qoʻshni **davlatlar** kuchayib borayotgan Sin davlatiga qarshi tura olmaydilar. Sin davlati qoʻshni davlatlarning yerlarini bosib oladi. Sindavlatining ekspansiyasidan qoʻrqib qolgan qoʻshni davlatlar Sin davlatiga qarshi ittifoq tuzadilar. Sin davlati ittifoqchi davlatlar Xan, Chjao, Vey va Si va ularning ittifoqchisi Syun qabilalarining birlashgan armiyasini yanchib tashlaydilar.

Mil. avv. 246-yil Chjuan Syan-vanning 13 yoshli In Chjen Sin davlati taxtiga chiqadi. Mil. avv. 238-yil yosh podsho In Chjen oʻz hokimiyatiga qarshi fitnani bostirib, hokimiyatni mustahkamlaydi. Shundan soʻng tez orada In Chjen qoʻshni davlatlarga qarshi istilochilik urushlarini boshlaydi. Mil. avv. 230-yil asosiy raqib boʻlgan Xan podsholigi hududini toʻla bosib oladi. Mil. avv. 228 - 221-yillar oraligʻida Chjao Vey, Chu va Yan podsholiklari bosib olingan. Mil. avv. 221-yil Shan- dun yarim orolidagi soʻnggi mustaqil Si podsholigi ham bosib olinadi.

Xitoy tarixida ilk bor mamlakat yagona davlatga birlashtiriladi. Sin davlatining poytaxti Syanyan Umumxitoy davlati poytaxti deb eʼlon qilinadi. Sin vani 28 yoshli In Chjen Sin Shi Xuandi («Sin sulolasining birinchi imperatori») unvonini qabul qiladi. U «Bizning avlodimiz vorislik tartibiga koʻra, Ershi («Ikkinchi»), Sanshi («uchinchi») va toki oʻn minglab avlodlargacha ular abadiy merosxoʻr boladilar», deb oʻz farmonida tantanali eʼlon qiladi.

Sin Shi Xuandi bosqinchilik yurishlarini davom ettirib, shimolga hozirgi ichki Mongoliyada yashagan qadimgi xitoylar syunnu deb atagan qabilalarga qarshi hujum boshlaydi. Syunnu qabilalari koʻchmanchi chorvadorlar Inshan va Ordos hududlarida koʻchib yurganlar. Ular Xu- anxe havzasidan siqib chiqariladi. Xitoy qoʻshinlari Janubiy Xitoy va Shimoliy Vyetnamga yurish qiladi. Qoʻshin bu yurishda juda katta talafot koʻrgan. Qadimgi Vyetnamning Namyue (Namvyet) va Oulo (Aulak) davlatlari rasman boʻysundiriladi, xolos. Sin davlatining poytaxti Chyan- yan imperiya poytaxtiga aylantirilgan.

Sin Shi Xuandi butun mamlakat boshqaruvida Shan Yan koʻrsatmalarini yuritadi. Sin hududi zodagonlari imtiyozli mavqega ega bolib,

barcha davlat lavozimlarini egallab olganlar. Iyeroglif yozuv unifikatsiya qilinib, soddalashtiriladi. Barcha to'la huquqli erkin fuqaro uchun qonun bilan «qoraboshlar» nomi belgilanadi. Qullar bozori tashkil etiladi.

Mamlakat hududi 36 yirik ma'muriy okrug (szyun)ga bolindi. Har bir okrug uyezdlar (szyan)ga, uyezdlar volostlar (szyan)ga, volostlar esa bir necha jamoa (li)dan iborat edi. Okrug boshlig'i (szyun shou) va okrug qo'shin boshlig'i (szyun vey) imperator tomonidan tayinlangan. Okrug boshlig'i uyezd boshlig'i va ularning o'rinbosarlarini tayinlagan. Har ikki lavozimga bir xil miqdorda maosh berilgan. Jamoa oqsoqollari (fulao yoki sanlao) saylab qo'yilgan. Imperatorning ikki maslahatchisi (chensyan) bolib, ular markaziy davlat apparatini boshqarib, imperatorning barcha farmonlarini hayotga tatbiq qilishga mas'ul bo'lganlar.

Markazlashgan davlat apparati harbiy, moliya, sud, imperator oilasi bolimi va inspeksiya nazorat bolimlaridan tashkil topgan. Harbiy ishni barcha qo'shinlarning qo'mondoni (tayvey) boshqargan. Tayveyga okrug harbiy boshliqlari bo'ysungan. Moliya boshqarmasi boshlig'i Chjisuneyshi deb atalgan. Sud boshqarmasi boshlig'i - tinveyning vakolatiga jinoyatchilikka tegishli qonunlarni bajarish va nazorat qilish kirgan. Imperator oilasi bolimi boshlig'i (shaofu) imperator oilasi shaxsiy ehtiyojlarining ta'minoti bilan shug'ullangan.

Qat'iy markazlashgan davlat boshqaruvining eng quyi bo'g'inida jamoa oqsoqollari turgan. Davlat hokimiyati jamiyat hayotining barcha sohalarini qat'iy tizimga solgan. Aholidan barcha qurollar tortib olinib, ulardan qo'ng'iroqlar quyiladi. Mamlakat bo'yicha yozuv, pul, tanga, o'lchov birliklari, yo'llarning kengligi va aravalarning o'lchami unifikatsiya qilinadi. Beqiyos shafqatsiz ruhda bo'lgan yagona qonunchilik tizimi joriy qilinadi. Jinoyati uchun butun oila jazolangan. O'lim jazosi barcha ayblar uchun qo'llanilgan. Jinoyatchilar ommaviy ravishda katorga ishlariga surgun qilingan.

Mafkura ham bir xil qilinadi; xususiy maktablar taqiqlanadi; ta'lim davlat tasarrufiga o'tadi. Eskilik to'g'risida fikrlash jinoyat deb qaralgan. Konfutsiy kitoblari yoqilib, 460 olim hukmdor farmoni bilan tiriklay yerga ko'milgan. Odamlar Sin davridan oldingi davrlarni xotirasidan chiqarishi uchun Sin podsholidan oldingi davrda yozilgan asarlarning yo'q qilinishiga buyruq berilgan. Qadimiyatga e'tiqod qilganlari uchun yuzlab Konfutsiy ta'limoti muxlislari, olimlar jismoniy yo'q qilingan.

Butun Xitoy aholisi og'ir mehnatga duchor qilinadi. Misli ko'ril-magan qurilish ishlari amalga oshirilgan: shimoldan xunnlardan himoya vositasi bo'lgan 5 ming km uzunlikdagi Buyuk Xitoy devorini bunyod

qilishga kirishiladi. Uzoq davom etgan istilochilik urushlari, Buyuk Xitoy devori, sug'orish inshootlarining qurilishi, yo'llar, saroylar, ibodatxonalar, maqbaralar va shaharlar qurilishi ulkan xarajatlar, yuz minglab odamlarni qurbon qilish evaziga amalga oshiriladi.

Sin Shi Xuandi keng istilochilik urushlarini olib borgan. Shimolda 300 ming kishilik Xitoy qo'shini xunnlarga zarba beradi. Janubiy Xitoy va Shimoliy Vyetnamni bosib olish uchun urush olib boriladi. Xitoy qo'shini ulkan yo'qotishlar evaziga qadimgi Vetnamning Namvyet va Aulak davlatlarini rasman bo'ysundiradi.

Poytaxtda imperator o'zi uchun bir necha o'nlab saroylarni qurib, ularni bir-biri bilan maxfiy yer osti yo'llari bilan bog'laydi. Sin Shi Xuandi o'ziga qarshi suiqasdlardan qo'rqib, o'zining har kecha qaysi saroyda tunashini qat'iy sir saqlagan. Epon imperator saroyi va tog' qoyatoshida o'yib qurilgan imperator sag'anasida o'rtacha odam bo'yi balandligida bo'lgan 6 ming jangchi haykallari joylashtirilgan. Bu askarlar u dunyoda hukmdorning xavfsizligini ta'minlaydigan soqchilar qismi bo'lgan. Sima Syanning ma'lumotiga ko'ra, hukmdor sag'ananing joylashgan joyi maxfiy qolishi uchun uning quruvchilari oldirilgan. Xitoyning barcha hududlari aholisi bu qurilishlarga majburan, zo'ravonlik bilan haydab kelinadi. Hukmdorning harbiy yurishlari, ulkan qurilish ishlari katta sarf-xarajat va ko'p sonli ishchi kuchini talab qilgan. Mamlakat aholisining asosiy qismini tashkil etgan dehqonlardan olinadigan soliq hosilning uchdan ikki qismini tashkil etgan. Bundan tashqari, harbiy va mehnat majburiyatlari ham dehqonlarning tinkasini quritgan. Oddiy bir aybi uchun odamlar shafqatsiz jazolangan. Xalq ommasi qashshoqlashib, hech vaqosiz qolgan. mil. avv. 210-yil 48 yoshida to'satdan vafot etadi. Bu sulolaning oxirgi vakili Sin Shi Xuanding vorisi «Sinning ikkinchi hukmdori» deb atalgan o'g'li taxtga chiqqan. Birinchi bo'lib sobiq Chu davlati hududi aholisi qo'zg'olon ko'targan va mamlakatning boshqa hududlari ham qo'zg'olonchilarga qo'shiladi, hukumatning ba'zi harbiy qismlari ham qo'zg'olonchilar tarafiga o'tadi. Chen shahri egallangach, qo'zg'olon rahbarlaridan biri Chen Shen podsho deb e'lon qilinadi. Qo'zg'olonga o'z manfaatlarini ko'zlagan eski zodagonlar ham qo'shilganlar. Qo'zg'olonchilarning bir guruhiga rahbarlik qilgan kichik amaldor Lyu Ban mil. avv. 207-yilda imperiyaning poytaxti Syanyanga boradigan muhim yo'lni bosib olib, hukumatning qoldiq qo'shinlarini mag'lub etadi va poytaxtni egallaydi. Lyu Ban xalq harakati kuchlarini birlashtiradi. Harbiy ishga Sin hokimiyatining dushmanlari bo'lgan merosiy zodagonlarni" jalb qiladi va Sin sulolasini hokimiyatdan mahrum qiladi.

Lyu Ban Xanshuy daryosining yuqori oqimidagi viloyatni egallab, «Xan vani» deb nom oladi, qo‘zg‘olonchilarning boshqa guruhi boshlig‘i Syan Yuy «Chu vani» bo‘lgan Mamlakat hududi qo‘zg‘olon boshliqlari tomonidan bolib olingan. Tez orada sobiq ittifoqchilar o‘rtasida hokimiyat uchun kurash boshlanadi. Mil. avv. 202-yilda Gaysya yonidagi jangda Lyu Ban g‘alaba qiladi. Golib Lyu Ban Szu nomi bilan taxtga chiqib, mil. avv. 202-yilda yangi Xan sulolasini boshlab beradi. Xan davlati Xitoy tarixida muhim iz qoldiradi. «Xanlik» etnonimi qadimgi xitoyliklar nomi bolib qolgan.

Xan sulolasi boshqaruvi (mil. avv. III asrning oxiri milodiy III asr). Mil. avv. 202-yilda Lyu Ban Gao-szi nomi bilan imperator deb e‘lon qilinadi (mil. avv. 202 - 195-yillar) va u shu tarzda yangi Xan sulolasi asoschisi bo‘lgan. Xan sulolasi davri (mil. avv. 202-yildan - milodiy 220-yillar) qadimgi Xitoy xalqi shakllanishining muhim bosqichidir. 400 yil davom etgan bu davr Xitoy davlati tarixida muhim o‘rin titgani uchun shu davrdan boshlab xitoyliklar o‘zlarini xan - etnik nomi bilan atay boshladilar. Xan davri ikki bosqichga bolinadi: Katta Xan (yoki ilk Xan) davri mil. avv. 202-yildan - milodiy 8-yilgacha va Kichik Xan (yoki so‘nggi Xan) milodiy 25-yildan 220-yilgacha.

Yangi sulola Sin sulolasi davri qonunlarini bekor qiladi, lekin Sin ma‘muriy bolinishi va boshqaruv tizimi hamda boshqa hayotda o‘z o‘rnini topgan iqtisodiy tartib-qoidalar saqlab qolinadi. Lekin mavjud siyosiy vaziyat Luyu Banni markazlashuv tamoyilidan chekinishga majbur qiladi, u bir qism yerlarni o‘z safdoshlariga mulk qilib berishga majbur qilgan. Qo‘zg‘olonchilarning boshliqlari yangi sulolani hokimiyatga keltirib, o‘zlarini mamlakatning haqiqiy xojayinlari deb his qilganlar. Sin sulolasiga qarshi kurashgan katta harbiy boshliqlardan yettitasi ba‘zi sobiq podsholiklar hududida o‘rnashib, o‘zlarini «van» deb e‘lon qilganlar. Shundan so‘ng Gao-szuning 130 safdoshi merosiy mulk olib, xou deb atalib, oliy zodagonlarga aylanganlar. Lyu Banning vorislari uchun bu yangi zodagonlar va vanlarning separat harakatlariga qarshi kurash eng birinchi ichki siyosiy muammo bo‘lgan.

Vanlar o‘z hududlarida o‘z hokimiyat organlariga ega bolib, amaldorlarni ishga qo‘yish va bo‘shatish (bosh vazirdan tashqari), aholidan soliq yig‘ish va o‘zlari zarur deb topgan majburiyatlar tizimini joriy qilishlari mumkin edi. O‘zlari tanga-pul zarb qilib, qo‘shinga ega bo‘lganlar. O‘zlari egalik qilgan hududlarni katta o‘g‘illariga meros qilib qoldirganlar. Markaziy hokimiyatni nazar-pisand qilmaganlar. Davlat xazinasi bo‘shab qolgan. Gao-szuning o‘limidan (mil. avv. 195-y.) so‘ng mam-

lakatda separat kayfiyatlar yanada kuchayadi. U podsholigi hokimi Lyi Bi o'z tangasini zarb qilgan, uning hududida 50 shahar, o'sha davrda eng qimmatli mahsulot hisoblangan tuz qazib olinadigan konlari bo'lgan. Lyi Bi aholini o'ziga moyil qilish uchun o'z hududida soliqlarni bekor qiladi. Mil. avv. 154-yilda Lyi Bi boshqa 6 merosiy hokim bilan birlashib, markaziy hokimiyatga qarshi urush boshlaydi. Lyi Bi 200 ming qo'shin bilan poytaxtga yurish boshlaydi. «Yetti vanning isyoni» deb atalgan isyon tola mag'lubiyat bilan tugaydi. Imperator Szindi hududlarda merosiy hokimlarni amaldorlarni lavozimga tayinlash huquqidan mahrum qiladi va ularni o'z qo'shinlariga ega bo'lishni ham taqiqlaydi. Lekin vanlarning kuchi faqat imperator U-di davrida (mil. avv. 140-87-yillar) tola sindiriladi.

Imperator Gao-szu (Lyu Ban, mil. avv. 202 - 195-yillar) xalqning ahvolini yengillashtiradigan tadbirlarni amalga oshiradi. Qarzi uchun qul qilinganlar qullikdan ozod qilinganlar. Jamoalarga vaqtinchalik imtiyozlar beriladi. Soliqlar Sin davridagidan 10 marta kamaytirilib, hosilning 1/15 qismini tashkil etgan. Syao Ven-di (mil. avv. 180 - 165-yillar) hukmronligi davrida xalqning ahvolini yanada yengillashtiradi. U saroy xarajatlarini qisqartirib, dehqonlardan olinadigan yer solig'ini kamaytiradi. Qarindoshining jinoyati uchun jazolash, imperatorni haqorat qilgani uchun jazo berish bekor qilinadi.

Xitoy iqtisodiyotining asosi bo'lgan dehqonchilikda asosiy ishlab-chiqaruvchilar dehqon jamoachilar edi. Dehqon jamoachilar yer solig'i (hosilning 1\15, 1\30 qismi), jon solig'i, xo'jalikdan olinadigan pul soliqlariga tortilganlar. Erkaklar mehnat majburiyati (yilda bir oy, uch yil davomida), harbiy (2 yillik armiya va har yili 3 kunlik garnizon xizmati) majburiyatini o'taganlar. Xan davrida hunarmandchilik va savdo sohasi rivojlanadi. Poytaxt Chanyan va Linszi shaharlarida yarim milliongacha, boshqa ko'pgina shaharlarda 50 mingdan ortiq aholi yashar edi. Shaharlar o'z-o'zini boshqarish organlariga ega edilar. Qullar ko'p sonli bo'lib, dehqonchilik va hunarmandchilikda hamda davlat xo'jaligida qul mehnatidan keng foydalanilgan. Har bir sha harda qul bozori mavjud bo'lgan. Mil. avv. II asrda Sariq dengizdan boshlanib, O'rtayer dengizigacha borgan Buyuk Ipak yoli shakllangan.

U-di davri (mil. avv. 140 - 87-yillar) qadimgi Xitoy ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotining eng yuqori cho'qqisi boladi. U-di podshoning mutlaq hokimiyatini kuchaytirish, markazlashtirish siyosatini olib boradi. Vanlar va oqsuyak-zodagonlarga meros mulkni faqat katta o'gli emas, balki barcha o'g'illari o'rtasida taqsimlash joriy etiladi. Natijada merosiy

mulklarning hajmi keskin qisqarib, ular amalda hokimiyatdan mahrum boʻlganlar. Markaziy davlat apparati mustahkamlanadi. Mamlakat hududi 14 okrugga bolingan. Okrug amaldorlari faoliyatini nazorat qiladigan nazorat inspektori lavozimi qayta tiklanadi. Okrug boshliqlari tomonidan amaldorlik vazifasiga qobiliyatli kishilarni muntazam tavsiya etish tizimi joriy qilinadi. Maʼmuriy mansablarni egallash uchun davlat imtihonlari tizimi joriy qilinadi. Hukmdorning birinchi maslahatchisining vakolat doirasi cheklanadi. Hukmdor devonxonasi tashkil etilib, markaziy hokimiyat hududlarning boshqarish tizimlari faoliyatini nazorat qilish imkoniyatiga ega boladi. U-di va Lyu Che davrida konfutsiylikni davlatning rasmiy mafkurasiga aylanish jarayoni tugallangan.

Xitoy azaldan oʻzining shimoliy qoʻshnisi xunnlarni oʻz hududlaridan toʻla siqib chiqarish maqsadini qoʻydi va uzoq yillar harbiy kuch toʻpladi. Mil. avv. 214-yilda Sin Shi Xuandining 300 ming kishilik qoʻshini xunnlarga qarshi urushib, ularni Inshan togʻ etaklari va Xuanxe daryosi vodiysidagi oʻtloq yaylovlardan mahrum qilib, shimoliy chegara Xitoy devorini bunyod qiladi. Ammo Xitoyning bu gʻalabasi vaqtinchalik edi. Mil. avv. 200-yilda xunlar xitoy qoʻshinlarini tola yanchib tashlab, Xitoy «Tinchlik va qon-qarindoshlik» shartnomasini imzolashga majbur qildilar. Shartnomaga koʻra, xunlar hukmdori Xitoy malikasiga uylanishi va har yili xitoyliklar sovgʻa-salom (olpon) joʻnatishlari kelishib olingan.

Xan davlati Mode boshchiligida kuchayib ketgan xunnlarga qarshi turli diplomatik oʻyinlarni olib bordi. Xitoy xunn qabila-uruglari oʻrtasida nizolar keltirib chiqarish, xunnlarga qoʻshni qabila-xalqlarni xunnlarga qarshi gij-gijladi. U-di tez harakat qiladigan otliq qismlarini tuzib, xitoyliklar xunnlarning jang taktikasini oʻrgandi va ularga qarshi mil. avv. 127-129-yillardagi xunnlarga urushda gʻalaba qildi. Xunlar Xitoy devori atrofidagi hududlardan siqib chiqarildi.

Xunlar bilan urush yillarida Xitoy hozirgi Sinszyan (Sharqiy Turkiston) va Oʻrta Osiyo bilan ilk aloqalarni oʻrnatadi. U-di mil. avv. 139-yilda oʻz elchisi Chjan Syanni Oʻrta Osiyo («Gʻarbiy olka»)ga yuborgan. Elchi 10 yildan soʻng Xitoyga qaytib keladi. Xitoyliklar Fargʻona, Baqtriya va Parfiya toʻgʻrisida bilimga ega boldilar va bu mamlakatlar bilan aloqa oʻrnatadilar. Ana shu vaqtda Xitoy Oʻrta Osiyodan uzum, poliz ekinlari, musiqa asboblari, idish-ovoqlarni oʻzlashtirib olgan. Xitoy Hindistonga boradigan yolda Yuanyan va Sichuanni mil. avv. 109-yil Koreya yarim orolidagi Choson davlatini bosib oladi.

U-dining hukmdorlik yillari qadimgi Xitoy tarixida «oltin davr» hi-

soblanadi. Xan davrida qullarning soni oshadi. Xususiy, davlat qullari, qarz uchun qul qilingan qullar mavjud bo'lgan. Manbalar bu davrdagi yirik quldor xojaliklari, qul bozorlari to'g'risida ma'lumot beradi. Mil. avv. II-I asrlarda xalqning iqtisodiy ahvoli yanada og'irlashgan. Yer va boshqa boyliklar oldi-sottisi keng tus oladi. Qarzi uchun o'zi va oila a'zolarini qul qilish yanada rivojlangan. Yer katta yer egalari qolida to'plana boshlaydi. Qaram dehqonlar ko'payadi. Yer uchun ijara haqi juda yuqorilab ketadi. Yollanma mehnat keng tarqaladi.

Milodiy I asr boshida Xitoyda ijtimoiy ziddiyatlar keskinlashadi. Markaziy davlat hokimiyati zaiflashadi. Katta yer egalari davlat yerlari, jamoa yerlarini bosib oladilar. Van xonadonidan bo'lgan, Xan imperiyasida oliy amaldor bo'lgan Van Man (Szyuy Szyun (mil.avv 45 - milodiy 23-yillar) milodiy 8-yilda davlat to'ntarilishi qilib, o'zini hukmdor deb e'lon qiladi. Bu vaqtda dehqonlarning yersizlanishi kuchayib, katta-katta yer maydonlari boy zodagonlar qolida to'planib qolgan edi. Van Man barcha yerlarni imperator mulki deb e'lon qilib, yer sotishni taqiqladi. Qul savdosi ham taqiqlanadi. Xususiy quldordagi qullarning ahvoli yengillashtiriladi va ular «xususiy qaram» (sishu) deb e'lon qilingan. Ammo bu islohotlar amalga oshmaydi. Shandun viloyatida milodiy 18-yilda «Qizilqoshlilar» xalq harakati boshlanib, poytaxt Chanyan egallanib, Van Man o'ldiriladi. Hukmron tabaqa xalq harakatining uyushmaganidan foydalanib, tashabbusni o'z qoliga olgan.

Kichik xan davri. Xan sulolasining kichik vakili Guan Udini (mil. 25 - 57-yil) imperator deb e'lon qiladi. «Qizilqoshlilar» qo'zg'oloni 29-yil bostirilgan, yangi imperator qullarni tamg'alash, qulning xo'jayin tomonidan o'ldirilishini taqiqlovchi qonunlarni e'lon qiladi, qulchilikni cheklovchi, xalqning ahvolini yengillashtiruvchi tadbirlarni amalga oshiradi. Shimoliy Vyetnamda opa-singil boshchiligida Xitoyga qarshi xalq ozodlik harakati boshlanib, bu harakat 44-yilda zo'rg'a bostiriladi.

Xunn davlati. Xunnlr mil. avv. IV asrda 24 urug'dan tashkil topgan kuchli davlatni tashkil etganlar. Xunn hukmdori Shanyu hokimiyati umrbod bo'lgan. Bu davlat bir necha yuz yil davomida o'z aholisi ko'chmanchi chorvadorlar manfaatini ko'zlab siyosat yuritib, yalov va o'tloqlar xavfsizligini ta'minlaydi. Mil. avv. 214-yilda Xitoy hukmdori Sin Shi Xuandi xunnlarni bir qism hududidan mahrum qiladi. Shanyuy Tuman qarshilik ko'rsata olmagan. Tuman o'zining katta o'g'li Modeni taxt vorisligidan chetlatish va taxtni o'zining suyuqli joriyasidan bo'lgan kichik o'g'liga qoldirishga uringan. Katta o'g'li Modedan qutulish uchun uni qo'shni yue-

jilarga o‘zaro tinchlikni saqlash kafolati sifatida garovga beradi. Yuejilar Modeni o‘ldirishlari uchun Tuman ularning ustiga bosqin qilgan.

Lekin yuejilar Modeni o‘ldirishga ulgurmaydilar, Mode dushman yurtidan eson-omon chiqib ketishga erishadi va o‘z yurtiga qaytadi. Xunlar jasur va qonuniy jihatdan har tomonlama vorislik huquqiga ega bo‘lgan Modeni qo‘llab-quvvatlaydilar. Tuman xalqning irodasiga qarshi chiqa olmay Modega 10 ming kishilik qo‘shinga sarkardalik qilishiga ruxsat bergan. G‘ayratli Mode o‘z qo‘shinida mustahkam harbiy intizom o‘rnatadi va to‘ntarish o‘tkazadi. Bu ixtilofda (mil. avv. 209- yil) Tuman, uning suyukli joriyasi, kichik o‘g‘li halok boladi. Taxtni egallagan Mode xunn davlatini mustahkamlash uchun faol siyosat olib boradi. Mode dun-xu, yueji, usun va qirg‘izlar(gyangun)ni bo‘ysundirgan. Shu tarzda qudratli xunn davlatiga asos solingan. Keyin esa Xitoyga urush ochib, xitoyliklar bosib olgan xunn yerlarini qaytarib oladi. Imperator Lyu Banni hech qanday anneksiyasiz, lekin tolov tolash bilan «Tinchlik va birodarlik» bitimini imzolashga majbur qiladi. Bitimga ko‘ra, Xitoy malikasi rafiqalikka berilib, har yili olpon tolashi belgilangan.

Xunn davlati 150 yil davomida gullab-yashnadi. Dehqonchilik va chorvachilik yuqori darajada rivojlanadi. Ovqat ratsionida asosiy yemish bo‘lgan chorva mahsulotlari bilan birga dehqonchilik mahsulotlari ham keng iste‘mol qilina boshlaydi. Qoshni Xitoy bilan aloqalar kuchayib, metall buyumlar, ipak matolar ayirboshlash gavjum bo‘lgan. Xunn davlati boshqaruvi urug‘-qabilachilik munosabatlariga asoslangan. Oliy mansablar urug‘-qabilachilik odatlariga ko‘ra, urug‘ga mansublik yoshi katta va uzoq yillar topilgan tajribasiga qarab berilgan. Qo‘shni Xitoydan amaldor va zodagonlar zulmidan ko‘plab qochoqlar xunnlarda boshpana topganlar. Xunlar ularni qabul qilganlar va urug‘-jamoasiga qo‘shmay ularni alohida joylarga joylashtirganlar. Bunday odamlarni xunlar qul deb ataganlar. Xunn davlati hukmdoriga harbiy xizmatda bo‘lganlar qutluqli (qut baxt, omad ma’nosni bildirgan) deb nom olgan. U-di xunlarga qarshi kurashda ularning g‘animi bo‘lgan yuejilar bilan aloqa o‘rnatish uchun mil. avv.138-yilda Chjan Syanni ularni oldiga yuboradi.

Xunlar, umuman turkiy xalqlar juda ko‘p ixtirolarni qildilar. Birinchi navbatda otlani egar-jabduq, uzangi va taqalarining ixtirochisi xunn-turkiy etnos edi. To‘g‘ri qilich o‘rniga bukilgan qilich, uzun, bir necha qismdan tuzilgan, 200 metrgacha nishonga bexato o‘qni otadigan kamon, ko‘chmanchi uy ixtiro etilgan va hayotda qollanilgan. Aylana o‘tov eng yaxshi uy deb e’tirof etiladi. Kiyim-kechakning hozirgacha qollanib kelinayotgan bir necha xili xunn-turkiy etnos tomonidan kashf etilgan.

Misol uchun, ishlov berilgan hayvon terisidan kalta kamzul-ko‘ylak, charm ishtonlar va saxtiyon-charm etiklar hozirgacha an’anaviy kiyimlar sirasiga kiradi va keng qo‘llaniladi.

Xitoy davlati qudratli xunnlarni zaiflashtirish va uni yo‘q qilish uchun makkorona yashirin ishlarni olib bordi. Mil. avv. 57-yildan keyin Xitoy diplomatiyasi xunnlarga qarshi qo‘shni xalqlarni qarshi qo‘yishga, xunn davlatini tashkil etgan urug‘-qabilalar orasida ixtilof chiqarishga erishadi. Shu vaqtdan xunn davlatining zaiflashuvi boshlanib, halokat tomon jadal yuz tuta borgan. Oqibatda, xunn davlati parchalanib, davlat boshlig‘i Shanyuning hokimiyati o‘ta zaiflashadi. Paytdan foydalangan Xitoy xunnlarga qarshi qo‘shin tortadi va ularni Xitoyga qaram qilgan (mil. avv. 51-yil). Milodiy I asr boshlarida Xitoy zaiflashadi. Xunnlr o‘z mustaqilligini qayta tiklaydilar. Lekin Xitoy yana xunnlr orasiga nifoq urug‘ini sochib, milodiy 48-yilda sakkizta xunn urug‘ini o‘ziga qaram qiladi. Xan davlati xunnlarni tola zaiflashtirish va davlat sifatida yo‘q qilish siyosatini davomiy olib borgan. Xunnlr janubiy va shimoliy qismlarga bolinib ketadilar. Milodiy III asr boshlarida o‘zlarining shimoliy urug‘doshlari bilan birga 304-yilda Lyu-Xann (304 - 318-yillar) imperiyasini tashkil etganlar. Bu davlat Katta Chjao, Kichik Chjao podsholiklariga bolinib ketadi. Kichik Chjao 329-yil Katta Chjao davlati va Shimoliy Xitoyni bo‘ysundiradilar. Lekin xunn hukmdori asrandi o‘g‘il qilib olgan Xitoy lashkarboshisi Jan Min 350-yilda hokimiyatni bosib oladi. U kichik Chjao davlatidagi barcha xunnlarni qirib tashlashga buyruq beradi. Faqat Ordosda va Nanshan (hozirgi Gansu provinsiyasi)da yashagan xunnlr tirik qolgan.

Xunnlr oxir-oqibatda to‘rt shoxchaga bolinib ketdi. Xunn madaniy atining ancha qismi yo‘qotildi. Bir qism xunnlr Mongoliya chollaridagi syanbilar bilan aralashib ketdi, ikkinchi qismi Xitoy hududida qoldi, uchinchi qismi Yoyiq va Volga daryolariga tomon shiljidi. To‘rtinchi qismi Tarbagatay, Saur tog‘larida o‘rnashdi, keyin esa O‘rta Osiyo va Jungoriyani egalladi. Xunnlarning bu qismi uzoq yashadi. Ularning bir qismi Oltoyda qipchoqlar bilan aralashib ketdilar. Ularning yana bir qismi Xitoyga qaytib, bir necha davlatlarga asos soldilar va X asrgacha yashadilar.

Halokat. Milodiy I asrning ikkinchi yarmidan Xitoy Rim bilan savdo aloqalarini o‘rnatgan. Birma va Assam orqali Hindiston bilan, Koreya orqali Yaponiya bilan aloqa o‘rnatiladi. Bu vaqtda Xitoyda 68 mln kishi yashagan, bu butun dunyo aholisining 1/5 qismini tashkil etar edi. III asrdan Xitoyda tushkunlik boshlangan. 184-yilda «Sariq belbog‘lilar» deb nomlangan kuchli xalq harakati boshlanadi. Harakat 10 yil davomida sehrigar-tabib Chjan Syao tomonidan tayyorlangan edi. Harakat davlat

hokimiyati binolarini buzib tashlaydi, amaldorlarni o'ldiradi. Mulkdor tabaqalar bu harakatga qarshi birlashib, zo'rg'a bostirganlar, xalq harakati bostirilgach, g'oliblar hokimiyat uchun o'zaro kurash boshlaydilar.

Natijada Xan imperiyasi 220-yil uch mustaqil podsholik: Vey, Shu va U davlatlariga bo'linib ketadi. Bu davr San-Gouch podsholik davri deb ataladi (220 - 280-yillar). Vey davlatining amaldagi asoschisi Xan lashkarboshisi Sao-Sao bo'lgan. U boshqa ikki Xan lashkarboshisi bilan 192-yilda zaiflashgan Xan imperiyasining yerlarini bo'lishib olgan edi. Sao-Saoning o'g'li Sao Pey (187 - 226) so'nggi Xan imperatori Syandini taxtdan tushirib, o'zini Bey sulolasi imperatori deb e'lon qiladi. Vey davlati shimoli-g'arbiy va Markaziy Xitoy hamda hozirgi Dunbeyning janubiy qismini, U davlati Xitoyning janubi, janubi-sharqiy qismini egallaydi. Shu davlati janubi-g'arbiy Xitoy, qisman Shansi va Xubey hududlarini egallagan. Shu davlati qirq uch yil yashagan, 263-yilda Vey davlatiga qo'shib olinadi. Vey davlatida hokimiyatni sarkarda Sima Yan (265-yil) bosib olib, Szin sulolasiga (265 - 420-yillar) asos soladi. Shu bilan Vey davlati 45 yil yashab, 265-yilda tugaydi. U davlati ham 280-yilda Bu sulola tomonidan bosib olingan.

Qadimgi Xitoy madaniyati 1.Mifologiya va din. 2.Yozuv. 3.Adabiyot 4.Tabiiy-ilmiy bilimlar.

Mifologiya va din. Qadimgi Xitoy mifologiyasi to'g'risidagi manbalar asosan mil. avv. XI asrga oid. Bu afsonalar mazmuniga ko'ra, ikki guruh yoki siklga bolinadi. Kosmogonik miflar ichida ilk, tartibsiz holdan tabiat va insonning paydo bolishi to'g'risidagi asosiy konsepsiya, bolinish va aylanish berilgan.

Ulardan birinchisi jonsiz va tirik mavjudotlar tartibsizligi, ikki ilk unsur (erkak)ning boshlanishi, «Yan» va qorong'ilik (ayol)ning boshlanishi - «In» paydo bo'lgan. Ikkinchi konsepsiya - barcha mavjudotlarning paydo bolishi ushbu transformatsiya natijasidir, deb tushuntiriladi. Odam Nyuy ismli ma'buda tomonidan loydan yaratilgan. Tabiat ofatlari va ulardan odamlarni qutqargan qahramonlar to'g'risida afsonalar ko'pchilikni tashkil qiladi. Toshqin va qurg'oqchilik hodisalari afsonalarda ko'p tilga olinadi. Qadimgi qahramonlar to'g'risidagi afsonalarda qahramonlar odamlarni olovdan foydalanishga o'rgatgan, ilk bor shox-shabbdan chayla qurgan. Baliq ovi va ovchilik usulini kashf qilgan. Ilk dehqonchilik qurollarini yasagan. Donni bug'da pishirishni o'rgatgan qahramonlar mavzusi yetakchi o'rinni egallaydi. Ko'pgina qahramonlar ilon gavdali, buqaning kallasi bilan yarim hayvon, yarim odam qiyofasida tasvirlangan. Bu qadimgi totemistik tasavvurlarni aks ettirishdir. Qadimgi

xitoyliklar u dunyo to'g'risidagi tushunchalarida yerda mavjud bo'lgan tartib-qoidalar aks ettiriladi. Yerda hokimiyat Vanga tegishli, osmonda hamma jismlar Oliy xudo (Di)ga bo'ysunadi. Di qudratli, u odamlarga marhamat qiladi yoki ularni baxtsizlik bilan jazolaydi. U odamlarga mo'lj hosil sovg'a qiladi yoki qurg'oqchilik yuboradi. Yomg'ir va shamol Diga bogliq. Dining yaqinlarini vanning vafot qilgan ajdodlari tashkil qiladi. Vanning ajdodlari Dining topshiriqlari rini bajaradi va ular Vanning yordam berish to'g'risidagi iltimosini Diga yetkazadi. Vanning oliy kohin sifatidagi vazifasi odamlar va xudolar dunyosi o'rtasida vositachi bo'lgan o'z ajdodlari bilan muloqotni amalga oshirishdir.

Konfutsiylikning paydo bo'lishi va tarqalishi ajdodlarga e'tiqod qilishni kuchaytiradi. Konfutsiy (mil. avv. 551 - 479-yillar)ning axloqiy-siyosiy ta'limotida markaziy o'rinni «olijjanob kishi» (Szyan Szi) to'g'risidagi tushuncha egallaydi. Konfutsiylik gumanizm (Jen), sadoqat (Chjun), kattalarga hurmat (Syuo), kishilar o'rtasidagi munosabatlarga rioya qilish (Li)dan iborat. Konfutsiy ochko'zlik, zo'ravonlikka qarshi axloq va burchni qarama-qarshi qo'yadi.

Bu davrda qadimgi Xitoyning asosiy ta'limotlari: konfutsiylik, le-gizm, daosizm vujudga kelgan. Konfutsiylik ta'limotining asoschisi o'qituvchi Kun (Kunszi, mil. avv. 551 - 479-yillar) Lu podshohligidagi day-dib yuradigan targ'ibotchi bo'lgan. O'qituvchi Kun o'z ta'limotini og'zaki dialogik suhbat tarzida bayon qilgan. Keyinchalik u ilohiylashtirilgan. Konfutsiy ta'limoti bo'yicha inson tabiatan ezgulik xislatiga ega va o'z burchini sidqidildan o'tashga tayyor. Konfutsiy barcha ijtimoiy munosabatlar uchun oilani namuna deb hisoblaydi. Oilada kattalar kichiklarga g'amxo'rlik qiladilar va ularni tarbiyalaydilar. Kichiklar kattalarni hurmat qiladilar va ularga bo'ysunadilar. Davlatga xalq farzandlar o'rnida, hukmdor ota o'rnida bo'ladi. Hukmdor o'z shaxsiy manfaati to'g'risida emas, xalq farovonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi lozim. Konfutsiylik davlatning yagona mafkurasi sifatida qabul qilingan. Konfutsiylik davlat e'tiqodi sifatida rasmiy qurbonliklar keltirish marosimi bilan mil. avv. 59-yil joriy qilinib, Xitoyda 1928-yilgacha mavjud bo'ldi.

Konfutsiy ta'limotida insonning ma'naviy komilligi tushunchasi muhim o'rin tutadi. Hukmdor shaxsiga oliy barkamollik zarur. Hukmdor markazda turadi, unga oddiy fuqaroga xos bo'lgan kamchiliklar yot, shu sababli u oliy adolatni amalga oshiradi. Davlat barqarorligini Konfutsiy tartib-intizom muxlisi «davlatni qoida va qonunlar vositasida boshqaradilar, dunyo albatta betartib, lekin uni yaxshilash mumkin».

III asrlarda Xitoyga budda dini kirib keladi. Afsonalarga ko'ra, bir-

inchi budda sutralari (matn yoki qoida) Xitoyga oq otda olib kelingan. Bunga xotira sifatida Loyan shahri yonida budda «oq ot ibodatxonasi» qurilgan va hozirgacha saqlanib qolgan. Xitoyda sutralarni tarjima qilish va budda dinining tarqalishi IV-VI asrlarga tegishlidir. Adabiyotda bud-daviylik ta'siri ostida asketizm motivlari, xo'rlanganlarga, muhtojlarga yordam berish, o'zini qurbon qilish g'oyasi paydo bo'lgan. VI asrga kelib Xitoyda 60 ming budda monastri va 2 mln monax bor edi.

Yozuv. Ilk Xitoy yozuvining eng qadimgi yodgorliklari mil. avv. XIV-XI asrlarga oid fol ko'rish yozuvlaridir. In yozuvlarining ko'pchilik qismi buyumlar tasviridir. In belgilari buyumlar tasviri yoki murakkab tushunchalarni ifodalaydigan ko'pgina tasvirlar qo'shilmasi ideogramma ko'rinishidadir. Iyerogliflar bir necha mingtani tashkil qiladi. In belgilarining hozirgi Xitoy iyerogliflaridan 3 xil farqli tomoni bor. Birinchidan, har bir oddiy belgi qandaydir buyumning shaklini tasvirlagan. Ikkinchidan, bir belgining yozilishida ko'p xilma-xillik mavjud. Uchinchidan, belgini qatorning nisbiy yo'nalishiga tomon harakati hali barqaror bo'lmagan. In yozuvining mil. avv.ming yillikda chjoular tomonidan o'zlashtirilishi uning taraqqiyotini uzib qo'yadi.

Mil. avv. II-I ming yilliklarda iyerogliflarning mahalliy variantlari unifikatsiya qilinadi. Belgilarni yozishning yangi husnixati paydo bo'lgan. Qadimgi Xitoyda yozuv, odatda, suyak, yupqa yog'och yoki bambuk taxtachalariga yozilgan. Tushli mo'yqalam bilan yozuv ana shu taxtachalarga tushirilgan va yozuvlar metall pichoq bilan tozalangan. Mil. avv. I ming yillikning o'rtalarida ipak matoga ham yozilgan. Ipak mato qimmat bolib, undan hamma foydalana olmas edi. Qog'ozning kashf etilishi madaniyat taraqqiyotida yangi bosqich bo'lgan. Qog'oz latta, po'stloq va bambuk aralashmasidan tayyorlangan. Eng qadimgi qog'oz qoldiqlari mil. avv. II-I asrlarga tegishli. Manbalarga ko'ra Xitoyda qog'ozning ixtirochisi deb, Xunan viloyatida yashagan qul Saylun aytiladi. Xan davrida yozuv takomillashadi. Kayshu standart yozuv uslubi paydo boladi. Xitoy yozuvini qo'shni Vyetnam, Koreya, Yaponiyaning qadimgi xalqlari o'zlashtiri bo'lganlar.

Adabiyot. Eng qadimgi Xitoy she'riyati namunalari mil. avv. XI-VI asrlarda jez ko'zalardagi yozuvlarda yetib kelgan. «Shiszin» («Qo'shiqlar kitobi») qadimgi Xitoy adabiyotining haqiqiy xazinasidir. Bu yodgorlik 4 bolimga bo'lingan («Podsholik axloqi», «Kichik odalar», «Buyuk odalar», «Madhiyalar») 305 poetik asarlar majmuasidan iborat. «Shiszin» an'analari mil. avv. IV asrda poetik asarlar mualliflari tomonidan o'zlashtirib olingan. Bizgacha bu asarlar do'mbira shaklini eslatadigan

tosh buyumlarda yetib kelgan. Shu sababli, ular «Tosh do‘mbiralardagi matnlar» deb ataladi. Mil. avv. IV asrda mashhur Syuy Yuan, Xan davrida Sima Syan-ju kabi shoirlar ijod qilgan. Siam Syan-ju (mil. avv. 179 - 118-yillar) Xan davlatining qudrati va «Buyuk odam»ni o‘zi - imperator U-dini ulug‘lab, odalar yozgan.

Xitoy tarixchilarining otasi Sima Syanning «Tarixiy yozishmalar» asarida Xitoy tarixi afsonaviy ajdod Xuandidan imperator U-di hukmronligining so‘nggi yillarigacha olib boriladi. Sima Syan o‘z asarida siyosiy va iqtisodiy vaziyatni, turmush va axloqiy yurish-turishni qisqa va yorqin tasvirlaydi. U Xitoyda ilk bor adabiy portretni yaratadi. Sima Szyanning uslubini Van Gu (32 - 92-yillar) o‘zining «Katta Xan sulolasi tarixi» asarida davom ettirgan. Asar an’anaviy konfutsiylik ruhida yozilib, rasmiy nuqtayi-nazarda qat’iy bayon qilinadi. Voqea-hodisalarga baho berishda Sima Syan bayoniga zid talqin qilinadi. Sima Syan daosizmga e’tiqod qilishda ayblanadi. Xan davridan boshlab, har bir sulola o‘zidan oldingi sulola hukmronligi davrini tasvirlay boshlagan.

Xitoyda musiqa, poeziya va raqs kabi san’at janrlari sulolasi shakllangan. Musiqa asboblari uch asosiy guruhga: torli, tovush chiqaradigan va urib chalinadigan asboblarga bo‘lingan. Ko‘pgina musiqa asboblari milodiy I-II asrlarda O‘rta Osiyodan o‘zlashtirib olingan.

Xitoy arxeologlari Chansha shahrida mil. avv. ikkinchi asriga tegishli maqbarani topdilar. Maqbarada turli musiqa asboblari va ayol kishining mo‘miyolangan jasadi topilgan, ayolning jasadi 20 metr matoga o‘ralib, 20 metr chuqur qazilib, 4 ta tobutda dafn qilingan. Tobut qo‘yilgan qabr tosh bilan yopilib, maydalangan toshlar bilan shibbalangan. Bu qabr ochilganda mo‘miyolangan ayol jasadi xuddi kechagidek saqlanib qolgan. Jahon tarixida shu vaqtgacha topilgan biror-bir mo‘miyolangan jasad bunday yaxshi saqlanib qolmagan. Chunki bu mo‘miyolangan jasad 20 metr chuqurlikda, to‘rt tobutga dafn qilinib, tola tashqi iqlim, namlik ta’siridan himoya qilingan. Xan sulolasining qudratli hukmdori U-dining rafiqasini ukasi vafot etganda, marhumga 2156 dona nefrit bo‘laklari oltin iplar bilan tikilgan o‘lim kiyimi tikilgan.

Qadimgi xitoy me‘morchiligi yodgorliklari juda kam yetib kelgan. Xitoy me‘morchilik san’atida yog‘och asosiy xomashyo edi. Xan davrining noyob me‘morchilik yodgorligi bo‘lgan imperiya poytaxti Chanyan shahri 12 darvozali devor bilan o‘rab olingan. Baland, ko‘p xonali imperator saroyi, ma‘muriy binolar va ibodatxonalar shaharning ko‘rki edi. Ma‘muriy binolar sariq rang, imperator saroylari qizil rang bilan bo‘yal-

gan. Xan davrida portret san'ati yuksak darajada bo'lgan. Saroylar portret freskalari bilan bezatilgan.

Qadimgi Xitoy amaliy san'atida qo'g'irchoq teatri alohida o'rin tutgan. Qo'g'irchoq teatr guruhlari ko'cha-ko'yda, maydonlarda, xalq gavjum bo'lgan joylarda tomosha ko'rsatgan. Teatr repertuari oddiy xalqning turmush tarzi, ijtimoiy muammolar, hayotiy voqealarni aks ettirgan syujetlardan tuzilgan. Qadimgi Xitoy madaniyatining mukammal shakllanishida qo'shni xalqlarning madaniyatlari yaqqol seziladi. Sakskif sivilizatsiyasining g'oya va motivlari Xitoy madaniyatida o'z aksini topgan. Hayvon uslubi tasviriy san'at, harbiy san'atda yaqqol seziladi. O'rta Osiyo qadimiy san'atining qaynoq nafasi Xitoy madaniyatida o'z aksini topgan. Rangli keramika, musiqa san'ati va boshqa sohadagi yutuqlar, natijalar Xitoy madaniyatiga hayotbaxsh ta'sir qilgan. Xitoyda neolit davrida paydo bo'lgan bo'yalgan naqshli keramika O'rta Osiyo, Eron va Hindistondagi (Moxenjodaro) keramika bilan bir xil. Xitoyda topilgan qo'rg'on-qabrlar, jez idishlar, uch oyoqli ko'zalar Xitoy hududi va Buyuk chollarda jez davrida uchraydi.

Tabiiy-ilmiy bilimlar. Qadimgi Xitoyda astronomiya, matematika, tibbiyot, agronomiya kabi bilimlar, harbiy san'at rivojlangan. Xitoy olimlari sun'iy sug'orish inshootlarini barpo qilish hamda ekinlarni almashlab ekish bo'yicha ilk ilmiy asarlarni yaratganlar. Harbiy san'at nazariyasi bo'yicha ilmiy asar yozilgan. Mil. avv. II asrda 9 kitobdan iborat «matematika» traktati tuziladi. Bunda oldingi olimlarning bilimlari, proporsiya, progress, bolishlar bayon etilgan. Matematika bilan yonma-yon astronomiya fani ham rivojlangan. Xitoy astronomi Shi Shen (mil. avv. IV asr) eng qadimgi yulduzlar (800 yulduz) jadvalini tuzgan. Mil. avv. 104-yilda 1 yil 365,25 kun ekanligi hisoblab chiqildi. Shu asosda qabul qilingan kalendar milodiy 85-yilgacha foydalanilgan. Bu kalendar bo'yicha yil 12 oyga bolinadi. Qo'shimcha oy kabisa yiliga qo'shilib, 3 yilda bir marta belgilangan. Quyosh-Oy kalendar qishloq xojaligi ishlariga moslashtirilgan. Xitoyda dunyoda birinchi bo'lib yulduzlar katalogi tuzilgan (mil. avv. V asr), oy va quyosh tutilishlarining muddatlari hisoblab chiqilgan kometalarning paydo bolishi belgilangan. Astronom Chjan Xen (78 - 139-yillar) 2500 yulduzni tasvirlagan. Koinotning cheksizligi nazariyasini ilgari suradi, seymografni ixtiro qiladi. Mil. avv. 28-yilda Xitoy astronomlari quyoshda dog'lar borligini aniqlaganlar.

Xitoyning eng qadimgi kitobi «Dao de Szin» - (mil. avv. VI asr oxiri) «Ezgulikka yo'l to'g'risidagi kitob» deb ataladi. Kitobning muallifi Lao Szi (mil. avv. 579 - 499-yillar) bo'lib, u dunyoni falsafiy asoslashga uri-

nadi. Xitoyda falsafiy fikr rivojlanadi. Uning eng taniqli vakillaridan Dao Szi, Konfutsiy, Mo Szi, Chjuan Szilarni ko'rsatish mumkin.

Tibbiyot sohasida mil. avv. III asrda Xitoy tabiblari igna bilan davolashni kashf qilganlar. Tabiblar 52 kasallikni davolashni bilganlar, 280 davolash usulini qo'llaganlar. Katta hajmli «Xuan-di neyszin» nomli tibbiy asarda (mil. avv. I ming yillik o'rtalari) ko'pgina kasalliklarning davolash usullari va fiziologiya batafsil tasvirlangan. Chjan Chjunszin (150 - 219-yillar) puls bo'yicha diagnostika usulini ishlab chiqadi. Davolashda dorivor o'tlar va choydan foydalanilgan.

Xitoy badiiy hunarmandchiligining eng katta yutug'i lak ishlab chiqarish bo'lgan. Lak mahsulotlari Xan imperiyasi tashqi savdosining muhim qismi edi. Lak yog'ichni, gazlamani namlikdan, metallni zanglashdan himoya qilar edi. Xitoyda qurol-yarog'lar ham namlik va zangdan saqlash uchun lak bilan qoplangan. Me'morchilik detallari, devoriy freska - tasvirlar, dafn buyumlari laklangan, Xitoy laki kislotaga va yuqori haroratga chidamli bo'lgani i yuqori baholangan.

Faylasuf Xan Fey (mil. avv. 288 - 233-yillar) davlat boshqaruvida qonunning o'rni bo'yicha shug'ullangan. Men Szi mil. avv. (372 - 289-yillar) faylasuf bo'lib, insonparvarlikka tayanib davlatni boshqarish g'oyalarini ilgari suradi. Nemis faylasufi E. Feyerbax bu olimning falsafiy merosini o'rganib «Men Szi Xitoyning Konfutsiydan keyingi eng buyuk faylasufi» deb yuksak baho bergan.

V - XX asrlarda Xitoy. Xitoyda milodiy 205 yilda Xan davlatining halokati bilan qadimgi davr tugadi. Mamlakat bir necha o'nlab davlatlarga bo'linib ketdi. Shimolda xunn davlatlari hukmronlik qildi. Xitoyda faqat VI asrda qudratli Turk hoqonligi tazyiqiga qarshi turish uchun birlashish harakati boshlandi. Shimoli-g'arbiy xitoyning zodagonlari shimolda Jou davlatida hokimiyatga keldilar va mamlakatni birlashtirishga boshchilik qildilar. Lashkarboshi Yan Szyan Suy (583-618) sulolasining hukmdori deb e'lon qilindi.

Xitoy mil. avv. III asrdan Orta Osiyo bilan aloqa qilishga kirishdi. Xan sulolasi va keyingi sulolalar davrida bu aloqalar kuchayib bordi Xitoyliklar Fargona vodiysidan harbiy ish uchun o'ta zarur bo'lgan otlarni olib ketdilar. So'g'd savdogarlari ilk o'rta asrlarda xitoy hududlarida o'z koloniyalarini barpo qildilar. Xitoyda otashparastlik va islom dini paydo bo'ldi. Milodiy VIII asrda Sian shahrida ilk machit paydo bo'ldi, bu machit hozirgacha faoliyat ko'rsatadi. saqlanib qo'lgan. Chunki so'g'dlar Xitoy hududida o'troqlashdilar, uning urf-odatlarini o'zlashtirdilar. So'g'dlar mahalliy aholi bilan oila nikoh munosabatlarini qurdilar.

So'g'd savdogarlari Xitoyda buyuk ipak yo'lini barpo qilishda faol o'rinni egalladilar. O'troqlashgan so'g'dlar hukmron sulolalar davlat boshqaruvida yuqori lavozimlarga erishdilar. Yana bir diniy e'tiqod buddaviylik xitoyga kirib keldi Xitoyning g'arbidagi Dunxuan shahri bu e'tiqodning markaziga aylandi. XIX da Dunxuan shahri yaqinidagi g'orda milodiy IV tegishli xazina-ulkan qo'lyozmalar topildi. Bu qo'lyozmalar 1907 yilda Angliyaga olib kelindi va ilmiy tadqiq etildi. Qo'lyozmalar orasida so'gd'larga tegishli yozuvlar ham bor edi. Dunxuandan Taklamakon sahrosi orqali 800 km masofadan keyin turkiy uyg'urlar shahri Turfan joylashgan. Turfan uygur davlatining katta madaniy iqtisodiy markazlaridan biri. Bu yerda aksariyat aholi islom diniga e'tiqod qiladi. Turfanda milodiy VII asrga tegishli mo'miyolangan jasadlar va yozuvlar topilgan. Buyuk ipak yo'lida olib borilgan savdo to'g'risida bu yozuvlar yoqqin ma'lumotlar beradi. Pokiston bilan qo'shni Xo'tanda uyg'urlar qadimdan ipak ishlab-chiqarish bilan shug'ullandilar, bu yerda sharqda noyob bo'lgan atlas gazlamasi ishlab chiqarildi. Nafis uyg'ur atlası buyuk ipak yo'lida hozirgacha eng bozori chaqqon mahsulot bo'lib qoldi.

Suy sulolasi 583-618) katta kichik xitoy davlatlarini birlashtirish-markazlashuv siyosatini olib bordi. O'zaro urushlarni tugashi mamlakatni iqtisodiy rivojlanishini ta'minladi. Ekin yerlari kengaydi, hunarmandchilik- savdo oyoqqa turib shaharlar va va aholi soni tez o'sib bordi. Yangi sulola soliq-to'lovlarni kamaytirdi, o'chov birliklarini unifikatsiya qildi, tuz va vino monopoliyasini bekor qildi. Suy sulolasi an'anaviy xitoy boshqaruv tizimini o'lashtirib, davlat boshqaruv tizimini o'tmish xan sulolasi namunasida tashkil etdi. Hukmdor Yan Szyan mahalliy hokimlarning separatizmiga keskin qarshi choralar ko'rib, ularni qatl qildi. Uning o'gli Yan Guan 604 yilda otasini qatl qilib, o'zi taxtga chiqdi. Yan Guan davlat xazinasini to'ldirish, iqtisodiy. Siyosiy markazlashuv siyosatini olib bordi. Poytaxt Loyan shahriga ko'chirildi. Xitoy devorini qurilishi davom ettirildi. Lekin xalq ommasini iqtisodiy-ijtimoiy ahvoli yomonlashdi. Oqibatda 610 yilda ko'tarilgan xalq qo'zg'oloni Suy sulolasini hukmronligini tugatdi

Qo'zg'olon oqibatida Shan viloyati hokimi Li Yuan 618 yilda hokimiyatni bosib oldi va yangi Tan sulolasiga (618-907) asos soldi. Yangi sulola eski soliqdan qolgan qarzdorlikni bekor qildi, davlat mehnat majburiyati muddatini qisqartirdi, qullikka sotilgan dehqonlarni ozodlikka chiqardi. Katta yer egalari dehqonlarni o'ldirish man etildi, och qolgan aholiga yordam ko'rsatdi.

Yuz yilga yaqin hukmronlik qilgan Tan sulolasi ham xalq harakati

natijasida 907 yilda halokatga uchradi, uning oʻrniga 960 yilda Sun (960-1279)- sulolasi keldi. Moʻgʻullar 1211-1280 yillarda Xitoyga yurish qildilar. 1279- 1368 yillarda Xitoyni moʻgʻul sulolasi Yuan boshqardi. 1368 yilda Min (1368-1644) sulolasi hokimiyat tepasiga keldi. 1644 Xitoyni manjurlar bosib olib Min sulolasini taxtdan tushirdi va Sin (1644-1911) sulolasi taxtni egalladi. 1911 yilda Sin sulolasi tugatildi va Xitoy respublika deb eʻlon qilindi.

Davlat boshqaruvi. Xitoyda 280 yildan 1911 yilgacha hukmronlik qilgan barcha sulolalarning ichki va tashqi siyosatiga xos boʻlgan quyidagi xususiyatlarni koʻrish mumkin: Hokimiyat tepasiga kelgan xitoy va xitoy boʻlmagan barcha sulolalar xitoy davlatchiligi udumlarini qabul qildilar, xitoylashdilar. Xitoy davlatining hududiy yaxlitligini saqlab qolish va kengaytirish siyosatini olib bordilar. Markazlashtirish va markaziy hokimiyatga qarshi turgan feodallarga qarshi muntazam kurash olib bordilar; Natijada mamlakatda mahalliy feodal urushlari tugatilib markazlashgan barqaror davlat hokimiyati paydo boʻldi; xitoyda barqaror siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy tizim va tuzum vujudga keldi; xitoy jamiyatida oʻz huquq va majburiyatlariga ega boʻlgan anʻanaviy ijtimoiy qatlam va guruglar shakllandi; barcha ijtimoiy toifalar va uning aʻzolari davlat yaʻni hukmdorning vassallari hisoblandi, harbir ijtimoiy toifa oʻz yurish turish qoidalari va odob-axloqi, oʻz iqtisodiy taʻminoti, oʻz kiyimi, bezaklari va uy-joyi xiliga ega boldi; hukmron tabaqaning oily guruhini imtiyozli merosiy-oqsuyak zodagonlar tashkil etib, ular unvon va darajalarga koʻra boʻlindi. Har bir unvon egasi tegishli miqdorda ekin yerlari bilan taʻminlangan; oqsuyak zodagonlar toifasiga tugʻilishiga koʻra zodagon boʻlmagan, “alohida xizmat koʻrsatganlar” ham kiritilgan.

Oliy hokimiyat cheklanmagan huquqlarga ega boʻlgan hukmdor qoʻliga toʻplangan. Hukmdor tarmoqlangan boshqaruv apparati yordamida urf-odat, anʻanalar asosida boshqarishi lozim edi. Hukmdor odatga koʻra Osmon oʻgli yaʻni, oily samoviy kuchlarning vakili va ularning irodasini amalga oshiruvchi deb tushunilar edi. Undan buyuk ajdodlar bilan aloqaga kirish talab qilingan.

Mamlakat uch palata orqali boshqarilgan. Birinchi palata ijroiya hokimiyati boʻlgan, qolgan ikki palata esa hukmdorning buyrugʻini tayyorlaganlar va eʻlon qilganlar va hukmdor sharafiga qabul marosimlar va tantanali marosimlar oʻtkazganlar.

Xitoy davlatchiligida qadimdan davlat boshqaruvida amaldorlarni bilimi, malaka va koʻnikmasiga eʻtibor berilgan. Qadimgi Sin sulolasi davridan lavozimlarni egallash uchun imtihonlar joriy qilingan. Imtihon

orqali davlat lavozimini egallash tartibi milodiy 121 yildan muntazam tus olib 1905 yilgacha davom etgan. Birinchi ilmiy daraja (syusay) uchun imtihon uyezd shahrida, ikkinchi ilmiy daraja (tsyuyjen) darajasi uchun viloyatda, uchinchi oliy (szinshi) daraja uchun imtihon poytaxtda o'tkazilgan. 973 yildan imtihonlar hukmdor saroyida o'tkazilgan, imtihonni hukmdorning o'zi olgan. 1375 yildan bu imtihondan o'tgan birinchi uch kishi Satroy qoshidagi Akademiyaga (Olimlar palatasi)ga qabul qilingan. Imtihonlarni topshirib, ilmiy daraja olgan kishi jamiyatda tegishli o'rin va moddiy ne'matlar bilan ta'minlangan. Bunday mavqega erishish ilmi odam uchun orzu bo'lgan. Bu orzuni amalga oshirish oson emas edi: Talabgor imtihonlarga tayyorlanish uchun bir necha yil sarflar edi. Qadimgi mumtoz asarlarni, qadimiy poeziyani bilishi, nafis uslub va xattotlik husnixatiga ega bo'lishi lozim edi.; ko'chib yurishlar, uydan uzoq yashash, kitoblarni sotib olish uchun katta xarajatlar qilish kerak edi. Davlat imtihonlari tizimida ba'zida alomatlar mavjud bo'lgan; abiturientlarni, ularni ijtimoiy kelib chiqishi asosida sinchiklab tanlab olish, imtihon oluvchilarning poraxo'rliigi va ularni sotib olish hollari uchrab turgan.

Sun sulolasi davrida (X-XIII asrlar) yoshlarning orasidan qobiliyatli o'smirlarni ajratib olib ularni ta'lim tarbiyasiga jiddiy e'tibor berila boshlandi. Xitoy hukmdorining maxsus nizomi bilan mahalliy hokimiyat iqtidorli o'smir-yoshlarni davlat lavozimlarini egallash uchun sinov imtihonlari topshirishga tavsiya etdilar.Imtihon topshiruvchi o'smirlardan hukmdorning o'zi ham imtihon olishi mumkin edi. Imtihondan o'tgan o'smir-bolalar ma'lum bir imtiyozlarga ega bo'lganlar.

Amaldorlarning sezilarli qatlami hukmron tabaqadan edi. Bu amaldorlar markazlashgan hokimiyatning mustahkam tayanchi bo'lib xizmat qildi. Ular amaldorlik toifasining turli bosqichlari egallagan edilar va 9 darajaga bo'linganlar. Martaba va darajalar bo'yicha qat'iy farqlar bo'lib, har bir darajadaga mansub amaldor tegishli yer ulushi yoki ish haqini natural ko'rinishda olganlar. Hech qanday unvon, hech qanday daraja (rang) va mansabi uchun yerga egalik huquqi meros bo'lib o'tmagan. Bu ijobiy hol edi. Amaldorlarning yangi avlodi o'sha eski amaldorlar oilasi hisobidan to'ldirilgan: faqat imtihon topshirgan va ilmiy darajaga olganlar davlat apparatida lavozimni egallash ga nomzod bo'lishlari mumkin edi.

Hukmron tabaqa katta bo'lgan yer egalari, oliy va o'rta, quyi tabaqa amaldorlar, toki qishloq oqsoqoligacha davlav hokimiyati bilan bog'langan va uning doimiy kuzatuvida edi. Shu sababli hukmron tabaqa markaziy hokimiyatga qarshi bosh ko'tarib chiqa olmas, isyon va fitnalarni yuz bermas edi. Faqat sulolaga qarshi oddiy xalqning kuchli chiqishlari sodir

bo'lar edi. Bu ham uzoq vaqt turli yashirin jamiyatlar tuzish va jiddiy reja orqai amalga oshirilgan va sulolaning hukmronligiga chek qo'yilgahn. Xitoy tarixida sulolalarning halokatga uchrashi xalq ommasining zulmga qarshi kuchli chiqishlari sababli ry bergan

Madaniy hayot. Konfursiylik Xitoyda siyosiy-axloqiy ta'limot sifa-tida hukmron mafkura edi. Davlat va jamiyat, inson munosabatlarida bu ta'limot qadriyatlarini yetakchi bo'ldi. Xitoy oilasi konfutsiylik qoidalarini asosida qurilgan edi. Konfutsiylik qoidasiga ko'ra er-xotinidan ajralishi uchun 7 sabab bo'lishi shart bo'lgan: agarda xotini o'g'il tug'masa; agarda yengiltak, suyuqoyoq bo'lsa; qaynota va qaynonaga xizmat qilmasa; agar tilini tiymasa; agar qo'li egri bo'lsa ya'ni o'g'ri bo'lsa; agar rashkchi bo'lsa; agar ymon kasalga yo'lliqqan bo'lsa.

Xitoy diplomatiyasining asoslari qadimda qo'yildi va milodiy IX asrga kelib tugallandi. Uning mazmuni boshqa davlatlarga Xitoyni butun dunyoda yetakchi davlat ekanligini tan oldirish va boshqa davlatlar bilan aloqalarning yo'lga qo'yilishi, olis o'lkalarda dengiz safarlari turli ilmiy bilimlarning rivojlanishiga turtki bo'ldi. Ilmning turli sohalarini: tibbiyot, geomorfologiya va speologiya rivojlandi.

Xitoyda o'rta asrlarda ko'plab ixtirolar qilindi. Dastlab mushak-bozlikda ishlatilgan o'q-dori (porox), keyinchalik harbiy sohada ham keng qo'llanila boshlandi. XIII asrda miltiq, XIV asrdan tosh va temir o'q otadigan zambarak to'plar yaratildi. Bosma kitobning yaratilishi Xitoyda xususiy nashriyotlarning vujudga kelishini ta'minladi. Jumladan, poytaxt Pekinning o'zida 11 ta bosmaxona mavjud edi. Yevropa Xitoyning bosma ishini o'zlashtirishi natijasida Guttenbergning bosma dastgohi paydo bo'ldi.

Xitoyda astronomiya, matematika, tabiatshunoslik va tibbiyot fanlaridan olimlar qator asarlar yaratdilar. 1637 yilda olim Sun Insin "Samo yaratgan va mehnat bilan olingan mahsulotlar to'g'risida" nomli texnik ensiklopediya, Syuy Guansu Xitoy va qisman Yevropada dehqonchilik muammolari bo'yicha Qishloq xo'jalik ensiklopediyasi" yaratildi. Falsafa, tarixshunoslik fanlarining ham o'sishiga birmuncha imkoniyat yaratildi.

Badiiy adabiyotda XVI asr oxiri XVII asrda xalqning an'anaviy turmush tarzini aks ettiradigan xalq qissalari paydo bo'ldi. Bu davr xalq qissalarining oltin davri deb ataldi. Xalq adabiyotining keng tarqalishiga bosmaxonalar katta yordam berdi. Xalqchil hikoya va qissalar minglab nusxada chop etilib xalq orasiga tarqaldi. Manbalar ma'lumotiga ko'ra, birgina Sujou shahrida faqat bir oila xalq adabiyotini chop etadigan oltita bosmaxonaga egalik qilgan. Xitoy bozori yuz yil ichida xalq adabiyoti

janridagi asarlar bilan to‘lib ketgan. 1621-1644 yillar oraligida xalq qis-salarining 7 to‘plami chop etilgan. Bu davrda U Chen’chenning “G‘arbiga sayohat” hajviy asari yozilgan. Xitoy jamiyatidagi ijtimoiy tartib-qoida-larni tanqid ostiga olgan “Szin, Pin, Mey” romani, “Bizning va qadimgi vaqtning ajoyib hikoyalari” nomli hikoyalar to‘plami yoziladi.

Tasviriy san’atda yangi soha – badiiy asarlarni rasmlar bilan bezash vujudga keldi. Mamlakatda an’anaviy san’at sohalari saqlanib qolsada, asta-sekin fan, adabiyot va san’atda yangi yo‘nalishlar shakllanib, zam-ondoshlar diqqat-e’tiborini jalb qila boshladi.

Xitoy malikasi Si Si. Si Si Xitoyning so‘ngi hukmdori edi. Bu malika Xitoyni 50 yil boshqardi. Bu davr Xitoyning eng gullab yashnagan davri bo‘ldi. Si Si mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va tobora kuchayib bo-rayotgan Yevropa va Rossiyaning agressiv siyosatidan himoya qilishga harakat qildi. Malika Si Si davrida Xitoyda ilk sanoat korxonalari paydo bo‘ldi, mamlakatda metallurgiya, to‘qimachilik, shoyi fabrikalari qurildi. Xitoy burjuaziyasi oyoqqa turdi va xitoy mollari jahon bozorida keng tarqala boshladi.

Xitoyni mustamlaka qilishga erisha olmagan AQSh, Yaponiya, Angliya va Rossiya birlashib Xitoyni bo‘lib olish rejasini tuzdilar va uni amalga oshirishga kirishdilar. Malika mustamlakachilarga qarshi xitoy xalqini kurashga boshladi, Si Siga qarshi bir necha saroy fitnasi uyushtirildi. Birinchi fitna ochilib qolib, 500 fitnachi qatl etilib ularning mulki musodara qilindi. Malikaning o‘gli Tun Chji ulgayib onasining hokimiyatiga tahdid tug‘dirdi. 17 toshli shahzoda yuqumli kasallikdan vafot etdi deb rasmiy qilindi. Lekin shahzodaning jismi va va sog‘ligi betartib hayot va venerik kasallardan charchagan edi. Malikaning jiyani taxt vorisi Guan Syu 19 yoshga yetib 1889 yilda taxtga o‘tirdi. Bu vaqtda Yevropaning yetalchi davlatlari Xitoyga urush ochdilar, yosh imperator bosqinchilarga yon berishga urindi, lekin malika qatiyat bilan xalqni bosqinchilarga qarshi ko‘tardi va bosqinchilarga qaqshatg‘ich zarba berildi. Yosh imperator malikga qarshi fitna uyushtirishga urindi, lekin malikaning tazyiqi bilan taxtdan voz kechdi va hibsga olindi. Mamlakatda chet elliklarga qarshi ozodlik urushi boshlandi. Malika xalqni qo‘llab quvvatladi. Shunda mustamlakachi davlatlar Xitoyga intervensiya qildilar. 1907 yilda Xitoyni 50 yil-yarim asr boshqargan keksa malika insult natijasida vafot etdi.

Xitoy sivilizatsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari. Xitoy sivilizat-siyasi hind sivilizatsiyasi bilan bir qatorda o‘ziga xos xususiyatga ega sivilizatsiya: Hind va xitoy sivilizatsiyalari eng qadimgi davrdan uzluksiz rivojlanib kelayotgan sivilizatsiyalar; ushbu sivilizatsiyalar ning uzluksiz

davomiy rivojlanishining omili bu – an’analar, urf-odatlar, rasm-rusumlarga qat’iy amal qilish; an’anaviylikning sivilizatsiyaning barcha sohalarni qamrab olgani va ularga qat’iy amal qilishni avloddan avlodga o’tishi; sivilizatsiyaning axloqiy, ma’naviy-madaniy va iqtisodiy-ijtimoiy hayotning mazmun mohiyatini diniy e’tiqod bilan sug’orilgani va e’tiqodni yo’naltiruvchi, birlashtiruvchi va rahbarlik qiluvchi goyaviy-mafkuraviy tizim funksiyasini o’tashi bo’ldi.

XX asr Xitoy taraqqiyotida sotsialistik sivilizatsiyani qaror topishi tub o’zgarishlarga olib keldi. Mamlakat iqtisodiyatida rejali iqtisodiyot qaror topdi. Rejali iqtisodiyot Xitoyning an’anaviy muammolarini yecha olmadi. Qashshoqlik, ochlik, boshqa ijtimoiy muammolar yanada keskinlashdi. Mamlakatni boshqargan Xitoy Kommunistik partiyasi mazkur muammolarni yechimini topa olmadi.

Oqibatda XX 80 yillarida Xitoy rahbariyati mamlakatda tub islohotlarni boshladi. Xitoy islohotlarining tashabbuskori Den Syao Pin islohotlarni qishloq xo’jaligidan boshladi. 1979 yilda bir oy dehqonlarga yerni bo’lib berdi. Sanoat sohasida islohotlar 1984 yilda boshlandi. Xitoy sotsialistik jamiyat barpo qilish g’oyasidan voz kechmadi, lekin uning bayrog’i ostida bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni jadallik bilan qura boshladi. Keng qamrovli islohotlar tez orada o’zining dastlabki natijalarini berli

Xitoy sivilizatsiyasi mil. avv I ming yillikdan buyon mavjud bo’lgan sivilizatsiya. Boshqa sharq sivilizatsiyalaridan Xitoy sivilizatsiyasining farqlari: Mil. avv. IV asrda Yanszi va Xuanxe daryolari vodiysida mavjud bo’lgan 5 davlatdan biri bo’lgan Sin davlatida boshlangan keng qamrovli islohotlar kuchli markazlashgan davlat hokimiyatini shakllanishi va qo’shni davlatlarni bosib olib, Xitoy etnosining yuzaga kelishi va barqaror davlat va jamiyatni shakllanishini boshlab berdi. Sugorma dehqonchilik, hunarmandchilik va savdning rivojlanishiga qulay shart-sharoit yaratish, katta yer egalari-oqsuyak zodagonlarning o’zaro urushlarini tugatishga, xo’jalik hayotini rivojlantirishning muhim omillaridan biri mamlakatda osoyistalikni saqlash, mamlakatni himoyasi omili bo’lgan kuchli markazlashgan davlat hokimiyati shakllantirildi. Kuchli davlat hokimiyatini qo’llab quvvatlagan konfutsiylik ta’limoti asrlar davomida davlat hokimiyatini mustahkamlash, xitoy etnosini xalq sifatida shakllanishining muhim omillardan biri bo’ldi. Mamlakat zaiflashgan paytda kelib chiqishi xitoy bo’lmagan sulolalar Xitoyga hukmron bo’lganida bu sulola hukmdorlari xitoylashdi va xitoy mamlakati manfaat-ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qildi. Xitoy qadimdan o’z hududini o’zga

xalqlarning hududlarini bosib olib kengaytirib bordi. Xitoyda hukmronlik qilgan mahalliy va oʻzga sulolalar hukmdorlari mamlakat yaxlitligini saqlab qolish va kengaytirishni birinchi vazifa qilib qoʻydilar. Bu siyosat hozirgacha davom etib kelmoqda. Sharqda xususan Oʻrta Osiyo va Old Osiyoda qudratli vaqti-vaqti bilan qudratli davlatlar tashkil topdi (Kushonlar, Turk hoqonligi, Somoniylar, Xorazmshohlar, Saljuqiylar, Cnigixon davlati, Temuriylar va Usmoniylar). Ushbu qudratli davlatlar oxir-oqibatda ichki feodal nizolar, kuchli markazlashgan i shakllanmagani sababli parchalanib ketdi. Xitoy esa yuksalishlar, tushkinliklarni boshdan kechirsada, markazlashgan davlat hokimiyati mavjud boʻlgani sababli hududiy yaxlitligini saqlab qoldi.

Tayanch iboralar: manufaktura davri, ilmiy texnika inqilobi, uch faza, oʻtish davri, musulmon modeli, dunyo dinlari, jahon imperiyalari, sanoat inqilobi, industriya arafasi, Renessans, mustamlaka imperiyasi, Kondratyev sikli, totalitar, siyosiy **partiya**, elita, fashizm, qonun ustivorligi.

Takrorlash uchun savollar

1. Qadimgi Xitoydagi ilk dehqonchilik madaniyatlarini ayting.
2. Xitoy etnosining shakllanish jarayonini tasvirlang.
3. Xitoydagi ilk davlat va jamiyatlarni aniqlang.
4. Qadimgi Xitoyning siyosiy tarixini hikoya qiling.
5. Oʻrta asrlarda Xitoy davlatchiligi qanday oʻzgarishlar sodir boʻldi?
6. Xitoy madaniyatining oʻziga xos xususiyatlarini koʻrsating.

Mustaqil ish mavzulari

1. Qadimgi Xitoy davlatchiligi va jamiyati
2. Xitoy sin sulolasi davrida.
3. Qadimgi Xitoy madaniyati
4. Oʻrta asrlarda Xitoy siyosiy-iqtisodiy tuzilmasi.
5. Xitoy shahar hayoti
6. Xitoy yarim mustamlaka davlat

10-mavzu. YAPONIYA SIVILIZATSIYASI

1. Qadimgi Yaponiy sivilizatsiyasi 2. Yapon sivilizatsiyasi orta asrlarda. 3. Yangi va eng davrda Yaponiya sivilizatsiyasi

1. Qadimgi Yaponiy sivilizatsiyasi. Yapon sivilizatsiyasi o'zining mazmuni va o'ziga xosligi, hayotiyiligi bilan alohida o'rin tutadi. Uning yaratuvchisi yapon millatining turkiy xalqlar bilan qondoshligi to'g'risida malumotlar mavjud. Yaponiya hududida qadimgi odam paleolit davridan yashagani malum. XI ming yillikdan – III ming yilliklar oraligida Janubi-sharqiy Osiyodan hozir Yaponiyada yashaydigan ayni etnosning ajjdodlari ko'chib kelgan. Mil. avv. II ming yillikda janubiy mongol irqiga mansub etnoslar ko'chib keladi. Shimolda Xokkaydo orollariga eskimos-aleut etnik guruhi joylashadi. Neolit davridagi Dzyomon madaniyatini aynilarining ajjdodlari shakllantirganlar. Qadimgi Yaponiyada neolit mil. avv. IV ming yillik o'rtalaridan mil. avv. 300-yillargacha; eneolit mil. avv. 300-yillardan milodiy 300-yilgacha davom etadi. Mil. avv. I ming yillik oxirida dehqonchilik paydo bo'lgan. Mil. avv – IV asrda Janubi sharqiy Xitoy va Koreya yarim orolining janubiy qismi orqali hozirgi yaponlarning ajjdodlari ko'chib keladilar. Ular ilk bronza – Yayo madaniyatini (Yayo madaniyati qoldiqlari hozirgi Tokio shahri hududidan topilgan.) shakllantirdilar. Yayo madaniyati (mil. avv. III - milodiy III asrlar) da sug'orma dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lgan barqaror urug'-jamao shaklanadi. Bronza va temir Yaponiyaga bir vaqtda kirib keladi. Bronzadan asosan diniy e'tiqod buyumlari bo'lgan marosim oynalari, qilich va qo'ng'iroqlar, temirdan mehnat qurollari tayyorlangan.

Yaponiyada III asrdan ilk qabila ittifoqlari paydo bo'lib, urug'-jamao munosabatlari yemirila boshladi. Milodiy III-IV asrlarda yapon orollarida ilk davlatlar paydo bo'ladi. Qadimgi xitoyning "Xan sulolasi tarixi" yozma manbasida yapon orollarining taxminan mil. avv. I asrlardagi hayoti to'g'risida hikoya qilinadi. Bu manbada shunday jumla mavjud: "tinch dengiz o'rtasida yuzta davlat tashkil etib vey xalqi yashaydi" Milodiy IV asr o'rtalarida Yaponiyaning Yamato (Kinay) hududida paydo bo'lgan kichik davlatlardan biri kuchayib, uning hokimiyati barcha yapon orollariga tarqalgan. VI asrda Yamato davlatida hukmron urug' yo'l boshchilari o'rtasida hokimiyat uchun o'zaro urushlar borgan. Boshda urug'lar o'rtasidagi urushda 587 yilda Soga urug'i golib bo'ldi. 644 yilda esa Soga urug'i mag'lub bo'ldi. Nakatomi Kamatori urug'i yo'l boshchisi urugi golib chiqib, ushbu urug' vakili shahzoda Kaoru 645 yilda hokim bo'ladi va tenno (Samo o'g'li) unvonini qabul qilib Kotoku tenno unvo-

ni bilan hukmdorga aylandi, boshqacha aytganda u butun Yaponiyaning hukmdori – imperatoriga aylandi. Shu vaqtdan boshlab Yaponiyada imperator hokimiyati o‘rnatiladi.

Ijtimoiy tabaqalanish natijasida aslzoda yer egalari, erkin dehqonlar, qaram ishchi beminlar (mulki bo‘lmagan, tenno va aslzodalar xo‘jaligida ishlovchilar) va uy qullari ajralib chiqdi. Umumiy ishlov berishni talab qiladigan sholipoyalar jamoa mulki sifatida qaralgan. Xitoy iyeroglif yozuvlaridan o‘zlashtirilgan yozuv paydo bo‘ldi.

Ilk sintoizm da ajdodlar ruhiga sig‘inish kuchli an‘ana edi. Sintoizm ilohlari panteonida urug‘ ajdodlari ilohlari kirgan bo‘lib, ular urug‘ning homiysi bo‘lib, yapon jamiyatining ijtimoiy hayotida yetakchi o‘rinni egallagan edilar. Sintoning urug‘ va hududiy e‘tiqodlari bilan ruhlantiriladigan mafkuraviy tarqoqlikni tugatish uchun hukmdor sulola buddaviylik e‘tiqodini mamlakatda tarqalishini rag‘batlantirdi. Mamlakatda tarqalgan buddaviylik e‘tiqodi odamlarni o‘z urug‘i bilan yaqin bogliqligidan mahrum qildi va shaxsning yangi xilini shakllantirdi.

Harbiy boshliqlar va boy savdogarlar siyosiy yoki savdo ishlarini muhokama qilish uchun choy marosimlari uyshtirdilar. Choy shiyponining jimjitligini ta‘kidlaydigandek qaynayotgan choyning bir ohangda qulqullashini eshitib, ular o‘zlarini umuman boshqa dunyoda his qilardilar. Syogun Xideyosuning alohida homiyligidan foydalangan Seno Rikyu -Sakai shahrining fuqarosi ijtimoiy ehtiyojlargaga mos holda choy ichish-tyadoning qonunlar to‘plamini tuzib, choy marosimining butun bir tizimini ishlab chiqdi. Choy ichish marosimi ijtimoiy tabaqalanishning qat’iy tizimiga rioya qilinib amalga oshirildi: Syogun Xidayasi va uning yaqinlari “oltin” choy shiyponlarini jihozladilar. Tasodufan hokimiyat tepasiga kelib qolgan harbiy boshliqlar o‘zlarining mavqelari darajasida yamazato (tog‘dagi uya) deb ataladigan, kundalik shoviqindan uzoq tog‘larga yashiringan oddiy kulbani eslatadigan sokin shiyponlarda kamtarona choy ichish marosimi bilan rohatlanishni afzal ko‘rdilar.

Qadimgi yapon madaniyati o‘ziga xosligi, an‘analarga sodiqligi va sirli ekanligi bilan juda qiziqarlidir. Qadimgi yaponlar har xil va turli xil bosqichlardagi unsurlar asosida o‘ziga xos san‘at, adabiyot va dunyoqarashni yaratganlar. Bu madaniyat barcha zamonlar va makonda o‘z qudrati va jozibasini yo‘qotmay kelgan. Orollarda shakllangan Yapon sivilizatsiyasi turli davrlarda bu yerga ko‘chib kelgan, qit‘adan ajralgan holda mahalliy iqlimga moslashgan turli etnoslarning qo‘shilib ketishi oqibatida vujudga keladi.

Davlat boshlig‘i ham boshda turli magiya sehrgarlik marosimlaridagi ijro asosida urug‘-jamoa yig‘ilishida saylangan. Xitoyning qadimgi

«Veysi» xronikasida qadimgi yaponlarning dafn marosimlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan: «Va» (Yaponiya) odamlarida qachonki biror kishi vafot etsa 10 kun aza tutiladi,

Hozirgi yapon milliy dini sinto (yapon tilida «xudolar yo'li»)da asl yapon diniy tasavvurlari bilan birga konfutsiylik va mistik ta'limot daosizm unsurlari mavjud. Koreya yarim orolidagi Pekche davlatidan Yaponiyaga buddaviylik dini kirib keldi. V asr o'rtalarida yapon hukmdorlari davlat barqarorligini ta'minlash maqsadida mafkuraviy tarqoqlikni rag'batlantiradigan sintoning urug' va hududlar e'tiqodlari kuchini sindirish uchun rivojlangan jamiyat e'tiqodi bo'lgan buddaviylikni qabul qiladilar. Hukmdorlar o'z saroylari yonida budda ibodatxonalarini qur-dilar. Hukumat viloyat hokimlariga Buddha dini matnlari – «oltin yaraqla-gan sutralar»ni baland ovozda o'qish uchun ko'rsatma beradi. Yaponi-yaga xitoydan buddaning barcha sutralari olib kelingan edi. Sintoizm bu vaqtda diniy marosimlar o'tkaziladigan inshootlar qurilishi an'alariga ega emas edi. Ilk yapon budda ibodatxonalari janubdan shimol tomonga qaratilib, Xitoy va Koreya an'analari bo'yicha qurilgan. Qadimdan ya-ponlar inshootlarning seysmologik chidamli bo'lishiga e'tibor berganlar. Bu hol qurilishda mahalliy an'alar mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Yapon budda ibodatxonasida toat-ibodat qiladigan xona bolmagan. Ibodatxona xonalari muqaddas buyumlar saqlanadigan joy vazifasini o'tagan. Nara shahri yaqinidagi ilk budda ibodatxonalaridan biri bo'lgan Xaryudzi ibo-datxonasi hozirgacha asl holida saqlanib qolgan.

Yapon xalqining o'zagi milodiy 3-5 asrlarda mavjud bo'lgan Yam-ato davlati davrida shakllandi. Bu vaqtda yapon jamiyati oila-urug' bir-lashmalari - udzidan iborat bo'lgan. Udzi - boshlig'i odatda kohin bo'lib, o'zining quyi boshqaruv ma'muriyati va oddiy, erkin kishilariga ega edi. Bundan tashqari udzi tarkibiga yarim qaram odamlar-bemin, va qullar yasuko kirgan. Bu urug'-udzilar orasida mamlakat podshosi – tenno chiqqan hukmron udzi urug'ining mavqei kuchli bo'lgan. Tenno urug'i maslahatchilar, okrug boshliqlari – agati nusi va viloyat boshqaruvchi-lari – kunino myasukoni bergan. Tenno boshqaruvda o'zi vakolat bergan mahalliy urug' yo'lboshchilarining yordamiga tayangan.

Yapon sivilizatsiyasi o'rta asrlarda. Yaponiya tarixida VI asrning ikkinchi yarmida yangi davr boshlandi. Taniqli davlat arbobi Syoto-ku (574-622) markazlashgan davlat boshqaruvini rivojlantiradi, davlat lavozimlarini merosiy egallashning an'anaviy tartibidan voz kechib, mansablarni 12 darajasi tizimini joriy qildi. Yaponiya tarixida 17 mod-dadan tuzilgan «konstitutsiya» nomi bilan ma'lum bo'lgan hujjatni tuz-di. Bu hujjat yapon davlatchiligini markazlashuvi jarayonini tezlashtir-

di. Syotoku Yaponiyada buddaviylik e'tiqodini tarqalishida muhim ro'l o'ynadi. Syotoku hukmronligidan boshlab Yaponiya feodal davriga o'ta boshladi.

Syotoku Yaponiyada buddaviylik e'tiqodini tarqalishda muhim ro'l o'ynadi. Syotoku hukmronligidan boshlab Yaponiya feodal davriga o'ta boshladi. U 603-yilda zodagonlik darajasining (rang) yangi tizimini kiritadi. Hukmdor o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun Xitoydan kirib kelgan Konfutsiy ta'limotidan foydalanadi. Konfutsiy ta'limotida barcha fuqarolar hukmdorga bo'ysunishlari lozimligi uqtiriladi. 604-yilda esa davlatning mafkuraviy asosi qilib, konfutsiylik belgilanadi. Syotoku-tay-si Konfutsiy ta'limotida asoslanib, fuqarolarning hukmdorga bo'ysunishi to'g'risidagi qonunni e'lon qiladi.

Yaponlar qo'shni Xitoy davlati bilan yaqin aloqa o'rnatganlar. O'sha vaqtda Yaponiya davlat hokimiyati Xitoyning madaniyati, ilm-fanini o'rganish uchun Xitoyga yuzlab yaponlarni yuborgan. Xitoydan kitoblar, san'at asarlari olib kelingan. Milodiy V asrda xitoydan ieroglif yozuv o'zlashtirib olingan.

Shaharsozlikning rivojlanganligini 710-yilda qurilishi tugallangan doimiy poytaxt Nara shahrida ko'rish mumkin. Shahar reja asosida janubdan shimolga 9 ko'chaga, g'arbdan sharqqa 8 ko'chaga bolingan. 72 hududga bolingan shaharda 200 ming kishi yashashi mumkin. Savdo-hunarmandchilikning rivojlanishi bilan Yaponiya VIII asrdan o'z tanga-pulini zarb qila boshlagan. Bu davrda ilk bor jamiyatning turli sohalarini qamrab oladigan qonunchilik «Tayxoryo» shakllanadi. Jamiyatning iqtisodiy asosi bo'lgan yerning yagona egasi qonunga ko'ra davlat bo'lgan.

“Tayko islohotlari” natijasida (VII asr o'rtalari) va undan keyingi o'zgartirishlar natijasida yerlar, dehqonlar va yer egalari o'rtasida taqsimlandi (yer egalarning hammasi davlatga xizmati uchun yer ulushi egalari deb hisoblandilar).

Yaponiya III-XIX asrlarda. Yapon xalqining shakllanishi milodiy 3-5 asrlarda mavjud bo'lgan Yamato davlati davrida shakllandi. Bu vaqtda yapon jamiyati oila-urug' birlashmalari – udzidan iborat bo'lgan. Udzi – boshlig'i odatda kohin bo'lib, o'zining quyi boshqaruv ma'muriyati va oddiy, erkin kishilariga ega edi. Bundan tashqari udzi tarkibiga yarim qaram odamlar-bemin va qullar – yasuko kirgan. Urug-udzilar orasidan mamlakat hukmdori – tenno chiqqan hukmron udzi urug'ining mavqei kuchli bo'lgan.

Yaponiya davlat boshqaruvi tizimi Xitoy davlatchilik an'analari aso-

sida tashkil etilgan. Tenno sulolasi urugʻidan davlat boshqaruvi uchun maslahatchilar, okrug boshliqlari – agati nusi, va viloyat boshqaruvchilari – kunino myasukoni berilgan. Tenno boshqaruvda oʻzi vakolat bergan mahalliy urugʻ yoʻlboshchilarining yordamiga tayangan. Markaziy davlat boshqaruvi Davlat kengashida dazyokan, 8 davlat muassasasi, bosh vazirliklar tizimidan iborat boʻlgan. Mamlakat viloyatlar va uyezdlarga boʻlingan. 690 yildan har 6 yilda bir marta aholi roʻyxatga olingan, yer qayta taqsimlangan. Markazlashgan holda harbiy xizmatga chaqirish joriy qilinib, aholidan harbiy qurollar olib qoʻyilgan.

Imperatorning doimiy qarorgohi etib birinchi marta 694 yilda Fudzivara shahri quriladi. Yuz yil davomida poytaxt uch marta oʻzgartirilgan: 710 yilda Nara, 784 yilda Nagaoka, 794 yilda Kioto. Poytaxt faqat maʼmuriy markaz boʻlgani uchun poytaxt koʻchirilganda eski markaz huvillab qolgan. Viloyat va uyezd shaharlari aholisi 1000 kishidan ortmagan. VIII asrning soʻngida Yaponiyaning tashqi siyosatida oʻzgarishlar yuz beradi. Xitoy bilan aloqalar tasodifiy holga aylanadi, lekin Koreya yarim oroli bilan savdo aloqalari kuchayadi. 792 yilda majburiy harbiy xizmat bekor qilinadi, qirgʻoq chegara qoʻriqchilik xizmati tugatiladi.

X-XII asrlarda hokimiyatni desentralizatsiyasi jarayoni kuzatiladi. Endilikda davlat boshqaruv apparatini imperator boshqarmaydi, imperator faqat hukmdorlik qiladi. Uning atrofida amaldorlar apparati shakllanmadi, davlat boshqaruvini qon-qarindoshlik aloqalari bilan bogʻlangan zodagonlar egallab oldilar. Hukmdor sulolasiga ayollarni yetkazib beradigan Fudzivara urugʻi IX asrning ikkinchi yarmidan amalda mamlakatni boshqara boshladi: 858 yildan balogʻatga yetmagan hukmdorlar otaligʻi-regentiʻ 888 yildan hukmdor oldida kansler yaʼni bosh vazir lavozimlarini Fudzivara urugʻi vakillari egallaydi.

Mamlakatda siyosiy-iqtisodiy oʻzgarishlar natijasida X asrda hukmdor-tennoning markazlashgan hokimiyati zaiflashib, hokimiyat katta yer mulk egasi zodagon uylariga oʻtdi. Yer, daromadlar va lavozimlar ana shu bir biriga raqib boʻlgan zodagon uylar qoʻlida toʻplandi. Katta yer egalari uylari oʻrtasida ozaro kurash borib mamlakatning shimoli-sharqidagi oʻbroʻli katta yer egalari biri Minamoto Yerimoto syogun unvoni bilan oliy hokimga aylandi. Kamakura shahri syogun Minamoto hukumati (bakufu)ning qarorgohiga aylandi. Minamoto syogunati 1335 yilgacha davom etdi. Ikkinchi syogunat katta yer egalari zodagonlar uylari oʻrtasidagi oʻzaro urushlar natijasida Asikaga zodagon uyining 1335 yilda hukmronligi oʻrnatilishi bilan boshlanib 1573 yilgacha davom etdi. Mamlakatda feodal tarqoqlik kuchayib XVI asrda siyosiy tarqoqlikni tugatish zaruriyati paydo boʻldi.

Siyosiy hayot. Syogunlik davrida hukmdor saroyi va Kioto hukumati tugatilmadi, chunki harbiy hokim syogun hukmdorning o‘bro-e‘tiborisiz mamlakatni boshqara olmas edi. Birinchi syogun Minamotoning vorislaridan hokimiyatni Sikkenlar (boshqaruvchilar) deb ataladigan Xodzyo uyi egallab oldi. Imperator saroyi 1232 yilda Sikken hokimiyatini tugatishga urindi. Lekin saroyga sodiq harbiy qism yanchib tashlanib, saroy tarafdorlarining yer mulki musodara qilingan. Sikkenlar huzurida oliy vassallardan maslahat kengashi tashkil etildi. Vassallar syogunlikning tayanchi bo‘lib, merosiy qo‘riqchilik va harbiy xizmatni o‘tadilar. Zodagonlar katta yer-mulk va davlat yerlariga egalik qilib ma‘mur (dzito) lavozimiga va viloyatlarda harbiy gubernator etib tayinlandilar. Syoguning harbiy hukumati - bakufuning hokimiyati faqat harbiy-politsiya funksiyalari bilan cheklanib, mamlakatning barcha hududini qamrab olmagan edi. XV asrning birinchi yarmida syogunning markaziy hokimiyati kuchli edi. Syogunlar viloyat gubernatorlari (syugo)ning hokimiyatini viloyat ustidan nazoratini cheklashga harakat qildilar. Shu maqsadda syogunlar mahalliy katta yer egalari bilan bevosita vassallik aloqalarini o‘rnatdilar, markaziy va g‘arbiy viloyatlarning syugolarini Kioto shahrida, mamlakatning sharqiy qismidagi syugolarni Kamakuraga yashashga majbur qildilar. Syogun Asikaganing 1441 yilda o‘ldirilishi bilan mamlakatda qariyb yuz yilga cho‘zilgan feodallarining o‘zaro urushlari va siyosiy tarqoqlik davri boshlandi.

Yaponiyaning siyosiy arboblari Oda Nobunaga (1534-1582), Toyotomi Xidzyosi (1536-1598) va Tokugava Izyasu (1542-1616) bu vazifani bajardilar. Uchinchi va oxirgi syogunlik davri 1603-1807 yillarni o‘z ichiga oladi. Oda Nabunaga 1573 yilda kuchli daymyolarning o‘zboshimchiliklarini tugatib, budda monastirlarining qarshiligini yengdi va Asikara uyining so‘nggi syogunini hokimiyatdan chetlashtirdi va 1582 yilga kelib viloyatlarning yarmini egalladi. Nobunaga tarqoqlikka chek qo‘yadigan, iqtisodi-ijtimoiy taraqqiyotni ta‘minlashga qaratilgan islohotlarni amalga oshirdi.

Janubiy viloyatlar daymyolari o‘q otish qurollariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun xristianlarni mamlakatga kirib kelishiga yordam berdilar. XIX asrning 30 yillarida syogunlik tushkilikka uchrab 1866 yilda syogunlik hokimiyati tugatildi va 1866 yilda mamlakatda hokimiyat 16 yoshli imperator Misuxito (Meyzi)ga topshirildi. Milliy – vatanparvar kuchlar uchun imperator Yaponiyani birlashtiruvchi, porloq taraqqiyotini ta‘minlovchi ramzga aylandi. 1867 yilda vatanparvar kuchlar Meyzi (marifatli inqob)ni amalga oshirdilar. Meyzi inqilobi Yaponiya tarixi va sivilizatsiyasini yangi davrga haqiqiy demokratik jamiyat qurilishi bosh-

langan uzoq yoʻlni ochib berdi. Meyzi inqilobidan boshlab yuz yil davom etgan siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-islohotlar boshlandi va bu inqilob natijasida Yaponiya XX asrning 60 yillaridan jahonning yuksak taraqqiyotga erishgan 7 yetakchi davlatidan biriga aylandi.

Iqtisodiy-ijtimoiy hayot. XII asrdan boshlab yapon shaharlari yuz yil davomida jadal rivojlanib, savdo-hunarmandchilik sohalari oʻsib bordi. Savdo-sudxoʻrlik faoliyati yuqori darajada rivojlandi. Ulgurji savdogarlar (toya) guruch oldi sottisi, sudxoʻrlik bilan shugʻullandilar va undan tashqari guruch arogʻi ishlab chiqardilar, yoʻllarni qurdilar, yoʻl yoqalarida mehmonxonalar tashkil qildilar. Mahalliy hokimlarga kredit-qarz berib oʻz mavqelarini kuchaytirdilar. Hunarmandchilik-savdoning rivojlanishi shaharlarning iqtisodiy rolini oʻsishiga sabab boʻldi. Shaharni oʻz-oʻzini boshqaruvi tashkil topdi. Oqsoqollar saylanib, shaharning oʻz qoʻriqchi harbiy qismi paydo boʻldi.

Mamlakat aholisi koʻpayib, mahsulot ishlab-chiqarish ham koʻpaydi. Savdo-hunarmandchilik rivojlanib yangi shaharlar yuzaga keldi. Yangi shaharlar gavjum yoʻl yoqalari, monastirlar va qasrlar yonida paydo boʻldi. Mahalliy hokimlarning oliy hokim - syogun hokimiyati bilan aloqasi zaif edi. Oʻziga xon, koʻlankasi maydon boʻlgan mahalliy hokimlar oʻz viloyatlarida hunarmandchilik-savdoning rivojlanishidan manfaatdor edilar. Shu sababli ular oʻz qasrlari yonida shaharni paydo boʻlishiga monelik qilmadilar, aksincha shaharda hunarmandchilik-savdonini rivojlanishini ragʻbatlantirdilar. Mahalliy hokim Ota 1457 yilda Edo qasrini qurdi, bu qasr boʻlgusi Tokio shaharning boshlanishi edi. XVI asr oxirida 83 qasr yonida 83 ta shahar mavjud edi. Yaponiyada XI asrda 40 shahar boʻlsa, XV asrda 85, XVI asrda 269 shahar mavjud edi. Shaharlarda hunarmand-savdogarlarning birlashmalari paydo boʻldi. Tokugava syogunligi davrida shaharlar, ulardagi hunarmandchilik va savdo markaziy hokimiyatga boʻysundirildi. Mamlakatda 200 katta yer egasi – 200 daymyolarning cheksiz hokimiyati tugatildi. Tokugava tuzumiga keskin qarshi boʻlgan daymyolar mamlakatning turli hududlariga tarqatib yuborildi. Qishloq xoʻjaligi, shaharlarda savdo-hunarmandchilikni rivojlanishi bilan hududlar, shaharlar orasida savdo aloqalari kuchaydi. Xitoy, Koreya yarim oroli va janubi sharqiy Osiyo bilan savdo aloqalari muntazam tus ola boshladi.

Shaharlarda hunarmandlar sexlarga uyushgan edilar. Hunar merosiy boʻlib oʻtar edi hunarmandchilikda ichki tabaqaviy toifa-usta, undan keyin shogird tuzilmasi qatʼiy edi. Savdogarlar ham oʻz birlashmalari-gildiyalaga birlashgan edilar.

Tokugava syogunlik tuzumi davrida mamlakatni siyosiy-ijtimoiy barqarorligini ta'minlash maqsadida XVIII asr oxirida islohotlar o'tkazildi. Davlat xarajatlarini kamaytirish va tejash tadbiri amalga oshirildi. Amaldorlarni poraxorligi uchun qat'iy jazolar qo'llanildi. Guruch savdogarlari guruchni qarzga berishda yuqori foizlarini pasaytirishga majbur qilindi. Katta yer egalari (daymyo)ga yangi soliqlar yuklandi. Va ularga hosilsizlik yuz berishi ehtimoliga qarshi zahiralalar yaratish majburiyati yuklandi. Shu bilan bir vaqtda dehqonlarning mehnat majburiyatlarini qisman bekor qilinib, ularning ahvoli yengillashtirildi. Sug'orish tizimi yaxshilandi.

XIX asrning 30-40 yillarida hukumat tomonidan savdogarlar yuqori soliqlarga tortildilar, narx-navoni ustidan nazorat qilishga harakat qilindi va shaharga ketib qolgan dehqonlarni o'z yerlariga qaytarishga harakat qilindi. Jamiyat axloqini yaxshilash uchun har qanday ortiqcha xarajat va hashamatga berilish va tamaki chekishga taqiq qo'yildi.

Agrar soha. Syogun hokimiyati o'rnatilishi bilan agrar sohada jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Yer egaligida katta yer egaligi, hukmdot yerlari va syogunlarning qudratli vassallari yerlari bilan bir qatorda kichik samuray yer egaligi yetakchi o'rinni egalladi. Oda Nobunaga, Toyotomi Xideyosi va u Ieasu katta yer egalari – daymyolarni markaziy hokimiyatga bo'ysunishga majbur qildilar va feodal munosabarlarni tizimga soldilar. Xideyosi mavjud pomeste yerni hisobga oldi, pomeste tizimi qoldiqlarini tugatdi. Va feodal yer egaligi tizimini barpo etdi. Dehqonlar o'z yeriga birlashtirib qo'yildi. Hukumat 1591 yilda qat'iy toifa tizimini joriy qildi: Jamiyat harbiylar (samuraylar), shaharliklar va qishloq aholisiga bo'lingdi. Shu bilan birga kishilarni bir toifadan ikkinchi toifa o'tishi qat'iy taqiqlandi, dehqonlardan qilichlar tortib olindi va dehqonlarga qurol olib yurish taqiqlandi.

Mamlakatning yopilishi. Yevropaliklardan portugallar birinchi bo'lib 1543 yilda Yaponiyaning Tanegasime oroliga keldilar. Portugallar o'zlari bilan o'q otuvchi qurollarni va xristian e'tiqodini olib keldilar. Keyin esa gollandlar va inglizlar keldi, ispanlar Meksika orqali paydo bo'ldilar. 1549 yilda missioner – katolik Fransisk Ksav'e Yaponiyada missionerlik faoliyatini boshladi, Katolik portugallar Yaponiyani o'z ta'sir doirasiga olish uchun xristian dinini tarqatib missionerlik faoliyatiga faol kirishdilar. Xorijiy savdogarlarni jalb qilish, o'zaro nizolarda yevropaliklarni yordamiga suyanish (o'q otish qurollariga ega bo'lish) uchun mahalliy hokimlar xristianlikni qabul qildilar va o'z vassallarini ham shunga majbur qildilar. Katolik dinini tashfiqot qilish ayniqsa Kyusyu

orolida keng avj oldi. Orolida xristian maktablari va cherkovlari ochildi.

Mamlakatni birlashtirish siyosatini olib borgan Oda Nobunaging siyosatiga qarshi keskin qarshi chiqqan buddaviylik monastirlarini qarshiligini sindirish uchun Nobunaga XVI asrning 40-yillarida xristian e'tiqodiga homiylik qildi. Yaponiyada 1580 yilga kelib 150 ming xristian, 200 xristian cherkovi va 15 seminariya mavjud edii. XVII asrda Yaponiyada xristianlarning soni 700 ming kishiga yetdi. Yevropaliklar bilan muloqot jarayonida yaponlar Xitoy va Hindistondan boshqa garb davlatlari ham borligini bildilar.

Oda Nobunaging safdoshi va davomchisi Toyotomi Xideyasu xristian e'tiqodining aholiga ta'siri kuchayib ketayotganini ko'rib xristianlarga homiylik qilmadi, missionerlarni mamlakatdan surgun qildi, xristianlik e'tiqodiga o'tgan yaponlarni ta'qib qildi, Xristianlikni tarqatish o'chog'i bo'lgan cherkovlarni yo'q qildi. Xristianlik adabiyotini chop qiladigan bosmaxonalarni tugatdi.

Umuman olganda, XVII asrning birinchi yarmida mamlakatda yapon xristianlarini ko'payib ketishi va yevropaliklarning xristian e'tiqodi vositasi bilan Yaponiyani qaram qilishi tahdidini kuchayishiga qarshi syogunlar Tokugava Ieyasu va Tokugava Iemisu xristian dinini taqiqlash, missionerlarni mamlakatdan chiqarib yuborish, chet elliklarni Yaponiyaga kirishini taqiqlash va yaponlarni mamlakatdan chiqib ketishiga qarshi o'lim jazosi berish tahdidi bilan 1633, 1636, 1639 yillarda tegishli farmonlarni chiqardilar.

Xristianlikni targ'ib qiladigan Yevropa va Xitoy kitoblarini olib kirish taqiqlandi. Tokugava Ieyasu missionerlik faoliyati taqiqlangan portugallarni ta'sirini zaiflashtirish maqsadida ingliz va gollandlar bilan muloqotni yo'lga qo'ydi. Faqat Golland va Xitoy savdo kemalariga cheklangan miqdorda Nagasaki portiga kirishga ruxsat berildi. Bu ko'rilgan chora tadbirlar yevropaliklarning Yaponiyaga bosqinchilik xavfini ikki yuz yilga yaqin orqaga surdi. Va mamlakatni barqaror rivojlanishi uchun tashqi xavfsizlikni ta'minladi. Bu vaqtda Yevropa Amerika, Afrikaga ekspansiya boshlab bu hududlardan bosib olingan moddiy boyliklarni o'z iqtisodiyotini bozor munosabatlari asosida rivojlantirish uchun sarflashga o'tayotgan edi. Endigina oyoqqa turayotgan Yevropa hali bu uzoq o'lkani bosib olishga tayyor emas edi.

Samuraylar. Katta yer egalari – zodagon uylar o'zaro nizolarda g'olib chiqish va o'z manfaatlarini himoya qilish uchun harbiy qismlarni tuzdilar. Bu harbiy qism – kasbi harbiy ish bo'lgan harbiy kishilar- yopiq harbiy-samuraylar (busi) qatlamiga aylandi. Samuraylar qatlamini syuzer-

en-vassal shaklida yuzga keldi. Syuzeren (katta yer egasi) o‘z xizmatchisi samurayga xizmati uchun yer mulk berdi. Buning evaziga vassal o‘z xo‘jayiniga tinchlik va urush paytida sadoqat bilan xizmat qilishi, uni iqtisodiy va harbiy jihatdan qo‘llab quvvatlashi lozim edi.

Vassalitet munosabatlari otadan o‘g‘ilga o‘tgan. Vassalitet shartnomasi o‘zaro himoya va o‘z mavqeini jamiyatda kuchaytirish maqsadida tuzilgan. Samuray qatlam axloqi (busi) va busido (“samuray yo‘li”) shaklandi. Boshda barcha samuraylar o‘z mulklariga ega bo‘lib qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanar edilar. Shu sababli vassallarning syuzerenga nisbatan qaram emasligi qat‘iy edi. Samuraylarning eng quyi qismi mulka ega bo‘lmagan-rotto edi, o‘rta va undan yuqori darajada turgan samuraylar uchun syuzerenga qulday xizmat qilishga hojat yo‘q edi. Syuzeren hokimiyati kuchayishi bilan imtiyozga ega bo‘lmagan samuraylar yerdan uzoqlashib, oddiy guruch bilan ish haqi oladigan yollanma xizmatchiga aylandilar. Vassallar Edo davrida o‘z mustaqilliklarini to‘la yo‘qotdilar. Samuraylar jangda syuzeren uchun jon-jahdlari bilan jasorat ko‘rsatib urushdilar. Lekin lekin “o‘z harbiy jasoratlari” uchun mukofot talab qildilar. Bunga dalil samuraylarning jasorat ko‘rsatgani uchun xo‘jayindan mukofot talab qilib yozgan son sanoqsiz iltimos xatlari. Samuraylarning axloqi syuzeren uchun o‘zini haqiqiy qurbon qilish darajasidagi axloq emas edi. Agar vaziyat o‘zgarsa samuray o‘zining eski xo‘jayinini tashlab ketar edi. Samurayning butun hayotiy faoliyati o‘z oilasini boqish va o‘z avlodining kelajagini ta‘minlash maqsadiga qaratilgan edi. Xo‘jayinga xizmat qilish bu maqsadni amalga oshirish vositasi edi.

Yaponiya siyosiy tarixida samuraylar XI asrdan XIX asrning 60 yillarigacha yetakchi ijtimoiy qatlam bo‘lib, badiiy adabiyotda harbiy sarguzashtlar janrining qahramonlari bo‘ldilar. Yapon badiiy adabiyotida mashhur bo‘lgan harbiy janrdagi “Xeyke monogatari”, “Xogen monogatari”, va “Xeyzi monogatari” asarlarida samuraylarning janglardagi jasoratlari hayotiy tasvirlandi. Samuraylarga xos bo‘lgan vassalning syuzerenga sadoqati, o‘limga tik borish, nihoyasiz jasorat, burchga sadoqat, syuzerening vassalga marhamati, o‘z oilasi va kavlodlariga g‘amxo‘rlik kabi samuray axloqi ifodali bayon qilingan. Lekin badiiy adabiyotda samuraylarning dehqonchilik qilishi, kundalik hayoti ko‘rsatilmadi.

Zamonaviy taraqqiyot asoslarini yaratilishi. Yaponiya 1867-1868 yildagi Meyzi inqilobidan keyin bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni qurishga qat‘iy kirishdi. 1889 yilda BYUK YAPONIYA IMPERIYASI Konstitutsiyasi qabul qilindi. Konstitutsiyasi uchun asos bo‘lib ayrim janubiy nemis davlatlari konstitutsiyalari xizmat qildi. Kon-

stitutsiya imperatorga cheklanmagan huquqlarni berdi, parlamentning huquqlari esa sezilarli bo'lmadi. Konstitutsiya qabul qilinishi bilan bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot jadal rivojlandi va XX asrning birinchi yillarida sanoat inqilobi asosan tugallandi. Mamlakatni modernizatsiya qilish siyosiy va iqtisodiy sohalarda amalga oshirildi va "boy davlat va kuchli armiya"ni yaratish maqsad qilib qo'yildi. Yapon-xitoy, rus-yapon urushlari Yaponiyani modernizatsiya jarayonini jadallashtirdi. Urushdan olingan katta miqdordagi pul mablag'lari sanoatni rivojlantirishga yo'naltirildi. Sanoat, savdo va banklarning mablag'lari qo'shib ulkan konsernlar vujudga keldi. Yaponiya faol tashqi siyosat olib bordi. Qo'shni Xitoy va Koreya mamlakatlariga tazyiqi kuchaydi.

Ilm-fan taraqqiyoti. Yaponiyada zamonaviy ishlab-chiqarishning jadal rivojlanishi hukumatni ilm-fanni rivojlantirish uchun davlat siyosatini tubdan qayta qurishiga olib keldi. umumiy ta'lim tizimida ilmiy tadqiqotlarni rag'batlantirish maqsadida universitetlar, ilmiy tadqiqot institutlari tashkil etildi. Aholining barcha qatlamlari orasida ilmiy bilimlarni tarqatish tizimli amalga oshirila boshlanhdi. Ta'limning barcha bosqichlarida pragmatik ta'lim joriy qilina boshlandi.

Meyzi inqilobining birinchi yillarida bor kuch bilan g'arbning ilmiy yutuqlarini o'rganish va o'zlashtirish boshlandi. Universitetlarga maruza o'qish uchun g'arb olimlari taklif etildi, ayrim fanlar chet tillarda o'qitildi. O'rta maktabda chet tillarini o'qitish joriy qilindi. XX asr boshlaridan yapon hukumatining ilm-fan va ta'lim taraqqiyotini davlat siyosatiga aylantirishi ilk natijalarini bera boshladi. Ilm-fan taraqqiyoti natijasida Yaponiya oyoqqa turdi, yapon olimlari mustaqil ilmiy tadqiqotlarni olib borishga kirishdilar. Ilk bor Yapon olimlari dunyo miqyosida kashfiyotlarni amalga oshirdilar: Yapon olimi Kokito Mikimoto tajribalar natijasida sun'iy marvaridni yaratdi (1893). Kitazata Sibasaburo o'lat kasalini qo'zg'atuvchilarini topdi; Siga Kiyosi dizenteriyani qo'zg'atuvchisini ochdim Takamine Zyokiti adrenalinni kashf qildi; Kimura Xisasining kengliklarni og'ishi tadqiqotlari sohasidagi ilmiy ishlari; Nagaoko Xantasoning atom tuzilmasi tadqiqoti; Suzuki Umetaroning orizaning (B vitamini)ni kashf qilishi; Xonda Kotaroning maxsus p'olat navlarini o'rganishi va b.

Ilm-fanning rivojlanishi yapon iqtisodiyotining jadal o'sishining yetakchi omillaridan biri bo'ldi. Hozirgi kunda Yaponiya fanga sarflanadigan mablag'lar, ilmiy xodimlar bo'yicha rivojlangan mamlakatlar orasida ikkinchi o'rinda turadi. Ilmiy-tadqiqot ishlari va tajriba-konstruktorlik ishlarigi ajratilgan mablag'ning 92 foizi tabiiy va aniq fanlar ulushiga

to'g'ri keladi. Ilmiy xodimlarning 90 foizi ham tabiiy va aniq fanlar sohasida band.

Yapon universitetlari o'z ilmiy tadqiqot markazlariga ega. Yaponiyada ilmiy-tadqiqot ishlari bilan ixtisoslashgan ilmiy tadqiqot institutlari, universitetlar va va boshqa oily o'quv yurtlari, va xususiy sanoat korxonalarini shug'ullanadi. Mamlakatda 1 mingdan ko'proq ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot muassasalari mavjud, uning tarkibiga idoralarning, municipal, xususiy ilmiy tadqiqot institutlari hamda ijtimoiy korporatsiyalar kiradi. Yaponiyada idoralarga qarashi ilmiy tadqiqot institutlari davlat tomonidan moliyalashtiriladi., Bunday ITI lar 100 ta bo'lib, ilmiy xodimlari 10 ming kishini tashkil etadi, ular davlat tomonidan moliyalashtiradi. Ayrim universitetlarda ixtisoslashgan ITI lari mavjud, misol uchun Tokio universitetida shunday 10 ITI, xususiy universitetlarda 90 ixtisoslashgan ITI tashkil etilgan.

Ikkinchi jahon urushidan Yaponiya xo'jaligi vayrona holatda chiqdi. Toshko'mirdan boshqa yoqilg'i-xomashyo zahirasiga ega bo'lmagan Yaponiya XX asrning 60 yillari oxiridan rivojlangan mamlakatlar orasida sanoat ishlab-chiqarishi bo'yicha 2-nchi o'ringa, yalpi 70-yillar boshida milliy mahsulot hajmi bo'yicha ham 2-nchi o'ringa chiqdi. 1950-1973 yillarda Yapon iqtisodiyotining yalpi o'sishi rivojlangan mamlakatlar orasida eng yuqori bo'lib yillik o'sish 11 foizni tashkil etdi. 1970 yillar o'rtalaridagi iqtisodiy tushkinlik, yapon hukumatini va tadbirkorlarini iqtisodiyotni yuqori darajada yoqilg'i-xomashyoga qaramligini tugatishga undadi. Yapon iqtisodiyoti yoqilg'i-xomashyoni minimal is'temol qilishga va fanga asoslangan tuzilmani yaratish asosida tubdan qayta qurildi. Natijada Yaponiya iqtisodiyotida 70 yillarning ikkinchi yarmidan ijobiy siljishlar yuz berdi. Yaponiyaning ulushi 1975 YILDA 13,2 foizdan 1989 yilda 17,9 foizgacha o'sdi, eksportshunga mos 8 foizdan 13 foizgacha o'sdi. Yaponiyaning iqtisodiy qudrati barqaror kuchaib bordi. 1989 yilda ning Yaponiya oltin-valyuta zahirasi 84,9 mlrdga yetib, rivojlangan mamlakatlar orasida 1-oringa chiqdi. 2018 yilda esa 2 trln dollarni tashkil etib Xitoy (3 trln) dan keyin ikkinchi o'rinni egalladi. 2021 yilda Yaponiyaning yalpi milliy mahsuloti qariyb 6 trln. dollarni tashkil etdi.

Xo'sh, Yaponiyaning bu yutuqlarining omillari nimada edi? - Eng avvalo yapon xalqining milliy o'zligini anglashining yuksakligi, o'ziga xos bukilmias irodasi, uning o'ta mehnatsevarligi;

Harbiy xarajatlarning pastligi; o'z mablag'larini ilmiy tadqiqot ishlari rivojlantirishga sarflashda tejash erika, garbiy yevropa patent va lisenziyalarini erkin olish imkoniyati; jahon bozorida yoqilg'i-xomashyon-

ing past narxlari; yapon ishchi kuchining nisbatan arzonligi; yapon ishchi kuchining malakasini yuqori sifati (milliy kasbiy va umumiy ta'limning yuqori saviyasi, ta'lim tizimi va sifatini davlat hokimiyati tomonidan atroflicha mukammal boshqaruvini amalga oshirilishi va uning natijasida yapon ishchi xodimlarining yuqori darajadagi mehnat motivatsiyasini ushlab turilishi); Yaponiyaning iqtisodiy taraqqiyotini davlat tomonidan yuqori darajada samarali boshqarib turilishi; jumladan iqtisodiyotning fuqarolik sektoriga yo'naltirilgan tadbirkorlik uchun davlat mablag'larini ajratilishi,, iqtisodiy taraqqiyot yo'nalishida qat'iy qarorlarni ishlab-chiqishda davlat va xususiy sektor o'trasida faoliyatning yuqori darajada muvofiqlashtirilishi bo'ldi.

Aholi soni o'sishi bilan (130 mln kishi) yapon qishloq xo'jaligi oziq-ovqatga ixtisoslashdi. 1946 yildagi yer islohoti bilan kichik yer egaligi yuzaga keldi. 68 foiz dehqon xo'jaligining har biri 1 gektardan, 40,4 foizdehqon 05 ga yerga ega, 3 ga yerga ega dehqonlar 4 foizga yetmaydi. Yer juda qimmat bo'lib, yollanma mehnat deyarli qo'llanilmaydi. Aholining guruch iste'moli kamayib, go'sht, poliz ekinlari va sabzavot istemoli keskin ko'payish an'anasi ko'rinadi. Go'sht va go'sht mahsulotlari iste'moli 1960-1985 yillarda 5 martaga ko'paygan.

Madaniyat. Adabiyot. Yapon adabiyotining ilk namunalari VII-VIII asrdagi Tayxoro qonunlar to'plami, "Kodzika" tarixiy mifologik to'plam, hamda "Nixongi" tarixiy, "Fudoki", Yaponiya viloyatlarini tarixiy-geografik tasviri bo'ladi. Ilk adabiy yodgorlik VIII asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan Manyosyu"da yirik shoirlar Xitomaro, Akaxito, Akamura va boshqalar bilan birga folk'lor poeziya o'z aksini topgan. IX asrda "Kokinvakasyu" antologiyasida lirik poeziya yanada rivojlanadi. IX- xiv asrlarda yapon adabiyotida prozaik badiiy janr ruknida qissa, poman, harbiy eposlar shakllandi. Oddiy xalq hayotini tasvirlaydigan poetik va prozaik adabiyotning yorqin namunalari XI-XVII asrlarda paydo bo'ldi.

Yaponiya o'ziga xos, an'anaviy madaniyati, ilm-fani madaniyati o'z siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy muhiti va davriga mos ravishda rivojlandi. XVII asrda fanning ijtimoiy-gumanitar sohalarida jiddiy ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Tarix fanida Mito urugidan bo'lgan Xayasi va Tokugava tarix sohasida fundamental tadqiqot bo'lgan "Bizning mamlakatimizni umumiy tarixi" nomida 310 jildli asarni yaratdilar. Mito tarix maktabining tadqiqotlarini Mitsukuni "Asosiy annallar" va "Tarjimai hollar" asarlarini yaratdi. "Tarjimai hollar" keyingi yapon tarixchilari tomonidan davom ettirilib, 1906 yilda "Buyuk Yaponiya tarixi") nomi bilan jadvallar va tarixiy xronikalar bilan 397 jildda yakunlandi. Tarixchi Arai Hakuseki

Yaponiya tarixini ilmiy, tarixiy haqiqat tamoyilida tadqiq etishda katta yutuqlarga erishdi. Ayniqsa uning asarlari orasida “Qadimgi tarix qissasi” asarida “ilohlar erasi”ni tarix qmetodlari asosida tahlil qiladi.

Agrar sohada Miyadzaki Yasusada “Qishloq xo‘jaligi ensiklopediyasi” asarini yaratdi. Matematika sohasida Seku Takakadzu differensial va integral hisoblash bilan shug‘ullandi.

San’at. Yaponiya teatr san’ati qadimdan rivojlanib turli janrlarda hozirgacha yashab kelmoqda. Ayniqsa yapon an’anaviy teatri “Kabuki” XVII asrdan shahar xalq ommasining teatriga aylandi. Kabuki iborasi “toyish, chetga chiqish” ma’nosini bildiradi O‘zining tutishi, kiyinishi bilan ajralib turish, ko‘chada odamlarni diqqatini o‘ziga tortish bilan ajralib turadigan odamlar “kabuki mono” deb atalgan. Odatdan tashqari kiyimlarda ijro etiladigan raqslar ham “kabukiodori” deb atalgan. Kabuki teatri repertuari asosan eski mumtoz pe’salar bo‘lib, bu pe’salarda zodagonlar va oddiy xalqning hayotini aks etadi va, hozirgacha yapon teatrlarining yetakchi ommabop janri hisoblanadi

Yaponiyada ilk gazeta “kavaraban” XVII asr boshlarida Osaka shahrida chiqa boshlagan. Gazetaning har bir soni o‘z nomiga ega bo‘lgan va ma’lum bir voqeaga bag‘ishlangan. Ilk jurnal “Meyroku dzassi” olimlar uchun ilmiy mazmunda 1873 yilda chop etiladi. Radio 1935 yilda Televizion 1960 yilda, rangli televizor 1963 yilda paydo bo‘ldi.

Tayanch iboralar. Nippon, Yayo, Va odamlari, sinto Amaterasu, tennō, daymyō, Tayko islohotlari, Minomoto, syogun, samuray, Meyzi, yapon mo‘jizasi

Takrorlash uchun savollar

1. Yapon orollariga migratsiya to‘grisida nimani bilasiz?
2. Yapon orollarida ibtidoiy jamoa davri qanday kechdi?
3. Yapon diniy e’tiqodi va unga buddaviylik va konfutsiylikning ta’siri
4. Yapon davlatchiligining asosiy sanalarini ayting.

Mustaqil ish mavzulari

1. Yapon davlatchiligi genezisi. Tayko islohotlari
2. Yaponiyanin birlashtirish uchun kurash
3. Meyzi inqilobi va uning tarixiy ahamiyati
4. Yapon madaniyatining manba va omillari
5. Zamonaviy va an’anaviy yapon jamiyati

11-mavzu. SAK-SKIF SIVILIZATSIYASI

1. Sak-skif sivilizatsiyasini o'rganish manbalari. 2. Asosiy siyosiy voqealar. 3. Ijtimoiy hayot. 4. Sak-skif madaniyati.

1. Sak-skif sivilizatsiyasini o'rganish manbalari. Eng qadimgi sivilizatsiyalar qatorida sak-skif sivilizatsiyasi o'ziga xos o'rinni egallaydi. Ushbi sivilizatsiya tarixini o'rganmaslik, insoniyatning eng qadimgi madaniyatining ajralmas bir qismini e'tibordan chetda qoldirish yoki uning bir qismini unutish demakdir. Qadimgi va qisman o'rta asrlarda barcha davlat va jamiyatlar ko'chmanchi urug'-qabilalarning o'troqlashuvi asosida vujudga keldi. Saklar hozirgi barcha turkiy xalqlarning ajdodlari ekanligi qator manbalarda tasdiqlangan. Jahon tarixida ilk davlat va jamiyatlarning asoschisi sak qabilalari bo'ladi. Mil.avv. II ming yillikda Shimoliy Xitoydan O'rta Osiyo, Sibir, Oltoy, Uraldan toki Shimoliy Qora dengiz, Dnepr bo'ylarigacha cho'zilib ketgan bepoyon cho'l-dasht, tog'lik hududlarda yashagan ko'chmanchi-sak urug'-qabilalari va davlatlari betakror, ulug'vor sivilizatsiyani yaratdilar. Bu sivilizatsiya fanda Buyuk cho'llar sivilizatsiyasi yoki sak-skif sivilizatsiyasi deb nomlanadi. Yunon-rim yozuvchilari o'z asarlarida Yevropa hududida yashagan saklarni Osiyo saklaridan ajratish uchun ularni skiflar deb atadilar. Sak skif sivilizatsiyasi turli xalqlar, etnoslar va davlat va jamiyatlarning savdo aloqalari, o'zaro muloqoti, siyosiy-madaniy, iqtisodiy munosabatlarini yo'lga qo'yishda, xalqaro savdo yo'llarini xavfsizligini ta'minlashda asrlar davomiya muhim ro'l o'ynadi.

Sak-skif sivilizatsiyasini o'rganish uchun. qadimgi tarixiy manbalar, qadimgi sharqning ko'p sonli epigrafik yodgorliklari, qadimgi sharq va garb yozuvchilarining asarlari, mifologiya, lingvistika, etnografiya, etnologiya, arxeologiya antropologiya fanlari xilma-xil ma'lumotlarni beradi. Ayniqsa arxeologiya fani yo'nalishida olib borilgan qazilma topilmalari yuz minglab ashyoviy dalillar, artefaktlarni beradi. Qator mamlakatlardagi muzeylarda sak-skif sivilizatsiyasiga tegishli yuz minglab san'at-madaniyat yodgorliklari saqlanadi. Tarix fani bo'yicha yuzlab tarixchilarning sak sivilizatsiyasi to'g'risidagi qimmatli ilmiy tadqiqotlari amalga oshirilgan. Qarang Gasanov Z. Sarskie skifi Nyu York; Suleymenov O. Sobranie sochineniy. Tyurki v doistorii T. 5. Almati. Rays. T. Skifi: Stroitelni stepnix piramid. // Zagadki drevnix sivilizatsiy. M. Gumilyev N. Tisyachiletie vokrug Kaspiya Smirnova A.P. Skifi. Xakimov R. Xronika tyurko-tatarskix gosudarstv. Chast 8. Istoriya Kazaxstana: narodi i kul'tu-

ri Vishnevckaya O.A., Itina M.a Rannie saki Priarala // Problemi skifskoy arxeologii Bernshtam A.N. Masson M. E. Tolstov S.P.larning ilmiy tadqiqotlari Orta Osiyo saklari tog'risida qimmatli ma'lumotlarni beradi.

Ahmoniyalar sulolasi hukmronligi davridagi Behustun, Naqshi Rustam epigrafik yozuvlari hamda boshqa yozma manbalar sak-skif sivilizatsiyasi to'grisida atroflicha ma'lumotlarni beradi. Shuningdek, sak-skiflarning O'rta Osiyo, Oltoy, Sibir, Kavkazorti, Dnepr va Qora dengizbo'yi cho'l-dashtlaridagi qo'rg'on qabrlaridan topilgan boy arxeologik topilmalari sak-skiflarda mulkiy tabaqalanish, davlat tashkiloti shakllanishi jarayonlaridan dalolat beradi. Qo'rg'on qabrlardagi qimmatbaho qurol-aslahalar, noyob toshlar, oltin, kumush bilan ziynatlangan xanjar-qilichlar, kamon sadoqlari, gilam qoldiqlari topilgan. Antik mualliflar o'z hikoyalarida sak-skif mifologiyasidan unumli foydalanganlar. Gerodot Eronda bo'lganida Doro I ning Behuston qoyatoshidagi uzunligi 25 m, balandligi 15 metr bo'lgan epigrafik yozuvlarining ma'lumotlari va sak-skiflar to'g'risidagi boshqa yozma, og'zaki manbalar ma'lumotlari asosida o'z hikoyalari tuzgan. Jumladan Gerodotning massagetlar podshosi malika To'marisning Kayxusravga qarshi ozodlik urushiga boshchilik qilishi, Polienni Shiroq hikoyasi saklarning Ahmoniyalarga qarshi kurashi tasviri sak hikoyalari asosida tuzilgan. Gerodot Doro I ning Shimoliy Qoradengiz bo'yi skiflari ustiga yurishini ham skif hikoyalari asosida keltirgan.

Arxeologik qazishmalar natijasida to'plangan ma'lumotlar antik mualliflarning matnlarini tanqidiy o'rganishga yordam beradi. Hozirgi kunda Osiyo va Yevropaning cho'l-dasht hududlaridan juda katta miqdorda to'pilgan Birgina ermitajda sak-skif sivilizatsiyasiga tegishli 40 ming osori-atyqa mavjud. madaniy topilmalar sak-skif madaniyatini yaxlit tasavvur qilishga yordam beradi. Sak-skif tili to'g'risida qator ilmiy tadqiqotlar mavjud. Sak skif sivilizatsiyasi to'grisidagi ma'lumotlar shaxsiy ismlar, joylar, hududlar, daryolarning nomlari boshqa tillarda yozilgan matnlarda saqlanib qolgan. Tilshunos olimlar bu ism va nomlarni tahlili bilan sak-skiflarning yuzga yaqin urig'-qabilalarini tilini aniqlashga erishdilar. Sahro, cho'l va tog' hududlarida. Osiyo va Yevropaning bepoyon hududlarida yashagan ko'chmanchi qabila-elatlarning tillari asosida keyingi davrda turkiy tillar shakllangan. Toponomika ma'lumotlari ham bu fikrni tasdiqlaydi. Osiyo, Sharqiy Yevropa cho'l-dashtlarida yashagan ko'chmanchi sak-skiflar bir-biriga qarindosh bo'lgan qabila-elat va xalqlarning etnik va til jihatidan bir-biriga qarindosh bo'lgan ulkan birligi edi. Ularning urf-odat, an'ana, marosimlari mazmunan bir xil, shaklan esa turli ko'rinishda bo'lgan. Ularning shaklan har xil bo'lishiga sabab,

iqlim, atrof-muhit, joylashgan joyi ta'siri natijasi edi. Buning dalili Osiyo, Yevropa cho'l-dashtlarida yashagan etnoslarning ismlari, geografik nomlarning har xilligidir. Sak-skiflar bir tilda, lekin turli shevalarda so'zlashganlar.

Asosiy siyosiy voqealar. Vaqt o'tishi bilan sak urug-jamoa'larida odamlar ko'payib, ularning yurtlarida o'tloq, yaylovlar tor bo'lib qolganda, katta urug'dan kichik urug' ajralib chiqib, bo'shqa yaylovlarni izlaganlar. Qon-qarindosh urug'lar birlashib qabilani, qabilalar birlashib qabilalar ittifoqini tashkil etgan. Birlashgan urug'-qabilalarning yig'ini – qurultoylarda, odamlari ko'p, kuchli urug'-qabila oqsoqoli ittifoq yo'lbo'shchisi etib saylangan. Antik mualliflar asarlarida bir necha sak-skif yo'lbo'shchilari nomlari tilga olinadi. Urug'-qabilalar ittifoqi yo'lbo'shchisi mutlaq hukmdor emas edi, uning oldida "oqsoqollar kengashi" va xalq yig'ini kengash qurgan va bu kengashda ittifoqqa tegishli umumiy masalalar muhokama qilingan va qaror qabul qilingan. Urug'-jamoaning ichki muammosi urug-jamoa kengashi va jamoaning umumiy yig'inida ko'rilgan.

Sak-skif qabilalari ittifoqi mil. avv. II ming yillikning birinchi yarmida vujudga keladi. Bu ittifoqqa kirgan qabilalarning ayrimlari sharqda hozirgi O'zbekiston, Qozog'iston hududlaridan Volga, Don, Dnepr, Kavkazorti va Shimoliy Qora dengiz qirg'oqlari orqali Yaqin Sharq tomon jadal siljiydilar. Ular mil.avv. VIII asrdan boshlab qadimgi Old Osiyo siyosatida faol ishtirok eta boshlaydilar. Hozirgi Afgoniston hududida saklar bir necha davlatlarni barpo qilganlar.

Diodor va Gerodot skiflar (saklar)ni Markaziy Osiyodan (yani O'rta Osiyodan) Qora dengiz bo'yiga kelganlari to'g'risida ma'lumot beradilar. Diodor ularning asl vatani Araks (Amudaryo antik manbalarda shunday atalgan) qirg'oqlarida deb guvohlik beradi. Gerodot "podsho skiflari" deb atagan sak-skiflar boshqa skiflar ustidan hukmron bo'lib, ularni o'z qullari deb hisoblaganini yozadi. Demak, kuchli qabila ittifoqini vujudga keltirgan yetakchi sak-skiflar davlat birlashmasidagi boshqa qaram sak-skiflarni ustidan hukmronlik qilganlar. Doro I ning Behustun yozuvarlarida sak podsho Skunxani urushda mag'lub etgani (mil.avv. 519-yil), uning o'rniga boshqa podsho tayinlaganini yozib qoldirgan.

Gerodot hikoyalariga ko'ra, Qora dengiz bo'yini bo'ysundirgan sak-skiflar o'zlaridan chekingan kimmeriyalarni ta'qib qilib, Old Osiyoga bostirib kiradilar. Midiya bilan saklarning aloqasi azaliy edi. Mil.avv. VII asrning oxirida Orol ko'li bo'ylarida sak(skif)laning bir qismi Midiyaga migratsiya qilganlar. Midiyada saklarni kutib olgan podsho Kiaksar

saklarga midiyalik bolalarni o‘q-yoy otishga va sak skif tilini o‘rgatishni topshirgani aytiladi.

"Podsho Artinning davrida, – deb yozadi Diodor – Ktesiyning so‘zlariga muvofiq, parfiyaliklar yer va shaharlarini saklarga topshirib, midiyaliklardan ajralib chiqdilar. Shunda saklar bilan midiyaliklar o‘rtasida urush chiqadi. Sak podsholari midiyalik asirlarni Tanaisga ko‘chirganlar. Ma'lumotlarga ko‘ra buyuk cho‘llarda, saklarning bir necha davlatlari tashkil topgan.

Sak podsholari urush va tinchlik masalarini hal qilganlar, harbiy yurishlarga boshchilik qilganlar. Elchilar yuborganlar va ittifoqlar tuzganlar. Ahmoniyar davrida saklar bu qudratli davlatga bo‘ysunmaganlar, ular ittifoqchi bo‘lganlar. Podsho davlat tarkibiga kirgan urug‘qabilalarni boshqargan, ularning o‘rtasidagi muammolarni hal qilgan. Eng kuchli urug‘vakili podsho etib saylangan vafot qilgan podshoning o‘rniga ukasi voris bo‘lgan. Lekin podshoning hokimiyati xalq yig‘ini qarorlari bilan cheklangan.

Sharq yozuvchilari shimoldan kelgan barcha kelgindilarni “gimirri” kimmeriyalar deb ataganlar. Skiflar va kimmeriyalar etnik va madaniy jihatdan bir-birlariga yaqin bo‘lganlar. Old Osiyoga sak-skif va kimmeriyalarning bosqini mil.avv. VIII asrdan bir necha marta yuz beradi. Shu davrdan boshlab, ular Old Osiyodagi davlatlar o‘rtasidagi to‘qnashuvlarda faol ishtirok etadilar. Misol uchun, skiflar (saklar) Ossuriya bilan ittifoqda Midiyaga qarshi urushda qatnashib, uning hududida mil. avv. 653-624-yillarda hukmronlik qildilar. Sak-skiflar, ayniqsa, Eron Ahmoniyari davrida bu davlat bilan yaqin aloqada bo‘ladilar.

Ktesiy bizga Kir tomonidan asir olingan sak podshosi Amorg va uning rafiqasii Sparetra to‘g‘risida ma'lumot beradi. Ktesiyning yozishicha, Sparetra erkak va ayollardan askar to‘plab, jangda Kirni tor-mor keltirgan va Amorgni ozod qilgan. Shundan so‘ng saklar Kir bilan ittifoq tuzganlar va podsho Amorg Kirning dahlar hamda Midiyaga qarshi yurishig yordam bergan.

Ahmoniyar Eroni sak-skiflarni bo‘ysundirishga bir necha bor urinib, yurishlar uyushtirganlar. Lekin bu yurishlarda forsalar yengilgan. Tarixdan ma'lumki, Kayxusrav qo‘shinlari massagetlar tomonidan (mil.avv. VI asr) tor-mor qilinadi. Saklar fors qo‘shinlarini bir necha bor yengadilar (Polien-Shiroq). Doro I mil. avv. 519-yilda saklarni qiyinchilik bilan bo‘ysundiradi. Doroning saka-tigraxaudalarga qarshi yurishi to‘g‘risida Behustun yozuvlarida ma'lumot keltirilgan. Anchagina o‘chib ketgan yozuvda shunday deyilgan: “Men katta daryo tomonga... saka - tigraxaudalarga qarshi yurdim... O‘tdim... o‘ldirdim... boshqasini tutib olish-

di va oyoq qo'lini bog'lab, mening oldimga keltirishdi. Men uni hukm qildim... nomi Skunxu edi, uni tutishdi, u yerda men o'z xohishimga muvofiq boshqa odamni bosh qilib qo'ydim. Shundan keyin mamlakat meniki bo'ldi". Bu yozuvlar mil.avv. VI asrda o'lkamizda saklarning davlati bo'lgani, saklarning rivojlangan davlat va jamiyatda yashaganlaridan dalolat beradi.

Doro I saklarga qarshi mil.avv. 519-yilda yurish qilib, ularning podshosi Skunxani asir olgan. Va uning o'rniga boshqa podshoni tayinlagani Behustun yozuvlarida keltirilgan. Saklar Ahmoniyar davlati bilan alohida munosabatda bo'lganlar. Saklar forslarga o'lpon to'lagan qaram xalqlar orasida tilga olinmaydi. Mil.avv. IV asrda saklar forslarning ittifoqchilariga aylanadi. Saklarning harbiy san'ati yuqori darajada bo'lgan. Ular mohir chavandoz bo'lib, fors qo'shinlari tarkibida ilg'or kamonchi otliq qismlarni tashkil qilib, qo'shinning zarbdor qanoti edilar. Biror-bir xalq yelib borayotgan yaydoq ot ustida kamondan bexato nishonga urishga saklarga tenglasha olmas edi. Sak-skiflar erksevar xalq bo'lib, bosqinchilar tazyiqiga doimo munosib zarba berar, o'z mustaqilliklarini e'zozlar edilar. Mil.avv. 339-yilda makedoniyalik Filipp II skif qo'shinlari bilan to'qnashadi. Skif qo'shinlariga ularning 90 yoshli podshosi Atey boshchilik qiladi. Doro Ining Shimoliy Qora dengizbo'yi skiflari ustiga yurishi o'zining mag'buliyati bilan tugadi.

Sak-skiflarning katta-katta davlat birlashmalari mil.avv. I asrlargacha Osiyo va Yevropa dasht-cho'llarida jiddiy harbiy-siyosiy kuch bo'lgan. Mil.avv. III asrdan milodiy IV asrgacha O'rta Osiyo Volga bo'yi va Uralda yashagan ko'chmanchi qabilalar (tarixiy adabiyotda sarmatlar) kuchli qabilalar ittifoqini tuzganlar. Ular Kavkaz oldi tekisligi, Don va Shimoliy Qora dengiz cho'llarini o'zlashtiradilar. Sharqiy Yevropa cho'llari egallanib, sarmatlar siyosat maydonida kuchli mavqeni egallaydilar. Ular Bosfor podsholigida o'zaro urushlarga aralashadilar.

Sarmat podshosi Gatal mil.avv. 179-yil Kichik Osiyo shahar-davlatlar ittifoqiga qo'shiladi. Mil.avv. I asrda sarmatlar Pont podshosining Rimga qarshi ittifoqchisi bo'lgan. Sarmatlar bu davrda O'rta Osiyodagi davlatlar, ayniqsa, Xorazm bilan juda yaqin iqtisodiy-siyosiy hamkorlikda bo'ladilar. Sak-skiflarning o'z qo'shnilari bilan munosabatlari murakkab, shu bilan birga barqaror bo'lgan. Ular qo'shni o'troq qabila-xalqlar bilan muntazam ayirboshlash, oila-nikoh, madaniy-etnik aloqalarda bo'lganlar. O'rta Osiyo va boshqa atrof hududlarida ko'chmanchi va o'troq turmush tarzida kun kechirgan Sak qabilalaridan so'g'diylar, xorazmiylar, farg'onaliklar, parfiyaliklar, baqtriyaliklar deb nomlangan etnik yaxlitlik vujudga kelgan. Saklar bo'lg'usi turkiy xalqlarning ajdodlariedilar.

Sibir, Shimoliy Kavkaz, Shimoliy Qora dengizbo'yi sak-skiflari o'troqlashuv jarayonini boshdan kechirganlar. Lekin ularning bir qismi ko'chmanchi chorvador, ovchi va baliqchi turmush tarzini saqlab qoladilar. Mil.avv. II asrdan Sharqiy Yevropa tomon O'rta Osiyo, Uraldan siljigan sak-skiflarning bir qismi bo'lgan sarmatlar yoki savromatlar Dnepr qirg'oqlarini egallaydilar. Ular Dneprning o'ng qirg'oqini ham o'zlashtirib, bu yerdagi skiflarning bir qismi qirib tashlaganlar. Qolgan bir qismi o'zini saqlab qoladi. Sarmatlar o'zlariga qarindosh bo'lgan skif madaniyatini o'zlashtirganlar. Qo'shni xalqlar, davlatlar bilan faol ayir-boshlash, madaniy va harbiy aloqalar o'rnatilgan. Qo'shnilar bilan munosabatlar bir tekisda bo'lmay ba'zida tinch, ba'zida ziddiyatli ham bo'lgan.

Milodiy IV asrda Sosoniylar davlatining rim davlatiga qarshi yurishlarida O'rta Osiyodagi sak podsholari faol ishtirok etganlar. Tarixchi Ammian Marsellinning (*milodiy IV asr*)- Tarix XIX kitobidan (Amid shahrining qamali va ishgor qilinishi) to'g'risida ma'lumot mavjud. *Sosoniylar Mesopotamiya va Kavkazortida Rim ekspansiyasiga qarshi turdilar. Sosoniy sulolasining qudratli hukmdori Shopur IIning rimliklarga qarshi urushida O'rta Osiyodagi xion qabilasi ittifoqchi sifatida ishtirok etdilar. Asarda sosoniylar tomonidan 359 yil yoz oyida dajla daryosining yuqori oqimidagi Amid shahrining qamalida xioniyalar hukmdori Grumbat qo'shinini ishtiroki hikoya qilinadi: "Quyoshning birinchi zarralari bilan xionitlar podshosi Grumbat Shopur oldida o'zining faolligini ko'rsatish uchun sodiq tansoqchilar qismi hamrohligida shahar devorlariga jo'nadi. U o'q otish masofasiga yaqinlashganda uni tajribali kuzatuvchi ko'rib qoldi va ballistani mo'ljalga to'g'rilab uning o'qi bilan otasi bilan yonma yon borayotgan, ulgayish yoshiga o'tayotgan, qaddi qomari va go'zalligi bilan tenqurlaridan o'tib ketgan o'smir, Grumbatning o'g'lini sovuti va ko'kragini teshdi. Uning o'limi Grumbatning hamyurtlarini chekinishga undadi, lekin marhumning jasadi o'g'irlanishidan xavfsirab, ular tezkorlik bilan qaytdilar va bir tekis bo'lmagan hayqiriq bilan ko'psonli qo'shinni qurol olishga chaqirdilar; qo'shin yigildi, har tomondan o'qlar bulutdek yog'ildi, qizg'in jang boshlandi. Kun bo'yi davom etgan halokatli jangdan so'ng, kech bo'lganda, qorongilik ostida tog' bo'lgan o'liklar va qon oqimi o'rtasida dushmanni zo'rga bartaraf qilib, nihoyat jasadni olib chiqdilar.*

Podsho saroyi bu o'limdan gamga botdi, barcha zodagonlar ota bilan birga kutilmagan baxtsizlikni katta og'riq bilan boshdan kechirdi. **“Ammian Marsellin. Tarix XXVIII, 2, 10**

3. Iqtisodiy-ijtimoiy hayot. Osiyo, Yevropa va Shimoliy Afrika ning bepoyon cho‘l va yarim chol hududlarida ko‘chmanchi (nomad) yurug‘-qabilalar azaldan ovchilik-termachilik va keyin chorvachilik bilan shug‘ullanib keldilar. Markaziy Osiyo, sahro, chol va dashtlarida mil. avv. 3-2 ming yilliklarda ko‘chmanchi chorvachilik yuzaga keldi. Ko‘chmanchi chorvadorlr yil o‘n ikki oy yaylovlarda chorva mollarini boqqanlar. Ko‘chmanchi chorvachilik iqlim va geografik muhit asosida ikki shaklda bo‘lgan. Sahro, yarim sahro va cho‘l hududlarida qo‘y-echki, tuya va ot boqilgan. Sahrolarda yilqi boqish qiyin bo‘lgani uchun ular kam miqdorda boqilgan. Iqlimi mo‘tadil bo‘lgan shimoliy cho‘l-dasht hududlarda sut va go‘sh t uchun, minish uchun yilqilarning katta podalari boqilgan. Shimoliy salqin hududlarda yirik shoxli qoramol boqilgan. Ko‘chmanchilikning ikkinchi xo‘jalik turi bug‘uchilik bo‘lib, asosan sovuq shimoliy hududlarda yuzaga kelgan. Bug‘uchilik bilan shug‘ullangan ko‘chmanchilar ovchilik va terimchilik bilan ham shug‘ullanganlar. Ko‘chmanchi chorvadorlar chorva mollari bilan o‘rtacha bir yilda 2000 km radiusgacha ko‘chib yurganlar. Iqlimni isish va sovushiga qarab hududlarda kochmanchilar qishki, yozgi kuzgi mavsumiy ko‘chib yurganlar,

Daryo vodiylari havzasida chorvachilik va dehqonchilik uchun juda qulay bo‘lgan. Arxeologik qazishmalar natijasida ko‘plab o‘troq manzilgohlar topilgan. Hayvonot dunyosi sak-ski flar bilan uyg‘un bog‘langan edi. Sak-ski flar ko‘chmanchi chorvachilik bilan birga, ovchilik bilan shug‘ullanar edilar. Ov ularning doimiy hamrohi bo‘lib, ular yovvoyi hayvon va parrandalarning tabiatini yaxshi bilganlar.

Cho‘l-dashtlardagi parranda-qushlar, hayvonlar asosiy ov o‘ljalari bo‘lgan. Daryo qirg‘og‘ida yashagan urug‘-qabilalar baliqchilik bilan shug‘ullanganlar. Cho‘l-dasht, tog‘oldi hududlarida yashagan sak-ski flar qisman dehqonchilik bilan shug‘ullanganlar. Chunki qurg‘oqchilik yillarida cho‘l va dasht hududlarida chorva mollari qirilib ketgan va ochlik ko‘chmanchi chorvadorlarning doimiy hamrohi bo‘lgan. Shuning uchun ishonchli oziq-ovqat manbalarini izlashga majbur edilar. Ular tog‘oldi daryo vodiylarida o‘zlariga kerakli oziq-ovqat manbalari – g‘alla, sabzavot-poliz ekinlarini ekib olganlar.

Ovqat. Ko‘chmanchilar hududning iqlimiga mos holda o‘tovlarda, chodirlar va ba’zi hududlarda aravalarda yashaganlar. Ko‘chmanchilar go‘sh tni quritilgan, qaynatilgan, dudlangan, dimlangan, qovurilgan holda iste’mol qilganlar. Asosiy oziq-ovqat, qo‘y-echki, biya va tuyadan olinadigan go‘sh t, quritilgan go‘sh t, qazi, sut, pishloq, suzma, ichimlik-qimiz va shubat bo‘lgan. “Ular qaynatilgan go‘sh t yeydilar, yilqi sutini ichadilar va ippaki yeydilar” deb yozgan edi mualliflardan biri. Idish-tovoqlar juda

oddiy bo‘lib, hayvon terisi, yog‘och, mis, jez va temirdan edi. Oqat katta jez qozonlarda tayyorlangan.

Kiyim. Ko‘chmanchi chorvadorlarning asosiy kiyimlari charm yoki ko‘ndan tikilgan kamzul, ko‘ylak, ishton va mo‘yna, barra terisidan tikilgan bosh kiyimlar bo‘lgan. Hayvon terisiga ishlov berilib, charm, yumshoq ko‘n tayyorlangan, turli hayvonlarning junlaridan ko‘rpa-to‘shak, xurjun, arqon, kigiz, palos va gilamlar to‘qilgan, Hayvon terisiga ishlov berilib, ulardan kiyim-kechak, oyoq kiyim, uy-ro‘zg‘or buyumlari (teridan qilingan mesh, ovqat saqlanadigan, taom pishiriladigan, tayyorlanadigan va yeyiladigan idishlar); qamchi, egar-jabduq, bosh kiyim, tayyorlangan.

Urf-odat, an‘analari.

Sak-skiflarda mulkiy tabaqalanish natijasida boy chorvadorlar, urug‘-qabila oqsoqollari ko‘plab chorva mollariga egalik qilib, urug‘ zodagonlar qatlami va oddiy chorvador cho‘ponlar – jangchilar qatlami shakllanadi. Uchinchi qatlam diniy urf-odat, an‘analarni bajaradigan kohinlar, shomonlar (turkiy xalqlarda – to‘yinlar) har bir ovul, qishloqda bo‘lgan. Sak-skiflarning qabila ittifoqlari va davlat birlashmalarining boshlang‘ich asosi urug‘ edi. Urug‘ni 3-4 avlod vakillari yashagan oilalar tashkil etgan. Oila o‘ta xavfli muhit, noqulay tabiat sharoitida yashay olmas edi. Bir necha patriarxal oilalardan tashkil topgan urug‘ o‘z urf-odati, rasm-rusum marosimlari va e‘tiqodi bilan xavf-xatarga to‘la tashqi muhitga moslashib yashagan. Urug‘ o‘zining saylab qo‘yiladigan oqsoqol-yo‘lboshchisi va yaxshi qurollangan jangchilariga ega bo‘lgan.

Shimoliy Qora dengiz bo‘yi dasht, cho‘llarida yashagan skiflarni turmush tarzi to‘g‘risida qadimgi yozuvlar va buyumlardagi tasvirlar orqali tasavvur qilish mumkin. Skiflar 4 yoki 6 gildirakli aravalarda yashaganlar. Aravalar to‘rt tomondan kigiz-namatlar bilan yopilgan uy shaklida bo‘lib, 2, 3 bo‘limga bo‘lingan; arava ichiga na yoruglik, na suv va shamol kirgan. Arava oilaning turar joyi, har qanday ob-havo sharoitida ham harakatda bo‘ladigan uy va himoya vositasi bo‘lgan. Dushman yaqinlashib kelganda aravalar doira shaklida qo‘yilgan va chorva mollari, ayollar va bolalar panoh topgan. Arava ayollar va bolalarning doimiy turar joyi bo‘lgan. Aravaga 2 juft yoki 4 juft shoxsiz ho‘kiz qo‘shilgan. Bir joydan ikkinchi joyga ko‘chganda barcha lash-lushlar ortilgan aravalar karvoni va chorva mollari podasi bir necha kmga cho‘zilgan.

Arxeologik qazishmalarda topilgan sak-skif qabrlarida tabaqalanish-

ning izlarini ko'rish mumkin. Zodagonlarning qabrida buyumlar boy va xilma-xil. Aqinak (xanjar) va uning qini, o'q-yoy sadoqlariga marosim, mifologik tasvirlar tushirilgan hamda oltin plastinkalar bilan bezatilgan. Sag'ananing mayit qo'yilgan xonasi devorlari marhumning zarbof kiyimlari, so'zanalar va gilamlar bilan bezatilgan. Zodagonlarning qabrlarida marosim buyumlari bo'lgan ko'zalar – sharsimon qadah-ritonlar, ikki gorizontaal quloqli ochiq jomlar ko'p uchraydi. Bunday jom-qadahlar oltin, kumushdan yoki yog'ochdan metall bilan mustahkamlanib ishlangan.

Sak-skif yo'l boshchilari vafot etganda ularning xotinlari, qurol-bardorlari, xizmatkorlari, jangovar otlari va yo'l boshchining qurol-yarog'lari, shaxsiy buyumlari bilan birga ulkan qabr qo'rg'onida dafn qilingan. Gerodot hikoyasi bo'yicha, yo'l boshchilarning dafn marosimida uning barcha fuqarolari ishtirok etgan. Yo'l boshchi qabri ustiga ulkan qo'rg'on - tepalik bunyod qilingan. Dafn marosimidan keyin marhumni xotirlash uchun shu yerning o'zida jamoa umumiy ovqatlanish marosimini o'tkazgan. Uning izlari arxeologik qazilmalarda topilgan. Ukrainadan arxeologlar "Tolstaya Mogila" qo'rg'on-qabrni tekshirganlarida, dafndan keyin iste'mol qilingan xonaki va yovvoyi hayvon suyaklarining ulkan miqdoriga qarab, dafn marosimiga 2,5-3 ming kishi qatnashgan deb faraz qiladilar. Hozirgi Qozog'iston hududida ham sak qabr-qo'rg'onlari ko'plab topilgan. Shunday qabr-qo'rg'onlardan biri o'tgan asrning 70-yillarida Issiq yaqinida topilgan. Bu qabr qo'rg'onida yosh yo'l boshchi yoki shahzoda qimmatbaho oltin kiyim va qurol yarog' bilan dafn etilgan.

Sero't yaylov-o'tloqlar uchun doimiy to'qnashuvlar yuz berib, hududlar qabila-urug'lar o'rtasida nisbatan barqaror taqsimlangan. Sak-skiflar qaynoq, keskin va yorqin hayot kechirganlar. Doimiy xavfli tahdidlar bilan kurash, doimo bepoyon kengliklarda o'zini himoya qilish moddiy va ma'naviy madaniyatga ham ta'sir qilgan. Sak-skiflar o'troq dehqon qo'shnilari bilan o'zlariga zarur bo'lgan don, meva, poliz mahsulotlari, gazlama, uy-ro'zg'or buyumlarini ayirboshlar edilar.

Harbiy san'at. Qurol-yarog' har bir sak uchun hayotiy zarurat edi. Sak jangchisining o'ng biqiniga taqiladigan yog'och qinda kalta qilich (aqinak) bo'lib, qini egasining ijtimoiy mavqeiga qarab qilichning sopiga ba'zida tilla, kumush qoplangan hamda hayvonlarning o'yib tushirilgan tasvirlari bilan bezatilgan. Uzun nayzalarning uchlari temirdan bo'lib, uzoqqa otadigan qurol – o'q-yoy edi. Kamon o'qining uchi suyak, jez va temirdan yasalgan. Sak kamoni yengil bo'lib, uncha katta bo'lmagan. Bunday kamondan otdan turib nishonga olib otish qulay edi. Kamon bel-

da, chap tomondagi kamarga taqiladigan sadoqda saqlangan. Kamon o'qi ham shu sadoqda saqlanar edi. Sadoq jang manzarasi, hayvonlarning nafis tasvirlari tushirilgan tilla, kumush qoplama bilan bezatilgan. Uzunligi 2 metr bo'lgan yaproqsimon yoki tor yaproqli temir uchli nayza keng tarqalgan. Kalta uchli, kalta nayzalar bo'lgan. Kalta, temir dastali qilich sopi tilla, kumush bilan bezatilgan. Qilichning sopi trapetsiya, uchburchak shaklida bo'lib, hayvon tasviri bo'lgan. Qilichning qini ham sadoq kabi jang manzarasi, hayvon tasvir-lari bilan bezalgan. Sak-skif temir pichog'i bukri yelkali bo'lib, odatda, sopi suyakdan yasalgan.

Sak-skiflar da yilqichilik eng asosiy xo'jalik sohasi bo'lgan. Ot yur-lari tog'yonbagirlaridgi yaylovlarda boqilgan.

Ot sak uchun kundalik xo'jalik ishida foydalaniladigan chorvani boqishda, urushda jangovar yo'ldosh, doimo jangchi yonidagi oziq-ovqat manbai bo'lgan. Biya sutidan bo'za – spirtli ichimlik, shifobaxsh ichimlik va ovqat bo'lgan. Sak-skif jangchisi .otdan ikki-uch kun tushmasdan yurgan, uxlab dam olgan. Sak oti uncha katta bo'lmagan, qaynoq va o'ynoqi, chidamli edi. Ot anjomlari temir yoki jez jilov, egardan iborat bo'lgan. Otlar ham maxsus yoping'ich bilan himoyalangan, otning ko'kragi qo'ng'iroqchalar bilan bezatilgan. Boshda otlar yaydoq minilgan. Keyinchalik egar-jabduq paydo bo'lgan. Yumshoq egarlarning asosi yog'ochdan ishlanib, oltin yoki kumush, yapaloq boshli mixlar bilan bezatilgan. Harbiy yurishlarda jangchi doimo 2 otni olib yurgan. Saklarning otliq qo'shinlari jangda yengilmas, yeng yaxshi otliq qismlar hisoblangan. Qo'shni davlatlar otliq sak suvoriylar qismi xizmatidan unumli foydalanganlar. Qadimda Midiya, Ahmoniylar Eroni urush vaqtida sak suvoriylar qismini o'z zarbdor otliq qismlari safiga qoshgan. Midiya podsholari o'z farzandlarini chavandozlik va harbiy san'atni o'tgatish uchun sak chavandozlarini murabbiyarini taklif qilganlar. Otlarning nasllariga katta e'tibor berilgan.Otlar ham jangda foydalanish uchun ular o'rgatilgan. Sak-skiflar bir tilda, lekin turli shevalarda so'zlashganlar.

Sak-skiflar harbiy qurol-yaroglarni tayyorlashning mukammal san'atiga ega bo'lganlar. Saklarda rangli va qora metall sanoati yuqori darajada rivojlangan. Oltin va kumush katta miqdorda qayib olingan va ishlatilgan. Temirchilik eng faxrli kasb bo'lgan. Mohir temirchilar, qurol-yarog' ustalari urug'-qabilaning eng hurmatli a'zolari hisoblangan. Temirchilik ustaxonalarida ustalar kamon, qilich, kalta va uzun xanjar, pichoqlar nayza, temir, jez, charm sovutlari nihoyatda pishiq va nozik did bilan yasalganlar. Qurol-yarog'larga did bilan ishlob berilib buyurtmachining iqtisodiy-ijtimoiy mavqeiga qarab qurollarni bezashda oltin-kumush, qimmatbaho tosh-

lar ishlatilgan. San'atning "Hayvon uslubi" qurolsozlikda yuksak darajada o'z aksini topgan. Barcha qurol yarog'larning soplarida sher, yo'lbars, qoplon kabi yirtqich hayvonlarning tasvirlari mohirona tushirilgan. Saklarning barcha qurol yarog'lari, jang qilish taktikasi barcha sharq va g'arb davlatlari tomonidan o'zlashtirib olingan.

Tutqich bermaydigan harakatchan edi. Sak otliqlari ulkan Ahmoniy- lar imperiyasining yaxshi qurollangan qo'shinlarini yanchib tashlagan edi. Saklarning harbiy san'atiga tan bergan Ahmoniy- lar ularni harbiy xizmatidan foydalanadilar. Kserks armiyasida sak, xorazm, baqtriya, so'gr va midiya eng ya Xavf-xatarga to'la hayot, urug'-qabilalar o'rtasida sero't yaylovlar uchun kurash, qurg'oqchilik, qahraton qish kabi tabiiy ofatlar, ov o'ljalari bo'lgan hayvonlarning qirilib ketishi urug'-qabila turmush tarzini belgilagan. Har qanday vaziyatga tayyor turish, sabr-toqat va chidam, og'ir holatlarda ham urug'-qabilani, tirik qolish zaruriy ehtiyoj bo'lgan. Sak-skif urug'-qabilasining har bir a'zosi bo'lgan erkak-ayoli ozini, o'z oilasi - urugi va yurtini dushmandan himoya qila olishi, bining uchun jang san'atini bilishi lozim bo'lgan. Har bir sak bolasi 5 yoshidan kamondan o'q otishni o'rganib, qushlarni ov qilib, o'ziga ovqat topish ko'nikmasi shakllantirilgan. Otda yurish, otda jang qilish, kamondan o'q otish va merganlik san'atiga bolalikdan o'rgatilgan. Kamondan uzoq masofaga bexato nishonga urish, yugurib ketayotgan otda kamondan o'q otish ko'nikmasi bolaga yoshligidan singdirilgan. Urug'-qabilada yoshlar o'rtasida kuch sinash bellashuvlari muntazam o'tkazilgan. O'smir- lar oriyatli, o'z yurtiga sadoqatli, or-nomusli qilib tarbiyalangan. Yengilgan dushmanga nisbatan shafqatli bo'lish singdirilgan. Shu tarzda har bir sak bolasi ovchi, cho'pon va jangchi qilib tarbiyalangan, Ta'lim-tarbiya jarayonida yoshlarda oila-urug' - qabilaning va o'z or-nomusini g'ururini, shanini saqlash tuyg'usi har bir sak o'smiriga singdirilgan. Boshqa urug'-qabila yoki odam urug'-oilaning o'g'lini o'ldirsa albatta undan jonga-jon, qonga qonun qabilida xun olingan. Xun olish odatga aylandi. Xun ola olmagan oila yoki urug' zaif hisoblanib urug' jamoasi bu oila ustidan kulib yurgan.

4. Sak-skif madaniyati. Hozirgi kunda Osiyo va Yevropaning cho'l- dasht hududlaridan juda katta miqdorda to'plangan boy madaniy topilmalar sak-skif madaniyatini yaxlit tasavvur qilishga yordam beradi. Sak-skif tili to'g'risida ilmiy tadqiqotlar mavjud. Shaxsiy ismlar, joylar, hududlar, daryolarning nomlari boshqa tilda yozilgan matnlarda saqlanib qolgan. Bu ism va nomlar bilan sak-skif tilini olimlar aniqlashga harakat qiladilar. Osiyo va Yevropaning bepoyon hududlarida yashagan ko'chmanchi qa-

bila-elatlarning tillari asosida keyingi davrda turkiy til shakllangan. Toponomika ma'lumotlari ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Sahro, cho'l va tog', dashtlarning iqlimi boy hayvonot va o'simlik dunyosi saklarninhg bir necha ming yillar davomida o'ziga xos noyob madaniyatini yaratishga rag'batlantirdi. Sak mifologiyasi boy va keng mazmunli bo'lib, antik mualliflar tomonidan o'rganilgan. Osiyo va Yevropaning cho'l va dasht hududlarida sak-skiflarning moddiy madaniyat yodgorliklari bo'lgan yuzlab, minglab qo'rg'onlar topib o'rganilgan. Sirdaryoning quyi oqimi, Markaziy Qozog'iston, Tyan-Shan, Pomir, Oltoy, Shimoliy Qora dengizbo'yi, Dnepr daryosi dashtlaridan qazib o'rganilgan qabr-qo'rg'onlardagi topilmalar sak-skif madaniyatini bepoyon dasht-cho'l hududlarida an'anaviy bir xil shakllangani, syujetlar, uslublar, tasvirlar bir xilligi, bir-birini takrorlab kelishi bilan bu madaniyatning yaxlitligidan dalolat beradi. Pazirlik, Ko'loba, Arjan, Issiq qabr-qo'rg'onlari balandligi 50, 20 metr, diametri 200 metrgacha bo'lib bu yodgorliklarda ko'p xonali inshootlarda otlar 10 tan 350 gacha, hashamatli kiyimlarda hukmdor- yo'l boshchi zodagonlar va ularning yaqinlari, qurol-yarog'lar va gilamlar bilan dafn etilgan.

Yaxlit etnik birlik xo'jalik hayotining bir xilligi, an'anaviy turmush tarzi, dunyoqarash va diniy e'tiqodning ham bir xilligini ta'minlaydi. Minglab kilometrlarga cho'zilib ketgan bepoyon kenglikda iqlim, landshaft, geografik muhitning har xilligi madaniyatda shaklan o'ziga xoslikni yaratgan. Arxeologik qazilma topilmalarida harbiy qurol-yarog'larning tuzilishi, ularga tushirilgan hayvon tasvirlari bir-biriga o'xshash.

Sak-skif madaniyatining gullab-yashnashi mil.avv. VII-VI asrlarga to'g'ri keladi. Abadiy muzlik sababli Tog'li Oltoydan topilgan juda yaxshi saqlanib qolgan Pazirlik madaniyati yodgorligi bu san'atning ajoyib namunasi hisoblanadi. Pazirlik va hududdagi boshqa qabrlardagi buyumlar yaxshi saqlangan. Bu buyumlar ichida marhumlarning kiyimi, taqinchoqlar va yog'ochdan o'yilgan ashyolar, kigiz, patli gilamlar va boshqa buyumlar bor. Dafn qilingan odamlarning badanlariga chizilgan (tatiurovka). Bular barchasi abadiy muzlik sharoitida yaxshi saqlanib qolgan. Kuban dashtlarida mil.avv. VI-IV asrlarga oid skif qo'rg'on va qabrlarida odamlar jasad bilan birga, katta miqdorda hayvon suyaklari, jez qozonlar, egar-jabduqlar, harbiy va mehnat qurollari, turli xil oltin zeb-ziynatlar topilgan. Sak-skif qabrlarida qurol-yarog'lar muntazam uchraydi: kamon o'qi uchlari, kamon qoldiqlari, nayza va qilich-aqinaklar. Ayollar qabridan baldoq, uzuklar, bilakuzuklar va oynalar topilgan.

O'rta Osiyo, Qozog'iston, Sibir va Qora dengiz bo'yi cho'l-dashtlarida yashagan sak-skif qabilalari urf-odat an'analari, turmush tarzini

o'z madaniyatlarida ifodali aks ettirganlar. Bu madaniyatning tasviriy san'at sohasida hayvon uslubi nihoyatda mukammallikda o'z ifodasini topadi. Sak-skiflar tabiat qo'ynida bir umr hayvonot dunyosi bilan birgalikda uyg'un yashaganlar. Xonaki va yovvoyi hayvonlar ko'chmanchi, yarim o'troq urug' qabilalar uchun hayot manbai edi. Kiyim-kechaklar, egar-jabduqlar, qurol-yarog'lar va turar-joy, o'tovlar hayvonlar tasvirlari, tabiat ko'rinishlari bilan bezatilgan.

Hayvonot dunyosi sak san'atida guruh-guruh qilib tasvirlangan. Kiyik, bug'u, tog' echkisi, qo'y, ot, sher, yo'lbars, qoplon; qushlar sher gavdali, burgut boshli qilib afsonaviy qanotli mavjudotlar kabi tasvirlangan. Hayvonlarning olishayotgan va hayotiy, jonli, kuchli o'sib borayotgan keskin I harakatdagi tasvirlari sak-skiflarning tabiat dunyosini uzoq kuzatib, uning asl borlig'ida aks ettirishga harakat qilingan.

Har bir buyum - mehnat quroli, harbiy qurol-yarog'da badiiy san'at namunasini ko'rish mumkin. Tasvirlar jonli, uyg'un, hayotiy bo'lib, ularda sak-skiflarning dunyo-jamiyat va tabiat to'g'risidagi tasavvurlari o'z aksini topgan. Qrimdagi Ko'loba qo'rg'onidan bundan 170 yil oldin topilgan elektron qadahda o'z yarasini davolayotgan uch odamning tasviri hayotiy ifodalangan. Shunday manzara Voronej yaqinidagi qo'rg'onidan topilgan kumush xum devorida tasvirlangan. Bu har ikkala topilmada tasvirlangan manzara bepoyon cho'l-dashtlarda yashagan sak-skiflarning tuzmush tarzi, urf-odat, an'analari, marosimlari bir xil bo'lgan xalqning yaxlit madaniyatni shakllantirganini ko'ramiz.

Madaniyatda o'ziga xoslik. Sak-skif madaniyati Old Osiyo, Yevropa va sharqning boshqa mamlakatlari madaniyatiga asrlar davomida hayotbaxsh ta'sir qilgan. O'rta Osiyo, Eronda topilgan noyob san'at asari bo'lgan oltin, kumush, jez ko'za, jom, qadahlarda ot kallasi, kiyik va tog' echkisi tasviri tushirilgan.

Cho'llar, dasht va tog'oldi hududlarida yashagan ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullangan sak-skiflar o'zlari bilan yonma-yon yashagan o'troq etnik birliklar bilan faol hamkorlik qilganlar. Ko'chmanchilar ko'p hollarda birgalikda yashab o'troq aholi tinchligini himoya qilganlar. O'zaro yaqin aloqalar har ikki tomonning turmush tarzi va madaniyatlariga ta'sir qiladi. Yevropaning ilk sivilizatsiyasi hisoblangan Yunon dunyosi madaniyatida sak-skiflar, sharqning ilk sivilizatsiyalarining ta'siri yaqqol ko'rinadi. San'atdagi hayvon uslubi Xitoy san'atining eng qadimgi yodgorliklarida, Yevropaning so'nggi temir davridagi kelt qabilalarining dekorativ san'atida yaqqol namoyon bo'ladi.

Hozirgi O'rta Osiyo, Afg'oniston va Eron xalqlarining san'ati va madaniyatida sak-skiflarning san'atidagi ko'chib yuradigan obrazlar: ot,

kiyik, tog' echkisi, sher, qo'y tasvirlari, geometrik shakllar asrdan asrga, avloddan avlodga o'tib keladi. Ko'chmanchi xalqlarning harbiy san'at namunalari bo'lgan jez, kumush, tilla soqli qilich, xanjar va qalqonlarda tasviriy san'atning hayvon uslubi mustahkam o'rinni egallagan. Milodiy IV asrga oid Amudaryo xazinasidagi oltin buyumlarning barchasida sak-skif san'atining qaynoq nafasi yaqqol sezilib turadi.

Sak-skif sivilizatsiyasining moddiy va ma'naviy madaniyatida tasviriy san'atning hayvon uslubi ustuvor yo'nalishi edi. Antromorf qiyofa o'ziga xos shaklda sak-skiflarning vatani bo'lgan keng dasht-cho'llar, atrof dunyoni ramziy yaxlit aks ettirgan qurol-yarog', uy-ro'zg'or buyumlari, haykalchalar, qabr-qo'rg'onlar va mifologiyada aks etadi. Hayvon obrazi, uslubi bu xalqning moddiy va ma'naviy madaniyatini mazmun-mohiyatini aks ettiradigan ustuvor yo'nalishi edi.

Saklarning kiyimlari ko'chmanchi turmush tarziga mos edi. Kiyimlar ishlov berilgan charm, jun, bo'zdan bo'lgan. Charm etik, boshga cho'qqi qalpoq kiyilgan. Kalta kamzul, belda kamar, tor yoki keng charm ishton etikka tiqilgan. Boy ko'chmanchilar kiyimlarida tilla, kumush bezaklar, otlarning egar-jabduqlari ham shunday ziynatlangan. Ayollar belda kamar bilan uzun tor yengli ko'yalak, kalta kamzul kiyganlar. Ularning bo'yinlariga munchoq, qo'llariga bilakuzuk, barmoqlariga uzuklar taqilgan. Oyoqlarida ham halqa taqqanlar.

Sak-skif san'atining eng noyob namunalaridan biri - Tog'li Oltoydagi qabr-qo'rg'onidan yoshi 2500 yilga teng, hajmi 83x2.00 metrli qadimgi gilam topilgan. Bu qabrdan yana bir katta - 4,5x6,5 m kigiz gilam topilgan. Uning oq rang bilan bo'yalgan yuzasidagi ikki qatorli tasvirda taxtda o'tirgan malika qo'lida gullab turgan shoxcha oldida otlilik turibdi. Suvoriy yo'l boshchi kalta kamzul, tor ishton va yumshoq oyoq kiyimda, kamarida sadoq osilgan bo'lgan. Ehtimol, gilam yo'l boshchi chodiri-qarorgohi devoriga ilingan bo'lgan. Topilmalardan yana biri foytun. Foytun bir necha qismlardan tuzilgan. Butun Foytunni tashkil etgan barcha qismlar faqat yog'ochdan bo'lib, qayish bilan bir-biriga puxta bog'langan. Katta g'ildiraklar qo'yilib, ular o'rtasiga ayvon qilingan bo'lib, foytunning balandligi uch metrga yetadi. To'rt ot foytunni tortgan. Pazirliq qo'rg'onlarida ham otlar qabrga dafn qilingan. Otlarning egar-jabduqlari bug'u terisidan qilinib, ichiga jun to'ldirilgan charm yostiqlar bilan otlarning jasadini o'ziga xos, otlarning dumi charm g'ilof, yoliga xo'rozlar tasvirlangan kigiz g'ilof kiydirilgan. Otlarning tumshug'idan kiydirilgan niqobning davomida kallasiga charmdan tikilgan bug'uning tarmoqlanib ketgan shoxlari turibdi. Charm niqob, kigiz va teri otlarning burni va peshanasi ustida yashil rangda bo'yalgan sher tasviri bilan bezalgan. Bu topilmalar sak-skif

san'atining yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Gilamlardagi tasvirlar, rasmlar, hayvonlar, naqshlar, geometrik shakllar an'anaviy ravishda sak-skiflarning keyingi avlodlari bo'lgan barcha turkiy xalqlarning madaniyatida to'la saqlanib qolgan va yanada rivojlangan. XX asrning 80 yillarida hozirgi Qozog'istonning Taroz viloyatida sak-skif madaniyatiga tegishli oqsuyak zodagon dafn etilgan qabr topildi. Marhum qabrga qimmatbaho kiyimda dafn etilgan bo'lib, uning kiyimi 4 ming tilla buyum bilan bezatilgan. Hozirgi kunda "Oltin sak" nomi bilan ataladigan bu topilma Olmaota shahri muzeyida saqlanadi.

Hozirgi kunda Osiyo va Yevropaning cho'l-dasht hududlaridan juda katta miqdorda to'plangan boy madaniy topilmalar sak-skif madaniyatini yaxlit tasavvur qilishga yordam beradi. Sak-skif tili to'g'risida ilmiy tadqiqotlar mavjud. Sak-skiflar bir tilda so'zlashganlar. Lekin yuzga yaqin shevada so'zlashgan. Shaxsiy ismlar, joylar, hududlar, daryolarning nomlari boshqa tilda yozilgan matnlarda saqlanib qolgan. Bu ism va nomlar bilan sak-skif tilini olimlar aniqlashga harakat qiladilar. Osiyo va Yevropaning bepoyon hududlarida yashagan ko'chmanchi qabila-elatlarning tillari asosida keyingi davrda turkiy til shakllangan. Toponomika ma'lumotlari ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Diniy e'tiqod. Nomadlar o'zlarining uzoq ajdodlari totemlari, asoschilari, homiylari qilib hayvonlarni tanlaydilar. Hayvonlarning sehrli kuchi mavjudligiga ishonganlar. Hayvonlar tasviri urug' jamoaga, uning a'zosi - odamga yordam berishi, homiylik qilishi, balo-qazolardan, yovuz kuchlardan saqlashi va qutqarishi lozim edi.

Sak-skiflar tabiat kuchlariga e'tiqod qilganlar. Olov, suv, havo, hayvonlarga sig'inish keng tarqalgan. Sher, ot, yo'lbars, qoplon, bugu kabi hayvonlar, lochin, burgut, kalxat, qarchig'ay kabi yirtqich qushlar sak urug'-qabilasining homiylari bo'lgan va ularga topinganlar. Homiy totemga qurbonliklar keltirilib marosimlar o'rkazilib, rasm-rusumlar bajarilgan. Saklarning diniy e'tiqodlari ularning kelgusi avlodlari bo'lgan turkiy xalqlarga ko'chib o'tgan va hozirgacha saqlanib qolgan.

Gerodotning guvohlik berishicha, temir qilichga singdirilgan xudo ruhiga e'tiqod qilingan. Uning yozishicha, skiflarning har bir viloyatida yog'och va shoxlardan ulkan mehrob qilinib, uning tepasiga qo'yilgan qilich - aqinakga xonaki hayvonlar, har yuz asirdan biri qurbonlik keltirilgan. Sak-skiflarning bir qismi bo'lgan massagetlar osmon xudosi Ko'k tangriga sig'inganlar. Unga uchqur otni qurbonlik keltirganlar. Homiy hayvon sharafiga marosimlar o'tkazish, qurbonlik qilish an'ana qolgan. Chertomlik qo'rg'onidan topilgan katta kumush ko'zada otni qurbonlik keltirish marosimi tasvirlangan. Diniy aqidalar yuqori dara-

jada shakllanganini sak-skif turmush tarzi, urf-odat, an'analari namoyon etsa, tabiat kuchlariga e'tiqodning singib ketganini arxeologik topilmalar, mifologiya, mozor-qo'rg'onlar, shakllangan dafn marosimlari yaqqol ko'rsatadi. Qaysiki sak-skiflar tabiat bilan uygun yashab, tabiatni ilohiy deb hisoblaganlar. Hayvonot, o'simlik dunyosini ozlari uchun, ilohiy buyuk ne'mat sifatida ezozlab asrab, unga hurmat- ehtirom ko'rsatganlar. Sak-skiflar hayvonlarda ilohiy kuchni ko'rganlar. Odamlar ana shu ilohiy kuchni o'zlashtirishlari lozim deb tasavvur qilganlar. Bu xalqlarning mifologiyasida ma'budlar antropomorf qiyofada gavdalanadi

Takrorlash uchun savollar

1. Sak-skif sivilizatsiyasi geografiasini aniqlang.
2. Sak-skif sivilizatsiyasining yshash siklini ko'rsating
3. Sak-skiflarning turmush tarzi
4. Sak davrlarini ayting

Mustaqil ish mavzulari

1. Sak-skif sivilizatsiyasining mazmun mohiati.
2. Sak-skiflarning joylashuv geografiasini.
3. Ilk sak-skif davlat birlashmalari.
4. Sak-skif san'atida hayvon uslubi

12-mavzu. QADIMIGI ERON SIVILIZATSIYASI

1. Qadimgi Eron hududidagi davlatlar. 2. Orta asrlar va yangi davrda Eron 3. Zamonaviy Eron sivilizatsiyasi.

Elam. Qadimgi Eronning g'arbida mil. avv. 9 ming yillikda elamit qabilalarining Elam davlati vujudga kelgan. Bu davlat mil. avv. VI asrgacha yashagan. Elam shakllangan davlat va jamiyatga ega bo'lgan. Qadimgi Elamda rivojlangan davlat va jamiyat, madaniyat shakllanib ilk yozuvlardan biri yaratildi.

Elam o'zining uch ming yillik tarixi davomida yuksak madaniyatni yaratadi. Elamliliklar mil. avv. III ming yillik boshlarida shumer mixxatini o'zlashtirib piktografik (rasm) yozuvni yaratganlar. U 150 belgidan iborat bo'lib, ko'pincha xo'jalik hujjatlarini yozishda 400 yil davomida foydalanilgan. Yozuv takomillashib borib, mil. avv. III ming yillikning ikkinchi yarmida Elam yozuvi takomillashib 80 belgili chiziqli yozuv yaratilgan. Bu yozuvda qadimgi elamning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotiga oid matnlar bitilgan. Elam tilidagi bizgacha yetib kelgan eng qadimgi mixxat matni bu Akkad podshosi Naram-Suen bilan Elam davlati podshosining shartnomasi mil. avv. XXIII asrga tegishli.

Elamda shaharsozlik rivojlanib mustahkam devorlar va qal'alar qurilgan. Elam jamiyati rivojlangan diniy e'tiqodga ega bo'lgan. Mil. avv. XXIII asrga bir matnda Elamning 37 ilohlari nomlari keltirilgan. Iloh va ma'budalarga bag'ishlab hashamatli ibodatxonalar qurilgan.

Qadimgi Midiya podsholigi. Mil.avv. II-I ming yilliklardan Shimoliy Xitoydan O'rta Osiyo, Sibir, Oltoy, Uraldan toki Shimoliy Qora dengiz, Dnepr bo'ylarigacha cho'zilib ketgan cho'l-dasht, tog'lik hududlarda yashagan ko'chmanchi sak-skiflardan ajralib chiqqan midianit qabilalari Mil.avv. I ming yillik boshlarida midianitlar Shimoliy-G'arbiy Eronda o'rtnashadilar. Mil.avv. IX asrda midianitlarda ibtidoiy jamoa munosabatlari yemirilib, kichik siyosiy birlashmalari vujudga keladi.

Podsho Kashtariti Midiya hududini birlashtirib, sharqda mil.avv. VII asr o'rtalarida Midiyani Ossuriya, Elam kabi qudratli davlatga aylantirdi. Kashtaritining vorisi Kayxusrav (midiya tilida Uvaxshatra) ko'ngilli qo'shin o'rniga qurol turlari bo'yicha (nayzachilar, kamonchilar, otliqlar) bo'lingan kuchli jangovar qobiliyatga ega bo'lgan qo'shin tuzgan. Otliq qismlar midiya qo'shinida zarbdor harbiy kuch bo'lgan. Kayxusrav ana shunday kuchli qo'shinga ega bo'lgach, ittifoq tuzib Bobil azaliy dushman zaiflashib borayotgan Ossuriyaga qarshi urush harakatlarini boshlaydi.

Kayxusrav o'z davlati chegaralarini janub va sharqdagi qo'shnilari hisobiga kengaytirishga kirishadi. Mil.avv. 624-yil Fors viloyati, keyin Parfiya va Girkaniya, Armaniston bosib olinadi. Mil.avv. 614-yil Ossuriyaning qadimgi poytaxti Ashshur bosib olinib, mil.avv. 612-yil 2 yillik qamaldan so'ng Nineviya taslim bo'ladi. Natijada Kichik Osiyoning sharqiy qismi va Ossuriyaning asosiy hududi Midiya qo'liga o'tgan.

Mil.avv. 585-550-yillarda podsholik qilgan Astiag davrida Midiya katta va qudratli davlatga aylanadi. Bu vaqtda Elam ham qo'shib olingan. Astiagning vorisi yo'q bo'lib, u o'z taxtini qizi Mandana yoki uning bolalariga qoldirishi lozim edi. Qizi Mandana Astiagga qaram Fors viloyati hokimi Kambizning rafiqasi bo'lib, bu nikohdan forsning bo'lajak hukmdori Kayxusrav tug'iladi. Mil.avv. 554-yilda Midiyaga qaram forslar unga qarshi qo'zg'olon ko'targanlar. To'rt yillik urushdan so'ng forslar Midiya ustidan to'la g'alaba qiladilar. Midiya Fors qabilasining Ahmon urug'i vakili hukmron bo'lgan Fors davlati tarkibiga kirgan.

Parsuash mamlakati. Forslar to'g'risidagi ma'lumotlar ilk bor Ossuriya yozuvlarida uchraydi. Ossur podshosi Salmanasar II ning mil. avv. 843-yildagi yozuvida Parsua viloyati tilga olinadi. Ossuriya mil. avv. 843-yilda bu viloyatning 27 «podshosidan» xiroj olganI ossur manbalaridan birida tilga olinadi. Bu viloyatlar Markaziy Zagros tog'larida

joylashgan deb faraz qilinadi. Forslar mil.avv. VII asrning o'rtalarigacha Elamga, keyin esa qisqa vaqt Ossuriyaga o'lpon to'lganlar. Ahmonning o'g'li Chishpish (680/ 670- 645) Elamning qadimgi markazlaridan birining Anshan (hozirgi Sheroz shahridan 46 km. shimolroqda) hokimi bo'lgan. An'anaga ko'ra, Ahmonning o'g'li Chishpishdan so'ng podsholik hokimiyati Kayxusrav I (qadimgi fors tilida Qurush)ga o'tadi. U Mil. avv. 642-yil ossurlar Elamni zabt etganda, Ossuriyaga qaramligini tan oladi va katta o'g'lini garovga ossur poytaxti Nineviyaga jo'natadi. Elamga qaram bo'lgan Parsda Kayxusravning ikkinchi o'g'li Kambiz I mil.avv. 600-559-yillar podsholik qiladi. Kambiz Midiya podshosi Astiagning qizi Mandanaga uylangan, ulardan Kayxisrav II tugiladi. Kayxisrav II (mil. avv. 558- 530 yillar) mil. avv. 550 yilda Midiyaga qaramligini tugatib, mustaqil Ahmoniyalar davlatini birinchi hukmdori bo'ladi.

Ahmoniyalar davlati. Kambiz I ning o'g'li Kayxusrav II mil.avv. 558-yilda Midiyaga qaram Parsuash viloyatining hokimi bo'ladi. Forslar o'zlari qaram bo'lgan Midiyaga qarshi mil.avv. 553-yilda Kayxusrav II boshchiligida qo'zg'olon ko'taradilar. U rushda Midiya maglub bo'lib Midiyaning poytaxti Ekbatana Ahmoniyalar davlatining poytaxtlaridan biri bo'lib qoladi. Midiya bosib olinganidan keyin forslar qo'shni mamlakatlarga yurish boshlaydilar. Mil. avv 439 yilda Bobil, mil.avv. 549-548-yillar Parfiya va Girkaniya va ehtimol, Armanistonni bosib oladilar. Mil.avv. 547-yilda forslar Kichik Osiyoda Lidiyani istilo qiladilar Shundan so'ng, Kichik Osiyodagi yunon shaharlari Kayxusrav hokimiyatini ko'ngilli tan olganlar.

Kayxusrav mil.avv. 545-yildan 530-yilgacha hozirgi Eronning sharqiy hududlari, Afg'oniston va Hindistonning shimoli, O'rta Osiyodagi ba'zi viloyatlarni va Marg'iyona, Xorazm, Baqtriya, Ariya, Gedrosiya, Sattagidiya, Araxosiy va Gandxarani bo'ysundiradi. Ahmoniyalar davlati hududlari Hindistonning shimoliy-g'arbiy chegaralarigacha, Hindiqushning janubiy yonbag'irlarigacha yetgan. *Kayxusrav buyuk imperiyaning boshlanishiga hududiy asos yaratdi. Podsho Doro I esa (mil. avv. 522-486) ma'muriy-hududiy, soliq, harbiy va pul islohoti o'tkazib Ahmoniyalar 200 yildan ko'proq barqaror rivojlanishiga mustahkam poydevor yaratdi. Ahmoniylardan keying podsholar Kserks, Artakserks I, ArtakserksII, Artakserks III lar qattiqqo'llik bilan davlatni boshqarib Doro I ning siyosatini davom ettirdilar. Doro I davridan boshlab, fors urug'-qabila yo'lbo'shchilari imperiyaning oliy amaldorlari va satrapliklarning noiblariga aylanganlar. Hukmron fors zodagonlari katta-katta yer-mulk-lar,moddiy boyliklarga ega bo'ladilar. Urug jamoa bo'lib yashagan dehqonchilik vachorvachilik bilan shug'llangan ddiy forslar harbiy tabaqaga*

aylanib, harbiy turmush tarzida yashaganlar. Fors harbiylariga ajratilgan yerlarda qaram dehqonlar, qullar ishlaganlar. G'olibona yurishlardan ulkan harbiy o'ljalar, o'n minglab asirlar olib kelingan. Asirlar shaharlar, ibodatxonalar, yo'llar va sug'orish inshootlari qurilishida ishlatilgan. Vaqt o'tishi bilan oliy amaldorlar, satraplar turli yo'llar bilan mislsiz boylik to'playdilar va markaziy hokimiyatga bo'ysunmay qo'yadilar. Oxir-oqibatda davlat hokimiyati zaiflashadi va qariyb 200 yildan so'ng mil. avv. 330 yilda halokatga yuz tutgan.

4. Qadimgi Eron madaniyati. Diniy e'tiqod. Midiya podsholigida zardushtiylik rasmiy diniy e'tiqod bo'lgan. Midiya podsholigi davrida zardushtiylik rasmiy diniy e'tiqodga aylangan edi. Doro I mil. avv. 520 yilda zardushtiylikni rasmiy din deb e'lon qildi. Davlat tartib qoidalari-da zardushtiylik mafkuraga aylandi. Zardushtiylik kohinlari Ahmoniyar davrida yuqori davlat lavozimlarni egalladilar va ular ahmoniy podsholarining maslahatchilari bo'ldilar. Zardushtiylik e'tiqodi an'ana, urf-odat va rasm-rusumlarini saqlovchi kohinlar maglar deb atalgan. Zardushtiylik odamlarni qurbonlik qilishni taqiqladi, odamlarning bir-biriga mehribon, rahm-shafqatli bo'lishini targ'ib qildi.

Ahmoniyar zardushtiylik e'tiqodini afzalligini tan olib, rasmiy din sifatida qabul qilgan bo'lsalarda, aholi eng qadimgi xudolardan ham voz kechmagan. Eronda qadimgi tabiat xudolari Mitra (quyosh xudosi), Anaxita (suv va hosildorlik xudosi) va yorug'lik, oy, shamol kabilarni o'zida ifodalagan xudolarga ham sig'inilgan. Ahmoniyar bosib olingan va qaram mamlakatlarda mahalliy diniy e'tiqodlarga sig'inishga monelik qilmadilar, aksincha mahalliy diniy e'tiqodlarni qo'llab-quvvatlaydilar. Doro I Bobil, Elam va Yahudiyadagi buzib tashlangan ibodatxonalarni qayta tiklashga buyruq berdi. Misr ishg'ol qilingach, Kambiz Misr urf-odat-lari bo'yicha toj kiyadi. U Sais shahridagi ma'buda Neyt ibodatxonasida diniy marosimlarda qatnashadi. Doro I o'zini ma'buda Neytning o'g'li deb e'lon qildi. Misrda xudo Amon va boshqa Misr xudolariga bag'ishlab ibodatxonalar qurdi.

Yozuv. Ahmoniyar hukmronligi davrida ulkan davlat tarkibiga kirgan yuzga yaqin xalqlarning madaniyatlarini o'zaro ta'siri yuz berdi. Turli xalqlarning ilmiy bilimlari, madaniyat, san'at va adabiyotlarining o'zaro ta'siri ularni boyitdi. Ahmoniyar davrida O'rta Osiyo va Hindistonga oromiy yozuvi kirib keladi. Oromiy yozuvi asosida so'g'd, xorazm va o'rta fors yozuvlari shakllandi..

Forslar 43 belgidan iborat mixxatni yaratdilar. Fors mixxati shumer yozuvidan farq qilgan holda bor- yo'g'i 40 belgidan iborat bo'lib, deyarli alfavitli yozuv edi. Qadimgi fors yozuvi asosan, davlat rasmiy hujjat-

lari uchun foydalanilgan. Hukmdorlarning sagʻanalari, saroy devorlari, ustunlari shu yozuv bilan bezalgan. Tosh vaza va muhrlar, metall idishlar va qurollarga yozuvlar oʻyib bitilgan. Ana shunday yozuvlarning eng noyob namunasi Behustun bitiklaridir. Doro I (522-486) Kirmonshoh yaqinidagi toʻgʻda balandligi 15 metr, uzunligi 25 metrga elam, bobil va fors tillarida yozdirdi. Yozuvlarda Qambiz oʻlimidan keyin mamlakat va unga qaram hududlarda koʻtarilgan isyon va gʻalayonlar, bu tartibsizliklarni Doro I qanday bostirgani va mamlakatda tinchlik oʻrnatgani hikoya qilinadi. Bekustun yozuvlarini ingliz harbiysi polkovnik Roulingson koʻchirib oladi va bir necha yillar davomida oʻqishga harakat qiladi va oʻz maqsadiga yetadi.

Doro I ning yana bir yozuvi Qizil dengiz sohilida toshga oʻyib yozilgan. Bu yozuvda Doro I Nil daryosidan Qizil dengizga kanal qurgani toʻgʻrisida hikoya qiladi. Bu yozuv Suvaysh kanalining sobiq boʻynida topilgan boʻlib, Misr matnidagi uch lavhada Misrning ikki tomoni oʻxshash tasvirlari Doro nomi yozilgan oval bilan ramziy birlashtirilgan. Yozuv Doroga tobe 24 mamlakatni eslatadi. Har bir mamlakatning vakili alohida ovallarda tasvirlanib, podsho nomi yozilgan ovalga yuzlari qaratilgan. Suza shahridan hashamatli saroyining ulkan darvozalari oldida turgan Doro haykali topilgan. Podsho fors kiyimida Misr xudosi Atum qiyofasida tasvirlangan. Bu haykalda toʻrt tildagi yozuv bitilgan.

Qadimgi Eronda mil. avv. I ming yillikda zardushtiylik kalendari tuzilgan va unga arab bosqiniga qadar amal qilingan. Oy va kunlarning nomi zardushtiylik maʼbudlari: Axuramazda, Mitra, Anaxita va boshqalarning nomlaridan kelib chiqqan. Yil 12 oy, har bir oy 30 kundan iborat, har bir yilga yana besh kun qoʻshilgan (jami 365 kun). Bu taqvimdan boshqa yana bir 354 kundan iborat oy taqvimi ham boʻlgan.

Sanʼat. Ahmoniylar davrida yaratilgan ulugʻvor saroylar, ibodatxonalar Ahmoniylar imperiyasining qudrati ramzi boʻlgan. Bu ulugʻvor inshootlarni imperiyaning turli hududlaridan kelgan quruvchi-meʼmorlar bunyod qiladilar. Ossuriya, Babil, Misr, va Elam badiiy anʼanalari, texnik usullari bilan Eron va Oʻrta Osiyo badiiy sanʼati anʼanalari sintezi yuz beradi. Ahmoniylar davrida Eron badiiy sanʼatining yuqori darajada rivojlanadi. Turli xil metallardan ishlangan nafis vaza va jomlar, tosh qadahlar fil suyagidan yasalib, oltin, kumush bilan ziynatlangan. Ritonlar (qadah), zargarlik buyumlari va lazuritdan ishlangan haykallar sharq yuksak badiiy did bilan ishlangan. Yuksak badiiy sanʼat asarlari hisoblangan buyumlarda xonaki va yovvoyi hayvonlar (qoʻylar, sherlar, toʻngʻizlar va boshqalar) hayotiy ifodalangan. Qadimgi Eronda badiiy hunarmandchilik yuqori darajada rivojlangan. Metall vaza va roʻzgor buyumlari;

yashma, agat, stealitdan ishlangan silindrsimon muhrlar; fil suyagi, toshdan tasalغان qadahlar haqiqiy san'at asarlaridir. Badiiy buyumlar ichida agat, xalkidon va yashma kabi yarim qimmatbaho toshlardan ishlangan silindrsimon muhrlarga podsholar, afsonaviy qahramonlar va afsonaviy mavjudotlar tasviri tushirilgan. Muhrlar nihoyatda nafis ishlanib mohirlik, haqiqiy san'at asari hisoblanadi. Fors san'atida, ayniqsa, o'simlik va hayvonlarning hayotiy tasvirlari bo'lgan badiiy buyumlar hozirgacha hayratga soladi.

Dunyo tarixida ilk jahon imperiyasi bo'lgan Ahmoniyilar davlati yerlari Osiyo, Afrika va Yevropa qit'alarini qamrab olgan edi. Osiyo, Afrika va Yevropa hududlaridan o'tgan xalqaro savdo yo'llari Ahmoniyilar davrida yuzaga keldi. Ahmoniyilar davlati xalqaro yo'llarni xavfsizligini ta'minladilar. Ana shu xalqaro yo'llar orqali uch qit'a o'rtasida muntazam savdo-iqtisodiy, madaniy aloqalar o'rnatildi. Osiyoning Afrika bilan azaliy aloqalar yanada kuchaydi. Ahmoniyilar davrida barcha xalqlar madaniyatlarining muloqoti yuz berdi. Ahmoniyilar barcha xalqlarning diniy e'tiqodi rasm-rusumlari va an'analarini hurmat qildilar, ularni rivojlanishiga monevik qilmadilar. Ahmoniyilar poytaxti Pasargard shahrida fors davlati tarkibiga kirgan barcha xalqlarning rel'ef tasvirlari devorga tushirildi.

Ahmoniyilar davrida ayrim yevropa hududlari aholisi sharq dunyosi bilan yaqin tanisha boshladi. Mil. avv. VIII-VI asrlarda shakllangan yunon shahar davlatlari Ahmoniyilar vositachiligida sharqning boy madaniyati bilan tanishib, uni o'zlashtirdilar. Mil. avv VIII - VII asrlar yunon madaniyatini rivojlanishining ilk bosqichi bo'lib, bu bosqichda yunon madaniyati qadimgi sharq madaniyati ta'siri ostida rivojlandi. Aleksandrning talonchilik yurishlaridan keyin Misr va Old Osiyoda makedon sulolalari hokimiyatni egalladilar.

Lekin Misr va Old Osiyoning boshqa mamlakatlarida yashagan mahalliy xalqlar o'z madaniyati, o'z an'analariga sodiq qolib, o'z taraqqiyotini o'z an'analariga tayanib davom ettiraverdi. Sharq dunyosida bir necha ming yillik ilm-fan yutuqlari turli xil yozuvlarda Misr, Bobil va boshqa mamlakatlar ibodatxonalari va kutubxonalarida to'planib, saqlanib kelingan edi. Bu ma'naviy-madaniy boyliklarni saqlovchisi kohinlar edi. Kohinlar savodli, bilimli kishilari – olimlari edilar. Miloddan avvaligi IV asrning oxiri III – II asrlarida bu qo'lyozma boyliklar mahalliy tillardan yunon tiliga tarjima qilindi va yunon mualliflari bu qo'lyozmalar asosida o'z asarlarini yaratdilar.

G'arb tarixiy adabiyotida Old Osiyoning Aleksandrning bosqinchilik yurishlaridan keying davri ellin davri deb ataladi. Ilk bor 1870 yilda nemis olimi Droyzen bu davrni ellin madaniyati davri deb atadi. Droyz-

en konsepsiyasida sharq madaniyatida yunon madaniyati izlari qidiriladi. To'g'rirog'i sharqning yunon madaniyatiga hayotbaxsh ta'sirini izlash to'g'rirog bo'lar edi. Aslida Yevropaning sharq dunyosi va madaniyati bilan tanishuvi va uni o'zlashtirishi Aleksandr bosqinidan ikki yuz yil oldin Ahmoniylar davridan boshlangan edi.

Me'morchilik. Qadimgi Eronda me'morchilik san'ati yuksak darajada shakllandi. Ahmoniylarning 200 yillik hukmronligi davrida hashamatli saroylar qurilgan Fors me'morchiligining ulug'vor inshootlari Pasargad, Suza va Ekbatana shaharlardagi saroy ansambllari edi.

Pasargad Eronning janubi g'arbida Pars viloyatida bunyod etilgan. Pasargad Ko'hi Raxmat tog'i yonbag'ridagi dashtning katta hududini egallagan, Pasargad I shahri tog' yonbag'rida qurilgan. Shahar maydoni 135000 m. kv.ni tashkil qiladi. Bundan tashqari, 12000 kv.m sun'iy maydon hosil qilingan. Tog' qiyaliklarini tekislash bilan bu sun'iy maydon-da shahar uch tomondan devor bilan o'rab olinib, to'rtinchi tomoni tog' qoyasiga chiqadi.

Doro I shahar qurilishini mil. avv. 520 yilda boshlaydi, keyin uning vorislari Kserks va Artakserks I mil. avv. 460 yilgacha qurilishni davom ettirganlar. Poytaxt puxta ishlangan reja asosida bunyod qilinadi. Uzoq yillar davom etgan qurilish asosida ulkan va hashamatli saroy ansambllari va ma'muriy binolar tizimi vujudga keladi. Tog' yonbag'ri tekislanib, uning chetlari ulkan toshlardan qalangan tayanch devor bilan mustahkamlangan, devorni chetidan yana boshqa bir xom g'ishtdan qurilgan katta devor bunyod qilingan. Poydevorning o'rtasidan 2 zinapoya saroyga olib boradi.

Shaharga boradigan yo'lni bezagan 8 metr kenglikdagi 106 zinadan iborat ulkan zinapoyaning har bir zinasi yaxlit monolit toshdan yo'nilgan. Podsho Kserks I (mil. avv. 480 – 465yillar) davrida bunyod etilgan bu zinapoya “Barcha xalqlar darvozasi”ga olib boradi. “Barcha xalqlar darvozasi” kvadrat shaklidagi mustahkam naqshin ustunlar ko'tarib turgan katta zal bo'lgan. Kirishda odam boshli, qanotli buqalar haykali turgan. Qachonlardir “Barcha xalqlar darvozasi”dan ulkan Ahmoniylar davlati tarkibiga kirgan Osiyo, Afrika va Yevropaning yuzga yaqin xalqlarining vakillari o'lpon, xiroj va sovg'alar bilan o'tganlar. Bu joyda kelganlar buyuk Doroning rasmiy qarorgohi qabul zali – Apadanaga kirish uchun oliy buyruqni kutib turganlar. Apadana 1000 kvadrat metr maydonni egalagan. Ulug'vor va hashamatli bezatilgan bu ulug'vor, ulkan inshootning har bir tomoni 85 metrni tashkil etadi. Apadana tomini balandligi 20 metr bo'lgan 72 tosh ustun ko'tarib turadi. Ustunlar saroy hayoti manzaralarini aks ettiradigan barel'eflar bilan bezatilgan.

Zalga boradigan zinapoyalarning yon devorlari rel'ef tasvirlar bilan bezatilgan. Zinapoyaning bir tomonidagi devoriy rel'yef tasvirlarda fors podshosiga hadyalar va o'lponlarni olib borayotgan 33 qaram mamlakat xalqlari vakillari o'z kiyimlari va antropologik tuzilishlarida aks ettirilgan. Zinapoyaning ikkinchi tomonidagi devoriy rel'yef tasvirlarda saroy ayonlari, podshoning shaxsiy gvardiyasi, otliq va jang aravalari tasvirlari ishlangan. Bu saroy Fors davlatining kuch-qudrati ramzini ifodalab, muhim davlat qabullari o'tkaziladigan, elchilarni qabul qilish uchun xizmat qilgan rasmiy poytaxt bo'lgan. Saroy Doro I va Kserksning xos saroylari bilan maxsus yo'lak chiqishlar orqali bog'langan. Bu saroylarning devorlari, zallari va zinapoya devorlarida Ahmoniy davlati tarkibiga kirgan turli xalq va qabilalarning o'ziga xos kiyimlari, qurollari va ularning kasblarini ifodalaydigan tasvirlari toshga o'yib tushirilgan. Persepol shahri maydoni 135000 m. kv.ni tashkil qiladi. Bundan tashqari, 12000 kv.m sun'iy maydon hosil qilingan. Tog' qiyaliklarini tekislash bilan bu sun'iy maydonda shahar uch tomondan devor bilan o'rab olinib, to'rtinchi tomoni tog' qoyasiga chiqadi.

Pasargad (Eram bog'i) shahri qoyatosh bag'rida barpo qilingan bo'lsada, shaharni suv bilan ta'minlash maxsus qazilma akveduklar bilan amalga oshirilgan. Shaharda botanik bog' yaratilgan va fontan, favvoralar saroylar va maydonlarni havosini salqin qilgan. Pasargad mil. avv. 330 yilda makedoniyalik Aleksandr tomonidan talanib, yoqib yuborilgan.

Ekbatana. Ilgari Midiya davlatining keyin esa Axmoniy davlatining yozgi poytaxti bo'lgan Ekbatana shahri me'morchilik san'atining nodir namunasi hisoblanadi. Ossuriya podshosi Tiglatpalasar I (mil.avv.XII asr) davrida bu shahar Amadana, Axmoniy mixxatida Xarmatana deb atalgan Doro I davrida ikkinchi poytaxt Suza shahrida bunyod etiladigan saroylar va boshqa inshootlar uchun qurilish xom ashyolari 12 mamlakattan olib kelingan. Tog' bag'rida joylashgan Ekbatana mudofaa devorlariga ega bo'lmagan. Faqat shahar tepasida qad ko'targan qal'a kuchli mustahkamlangan. Ekbatana biri ikkinchisiga tutashgan 7 qal'adan iborat bo'lgan. Podsho saroyi va xazina yettinchi qal'ada joylashgan markazda bo'lgan. Har bir qal'aning devorlari alohida rang bilan bo'yalgan. Tashqi qal'a oq, ikkinchisi qora, uchinchisi qoramtir qizgish, to'rtinchisi mayin-zangori, oltinchisi kulrang, yettinchisi esa tillarang- sariq rangga bo'yalgan.

Polibiy podsho saroyini hashamatli jihozlanishi va saroy qurilishida ulkan xarajat qilgani haqida yozgan. Saroy devorlari eng qimmatbaho navli yogochdan qurilib, oltin va kumush bilan qoplanadi. Ahmoniy pod-solar ko'm- ko'k daraxtlar bilan qoplangan tog'lar orasida joylashgan Ekbatanadan yozgi qarorgoh sifatida foydalanganlar. Mil.avv. 330 yilda Ek-

batanaga g'olib sifatida kirgan Makedoniyalik Aleksandr bu madaniyat o'chog'i bo'lgan shaharni talaydi, hatto saroyning ustunlariga qoplangan oltin qoplamalarni shilib olishni buyuradi. Kichik bir tog'li Makedoniya da cho'ponlar orasida yashab, san'at va nafosat ta'limi va tarbiyasidan bexabar bo'lgan, madaniyat, nafosatdan yiroq bo'lgan sharqqa yurishdan faqat talonchilik maqsadini qo'ygan Aleksandr uchun bunday vahshiylilik tabiiy edi. Aleksandr asrlar davomida yaratilgan bu me'morchilik san'ati mo'jizasi Ekbatana va Suza shaharlarini vayshiyona yondirib yuboradi.

Oila. Oila jamiyatda oliy qadriyat hisoblangan. Nikoh diniy majburiyat bo'lgan. Buzuqchilik qilgan odamni shaytonning malayi deb qaralgan. Qonun doimo farzandsizni emas ko'p bolalilikni yoqlab, bo'ydoqni emas aksincha uylangan kishi tomonida bo'lgan. Qizlarga loyiq turmush o'rtog'i yuborish to'g'risida toat-ibodat qilinib, duolar o'qilgan. Qizlarga 15 yoshgacha turmushga chiqishga ruxsat berilmagan. O'smirlarga 15 yoshdan keyin balog'atga yetganini ramzi sifatida tuya junidan kamar taqqanlar.

Kiyim. Midiyaliklar va forslar jun va ipakdan to'qilgan uzun ko'ylak va ustki kiyim kiyganlar. Oqsuyak zodagonlar oltin zanjir, bilakuzuklar, midiya oq kiyimi, soyabonlar va yelpig'ichlar tutganlar. Podsholar zarbof uzun ko'ylak va ustki kiyim, boshlariga uzun qalpoq kiyganlar. Ular uzun o'rilgan soqol qo'yib ba'zida uni g'ilof bilan yashirganlar. Podsho qo'shini bo'yab, qo'shimcha soqol yopishtirib, parik kiygan.

Abbos I Isfaxonni qayta qurdi va bu shaharni xalqaro savdo markazi va madaniyat o'chog'iga (1571-1629 yillar) aylantirdi. Ulug'vor machit, maydon, saroylar qurildi. Abbos I Safafiy shaharda savdo-hunarmandchilikni rivojlantirdi. Butun dunyodan me'morlar va naqqoshlarni shaharga taklif qildi. Me'morlar bog'lar, favvoralar, machitlarni barpo qildilar. Shoh saroylari ham bog'lar qurshoviga olindi. Eron bog'lari YUNESKO ro'yxatiga kiritildi. Yevropalik sayyohlar eron bog'lari, machit va saroylarini ko'rib hayratga tushdilar. Eronning hududini oltidan bir qismini cho'llar tashkil etadi. Yazd shahri ana shu cho'llar qurshovidagi uch ming yoshli qadimiy shahar. Binolarning ko'pchiligi hozir ham paxsa va xom g'ishtdan qurilgan. Yazd shahrining salqin iqlimi sun'iy kanal va ariqlar yordami bilan yaratilgan. Yazd shahri ham YUNESKO ro'yxatiga kirgan. Shahar qadimdan zardushtiylik e'tiqodi markazi bo'lgan. Shaharda zardushtiylik e'tiqodi ibodatxonasi va muqaddas olov mavjud. Shaharda zardushtiylik e'tiqodi ibodatxonasi 1970 yillargacha faoliyat ko'rsatgan.

Takrorlash uchun savollar

1. Qadimda Eron hududida tashkil topgan davlatlarni ko'rsating.
2. Qadimda Eron hududida yashagan etnoslarni aniqlang.
3. Elam jamiyati madaniy hayotini hikoya qiling.

4. Ahmoniyalar davlatining geografik chegaralarini aniqlang.
5. Ahmoniyalar davlatchiligi nim uchun nisbatan uzoq yashadi?
6. Ahmoniylarning sak-massaget, baqtriya etnoslari bilan munosabati

Mustaqil ish mavzulari

1. Mil.avv. I ming yillikda Eron hududidagi davlatlarning qiyosiy tahlili
2. Elam davlati va jamiyatining taraqqiyot bosqichlari
3. Qadimgi Eron sivilizatsiyasining yutuqlari
4. Mil avv. I ming yillikda Eron O'rta O'siyo munosabatlari
5. Ahmoniyalar hukmronligi davrida sharq va g'arb muloqoti

13-mavzu. O'RTA OSIYO SIVILIZATSIYASI

1. Qadimgi O'rta Osiyo sivilizatsiyasi. 2. Rivojlangan o'rta asrlarda O'rta Osiyodagi siyosiy jarayonlar. 3. Rivojlangan o'rta asrlarda O'rta Osiyo madaniyati. 4. Ijtimoiy-madaniy hayot lavhalarini 5. Nima uchun O'rta Osiyo an'anaviy jamiyat doirasidan chiqqan olmadi? Tarixiy- metodologik tahlil.

1.Qadimgi O'rta Osiyo sivilizatsiyasi. Kaspiy dengizi, sharqda Pomir to'g'ri janubda Kopettog' va Hindiqush, shimolda Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimlari bilan chegaralangan hudud geografik tarixiy ilmiy adabiyotda O'rta Osiyo deb ataladi. Fizik, geografik va iqlimshunoslikda O'rta Osiyo tarkibiga Ustyurt platosi, Turon pasttekisligi va qisman Kopettog', Pomir Oloy, Tyan-Shan, Jung'or o'latog'i, Saur va Torbatag'oy kiradi.

O'rta Osiyoning qadimgi sivilizatsiyasining yoshi mil. avv. III ming yillikdan boshlanishi arxeologlar, tarixchi, san'atshunos va tarixchi olimlar tomonidan e'tirof etilgan. O'rta Osiyoning Parfiya, So'g'd, Baqtriya, Xorazm, Shosh, Farg'ona hududlarining ko'hna madaniyatlari o'rganilganishi bilan bu o'lka insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimgi o'choqlaridan biri ekanligi e'tirof etiladi. O'rta Osiyo sivilizatsiyasi tarixiy geografik shakllanish areali sahro-cho'l Qizilqum va Qoraqum va unga qo'shni Amudaryo-Sirdaryo daryo vodiylari havzasida shakllandi. Mil. avv. VI ming yillikda Kopettog' va Qoraqum sahrosi oralig'ida Jaytun-neolit madaniyati, mil. avv. III-II ming yilliklar oralig'ida O'rta Osiyoning janubi-g'arbida Oltin Tapa madaniyati shakllandi. Oltintepa va Namozgohda ilk shahar madaniyati shakllangan. Mil. avv. II ming yil-

likning birinchi yarmida Fargʻona vodiysida Dalvarzin tepa, Ashkaltepa, \ kabi ilk shahar koʻrinishidagi manzilgohlar shakllangan. Baqtriya hududida bronza davrining Sopollitepa, Jarqoʻton va Boʻston kabi ilk shahar madaniyatlarini rivojlanadi. Mil. avv. II ming yillikda Zarafshon va Qashqadaryo havzasida yashagan sak qabilalari oʻtroqlashib ilk madaniy xoʻjalik markazi Soʻgʻdiyoni tashkil etadilar. Ana shu oʻchoqdan shahar madaniyati tarqaladi (Sarazm madaniyati). Bu madaniyatdan keyin Koʻktepa madaniyati shakllangan. Arxeologlar Koʻktepada butun bir shaharni qazib ochdilar. Koʻktepa kuchli mudofaa devorlari bilan oʻralgan, ibodatxona, qoʻldiqlari qazib ochilgan. (hozirgi Poyariq tumani hududi). Janubiy Soʻgʻdda Qashqadaryo vodiysi Uzunqir, Sangirtepa va Daratepada ilk mashaharlar mil. avv. I ming yillikda shakllanadi. Ilk davlatchilik belgilari qadimgi Xorazm hududida qadimgi ajdodlarimiz sak-massagetlar tomonidan Amirobod madaniyati davrida (mil. avv. X-VIII asrlar) asos solinadi.

Tarixchilar ilk davlat va jamiyatni tuzilmasini arxeologik va yozma manbalar asosida tikladilar. Oʻrta Osiyoda katta patriarxal oilalardan tuzilgan urugʻ jamoalari birlashib davlatni tashkil etganlar. Zardushtiylilik kitobi Avestoda davlat boshligi kadxudo yoki vispati deb tilga olinadi. Ilk shaharlar atrofdagi qishloqlarni birlashtirib shahar davlatni tashkil etgan. Shahar-davlat yaqin atrofdagi qishloq va hududlarni birlashtirgan diniy va siyosiy markaz roʻlini bajargan. Bunday shaharlarga Baqtriya-da Jarqoʻton, Soʻgʻdiyonda Daratepa, Yerqoʻrgʻon, Xorazm hududida Koʻzaliqir kabi shaharlarni misol qilish mumkin.

Mil. avv. VII-VI asrlarda Oʻrta Osiyo hududida Katta Xorazm va Baqtriya davlatlari yuzaga keldi. Yunon-Baqtriya, Parfiya (mil. avv. III asr oʻrtalarida vujudga kelgan), Kushon imperiyasi (milodiy I-IV asrlar), Qangʻ, Xorazm, Dovon davlatlari Oʻrta Osiyo lokal sivilizatsiyasining oʻchoqlari boʻldi. Natijada hududda yuksak shahar madaniyati rivojlandi. Sugʻorma dehqonchilikka asoslangan dehqonchilik va savdo-hunarmandchilik rivojlandi.

Aholining asosiy qismi jamoachi dehqon - chorvadorlar, hunarmandchilik bilan shugʻullangan. Boy zodagon va koinlar hukmron tabaqani tashkil etadi. Bu davrda sugorma dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik va savdo rivojlangan. Paxsa va xom gʻishtdan uy-joylar, ibodatxonalar, shaharlar qurilishi amalga oshirilgan. Temirchilik, kulolchilik, va quruvchilik jadal rivojlangan. Manbalar maʼlumotiga koʻra Oʻrta Osiyo Mesopotamiya, Hindiston va Oltoy bilan yaqin aloqalarni mil. avv. III ming yillikdan yoʻlga qoʻygan..

Oʻrta Osiyoda yashagan sak qabilalarida mulkiy tabaqalanish, oʻtroqlashuv jarayonlari jadal borgan. Qadimgi Xitoy manbalari bu davrda

O'rta Osiyo va unga tutash hududlarda qadimgi turkiy xalqlarning ajdodlari yashagani to'g'risida ma'lumot beradi

Turkiy xalqlarning ajdodlari bo'lgan sak-massagetlar qadimdan ko'chmanchi va o'troq hayot kechirganlar. Mil. avv. III asrlarda O'rta Osiyo hududida Qang', Dovon, Parfiya, Baqtriya davlatlari vujudga keldi. Milodiy I asrda yueji qabilalarining birlashuvi bilan Kushonlar davlati paydo bo'ldi. Kushon davlatining dastlabki poytaxti Dalvarzintepa (Surxondaryo viloyati)da bo'lgan. Kudzula Kadfiz hukmronligi davrida Afg'oniston va Kashmir Kushon davlati tarkibiga qo'shib olingan. Uning o'g'li Vima Kadfiz davrida Kushon davlati yanada kengayadi. Podsho Kanishka zamonida poytaxt Peshovar (hozirgi Pokiston hududi)ga ko'chiriladi va Kushon davlati ulkan imperiyaga aylanadi. Uning hududlari Hindiston va Xo'tandan hozirgi O'zbekistonning janubiy viloyatlarigacha cho'zilgan. Rim, Parfiya, Xitoy davlatlari qatorida Kushon davlati I-III asrlarda xalqaro maydonda nufuzli o'rinni egalladi.

Kushon davlatining birinchi hukmdori Kudzula Kadfiz umrini harbiy yurishlarda o'tkazib, qudratli davlatga asos soldi. Vima Kadfiz davridan boshlab Kushon davlatida tanga zarb qilina boshlandi. Kushon tangalarida hukmdor nomi ko'rsatilgan. Vima Kadfiz pul islohoti o'tkazadi va tanga-pullarning qadri ortadi. Tangalar oltin, kumush va misdan zarb qilingan.

Milodiy I-II asrlarda Kanishka (73-123 yillar) hukmronligi davrida Kushon podsholigi o'z taraqqiyotining cho'qqisiga ko'tariladi. Bu davrda yangi shaharlar bunyod etiladi. Hindiston, Xitoy, Rim imperiyasi bilan savdo va elchilik munosabatlari o'rnatiladi. Kushon elchilari 99-yil Rimga keladilar. Bu Rimdagi Trayan ustunida tasvirlangan. Rim imperiyasi hududidan topilgan kushon tangalari bundan guvohlik beradi. Shuningdek, Italiyaning qadimgi Pompey shahridagi arxeologik qazishda Kushonlarga tegishli suyakdan yasalgan haykalchalar topilgan.

Kushon davlati iqtisodiyotining asosini sug'orma dehqonchilik, savdo va hunarmandchilik tashkil qilgan. To'g'oldi tumanlari va cho'llarda chorva haydab boqilgan. Kushon davlati ulkan imperiyaga aylandi. Bu davrda iqtisodiy hayot, ma'naviy-madaniy sohalar gullab yashnadi. Olkamizda Kushon davrida tegishli Xolchayon, Dalvarzintepa, Ayritom, Zartepa, Qoratepa kabi madaniyat o'choqlari yuzaga kelgan. Bu shaharlarda bud-da ibodatxonalari, monastirlari bunyod etilgan. Bu madaniyat o'choqlaridan haqiqiy san'at asarlari bo'lgan jez idishlar, shamdon, oyna, sirg'a, bilaguzuk va munchoq kabi taqinchoqlar topildi.

Qadimgi Orta Osiyo madaniyati ulug'vor va hashamatli va nafis edi. Oltintepada to'pilgan yarim qimmatbaho toshlardan ishlangan zeb ziynat buyumlari, oltin, kumush, fil suyagidan, qimmatbaho toshlardan ish-

langan zeb-ziynat buyumlari, ijtimoiy tabaqalashuv chuqurlashganidan dalolar beradi. Oltintepa ilk shahar qiyofasini olgan manzilgoh edi.

Oʻrta Osiyo sivilizatsiyasining asoschilari, davomchilari asrlar davomida yonma-yon, birgalikda yashab kelgan oʻtqroq va koʻchmanchi etnoslar edi. Ularning iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy- madaniy faoliyati Oʻrta Osiyo sivilizatsiyasining mazmunʼmohiyati va shaklini tashkil etdi. Quruq kontinental iqlim, vodiylar, togʻlar va choʻl-sahrolar tabiati iqlimi Oʻrta Osiyo sivilizatsiyasiga oʻz taʼsirini oʻtkazdi, uning qiyofasi, mazmun-mohiyatini belgilab berdi. Oʻtroq va koʻchmanchi aholining bir necha ming yillar davom etib kelayotgan joʻshqin, bir maromdagi bunyodkor faoliyati sivilizatsiyani iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotida aks etdi. Xalq, millatning turmush tarzida anʼanaviylik, urf-odat, rasm-rusumlarning qadriyat sifatida avloddan avlodga oʻtib kelishi, uning qalbida tinchlik-sevarlik, bagʻrikenglik, faoliyatda joʻshqinlik, mehnatsevarlik, yaratuvchanlik, mehribonlik va insonparvarlik sifatleri sivilizatsiyaning qadriyatlari boʻlib qoldi.

Madaniyat. Ilk orta asrlarda Oʻrta Osiyoda madaniyatning yuksak namunalari boʻlgan Varaxsha, Afrosiyob, Panjikent madaniy oʻchoqlari shakllandi.

Oʻrta Osiyoda hozirgi Oʻzbekiston, Turkmaniston hududlarida ulkan saroylar, qalʼalar va mudofaa inshootlari barpo qilindi. Olkamizda shahar meʼmorchiligi yuksak rivojlandi. Afrosiyob, Bolaliktepa, Varaxsha kabi shahar-qalʼalar, ularning ichidagi saroylar devorlari ajoyib devoriy relʼef tasvirlar bilan bezatilgan..

Varaxsha shahri arab bosqiniga qadar buxorxudotlarning poytaxti boʻlgan. Shaharning 100 gektarli, 10-12 metr balandlikdagi devorlari qoldiqlari saqlanib qolgan.. hozirgi Buxoro viloyatining Jondor tumani-da joylashgan. XI asrda sugorish inshootlari qurgʻoqchilik tufayli ishdan chiqqach tushkinlikka uchragan.

Bu ulugʻvor shahar toʻgʻrisida Xasr tarixchisi Abu Jafar Narshaxiy shunday maʼlumot berad:“ ... u Buxoro shahridan qadimiyroqdir, u podshohlar turadigan joyi boʻlib, mustahlam hisorga ega boʻlgan, chunki podshohlar oʻz hisorlarini bir necha marta mustahkamlaganlar. Uning Buxoro shahri singari devori ham boʻlgan. Rajfandun yoki Varaxshaning oʻn ikkita arigʻi bor. Bu qishloq Buxoro devorining ichkarisida joylashgan. Unda obod bir qasr boʻlgan, shundayki, uni goʻzallikda namuna qilib koʻrsatar edilar. Uni buxorxudot bino qilgan boʻlib, qurilganiga ming yildan ortiqroq vaqt oʻtgan. Bu qasr koʻp yillar dan beri vayron va qarovsiz qolib ketgan edi. Xunukxudot uni qaytadan tuzatdi; yana vayrona boʻlgan edi

Bunyot ibn Taxshoda ibn Buxorxudot islomiyat davrida yangidan qurib, o'zi uchun turar joy qilib oldi va nihoyat u, shu joyda o'ldirildi. **“Narshaxiy. Buxoro tarixi. Toshkent.: Kamalak. 1991 yil. 12-bet.**

Buxoro vohasining hukmdor suloasi Buxorxudotlar qarorgohi Varaxsha saroy shahri sovet davrida arxeolog V. A. Shishkin tomonidan o'rganilgan. Varaxsha karvon yo'llari ustida joylashgani uchun jadal rivojlangan, sugorma dehqonchilik mo'l-ko'l hosil bergani uchun shahar savdo-hunarmandchilik va madaniyat markaziga aylangan. Hozirgacha saqlanib qolgan Varaxshadagi podsho saroyi qoldiqlari yuksak me'morchilik va tasviriy san'at namunasidir. Saroy paxsadan bunyod etilgan bo'lib, o'nlab zallar, xonalardan iborat. Zallarning devorlari nafis bo'yoq rang-tasvirlar bilan bezalgan. Saroy devorlari saroyni qurshab turgan tashqi tabiiy muhit bilan uyg'un qizg'ish, limonrangi tanlanib bo'yalgan. Bu tasviriy san'at, me'morchilik san'ati ilk o'rta asrlarda yuksak darajada ko'tarilganidan dalolat beradi. Varaxsha, Afrosiyob va Panjikentning ilk o'rta asr shaharlari O'rta Osiyoning iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy taraqqiyotining go'zal namunalaridan biridir. Buyuk tarixchi Narshaxiyning Buxoro tarixi asaridan O'rta Osiyoning ilk va rivojlangan o'rta asrlar taraqqiyoti to'g'risida atroflicha ma'lumotlar olish mumkin.

Diniy e'tiqod. O'rta Osiyoda diniy e'tiqodlarning ilk shakllari totemizm, fetishizm, animizm bilan bir qatorda otashparastlik e'tiqodi mavjud bo'lgan. Ko'chmanchi chorvadorlar totemizmga, o'troq aholi zardushtiylik diniga e'tiqod qilganlar. Ma'naviy hayotda jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Zardushtiylik diniy etiqodi qadriyatlarini keng tarqaldi. Zardushtiylik e'tiqodi milodiy 8 asrgacha hukm surdi va VIII asrda arablar istilochi bilan islom e'tiqodi kirib keldi. Arablar islom e'tiqodini ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda yuksak madaniyat rivojlandi. Eftalitlar, Turk xoqonligi davrida o'lkamizda oromiy, so'g'd, xorazm va ko'k-turk yozuvlari keng tarqalgan. Xorazmda mahalliy yozuv, taqvim yaratildi. Bu taqvimdan VIII asrgacha foydalanildi. Ta'lim tizimi rivojlanib, bolalar 5 yoshdan yozish va hisob-kitobga o'rgatilganlar. Milodiy VI-VII asrlarda O'rta Osiyoda zardushtiylik, buddaviylik va moniylik va boshqa diniy qarashlar mavjud bo'lgan. Shaharsozlik yuqori darajada rivojlangan. Ammo o'lkamizning madaniy-manaviy taraqqiyoti arablar istilosi davrida, bosqinchilar mahalliy dinlarni soxta deb e'lon qilib, bu dinlarga tegishli bo'lgan yozma adabiyot va kitoblarni hamda yozuvlarni yo'q qildilar. Islom dinini majburan qabul qildirdilar.

2. Rivojlangan o'rta asrlarda Orta Osiyodagi siyosiy jarayonlar. Arab istilolari natijasida vujudga kelgan Arab xalifaligi VII asrdan

XIII asr oʻrtalarigacha yashadi. IX asrda Arab xalifaligi zaiflashdi, Oʻrta Osiyo islom dinini qabul qilgan boʻlsada, milliy ozodlik harakati yanada kuchaydi. Mustaqil davlatlar-Somoniylar sulolasi Oʻrta Osiyoda, Toxiriylar, keyinchalik Safforiylar Eronda paydo boʻldi. Oʻrta Osiyo va Yaqin Sharqda mustaqil Somoniylar davlati (X asr), Gʻaznaviylar davlati (XI asr), Saljuqiylar (XII asr) va Xorazmshohlar davlati (XII-XIII asr boshlari) mavjud edi. Somoniylar davlati X asrda Oʻrta va Yaqin Sharqdagi eng qudratli davlat edi. Somoniylar davridan Oʻrta Osiyo madaniyatining ilk Renessansi boshlandi. Somoniylar davlatida markazlashgan davlat boshqaruvi shakllana boshladi. Saljuqiylar davlatidan Xorazmshohlar davlati ajralib chiqdi. Bu davlat Cningisxon Oʻrta Osiyoni bosib olguncha sharqdagi qudratli davlatlardan biri boʻldi.

Moʻgʻulistonda ilk feodal davlatni tuzgan Chingizxon 1211 -1227 yilgacha istilochilik urushlarini olib borib, Xitoy,Sibir, Oʻrta Osiyo, Kavkazortini egalladi. Chingizxonning nevarasi Botuxon (1227-1255) rus yerlarini bosib olib, Polsha vaVengriyaga yurishlar qilib Adriatika dengiziga chiqdi. Volga boʻyiga qaytib Oltin Oʻrda davlatiga asos soldi.

Chingizxonning nevarasi Xulagu Eron, Iroq, Gruziyani bosib oldi va Arab xalifaligini tugatdi. U xalifalik poytaxti Bagʻdodga yurish qilib, soʻnggi Abbosiy xalifa Muntasimni oʻldirdi (1258-yil).Botuxon Irtish daryosidan Qringacha, Dnepr va Dunay daryolarigacha choʻzilgan Oltin Oʻrda davlatiga asos soldi (1242-yil). Rus yerlari unga qaram boʻlib, 1476-yilgacha xiroj toʻladi.

Erkin demokratik davlatlar qurish, oʻz-oʻzini boshqarish tamoyilini amalga oshirishni XIV asrning 40-80-yillarida Movarounnahr va Xurosondagi sarbadorlar harakatida koʻrish mumkin. Sarbadorlar moʻgul bosqinchilari hukmronligiga, feodal zulmga chek qoʻyish, erkin demokratik davlat qurish goyasini amalga oshirishga kirishdilar. Ular Sabzavor shahri va Samarqandda hokimiyatni qoʻlga oldilar.

XIV asrning ikkinchi yarmida oʻlkamiz buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur bobomiz tomonidan moʻgʻullar zulmidan ozod qilindi. Amir Temur bobomiz oʻlkamizning ozodligi taraqqiyoti uchun butun borligʻi-kuchini sarfladi.Buyuk sarkarda moʻgullar zulmiga chek qoʻygach, feodal tarqoqlikni tugatib, markazlashgan davlat va adolatli jamiyat qurishni boshladi. Sohibqiron Oʻrta Osiyoning xavfsizligini taʼminlash uchun gʻolibona urushlar olib bordi va Jahon tarixidagi eng qudratli imperiyalardan biriga asos soldi. Amir Temur imperiyasi tarkibiga Oʻrta Osiyo, Eron, Afgʻoniston, Shimoliy Kavkaz, Volganing quyi oqimi, Iroq, Ozarbayjon, Misr, Kichik Osiyo, Hindiston kirgan edi. Buyuk Temur tuzgan imperiya bir asrdan koʻproq yashadi.

Temuriylar davlati shakllangan davlat boshqaruvida qonun ust-

vorligi va an'analarga katta ahamiyat berildi. Amir Temur va uning vorislar davrida O'rta Osiyoning yagona davlatga birlashtirilishi hududning iqtisodiy-ijtimoiy madaniy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Xonliklar davri. Shayboniylar sulolasining kuchli hukmdorlari Abdullaxon II, Ubaydulloxonlar markazlashtirish siyosatini davom ettirdilar. Lekin mahalliy feodallarni to'la bo'ysundira olmadilar. O'zaro feodal urushlar mamlakatning hududiy yaxlitligiga fojiali ta'sir o'tkazdi.

Ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi davri O'rta Osiyo davlatchiligining tushkinlik va yemirilish davri bo'ldi. Qo'shni rus davlati, Xitoy va Eronning O'rta Osiyo hududiga ekspansiyasi kuchaydi. Rossiya, Xitoy, Eron O'rta Osiyong katta-katta hududlarini bosib oldilar, bu hududlar hech qachon qaytarib olinmadi. 1725 yilda Amudaryoning o'ng qirg'og'ida mustaqil Afg'oniston amirligi paydo bo'ldi. 1842 yilda Buxoroda 2 ingliz fuqorosi qatl etildi. Ingliz hukumati Avfg'oniston amirini Buxoro amirligining Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi hududlarni bosib olishga undadi. Buxoro amirligi bu hududlardan abadiy mahrum bo'ldi. Ashtarxoniylar davrida O'rta Osiyo uch xonlikka bo'linib ketdi. XIX asrning 60-70 yillarida Buxoro va Xiva xonligi Rossiyaga vassal davlatga aylandi, Qo'qon xonligi tugatilib, uning hududlari Rossiya davlati tarkibiga kiritildi.

3. O'rta asrlarda O'rta Osiyo madaniyati. IX-XII asrlarda O'rta Osiyoda fan va madaniyatda katta yutuqlarga erishildi. Mahalliy somoniy, qoraxoniylar va xorazmshohlar sulolalari davrida moddiy madaniyatning ulug'vor inshootlari bunyod qilindi. Aniq va tabiiy fanlar, badiiy adabiyot rivojlandi. O'lkamizda ilohiyatchi va hadisshunos olimlar mukammal asarlar yaratdilar (Imom al Buxoriyning "Al Jomiy as-Saxih", At Termiziyning "Kitob al Jomiy as-Saxih" va boshqa asarlar). Musulmon madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan so'fiylik ta'limoti rivojlandi. Bu ta'limotni rivojlanishida Sulaymon Boqirxoniy (vafoti 1186-yil) Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni (1103-1176), Najmiddin Kubro (1145-1221) yaratgan asarlar muhim o'rin tutadi. Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar" asari ma'naviy yuksakliklarga, umuminsoniy qadriyatlarga bag'ishlangan. Rudakiy, Firdavsiy, Daqiqiy yirik asarlarni yaratdilar. Ahmad Yugnakiy va Mahmud Qoshg'ariylar madaniyat, turkiylar xalqlar, elatlar va ularning tili to'g'risida asarlar yaratdilar.

O'rta asrlarda, Buxoro Samarqand, Marv, Hirot, Ko'hna Urganch, Termiz, Toshkent kabi shaharlar xo'jalik, fan va madaniyatning yirik markazlariga aylandi. Mintaqada me'morchilik, hunarmandchilik, savdosotiq, ijtimoiy-siyosiy hayot, madaniy aloqalarning rivojlanishida Sharq va G'arb o'rtasida ko'prik bo'lgan Buyuk Ipak yo'li muhim ahamiyat kasb etdi. Ayni shu davrda ushbu zaminda o'z ijodi bilan ilm-fan va

madaniyatga ulkan hissa qoʻshgan ulugʻ olimlar yetishib chiqdi. Arabistonda vujudga kelgan islom eʼtiqodining ilohiyotshunoslik ilmining rivojlanishida oʻlkamiz olimlari katta hissa qoʻshdilar. Mintaqaning olimlari oʻrta asrlarda oʻz durdona asarlari bilan Qurʼon tavsifi, hadissunoslik, fiqh (islom huquqshunosligi), Kalom (islom falsafasi) ilmlarining turli sohalarini taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdilar.

Qurʼon mazmunini sharhlab, tavsifini bayon qiluvchi kalomshunos olimlarning aksariyati (Imom al-Moturidiy, Imom Abu Lays as-Samarqandiy, Imom az-Zamaxshariy, Imom an-Nasafiy) Turkiston oʻlkasi vakillari edi. Hadis islomda Qurʼondan keyingi muqaddas manba hisoblanib, Muhammad paygʻambarning diniy va axloqiy koʻrsatmalari, hikmatli soʻzlaridan iboratdir. Buxoro zaminida tavallud topgan muhaddis Imom al-Buxoriyning 7275ta sahih hadislardan tashkil topgan “Sahihi Buxoriy” asari oʻzining maʼnaviy, axloqiy-tarbiyaviy jihati bilan har bir davrda koʻzgu vazifasini oʻtab kelmoqda. Bu davrda bu zamindan islom huquqi-shariyat ancha rivoj topgan boʻlib, bu sohada ham oʻlkamiz allomalari boy meros qoldirganlar. Ayniqsa, bu borada islom huquqshunosligi boʻyicha Burhoniddin al-Margʻinoniyning “Hidoya” asari boʻldi. Shuningdek, islom diniga asoslanuvchi musulmon olamida keng tarqalgan buyuk taʼlimot tasavvuf jamiyat maʼnaviy hayotini rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Hududda Yassaviya, Naqshbandiya, Qubraviya kabi soʻfiylik tariqatlari shakllandiki, ular orqali insoniyat islom dinining ichki va tashqi goʻzalligi, uning buyuk insonparvarlik mohiyatini anglab yetdi. Chunki tasavvuf taʼlimotining oʻzagi inson va uning maʼnaviy jihatdan kamol topishiga bagʻishlangan.

Ishlab chiqarish kuchlarining oʻsishi bilan yangi sugʻorish inshootlari qurildi, yangi konlar ochildi. Shaharsozlik yanada taraqqiy qildi. Bu davrda olkamizdagi savdo-hunarmandchilik markazlaridan Buxoro, Marv, Samarqand, Toshkent va Urganch kabi shaharlarni aytish mumkin. Bu davrda arab mualliflarining aytishicha, Turkiston oʻlkasining turli mamlakatlar bilan savdo aloqalari kuchayadi.

Diniy mafkura siyosiy va maʼnaviy hayotni toʻla qamrab oldi. Oliy taʼlim beradigan ilk oʻquv yurtlaridan biri – madrasa X asrda Buxoroda ochildi. Bu shaharda XII asrda esa musulmon huquqshunosligi boʻyicha yana bir madrasa ochildi.

Buyuk olim Al Beruniy qadimgi Bobil, Misr, Hindiston va Orta Osiyo olimlarining boy ilmiy meroslarini oʻrganib oʻzining Al Masudiy nomli asarida yer kurrasini oʻlchamlarini aniq oʻlchagan. U oʻlchashda usturlobdan foydalangan. Aniq natijaga erishish uchun oʻlchovlarni bir necha marta amalga oshirgan. U trigonometriya va algebra fanlaridan unumli foydalangan. Yer aylanasini 320 km farq bilan yer aylanasini uzunligini aniqlagan.

Bu 40 ming km hozirgi o'Ichov edi. Olamni matematika orqali o'rganishni Beruniy keyin Enshteyn taklig qildilar. Al Beruniy tadqiqotni tajribalar asosida o'rganish goyasini ilgari surdi. Tajribasiz nazariya quruqligini aytdi Birinchi oqim – bu Sharqda ilmiy tafakkurning yuksalishi edi. Sharq olimlari qadimgi Sharq fani yutuqlarini o'zlashtirdilar va rivojlantirdilar. VII-XII asrlarda Turkiston o'lkasida fan-madaniyatning rivojlanishi kuzatildi. Bu davrning eng mashhur olimlaridan biri Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783-850-yillarda yahsab ijod qilgan). Al-Xorazmiy haqiqiy ensiklopedist olim bo'lib, matematika, astronomiya, geografiya fanlari bo'yicha asarlar yaratdi. Olim algebra fanining asoschisi edi. U xalifa Ma'mun zamonida (813-833-yillar) “Bayt ul-hikma”da mudir sifatida faoliyat ko'rsatadi. Bog'dodda u Suriya, Iroq, Eron, Xuroson va Movarounnahr olimlari bilan ijod qildi. Xorazmiy zamondosh olimlar bilan birgalikda yer aylanasing uzunligi, radiusi hamda geografik xaritalar tuzish kabi masalalar bilan mashg'ul bo'ldi. Zamonasining mashhur matematigi, astronomi va geografik olimi sifatida fanga ulkan hissa qo'shdi.

Muhammad ibn Muso al Xorazmiy 20 dan ortiq asarlar yozdi. Ulardan faqat 10 tasigina bizgacha yetib kelgan. Bu kitoblar “Al-jabr val-muqobala”, “Hind hisobi haqida”, ya'ni arifmetik asar, “Kitob sur'at ul-arz”, “Yer surati” haqida geografiyaga oid kitob, “Zij” va “Usturlob bilan ishlash haqidagi kitob” kabi astronomiyaga oid asarlar, shuningdek, “Kitob at-tarix”, “Yahudiylarning taqvimi va bayramlarni aniqlash haqida risola” nomlari bilan atalgan. Xorazmiy merosida,ayniqsa, “Al-jabr val-muqobala” kitobining ilmiy ahamiyati nihoyatda buyukdir. Bu kitobi bilan u matematika tarixida birinchi bo'lib algebra faniga asos soldi. Hatto, “al-gebra” atamasi ushbu kitobning “al-jabr” deb yuritilgan qisqacha nomining aynan ifodasidir. Xorazmiy nomi esa matematika fanida “algoritm” atamasi shaklida o'z ifodasini topdi. Uning “Aljabr” asari asrlar davomida avlodlar qo'lida yer o'lchash, ariq chiqarish, bino qurish, merosni taqsimlash va boshqa turli hisob va o'Ichov ishlarida dasturulamal bo'lib xizmat qildi. Olimning bu asari XII asrdayoq Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilindi. Xorazmiyning arifmetik risolasi hind raqamlariga asoslangan o'nlik tizimda hisoblashning samarali usuli Yevropa qolaversa, butun dunyoda tarqalishida buyuk ahamiyat kasb etdi. Al-jabrni mustaqil fan darajasiga ko'tardi.²

Bu davrda o'lkamizda yashagan yana bir mashhur olim Muhammad al-Farg'oniy edi. U Bog'doddagi “Bayt ul-hikma”da faoliyat ko'rsatgan bizning vatandosh olimlardan biridir. Buyuk astronom, matematik va geograf Ahmad al-Farg'oniy (797-865-yillarda yashab ijod qildi).

² Muhammadjonov A. 7-sinf O'zbekiston tarixi, “O'qituvchi” nashriyoti 120-121 betlar 2 shu kitob 121-122 betlar

U Fargʻonada tavallud topgani uchun Sharqda al-Fargʻoniy, Yevropada esa Alfraganus taxallusi bilan shuhrat topgan. U avval Marv, soʻngra Bogʻdod, Damashq va Qohira shaharlarida astronomiya, matematika va geografiya fanlari bilan shugʻullandi. Qator ilmiy va amaliy asarlar yozib qoldirdi. U asosan Damashqdagi rasadxonada osmon jismlari harakati va oʻrnini aniqlash, yangicha “zij”, yaʼni astronomik jadval yaratish ishlariga rahbarlik qildi. 832-833-yillarda Suriyaning shimolida Sanjar dashtida va ar-Raqqa oraligʻida yer meridianining bir darajasi uzunligini oʻlchashda qatnashdi. 861-yilda uning rahbarligida Fustat (Qohira) shahri yaqinida joylashgan Ravza orolida Nil daryosi ichida qurilgan qadimgi gidrometr – daryo oqimi (sathini oʻlchagich) ”Miqyos al-Nil” inshooti va uning darajasi qayta tiklandi. Ahmad Fargʻoniy tarixda birinchilardan boʻlib yerning dumaloqligini isbotlab bergan olimdir.

Bigacha Al.Fargʻoniyning 8 asari saqlanib qolgan. Ular orasida uning “Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum” kitobi ham bordir. Bu kitob XII asrdayoq lotin tiliga tarjima qilinib, nafaqat musulmon sharqida, balki Ispaniya orqali Yevropa mamlakatlaridagi astronomiya ilmining rivojini boshlab berdi. Shundan soʻng, Ahmad Fargʻoniy nomi lotinlashtirilib, “Alfraganus” shaklida Gʻarbda shuhrat topdi. Uning “Astronomiya asoslari” nomli kitobi bir necha asrlar davomida Yevropa universitetlarida astronomiya fani boʻyicha asosiy darslik “Tib qonunlari” va “Kitob ash-shifo” olimning eng yirik asarlaridandir. sifatida foydalanildi.³

Ulugʻ mutafakkir Abu Ali ibn Sino 980-1037-yillarda yashab ijod qildi. Maʼlumotlarga koʻra, ibn Sino 400 tacha asar yozgan, Bu asarlarda astronomiya, geologiya, fizika, adabiyot, falsafa, biologiya va geografiyaga oid oʻz zamonasiga yarasha ilgʻor va ilmiy mulohazalar mavjud. Ibn Sino hozirgi zamon geologiya, geografiya, geomorfologiya, metrologiya va iqlimshunoslik fanlaridagi qator qonuniyat va tushunchalarni yaratgan. Tabiiy sharoitda turli unsurlarning inson salomatligiga taʼsirini toʻgʻri baholay olgan. Olimga ehtirom sifatida dunyoning turli mamlakatlarida, jumladan, Belgiyaning Kortreyk shahrida haykal oʻrnatilgan. Uning tibbiyotga doir asarlarida kasalliklarning kelib chiqish sabablari va manbalari, diagnostika, muolaja usullari, dorivor oʻsimliklar va dori-darmonlarning xususiyatlari, parhez, inson salomatligi uchun jismoniy tarbiyaning ahamiyati kabi tabobatning koʻpgina gʻoyat muhim masalalariga eʼtibor berilgan. Uning “Al-qonun fit-tib” asari XII asrdayoq lotinchaga tarjima qilinib, to XVII asrgacha Yevropa tabobatida asosiy qoʻllanma sifatida foydalanilgan. Oʻrta asrning buyuk allomasi Sharqda “Shayx ur-rais”, Gʻarbda esa “Avitsenna” nomlari bilan shuhrat topdi. Ibn Sinoning

³ “Tib qonunlari” va “Kitob ash-shifo”

5 jilddan iborat “Al-qonun” (Tib qonunlari) kitobi jahon tibbiyotining noyob xazinasini hisoblanadi. Shu bilan birga, u nafaqat qomusiy olim, ayni chog‘da iste‘dodli adib hamdir. “Qush risolasi”, “Salomon va Absol”, “Yusuf qissasi” singari asarlari buning yaqqol isbotidir.

Mashhur ensiklopedist olim Abu Rayhon Beruniy (973-1048-y) astronomiya, fizika, matematika, geologiya, geodeziya, geografiya, mineralogiya, tarix singari fanlar yo‘nalishida ulkan kashfiyotlar qilgan qomusiy bilim sohiblaridan biri hisoblanadi. Uning shoh asarlari jumlasiga “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Xorazmning mashhur kishilari”, “Hindiston”, “Ma’sud qonuni”, “Mineralogiya”, “Saydana”, “Astrologiyaga kirish”, “Astronomiya kaliti”, “Jonni davolovchi quyosh kitobi”, “Ibn Sino bilan yozishmalar” singari asarlarni kiritish mumkin. Beruniy asarlari ko‘p asrlardan buyon Sharq-u G‘arbda keng tarqalib, ulardan foydalanilmoqda. U o‘zining falakiyotga oid asarlarida Kopernikdan qariyb 5 asr muqaddam Yerning Quyosh atrofida aylanishi haqidagi fikrni o‘rta asrlarda birinchi bo‘lib ilgari surdi. Yerning dumaloq shaklda ekanligini asoslab berdi. U dunyoning geografik xaritasini va globusni yaratdi hamda Amerika qit‘asining mavjudligini Kolumbdan oldin ilmiy asosladi.

Jahon fani ravnaqiga katta hissa qo‘shgan daholar qatorida Abu Nasr Farobiy (873-950 yy) alohida o‘rin egallaydi. O‘zining qomusiy bilimlari, ayniqsa, falsafa sohasidagi ulkan xizmatlari bilan u “Al-muallim assoniy” (Ikkinchi muallim), Arastudan keyin “Sharq Arastusi” nomi bilan mashhurdir. U tabiiy va ijtimoiy fanlarga oid 160 dan ortiq asar yaratgan. Ayniqsa, falsafa ilmini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan. Farobiy Arastuning “Metafizika”, “Etika”, “Ritorika”, “Sofistika” singari shoh asarlarini chuqur ilmiy sharhlash, mazmun mundarijasini ilmiy-nazariy tahlili fanga qo‘shilgan ulkan hissa edi. Farobiyning “Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi”, “Falsafaga izohlar”, “Fozil odamlar shahri” singari asarlari al-loma qiziqish doirasi va ma’naviy olamining nechog‘lik kengligi, teranligidan darak beradi. Turkistondagi fan yutuqlari yangi davrda Yevropada ilmiy bilimlarning rivojlanishi uchun juda muhim ahamiyat kasb etdi.

Birinchi ilmiy jamiyatlar Sharq mamlakatlarida vujudga keldi. Bag‘dodda “Bayt ul-hikma” (Donolar uyi), xalifa Ma’mun akademiyasi (XI asr), Xorazmda Xorazmshoh Ma’mun akademiyasi (X asr), Samarqandda Ulug‘bek akademiyasi (XV asr) buning misolidir.

Temuriylar davri O‘rta Osiyo renessansining so‘nggi davri edi. Temuriylar davrida fan, madaniyat va san‘at gullab-yashnadi. Buni, ayniqsa, ilm-fan, tasviriy san‘at, musavvirlik, me‘morchilik, xattotlik va badiiy adabiyotda kuzatishimiz mumkin. Bu davrda Samarqand, Buxoro va Hirottda miniatura maktablari shakllandi. Me‘morchilik san‘atining yuksak namunalari yaratildi.

Falakiyotshunoslik fanida Ulugbek, Qozizoda Rumiyy, Mavlono Ahmad, G'iyosiddin Jamshid va Ali Qushchilar yangi kashfiyotlarni amalga oshirdilar. Tarix ilmida Sharafiddin Ali Yazdiy, Hofizi Abru, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond, Xondamir, Zayniddin Vosifiy va boshqalar qimmatli asarlar yaratdi. Mirzo Ulug'bek davrida Samarqandda Akademiya-ga asos solinib, yer kurrasini o'lchash va falakiyotshunoslik jadvallarini tuzish ishlari amalga oshirildi. Samarqand rasadxonasida Ulug'bek matematika, geometriya, falakiyotshunoslikda chuqur bilimlar sohibi edi. Bunga matematikaga doir "Bir daraja sinusni aniqlash haqida risola", falakiyotshunoslikka oid "Risolai Ulug'bek" va musiqaga oid "Musiqai ilmi haqida risola" kabi asarlari misol bo'la oladi. Bu davrda yetuk ijodkorlar Qutb, Sayfi Saroiy, Haydar Xorazmiy, Durbek, Amiriy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Bobur, Muhammad Solih va boshqalar yashab ijod kildi. Badiiy ijodning g'azal, ruboiy, tuyuq kabi turlari rivoj topdi. Hirot, Buxoro va Samarqand shaharlarida temuriylar kutubxonalar tashkil etdilar.

XV asrning ikkinchi yarmi o'zbek adabiyotining rivojlangan davri bo'lib, bu yuksalish Temuriy Husayn Boyqaro va o'zbek adabiyotining porloq quyoshi A. Navoiy nomlari bilan bog'liq. Husayn Boyqaro hukmronligi davrida adabiyot, san'at va fanning ko'p sohalariga katta ahamiyat bergan. XV asrda o'zbek adabiyoti, ayniqsa, Navoiy ijodi misolida adabiy janrlar rang-barangligi nuqtai nazaridan ham eng yuksak cho'qqiga ko'tarildi. O'zbek adabiy tili shakllandi. Temuriylarning adabiyot va madaniyat sohasidagi an'analari keyinchalik Boburiylar tomonidan Afg'oniston va Hindiston, XVIII-XIX asrlarda Xorazm va Qo'qon xonligida rivojlantirildi. Movarounnahr va Xurosonda XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrda ro'y bergan madaniy yuksaklik butun musulmon sharqidagina emas, balki Yevropa mamlakatlarini kam hayratga soldi.

O'rta Osiyoda tasavvuf ta'limoti rivoj topdi. Bu Yusuf Hamadoniyy, G'ijdivoniyy, Bahoviddin Naqshband, Xoja Ahror nomlari bilan bog'liq. Bu davrda tabobat ilmining yirik vakillari Burhoniddin Nafis, ibn Avaz Hakim al-Xirmoniyy, Sulton Ali tabib Xurosoniyy, tabib Husayn Jarroh kabilar yashab o'tdilar.

Samarqand va Hirotida Temuriylarning saroy kutubxonalari tashkil etildi. XIV-XV asrlar O'rta Osiyo xalqlarining musiqasi va hattotlik san'ati taraqqiyotida ham yangi bosqich bo'ldi. Mahoratli sozandalar, bastakorlar va hofizlar, musavvir, xattotlar yetishib chiqdi.

XVI asr boshida O'rta Osiyoda yangi sulola i-Shayboniylar tarix sahnasiga chiqdi. Shayboniylar davrida ham madaniyat, ilm-fan sezilarli darajada rivoj topdi. Bu davrda adabiyotda ham yuksalish ko'zga tashlanadi va bevosita bu sohalar rivojiga davlat boshliqlarining rahnamol-

igi ko‘rinadi. Temuriylar va Shayboniylar davrida me‘morchilik san‘ati yuksak darajada rivojlandi, Bunga misol tariqasida ular tomonidan bunyod etilgan, haligacha ulug‘vorligini yo‘qotmagan Buxoro, Karmana, Samarqand, Hirot, Shahrisabz va Toshkentdagi tarixiy obidalar bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

O‘rta Osiyoda bu davrda bog‘lar barpo qilinib, bu bog‘larda dunyoning turli hududlaridan keltirilgan o‘simliklar to‘plandi. Bunday bog‘lar Amir Temur bog‘lari (Samarqandda), Bobur bog‘lari (Afg‘oniston va Hindistonda) tarixdan ma‘lum. Yevropada birinchi botanika bog‘i Italiyada, keyin esa boshqa mamlakatlarda paydo bo‘ldi.

O‘lkamizda bu davrda Mirzo Ulug‘bek akademiyasi an‘analarini davom ettiruvchi fidokor olimlar yetishib chiqdi. Ko‘plab fan sohalari (falakiyotshunoslik, tibbiyot, matematika, astronomiya, tarix fanlari) rivojlandi.

Temuriylar va Shayboniylar davridan keyin fan-madaniyatda tushkinlik seziladi, diniy mutaassiblik, aqidaparastlik kuchayib ketdi.

Ta‘lim. Xalqimiz doimo ilmga intilib yashagan va o‘z farzandlarini maktab va madrasalarga o‘qitishga harakat qilgan. Xalq bolajon bo‘lib, oila qurish, farzand ko‘rish, ularga ta‘lim-tarbiya berish orzusi va tashvishi bilan yashab juda oddiy hayot kechirar edi. Ko‘chada maqsadsiz daydib yurgan bekorchilar bo‘lmagan. Aholining barcha qatlamlari o‘z farzandlariga ta‘lim-tarbiya berishga harakat qilar, bilimga intilish kuchli bo‘lib ayniqsa oddiy xalq o‘z o‘g‘il farzandlarini madrasada o‘qitishga harakat qilgan. O‘lkamizda aholining savodxonlik darajasi XIX asrda Rossiyaga qaraganda bir necha marta yuqori darajada bo‘lgan. Aksariyat dehqonlar o‘z farzandlarini madarasada o‘qishi uchun bir parcha yerdan ishlab topgan daromadlarini katta qismini o‘qiyotgan talaba farzandlari xarajatlariga ajratganlar.

4. Ijtimoiy – madaniy hayot lavhalari (XVI-XX asrlar). O‘lkamizning aksariyat aholisi dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan. Yollanib ishlovchilar anchagina bo‘lgan. Kam yerli va xonavayron bo‘lgan dehqonlar bu toifani safini muntazam to‘ldirib turgan. Azaldan O‘rta Osiyoda daryo vodiylarini aholisining asosiy qismini dehqon, chorvadorlar, hunarmandlar va yollanib ishlovchilar tashkil qilgan. Hunarmandchilik kustar holda bo‘lib, ustaxonada usta va uning 2-3 shogirdi ustaning shogirdi kasb sirlarini o‘rganib, bir necha yildan keyin ustalik martabasiga o‘tgan. Mustaqil ish boshlash uchun shogird ziyofat bergan va uni beliga belbog‘ bog‘langan. Bu ziyofat “bel bog‘latish ziyofati deb atalgan va bu ziyofatda” shogirdning ustasi, shu kasbning obro‘li kattalari, va uch ruhoniy ishtirok etgan. Shogird ustoziga va

ziyofatda qatnashayotgan boshqalarga hadyalar bergan. Ustoz belbog‘ni shogirdning beliga bog‘lagan, qo‘liga shu hunarning asboblaridan birini tutqazgan. Bu mustaqil ishlash uchun ramziy ruxsat va fотиha bo‘lgan.

Barcha kosib va hunarmandlar o‘z uyushma-jamiyatlariga birlashganlar. To‘quvchi jamiyatiga, kavushdo‘z bo‘lsa poyafzalchilar jamiyatiga a‘zo bo‘lgan. O‘lkamizda otboqar, aravakashlar, duradgorlar, meshkobchilar va boshqa barcha kasblarning jamiyatlari bo‘lgan. Har bir jamiyatga oqsoqol saylangan. Jamiyat a‘zolari huquq va majburiyat qoidalari yozilgan nizomga o‘xshash risola bo‘lgan. Har bir kasb egasi biror bir tarixiy yoki afsonaviy kishini o‘zlariga pir deb bilganlar. Meshkobchilarning piri paygambarning amakisi Abbos, temirchilar piri Dovud payg‘ambar bo‘lgan. O‘lkamiz shahar va qishloqlari aholisi hovuzlardan olingan suvni iste‘mol qilgan. O‘sha vaqtda shahar va qishloqlarda hovuzlar bo‘lib bu hovuzlarning suvlari nihoyatda toza bo‘lgan. Shaharlarda yuzlab hovuzlar daryolardan oqib keladigan toza suv bilan to‘ldirilgan. Qishloqlarda katta kichikligiga qarab o‘nga yaqin hovuz bo‘lgan. Shu sababli aholiga ichimlik suvini yetkazib beradigan suv tashuvchilar-meshkoblar ko‘p bo‘lgan. Suv tashuvchilar suvni charm meshlarda tashiganlari uchun meshkobchi deb atalgan. Zamondoshlarning guvoh berishcha meshkobchilar XXasrning 70 yillarigacha mamlakatimiz bozorlarida aholiga xizmat qilar edilar. O‘lkaning barcha katta-kichik shaharlari bozorlarida meshkobchilar bozorchilarga ichimlik suvini taklif qilib bozor aylanar edilar. Bundan tashqari bozorlarda o‘ndan ortiq choyxonalarda choyxonachilar bozorchilarga rayhon qo‘shilgan, yoki shinavanda choyxo‘rlar uchun samovarda qaynatilgan ko‘knori qo‘shilgan choyni taklif qilar edilar. Odatda yoshi kattalar, qariyalar bedona urushtirish uchun juma bozori va sarbozor kunlari choyxonalarga to‘planar edilar.

Buxoro shahri aholisini ichimlik suvi bilan meshkobchilar ta‘minlagan. Odatda meshkobchi hovuzdan har bir buxorolikning hovlisiga kuniga bir yoki ikki mesh suv olib borgan. Meshkobchilar tozalikka, suvni bulg‘anmasligiga qat‘iy rioya qilganlar. Sadriddin Ayniy bu to‘g‘risida shunday deydi :” Meshkobchi meshni yerga qo‘ymasligi lozim edi, suv olayotgan paytida meshning bir tomoni hovuz zinasiga tegib turadi,, shuning uchun meshkobchi zinaning shu joyini yuvishi, so‘ngra meshning bir uchini shu toza joyga qo‘yib turib suv olishi lozim. Shunigdek meshga suv oladigan charm do‘lchani yerga qo‘yishi man etiladi. Meshkobchi o‘z meshini suvga to‘ldirgach, do‘lchani mixga yoki daraxtga ilib qo‘ymog‘i lozim edi. Agar meshkobchi shu qoidalarining birortasini buzsa, oqsoql uni qoidani buzgani uchun ikki tanga jarima olar edi....”

Qarang: Садриддин Айний асарлар 6 том III ким Эсдаликлар.

Тошкент. Бадий нашриёт 1965. 175 бет. Qishloq aholisi ham XX asrning 70 yillarigacha qishloqlarda hovuz va quduqlardagi shaffof, toza, tiniq va shirin muzdak suvdan ichimlik uchun foydalanar edi. Har bir qishloqda kamida 4-5 hovuz, 10 ga yaqin quduqlar mavjud edi. Ariqlarda daryolarning toza suvi doimo oqib kelar edi. Mahalliy aholi asrlar davomida suvni bulgash, yoki uni isrof qilish tushunchasidan xoli bo‘lib, suvni ardoqlab uni iflos qilmas edi.

Aksariyat aholi dehqonlar, chorvadorlar bo‘lib, bir qism aholi hunarmandchilik bilan shug‘ullangan. Oddiy aholi o‘z peshona teri bilan tirikchilik qilib, topgani zo‘rga tirikchiligiga yetgan. Lekin ogir, kundalik mehnatdan keyin madaniy hordiq chiqargan. Turli xil bayramlar, ko‘ngil ochar tomoshalar, kasb bayramlari va boshqa madaniy tadbirlar ko‘p bo‘lgan. Dehqonlar, chorvadorlar, hunarmand, ziyolilar o‘lkamizning qishloq-shaharlari, cho‘l va sahrolarida an’anaviy turmush kechirar edi. Azaliy urf-odatlar, milliy qadriyatlarga qat’iy amal qilib halol-pokiza yashash, o‘g‘rilik qilmaslik, nochor va zaiflarga yordam berish, topganiga qanoat qilib yashyash, saxovatli bo‘lish, ilmga intilish, mard bo‘lish mazmuni bilan yo‘g‘rilgan edi.

Zamondoshlarning aytishicha, XX asrning 60 yillarning ikkinchi yarmigacha aksariyat qishloq joylarda elektr toki bo‘lmagan. Lekin qishloq aholisi kunduzgi tinkani quritadigan mehnatdan keyin kechqurun biror kishining uyiga to‘planib xalq dostonlarini eshitib hordiq chiqargan. Ilk televizorlar o‘lkamizda 1963 yilda paydo bo‘lgan. Kochma kinoustanovkalar ham o‘tgan asrning 60 yillarida paydo bo‘lib, qishloqqa oyida bir marta kelgan.

O‘lka xalqiga og‘ir – vazminlik, andishalik, qat’iyat, sabr-toqat va iroda, qanoat fazilatlarini xos edi. Shu bilan birga xalq o‘ziga xos yuksak tafakkur, aql-zakovatga ega bo‘lib, nafis go‘zalik, nafosatni anglash ulardan zavqlanish kuchli edi. Xalq yuksak madaniy-ma’naviyatga ega bo‘lib, o‘zining mashaqqatli hayotini mazmunli madaniy hordiq chiqarish, ma’naviy ozuqa olishga intilar edi. Go‘zallik va nafosatni his qilish, xalqimizning olijanob orzu-umid va intilishlari xalqimiz o‘z amaliy san’atida aks ettirdi. Xalqimiz mazmunan boy, yuksak maqsadlar, nafosatga ega madaniyat va san’atni yaratdi va kundalik hayotida undan ko‘proq bahra olishga harakat qildi. Bu xalqning turli sayllari, sherxonlik kechalari-bellashuvlari, bayramlar, tomoshalarida aks etdi. Dam olish kunlarida shahar va qishloqlarda aksariyat aholi madaniy hordiq chiqarishning turli shakllaridan foydalangan. To‘y-tomoshalar, bazmlar, dorboz o‘yinlari va boshqa madaniy kechalar o‘tkazilgan. Madaniy hordiq chiqarish uchun turli oddiy, sodda va haromdan uzoq yuradigan, halol,

oqkongil, mehnatsevar, mehmondo'st, bir burda nonini boshqalar bilan bo'lishadigan, mard xalqimiz asrlar davomida an'anaviy turmush tarzida yashab keldi. Xalq kundalik hayotida chekkan azob-uqubatlari qiyinchiliklari, hukmron tabaqaning jabr-sitamlarini kulgi ostiga oldi. Xalq o'zining sevimli qahramoni Nasriddin Afandi obrazini yaratdi. Nasriddin Afandi oddiy, sodda xalqimizga o'xshagan hech qachon tushkunlikka tushmaydigan, halol, birovni haqiga xiyonat qilmaydigan, lekin quvnoq va zukko bo'lib hayotda uchraydigan qiyinchiliklardan chochimay doimo quvnoq yuradigan oddiy kishining timsoli edi.

Afandi latifalarida tor manfaatini ko'zlagan ochko'z boylar, kaltabin amaldorlar hajviy qahramonlar edi. Oddiy xalqning kundalik hayoti turli sohalaridagi mehnat bilan band edi. Xalq og'zaki ijodi yuksak rivojlandi, yuzga yaqin dostonlar yaratildi. Ertak, afsona, asotir, matal, rivoyat, aforizm va topishmoqlar xazinasida juda boy edi. Go'ro'g'li, Alpomish dostonlarining bir necha variantlari yaratildi. Baxshilar, jirovlar, oqinlar xalq og'zaki ijodini rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar.

5. Nima uchun O'rta Osiyo an'anaviy jamiyat doirasidan chiqqan olmadi? Tarixiy – metodologik tahlil.

O'rta Osiyo sivilizatsiyasi insoniyat sivilizatsiyasining bir qismi bo'lib, uning tarixi ko'hna qadimgi davrlarga borib taqaladi. O'rta Osiyo sivilizatsiyasini genezisi tadqiq va tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarix fanidan darslik va o'quv qo'llanmalarda va monografik adabiyotda O'rta Osiyo sivilizatsiyasining so'nish yoki tushkinlik davri bo'lgan XVII-XVIII asrlarga to'g'ri keladi. Biz bu davrda O'rta Osiyodagi siyosiy ijtimoiy jarayonlarni oz bo'lsada tarixiy metodologik jihatdan tahlil qilishga urinamiz va tushkinlikning sabablarini aniqlashga harakat qilamiz. Ayrim mamlakatlar taraqqiyoti bilan qiyoslab tahlil qilishga urinamiz.

Siyosiy jarayonlar. O'rta Osiyoda ilk o'rta asrlardan boshlab qudratli davlatlar shakllandi. O'lkamizda o'rta asrlarda mamlakat kelajagi uchun qayg'uradigan bilimli, uzoqni ko'ra oladigan, mahalliy feodallarni o'zboshimchaliklari, buzg'unchiliklariga qarshi tura oladigan, qat'iyatli hukmdorlar Amir Temur, Abdullaxon Shayboniy feodal tarqoqlikni nisbatan tugatib, o'zaro nizo-ixtiloflarni tugatishga va markazlashgan davlatni barpo qilishga harakat qildilar. Ular mamlakatni ichki va tashqi xavfsizligini ta'minlash uchun aholini barcha qatlamlarini manfaatlarini ko'zlab ulkan ishlarni amalga oshirdilar. Savdo-hunarmandchilik, dehqonchilikni rivojlantirdilar.

Hukmdorlar urug'-qabila yo'l boshchilari, katta feodallarni o'zboshimchaligini tugata olmadilar. Davlat hokimiyati XV-XVII asrlarda

aslzoda, amaldorlarga davlatga ko'rsatgan xizmati uchun iqto, tarxon, suyurg'ul va tanho kabi shartli yer-mulklarni ajratib berdi. Hukmdordan tarxonlik yorlig'ini olgan kishi yerdan keladigan butun daromadga o'zi ega bo'lar, soliq to'lamas edi. Tarxon qilingan yer xususiy mulk bo'lib, tarxonlik yorlig'i to'qqiz pushtga qadar nasldan naslga o'tgan. Tarxonlik Temuriylar davrida kuchayadi. Bobur ma'lumotlariga ko'ra Buxoro viloyatida kop' miqdorda tarxonlik yerlariga egalik qilgan Abdulaliy tarxonning navkari 3000 kishi bo'lgan. Bunday tarxonlik yorlig'iga ega bo'lgan boylar ko'pchilikni tashkil etib, ular markaziy hokimiyatga jiddiy xavf tug'dirgan.

Suyurg'ul qilingan yerlardan tushgan soliqlar davlat xazinasiga emas, uning egasi katta amaldor cho'ntagiga tushar edi. Bu mamlakat iqtisodiyotini zaiflashtirar, katta feodallarning markaziy hokimiyatga bo'ysunmasligi, hatto ularning hukmdor taxtiga bo'lgan ilinjini kuchaytirar edi. Suyurg'ul egalari bo'lgan qabila yo'l boshchilari, katta yer egalari hukmdorning markaziy hokimiyatiga bo'ysunishdan bo'yin tovlar edilar. Suyurg'ul egasi amalda shu viloyat yoki tumanning hukmdori bo'lib, markaziy hukumatdan so'ramasdan ma'murlar tayinlar edilar. Bundan tashqari nufuzli urug'-qabila yo'l boshchilari katta moliyaviy mablag', yer-mulkka va harbiy qismlarga ega bo'lib, oliy lavozimlarni egallab markaziy hokimiyatning ichki-tashqi siyosatiga katta ta'sir o'tkazdilar. Ular mamlakatda hukmdorning markazlashtirish siyosatiga qarshi turib, markaziy davlat hokimiyatini zaiflashtirish uchun uyushtiriladigan isyon va fitnalarning asosiy ishtirokchilari edilar.

O'rta Osiyoda urug'-qabila yo'l boshchilari urush paytida o'z qabilalaridan to'plangan harbiy qismlarga boshchilik qilganlar. Ular o'z viloyat, tumanlarida cheklanmagan hokim edilar. Kuchli urug'-qabila yo'l boshchilari ko'p hollarda oliy hokimiyatga da'vo qilib markaziy hokimiyatga qarshi isyon-fitnalar uyushtirar edilar. Ko'pincha hukmdorning farmonlarini bajarishdan bo'yin tovlab markaziy hokimiyatga bo'ysunishni istamadilar va o'z tor manfaatlarini yo'lida o'zaro urushlarni davom ettirdilar. Qudratli hukmdorlar Amir Temur, Abdullaxon II va va boshqa hukmdorlar urug'-qabila yo'l boshchilari, feodallarning o'zaro urushlarini tugatishga katta kuch sarfladilar. Markazlashgan davlatni barpo qilish uchun kurashdilar. Amir Temur adolatli davlat boshqaruvi uchun tuzuklar tuzdi va unga amal qilib ijtimoiy siyosatni amalga oshirdi. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik va savdoni rivojlantirishga ulkan mablag'larni sarfladilar. Barcha ijtimoiy guruhlarni manfaatini ko'zlab adolatli soliq tizimini amalga joriy qildilar. Lekin bu hukmdorlarni adolatli davlat boshqaruvi qonun-qoidalarini

amal qilishi, avloddan avlodga o'tishi uchun zarur bo'lgan umumdavlat boshqaruv tizimi va tuzilmasi, uning mexanizmi yaratilmadi. Tarxon, suyurg'ul, iqto, tanho kabilar urug'-qabila yo'l boshchilari, katta feodallarning kuch qudratini mustahkamladi. Yirik feodallarning hukmdorning markazlashtirish siyosatiga qarshi kurashiga qarshi turishda katta moliyaviy kuch manbasi bo'lgan suyurg'ul, tanho va tarxonlik tugatilmadi. Suyurg'ul, tanhoga ega bo'lgan katta feodallar, qabila yo'l boshchilar davlat hokimiyatining markazlashtirish siyosatiga tish-tirnog'i bilan qarshi turar edilar. Oqibatda O'rta Osiyoda Amir Temur, Abu Said Mirzo, Abdullaxon II, Shayboniy va keyingi boshqa hukmdorlarning markazlashtirish siyosati tugallanmay qoldi.

Hukmdorning markaziy hokimiyatni mustahkamlash siyosatini qo'llab quvvatlaydigan ijtimoiy qatlam va tabaqalar mavjud emas edi. Albatta dehqonlar, hunarmand-savdogarlar kabi ijtimoiy qatlamlar mavjud edi, lekin ular huquqsiz bo'lib, hukmdorning markazlashgan davlatni barpo qilishiga xayrixoh va undan bevosita manfaatdor, hukmdorga yordam berish uchun, yetarli moddiy mablag'ga ega bo'lmagan, uyushmagan ijtimoiy kuch edilar.

Zaif hukmdorlar esa qudratli urug'-qabila yo'l boshchilari qo'liga qo'g'irchoq bo'ldilar (misol uchun Abulfayzxon Ashtarxoniy). Markazlashgan davlat boshqaruvi shakllangan bo'lsada u zaif bo'lib, o'zaro feodal urushlarini tugatish qobiliyatiga ega emas edi. Katta viloyat, tumanlarga egalik qilgan qabila yo'l boshchilari oliy davlat hokimiyatiga da'vo qildilar va ba'zida uni bosib ham oldilar. Mahalliy urug'-qabila boshliqlari markaziy hokimiyatga rasman bo'ysunib amalda o'z urug'-qabilalari joylashgan viloyat va tumanlarda mustaqil hukmronlik qildilar.

Oqibatda XVII asrdan boshlab Sharq, G'arb, Shimol va Janubdan kuchli qo'shni davlatlar (Rossiya, Xitoy, Eron) chuqur siyosiy-iqtisodiy tannazulga tushib borayotgan boy o'lkaning bepoyon hududlarini bosib ola boshladilar. Hatto ko'chmanchi afg'on qabilalari o'z davlatlarini tuzib, XIX asrning 50-yillarida Buxoro amirligining katta hududini hech qanday qiyinchiliksiz bosib oldilar. O'rta Osiyo hududlarini bosib olinishi oqibatida o'lka tashqi dunyodan ajralib qoldi, xalqaro savdo yo'llari, dengiz yo'llaridan mahrum bo'ldi. Ilmiy texnika progressi, sanoat to'ntarishlaridan xabarsiz qoldi va o'rta asr botqog'iga botib qolaverdi.

Ashtarxoniylar sulolasi davri hukmdorning markaziy hokimiyatini zaiflashuvining eng cho'qqisiga chiqqan davri bo'ldi. Urug'-qabila yo'l boshchilari, yirik feodallarning yer-mulk, hokimiyat uchun o'zaro urushlari mamlakatni siyosiy tarqoqligi va tanazzuliga olib keldi. Hukmdorning markaziy hokimiyatining zaiflashuvi oqibatida mamlakat uch xonlikka bo'linib ketdi.

Bu uch xonlikda oʻrta asr qonun-qoidalari, anʼanalari asosida davlat va jamiyatni boshqargan hukmron sulolalar hokimiyati davrida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat yanada chigallashdi. Uch xonlik oʻrtasida urushlar toʻxtamadi, xonliklar ichida ham oʻzaro feodal urishlari davom etdi. Ibtidoiy va oʻrta asrlar tartib –qoidalari bilan chulgʻangan natural xoʻjalik saqlanib qolaverdi. Hukmron tabaqa boʻlgan katta yer egalari mavjud iqtisodiy–ijtimoiy manzarani oʻzgartirishni xayollariga ham keltirmas edilar. Uch xonlikda hukmron sulola mavjud qoloq davlat boshqaruvi tizimini oʻzgartirishni istamas, oddiy xalqni uygonishini istamay biror bir iqtisodiy-ijtimoiy oʻzgarishni ham istamas edi. Mutaassib ruhoniylar esa bu chirik tizimning ashaddiy mafkuraviy himoyachilari edi.

Hukmron diniy eʼtiqodning oliy tabaqa ruhoniylari xalqni oʻz taʼsir doirasida ushlab turish uchun jon-jahdi bilan tirishar edi. Mutaassib ruhoniylar eski tuzum hukmron sulola va tabaqaning sodiq yordamchilari edi. Ular har qanday yangilikka qarshi turib davlat-jamiyatni oʻzgarishi uchun bosh koʻtargan maʼrifatparvar kishilar va uning yorqin namunasi jadidlarga qarshi urush eʼlon qildilar. Ana shu sabablar natijasida Oʻrta Osiyo jamiyati asrlar davomida hukm surib kelayotgan urugʻ-aymoqchilik, eskirib qolgan anʼanalar, turmush tarzida qolib ketdi. Individ oʻzini namoyon qila olmay jamoaviylik ustuvor boʻldi. Urug-aymoqchilik taraqqiyotga toʻsqinlik qilib mamlakat asrlar davomida qoloqlik botqogʻida qoldi. Qonun ustivorligi taʼminlanmay ijtimoiy tabaqa va qatlamlar oʻz qobigʻidan chiqa oʻlmadi. Oqibatda Oʻrta Osiyo sivilizatsiyasi XVIII asrda chuqur siyosiy-iqtisodiy tushkunlik davriga kirdi va bu tushkunlik siyosiy mustaqillik va hududiy yaxlitlikni yoʻqotishga olib keldi. Bu fojia ikki asrga yaqin davom etgan qaramlik- qullikka, milliy davlatchilik va qadriyatlarini yemirilishiga, yagona turkiy xalqni boʻlinib ketishi va taraqqiyotni bir necha asrlarga orqaga uloqtirib tashladi.

Oʻrta Oʻsiyo sivilizatsiyasiga tabiiy iqlim, hududning geografik joylashuvi omillari ham oʻz taʼsirini oʻtkazdi. Tyan-Shan, Pomir togʻlari, soʻlim vodiylar, daryolar, ulugʻvor Qizilqum va Qoraqum sahrolari, choʻllar Oʻrta Osiyo sivilizatsiyasining mazmun-mohiyatini shakllanishiga taʼsir oʻtkazdi.

Endi shu davrda ayrim sharq mamlakatlaridagi siyosiy-ijtimoiy jarayonlarni koʻzdan kechiramiz: Markazlashgan davlat hokimiyatining vujudga kelishi va mustahkamlanishi sharqning Yaponiya, Xitoy va Eron davlatlarini hududiy yaxlitligini saqlab qolishini asosiy omili boʻldi. Bu mamlakatlarda hukmron sulolalar doimo markazlashgan davlat hokimiyatini kuchaytirishga, mamlakatda savdo-hunarmandchilik va dehqonchilikni rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratishga harakat

qildilar. Bu davlatlar g‘olibona urushlar olib bordilar va o‘z hududlarini zaif rivojlangan qo‘shni mamlakatlar hisobidan kengaytirishga harakat qildilar

Eron. XVI ar boshlarida Eronda hukmron safoviy hukmdorlar eron hududlarini birlashtirish uchun urush olib bordilar. Markazlashgan hokimiyatni mustahkamlash maqsadida safoviy hukmdorlar alohida viloyatlardagi markaziy hokimiyatga bo‘ysunishni istamagan zodagon feodallar bilan urush olib bordilar. Safoviy hukmdor Abbos I (1588-1629 yillar hukmronlik qilgan) 20 ming o‘qchilar, 12 ming kishilik artilleriya qismlaridan iborat muntazam armiyani tuzdi. Muntazam armiyaning tuzilishi davlat hokimiyatida urug‘-qabila yo‘lboshchilarining qo‘shinlari, turkiy feodallarining otliq harbiy qismlarining ahamiyati pasaydi. Muntazam qoshin Buxoro amirligida Erondan 200 yil keyin amir Nasrullo tomonidan tuzildi.

Abbos I ma‘miriy islohot o‘tkazib, viloyat hokimlarini eron qabilalari yo‘lboshchilari va shohning o‘g‘illaridan emas o‘zi tashkil qilgan armiyaning harbiy boshliqlaridan tayinlay boshladi. Davlat boshqaruvi shoh saroyida to‘plandi. Natijada bu mamlakatda urug‘-qabila yo‘lboshchilari va boshqa katta yer egalari-feodallarining kuch-qudratiga chek qo‘yildi. Urug‘-qabila yo‘lboshchilarining hukmdorning markazlashtirish siyosatiga, mamlakatni hududiy yaxlitligiga tahdidi yo‘q qilindi.

Shohning oldida “eng oliy majlis” yoki “davlat kengashi” tashkil etildi. Viloyat hokimlarini lavozimga tayinlash va bo‘shatish bevosita hukmdor tomonidan amalga oshirildi. Otkazilgan harbiy-ma‘muriy islohotlar eron davlatchiligini mustahkamladi. Abbos I yangi tuzilgan muntazam armiyaga tayanib, O‘rta Osiyoning bir qismini Kavkaz ortda va Iroqda katta hududlarni bosib oldi. Eron davlatini hududiy yaxlitligi saqlab qolindi va qo‘shilarning yerlarini Eron davlati bosib oldi. Eron Shayboniylar va Ashtarxoniylar davrida O‘rta Osiyoning hududlarini katta qismini bosib oldi, bu hududlar hech qachon O‘rta Osiyoga qaytarilmadi.

Xitoy. Xitoyda markazlashgan davlat bosharuvi qadimda mil. avv. III asrda Sin sulolasi davrida shakllantirilgan edi. Xitoy hukmdori mamlakatni orta asrlarda ko‘p tarmoqli byurokratik davlat apparatiga suyanib hukmronlik qildi. Davlat boshqaruv tizimining turli bo‘g‘inlari faoliyatini nazorat qiladigan inspektorlar palatasi tashkil etilgan edi. Nazorat palatasining amaldorlari o‘z hisobotlarini bevosita hukmdorning o‘ziga taqdim etish huquqiga ega edilar.

Yaponiya. Yaponiyada o‘rta asr markazlashgan davlatining shakllanishi milodiy VIII asrda tugallandi. Hukmron tabaqaning vatan-

parvar uzoqni ko'ra biladigan vakillari mamlakatni rivojiga to'siq bo'lgan o'zaro feodal urushlariga chek qo'yish siyosatini boshlanishini 17 asrdan Tokugava sulolasi siyosatida ko'rish mumkin.

Eron va Yaponiyaning o'rta asrlardagi taraqqiyotidagi umumiylik bu hukmdor sulolaning markazlashgan davlat siyosatini kuchaygani, markaziy hokimiyatning mamlakatda o'zaro feodal urushlariga chek qo'yishi, urug'-qabila yo'l boshchilari, yirik feodallarni siyosiy hokimiyatdan mahrum qilishi edi. Bu davlatlar mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida, shaharlar, savdo-hunarmandchilikka va ijtimoiy qatlamlarni huquqlarini himoya qilish uchun qator iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarni o'tkazib, mamlakat hududini yaxlitligini ta'minlash uchun faol siyosat olib bordilar.

Rus davlati. Rus yerlarida feodal tarqoqlikni tugatish XIV asrda boshlandi. Moskva knyazligi o'z atrofida rus yerlarini to'plashga kirishdi. Markazlashgan rus davlatini tashkil etish uchun hukmron Ryuriklar sulolasi qariyb 200 yil kurash olib bordi. Feodal mulklar tugatilib, XV asrda markazlashgan rus davlati yuzaga keldi. Bu davlat XV asrdan tashqi siyosatda istilochilik urushlari olib bordi. Yaqin va uzoqdagi o'zga davlat va hududlarni birin ketin bosib oldi. Volga, Don daryolari havzalari, Ural, Sibir, Uzoq sharq, shimolda hozirgi Belorussiya, Ukraina, O'rta Osiyo, Kavkaz orti kabi hududlar bosib olindi va rus davlati tarkibiga kiritildi. Rus davlatining istilochilik yurishlari XX asrgacha faol davom etdi. Birgina Yekaterina II (1763-1794) hukmronligi davrida Rossiya 5 mln. kv.km hududni bosib oldi.

Endi Yevropa sivilizatsiyasining shu davrdagi taraqqiyotiga nazar tashlaymiz. Yevropada qadimdan xususiy mulk daxlzisizligi qonun bilan ta'minlanadi. Yerga xususiy mulkchilikning mavjudligi iqtisodni rivojlanishi uchun qulay shart sharoit yaratdi. Bozor munosabatlari shakllana bordi. Ishlab chiqarishda talab va taklif qonuni amal qila boshladi. Mehnat taqsimoti yuz berib, viloyatlar, hududlar mamlakatlar o'rtasida mehnat taqsimoti yuz berdi. Bozor munosabatlari kirib kelgan agrar sohada agrar sohada texnika-texnologiya doimo yangilanib, mehnat unumdorligi va mahsulot miqdori o'sib bordi. Tovar xo'jaligi rivojlanib, natural xo'jalik tugatildi. Yevropada yakka dehqon xo'jaligi rivojlanib bozorga mos boy dehqonlar-grossbauerlar, fermer xo'jaligi shakllandi. O'rta asrlarda xususiy mulk huquqni himoyasi yanada kuchaydi. Shu bilan bir vaqtda inson huquqlarini ustivorligi uchun kurash uzluksiz davom etdi. (1215 yil, parlamentlarni paydo bo'lishi-1265, 1304 yillar, golland, ingliz, fransuz burjua inqiloblari, fransuz Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi 1789 yil, 1787 yildagi AQSH konstitutsiyasi.) Davlat hokimiyati doimo islohot

qilib borildi, davlat hokimiyati jamiyat manfaatlariga xizmat qiladigan tashkilotga aylandi, uning asosiy funksiyalari asosiy qonun konstitutsiya bilan belgilab qo'yildi. Qonun ustivorligi o'rnatilib, "hokim hokim emas, qonun hokim", "mayli Rim yonib ketsin, lekin qonun tantana qilsin" tamoyillari amalda hukmron bo'ldi. O'rta asrlarda Yevropa sivilizatsiyasi mamlakatlarda eng avvalo mavjud feodal tarqoqlikni tugatilib qirolning markazlashgan hokimiyati o'rnatildi. Qirolning mutlaq hokimiyatini cheklaydigan qonunlar qabul qilindi. Shaharlar rivojlanib, shahar aholisining yetakchi qismi bo'lgan hunarmand-savdogarlar to'laqonli ijtimoiy qatlam sifatida shakllanib o'z huquqlarini himoya qiladigan qonunlarni joriy qilinishiga erishdi. Erkin, dehqonlar, hunarmand-savdogarlar bozor munosabatlarini shakllanishida yetakchi ijtimoiy kuch sifatida chiqdilar. Natural xo'jalik, feodal yer egaligi, qirolning mutlaq hokimiyati tugatilib raqobatga asoslangan demokratik jamiyatni qurishda hunarmand-savdogarlar va erkin dehqonlar ijtimoiy qatlamlar sifatida harakatlantiruvchi kuchga aylandilar.

Yevropada XI asrdan boshlab markazlashgan davlatlar paydo bo'ldi. Angliya va Fransiyada XV asrgacha feodal tarqoqlik asosan tugatildi. Qirolning markazlashgan hokimiyati paydo bo'ldi. Fransiya va Angliyada XIII asrdan qirol oldida qirol kengashi paydo bo'ldi. Qirol kengashi boshda qirol yerlarida, keyin esa mamlakat miqyosida feodal urushlarga chek qo'ydi. Qirolning katta yer egalari va urug'-qabila yo'l boshchilari gersog va graflarga qarshi kurashini bu urushlardan azob chekkan dehqonlar, mayda feodallar, shaharlar qo'llab quvvatladilar.

Yevropada qirolning markazlashtirish uchun qabila yo'l boshchilari – graflar va boshqa katta feodallarga qarshi olib borgan kurashida salmoqli kuch bu shaharlar edi. O'rta asrlarda Yevropada shahar harakati kuchli bo'lib ayrim shaharlar o'z-o'zini boshqarish huquqini dunyoviy va diniy feodallardan sotib oldilar yoki kurashib mustaqil erkin shahar mavqeini oldilar. Bu shaharlarning aksariyat aholisi savdogar-hunarmandlar va yollanib ishlovchilardan iborat edi.

Yevropa savdogarlari XI asrdan boshlab o'zlarining kompaniya va uyushmalarini tuza boshladilar. (Ganza ittifoqi, Moskva kompaniyasi, Levant, Ost-Indiya, Vest-Indiya kabi qator savdo kompaniyalari) Angliyaning Ost Indiya kompaniyasi Hindistonni bosib olishda va boshqarishda hamda uni iqtisodiy qaram qilishda ingliz hukumatiga yordam berdi. Ost-lind kompaniyasi o'zining yaxshi qurollangan armiyasi bilan 1857 yilgacha Hindistonni boshqardi.

Yevropada savdogarlar ichki va tashqi savdo bilan shug'ullanib katta miqdorda moddiy boylik to'pladilar. Savdogarlar dastlabki kapital yani

foйда keltiruvchi pul to‘pladilar. Savdogarlar o‘zlari to‘plagan ulkan savdo kapitali mablag‘ ishlab-chiqarishga qo‘ydilar. Hozirgi Yevropada bozor iqtisodiyotiga asoslangan sivilizatsiyaning ilk poydevorini yaratdilar.

Yevropada feodallarning beboshliklariga qarshi turgan qirol hokimiyatining ijtimoiy tayanchi hunarmand-savdogarlar, erkin dehqonlar bo‘ldi. Ushbu ijtimoiy qatlamlar o‘z huquq va majburiyatlariga va moliyaviy mablag‘ga ega kuchli ijtimoiy kuch edi. Yevropada mulk huquqi mavjud bo‘lgani uchun turli ijtimoiy qatlamlar moddiy boylik va moliyaviy kuch-qudratga ega bo‘ldilar. Shu sababli bu ijtimoiy qatlamlar qirol hokimiyatining o‘zboshimchaligi, zo‘ravonligi va suistemollarini cheklaydigan qonuniy hujjatlar qabul qilinishiga erishdi. Ana shunday hujjatlardan biri 1215-yilda Angliyada tuzilgan Buyuk Ozodlik partiyasi huquqiy hujjati edi. Bu hujjat qirol hokimiyatini zo‘ravonligini cheklashning ramzi bo‘lib qoldi. Yevropada turli ijtimoiy qatlam va guruhlarini manfaatlarini qonun yo‘li bilan himoya qiladigan vakillik organi parlamentlar paydo bo‘ldi. (Angliyada 1265 yilda, Fransiyada 1302 yilda) XVII asrda Angliyada qirol parlamentning ruxsatisiz soliqlar joriy etish, qo‘shin va parlament qabul qilgan qonunlarni bekor qilish huquqidan mahrum etildi.

O‘rta Osiyo iqtisodiyoti. Yevropada sanoat to‘ntarishi jadal borayotgan bir vaqtda O‘rta Osiyoda natural xo‘jalik hukm surar edi. O‘rta Osiyoda iqtisodiyotning asosiy sohasi sug‘orma dehqonchilik ko‘p mehnat va mablag‘ talab qiladigan sug‘orma dehqonchilikka asoslangani edi. Sun‘iy sug‘orish inshootlarini qurish, ta‘mirlash va ishchi holatida saqlash uchun asosiy tashkilotchi davlat hokimiyati edi. Shu sababli ham dehqonlar davlat hokimiyatiga qaram edilar. Dehqonchilikda va hunarmandchilikda ishlatiladigan texnologiya ibtidoiy ahvolda edi. Bundan tashqari turli soliq va to‘lovlar, mehnat majburiyatlari dehqonning zaif yelkasiga yuklangan edi

Dehqonlar. O‘rta Osiyo dehqon va chorvadorlari an’anaviy jamoatchilik tartib-qoidalari asosida qishloq va ovullarda yashadilar. Mamlakatda aholining asosiy qismi qishloq xo‘jaligida sug‘orma dehqonchilik bilan shug‘ullanar, cho‘l va tog‘lik hududlarda ko‘chmanchi chorvachilik mavjud edi. Dehqon va chorvadorlar o‘zlarini oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojlarini o‘z xo‘jaliklarida yetishtirgan mahsulotlari bilan qondirar edilar. Soliq to‘lovlardan keyin dehqon oilasiga yetar yetmas miqdorda mahsulot qolar, aksariyat dehqonlar kam yerli bo‘lib ko‘pincha mardikorlik va chorikorlik bilan shug‘ullanib zo‘rg‘a tirikchilik qilar edilar. Albatta bir qism o‘ziga to‘q dehqonlar bor edi lekin ular kam sonli bo‘lib, iqtisodiyotda sezilarli o‘ringa ega emas edi. Qishloq dehqon jamoasi sug‘orma

dehqonchilik bilan shug'ullanib, sug'orish inshootlarini qurish ularni ta'mirlash va ishchi holatida ushlab turishda tashkilotchi bo'lgan davlat hokimiyatiga qaram edilar, tartib-qoidalari asosida yashaydigan dehqonlar davlat hokimiyatiga qaram edilar. Barcha ekin yerlari davlat mulki edi. O'rta Osiyo dehqonining yerga egalik huquqining qonun bilan kafolatlanmagani, yerga xususiy mulkchilikning yo'qligi, cheklanmagan to'lovlar va mehnat majburiyatlari dehqon xo'jaligining rivojlanishiga to'siq bo'ldi. Texnika – texnologiya almisoqdan qolgan bo'lib texnik inqiloblar yuz bermadi . Asosiy mehnat quroli so'qa, ketmon, o'roq bo'lib, yerga qo'l-musku kuchi bilan ishlov berish ya'ni ketmon bilan ag'darib ekilar, ishlov berilar edi . Faqat o'ziga to'q boy dehqonlarda yerga ishlov berishda hayvon kuchidan foydalanish ya'ni ot-ho'kizni qo'shga qo'shib yerni haydash imkoniyati mavjud edi. Yangi texnika-texnologiya uchun na mablag', na qulay iqtisodiy omillar mavjud emas edi. Qishloq, shahar, viloyatlar o'rtasida mehnat taqsimoti, mahsulot almashuvi va umumiy bozor shakllanmagan edi.

Asosiy ishlab chiqaruvchi bo'lgan dehqon asrlar davomida o'z mehnati bilan butun aholining barcha qatlamlarini boqdi. Dehqonlar sun'iy sug'orish inshootlarini qurish, ta'mirlash va ishchi holatida saqlashga ham javobgar edilar. Oddiy dehqon olgan hosil arzimas miqdorda bo'lib kun kechirishiga zo'rga yetar-yetmas edi. Dehqonlarning asosiy qismi uchun qashshoq hayot tarzi, qarzga botishi, huquqsizlik odatdagi hol bo'lib, bunday turmush tarzi asrlar davomida o'zgarmay qoldi. Qashshoqlik, ochlik, qarzga botib kun ko'rish dehqonlarning aksariyatiga xos edi. Shu sababli dehqonchilik agrotexnikasi, texnika-texnologiya ibtidoiy holatda saqlanib qolaverdi. Ko'pincha hosilning miqdori tabiatning saxiyligiga bog'liq edi. Qurg'oqchilik, og'ir soliq va majburiyatlar va boshqa tabiat ofatlari dehqon uchun eng dahshatli hodisa edi. Qashshoqlik, kambag'allik mayda dehqon xo'jaligining asrlar davomidagi muntazam hamrohi edi. Aksariyat mayda dehqon xo'jaligining bozor bilan aloqasi zaif edi.

Katta yer egalari – zodagon-oqsuyaklar (xo'jalar), xon va uning amaldorlari sug'oriladigan yerlarning eng unumdor qismiga egalik qilib, kambag'al dehqonlarning mehnatidan foydalanib yerga ishlov berdilar. O'rta asrlarda iqto, suyurg'ul qilingan viloyat, tumanlar katta yer egalari tegishli bo'lib, ular bu yerdagi ekin yerlaridan katta daromad olar edilar. Katta yer egalari yerni ijaraga berar edilar. Bu imtiyozli tabaqalar kopincha soliq va majburiyatlardan ozod qiladigan huquqni olganlar.

Hunarmandchilik. Shahar aholisini bir qismini tashkil qilgan hunarmandlar mustaqil ijtimoiy qatlam sifatida shakllana olmadi, hunarmandlarning huquqlari qonun bilan himoya qilinmadi. Hunarmandchi-

lik bir qadar rivojlangan bo'lsada kustar holatda qolaverdi. Hunarmand bozor uchun mahsulot ishlab chiqarmadi. Chunki bozor munosabatlarini rivojlanmagani, xo'jalik hayotini ibtidoiy holatda qolishiga sabab bo'ldi. Xo'jalikni natural holatda bo'lgani uchun texnika-texnologiya ham ibtidoiy holda qolaverdi. Hunarmandlar faqat buyurtma asosida mahsulot ishlab chiqardilar. Aholining iste'mol qobiliyati cheklanganligi sababli zaruriy iste'mol mollari, uy-ro'zg'or buyumlari ibtidoiy texnologiya asosida ishlab chiqarildi. Yevropaga o'xshab hunarmandchilik ustaxonalari manufaktura ishlab chiqarishiga o'ta olmadilar. Hunarmand zo'rg'a tirikchiligini o'tkazib, uning turmush tarzi asrlar davomida o'zgarmay qolaverdi. Hukmdor sulola atrofidagi katta amaldorlar, harbiylar hukmdorning xohish-irodasiga bo'ysunar va o'z iqtisodiy-ijtimoiy mavqelarini saqlab qolish uchun faqat hukmdorning muruvvatiga sazovor bo'lishga intilar edilar. Ularning moddiy ta'minotining asosi yer-mulklar, turli sovg'a-salomlar, tortiqlardan iborat edi.

O'rta Osiyoda shaharlar. Sharqda shahar hokim yoki hukmdorning qarorgohi bo'lib, doimo dushman tomonidan talon-taroj bo'lish xavfi ostida yashadi. Mahalliy urug'-zodagonlari, hokimlarning o'zaro urushlar natijasida shaharlar doimiy ravishda dushman tomonidan bosib olinib, talon-taroj qilindi. Shahar aholisi uchun mahalliy feodallarning urushlari haqiqiy ofat bo'lgan. Shaharni bosib olgan dushman shahar aholisini talab, o'zini qilichdan o'tkazar edi.

Qadimgi Rimda ilk bor o'z-o'zini boshqaradigan shaharlar-munisipiyalar, kommunalar yuzaga kelgan edi. O'rta asrlarda ham Yevropa shaharlariga o'z-o'zini boshqarish – kommuna, munisipalitet huquqi yanada rivojlantirildi. O'rta Osiyoda shaharlar ma'muriy-hududiy markaz, hukmdor qarorgohi, shu bilan birga hunarmandchilik-savdo markazlari edi. Shaharlar qonun asosida hech qanday huquqqa ega bo'lmay shahar aholisi esa feodal urushlarning qurbonlari bo'ldilar. Urushlarda shaharlar yov tomonidan talanib yoqib yuborilar edi.

Savdogarlar. Dastlabki kapital jamg'arish O'rta Osiyoda yevropada ancha oldin IX-X asrlarda boshlangan bo'lsada lekin tugallanmay qoldi. O'rta Osiyoda savdogarlar ijtimoiy qatlam sifatida shakllangan bo'lsalarda, o'z manfaatlarini qonun asosida himoya qila oladigan darajadagi ijtimoiy darajasiga ko'tarila olmadilar. Ularning huquqlari ham qonun yo'li bilan kafolatlanmadi. Iqtisodiyot XX asrgacha natural xarakterda edi. Ichki bozorda asosan kiyim-kechak, qisman mehnat qurollari, uy-ro'zg'or buyumlari, kulolchilik mahsulotlari sotilar edi. Mehnat qurollari qisman bozorda chiqarilar, ko'pincha qishloq joylarida mahalliy temirchilar tomonidan buyurtma asosida tayyorlanar edi.

Iste'mol buyumlari bozori cheklangan edi. Chunki aholi qashshoq bo'lib iste'mol qobiliyati past edi.

O'rta Osiyo savdogarlari yevropa savdogarlari kabi o'z manfaatlarini himoya qiladigan tashkilotni (gildiya, ittifoq, kompaniya) tuza olmadilar. Ichki savdo aholining iste'mol qobiliyati cheklangani uchun rivojlanmadi. Tashqi savdo mavjud bolsada ozaro feodal urushlari sababli yaxshi rivojlanmadi. Savdogarlarni davlat hokimiyati bir qadar himoya qilsada amaldorlar suiste'moli, mahalliy hokimlar, qaroqchi – o'g'rilardan himoyalari zaif bo'lib, ularning hayoti va mol-mulki huquqiy jihatdan himoqlanmagan edi. Savdogarning mol-mulki va hayoti doimo xavf ostida edi.

Xususiy mulk huquqiy himoqlanmagani sababli savdogar mashaqqat bilan yiqqan jamg'armasini o'z savdosini kengaytirishga yoki ishlab-chiqarishga qo'ya olmas edi. Tashqi savdo bilan shugullangan savdogarlar katta pul mablag'larini to'pladilar. Lekin bu to'plangan savdo kapitalini ishlab chiqarishga qo'yish uchun hech qanday qulay iqtisodiy shart-sharoit, huquqiy-iqtisodiy kafolat yo'q edi. Shu sababli katta savdogarlar to'plagan boyliklarini ko'za sandiqchalarga joylab yerga ko'mib yoki devorga suvab tinch kunlargacha asrab qo'yishga majbur bo'ldilar.

O'rta Osiyoda o'rta asrlarda hukm surgan jabr-zulmni tugatish, adolatli jamiyat qurish g'oyasi sarbadorlar harakatida aksini topdi. Davlat hokimiyati va ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi munosabatlar huquqiy asosda qurilmadi. Shu sababli erkin dehqonlar, hunarmand, savdogarlar o'z huquqini himoya qilish salohiyatiga ega emas edilar.

O'rta Osiyoda eng avvalo inson huquqlarining ustivorligi qonun bilan ta'minlanmadi. Jamoa huquqi, davlat huquqi ustivor ahamiyat kasb etdi. Xususiy mulk qonun bilan himoqlanmadi. Hunarmandlar, savdogarlar qatlamlari shakllangan bo'lsada, bu qatlamlar ijtimoiy to'la qonli huquqqa ega bo'lgan qatlam darajasiga ko'tarila olmadi. Bu ijtimoiy qatlamlarni huquqlarini himoya qiladigan qonunlar mavjud emas edi. O'rta asr boshqaruv ana'ana va qoidalari asosida boshqaruvni amalga oshiradigan davlat hokimiyati barcha ijtimoiy qatlamlarini huquqlarini himoya qilish qobiliyatiga ega emas edi.

O'rta Osiyo shayboniylar sulolasi hukmronligidan keyin XVII asrda qariyb uch asr davom etgan siyosiy-iqtisodiy tushkunlik bosqichiga kirdi. Ozaro feodal urushlari siyosiy tarqoqlikka olib keldi. Shayboniylar sulolasidan keyin O'rta Osiyo uch xonlikka bo'linib ketdi. Qo'shni Rossiya, Eron davlatlari O'rta Osiyoning ulkan hududlarini bosib oldilar.

Bu fojiani bosh sabablari: Shaharlar, ijtimoiy qatlamlarning zaif rivojlanishi, ularning huquqsizligi, qonun ustivorligini mavjud emasligi;

Podshoning hokimiyatining zaifligi, harbiy jihatdan zaiflik, muntazam armiyaning mavjud emasligi; ilm-fan taraqqiyotining zaifligi; diniy mutaassiblik;

O'ika aholisining urug'-qabilachilik, urug'chilik urf-odat-ana'analar qurshovida yashashi, kambag'allik-qashshoqlik, ishlab-chiqarish usulining ibtidoiyligi, texnika-texnologiyaning almisoydan qolganligi, zamonaviy-texnika va uni rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitning kelmagani; Ishlab chiqarish munosabatlari ibtidoiy texnika-texnologiyaga asoslangani, mahsulot sifatini past va aholining iste'mol ehtiyoji cheklani. Og'ir ekologik muhit, tabiiy ofatlar qurg'oqchilik, hosilsizlik, turli kasalliklarga qarshi tura olmaslik shaharlar, ijtimoiy qatlamlarning zaif rivojlanishi, ularning huquqsizligi, qonun ustivorligini mavjud emasligi; podsho hokimiyatining zaifligi, harbiy jihatdan zaiflik, muntazam armiyaning mavjud emasligi; ilm-fan taraqqiyotining zaifligi; diniy mutaassiblik. Siyosiy tanazzulning fojiali oqibatlar. Davlat hokimiyatining tanazzuli hududiy yaxlitlikka xavf solgan separatizmni kuchaytirdi, oqibatda O'rta Osiyo bir-biriga dusman bo'lgan uch xonlikka bo'linib ketdi. Buning ustiga O'rta Osiyoning bepoyon hududlari qo'shni Rus, Eron, Xitoy, va hatto kechagina paydo bo'lgan Afg'on amirligi tomonidan bosib olindi.

XVI asrda O'rta Osiyoda me'morchilik san'ati, xattotlik, adabiyot, tarix, musiqa, astronomiya sohasida nodir asarlar yaratildi. Lekin bu so'nggi yuksalish edi. Bundan keyin feodal ziddiyatlarning kuchayishi, diniy mutaassiblik O'rta Osiyoni bir necha asrlarga chulg'ab olib, zulmat asrlari boshlandi.

Orta Osiyoni rus mustamlakachilari tomonidan bosib olinishi XVIII asrdan boshlanib, XIX asrning 80 yillarida tugallandi. Qo'qon xonligi tugatilib uning o'rniga Farg'ona viloyati tashkil etildi. Xalqaro vaziyat Rossiya uchun noqulay bo'lgani bosqinchilar Buxoro amirligi, Xiva xonligini tugatishga jur'at eta olmadi. Bu davlatlar Rossiyaga vassal-qo'g'irchoq davlat bo'lib qoldilar.

Amalda rus mustamlakachilari bu davlatlarning hududlarini katta qismini tortib oldi. Har ikkala xonlik ham mustaqil tashqi siyosat yuritishdan mahrum qilindi. Xiva xoni va Buxoro amirining faoliyati, ichki siyosati rus davlatining tomonidan qattiq nazorat ostiga olindi. Mahalliy aholi ikki tomonlama zulm ostida qoldi. Mustamlakachilar mahalliy aholini qashshoqlik va qoloqlik va jaholatda ushlab turishga urindilar. O'ikaning taraqqiyoti bir necha asr orqaga tashlandi. Rus mustamlakachilari mahalliy sanoatni rivojlanishiga yo'l qo'yamadilar. Paxta monokul'turasi joriy etilib, hududni iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini sun'iy ushlab turdilar. O'ikaning yer usti va yer osti boyliklari ayovsiz talanib markazga

tashib ketildi. Rossiya hududidan rus dehqonlari ko‘chirib keltirilib shundoq ham taqchil bo‘lgan unumdor ekin yerlari ularga ajratib berildi.

Sovet davrida ham bu siyosat boshqacha ko‘rinishda davom ettirildi. O‘lkaning etnik kelib chiqishi bir ildizdan bo‘lgan, tili, diniy e‘tiqodi va madaniyati bir bo‘lgan xalqi milliy davlat chegaralalanishi bahonasi bilan sun‘iy bir necha respublikalarga bolib yuborildi. Milliy madaniyatni himoya qilgan milliy yo‘lboshchilar qatag‘on qilinib jismoniy yo‘q qilindi, milliy madaniyat va qadriyatlar oyoq osti bo‘ldi. Markazga so‘zsiz bo‘ysunadigan kishilar rahbarlik lavozimiga qo‘yildi. O‘rta Osiyo respublikalari markaz uchun paxta xomashyosi yetkazib beradigan hudud bo‘lib qoldi. Paxta mono kulturasi o‘rnatilgach, suv tanqisligi kuchayib ekologik vaziyat keskinlashdi. Bir yuz ellik yil davom etgan mustamlakachilik o‘lkaga juda oxir meros qoldirdi.

Mustaqillik arafasida O‘rta Osiyo respublikalarida iqtisodiyot bir yoqlama rivojlangan, agrar xomashyoga asoslangan edi, aholi qashshoqlikda yashab, milliy madaniyat va qadriyatlar tushkinlik yo‘qolib ketish arafasida edi. Lekin millat yo‘q bo‘lib ketmadi, u o‘zini saqlab qoldi. Va yana qaddini azot ko‘tarishga kuch topa oldi. Mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab millatning ruhiyatidan qullik ruhiyatini yo‘q qilishga tomon yo‘l tutildi.

Mustaqillik arafasida iqtisodiyot bir yoqlama agrar xomashyoga asoslangan, qashshoqlik milliy madaniyat va qadriyatlar tushkinlik va milliy qadriyatlar yo‘qolib ketish arafasida edi. Lekin turkiy xalq yo‘q bo‘lib ketmadi, u o‘zini saqlab qoldi. Va yana qaddini tiklab ozod yashashga kuch topa oldi. Qullik kishanidan xalos bo‘lgan millat ruhiyatidagi qullik tuyg‘usidan xalos bo‘lish tomon yo‘l tutdi. Bu og‘ir va mashaqqatli yo‘l, biz qachon bu illatni ongimizdan sug‘rib tashlashlashga erishsak shundagina o‘zligini anglagan millatga aylanamiz va erkin hayotga erishamiz.

Tayanch iboralar. Saklar, To‘maris, turk hoqonligi. Varaxsha, Amir Temur, Ibn Sino Renessans, Ulug‘bek akademiyasi, feodal tarqoqlik, diniy mutaasiblik, mustamlakachilar.monokul’tura, turkiy, madrasa, qadriyat, mustaqillik.

Takrorlash uchun savollar.

1. O‘rta Osiyodagi ilk dehqonchilik manzilgohlarini aniqlang
2. O‘rta Osiyoda mil. avv. II-I ming yilliklarda yashagan etnoslarni ko‘rsating.
3. O‘rta Osiyoda ilk davlat va jamiyatlar va ularning madaniyatini ayting
4. Milodiy I ming yillikda O‘rta Osiyoda siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarni tushuntiring
5. IX-XII asrlarda O‘rta Osiyoda fan-madaniyatning gullab yashnash omillari

6. Temuriylar va Shayboniylar davrida Oʻrta Osiyo siyosiy hayotini tavsiflang
7. Oʻrta Osiyoning tushkinlikka uchrab mustamlakaga aylanishining sabablarini ayting.

Mustaqil ish mavzulari.

1. Oʻrta Osiyo insoniyat sivilizatsiyasining ilk oʻchoqlaridan biri.
2. Oʻrta Osiyo ibtidoiy jamoa davrida
3. Oʻrta Osiyoda ilk davlat va jamiyatlar.
4. Mil. avv. III-II ming yilliklarda sak sivilizatsiyasi . Etnik jarayonlar ilk asrlarda Oʻrta Osiyo sivilizatsiyasi.
5. Oʻrta Osiyo sivilizatsiyasida davlat va jamiyatlar. Mil. avv. VII asrdan –milodiy XVIII asrgacha
6. Oʻrta Osiyo sivilizatsiyasining mazmun mohiyati: koʻhna va yaqin oʻtmish, bugun va kelajak chizgilari

Buyuk Temur

Amir Temur jahon tarixini borishini oʻzgartirgan daholardan biri. Amir Temur yoshligidan dunyoviy, diniy bilimlarni oldi va harbiy ishni oʻrgandi. Oʻrta Osiyoni moʻgʻullar zulmidan ozod qildi. Amir Temur Oʻrta Osiyo, Kavkaz orti, Afgoniston, Iroq, Hindistonni qamrab olgan ulkan davlati tuzdi. Bu davlatni Turon deb atadi. Temuriylar sulolasi boshqaruvi yuz yil davom etdi. Davlat boshqaruv sanʼati toʻgʻrisida maxsus yoʻriqnomalar-tuzuklarni yaratdi. Turon zaminining tolmas buyuk farzandi hayotini Turonni ozodligi, millatni tinch va osoyishta, farovon hayotini taʼminlash uchun tinimsiz kurashga bagʻishladi. Temur Turon zaminining buyuk siyosatchisi va davlat arbobi edi. Uning siyosiy va harbiy faoliyati sharq va gʻarbnl qoldirdi. Buyuk Temurning faoliyati kʻplab olimlarni va yozuvchilarni hayratga soldi Shu sababli Amir Temur toʻgʻrisida gʻarb va sharqda uning davri va keying davrlarda ham tarixiy, adabiy asarlar yaratildi.

Amir Shohmurod

Mangit hukmdorlari orasida amir Shohmurod (1785-1800) alohida oʻrin turadi. Shahzoda Shohmurod otasi amir Doniyolbiy hukmronligi davrida otasi bilan birga hokimiyatni boshqardi. Taxtga oʻtirgach oddiy xalqni ahvolini yaxshilash uchun amir Shohmurod qator ishlarni amalga oshirdi. Aholi zimmasida ogʻir yuk boʻlgan qoʻshimcha toʻlov va yigimlarni, har qanday yangi soliqlarni, oliq va soliqlarni bekor qildi. Soliqlar miqdori va yukini kamaytirdi. XIX asrda yashagan taniqli tarixchi Ah-

mad Donish Shohmurodning amaldorlarni poraxo‘rligini tugatish uchun amalga oshirgan ishlari to‘g‘risida shunday ma’lumot beradi: “...Buxoro hokimlari bundan keyin yana dehqonlardan oluq va soliq olmasliklari uchun va tosh tarozidan foydalanish uchun hech nima olmasliklari, poraxo‘rlik va tovlamachilik bilan hech narsa olmasliklari, pora olmasliklari va tarozidan urmasliklari uchun farmon chiqarib farmonni toshga yozdi, Agar kimdir bu ishni qilsa – “ularga ollohning va barcha farishtalar va odamlarning lan’ati bo‘lsin. “Amir Shohmurodning bu farmoni husnixatli yozuvda tosh taxtaga o‘yib yozilib, katta jome machitining gumbazli zali ayvonida o‘rnatib qo‘yilgan.

Amir Shohmurod juda kamtarona, g‘arib hayot turmush tarzida yashadi. U har qanday hashamatdan voz kechib yashadi. Shariat qoidasiga ko‘ra davlat xazinasidan hukmdorning sarf-xarajatiga ajratilgan mablag‘dan bir tanga ham ortiq xarajat qilmay yashadi. Amir Shohmurod haftada ikki marta o‘zi uchun yog‘li ovqat tayyorladi. Oila a‘zolariga o‘z ehtiyojlari uchun ularni xizmatlariga yarasha ruxsat berdi. Uning yog‘li ovqati o‘rik, jiyda no‘xat, mosh va mayiz yog‘idan iborat edi. Qotgan nonni ushatdi va undan sho‘rva qildi. Qachonki bu sho‘rva aynib nafaqat uni iste‘mol qilish balki hidiga chidab o‘tirish mumkin bo‘lmagan holda u bu ovqatni ushug‘igacha yedi va keyin Allohga shukrona o‘qidi. Kechasidan ertalabgacha ibodat qildi keyin esa kun bo‘yi sud ishlarini ajrim qildi va arz-shikoyatlarni eshitdi.

Tez-tez bo‘lib turadigan dushman bosqiniga qarshi o‘zi qoshiniga bosh bo‘lib jasorat bilan yov hujumini qaytardi. Amir Shohmurod boshqa hukmdorlarga o‘xshab hashamatli kiyinmadi va dabdaba bilan xalqning oldiga chiqmadi. Ahmad Donish shunday hikoya qiladi: “Bir kuni yomg‘irli kunda u tilla kamarlar taqqan va zarbof kiyimdagi saroy a‘yonlarining katta to‘dasi va amirlari qurshovida katta jome‘ machitiga yo‘l oldi. U jabdug‘i to‘la bo‘lmagan oriq ustida edi va otni qamchilash uchun unda qamchi ham yo‘q edi. U otni yurishga majbur qilish uchun oyog‘idagi katta kavushi bilan otning biqiniga niqtar edi. Bu kavushga mingta yamoq va tikishlar mavjud edi. Bu niqtashlar otga hech qanday ta’sir qilmay ot shoshmasdan tebranib borar edi. Birdan bu kavush etikdan ajralib loyga tushdi. Yo‘lning ikki tarafida esa sulton va hokimlarni ko‘rish uchun odamlar to‘da bo‘lgan edi. Fuqarolardan biri yugurib kelib kavushni oldi va tozalab sultonning jilovi bilan yonma yon yurib sultonning oyog‘ini ushlab unga kavushni kiydirdi. Amir otni to‘xtatdi [ot shuni kutgan edi]. Amir ikki qo‘lini ko‘tarib baland ovozda odamlar eshitishi uchun bu odam uchun uzun duo qildi. Bu vaqtda amirlar orqada va chapda qator bo‘lib turar edilar. **Ahmad Donish “Mangit sulolasi tarixi”**.

Usmoniylar imperiyasi

XIV asrda Kichik Osiyoda eski Saljuqiylar davlati o'rnida Usmoniylar davlati shakllandi. Usmoniy turklar dastlab Kichik Osiyo, 1386-yil Bolgariya, 1389-yil Serbiya, 1453-yil Vizantiya imperiyasini bosib oldilar. XVI asr boshlarida sulton Salim I mamluklarga zarba berib, Suriya va Arabistonni buysundirdi. Uning o'g'li Sulaymon I 1521-yil Belgrad, 1526-yil Vengriya, keyin Qrim, Moldaviya va Valaxiyani bosib oldi. XVI asr oxirida Yunoniston, Shirvon, hozirgi Eron, Ozarbayjon imperiya tarkibiga kiritildi. Afrikada Misr ishg'ol qilinib, Marokashdan tashqari, Shimoliy Afrika butunlay egallab olindi. Istilolar natijasida uch qit'adan yer-mulk, qaram hududlarni o'z tarkibiga olgan ulkan imperiya tashkil topdi.

Yevropa sivilizatsiyasini XV-XIX asrlardagi tarixini qudratli Usmoniylar davlatisiz tasavvur qilish mumkin emas. Usmoniylar imperiyasi 500 yil davomida Yevropa sivilizatsiyasi bilan yonma yon yashab bu sivilizatsiya bilan yaqin aloqada bo'ldi. Usmoniylar imperiyasining zai-flashuvi va halokatida Rossiya, Angliya davlatlari asosiy rol o'ynadilar. Har ikki davlat ham Usmoniylar imperiyasining Yevropa, Afrika va Osiyodagi bepoyon hududlariga ko'z tikdilar va bu hududlarni qo'lga kiritishga urinib Usmoniylar bilan bir necha urushlarni olib bordilar. O'rta asrlarda vujudga kelgan Usmoniylar davlati qadimgi Ahmoniylar va Parfiya va boshqa sharqdagi imperiyalar kabi ulkan imperiyaga aylanib 16-18 asrlarda Yevropa siyosatida yetakchi mavqeni egalladi. Usmoniylar davlati shu davrda Yevropa, Osiyo, Afrika hududlari bir qismini egallab ulkan davlatni tashkil etdi. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni qurishni boshlagan Yevropa davlatlarining Osiyo qit'asiga tajovuziga to'siq bo'ldi.

Usmoniylar imperiyasi hukmdorlari salohiyatli sultonlar davlat boshqaruvini samarali usullarini qo'lladilar. Kuchli piyoda qo'shin (yanicharlar) va harbiy flot imperiyaning xavfsizligini ta'minlar edi. Usmoniylar imperiyasi XX asrgacha butun Yevropa siyosatiga kuchli ta'sirini o'tkazdi. Usmoniylar sulolasining besh yuz yillik hukmronligi davrida yuksak madaniyat shakllandi. Mamlakatda ilm-fan rivojlandi, ulug'vor inshootlar qurildi. Usmoniylar imperiyasi yuksalishlar va tushkinliklarni boshidan kechirdi. Yevropa siyosatida salmoqli o'rinni egalladi. G'arbiy va sharqiy Yevropaning yetakchi davlatlari bu qudratli imperiya bilan yaxshi munosabatda bo'lishga harakat qildilar. Yevropaning eng qudratli davlati bo'lgan Fransiya Turkiya bilan foydali ittifoq tuzdi. Turkiya O'rta Yer dengizi havzasida hukmron mavqeni egalladi va yevropa savdog-

arlariga Ortayer dengizini ochib qo‘ydi. Islom dini yetakchi e‘tiqod bo‘lgan Turkiya davlati turli konfessiya va etnoslar yashagan mamlakatda diniy e‘tiqodda tolerantlik siyosatini yuritdi. XVI asrda yashagan siyosatshunos Jan Boden Usmoniylarning tolerantlik siyosatidan hayratga tushib o‘zining asarida shunday yozgan edi: ...u (ya‘ni sulton) o‘z saroyida hatto turli e‘tiqodlar yahudiy, xristian-rim, xristian-yunon va islomga e‘tiqod qilishga ruxsat beradi”.

Usmoniylar imperiyasi Angliya, Rossiya va boshqa yevropa davlatlarining sharqqa ekspansiyasini tiyib turdi. Lekin yevropadagi yetakchi davlatlar doimo Usmoniylar davlatini zaiflashtirish uchun ochiq va yashirin siyosat yuritdilar. Rim papasi Yevropani Usmoniylarga qarshi birlashtirishda tashkilotchi bo‘lishga urindi. Usmoniylar davlati XIX asrning ikkinchi yarmidan o‘zining yemirilish bosqichiga kirdi.

Yevropa davlatlari imperiya hududlarini bosib olishga kirishdilar. Yevropaning yetakchi mustamlakachi davlatlari XVIII-XIX asrning birinchi yarmida Afrika, Amerika va Osiyoning katta hududlarini mustamlaka qilib katta boyliklar orttirdilar. Bundan tashqari sanoat ishlab chiqarishi bu mamlakatlarda yetakchi sohaga aylandi. Arzon xomashyo, arzon ishchi kuchiga bo‘lgan talab o‘sib bordi. Yetakchi davlatlar endi Usmoniylar imperiyasining boy hududlariga ko‘z tikdilar. Endigina rivojlanib kelayotgan Rossiya, qudratli Angliya Turkiyaga nisbatan ekspansiyada yetakchi o‘rinni egalladilar.

Usmoniylar davrida madaniyat sohasida ulkan yutuqlarga erishildi. Me‘morchilikda ulug‘vor jamoat inshootlari yaratildi. Mashhur me‘mor Xo‘ja Sinon (1490-1588) 300 dan ko‘proq machit, saroy, madrasa, favvora, ko‘prik va hammomlarni bunyod qildi. Geografiya fani yuqori natijalarga erishildi. Turk dengizchisi Piri Rais geografiya fanidan qator asarlarni yaratdi. U “Baxriya” nomli dengiz atlasida (1513) Ortayer dengizi, Qora va Egey dengizlarini to‘la tasvirini berdi. Turk dengiz sayyohi Evli Chalabiy “Sayohatnoma” asarini yozdi. Mustafo bin Abdulloh, ilohiyotshunoslik, huquqshunoslik, siyosat, moliya, adabiyot sohaslarida asarlar yozdi. U qator tarixiy asarlarning muallifi. Ayniqsa “Jahonnoma” nomli geografik asari bilan shuhrat qozondi. Bu asarida arab va g‘arbiy Yevropa manbalari asosida butun dunyoni geografik tasvirini berdi. Bu davrda turk apoeziyasida Mehri Xotun, turk lirikasining sultoni unvonini olgan shoir Mulla Maxmud ijod qildilar. O‘zining keskin siyosiy asarlari bilan tanilgan Vaysiy (1628yilda vafot etgan) va Nafi (1635 yilda vafot etgan) yashadilar.

Arab sivilizatsiyasi

1. Qadimgi janubiy Arabiston sivilizatsiyasi

2. Arab musulmon sivilizatsiyasi

Janubiy Arabiston hududida olduvay xilidagi ilk paleolit qurollari tva ilk paleolit manzilgohlari topilgan. Bu topilmalar Janubiy Arabiston ilk odamning Sharqiy Afrikadan butun dunyoga boshlangan sayohatining ilk yo‘llardan biri Janubiy Arabistondan o‘tganidan dalolat beradi. Osha vaqtda Janubiy Arabiston sharqiroq daryolarning suvlari bilan mo‘l-ko‘l sug‘oriladigan o‘tloq va yaylovlarga boy bo‘lib, bu hududda sut emizuvchilarning ko‘plab podalari o‘tlab yurgan. Mil. avv. XVIII-XVII ming yilliklarda Arabiston yarim orolida iqlim o‘zgarishi oqibatida butun yarimorol sahroga aylangan. Odamlar bu hududdan ko‘chib ketganlar. Faqat mil. avv. mil. avv. VII ming yillikdan boshlab yarimorolda iqlim o‘zgarib sahrolar ko‘m-ko‘k sero‘t o‘tloq va yaylovlarga aylandi. Odamlar yana ko‘chib kela boshladilar. Boshda Qatar sharqiy qirg‘oq qismi, keyin mil. avv. VII-VI ming yilliklarda Markaziy va Janubiy Arabiston (Rub al Xalil, Shimoliy Yaman, Xadramaut va boshqa hududlar) da aholi ko‘paydi.

Arabistonning sharqiy qirg‘og‘ida mil. avv. V ming yillikda El Ubayd madaniyati tashuvchilari, keyin Jamdat Nasr madaniyati odamlari kelib o‘rnashadi. Mil. avv. III ming yillikda Sharqiy Arabiston va Omon (qadimgi Magan) Janubiy Ikki daryo Oralig‘i bilan dengiz savdosini yo‘lga qo‘yadi. Dilmun (Hozirgi Baxrayn) hududlari Shimoli-g‘arbiy Hindiston bilan savdo aloqalarini yo‘lga qo‘ygan.

Janubiy Arabistonning qadimgi davlatlari. Arabiston yarimoroli janubi va janubi-g‘arbida (hozirgi Yaman Respublikasi hududi) mil. avv. X-IX asrlarda bir necha davlatlar vujudga keladi. Janubiy Arabistonning chekka shimolida bosh shaharlari Isil va Karnava bo‘lgan Main davlati tashkil topadi. Maından janubroqda markazi Marib shahri bo‘lgan Saba, undan janubroqda poytaxti Timna bo‘lgan Kataban, Katabandan janubroqda Ausan davlati, sharqroqda markazi Shabva bo‘lgan Xadramaut davlatlari bor edi.

Qadimgi Yaman davlatlari mil. avv. IX-VIII asrlarda shakllana boshlagan. Mil. avv. VI-V asrlarda Main, Kataban, Saba va Xadramaut davlatlari o‘rtasida yetakchilik uchun kurash boshlanadi. Saba, Kataban va Xadramaut dastlab Ausanga qarshi birlashib, kurash boshlaydilar. Natijada Ausan Katabanga qo‘shib olinadi. Main davlati Kataban va Sabaning tazyiqiga zo‘rg‘a bardosh beradi. Mil. avv. III-I asrlarda zaiflashib qol-

gan Kataban Arabistondagi eng kuchli davlatlar Saba va Xadramaut tomonidan b'olib olinadi. Saba shaharlari mil. avv. II ming yillikda paydo bo'lgan. Saba podsholigi esa 1600 yil yashaydi. Mil. avv. II asrda janubdagi eng qudratli davlat Saba podsholigi bo'lgan. Saba davlati Arabiston yari-morolining eng janubida joylashgan bolib, janubiy dengizlarning finikiyaliklari bo'lgan ular janubdagi eng mohir dengizchilari bo'lganlar. Ular Fors qoltig'i suvlarida suzishni mutlaq egallaganlar. Dengizdan kelgan mahsulotlar sabey portlarida tushirilib, keyin quruqlik bilan Shimoliy Arabistondagi Petra shahri va Suriyaga; g'arbiga Sinay orqali Misrga; shimoli-g'arbiga - Mesopotamiya va Hindistonga borgan. Bu yollar ham birinchi bor sabeyliklar tomonidan tekshirilgan. Sabaliklarning shahar, qo'rg'onlari Yaqin Sharq va Yevropani Hindistonga boradigan yo'llari ustida joylashgan. Bu hudud orqali Fors qo'ltig'idan olinadigan marvarid, Hindistondan nafis gazlamalar, ziravorlar, Efiopiyadan fil suyagi, maymunlar, oltin, tuyaqush patlari tashilgan va butun O'rta Osiyo va Yevropaga tarqalgan. Saba podsholigining hududi ham qadimgi dunyo uchun eng qimmatbaho mahsulotlar bo'lgan xushbo'y moylar, mirra va ziravorlar o'stirilgan. Milodiy III asrda Saba butun Janubiy Arabistonni bitta davlatga birlashtirgan. Saba gullab-yashnagan davrida uning hududi Qizil dengizdan Xadramautgacha, Markaziy Arabistondan Hind okeanigacha cho'ziladi. Bu davlat Yaqin Sharq bilan yaqin aloqalarni o'rnatgan. Mil. avv. II asr oxirida shu vaqtgacha Kataban tarkibidagi, poytaxti Zafar bo'lgan yangi Ximyarit davlati yetakchi o'ringa chiqadi. Milodiy IV asr boshlarida Ximyarit davlati butun Janubiy Arabistonga o'z hukmronligini o'rnatadi. Ximyarit fors qoltig'i orqali Mesopotamiya bilan, Bob-el Mandib qoltig'i orqali Sharqiy Afrika bilan Saba va Maından mustaqil holda aloqa o'rnatganlar. Ximyarit davlati davrida Janubiy Arabiston va Efiopiya o'rtasida urush va tinchlik munosabatlari hukm surgan.

Mil. avv. I ming yillik o'rtalaridan milodiy I ming yillik o'rtalari-gacha Arabiston Yunoniston, Ptolomeylar Misr va Rim imperiyasi bilan savdo aloqalarini olib boradi. Bu aloqalar hududda savdo-hunarmandchilikning rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Ko'chmanchi chorvadorlarning boy qatlamlari keng miqyosda xalqaro va ichki savdo bilan shug'ullana boshladilar. Ular harbiy qismlar tuzib, harbiy qismlari savdo yollari va karvonlarni qo'riqlashni yo'lga qo'ydilar. Janubiy Arabiston davlatlari iqtisodiyoti sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik va ko'chmanchi chorvachilik bilan belgilanadi. Davlat hokimiyati sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik inshootlarini qurish, ta'mirlash va ishchi holatida saqlashga boshchilik qildi. Saba davlati hududidagi M rib to'g'oni (uzunligi 600 metr, balandligi 15 metr) mil. avv. VII asrda qurilgan va

XIII asr davomida hududning sug'orma dehqonchiligida suv ta'minoti ni amalga oshirishda yetakchi o'rin tutadi. G'alla, poliz ekinlari, xurmo o'stirilgan. Yirik va mayda chorva mollari va tuya boqilgan. Hunarmandchilik sohalaridan toshga ishlov berish, qurilish ishlari, metallarni qayta ishlash, kulolchilik, to'quvchilik va teriga ishlov berish yuqori darajada rivojlanadi. Mil. avv. I ming yillikda Janubiy Arabiston iqtisodiyoti inqirozga uchraydi. Mavjud sun'iy sug'orish tizimlarining yemirilishi, iqlimning o'zgarishi bilan hosildor yerlarning sahroga aylanishi edi. Bundan tashqari, ichki va tashqi urushlar Janubiy Arabiston davlatlarining iqtisodiga katta zarar yetkazadi.

Janubiy Arabistonning ijtimoiy-siyosiy hayoti. Mil. avv. II ming yillik o'rtalarida Mina, Saba va Kataban qabilalari ittifoqi shakllana boshlaydi. Mil. avv. I ming yillik boshida ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiyoti natijasida sinfiy tengsizlik kuchayadi. Siyosiy hokimiyatni o'z qo'lga to'plagan kohin va savdogarlardan iborat hukmron siyosiy qatlam paydo boladi. Asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan yer qishloq va shahar jamoalari qolida edi. Asosiy xojalik bo'g'ini patriarxal oila (yoki katta oilali jamoa) edi. Eng katta yer egalari ibodatxonalar va davlat edi. Qullar urushlarda asir olish va sotib olish orqali paydo bo'lgan. Qarzi uchun qul qilish kabi holatlar deyarli yo'q edi.

Jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishi qabila ittifoqlarining davlatga aylanishiga olib kelgan. Janubiy Arabiston davlatlari siyosiy tuzulishini Saba podsholigi misolida ko'rish mumkin. Sabada davlat hokimiyatini tashkil etishda 6 qabila: Odil, Xalil, Nazxat imtiyozli, boshqa uch Fayshan, Arban va Axsaran qabilalari qaram o'rinda bo'lgan. Qabilani urug'-qabilaning zodagonlaridan bo'lgan kabir boshqargan. Har bir qabila katta shaxobchaga, u yana kichik va alohida urug'larga bo'linar edi. Qabilalar zodagon boshliqlar (kabirlar) va ular tashkil qilgan kollegial tashkilotlar orqali boshqarilgan. Qabilalarda oqsoqollar kengashi bo'lgan degan farazlar mavjud.

Imtiyozli qabilalar o'zlarining zodagon urug'laridan ma'lum muddatga (Sabada 7 yil, Katabanda 2 yilga) davlatning oliy mansabdor shaxslari – eponimlarni saylaganlar. Ular oliy xudo Astar bilan bog'liq kohinlik vazifalarini ham bajarganlar. Astronomik va astrologik taqvim nazoratlarini va yer-suvdan foydalanishni tashkil etishdek ba'zi xo'jalik ishlarini boshqarish ham ularning zimmasida edi.

Eponimlar bo'yicha davlat va xususiy-huquqiy hujjatlar raqamlangan yil hisobi bilan olib boriladi. Ular 30 yoshdan mansabga chiqib, vakolat muddati tugagach, oqsoqollar kengashiga a'zo bo'lgan.

Mil. avv. III-II asrlargacha Saba podsholigining boshqaruv ishlari

va ijroiya hokimiyatiga ega bo'lgan mansabdor shaxslar mug'arriblar bo'lgan. Ularning vazifasiga qurilish faoliyati, sakral vazifalar (qurbonlik keltirish, diniy ovqatlanish marosimlarini tashkil etish) va davlatni tashkil qilgan qabila ittifoqlarini davriy yangilash, davlat hujjatlarini e'lon qilish, huquqiy qoidalar, shahar hududlari, xususiy mulk chegaralarini aniqlash va boshqalar kirgan. Mug'arrib mansabi merosiy edi. Urush davrida mug'arriblar ko'ngillilarga boshchilik qilganlar va vaqtinchalik unvon – malik, ya'ni podsho unvoniga ega bo'lganlar. Mug'arriblar asta-sekin o'z qo'llarida butun hokimiyat vakolatlarini to'plab, mil. avv. I ming yillik oxirida amalda mutlaq podsholarga aylanganlar. Boshqa janubiy arab qabilalari ham shunday shakldagi davlat tuzilmalariga ega bo'lgan.

Shimoliy Arabiston. Qadimda Shimoliy Arabiston, Suriya va Mesopotamiyaning keng cho'llari hududlarida odamlarning asosiy mashg'uloti chorvachilik bo'lib, it, eshak, yirik shoxli qoramollar, tuya va qo'y-echki boqilgan. Bu hududda yashagan urug'-qabilalar ittifoqi va kichik davlat birlashmalarini shakllantirdilar. Ularning hokimlari Ossuriya hujjatlarida «podsho deb ataladi. Qadimgi arab davlatlari qo'shinlari o'z hududlaridan o'tgan xalqaro savdo yo'llarini xavfsizligini ta'minlaganlar va old Osiyo savdo karvonlariga hamrohlik qilganlar. Arab davlatlarining o'zlari ham xalqaro savdoda faol ishtirok etganlar.

Qadimgi davlat birlashmalari jang san'atini mukammal egallagan, ot va tuyalarga minib jang qiladigan qo'shinni shakllantirganlar. Jangchilar tuyaga ikki kishidan minib, jang qilganlar. Arablar qo'shni Misr, Bobil, Ossuriya va Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'og'ining kichik davlatlari bilan yaqin aloqada bo'lganlar. Bu davlatlar payti kelganda urushlarda arab davlatlari qo'shinlaridan foydalanganlar. Mil. avv. 853-yilda Qarqara yonida bo'lgan jangda ossuriyaliklar arablar ham kirgan koalitsiya qo'shinlarini tor-mor keltirganlar. Arablar Ossuriyaning Misrga qarshi yurishida asosiy to'siq bo'lgan. Ossuriya Misrga yurish davomida bir necha arab qabilalarini bo'ysundiradi. Arablar Ossuriyaning raqiblari - Misr va Bobil bilan ittifoq tuzadilar. Ossuriya mil. avv. VII asrning 40-yillarida arab qabilalarini to'la bo'ysundirishga erishadi.

Yangi Bobil podsholigi Arabiston yarimorolidagi xalqaro savdo yo'llarini o'z nazoratiga olib, arablar bilan yaqin aloqaga kirishdi. Bobil podshosi Nabonid Shimoliy Arabistonning bosh markazlaridan biri Teymu shahrini bo'ysundirib, o'z qarorgohiga aylantiradi. Nabonid bir necha qo'shni arab qabilalarini ham qaram qildi. Mil. avv. VI asrning ikkinchi yarmida Ahmoniyalar sulolasi davrida Eron davlati kuchayib Arabiston yarimorolidagi shimoliy qismida arablar bilan aloqa o'rnatdilar. Shimoldagi arab qabilalari bilan tuzilgan shartnomaga ko'ra fors podshosi Kambiz

mil. avv. 525-yil Misrga yurish vaqtida nabatey qabilasi hududidan o'tish huquqini oladi va sahrodan o'tish davrida nabateylar fors armiyasini suv bilan ta'minlashga rozi bo'ladi. Arab qabilalari Ahmoniylar Eronga bir yilda ming talant (30 tonna) miqdorida xiroj tolash majburiyatini oladilar. Arablar harbiy yurishlar davrida fors qo'shinlari tarkibiga kiritilganlar. G'azo shahri uchun jangda (mil. avv. IV asr arablar yunon-makedon qo'shinlariga qattiq qarshilik ko'rsatadilar. Aleksandrning Misrga yurishi davrida arab qabilalarining ko'pchiligi yunon-makedonlarga bo'ysunmagan. Shu sababli, Aleksandr Sharqqa yurishini tugatgach, arablarga qarshi yurish qilishni rejalashtirgan.

Qadimgi Nabatey davlati. Hozirgi Iordaniya, Isroil, Suriya va Saudiya Arabistoni hududida mil. avv. III asrdan – milodiy 106 yilgacha arablarning Nabatey davlati mavjud bo'lgan. Nabateylar boshida ko'chmanchi chorvadorlik bilan shug'ullanganlar. Kochmanchi nabateylar o'z hududlarida suv quduqlari bo'ylab savdo yo'llarini barpo qilganlar. Natijada ular savdo bilan ham shug'ullana boshlaganlar. Savdo yo'llari va karvonlarini qo'riqlaganlar va oxir obibatda Arabistondagi xushbo'y moy yo'li savdosida yetakchilik qilganlar. Xalqaro savdo, tranzit savdo bilan shug'ullanish nabateylarga katta boylik keltirgan va ularning turmush tarzini ham o'zgartirib yuborgan. Nabatey podsholigi Arabiston, Afrika va O'rta Osiyo o'rtasidagi xalqaro savdo yollarining qoq markazida turganlari uchun tashqi savdo yuqori darajada tashkil etilgan.

Nabatey davlati tashqi va ichki savdodan katta foyda ko'rgan. Davlat hokimiyati yuqori jangovar qobiliyatga ega bo'lgan armiyani tashkil etgan. Qo'shin tarkibi qurol turlari bo'yicha bo'lingan: tuya va otga mingan suvoriylar, piyodalar va jang aravalari. Otliq qismlar mamlakat hududini himoya qilib, karvon yollarida savdo karvonlarining xavfsizligini ta'minlagan. O'rta Osiyo davlatlari urushlarda doimo nabatey otliq harbiy qismlarini yordamga chaqirganlar. Kuchli armiyaga ega bo'lgan nabateylar Damashq shahrigacha bo'lgan hududlar ustidan nazorat o'rnatganlar.

Boshda nabatey davlat hokimiyatida boshqaruv urug'-qabila yo'l-boshchilari qo'lida bo'lgan. Nabatey davlatining iqtisodiy taraqqiyoti jadal borib, ular xalqaro savdo yo'llari ustidan nazorat o'rnatganlaridan so'ng davlat hokimiyatining moliyaviy zahirasi ham jadal o'sib borgan. Endilikda yangi paydo bo'lgan savdogarlar qatlamining hokimiyatga ta'siri kuchaygan. Davlat boshlig'i podshoning hokimiyati kuchayib borgan va uning hokimiyati merosiy hokimiyatga aylangan. Nabateyda milodiy II asrning 60 yillaridan merosiy podsholik hokimiyati o'rnatilgan. Podsho Xaritat III (mil. avv. 87 - 62-yillar) davrida Suriyaning bir qismi va Damashq shahri Nabatey davlatiga qo'shib olinadi.

Nabateylar hozirgi Iordaniya hududida bir necha shaharlarni barpo qilganlar. Bunday shaharlardan biri Sella Petra shahridan bir necha yuz yil oldin barpo etilgan. Bu shahar dengiz sathidan 900 metr balandlikda tog‘da bunyod etilgan. Sellada Petra shahridagidek uylar qoyatosh yonbag‘ridagi g‘orlarda qurilgan. G‘orlar oila turishi uchun kengaytirilgan va uyga kirish quyosh va shamoldan himoya qilish uchun mato bilan yopib qo‘yilgan. Shahar tog‘ tepasida bo‘lgani uchun yomg‘ir suvlarini yig‘ish uchun yerda ko‘p sonli hovuzlar qazilgan va bir biri bilan tutashtirilgan. Hovuzlar yonida ibodatxona ham qurilgan. Arxeologlar hozirgi kunda ana shunday hovuzlardan 110 tasini topganlar. Ularning yonidagi ibodatxonaning zinapoyalari qoldiqlari saqlanib qolgan. Bu shahar Petradan oldin nabateylarning poytaxti bo‘lgan. Bu shaharda nabatey davlatining 10 mln dollarlik xazinasi saqlangan. Arxeologlar bu xazina saqlangan xonani ham aniqladilar. Selladan boshqa yana bir nabatey shahri tekislikda bunyod etilgan. Bu shaharda ibodatxona, ibodatxonada qurbonlik keltiriladigan joy qoldiqlari saqlanib qolgan. Ibodatxona ilohlarning nafis haykallari bilan bezatilgan.

Nabateylar poytaxti Petra Janubiy Arabistondan Suriya va Sharqiy O‘rtayer dengizi qirg‘oqlariga boradigan savdo yo‘llari ustidagi yirik savdo markaziga aylangan. Podsho Xaritat IV (milodiy 9-10-yillar) podsholigi davri ichki va tashqi savdo, dehqonchilikning yuksalish boladi. Nabateylar savdo, an’anaviy chorvachilik bilan birga oziq-ovqatga ega bo‘lgan ehtiyojni qondirish uchun sug‘orma dehqonchilik bilan shug‘ullandilar. Nabatey dehqonlari bahor oylarida yuz beradigan toshqin suvlardan foydalanishni yo‘lga qo‘yganlar. Arxeologlar nabateylar 13 ming gektar yerga dehqonchilik qilinganini aniqladilar. Suv yig‘iladigan 154 suv ombori, 12 to‘g‘on topilgan.

Arxeologiya ma’lumotlariga ko‘ra Petra manzilgohi mil. avv. ikkinchi ming yillikning oxirida paydo bo‘lgan. Boshda ko‘chmanchi chorvadorlarning manzilgohi bo‘lgan. Arabiston yarim orolida ilk davlat birlashmalari, savdo yo‘llarining paydo bo‘lishi jarayonida nabateylarning Petra shahri Arabistonning savdo yo‘llari kesishadigan chorrahaga aylanadi. Shu bilan birga shahar savdo-hunarmandchilik va madaniyat markaziga aylangan. Arabiston sahrosi, fors qo‘ltig‘i va Hindistondan keladigan savdo karvonlari Petra orqali o‘tgan.

Nabateylar xalqaro savdoyo‘llarini nazorat qilib, xalqaro vositachilik savdosida faol ishtirok etib katta foyda olganlar. Shaharda uch bozor va ulkan ibodatxona bunyod etilgan. Nabateylarbutun dunyoda bozori chaqqon bo‘lgan qimmatbaho ziravorlar, xo‘shboy yog‘lar va boshqa noyob mahsulotlar vositachilik savdosi bilan shug‘ullanganlar. Nabatey

savdogarlari Misr, Ikki Darto oralig‘i va Rim davlati bilan gavjum savdo olib borganlar. Nabateylar ziravorlar savdosidan katta daromadni olganlar, Birgina Rimga nabatey savdogarlari bir yilda 180 mln dollarlik xushbo‘y moylar yetkazib berganlar.

Nabateylarning poytaxti Petra (yunon tilida tosh) shundoq tog‘yonbag‘rida qoyatoshlarda bunyod etilgan. Nabateylar gavjum savdo o‘chog‘i, Petrashahrini qurilishi va obodonchiligi uchun katta mablag‘ ajratganlar. Qoyatoshlarda tekis supa tayyorlanib, ushbu supada keyin kerakli inshoot qurilgan. Nabatey me‘morlari yashash uchun noqulay bo‘lgan tog‘ darasida me‘morchilikning ajoyib mo‘jizaviy namunasini barpo etganlar. Ular katta mablag‘ sarflab tog‘ni o‘yib ulug‘vor inshootlar: turar joylar, ibodatxona va maqbaralar bunyod etadilar. Petra shahri noyob me‘morchilik namunasi bo‘lgan. Boshda qoya toshlarda sag‘analar o‘yilgan. Keyin ibodatxonalar bunyod qilinadi. Ibodatxona hashamatli qilib bunyod etilgan. Ibodatxona devorlari ajoyib gullar bilan bezatilgan. Vaqt o‘tishi bilan Petra shahrining yaxlit manzarasi shakllanadi. Qoyatoshlarda ibodatxona, hokim saroyi, zodagonlarning hashamatli uylari, oddiy odamlarning uylari qad ko‘taradi. Uylar ikki qavatli qilib qurilgan. Inshootlarning peshtoqlarini naqshin ustunlar ko‘tarib turadi. Qurilishda boshda binoning peshtoqi o‘yilib, keyin ichkari xonalar qurilgan. Shahar ehtiyoji uchun kerak bo‘lgan 42 mln kub ichimlik suvi tog‘dagi buloqlardan sopol quvurlar bilan olib kelingan. Buning uchun shahar hududida 200 hovuz (sisterna) qurilgan. Petrada favvoralar havoni salqin qilib turgan.

Petra shahri nabatey me‘morchiligining yuksakligini isbotlaydigan namunasidir. Quruvchilar qoyatoshlarda bino qurish uchun dastlab qoyatosh yonbag‘ri tekislanib maydon hozirlaganlar. Binoni qurish yuqoridan pastga qarab boshlangan. Petra shahrida ochiq teatr binosi bunyod etilgan. Shaharda suv saqlanadigan katta hovuzlar qurilgan, favvoralar uchun tog‘dan suv keltirilgan. Nabateylar bir necha asrlar davomida o‘ziga xos, betakror madaniyatni yaratganlar. Ular I oromiy tilida so‘zlashganlar va oromiy yozuvidagi alfavitni yaratganlar. Petra shahri hududida sag‘onalar, ziyoratgohlar, ibodatxonalar, turar joylar, teatr binosi, kabi mingdan ortiq inshootlar saqlanib qolgan. Bu Petra shahri hayoti o‘sha vaqtda qanchalik qaynoq va gavjum bo‘lganidan dalolat beradi. Hozirgacha Nabateylar poytaxti Petra shahrining 15 foiz hududi qazib ochilgan xolos. Nabateylar yaratgan bu ajoyib madaniyatning yutuqlarini qo‘shni mamlakatlar, xalqlar o‘zlashtirganlar. Nabatey madaniyati namunasidagi me‘moriy inshootlar – ibodatxona qoldiqlari Iordaniya (Xirbet Tannur. mil. avv. I asr - milodiy II asrlar) hududida va Suriya (Jabal Hayron mil.

avv. I asr - milodiy II asrlar)da hozirgacha saqlanib qolgan. Shaharda uch ming kishilik teatr qurilgan. Xalqaro savdo yo'llari chorrahasida joylashgan Nabateylar davlati doimo hududdagi davlatlar diqqat-e'tiborida bo'ldi. Mil. avv. 312 yilda Old Osiyoda ahmoniyar davlati qoldiqlarida bir necha davlatlar paydo bo'ldi. Lashkarboshilardan biri bir ko'zli Antigona Petra shahrini bosib olish uchun qo'shin tortdi, lekin mag'lub bo'ldi. Mil. avv. III asrda Salavkiylar davlati xalqaro savdo yo'llari ustida joylashgan Nabateylar davlatini bosib olish uchun ikki marta qo'shin tortdi. Nabateylar salavkiylar qo'shini hujumlarini qaytarib o'z mustaqilliklarini saqlab qoldilar. Lekin miloddan avvalgi II-I asrlarda Salavkiylar va Ptolemeylar o'rtasida Nabateylar davlati uchun raqobat to'xtamadi. Mil. avv. II asrdan Salavkiylar davlati zaiflashuvi bilan Nabateylar davlatiga Misrning ta'siri kuchaydi. Xushbo'y moy va ziravorlar savdosidan manfaatdor bo'lgan qo'shni Misr Nabateylar podsholigi bilan yaqin munosabatda bo'ldi. Ko'p hollarda Misr hukmdorlari dushman hujumlarini qaytarish uchun nabateylar armiyasining yordamiga tayandi.

Nabateylar Rim davlati bilan ham savdo aloqalarini yo'lga qo'yidilar. Nabateylarni bosib olishga kuchi yetmagan Rim boshqa tinch aloqalarni yolg'a qo'ydi. Rim lashkarboshisi Yuliy Sezar Misrga yurishi vaqtida nabateylar podshosi Malikdan otliq qismlar bilan yordam ko'rsatishni so'ragan. Nabateylar Rim imperatori Gallning harbiy yurishlarida ishtirok etganlar. Lekin Misr mil. avv. 30 yilda Rimga qaram qilingach ahvol o'zgardi. Misrni tayanch nuqtaga aylantirgan Rim Arabiston yarim oroliga ko'z tikdi. Rimliklar bu vohadan o'tgan xalqaro savdo yo'llarini egallashni orzu qilardilar. Mil. avv. 25 yilda Oktavian Arabistonni bosib olish uchun Misrda turgan Rim armiyasi bilan Nabateylarga qarshi bosqinchilik yurishini boshladi. Lekin nabateylar o'z mustaqilliklarini saqlab qolishga qat'iy ahd qildilar va bosqinchi rimliklarni armiyasini mag'lub etdilar. Faqat Imperator Trayan legionlari 106 yilda mamlakatni bosib olishga erishdi. Nabateylar davlati hududi Rim provinsiyasiga aylantirildi. Rim bu hududdan o'tadigan barcha savdo yo'llari ustidan o'z nazoratini o'rnatdi.

Qadimgi Arabiston madaniyati. Qadimgi Arabiston sivilizatsiyasining eng katta yutuqlaridan biri yozuvning alfavit tizimini yaratilishi. Bu yozuv farazlarga ko'ra, Finikiya protosinay (Sinaydan topilgan yozuvlarga ko'ra) alfavitlaridan kelib chiqqan. Janubiy Arabiston yozuvlarida har bir belgi harfni bildirgan, alfavitda 28 belgi bo'lgan. Bu alfavit mutlaqo mustaqil rivojlangan. Shimoliy Arabiston aholisi nabateylar ham oromiy yozuvlariga o'xshash o'z alfavitlarini yaratganlar. Yozuvlar

toshga, qoyatoshlarga o'yilgan; yog'och va loy taxtachalarga yozilgan; jez buyumga quyilgan; yumshoq buyumlarga bitilgan. Tarixiy voqealar bayoni, qonunlarning moddalari yozilgan bitiklar topilgan. Bag'ishlov va qurilish matnlari, sag'ona yozuvlari, xo'jalik yozishmalari bizgacha yetib kelgan.

Monumental me'morchilik sohasida katta yutuqlarga erishildi. Marib, Timna, Shab va Karnava shaharlari to'g'ri to'rtburchak shaklida qurilib, balandligi 10-12 metrli tosh devorlar bilan o'rab olinadi. Shahar devorlarida kvadrat shaklida minoralar bunyod qilinadi. Petra shahri qoyatosh bag'rida qurilgan. Alebastr, loydan haykallar yasalgan. Hayvonlar (ho'kiz, tuya, ot) tasviri jonli va yorqin tasvirlangan.

Arabiston yarimoroli diniy e'tiqodi politeistik xususiyatda bo'lgan. Janubiy Arabistonda bosh xudo tong yulduzi xudosi Astar hisoblangan. Sabada Almakaxon oy xudosi hisoblanib, unga ho'kiz qurbonlik keltirilgan. Xadramautda Bobildagi kabi Sin, Katabanda xudo Amm - oy xudosi hisoblangan. Osmon, quyosh va bir necha sayyoralarga ham e'tiqod qilingan. Nabateylar Ilaxu yoki Alloh («xudo»), Dusharg (chaqmoq xudosi, dunyo boshqaruvchisi)ga sig'inganlar. Arablarning xudolar panteonida xudolar turli darajada bo'lgan, ularga bag'ishlab ziyoratgohlar qurilgan, shunday inshootlardan biri Saba poytaxti Maribda topilu toshdan oval shaklda qurilgan

.Nabateylar suv ta'minotini yuqori darajada samarali tashkil etdilar. Yomgir qishda bo'lgani uchun nabateylar suvni shaharga kanallar orqali olib keldilar. Yomg'ir suvlari filtrlanib keyin keyin ichimlik suviga aylangan. Shaharga suv 29 km uzoqlikdan tog' buloqlaridan olib kelingan. Suv sopol quvurlari orqali olib kelingan. Quvurlar 8- foiz suv bilan to'ldirilgan bolib, suv quvurlari 9 kub bosimga chidash bergan. Har kuni bir odam 9 litr suv olishi mumkin bo'lgan Nabateylar suniy sugorishga asoslangan dehqonchilikni yo'lga qoy'ganlar. Sahroning o'rtasida ulkan hovuzlarda suv to'plangan. Iqtisodiyot savdoga asoslangan. Nabateylar xalqaro savdo yo'llari kesishgan nuqtada joylashgani uchun tashqi savdodan katta foyda ko'rgan. Petra shahrida hozirgi kunda 85 inshoot organilmoqda. Nabateyda qoya ustida 220 kv,m maydonda hammom qurilgan. Milodiy 30 yilda nabateylar muhtasham ibodatxonani bunyod etdilar.

Mutaxassislarning fikriga kora Nabatey sivilizatsiyasining halokatiga milodiy 400 yillar atrofida yuz bergan zilzilalar, suv toshqinlari sabab bo'lgan. Aholi shaharni tiklay olmay tashlab ketadi. Mahalliy aholi uzoq vaqt Petra shahrini sir saqladi. Uzoq vaqt yevropaliklar bu shahar to'grisida turli afsonalarni eshitar edilar. Faqat nemis fuqarosi Iogann 1812 yilda mahalliy aholi nomini qabul qilib shaharni ko'rishga erishdi

va dunyoda shunday ajoyib san'at dunyosi borligini e'lon qildi

2. Arab-musulmon madaniyati. Ko'chmanchi arablar Osiyoning janubi g'arbida joylashgan Arabiston yarim orolida yashadilar. Arabiston yarim orolining g'arbi va janubida suvli vodiylarda o'troq arab qabilalari yashar edilar. Arabiston yarim orolidan xalqaro savdo karvonlari Ikki Daryo oralig'i, Misr, Efiopiya Hindistonga borar edi. VI asrda Arabiston yarim orolining janubini bosib oldilar. VII asr boshlarida arablarda urug' qabilachilik munosabatlari yemirildi. Eron sasoniylari Arab qabilalari tashqi dushmanga qarshi turish uchun birlashishga harakat qildilar. Yangi e'tiqod islom dini arablarni birlashishga yordam berdi. Arablar 530 yillar atrofida islom e'tiqodini qabul qildilar va Muhammad payg'ambar hokimiyatini tan oldilar. Tez orada arablar Arabiston yarimorolini to'la egalladilar. Makka shahri islom dinining markaziga aylandi.

Birinchi xalifalar davrida arablar Arabiston yarim orolidan chiqib Vizantiya va Eronga bostirib kirdilar. Suriya va Misr, keyin Eron istilo qilindi. Arablar otliq, piyoda va tuyaga minib jang qildilar. Kavkazorti, O'rta Osiyo va Shimoliy Afrika VIII asr boshlarida bosib olindi. Arablar sharqqa yurib Shimoli-g'arbiy Hindistonga chiqdilar. VIII asr boshlarida arablar Gibraltarni kechib o'tib Pireney yarimoroliga o'tdilar va zaiflashib qolgan vestgot davlatini tugatib butun Ispaniyani egalladilar. Pireney tog'laridan o'tib hozirgi Fransiyadagi Puat'e shahri yonidagi jangda arab qo'shini yengildi va ularning Yevropaga yurishi to'xtatildi.

VII-VIII asrning birinchi yarmida arablar Arab xalifaligi davlatini tashkil etdilar. Bu davlatning hududi Atlantika qirg'oqlaridan Hindiston va Xitoygacha cho'zilib ketdi. Xalifalikning ilk poytaxti Suriyadagi Damashq shahri bo'ldi.

Bepoyon hududlarni yagona arab xalifaligi davlati ostida birlashuvi Osiyo, Afrika va Yevropa xalqlarini iqtisodiy va madaniy aloqalarini rivojlanishiga qulay omil bo'ldi. Sug'orma dehqonchilik, savdo-hunarmandchilik jadal rivojlanib, shaharlar yuksaldi. Azaldan savdo-hunarmandchilik markazlari bo'lgan sharq shaharlari arab xalifaligi davrida yanada ravnaq topdi. Ichki va tashqi savdo rivojlanib shaharlarda katta bozorlar paydo bo'lgan. Xalifalikda ishlab chiqarish ulkan hajmda rivojlangan. Savdo yo'llari xavfsizligi ta'minlandi, shaharlarda karvonsaroylar qurildi. Damashqda o'sha vaqtda qurilgan shunday karvonsaroy va mamlakatimizda Buxoro vohasida Raboti Malik karvonsaroyining darvozasi va uning yonida sardoba saqlanib qolgan.

Arab xalifaligi IX asrda zaiflashdi va alohida davlatlarga ajrala boshladi. XI asrda arab davlatining katta qismini O'rta Osiyodan kelgan salju-

qiyalar bosib oldilar. Saljuqiylar arab madaniy merosini qabul qildilar va uni yanada rivojlantirdilar. 1258 yilda Chingizxonning vorislari arab xalifaligini tugatdilar. Lekin arab xalifaligining ma'naviy hokimiyati saqlanib qoldi va 1517 yilda usmoniylar Misrni bosib olganlaridan keyin barcha musulmonlarga ma'naviy rahnamolik Usmoniylar sulolasiga o'tdi.

O'rta asr arab sivilizatsiyasining gullab yashnashi. Arablar qadimgi sharqning ulkan madaniy merosini qabul qilib, Xitoy va Hindistonning boy madaniyati bilan tanishdilar. Arab olimlari qadimgi sharqning matematika, astronomiya, geografiya va boshqa fanlarda erishgan yutuqlarini o'zlashtirib bu fanlarni yanada rivojlantirdilar. Bu fanlar sohasida arablar yangi ixtiro va kashfiyotlarni amalga oshirdilar. Arab xalifalari fan-madaniyatga juda katta e'tiborni qaratdilar, fanlarni rivojlanishiga va ta'limga katta mablag'lar sarfladilar. Ular fan-madaniyatga, olim va shoirlarga homiylik qildilar. O'rta va oliy ta'limni rag'batlantirib, o'quv yurtlari, kutubxonalar ochdilar.

O'rta asrlarda islom sivilizatsiyasi Osiyo, Afrika, Yevropaning bir necha hududlarida gullab yashnadi. Arab xalifalari, davlat hokimiyati ilm fan, madaniyatga homiylik qildi. Ta'lim tizimi va tuzilmasi vujudga keldi. Arab xalifaligining barcha hududlarida boshlang'ich, o'rta maktab va oliy maktab-madrasalar tashkil etildi. Musulmon madrasalarining bar-chasida talabalar yotoqxonalar, ovqat va kiyim-kechak bilan ta'minlangan. Madrasalar hukumat, xususiy kishilar va vaqflar tomonidan ta'minlangan. Hukmdorlar ijtimoiy yordamga muhtoj aholining bilim olishi uchun ham qayg'uraganlar. Qohira shahri hokimi Mansur Qalovun yetim bolalar uchun madrasa ochib, bu o'quv yurti talabalarini oziq-ovqat va yotoqxonalar bilan ta'minlagan. Qurtuba (Ispaniyadagi Kordova shahri) kambag'allar uchun sakkizta madrasa mavjud bo'lgan. 965 yilda Qurtuba hokimi yana 27 madrasa ochgan.

O'tkir zehli talabalarning ota-onalari farzandlari uchun qo'shimcha darslar tashkil etganlar, ustozlar tarbiyasiga berganlar. Misol uchun Ibn Sino 10 yoshga yetmasidan Qur'oni Karim va boshqa diniy kitoblarni yoddan bilgan. U madrasadagi darslardan tashqari xususiy ustozlardan dars oladi. Hisob ilmini bir ko'mirfurushdan o'rganadi. Abu Abdulloh ismli ustozdan falsafani o'rganib ustozdan o'zib ketadi va mantiq fanini o'rganishga kirishadi. Bo'lg'usi daho 16 yoshida Iyso ibn Yaxyo ismli ustozdan tabiiy fanlar va tib ilmini o'rganadi. Somoniy hukmdorni davolab Ibn Sino Somoniylarning ulkan kutubxonasidagi kitoblarni o'qishga ruxsat oladi. Bu vaqtda u 18 yoshda bo'lgan.

Sharq dunyosi aholisida ilmga intilish kuchli edi. Bu vaqtda Yevropa aholisining 95 foizi savodsiz edi. Musulmon dunyosida dunyoning bir-

inchi oliy o'quv yurtlari Qohirada Al Azhar universiteti, Mag'ribdagi Fas shahrida Qaraviyuon, Tunisda Zaytuna universitetlari milodiy birinchi ming yillik oxirida ochilgan.

Kutubxonalar. Dunyodagi ilk kutubxonalar mil avv. III ming yillikda Shumerda vujudga kelgan edi. Musulmon mamlakatlarida o'rta asrlarda ilmga chanqoqlik kuchli bo'lgani uchun kitobga ehtiyoj katta edi. Bag'dod xalifasi xalqqa qimmatroq sovg'a qilish niyatini saroy a'yonlariga maslahat solganda a'yonlar xalq uchun eng qimmatli sovg'a kitob ekanligi va bir kutubxona sovg'a qilishyni maslahat berganlar. Bu kutubxona bo'lgusi ilm-fan o'chog'i- akademiya " Dorul hikma " edi. Musulmon dunyosining turli shahar va qishloqlarida kutubxonalar ochilgan edi. Birgina Bag'dod shahrining o'zida yuzdan ortiq kutubxona bo'lgan. Najaf shahrining kichik bir kutubxonasida qirq ming nusxa kitob bo'lgan. Ray shahri kutubxonasidagi kitoblar ro'yxatining o'zi o'n jild bo'lgan. Machit va kasalxonalarining o'z kutubxonalari mavjud bo'lgan.

IX-X asrlarda Qurtubada 70 ga yaqin kutubxona bo'lgan.

Somoniy hukmdor Muxammad Mansurning Buxoro shahrida sanoqsiz kitoblar nusxasi bo'lgan ulkan kutubxonasi bo'lgan. Ibn Sino bu kutubxonada olimlar nomini eshitmagan kitoblar borligini aytgan. Somoniy hukmdorlardan biri bir tabibni o'z huzuriga chaqirganda " yangi qarorgohga ko'chayotgan edim. Kitoblarimni to'rt yuz tuyaga ortib qo'ygan edim deb uzr so'ragan" (Shayx Muxammad Sodiq Muxammad Yusuf Olam. Odam. Din va ilm.-T.: "Hilol-Nashr", 2019. 81-bet).

Faqat Qurdoba xalifasi Al Hakimning kutubxonasida 400 ming nusxadan iborat kitob bo'lgan. Olimlar bu ilm markazida qadimgi sharq olimlarining kitoblarini arab tiliga tarjima qilganlar. 963 yilda vafot etgan vazir Muxallabiyning 116 ming jild kitobni meros qilib qoldirgan ekan. Boshqa bir vazir Ibn Abbodning kutubxonasida 206 ming nusxa kitob mavjud bo'lgan. Bag'dod qozilaridan birining kutubxonasida 1 million 50 ming kitob mavjud bo'lgan. Oddiy aholi orasida ilm manbai kitobga qiziqish kuchli bo'lgan. Kitob muxlislari bo'lgan fuqarolar o'z shaxsiy kutubxonalarini tashkil etganlar. Ma'lumotlarga ko'ra salibchilarning Suriyaga bosqini vaqtida salibchilar bir kitob muxlisining 4 ming jildan iborat kutubxonasini talon taroj qiladilar.

Kitobga bo'lgan etiyoj qog'oz ishlab chiqarish sohasini rivojlantirdi. Xalifa Horun ar Rashidni vazirining o'g'li Ibn Fazl 794 yilda Bag'dodda birinchi qog'oz fabrikasini ishga tushiradi, 800 yilda Misrda, 950 yilda Andalusiya qog'oz fabrikalari ochiladi. Yevropada qog'oz fabrikalari ancha keyin qurildi. Musulmon dunyosining barcha shaharlarida kitob do'konlari ochildi. Ushbu do'konlarda olimlarning nodir qo'lyozma ki-

toblari sotilar edi. Kitob chiqarish bilan yuzlab kishilar shug'ullanar edi. Kitob qo'lyozmasini ko'chirish, bezash, muqovalash miniatyuralar chizish san'at darajasiga ko'tariladi.

Ilm-fan. Islom olamining barcha hududlarida savdo-hunarmandchilik yirik shaharlarlarda gullab yashnadi. Farovon yashagan aholi davlat xazinasiga tegishli soliqlarni o'z vaqtida to'lagan. Xazinada kelib tushgan mablag'larning katta qismi ilm-fan va madaniyat taraqqiyotiga sarflanadi. Abossiylar sulolasi hukmronligi davrida Qohira, Damashq, Buxoro, Samarqand, Marv va Qurdoba shaharlari ilm-fan o'choqlariga aylandi. Ispaniyadagi Qurdoba xalifaligining poytaxti Qurdobada musulmon olimlari ilm-fanda Qohira shahri olimlari bilan raqobat qilganlar.

Sharq dunyosida hukmdorlar o'z farzandlariga yoshligidan atroflicha bilim berdilar. Bo'lg'usi hukmdorlarining barchasi yoshligidan diniy va dunyoviy bilim olganlar va harbiy ish davlat boshqaruvidan saboq olganlar. Shu sababli musulmon dunosidagi barcha hukmdorlar bo'sh vaqtlarida o'zlari qiziqqan fan bilan shug'ullanib asarlar yozganlar. 813 yilda taxtga chiqqan Al Ma'mun geografiya xaritashunoslik fanlariga qiziqqan.

Davlat xazinasidan katta mablag' ilm-fan, madaniyat, me'morchilik sohalariga ajratilgan. Har bir hukmdor saroyida ilm-fan, san'at va adabiyot sohasida taniqli olim-ulamolar va yozuvchi shoirlar to'plangan. Hukmdorlar olimlarning fan bilan shug'ullanishlari uchun ularni muntazam moddiy ta'minotini amalga oshirganlar, ilm-fan markazlari bo'lgan fanlar akademiyasini tashkil etganlar. Musulmon hukmdorlar olimlardan ilm-fanni atroflicha o'rganishni talab qilganlar. Insoniyatni o'rab turgan dunyoni atroflicha o'rganishga jalb qilganlar. Misrning Asvon, Iskandariya shaharlaridagi rasadxonalar xalifa Ma'mun davrida quyoshni kuzatib yer atrofni o'lchamlarini o'lchaganlar. Yer kurrasining aniq hajmini o'lchlashni boshlaganlar.

Kimyo fani. Sharq-musulmon dunyosida iqtisodiy ehtiyojlar fanlarni rivojlanishiga turtki berdi. O'rta asrlarda musulmon olimlari hozirgi kimyo fanining ilmiy asoslarini yaratdilar. Olimlar ilmiy tajribalar o'tkazish metodologiyasiga tayanib ilk laboratoriyalarni qurdilar va bu laboratoriyalarda tajribalar o'tkazish metodi bilan zamonaviy kimyo fanining amaliy va nazariy asoslarini yaratdilar. Xalifa Abdulmalik xalifalikning ulkan hududlarida yagona pul birligini joriy qilgan. Pul tanga zarb qilish uchun qimmatbaho metallarga ehtiyoj kuchli bo'lgani uchun Abdulmalik alximiklarga qimmatbaho metallarning xossalarini o'rganishga farmon bergan. Tadqiqot-tajribalar asosida to'plangan bilimlar kimyo fanini kelajak taraqqiyoti uchun xizmat qildi. Ilmiy tadqiqotlar natijasida qurol-yarog', atir va boshqa buyumlarni tayyorlash uchun qo'llanmalar paydo

bo'ldi. O'rta asrlarda o'tkazilgan kimyoviy tadqiqotlar asosida sovun tayyorlash texnologiyasi ishlab chiqildi va sovun tayyorlash ilmiy asosda yo'lga qo'yildi.

O'rta asrlarda alximiklarning ishqor sirini o'rganishlari shishasozlikni rivojlanishiga turtki bergan. Ular qo'rg'oshin, qalayni ishlab chiqarishni amalga oshirdilar. Atir spirtidan tayyorlangan, turli gullarning yaproqlari spirtga qo'shilgan, distillash kashf qilingan. Retorta idishi ixtiro qilinadi va retorta bilan atirguldand olingan suyuqlik distillanib spirtga qo'shib xushbo'y ifor tarqatadigan atir tayyorlash yo'lga qo'yiladi. Atirda nafis hid shunday hosil qilingan. XIV asrda Yaqin sharq atiri butun dunyoga mashhur bozori chaqqon mahsulot bo'lgan. Olimlar neftdan portlovchi moddalarni olganlar. Bu kashfiyot harbiy sohada qo'llanilgan. Kimyogarlarning ilk laboratoriyalari shu vaqtda tashkil etiladi. Olimlar kimyoviy unsurlarning davriy jadvalini tuzadilar.

O'rta asrlarda kimyo ilmini nazariy va amaliy asoslarini yaratgan olimlardan biri ibn Ali al Jalgariy birikmalarni yaratdi va ularni tibbiyotda qo'lladi. Jobir ibn Xayyon turli kimyoviy unsurlar ustida tajriba o'tkazib kimyo fanining ilmiy nazariyasi va kimyoviy unsurlarning davriy jadvalini tuzgan. Bu olim kimyo ilmini birinchi bo'lib to'g'ri ilmiy asosga yo'naltirgan olim deb e'tirof etiladi.

XIII asrda Damashq shahri jome' masjidida olim Ibn Shotir yasagan quyosh soati o'rnatilgan. Jovir ibn Zayd olamni tuzilishi to'g'risida.

Fizika fani. Abul Izz Ismoil ibn Jazariy (1136-1206) "Kitabul xiyal" asarida Charl Babak (1791-1871)dan ilgari kompyuter qurilmasiga oid nazariy fikrlar bildirib, kibernetika faniga asos soldi. Ixtirochi olim ilk avtomatik silindr, avtomatik jo'mrak, grafin, klapanli nasos, suv tortadigan mashinalar, suv soatlarini yasagan. Bu fan dahosi yog'ochni laminatlash, sirli raqamli qulf va gibrid kompas kabilarni ixtiro qilgan. Ibn al Xaysam (965 – 1029) Basrada tugilgan, Al Azhar universitetida ta'lim olgan. Misr hukmdori Xaysamga Nil daryosini toshqinlarini jilovlashni topshirgan. Olim bu ishni natijasizligini tez anglagan va hukmdorga buni iloji yo'qligini aytgan. Hukmdor bundan g'azablanib olimni uy qamog'iga hukm qilgan. Xaysam uy qamog'ida o'tirib ilmiy tadqiqot ishlari olib boradi. Olim yorug'likning to'g'ri chiziq bo'ylab yo'nalishini ilk bor isbotlab beradi, u insonning ko'rishini tajriba tadqiqotlar asosida fizik xossalarni ilmiy nazariyasini yaratdi. Hozirgi fan o'z kashfiyotlarini faqat tajriba asosida tasdiqlaganidek Xaysam o'z nazariyasini faqat son-sanoqsiz tajribalar bilan olib bordi va yorug'lik harakatini matematik hisob-kitob bilan asosladi. U optika asarini e'lon qildi. Xaysam matematik nazari-

yalarni tajribada sinab koʻrdi. Sayyora atmosferasini qalinligini oʻlchadi. Ilmiy izlanishni zamonaviy koʻrinishini Xaysam kashf qildi. Izuddin ibn Oydemir ibn Ali Jaldagiy birinchi boʻlib atom va raketalar boʻyicha nazariyani yaratgan. Zamonaviy fan kosmosga uchish, raketalar uchirishni Izuddin ibn Oydemir, Beruniy, Ibn Xaysam kashfiyotlari asosida amalga oshirdi. Beruniy va Ibn Sinoning yerning jismlarni tortish kuchi haqidagi va boshqa ilmiy tushunchalari Nyutonga tortish kuchi toʻgʻrisidagi qonunni kashf qilishga turtki bergan. XII asrning birinchi yarmida yashagan eng mashhur olimlardan biri Hosin yorugʻlikning xususiyatlarini oʻrgangan, uning ilmiy qarashlaridan Yevropa olimlari keng foydalanganlar. Abu Rayhon Beruniy yerning hajmini oʻlchash, shafaqning xususiyatlari va quyosh tutilishi va boshqa tabiiy hodisalarni ilmiy tadqiq etdi. Sharqshunos Eduard Zaxau Beruniyning olamshumul kashfiyotlaridan hayratlanib uni “U tarixdagi eng ulkan aql egasidir” deb taʼrifladi.

Matematika fani. Musulmon olimlari IX asrda matematika-ni mavhum fandan amaliy fanga aylantirib, matematika fanini fanlarni rivojlantirishdagi beqiyos oʻrnini koʻrsatib berdilar. Muhammad ibn Muso al Xorazmiy hind raqamlari asosida hamma uchun qulay boʻlgan hozirgi raqamlarni ishlatishni amalga oshirdi. Olimning “Al-jabr al-muqobala” asari matematikaga bagʻishlangan boʻlib, butun dunyoda hozir oʻqitiladigan Algebra faniga asos boʻldi. Algebra soʻzi al-jabrning yevropalashgan nomi boʻlib bu kitob lotin tiliga tarjima qilinib matematika fanidan darslik bolib xizmat qildi. Olimning matematika fanidan boshqa bir kitobi hisob usullarini, jamlash, taqsimlash, boʻlish, koʻpaytirish, va kasr chiqarishga bagʻishlangan boʻlib, XII asrda ispan va lotin tillariga oʻgirilgan. Boshqa bir xorazmlik olim Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf al Xorazmiy 976 yilda oʻzining “Mafotiyhul A ulum” nomli asarida hisob amaliyotida oʻnliklarga qoldirilgan boʻsh joyni kichik doira shaklidagi alomat bilan belgilashni taklif qildi va uni “Bu hech narsa hozirgi nol edi, yaʼni hech nima” deb atadi.

Astronomiya. Astronomiya faniga qadimgi sharqda asos solindi. Qadimgi shumer shaharlarida koinat osmon jismlarini kuzatganlar. Qadimgi Misrda astronomlar yulduzlar xaritasini tuzganlar. Oʻrta asrlarda arab xalifaligining Damashq, Bagʻdod, Qohira Toledo shaharlarida rasadxonalar qurilgan va astronomiyadan bilim beradigan oʻquv yurtlari faoliyat koʻrsatadi. Samarqandda Mirzo Ulugʻbek qurgan rasadxonada taniqli olimlar ishlagan. Ulugʻbekning “Ziji Koʻragoniy” asari ana shu rasadxonada olib borilgan tadqiqotlar natijasi edi. Ahmad Fargoniy yerning dumaloq shaklda ekanligini, quyosh tutilishini hisoblab chiqdi. U yulduzlarning hajmi va yulduzlar orasidagi masofani oʻlchadi va

yulduzlarning harakat yoʻnalishlarini belgiladi. Abu Rayxon Beruniy astronomiyaga oid 45 asar yozdi. Amerika qitʼasi mavjudligini bashorat qildi. Kopernikdan 500 yil oldin yer quyosh atrofida aylanishini aniqladi. Oʻrta asrlarda sharqda Muso ibn Shokir va uning uch oʻgʻli, Abu Mashʼar Balxiy, Sobit ibn Qurra, Nosiriddin Tusiy kabi olimlar astronomiya ilmiga katta hissa qoʻshadilar. Nosiriddin Tusiy (1201-1274)! Quyosh markaz ekani, yer va boshqa sayyoralar uning atrofida aylanishini isbotladilar. Galiley, Kopernik, Kepler 270 yil keyin Nosiriddin Tusiyning bu kashfiyotini takrorladilar. Lekin ular olimning bu kashfiyotidan xabardor edilar. Hozir esa yevropa bu kashfiyotni Kopernik va Keplerga nisbat qiladi. Xuddi shunday Yevropalik faylasuf va matematik Rene Dekart imom Gʻazzoliyning “Munqiz minaz-zolal” kitobini oʻqiydi. U buyuk olimning kitobidagi “Shak yaqinining, yaʼni ishonchli ilmning birinchi pogʻonasi “iborasini oʻqib uning tagiga qizil qalam bilan chizib qoʻyadi va uning toʻgrisiga hoshiyaga “Bu bizning nazariyamizga kiradi” deb yozib qoʻygan ekan. Ensiklopediyachi va tarixiy tadqiqotchi olim Usmon al-Kaok 1975 yilda Jazoirnining Annaba shahrida boʻlib oʻtgan Islom fikrining oʻninchi yigʻilishida Dekart qanday qilib Gʻazzoliyning nazariyasini oʻziniki qilib olgan haqida batafsil toʻxtalgan. **Qarang** (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Olam. Odam. Din va ilm. -T.: “Hilol-nashr”, 2019 279 bet).

Tibbiyot. Oʻrta asrlarda musulmon dunyosining barcha katta-kichik shaharlarida kasalxonalar mavjud boʻlgan. X asrda birgina Qurdo-ba shahrida 50 shifoxona boʻlgan. Kasalxonalar odatda havosi, suvi toza boʻlgan joylarda qurilgan. Shifoxonalar qurilishi va kasallarni davolash xarajatlari sulton va hokimlar zimmasiga tushgan. Xususiy kishilar ham shifoxonalarga katta mablagʻlar hadya qilganlar. Shifoxonalarning eshigi aholining barcha qatlamlari uchun ochiq boʻlgan. Kasallik tarixini yozish ham sharqda ilk bor paydo boʻlgan. Bemor shifoxonaga kirishi bilan unga kasallik tarixi ochilgan.

Bemorni davolash huquqiga ega boʻlish uchun shifokorlar imtihon sinovidan otgan. Milodiy 931 yilda xalifa Muqtadir shifokorlarni imtihon qilish togrisida farmon chiqargan. Tabiblarni iimtihondan oʻtkazishning metodlari ishlab chiqilgan. Bagʻdod shahrining oʻzida 860 dan ortiq tabib imtihondan oʻtib, shahodatnoma olgan.

Oʻsha vaqtda berilgan shahodatnomalarning birini matni shunday mazmunda boʻlgan:

Bismillahir Rohmanir Rohiym

“Boriʼul Aziylning izni ila ...ga, haqiqiy ilmga ega boʻlgani uchun, bu ishni yaxshi bajarish qobiliyati boʻlgani uchun jarrohlik kasbini qilishga ruxsat eramiz. Ana shularga binoan, u jarohatlarni tuzalguncha muolaja

qilishi, tomirlarni ochishi, bavo-sirlarni olib tashlashi, tishlarni olishi, jarohatlarni tikishi va bolalarni poklashi (ya'ni sunnat qilishi) lozim. U doimo o'z raislari bilan maslahatlashib turmog'i lozim. Ishonchli ustozlaridan nasihat olib, ularning tajribasidan foydalanishi zarur". 185-bet.

Davlat hokimiyati aholining sog'lig'ini ta'minlashga katta e'tibor qaratgan. Davlat hokimiyatlari tomonidan tabiblarning kasbga sodiqligi, mas'uliyati to'g'risida qonunlar qabul qilinadi. Qonunlardan tashqari tabiblarning insoniy va islomiy fazilatlarini sayqallash, kasbiy mahoratini oshirishga bag'ishlangan yo'riqnomalar va kitoblar yozilgan. Bundan bir ming ikki yuz yil oldin yozilgan olim Ishoq ibn Ali ar-Rohaviyning "Adabut Tabib" asari fikrimizning dalilidir.

Tibbiyotdagi kashfiyotlar. Jarrohlik. O'rta asrlarda musulmon olimlari tibbiyot sohasida ulkan kashfiyotlarni amalga oshirdilar bu kashfiyotlar bo'yicha minglab kitoblar yozilgan. Andalusiyalik jarroh Abul Qosim Zaxroviy (1113 yilda vafot qilgan) jarohatlarni davolash, ichki a'zoldagi toshlarni maydalash sohasida va jarrohlik amaliyotiga katta yangiliklar kiritadi. Zaxroviy ingliz jarrohi Persival Potdan 700 yil oldin bo'g'inlar shamollashi va umurtqa pog'onasi silini aniqladi, Lekin bu xastalik yevropalik Potning kashfiyoti deb, uning nomi berilgan. Zaxroviy bola tug'dirishda bola tug'ilish paytida ko'ndalang kelib qolganda nima qilish kerakligini ko'rsatgan. Lekin hozirgi kunda o'sha metodlardan yevropalik Folsher (1856-1935) nomi bilan ataladi. Olim Ar Roziy jarrohlik amaliyotida tikishda soch tolasini qo'llashni kashf etdi. Jarrohlik amaliyotida bemorni uxlatish vositasini ham kashf etdi. Qadimdan qolgan issiq va sovuq hammom bilan ikkalasini qo'shib, bir-birining orasida bir oz vaqt o'tkazib davolash usulini ochdi. Musulmon olimlari aqliy va asab kasalliklarini davolash metodlarini topdilar.

Tibbiy kitoblar. Musulmon dunyosi olimlarining tibbiyot sohasidagi yutuqlari, kitoblari g'arb tibbiyotini rivojlanishiga poydevor bo'ldi. Dunyo tan olgan Abu Ali Ibn Sinoning "Al-qonun fit-tib" kitobi Yevropada birinchi marta Milan shahrida 1473 yilda chop etiladi, ikkinchi marta 2 yildan keyin chop etiladi. Keyin uchinchi marta chop etiladi. 1500 yilga kelib Yevropada 16 marta chop etilgan edi. 17 asrda esa 20 marta chop etilgan. Jolunusning kitobi esa Yevropada bir marta chop etilib, boshqa chop etilmagan. Sulton Azuddavlaning tabibi Ali ibn Abbos shunday yozgan edi: "Men qadimgilarning kitoblari ichida birorta komil va tib o'rganish uchun zarur bo'lgan narsalarni o'z ichiga olgan kitobni topmadim. Buqrot muxtasar yozadi. Uning ta'birlarining ko'pi noaniq, izohga muhtoj. Shuningdek Jolunus bir necha kitoblar yozgan. Uning kitoblari tib ilmining bir qismi to'g'risida fikr yuritadi xolos. Ammo uning mual-

lafotlari ko‘payib cho‘zilib ketadi. Uning kitoblari ichida birorrtta ham o‘rganishga loyiq kitob topa olmadim”. Qarang (Shayx Muxammad Sodiq Muxammad Yusuf Olam. Odam. Din va ilm. -T.: “Hilol-Nashr”, 2019 193 bet).

Musulmon dunyosining taniqli tabobat olimi Abu Bakr Muxammad ibn Zakariyo ar-Roziy “al-Mansuriy”, “al-Hoviy”, “Bur‘us Soa” va “Tibbul fuqaro” kabi 230 kitobini yozib nashr etadi. “Tibbul fuqaro” asarining ozi Yevropada 16-19 asr oraliq‘ida 40 marta chop etilgan. Parijda Ar Roziyning sharafiga tibbiyot universitetlarida haykal o‘rnatganlar. Qator musulmon olimlarining tibbiyotga oid kitoblari Yevropada nashr etilgan. Musulmon dunyosining taniqli 399 tibbiyot olimlarining hayot faoliyati to‘g‘risida 13 asrda yashagan Ibn Abu Usaybiya “Tabiblar tabaqalari haqida xabarlar bulog‘i” nomida qomusiy asar yozgan.

Farmatsevtika. “Apteka” so‘zi arab tilidagi “abu tekka” (har xil narsa sotiladigan do‘kon) so‘zining buzilgan ko‘rinishi. Boshda dori-darmonlar ham har xil narsa sotiladigan attorlik do‘konlarida sotilgan. Dorishunoslik-farmakologiyani birinchi bo‘lib tashkil etgan olim Sobir ibn Saxl bo‘lgan ekan (hijriy 560 yilda vafot etgan). Dorishunoslik o‘quv yurti ba birinchi aptekani musulmonlar Bag‘dod shahrida ochganlar. Dorishunoslik bo‘yicha eng taniqli asar “Saydana” buyuk bobomiz Al Beruniy tomonidan yozilgan. Musulmon tabiblar turli kimyoviy unsurlarni aralastirib dori tayyorlashni yo‘lga qo‘ydilar. Bemor dorini qiynalmasdan oson ichishi uchun unga shirinlik qo‘shilgan. Ilk suyuq dorilarni ham musulmon olimlari tayyorlaydilar. Xalifalik hududida dorishunoslik alohida kasb bo‘lib ajralib chiqadi. Dorishunoslar har bir shaharda o‘z jamiyatlarini tuzganlar.

Tabib bemorga xastalik tashxisi va unga zarur dorilarni alohida qog‘ozga yozib berishni yo‘lga qo‘yadilar. Dorishunoslar ana shu qog‘ozga asoslanib dori tayyorlab berganlar. Musulmon dunyosida birinchi bo‘lib dorishunoslarni imtihondan o‘tkazib qo‘liga hujjat berish tartibi yo‘lga qo‘yiladi. Dorishunoslarni tabibni ishiga aralashishi, tabibga xususiy dorixonona ochish man etilgan. Dorilarni muntazam tekshirish nizomi ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan. Dorilarni bahosi tayin qilinadi. Har haftada bir marta joylarda muxtasiblar tomonidan dorixonalar taftish qilingan. Dorixonada zahar sotish man qilingan.

Me‘morchilik. Arab xalifaligi davrida Old Osiyo va O‘rta Osiyo, arab ispaniyasida me‘morchilik san‘ati ravnaq topdi. Muhtasham machitlar, saroylar va karvonsaroylar bunyod etildi. Damashqda xalifa Umar machiti, Quddusdagi Umar machiti, Granada shahridagi Al Xamro saroyi

Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi musulmon me'morchiligi san'ati namunalaridir.

- Universitet, kafedra, maruza kabi tushunchalarni arab musulmon dunyosi berdi. **Musul'mon ilm-fani** va madaniyati insoniyat sivilizatsiyasining fan, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan bo'lg'usi bosqichi uchun mustahkam zamin yaratdi. Insoniyat sivilizatsiyasining texnokratik davrining barcha yutuq va kashfiyotlari va jamiyatning barqaror taraqqiyotiga zamin yaratgan arab musulmon ilm-faniga asoslanganini unutmashligi lozim.

Arab-musulmon sivilizatsiyasi nima uchun o'zining o'rta asrlardagi olamshumul yutuqlarini davom ettirmadi? XIII asrdan boshlangan siyosiy beqarorlik, diniy mutaasiblik, an'anaviy, umrini o'tab bo'lgan texnika, texnologiyaga asoslangan qoloq ishlab-chiqaris hamda Yevropaning salb yurishlari va keyingi mustamlakachilik ekspansiyasi arab-musulmon dunyosida uzoq asrlik tanazzulga olib keldi. Arab sivilizatsiyasining ilm-fan va madaniyat sohasidagi yutuqlari Yevropa tomonidan o'zlashtirib olindi. Bu yutuqlar Yevropaning taraqqiyoti uchun ulkan ahamiyatga ega bo'ldi.

Tayanch iboralar. Janubiy Arabiston, Petra, Marib to'g'oni, iqtisodiy hayot, xalqaro savdo yo'llari, Nabatey davlati, me'morchilik, islom dini, xalifalik, Muxammad payg'ambar, ta'lim, islom madaniyati Qur'on, ilm fan, sharq renessansi.

Takrorlash uchun savollar

1. Arab –musulmon sivilizatsiyasining geografik chegralarini ko'rsating.
2. Arab musulmon sivilizatsiyasining gullab yashnashining sabablarini ko'rsating.
3. Nima uchun o'rta asrlarda ta'lim yuqori darajada rivojlandi?
4. Musulmon hukmdorlari nima uchun ilm-fanni rivojlanishini rag'batlantirdilar?
5. Arab xalifaligi iqtisodiyotining asosiy xususiyatlarini aniqlang.

Mustaqil ish mavzulari

1. Arab madaniyatining o'rta asrlardagi yuksak taraqqiyotining omillari
2. Musulmon dunyosida o'rta asrlarda aniq va tabiiy fanlarning taraqqiyoti
3. O'rta asrlarda musulmon san'ati va madaniyati
4. Arab xalifaligi davlat boshqaruvi
5. Arab musulmon dunyosi va o'zga mamlakatlar.

IV bob. YEVIROPA SIVILIZATSIYASI

14-mavzu. QADIMGI YEVIROPA SIVILIZATSIYASI

1. Qadimgi yunon shahar-davrlari va madaniyati. 2. Ellinizm va ellin davri tushunchalari. 3. Qadimgi Rim sivilizatsiyasi.

Qadimgi yunon shahar davlatlari va madaniyati. Bolqon yarim orolida qadimdan aborigen aholi leleg, pelasg va kariylar yashar edi. Mil. avv. XII asrda Dunay ortidan hozirgi Yunoniston hududiga doriy qabilalari ko'chib keldi. Doriylar mil. avv. XII – IX asrlarda urug'-qabilachilik tuzumida yashadilar. Urug'-qabilani oqsoqol- basileylar boshqardi. Asta sekin urug'-jamoatuzumi tartib qoidalari yemirilib, boy dehqonlar qatlami – yevpatridlar paydo bo'ldi. Yevpatridlar yunon urug'-qabilasini boshqarishni o'z qo'llariga oldilar. Jamoachi dehqonlar kichik yer egalari qaylandilar.

Mil. avv. VIII-VI asrlarda doriy qabilalarida urug'-jamoatartib-qoidalari yemirilib ilk yunon shahar-davlatlari shakllandi. Mil avv. VIII asrda Bolqon yarim orolining janubida Lakonika viloyatida Sparta davlati tashkil topdi. Sparta davlati 5 qishloqni birlashuvi oqibatida paydo bo'ldi. Spartada faqat spartalik fuqarolarning huquqlarini himoya qiladigan aristokratik davlat hokimiyati shakllandi.

Sparta qo'shni Messeniya va Arkadiya hududlari bosib oldi. Messeniya aholisining bir qismi urushlarda halok bo'ldi, qolgan qismi spartaliklarga qaram ilotlarga aylantirildi. Megara, Korinf va Fiva kabi yunon shahar davlatlari paydo bo'ldi. O'rta Yunonistonning janubiy-sharqiy viloyatlaridan biri markazi Afina bo'lgan Attika misolida yunon polisini shakllanishini atroflicha ko'rish mumkin. Barcha tomonlari dengiz bilan o'ralgan, tog'lar bilan o'ralgan Attika dehqonchilik uchun noqulay edi. Kumush konlari, marmarning mo'l-ko'lligi, savdo-hunarmandchilikni ilk taraqqiyotiga yordam berdi. Qulay dengiz gavanlari dengizchilikni rivojlanishiga sabab bo'ldi. Dastlab Attika aholisi kichik qishloqlarda yashagan edi. Attikada yunon tilining ioniy shevasida so'zlashadigan qabilalar guruhi o'rnashib, ular to'rt urug' yoki qabila (fil)ga bo'lingan edi. Har bir fil bir necha o'nlab urug'lardan iborat bo'lgan uch firatriyaga bo'lingan edi.

Attika aholisini yevpatridlar orasidan chiqqan yoboshchi-basileylar boshqardilar. Basileylar sudya, kohin, harbiy boshliq vazifalarini bajardilar. Boshqa yunon polislariga bo'lganidek basileylar huzurida Afina areopag deb ataladigan oqsoqollar kengashi bor edi. Afsonalarga ko'ra Afina aholisini birlashtirgan afsonaviy Tersziy aholini uch guruhga

bo'radi: Yer egalari-yevpatridlar, dehqonlar-geomorlar, hunarmandlar-demiurglar.

Mil. avv. VIII asr davomida xo'jalik va xususiy mulkchilikni rivojlanishi natijasida katta yer egalari yevpatridlar o'zlarining orasida arxontlar (oqsoqollar)ni saylay boshlaydilar, basileylarning boshqaruv vakolatlari harbiy arxont(boshliq, sudya)ga o'ta boshladi. Natijada basileylarga faqat kohinlik vazifasi qoldi va u ham saylana boshlandi. Shunday qilib Afinada hokimiyatni yevpatridlar orasidan har yili saylanadigan 9 arxont boshqara boshladi. Ularning o'rtasida ijroiya, harbiy va sud hokimiyati taqsimlangan edi.

Yil davomida arxont vazifasini bajargan yevpatridlar o'z o'rinlarini yangi saylanganlarga bo'shatib berib, o'zlari areopagning umrbod a'zolari bo'lib qolar edilar. Areopag mil. avv. VIII-VII asrlarda eng obro'li hokimiyat organi edi.

Yevpatridlar dengiz savdosiga faol qatnashdilar. Tovar ishlab chiqarish, savdo hunarmandchilik tez rivojlandi. Attikada dehqonlarni qarzga botish jarayoni kuchayib ketdi va natijada qarzi uchun qul qilish odatdagi holga aylanib qoldi. avv. VII asrning ikkinchi yarmida Attikada ijtimoiy-siyosiy vaziyat keskinlashib ketdi. Arxont Drakon tomonidan 622-yilda og'zaki qonunchilikni yozma to'plamga keltirilishi Solon va Klisfenlarning o'zgarishlari urug' zodagonlarini hokimiyatini zaiflashtirdi.

Yunon shahar davlatlarining eng kattasi Sparta (hududi 8400 . kv, aholisi 150-200 ming kishi), Afina shahar davlati (hududi 2500 km.kv., aholisi 125-150 ming kishi) bo'lib qolgan yunon shahar davlatlari 30-40 km.kv. hududga ega bo'lib, aholisi bir necha yuz kishini tashkil etgan. Ayrim yunon shahar davlatlari 100-200 kv.km. hududga ega bo'lib, aholisi 5-12 ming kishigacha bo'lgan. Ulardan to'laqonli huquqqa ega bo'lgan fuqarolar 1-2 ming kishini tashkil etgan. Shu tarzda yunon polisleri mitti shahar davlatlardan iborat bo'lib, uning hududini 2-3 kunda aylanib chiqish mumkin edi. Bunday shahar-davlat fuqarolari sanoqli bo'lib, har bir fuqaro boshqasini yuz ko'zidan tanir, uning yurish turishi va mashg'ulotini ham bilar edi. Yunon-shahar davlatlari aholisi dehqonchilik, hunarmandchilik va dengiz yaqinidagilar baliqchilik bilan shug'ullangan. Ekishga yaroqli yerlarning taqchilligi sababli, ko'plab yunonlar chet mamlakatlarga chiqib ketdilar. Ular begona yurtlarda o'z manzilgohlarini tashkil qilib yashadilar. Manzilgohlar aholisi dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug'ullandilar. Yunonlarning manzilgohlarini Apennin yarim oroli va Sardiniya, Korsika orollari, Kichik Osiyoning garbiy qirg'oqlari va Shimoliy Qora dengiz bo'yida uchratish mumkin edi.

Yunon shahar davlatlari hech qachon yagona bir davlatga birlasha olmadilar. Chunki xo‘jalik natural holda bo‘lib, hududlar o‘rtasida mehnat taqsimoti shakllanmadi. Shahar-davlatlar o‘rtasida o‘zaro urushlar uzluksiz davom etib, mil. avv ular to‘la tushkinlikka yuz tutdilar. Makedoniya podshosi Filipp II mil. avv. 338 yilda yunon shahar-davlatlarining hududini bosib oldi. Mil. avv. III asrda yunon hududi Makedoniya davlati tarkibiga kirdi. Mil. avv. II asrda esa Rim davlati tarkibiga kirdi.

Qadimgi yunon madaniyati. Qadimgi yunon madaniyati yunon – shahar davlatlarida davlat va jamiyatni paydo bo‘lishi va rivojlaniishi davrida shakllanib, madaniyatning barcha sohalarida faqat shu davr yunon dunyoqarashi va cheklangan bilim darajasidagi mazmun-mohiyatga ega bo‘ldi. XX asr boshlarida yashagan Nemis faylasufi O. Shpengler bu to‘g‘risida shunday fikrni aytadi: “Antik davr haqiqiy jahon tarixini ham, tarix psixologiyasini ham, chuqur biografiyani ham yaratmadi. Fukidid va Suqrot bu fikrning tasdig‘i bo‘lib xizmat qiladilar. Biri faqat yaqin o‘tmishdagi xalqlarning cheklangan doirasini bilar edi, boshqasi-faqat ozi to‘grisidagi fikrlashning yuzaki lahzalarini bilar edi.”

Qadimgi yunon madaniyatining birinchi bosqichida (mil. avv VI-II-VII asrlar) qadimgi sharqning bir necha ming yillik boy madaniy yutuqlari ta’siri ostida shakllandi. Yunonlar sharq sivilizatsiyalar yutuqlari bilan Kichik Osiyo orqali tanishdilar. Bu davrda yunonlarning madaniy o‘choqlari Kichik Osiyodagi Mile shahri Egey dengizidagi, Samos va Lesbos orollari edi. Ahmoniyar davlati bilan yunon shahar davlatlari yaqin aloqada bo‘ldilar. Ahmoniyar saroyida taniqli yunon siyosat va jamoat arboblari yashadilar, ulardan ba’zilari Ahmoniyarlarga xizmat qildilar. Pavsaniy, Femistokl, Alkiviad va boshqalar fors podsholari xizmatida bo‘ldilar, ularning ba’zilari forslarning urf-odat va an’analarini qabul qildilar, fors tilini o‘rgandilar.

Yunon polislarida notiqlik san’ati rivojlandi: xalq yig‘inlarida chiqib nutq so‘zlaganda notiq kishilarni o‘ziga qaratib, o‘z nutqini eshitishga majbur qilishi lozim edi. Sud majlisida fuqaro o‘zini himoya qilishi lozim edi, shu sababli fuqaro o‘zining fikrini san’atkorona va mantiqiy asoslash bilan sudyalarni o‘z so‘ziga ishontirishi lozim edi.

Yunon shahar-davlatlarida koinlik lavozimi saylanadigan va almashtiriladigan edi. Koinlar alohida toifa sifatida shakllanmagani va ibodatxonalar mol-mulkka ega bo‘lmagani, jamiyatda vijdon erkinligi mavjud bo‘lgani uchun diniy e’tiqod va uning xizmatchilari polis hayotiga ta’sir o‘tkazmadilar. Yunon ibodatxonalari kichik hajmda chiroyli qilib qurilgan edi. Ular qadimgi Sharq ibodatxonalari kabi ulug‘vor va hashamatligi bilan odamlarni qo‘rqitib, vahimaga solmas edi.

Qadimgi yunon madaniyati yunon shaharlarida fuqaro erkinligi, yerga xususiy mulkchilik va iqtisodiy faoliyat erkinligi sharoitlarida rivojlandi. Ko'chadigan va ko'chmas mulkka xususiy mulkchilik, davlatning xo'jalik hayotiga aralashmasligi, tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi-bularning barchasi alohida odamning tashabbusini rivojlanishiga, insonning o'zida kuch va ishonchini qaror topishiga hamda tanqidiy fikrlashni paydo bo'lishiga yordam berdi. Chunki tanqidiy mushohadasiz ilmiy progress bo'lishi mumkin emas edi.

Qadimgi yunon madaniyati taraqqiyoti ikki katta asosiy bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Ilk yunon madaniyati (mil.avv. VIII-VI asrlar).

2. Klassik yunon madaniyati (mil.avv. V-IV asrlar).

Ilk yunon madaniyati keskin siyosiy kurash, yunon shakllanishi hamda boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy - madaniy aloqalarning yo'lga qo'yilishi sharoitida rivojlandi. Bu davr madaniyati Sharqning qadimgi sivilizatsiyalari yaratgan boy madaniyat ta'siri ostida rivojlandi. Qadimda yunonlar Sharq madaniyati bilan o'zlarining Kichik Osiyodagi manzilgohlari orqali tanishdilar. Qadimgi Sharq sivilizatsiyasiga yaqin joylashgan geografik hududlarda Milet, Lesbos, Samos kabi ilk yunon madaniy o'choqlari vujudga keldi.

Mil.avv. VII asrda yashab ijod qilgan Gesiodning didaktik asarlarida o'zi yashagan davrning ijtimoiy hayoti va ziddiyatlari aks ettiriladi ("Mehnat va kunlar" poemasi).

Badiiy adabiyot, eng avvalo, poeziya janrida rivojlandi. Poeziya siyosat bilan bog'liq edi. Mashhur shoirlar Feognid, Solon, qisman Arxilo y siyosat bilan faol shug'ullangan edilar. Hatto, Alkey va Safo kabi lirik shoirlar ham siyosatga tan berdilar. Shu davrda Kichik Osiyoda yashagan qul Ezop masallari adabiyotda mavjud ijtimoiy hayotning haqiqati aks etdi, uning masallarida ijtimoiy adolat masalasi ko'tarilgan. Kichik Osiyo orqali qadimgi sharq falsafasini yunonlar o'zlashtirdilar. Yunon madaniyatining asosiy yutuqlaridan biri bu yunon yozuvini yaratilishi edi. Yunonlarning mil. avv. VIII asrda sharqdan finikiya yozuvini o'zlashtirishlari yunon madaniyati tarixida muhim voqea bo'ldi. Finikiya yozuvi asosida yunon yozuvini shakllanishi uzoq asrlar davom etdi. Mil. avv. 403 yilga kelib yunon alfavitini shakllanishi tugallandi, bu vaqtda 24 harf (17 unli, 7 unsiz)dan iborat yunon alfavitli yozuvi yuzaga keldi. Dastlab yunonlar toshga o'yib yozdilar, keyin mum surtilgan taxtacha, pergament va papirusga yozdilar.

Sharqning qadimgi sivilizatsiyalari Misr va Bobilning aniq va tabiiy fanlar jumladan astronomiya va matematikada erishgan yutuqlarini

yunonlar o'zlashtirib oldilar. Lekin yunon astronomiyasi va matematikasi hech qachon misr va bobil astronomiya va matematika fanlari erishgan darajasiga yeta olmadi. Yunon shaharlarining birortasida ham osmon-jismlarini kuzatish uchun observatoriya qurilmadi.

Falsafa. Ilk yunon falsafasi vakillari miletlik Fales (mil.avv. 624-547-yillar), Anaksimandr (mil.avv. 610-546-yillar), Kichik Osiyolik Anaksimenes tabiat, borliqning mohiyatini tushunishga harakat qildilar. Pifagor maktabining vakillari, shuningdek, Geraklit (mil.avv. 544-483-yillar), Empedokl (mil.avv. 483-423-yillar) kabi "fiziklar" (fyuzis-tabiat demakdir) tabiatni o'rgandilar. Ular dunyoning asosini qidirdilar. Tabiatning mohiyatini turlicha izohladilar. Fales dunyoning asosi suv, Anaksimandr apeyron (boshlang'ich ibtido), Geraklit esa, olov deb qaradi. Demokrit (taxminan, mil.avv. 470-yilda tug'ilgan) borliq cheksiz bo'linma-atomdan iborat degan fikrni aytdi. U dunyoning sababiy bog'lanishi haqida fikr yurutdi. Platon (mil.avv. 427-347-yillar) borliq abadiy, o'zgarmas, bo'linmas, uni aql bilan bilish mumkin deb hisobladi. Platon akademiyasida 20 yil ta'lim olgan Aristotel (mil.avv. 384-322-yillar) "g'oyalar dunyosi to'g'risida"gi ustozining fikrini tanqid qildi. Aristotel fikricha, borliq jins va tur shaklida mavjud bo'ladi.

Suqrot (tax.mil.avv. 470-399-yillar) haykaltarosh Sofroniks va doya ayol Fenaretning oilasida dunyoga keladi. Suqrot falsafasida inson muammosi oldingi o'rinda chiqdi. U insonning o'zligini anglashiga jiddiy e'tibor berdi. Suqrot insonni o'rganish falsafaning obyektini tashkil etadi deb hisobladi. Suqrotning o'zi biror asar qoldirmagan, uning qarashlari uning izdoshlari tomonidan bizgacha yetib kelgan.

Yunon shaharlarida qonunlarni bilish, axloqiy qadriyatlar, mantiq fani va notiqlik san'atiga pullik o'qitadigan odamlar bo'lib, ular sofistlar deb atalgan. Suqrot sofistlarni pul evaziga bilim berishlarini, o'zlari donolikni bilmay donolikdan saboq berganlari va barcha narsani bilishga qilgan da'volari uchun tanqid qildi.

3. Diniy e'tiqod. Yunonistonda diniy e'tiqod xizmatchilari qadimgi sharqdagi kabi alohida toifa sifatida shakllanmadi. Chunki natural xo'jalik, oziq-ovqatning o'ta taqchilligi har bir kishini bir burda non uchun qattiq mehnat qilishni talab qilardi. Yunonistonda hosildor yerlar juda kam edi. Ochlikdan qiynalgan aholining bir qismi non topish uchun o'z yurtini tashlab o'zga yurtlarga ketishga majbur bo'ldi. Ular o'zga yurtlarda qo'lib ketdilar.

Yunonlar uchun xudolar qudratli mavjudot bo'lsalar-da, lekin ular insonga yaqin va tushunarli edi. Qadimgi yunon odami kohinlarning yordamisiz o'zi e'tiqod etgan xudosi qurbonlik keltirishi mumkin edi.

Qadimda yunon diniy e'tiqodi va mifologiyasini shakllanishida Kichik Osiyo va unga qo'shni hududlar diniy e'tiqodi va mifologiyasi katta o'rin tutadi. Qadimgi sharqning dini va mifologiyasining syujeti qadimgi yerga yunoncha nom berildi. Yunondan o'zlashtirib olindi faqat ular to'n afsonalariga ko'ra, dastlab Yer (Geya) va Xaos, hayotning boshlanishi (Eros) va yer osti dunyosi (Tartar) bo'lgan. Geya yulduzli osmon Uranni tug'adi. Uran dunyoning birinchi hukmdori va Yer ma'budasi Geyaning turmush o'rtog'i bo'ladi. Uran va Geyadan so'ng, xudolarning ikkinchi avlodi-titanlar boshlanadi. Uran o'z o'g'li, dehqonchilik xudosi titan Kronos tomonidan taxtdan ag'dariladi. Kronosning bolalari Aid, Zevs, Poseydon, Gestiya, Demetra, Gera bo'lgan. Olimpning bosh xudosi Zevs osmon va chaqmoq hukmdori, Poseydon yer va dengizni sug'oradigan namlik xudosi, Aid (Pluton) yerosti dunyosi hukmdori bo'ladi. Zevsning rafiqasi Gera nikoh homiysi, Gestiya uy o'chog'i ma'budasi, Demetra dehqonchilik homiysi deb sig'inganlar. Zevs va Geradan: o'smirlilik ma'budasi Geba; urush xudosi Ares; temirchi va hunarmandlar homiysi Gefest tug'iladi.

Yunon mifologiyasi. Bizgacha yunon xalq og'zaki ijodining namunalari: qo'shiqlar, ertaklar, rivoyatlar va masallar hamda afsona va rivoyatlar yetib kelgan. Yunon mifologiyasining ildizlari qadimgi sharqqa borib taqaladi. Yunonlar Kichik Osiyodagi Xett mifologiyasini to'la o'zlashtirib olganlar. Yunon mifologiyasi ilohlar va qahramonlar, argonavtlar afsonalari hamda Iliada va Odissey dostonlaridan iborat.

Qadimgi Iliada va Odissey dostonlari qachon, qayerda vujudga kelgani to'g'risida aniq ma'lumotlar yo'q. Lekin ayrim manbalarda Iliada dostoni mil. avv. XI asrda Kichik Osiyoda frigiyaalik shoir Daret qalamiga mansub ekani, bu doston afsonaviy Likurg tomonidan yunonlarga yetkazilgani haqida ma'lumot beriladi. Bu dostonlar Gomerga tegishli bo'lmagani to'g'risida farazlar ham mavjud. Gomeraning yashagan yillari ham munozarali. Bu muammolar qadimdan antik mualliflar tomonidan qo'yilgan va keying davrlarda ham tadqiqotchilar uchun muammo bo'lib qolgan. Yevropada XVII asrda Iliada va Odissey dostonlari va uning muallifi kimligi masalasini ilmiy asosda tekshirishni fransuz Fransuya de Obin'yak ilgari surgan. De. Obin'yak "Iliada" haqida dissertatsiya" nomli kitobida "Iliada" dostoni yolgiz bir kishini asari emas, balki Troya urushi haqida to'qilgan turli qo'shiqlar yigindisidan iborat asar. Gomeraning tarixiy shaxs juda shubhali degan fikrlarni ilgari surdi. Bu fikrni taniqli nemis olimi Fridrix Avgust Vol'f (1759-1824) bu dostonlarni tadqiq va tahlil etib, bir necha nusxalarini solishtiradi. Vol'fning fikricha, qadimgi davrda yozuv bo'lmagani uchun dostonlarning yozma nusxalari ham bo'lmagan. Har ikkala doston ham boshda og'zaki to'qilgan. Mil.

avv. VI asrda afina tirani Pisistratning topshirigi bilan maxsus komissiya bu dostonlarni yozib olgan. / А.Алимухамедов Антик адабиёт тарихи 44-45 бетлар. Укитувчи нашриёти-Т- 1969. Vol'fning tadqiqotlari keyingi asrlarda ham davom ettirildi. Tadqiqotlarning nihoyasiga ko'ra Iliada va Odisseya dostonlari mil. avv. XI-VIII asrlarda Kichik Osiyoda yaratilgan, keyin boshqa hududlarga tarqalgan.

Olimpiya o'yinlari. Yunon urug'-qabilalari ibtidoiy jamoa davridagi turli an'analarni saqlab qoldilar. Yunon bayramlari ichida eng mashhuri Peloponnesning shimolidagi Elida viloyatining Olimpiya shaharchasida har 4 yilda Zevs sharafiga o'tkaziladigan Olimpiya o'yinlari edi. Birinchi Olimpiya o'yinlari mil.avv. 776-yilda bo'lib o'tgan. Sportchilar musobaqalardan bir oy oldin tanlov sinovlariga kelganlar. O'yinlarga faqat ma'lum yoshga yetgan yunon fuqarolari ishtirok etganlar. Mil.avv. 662-yildan bolalar uchun musobaqalar kiritilgan. Xorijliklar va qullar faqat tomoshabin bo'lishlariga ruxsat berilib, ayollarga musobaqalarga qatnashish va o'yinlarni kuzatish qat'iy ta'qiqlangan. Olimpiya o'yinlarida o'tkaziladigan musobaqalarda barcha toifadagi fuqarolar ishtirok etishi mumkin edi. Olimpiya musobaqalari o'tkaziladigan Elida viloyati fuqarolari ichidan 10 sudya Olimpiya o'yinlariga yugurish, kurash, qo'l jangi, qoidasiz kurash (pankratiya), beshkurash-pentatlon (uzunlikka sakrash, qisqa masofaga yugurish, nayza va disk uloqtirish), ot chopish va poyga aravalarida yugurish kirgan. Musobaqalar guruhlar bo'yicha qur'a tashlash yo'li bilan o'tkazilgan. G'oliblar olimpiyonik faxriy unvonini olib, mil.avv. 752-yildan zaytun novdalaridan gulchambarlarni mukofot sifatida olganlar. G'oliblar Olimpiyalik Zevs xiyobonida o'z haykallarini qo'yish huquqiga ega bo'lganlar va g'oliblar moddiy rag'batlantirilganlar. Shoirlar Olimpiada g'oliblari sharafiga madhiyalar to'qiganlar. So'nggi Olimpiya o'yinlari milodiy 393-yilda o'tkazilgan.

Tarix matnlari. Dastlab yunon shahar-davlatlarida alohida shahar va viloyatlarni tarixini mahalliy yilnomalar, shajaralar va rivoyatlar asosida yaratilgan. Bunday matnlarni yaratgan mualliflar logograflar (logos-hikoya) deb atalgan Bunday mualliflardan miletlik Gekatey va mitilenlik Gellanikni ko'rsatish mumkin. Mil.avv. V asrda ilk bor o'tmish voqea-hodisalarni matnini tuzish va xalq oldida bayon qilish boshlandi. Mil. avv. V asrda yunonlarda jamiyat taraqqiyotiga bag'ishlangan ana shunday matnlar paydo bo'ldi. Uzoq vaqt turli o'lkalarda bo'lgan Gerodot (mil.avv. 485-425-yillar atrofida yashagan, Kichik Osiyodagi Galikarnas shahrida tug'ilgan) ilk bor ko'rgan va eshitgan voqealarini hikoya tarzida bayon qildi. U o'zi tuzgan matni Afinada ilk bor xalq oldida o'qib berdi. Keyinchalik mil.avv. III asrda Aleksandriya olimlari Gerodot hikoyala-

rini 9 jilddan iborat kitob holatiga keltiradilar. Gerodot matnlari, “Tarix” (yunoncha “Istoriya” – “tasvir” ma’nosini bildiradi.) yoki “muzalar” deb atalib, yunon-fors urushlariga bag‘ishlangan. Lekin muallif Misr, Eron va skiflar tarixiga ham murojaat qiladi. Gerodot Orta Osiyoda qadimda yashagan qabilalar to‘g‘risida ham qiziq ma’lumotlar beradi. Gerodot matnlarida voqea-hodisalarning borishida xudolar ham oshitirok etadi.

Evropa markaz g‘oyasiga qarshi turgan nemis olimi O. Shpengler qadimgi yunon tarixi va tarixiy asarlari to‘g‘risida shunday ta’kidlaydi “Antik tarix fors urushlarigacha mazmunan esa yana keying davrlargacha mifologik tafakkurning mahsulidir. Sparta davlat qurilishi tarixi ellin davrining Likurgning uydirmasidir. Likurgning tarjimai holi batafsil tasvirlanadi, ko‘rinishidan u Taygetning uncha ahamiyatli bo‘lmagan ilohi edi,” O.Шпенглер Закат Европы / Пер. нем.под.ред. А.А. Франковского ОСР Бычков стр 14

Fukidid (mil.avv. 460/51-396 yillar)Peloponnes urushiga bag‘ishlangan 8 kitobdan iborat tarixiy asarning muallifi hisoblanadi, lekin bu munozarali. Fukidid afsonalardan foydalangan bo‘lsada, yunon voqeiligini ham bor tarixiy haqiqatida bayon qildi. “ 5. Axir qadimgi davrdan boshlab, dengiz savdosi yanada gavjum bo‘lganda ellinlar ham varvarlar ham qirg‘oqda va orollarda dengiz qaroqchiligi bilan shugullandilar. Bunday ishlarga o‘z manfaatlari uchun va kambagallarga ozuqa izlagan, mablag‘ga ega bo‘lgan kishilar boshchilik qildilar. Ular devorlar bilan himoyalangan qishloqlarni taladilar, bu bilan tirikchilik uchun ko‘p miqdorda vositalar topdilar, shu bilan birga bunday mashg‘ulot o‘sha vaqtda uyatli bo‘lmay aksincha sharafli ish hisoblanar edi. (3) Ular bir-birlarini quruqlikda ham taladilar. Va hozir ham Elladaning ko‘pgina viloyatlarida yashaydigan odamlarda bu o‘ziga xos turmush tarzi mavjud”⁴ Fukidid o‘zi yashagan mil. avv. V asrda ham yunonlar boshqa urug‘ yoki qishloqda yashagan aholini talash bilan tirikchilik qilish saqlanib qo‘lganini yozib qoldirgan. Yunonlarda shahar davlatlar shakllangan bo‘lsada hali ular zaif va barcha hududlarda mavjud bo‘lmaganini bildiradi.

O. Shpengler Fukididning tarixiy asar yozuvchisi sifatini shunday tushuntiradi: “Yunonlar Fukidid asarlari asosida o‘z tarixlari to‘grisida bu tarix deyarli ichki tugallangan lahzada jiddiy o‘ylay boshladilar. Hatto Fukidid asarining kirish qismida metodik asoslar g‘arbiy Yevropacha jaranglasada, u tarixni voqealarni batafsil tasvirlashda o‘ziga kerak bo‘lgan darajada to‘qib chiqarish mumkin deb tasavvur qildi. Bu Fukididning badiiy metodi edi, biz aynan shuni afso-

⁴ Историки античности Том первый Древняя Греция. Фукидид История стр. 207. М.. Изд-во Правда1989

na-ertak yaratishdir deb hisoblaymiz”⁵ Fukidid tarixiy voqealarni, ularning harakatga keltiruvchi kuchlari, taraqqiyot yo‘llari bilan o‘zaro aloqada ko‘rishga harakat qildi. Voqealarning sabablarini o‘rganish uchun siyosiy voqelikni ilmiy tahlil qilish usullarini qo‘lladi. Asarda voqealarni bayon qilishda hujjatlarga-qarorlar matni, shartnomalar va voqealarni yuz bergan sanalariga murojaat qiladi.

Fukidid xudolarni tarix doirasidan chiqardi. U tarixni xudolar emas, balki odamlar o‘z faoliyatlari bilan yaratadilar deb hisoblar edi. Odamlarning “tabiati” hamma vaqt qonun va shartnomalardan kuchliroq bo‘ladi. Kishilarning qiyofasi va uning ko‘rinishlari Fukidid uchun shu davr jamiyatining voqeligini tushinish uchun yetarli edi. Gerodot va Fukidid yunon polislari fuqarolarining o‘z ozodligini himoya qilishi, vatanparvarlik va o‘zini qurbon qilishdek qahramonlik motivlariga murojaat qildilar. Fukidid an‘analarini Ksenofont (mil.avv. 430-355 yillar) davom ettirdi. Uning “Anabasis”, “Lakedemon politsiyasi”, “Kiropediya”, “Agesilay” va “Daromadlar to‘g‘risida” asarlarida o‘sha davr yunon dunyosining siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy hayoti aks etadi. Efor (mil.avv. 405-330 yillar) 30 kitobdan iborat “Tarix” asarida yunon dunyosi, shuningdek yunon koloniyalarini tarixini yoritdi.

Mil.avv. V asrda yunon dunyosida yuz bergan kuchli siyosiy jarayonlarni tahlil qilgan, shu davrning siyosiy arboblari Femistokl va Perikl kabi taniqli jamoatchilik arboblarni tanqid ostiga olgan siyosiy matnlar yuzga keldi. Shunday adabiyotlardan biri bo‘lgan “Afinaning boshqaruvi to‘g‘risida” nomli risola mil.avv. 430-yillar atrofida paydo bo‘ldi. Kritiyning “Lakedemeon politiyasi”da Sparta jamiyati qurilishi ko‘klarga ko‘tarildi, Afina davlat boshqaruviga salbiy nazar bilan qaraldi.

6. Adabiyot va teatr. Yunon madaniyatini ikki davrga bo‘lish mumkin: mil. avv.VIII-VI asrlar arxaik davr madaniyati va mil. avv. VI asrning oxiri – V asrlar klassik madaniyat. Mil.avv. VIII-VI asrlarda yunon madaniyati taraqqiyotida qadimgi Sharq madaniyatining ta’siri kuchli bo‘ldi. Yunonlar o‘zlarining Kichik Osiyoning g‘arbiy qirg‘og‘ida tashkil etgan tayanch niqtalar orqali qadimgi Sharqning boy madaniyati bilan tanishdilar. Bu davrning asosiy madaniy o‘choqlari (Yunonistonning o‘zida bo‘lmay) Kichik Osiyodagi Milet shahri, Lesbos va Samos orollarida edi. Adabiyotda poeziya janri rivojlandi. Shoirlar Alkey, Arxilox, Feognid, shoira Safolar yunon poeziyasida yorqin iz qoldirdilar.

Lirik poeziya. Qadimgi yunonlar “lirika “ iborasi ostida lira musiqasi asbobi jo‘rligida ijro etiladigan uncha katta bo‘lmagan hajmdagi

⁵ О.Шпенглер Закат Европы \Пер. нем.под.ред.А.А.Франковского
ОСР Бычков стр 14

poetik asarni tushunganlar. Lirik xalq qo‘shiqlari asosida paydo bo‘lgan. She‘rning hajmiga ko‘ra lirik asarlar elegiya, yamb va meli (melos-melodiya-qo‘shiq). Elegiyaning mavzusi insonning ijtimoiy hayotining barcha qirralarini qamrab olgan. Kallin va Tirteyning mil. avv. VII asrdagi elegiyalari vatanparvarlik tuyg‘ulari, Solon va Feognidning elegiyalari ijtimoiy va siyosiy mazmun bilan sug‘orilgan. Spartada Tirtey harbiy marsh-embat-eriyalar bilan nom qozongan Meli poeziyasining vatani Lesbos oroli bo‘lib, bu orol mashhur shoira Safo va shoir Alkeyning vatani bo‘lgan (mil. avv. VII-VI asarlar). Safoning she‘rlarini asosiy mavzusi sevgi-muhabbat bo‘lsa Alkeyning she‘rlarini mavzusi siyosiy kurash bo‘lgan. Xo‘r bilan aytiladigan meli qoshiqlari keng tarqalgan. Yunon adabiyotida kichik shakldagi asarlar epigramma (“ustiga yozilgan”) biror bir narsaga bag‘ishlangan.

Yunon tragediyasi. Tragediya (“Echkilar qo‘shig‘i”) so‘zini vino-chilik xudosi Dionisning echki terisi kiygan quvnoq, doimiy hamrohlarini ifodalovchi satirlar aytadigan xor qo‘shiqlaridan kelib chiqdi. Yunonlarda “Echkilar xori” yoki satirlar keng tarqalgan edi. Yunon tragiklari yaratgan tragediyalarning syujetlari va motivlari mifologiyadan olingan bo‘lib, faqat bir necha tragediyalar syujetlari yozuvchilar qalamiga mansub edi.

Shu sababli yunon shoirlari Esxil, Sofokl va Yevripid o‘nlab tragediyalar yaratdilar. Attika tragediyasining tug‘ilishida Afina tirani Pisis-tratning umumdavlat bayrami sifatida Buyuk Dionis bayramlarini ta‘sis etishi muhim o‘rin tutdi. Shoir Fespid mil.avv.530-yil atrofida Dionis bayramida xo‘r qo‘shiqlariga ilk bor musiqa asboblari jo‘rligida hikoyani qo‘shadi. Shu vaqtdan drama (yunon tilida – “harakat”) janri tug‘iladi. Aktyor xo‘rga hikoya bilan “javob” berib, xo‘r bilan dialog olib borar edi. Shu tariqa, tragediya dramatik ko‘rinishiga aylandi. Tragediyada boshqa ko‘rinish qatnashchilari Dionis to‘g‘risidagi afsona-miflardan sahna ko‘rinishlari o‘ynar edilar. Keyinchalik, boshqa afsonalarga navbat keldi. Mil.avv. V asr birinchi yarmida Esxil tomoshabin oldiga ikkinchi aktyorni, Sofokl uchinchi aktyorni qo‘shdi va natijada qadimgi “Echkilar xo‘ri” to‘la dramaga aylandi.

Attika teatrida Dionis sharafiga o‘tkazilgan bayram vaqtida faqat uch kun tomosha ko‘rsatilgan. Birdaniga uch tragediya qo‘yilib, keyin satirik drama yana bir mifologiyadan yengil quvnoq sahnalashtirilgan parcha berilgan. Teatr ko‘rinishi ochiq havoda, dumaloq maydoncha-orkestrida namoyish qilingan. Tomoshabinlar uchun akropolning toshloq qiyaligi-da toshdan o‘rindiqlar (teatron) yo‘nilgan. Tomoshabin o‘tiradigan tosh o‘rindiq teatron deb atalib, teatr so‘zi shundan kelib chiqqan. Ochiq va katta teatrdan aktyorlar imo-ishoralari va kiyimlarini aniq ko‘rib bo‘lmas edi. Shu boisdan, aktyorlar sahnaga uzun tantanali kiyim va niqoblarda

hamda aktyor gavdasini baland qilish uchun baland poshnali oyoq kiyim-koturnada chiqqanlar. Teatr tomoshalari mart oyining oxiri aprel oyining boshlarida ko'rsatilgan.

Yunon tragediyasining mil.avv. V asrdagi parvozi uch tragik shoir – Esxil, Sofokl, Yevripid asarlari bilan belgilanadi: **Esxil (mil.avv. 525-456 yillar)** yunon tragediyasining asoschisi hisoblanadi. Bizgacha Esxilning 7 tragediyasi yetib kelgan. Shoirning “Forslar” (mil.avv. 472-yil) tragediyasi Salamin jangiga ishlangan. “Zanzirband Prometey” tragediyasida erkinlik g'oyasi ilgari suriladi.

Sofokl. Attika teatrida Sofokl (mil.avv. 496-405 yillar) taniqli tragik edi. U Afina dengiz ittifoqining xazinachisi, strateg lavozimini egalladi. Sofokl teatrga uchinchi aktyorni olib kirdi, xor ishtirokchilarini ko'paytirdi. Sofokl mahsuldor ijod qilib, 123 ta komediya yozdi, undan 7 tasi bizgacha yetib kelgan. Shoirning “Shoh Edip”, “Antigona”, “Fivaga qarshi yetti”, “Agamemnon”, “Xoeforalar”, “Yevmenid”, “Gerakl”, “Avlidadagi Ifigeniya”, “Gekuba”, “Andromaxa”, “Ion”, “Yelena”, “Edip Kolonda” asarlarida axloqiy va etik muammolar ko'tariladi.

Yevripid. Yevripid (mil.avv.480-406 yillar) polis mafkurasining tushkunligi davrida ijod qildi. Aytishlaricha Yevripid 90 asar yozgan. Bizga faqat ulardan 18 tasi ma'lum. Shoirning “Vaxxankalar”, “Gerakl”, “Medeya”, “Ippolit”, “Iffegeniya” tragediyalarida insonning chuqur ruhiy dunyosi, his-tuyg'usini ko'rsatdi. Bu asarlar jahon teatri sahnasidan tushmay kelmoqda. Barcha tragediyalarning syujetlarini asosiy qismi mifologiyadan olingan.

Komediya. Attika teatrida tragediyadan tashqari komediya janri shakllandi. Komediyaning nomi “komos” – “olomon”, “oda” – “qo'shiq” so'zidan kelib chiqqan. Komediya tragediyadan keyinroq paydo bo'lgan. Aristofan (mil.avv. 445-386 yillar)ning komediya janridagi asarlari keng tarqalgan. Qadimda yunonlar uzum hosilini yig'ib olganlaridan so'ng o'ziga xos karnaval-bayram uyushtirganlar. Bayramda raqs tushib, turli qo'shiqlarni ijro etib, hazilomuz hajv-kulgili tomoshalar ko'rsatganlar. Bizgacha yetib kelgan komediyalarning ko'pchiligi Afinada yashab ijod qilgan Aristofan qalamiga mansubdir. Aristofan 44 komediya yozgan, ulardan 11 i bizgacha yetib kelgan. Aristofanning “Tinchlik”, “Axaryaliklar”, “Lisistrat”, “Suvoriylar”, “Qurbaqalar” va “Bulutlar” komediyalarida mil.avv. V asr yunon dunyosining siyosiy ziddiyatlari aks etgan. Mil. avv. IV asrda Yunonistonda 15-20 ming kishilik teatrlar qurilishi avj oldi.

Haykaltaroshlik. Mil.avv. V asrda haykaltaroshlar Miron, Fidiy va Poliketlar ajoyib haykallarni yaratdilar. Fidiy ma'buda Afina va Zevs haykallarini yaratdi. Ma'buda Afinaning 12 metrli haykalini yaratishda fil

suyagi va oltindan foydalanildi. “Afina” haykali Akropolning eng baland joyiga qo‘yilgan, aytishlaricha uning quyoshda yaraqlagan nayzasi uzoqdan ko‘rinib, kemalar uchun mayoq bo‘lib xizmat qilgan? Fidiyning mashhur asarlaridan biri “olimpiyalik Zevs”ning taxtda o‘tirgan haykali (14 metr) Olimpiyadagi Zevs ibodatxonasiga o‘rnatilgan. Fidiy oltin va fil suyagi bilan ziynatlangan Zevs haykalida ma‘buda Afina qalqonida do‘sti, Afinaning siyosiy arbobi Periklni va o‘zini tasvirladi. Afina-da haykaltaroshning dushmanlari Fidiyni ma‘budani haqorat qilishda aybladilar. Natijada Fidiy qamoqqa hukm qilindi va u yerda vafot qilindi. Fidiyning ikki munosib shogirdi Alkmen va Agorakrit akropoldagi Parfenon ibodatxonasi peshtog‘i tasvirini ishladilar.

Haykaltarosh Miron “Diskobol”, “Afina va Marsiy” haykallari bilan o‘zining nomini abadiylashtirdi. Uning shogirdi haykaltarosh Dimetriy an’anaviylik va klassikadan uzoqlashib hayotiy asarlar yaratdi. Argoslik haykaltarosh Poliklet esa uni teskarisi bo‘lib o‘z asarlarida sof go‘zallikni izladi. U tanlovlarda Fidiy bilan raqobatlashdi va g‘olib bo‘ldi. Uning Zevsning rafiqasi “Gera”, “Nayza ushlagan o‘smir” haykallari mukammal san‘at asarlari bo‘ldi.

Polikletning “Diodumen” asari noyob san‘at namunasi edi. Yunon haykaltaroshlari inson gavdasining uyg‘unligi nuqtasini qidirar edilar. Poliklet ham bu nuqtani izladi. Poliklet qonuniga ko‘ra, haykal tovonining uzunligi gavdaning 1/6 qismini, boshining uzunligi 1/8 qismini tashkil qilishi kerak edi. Haykaltarosh bu va boshqa nisbatlarga Dorifor haykalini yaratishda qat’iy rioya qilgan. Keyingi yuz yil davomida haykaltaroshlik san‘atida Polikletning qonuniga amal qilib kelingan. Haykaltarosh Peoniying Olimpiya shahrida qad ko‘targan “Ma‘buda Rika” haykali mil.avv. V asrning noyob san‘at asarlaridan biri edi.

Yunon tasviriy san‘ati taraqqiyotini vazalar tasviri orqali tasavvur qilish mumkin. Bu san‘at janrida Sikion va Afina maktablari shakllangan. Tasviriy san‘atda kundalik hayot va mifologiyadan olingan tasvirlar ko‘plab uchraydi. Birinchi bo‘lib yunon rassomi tasoslik Poliklet faqat to‘rt rang: oq, qora, qizil va sariqni ishlatgan. Klassik davrda yunon tasviriy san‘atining eng mashhur namoyondalaridan biri Polignot ulkan ko‘p shaklli kompozitsiyalar ustasi edi. Afinalik Apollodor tasviriy san‘atda yorug‘lik soyasini kashf qildi. U bo‘yoq bilan chizgan ko‘pgina vazalar bizgacha yetib kelgan. Bu davrdagi Zevksid va Parrasiy, Apelles (Iskandarning saroy rassomi) va Nikiylar tasviriy san‘at janrida yorqin iz qoldirdilar. Rasomlar tarixiy, harbiy, peysaj va portret janrlarida ijod qildilar.

Kulolchilikda yunonlar yutuqlarga erishdilar. Qadimgi Afina shahridagi Keramik ko‘chasida kulollar yashagani uchun ko‘cha nomidan keramika atamasi paydo bo‘ldi. Attika viloyatidagi qizg‘ish-sarg‘ish

loydan afinalik kulollar tayyorlagan sopol buyumlar xaridorgir bo'lgan. Bazalar ilgari sariq rangda bo'lsa, keyinchalik qora lak bilan qoplangan.

Tibbiyot va aniq fanlar. Mil.avv. V asr ikkinchi yarmida an'anaviy kohinlar tibbiyoti bilan bir qatorda aniq kuzatishlarga asoslangan shifokorlarning tibbiyoti vujudga keldi. Yunon tabiblari singan suyaklarni, urushda olingan jarohatlarni tuzatishni, davolashni bilar edilar, lekin yuqumli kasalliklarni davolashni bilmas edilar. Asklepiy davolash ma'budi hisoblangan. Tabiblar odamni sog'lig'i uning organizmidagi 4 asosiy suyuqlik: qon, flegma, qora va sariq o't orasidagi muvozanatga bog'liq deb hisoblaganlar.

Yunonistonda aniq fanlarni rivojlanishi to'grisida ma'lumotlar juda kam. Yunonlar sharq dunyosining bir necha ming yil davomida aniq va tabiiy fanlardan to'plagan bilimlarni o'zlashtirdilar. Yunon shaharlarining birortasida ham rasadxona-observatoriya yo'q edi. Yunonlar matematikani misrliklardan, astrologiyani bobilliklardan o'zlashtirdilar. XX asrda yashagan nemis olimi O. Shpengler qadimgi yunonlar aniq fanlar to'grisida ma'lumotga ega bolsalarda, lekin bu fanlar bilan chuqur shug'ullanmaganlari sabablari to'grisida shunday deydi: "Yunon faylasuflari ba'zida eslatadigan biror narsa to'grisida eshitgan bo'lsalarda tajribada sinab ko'rmadilar. Platon ham Aristotel ham observatoriyanı bilmas edilar. Periklning Afinada so'ngi yillardagi hukmronligi vaqtida xalq yig'ini har qanday astronomik nazariyalarni tarqatuvchilarga qarshi ularga tahdid qiladigan og'ir ayblov (eysangaliya) qarorini chiqardi".⁶ Qadimgi yunon tarixini atroficha tahlil qilgan O. Shpengler qadimgi yunonlar aniq fanlar bilan shug'ullanmaganlari va sharq dunyosining aniq fanlar sohasida to'plagan bilimlarini o'zlashtirib olganlari to'grisida shunday yozgan edi yunonlar Misrdan matematikani, Bobildan astronomiyani o'zlashtirib oldilar deb yozgan edi. Mil. avv. VIII-VI asrlarda yunon shahar davlatlari paydo bo'lgan bo'lsada, yunonlarda aniq va tabiiy fanlarni rivojlanishining iqtisodiy-ijtimoiy omillari shakllanmagan edi. Shpenglarning ma'lumotlari bu fikrning yaqqol dalilidir.

Ellinizm va ellin davri tushunchalari. Ahmoniyar davlatining halokatidan keyin Aleksandr yurishlaridan boshlab to milodiy I asrgacha bo'lgan davr g'arb tarixiy adabiyotida ellinizm davri deb ataladi. Bu davrda savdo-hunarmandchilik, madaniyat o'choqlari-shaharlar jadal rivojlandi (Iskandariya, Antioxiya, Baqtra va boshqa shaharlar). Bu davrda Yevropa Sharqning boy qadimgi madaniyati bilan tanishib, uning to'rt ming yillik to'plagan madaniy yutuqlarini o'zlashtirib ola

⁶ О.Шпенглер Закат Европы \Пер.нем.под.ред.А.А.Франковского. ОСП .Бычков стр 14

boshladi. Sharqda ma'naviy-madaniy hayot, ilm-fan va san'at bu davrda yuksak darajada rivojlandi. Yangi ilm-fan o'choqlari, oliy maktablar va kutubxonalar paydo bo'ldi. Fan-texnikada kashfiyotlar, ixtirolar qilinib, nodir asarlar yaratildi. Yangi fan tarmoqlari paydo bo'ldi. Fanning taniqli arboblari o'zlarining nodir asarlarini yaratdilar. Ijtimoiy-siyosiy, falsafiy ta'limotlar shakllandi.

“Ellinizm” tushunchasi tarix fanida birinchi marta XIX asrning birinchi yarmida nemis olimi I. Droyzen tomonidan kiritildi. Droyzen bu tushunchani makedoniyalik Aleksandrning bosqinchilik yurishlaridan keyingi katta tarixiy davrga nisbatan qo'lladi va uning mazmunini madaniy soha bilan chekladi. G'arb tarixiy adabiyotida ellin davri deb butun sharq dunyosining mil.avv. III-I asrlardagi siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy hayotini ellinlashuvi shakli va mazmunida tasavvur qilishga noilmiy talqin etishga urinish yaqqol seziladi. XX asrning 50-yillari boshlaridan ko'pchilik tarixchilar ellin davrini siyosiy-iqtisodiy va madaniy-mafkuraviy sohalarda mahalliy (Sharq) va ellin (G'arb) madaniyatining sintezi natijasida madaniy taraqqiyotning yangi bosqichi deb hisoblaydilar. Bu sintez qadimgi Sharqning ko'pgina hududlarini yunon-makedon bosqinlari oqibatida aniq tarixiy vaziyatda amalga oshdi degan tushuncha hukm suradi. Agar tarixga nazar tashlasak, o'zining 400 yillik tarixiga ega qadimgi yunon shaharlari ilm-fan va madaniyat sohasida nimani ham to'rt ming yillik sivilizatsiyaga ega bo'lgan sharqqa bera olar edilar? Yunon shaharlaridan faqat Afinada mil. avv. 6 asrning oxiri va 5 asrda madaniyat va san'atda ayrim yutuqlarga erishdi xolos. Bundan tashqari mil. avv. IV asrda yunon shaharlari chuqur tushkinlikni boshdan kechirirdilar va Makedoniya podshosi Filipp II tomonidan yunon shaharlari bosib olindi. Shu vaqtdan boshlab yunon shaharlari chuqur tushkinlikni boshidan kechirdi va turli davlatlar tarkibiga kirdi. G'arb tarixchilarining fikricha, Aleksandr yurishlari sharq va g'arbni yaqin aloqasini o'rnatishga sabab bo'ldi. Degan haqiqatdan uzoq bo'lgan g'oyani ilgari surdi. Haqiqatga esa, mil.avv. I ming yillikda dunyoda birinchi bor uch qit'ani birlashtirgan ulkan Ahmoniyar sulolasining 200 yildan ko'proq hukmdorligi davrida Sharq va G'arbning madaniy-iqtisodiy aloqalari va madaniyatlar muloqoti boshlangan edi. Aslida yunonlar sharq mamlakatlari tarixiy taraqqiyotiga yutuqlarni olib kirmadilar. Etnik jihatdan yunonlar juda kamchilikni tashkil etib (taxminan 600 000ga yaqin kishi), Bu aholining ko'pchiligi mil. avv. IV asrda boshlanib uzoq davom etgan yunon shaharlari o'rtasidagi urushlarda qurbon bo'ldi. Makedon podshohi Filipp I ning yunonlarga qarshi urushlarida ham ko'pgina yunonlar halok bo'ldi. Bundan tashqari mil. avv. IV asrda boshlangan

iqtisodiy tushkinlik yunonlarni ommaviy o'z yurtlarini tashlab ketishga majbur qildi. Shunday ekan bu davrni ellinizm davri emas. Ahmoniyar sulolasidan keyin Old Osiyoning taraqqiyoti deb nomlash haqiqatga yaqin bo'lar edi.

Lekin bir qism yunonlar sharq davlatlari hududlariga borib joylashgan bo'lsalarda, ular etnik jihatdan kam sonli bo'lib sharqning ulkan shahar va hududlarida ko'p sonli mahalliy aholi turmush tarzi, iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga va shuningdek madaniy-ma'naviy hayotiga sezilarli ta'sir o'tkaza olmas edilar.

XX asr boshlarida yashagan va sivilizatsiya nazariyasining asoschilaridan biri nemis faylasufi O. Shpengler sharq va g'arb sivilizatsiyalarini atroficha tadqiq etib shunday xulosaga kelgan edi: Qadimgi "Misrliklar o'z o'tmishlarini xotiralarida tosh va ierogliflarda mustahkam saqlab, biz bugun to'rt ming yil o'tishi bilan, biz ularning podshohlarini hukmronlik yillarini aniq belgilashimiz mumkin., ularning jasadlarini ham abadiylashtirdilar; shu sababli buyuk fir'avnlr – hayratomuz ulug'likning ramzlari – ajoyib saqlanib qolgan yuz tuzilishlari bilan endilikda bizning muzeylarda saqlanib qolgan, doriylar vaqtidagi podshohlardan esa hatto ismlari ham qolmadi" deb ta'kidlagan edi. Bir necha ming yillik madaniyatga ega bo'lgan Misr yunon-makedonlar kelgan paytda o'zining an'anaviy turmush tarzida hayot kechirar edi. Misr sivilizatsiyasi oz an'anasiga sodiq bo'lib, o'ziga xos o'z davriga mos mukammal davlat boshqaruvi, yuksak madaniyatni yaratib, bu madaniyatni ko'z qorachiqday asrab yashar edi. Yevropa olimlarining Aleksandr bosqinidan keyingi asrlarda Misr madaniyatida yunon madaniyatini izlash befoyda. Aksincha yunonlar Misrga kelib bu ulug'vor sivilizatsiyaning yutuqlarini o'zlashtirdilar. Asrlar davomida misr ibodatxonalari va fir'avnlr saroylarida saqlangan ilm-fan yutuqlari manbasi bo'lgan qo'lyozmalarni o'qib o'rgandilar va yunon tiliga tarjima qildilar. Yunon tiliga tarjima qilingan sharq qo'lyozmalari asosida qadimgi yunon yuzaga keldi. Yunonlarda aniq va tabiiy fan sohalarida aksariyat qadimgi sharqning fani asosida mil avv. IV asrdan boshlab yaratildi.

Misr, Bobil va O'rta Osiyoning ayrim hududlarida hokimiyat tepasiga kelgan yunon-makedon sulolalari va ularning atrofidagi yunon-makedonlar kam sonli bo'lganlari ucnun bu hududlardagi ming yillar davomida shakllangan davlat boshqaruvining mukammal siyosiy ustqurmasi va tizimiga hech qanday ta'sir o'tkaza olmadilar. Chunki makedonlarda bu sohada na bilim, na yetarli ko'nikma va malaka bor edi. Tez orada sulola sharqning mukammal davlat boshqaruvi tuzilmasi va tizimini o'zlashtirib oldi va bu tuzilma sulolaning uzoq yillar davomidagi hukm-

ronligini ta'minladi. Bosqinchilar mamlakat boshqaruvida minglab yillar davomida saqlanib qolgan an'anaviy, ma'muriy tizimni saqlab qoldilar. Faqat yuqori lavozimlarda turgan fors va Misr amaldorlarini o'rniga yunon-makedonlar o'tqazildi.

Dastlab Misrda sepatlarni podsho tayinlagan noiblar boshqardilar. Hukmron sulola Misr siyosiy-iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutgan diniy e'tiqod-ibodatxonalar va uning vakillari kohinlar qatlamini nufuzli mavqeini yo'qota olmadi. Lekin kohinlar va ibodatxonalar faoliyati davlat nazorati ostida bo'ldi.

Misrda hukmron sulola atrofidagi kam sonli yunon-makedonlar sharqning boy madaniy-ma'naviy an'alarini va Misr diniy e'tiqodini qabul qildilar. Makedon sulolasi mahalliy oqsuyak-zodagonlar bilan aralashib ketdi. Sulola sharqning asriy, hayot sinovlaridan o'tgan urf-odat va an'alarini o'zlashtirib oldi. Mil. avv. III-I asrlarda fan-madaniyat o'choqlari yunonistonda emas balki Old Osiyodagi Aleksandriya, Pergam va Antioxiya shaharlari bo'ldi. Chunki bu vaqtda yunon shahar davlatlari tushkinlikka uchrab madaniy-xo'jalik hayoti to'la izdan chiqqan edi. Bir qism yunonlar o'zaro urushlarda halok bo'ldilar, qolgan qismi o'zga yurtlarga ko'chib ketdi va Yunoniston huvillab qoldi.

Salavkiylar va Ptolemeylar hukmronligi davrida savodli va bilimli bo'lgan yunonlar Salavkiy va Ptolemey hukmdorlarning saroylariga to'plandilar. Ana shu yunonlar sharqda Misr, Bobil va boshqa madaniyat o'choqlari bo'lgan sharq shaharlarida necha ming yillar davomida to'plangan sharq madaniyati, ilm-fani, diniy e'tiqodiga oid qo'lyozma kitoblarni o'rgandilar. Yuz minglab sharq qo'lyozmalari yunon tiliga tarjima qilindi va yunonlar uchun bilim manbaiga aylandi. Misrda ilm-fan o'choqlari bo'lgan ibodatxonalarda asrlar davomida saqlangan qo'lyozmalar kohinlar tomonidan yunon tiliga tarjima qilindi. Barcha arab va fors tilli tarixchilar ma'lumotlariga ko'ra, Makedoniyalik Aleksandr Eronga talonchilik yurishi vaqtida otashparastlik diniy e'tiqodining muqaddas kitobi bo'lgan 12 ming teriga yoki 12 ming taxtachaga oltin harflar bilan yozilgan "Avesto"ning to'liq nusxasini yoqib yuborgani aytiladi. Avesto nafaqat diniy matnlardan iborat bo'lgan, balki bu kitob tabiiy fanlar, geografiya, dehqonchilik, tabobatga oid ulkan bilimlar to'plami bo'lgan. Manbalarda Aleksandr Avestoning ana shu qismlarini olib ketgani va keyin yunon tiliga tarjima qilingani aytiladi.

Misr va Mesopotamiyada faoliyat ko'rsatgan yunon olimlari oz sonli, bo'lib ular sharq madaniyati-ma'naviyatning ulkan yutuqlarini o'rgandilar. Misr, Bobil kohinlari sharqning ilm-fani erishgan yutuqlari aks etgan qo'lyozmalarni yunon tiliga tarjima qilishda yunonlarga yordam berdilar.

Yunonlar mil. avv. VIII asrda finikiya yozuvini o'zlashtirgan edilar. Finikiya yozuvi 400 yil davomida yunonlar tomonidan o'zlashtirildi va faqat mil. avv. IV asrda yunon yozuvini shakllanishi niyoyasiga yetib haqiqiy yunon yozuvi paydo bo'lgan edi. Aleksandriya museyonida to'plangan qo'lyozmalarning aksariyati mahalliy sharq tillarida yozilgan qo'lyozmalar edi. Ptolemeylar sulolasi Misrda qadimgi sharqning ibodatxonalari-da bir necha ming yillar davomida fan va madaniyatga oid ulkan qo'lyozmalarga duch keldilar. Misrdagi qadimiy qo'lyozmalar Aleksandriya shahridagi ilm-fan maskani Museyonga to'plandi va yunon tiliga tarjima qilindi. Shu tarzda sharqning ilm-fani asosida yunon olim va yozuvchilarining aniq, tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasidagi asarlari paydo bo'ldi. Eratosfen geografiyasi, Gippokratning tibbiyot asarlari va boshqa asarlar yunon tilida paydo bo'ldi. Yunon yozuvi sharqqa kirib kelishi yunonlarning yutug'i bo'ldi. Jez asrining gullab-yashnagan davrida tabiiy, texnik va ijtimoiy fanlarning ilk tizimi shakllana boshladi. Misrdagi Aleksandriya shahrida mil. avv. III asrda davlat hokimiyati rahnamoligi-da ilm -fan markazi tashkil etildi.

Poytaxt Aleksandriyada qadimgi Misrning hashamatli va ulug'vor ulkan inshootlari namunasida ibodatxona va saroylar bunyod etildi. Bu inshootlarda mahalliy Misr me'morchiligining an'analari aks etdi. Lekin yunonlar sharq me'morchiligining ulug'vor inshootlari qurilishida qo'llanilgan ulug'vorlik, hashamatlilik va g'oyaviy motivlarni o'zlashtira olmadilar. G'arb olimlari tadqiqotlarida mil. avv. III-I asrlarda sharq dunyosidagi davlat va jamiyat hayotini o'rganishda faqat har bir sohada yunon madaniyati, turmush tarzini izini qidirish bilan cheklanib qolish an'ana va asosiy tadqiqot muammosiga aylanib qoldi. Lekin qariyb 5 ming yillik tarixga ega bo'lgan sharq ilm-fani va madaniyatining yunon-rim madaniyati va fani taraqqiyoti uchun poydevor bo'lgani va o'zlashtirilgani to'g'risida hech narsa deyilmadi.

Old Osiyoda yunon makedon sulolalari hukmronlik davrida Old Osiyoda yunon makedon sulolalari hokimiyatni boshqaruvini qo'lga olgan bo'lsalarda, mahalliy madaniyat o'z an'ana va tamoyillaridan voz kechmadi, aksincha mahalliy madaniyatlarni rivojlanishi o'z yo'lida davom etdi. Mahalliy xalq uchun yunon madaniyati va turmush tarzi notanish edi. Yunonlar bir necha ming yillik ilm-fan va madaniyat sohibi bo'lgan mahalliy xalqqa biror bir ilm-fan yangiligini olmas edilar. XX asr boshlaridagi taniqli nemis faylasuf olimi O. Shpengler bu to'g'risida shunday ta'kidlaydi: "Aleksandriya poeziyasi ham, tasviriy san'atdagi plyuralizm ozgina darajada ham" xalqni " qiziqitirmaydi."Makedon sulolalari mahalliy aholiga nisbatan kamsitish siyosatini yuritdilar, ularni davlat bosh-

qaruvidan chetlashtirdilar. Oz sonli kelgindi yunon-makedonlar mahalliy aholidan ajralgan holda yopiq yashadilar.

Yunon shaharlari o'rtasidagi o'zaro urushlar makedoniyalik Aleksandrning sharqqa ekspeditsiyasidan keyin ham davom etdi. Natijada yunon shaharlarining tushkunligi permanent davom etib, ular hech qachon boshqa qayta uyg'onmadi. Mil. avv. II asrdan yunon shaharlari Rimning chekka provinsiyasidagi oddiy ko'rimsiz shaharlarga aylanib qoldi. Yunon madaniyati gullab yashnagan davr hisoblangan mil. avv. VI asrning oxiri V asrda ham yunon shaharlaridan faqat Afina shahrini fan-madaniyat o'chog'i deb ko'rsatish mumkin. Yunon hududida yunon yozuvi, tili, madaniyati, tarqalgan bo'lsada, yunon shaharlari o'rtasida hech qachon umum yunon birdamligi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy yaxlitlik ya'ni yagona yunon davlati shakllanmadi. Har bir shahar o'zining tor manfaatlari uchun boshqasi bilan ziddiyatli munosabatlarda bo'ldi. Shu sababli umum yunon xo'jaligi, madaniy-ma'naviy birligi, yagona davlatga birlashish tuyg'usi, ehtiyoji shakllanmadi. Aksincha mil. avv. VI asr o'rtalarida paydo bo'lgan qudratli Ahmoniylar davlati bilan ayrim yunon shahar-davlatlarini yaqinlashuvi yuz berdi. Sparta ahmoniylar yordami bilan kuchli davlatga aylandi. Kichik Osiyodagi yunon manzilgohlari xo'jalik hayotini, tashqi dunyo bilan savdo munosabatlarini barqarorligini va xavfsizligini ta'minlashda yagona tayanch va kafolatchi sifatida Ahmoniylar davlatiga ko'z tikdi. Qaysiki yunon shaharlarini birlashuvi uchun Yunoniston hududida til-madaniyat va turmush tarzini o'xshashligidan boshqa biror bir omil yo'q edi. Ahmoniylar davlati Kichik Osiyodagi yunon shaharlari va Bolqon yarim orolidagi ayrim yunon shaharlari bilan yaqin aloqada bo'lib, ularni tashqi savdo aloqalarini barqaror rivojlanishiga yordam berdi. Filipp II ning Yunoniston hududiga harbiy yurishi vaqtida ham ayrim yunon shaharlari va siyosiy arboblari Ahmoniylar davlati bilan hamkorlikdan voz kechmadilar. Filipp II yunon shaharlarini qaram qilgan vaqtda ham bir necha taniqli siyosiy arboblari Ahmoniylar saroyidan boshpana topdi. Garb tarixiy adabiyotida Yevropa markaz g'oyasi asosida hanuzgacha yunon shahar-davlatlari tarixini yoritishda xolisliqlikdan chekinish, o'sha davrdagi haqiqiy vaziyatni xolisona tahlil qilish ko'rinmadi. Yunon shahar-davlatlarining barchasi go'yoki Ahmoniylar davlati bilan ziddiyatli munosabatda bo'lgani uqtiriladi.

Ilk davlat va jamiyatda inson ulg'aydi, inson o'zining san'ati, va bilimlarni yaratdi. Bilimlar tizimi, bilimlar, etnik normalarni uzatishning rivojlangan tizimi, dunyo diniy e'tiqodlarini shakllanishi bilan yakunlandi. Birinchi uch bosqichda inson erishgan ma'naviy yutuqlar keyingi 1.5 ming yillikda erishgan natijalaridan bir necha marta oshib ketadi.

Ellin madaniyatining izlarini Oʻrta Osiyodagi va uzoq Hindistondagi madaniyatda izlash anʼanaga aylanib qoldi.. Nima uchun bu madaniyatni izlarini sharq madaniyatida izlash kerak? Aksincha insoniyat sivilizatsiyasining ilk poydevori qadimgi sharqda yunon-rim sivilizatsiyalaridan oldin yaratildi. Qadimgi sharq sivilizatsiyasidan uch ming yil keyin yunon rim sivilizatsiyasi vujudga keldi. Demak qadimgi sharqning koʻhna sivilizatsiyasining gʻarb sivilizatsiyasiga taʼsirini oʻrganish mantiqan toʻgʻri boʻlmaydimi? Lekin haqiqatga teskari holda yunon madaniyatini boshqa madaniyatlar uchun etalon sifatida koʻrsatishga urinish koʻrinadi.

Tarixga Yevropa markaz gʻoyasi asosida qarashdan voz kechish davri allaqachon yetib keldi. Sharq tarixidan ellin madaniyatining izlarini izlashga urinishning maqsadi nimada? Har qanday madaniyat mazmuni oʻzi tegishli boʻlgan millat, xalq va mamlakatga mos mazmun mohiyatga ega boʻladi. Ayniqsa qadimgi davr madaniyati bu ibtido boʻlib uning asoslari granit kabi mustahkam qattiq boʻlib, oʻz ijodkori boʻlgan xalqning dunyoqarashi, tafakkuri va turmush tarzi va hayotining mazmuni mohiyatini aks ettiradi. Oʻzligimizni anglash oʻz tarixini umuman oʻtmishni xolisona, ilmiy asosda oʻrganib tarixiy haqiqatni aniqlashdan boshlanadi. Tarixni oʻrganishda ilmiy haqiqat-rostgoʻylikka tayanish muhim oʻrin tutadi. Taniqli olim, jadidchilik namoyandasi A.Fitrat shunday taʼkidlaydilar: “Toʻgʻrilik xayrga boshlaydi, xayr esa jannatga olib boradi, har kim doimo roʻstgoʻylik qilsa, uning nomini Alloh oldida siddiq deb nomlashadi. Yolgʻon fisqqa boshlaydi, fisq esa jahannamga. Har kim doimo yolgʻon soʻzlasa, Alloh huzurida uning nomi kazzob-yolgʻonchi boʻladi, deyilgan Buxoriyning “Kitobul-adab” va Muslimning “Kitobul-barʼida”. asarlarda (Abdurauf Fitrat tanlangan asarlar. V jild ilmiy risolalar. Sidq. 153-bet. Toshkent Maʼnaviyat 2010). Tarixni oʻrganishda va bayon qilishda roʻstgoʻylik yuqorida ulugʻ alloma aytganlaridek tarixiy haqiqatni yuzaga chiqarishning asosiy tamoyili boʻlib xizmat qiladi. Shu sababli tarixni oʻrganuvchi uchun gʻarazli turli maqsad va vazifalarni oʻz oldiga qoʻygan chalgʻituvchi va ilmiy haqiqatni yashirishga xizmat qiladigan qarashlardan xoli holda tarixiy tadqiqotni amalga oshirishi zarur va shart boʻladi.

Tayanch iboralar: Maʼnaviy hayot, seysmologiya, Suqrot, Aflotun, Demokrit, Epikur, Pifagor, Evklid, Arximed, Gippokrat, Aristofan, traktat, primatika, Guptalar davri, eklektik sanʼat, Avesto, Bibliya, relʼef tasvirlar, fantastik syujetlar, ideatsial.

3. Qadimgi Rim sivilizatsiyasi. Qadimgi Rim davlati va jamiyati

2. Qadimgi Rim madaniyati

1. Qadimgi Rim davlati va jamiyati. Qadimgi Sharq sivilizatsiyalaridan keyinroq Oʻrtayer dengizining markazidagi Apennin yarim orolida joylashgan Italiyada mil. avv. I ming yillik boshlarida gʻarbing ilk sivilizatsiyasi oʻchogʻi Rim davlati va jamiyati rivojlandi. Qadimda Italiya hududida ilk davlat va jamiyatga mil. avv, XII asrda Kichik Osiyodan migratsiya qilgan etrusk etnosi asos solgan. Etrusklar mil. avv. 4-ming yillikda Oltoy hududidan Dajla va Frot oraligʻiga migratsiya qilgan turkiy xalq shumerlarning avlodi boʻlgan. Etrusklar mil. avv. XII asrda Apennin yarim oroliga koʻchganlar. Ular hozirgi Italiyaning Toshkent viloyatiga oʻrnashganlar. Qadimda bu hudud etrusklarning nomi bilan Etruriya deb atalgan. Etrusklar Apennin yarim orolida ilk davlat va jamiyatga asos soldilar.

Apennin yarim orolida volsk qadimda, sabin, osk, esk, tusk, sikul va latin urugʻ-qabilalar yashagan. Mil.avv. IX asrda urugʻ-jamoa munosabatlarini yemirilib, urugʻ aʼzolari oʻrtasida mulkiy tengsizlik paydo boʻldi. Urugʻning boyib ketgan kishilari patritsiylar va kambagʻal jamoachilar paydo boʻladi. Kambagʻal jamoachilar oʻzlarining boy urugʻdoshlari patritsiylarga qaram boʻladilar. Urugʻ jamoasidan tashqarida boshqa hududlardan kelganlar-plebeylar boʻlgan, ular Rim urugʻjamoasi tarkibiga kirmagan, lekin kambagʻal jamoachi kabi patritsiylarga qaram boʻlib uni homiyliги yaʼni himoyasiga oʻtganlar. Bunday toifa odamlar klient deb atalib, ularning homiylari boʻlgan patritsiylaga patron deb murojaat qilganlar.

Qadimgi Tibr daryosining oʻrta oqimidagi Latsiya viloyatida afsonaga koʻra rimliklarning birinchi podshosi Romul mil. avv. 753/54 yilda Rim shahriga asos solgan. Rim Tibrning janubiy qirgʻogʻida dengizdan 20 km uzoqlikda 7 tepalik ustida vujudga kelgan. Palatin tepaligidan Rim shahri boshlangan. Bu tepalikda shaharning ilk devorlari bunyod etilgan va zodagon va boy odamlar qoʻnim topganlar. Aventin tepaligida keyinchalik oddiy xalq oʻrnashgan. Bu tepalik pastida dehqonchilik homiylari boʻlgan maʼbudlarning ibodatxonalari qurilgan. Kapitoliy eng baland tepalik boʻlib, qadimdan shahar qalʼasi boʻlgan. Tepalikda Rim shahrining homiy maʼbudi Yupiterga bagʻishlangan bosh ibodatxona boʻlgan. Kvirinal, Viminal, Eskvilin va Seliy tepalıkları keyin oʻzlashtiriladi.

Podsho. Rim shahrini xalq umrbod muddatga saylagan podsho boshqargan. Rim shahri podshosi lashkarboshi, sudya, va kohin vazifalarini bajargan. Podsho oltin toj, tilla iplar bilan tikilgan zarbof kiyim, poshna-

si baland zarbof etik kiygan; qo'lida burgut tasviri tushirilgan podsholik asosini ushlagan Podshoni doimo qo'lida bolta va qamchi ushlagan tansoqchi-liktorlar hamrohlik qilgan. Podsho fil suyagidan ishlangan taxtda o'tirib sudyalik qilgan. Podshoning hokimiyati imperiy (lotin tilda – oliy hokimiyat) deb atalgan. Podsho hokimiyatining ramzlari-boltalar, chiviqlar o'rami, taxt, tansoqchilar etrusklardan o'zlashtirib olingan. Rim podshosining hokimiyati cheklangan bo'lib, u o'z xoxishi bilan voris tayinlay olmas, yangi podshoni xalq saylagan. Podsho bevaqt vafot etganda oqsoqollar kengashi-senatning a'zolaridan biri vaqtinchalik podsho (interreces – intereval so'zidan-oraliq) etib saylangan.

Senat. Qadimgi Rimda oqsoqolllar kengashi-senat deb atalgan. Senatning a'zolari umrbod muddatga saylangan va katta obro'ga ega bo'lgan. Boshda uning 100 a'zosi bo'lgan, keyinchalik 300 taga yetkazilgan. Podsho o'z faoliyatini Rimning eng obro'li patritsiy urug'ining vakillari bo'lgan 100 keyin 300 a'zosi bo'lgan oqsoqollar kengashi – senatning qarorlari asosida amalga oshirgan. Keyinchalik senat Rim davlatining oliy davlat hokimiyati organiga aylanadi.

Xalq yig'ini. Podsho xalq yig'inida Rimning barcha fuqarolari uchun muhim bo'lgan muhim qarorlarini tasdiqlash uchun xalq yig'inini chaqirgan. Xalq yig'ini urush e'lon qilish, sulh yoki tinchlik shartnomasini tuzishga ovoz bergan. Xalq yig'ini yangi podshoni saylagan va unga hokimiyat-imperiyni berish to'g'risidagi qonunni qabul qilgan. Xalqning bu qarorini senat tasdiqlagan. Xalq yig'ini a'zolari bir vaqtini o'zida askarlar ham edilar. Ular xalq yig'iniga ham qurollangan holda kelganlar.

Shaharning tub joy aholisi patritsiylar barcha huquqlarga ega bo'lgan hukmron tabaqa bo'lgan. Boshqa hududlardan ko'chib kelgan kishilar patritsiylar urug'iga yaqinlashtirilmagan ular plebeylar deb atalgan. Plebeylar soliqlarni to'laganlar, armiyaga xizmat qilganlar, lekin yerga ega bo'lmaganlar. Rim shahri asta-sekin rivojlanib kuchli shahar -davlatga aylangan. Rim shahriga etrusklar sulolasi podsholari hukmronlik qilgan. Podsholik davri mil. avv. 509 yilgacha davom etgan. Rim xalqi podshoning o'zboshimcha faoliyatidan norozi bo'lib mil. avv. 509 yilda so'ngi Rim podshosi Tarkviniiy mag'rurni taxtdan tushirdi.

Senat mil. avv. 509 yilda kimdir hokimiyatni bosib olmasligi uchun bir oliy mansabdor o'rniga davlatni boshqarish uchun ikki oliy mansabdor- konsulni bir yil muddatga senturiy komitsiya (yigin)larida saylab qo'yadigan bo'ldi. Keyinchalik konsullardan biri plebeylardan bo'lishi shart edi. Konsullarning har biri to'la hokimiyatga ega edi, lekin faqat ikki konsul bamaslahat qabul qiladigan qarorgina qonun tusini olgan. Plebeylar huquqi xalq tribunlari tomonidan himoya qilingan.

Shu vaqtdan boshlab Rimda respublika boshqaruv tizimiga o'tildi. Respublika Rimda tuzumi 500 yil yashadi.

Bu davrda Apennin yarim orolida o'ndan ortiq etnos yashar edi. Rim shahar davlati Apennin yarim orolida bu etnoslar bilan 200 yil davomida urush olib borib mil avv. III asrda Apennin yarim orolini to'la o'ziga bo'ysundirdi. Rim shahar davlatdan hududiy davlatga aylandi. Mil. avv. III-II asrlarda Rim davlati G'arbiy va sharqiy O'rta Yer dengizida hukmronlik uchun kurash olib bordi va Rim O'rta Yer dengizi havzasidagi eng qudratli davlatga aylandi.

Rim iqtisodiyotining asosi dehqonchilik bo'lib, yer egaligi ko'p sonli dehqon xo'jaligi va katta yer egaligiga asoslangan. Qishloqda 25-100 ga yerga ega, o'nlab qullar ishlaydigan o'rta quldorlik xo'jaligi - villa paydo bo'ldi. Mil. avv. II asrda qul mehnatiga asoslangan yirik quldorlik xo'jaliklari - latifundiyalar mamlakat iqtisodiyotida yetakchi o'rinni egalilar edi. Latifundiyalar Rim patriksiyasi - zodagonlariga tegishli edi. Dehqonchilikni rivojlantirish uchun agronomiyaga bag'ishlangan asarlar paydo bo'ldi. Mil. avv. II asrda Rimlik Katon kattaning "Agrokultura to'grisida nomli kitobi mashhur bo'ldi. Savdo-hunarmandchilik rivojlanib, yer va boshqa mulkni ijaraga berish, sudxo'rlik rivojlandi. Qishloq xo'jaligi va hunarmandchilikda qul mehnatidan foydalanish keng tarqaldi. Mil. avv. I asrda mamlakat hududida 13 mln qul bor edi. Qullarning asosiy qismi dehqonchilik va xo'jalikning boshqa sohalarida band edi. Ana shu tarzda qul ishlab chiqarishda yetakchi ishchi kuchiga aylandi.

Mil. avv. I asr o'rtalaridan Rim respublikasini iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy tushkinlik qamrab oldi. Mil. avv. 82 yilda lashkarboshi Lutsiy Korneliy Sulla o'z hokimiyatini o'rnatib, o'zini no'malum muddatga diktator deb e'lon qildi va mamlakatda tartib o'rnatdi, ya'ni hukmron tabaqaning an'anaviy hokimiyatini qayta tikladi. Mil. avv. 79 yilda Sulla hokimiyatdan voz kechdi. Rim fuqarolar urushi girdobida qoldi. Faqat mil. avv. 31 yilda hokimiyat uchun kurashda Oktavian g'olib chiqdi va mil. avv. 27 yilda imperator deb e'lon qilindi. Shu vaqtdan boshlab Rimda imperiya davri boshlandi.

Rim qudratining asosi u olib borgan istilochilik urushlariga borib taqaladi. Rim shahar davlati mil. avv. V asrdan boshlab istilochilik urushlarini olib bordi. Mil. avv. V - III asrlarda Apennin yarim orolini bosib oldi. Mil. avv. III-II asrlarda O'rta Yer dengizi havzasi ustidan o'z hukmronligini o'rnatdi. Markaziy va G'arbiy Yevropa, Britan orollarining bir qismi Rim ixtiyoriga o'tdi. Uzoq yillar, asrlar davomida Rim davlati olib borgan istilochilik urushlari natijasida Rim qudratli davlatga aylandi.

Sharqda Parfiya, Kushon davlatlari kabi Rim davlati milodiy I-II

asrlarda g'arbda qudratli davlatga aylandi. Milodiy III asrdan boshlab Rim davlati zaiflasha boshladi. Rimning g'olibona istilochilik urushlari mil. avv. beshinchi asrdan milodiy ikkinchi asrgacha davom etdi. Istilochilik urushlari davomida Rimga ulkan o'ljalar, oltin-kumush va boshqa moddiy resurslar oqib keldi. Yuzlab mamlakatlar va xalqlar ayovsiz talandi, aholisi qirib tashlandi, tirik qolganlari asirga olinib qul qilib sotib yuborildi. Ana shu mablag'lar hisobidan Rim shahrida hashamatli saroylar, jamoa inshootlari qurildi. Rim fuqarolari, Rim davlati o'zgaralar hisobidan hashamatli va farovon hayot kechirdi. Bir qism bosib olingan o'ljalar hisobidan Rim plebsiga bir necha oylarga cho'zilib ketadigan ziyofatlar, tekin tomosha-sayllar-bayramlar, gladiatorlar o'yinlari o'tkazilar edi. Hukmron tabaqa oddiy xalq bosh ko'tarmasligi uchun "tekin non va tomosha" bilan uning ko'nglini olishga harakat qildi. Lekin Rimning o'zgaralar hisobiga yashashi milodiy II asrga kelib to'xtadi. Moddiy resurslar tugadi, armiyaning jangovar qobiliyati zaiflashdi. Qaram qilingan hududlar Rimga qarshi ozodlik harakatini kuchaytirdilar. Rim davlati va jamiyati istilochilik urushlari natijasida inqirozga yuz tutdi.

Mil. avv. 395 yilda Rim imperiyasi ikkiga Sharqiy (Vizantiya), G'arbiy bo'linib ketdi. G'arbiy Rim imperiyasi 476 yilda halokatga yuz tutdi.

2. Qadimgi Rim madaniyati. XX asrda yashagan nemis faylasufi va olimi O.Shpengler qadimgi Rim davlati va jamiyati taraqqiyotini sinchiklab o'rganib qadimgi rimliklar to'g'risida shunday yozgan edi "Hech qanday falsafa va san'atga ega bo'lmagan, beparvo, hayvoniy instinkt bilan, faqat moddiy yutuq orqasidan quvadigan rimliklar ellin madaniyati va hech nima o'rtasidagi chegarada turadilar." Шпенглер О. Закар Европы стр 42. ОСР. 2007

Qadimgi Rim madaniyati o'z taraqqiyotida bir necha bosqichlarni bosib o'tdi. Rim Italiya, Yunoniston va Sharq mamlakatlarining madaniy yutuqlarini o'zlashtirib oldi. Rim madaniyati asta-sekin shakllandi va nihoyasida yuqori darajada rivojlangan madaniy-ma'naviy yutuqlarni o'zida aks ettirdi. Respublika davridagi Rim madaniyati imperiya davri Rim madaniyatining asosi bo'ldi. Rim imperiyasining madaniy markazlari Rim, Iskandariya, Pergam, Rodos va Massiliya shaharlari edi. Bu shaharlarda kutubxonalar, teatr-amfiteatr, termalar va maktablar mavjud edi. Har bir shaharning o'zining madaniy muhiti bo'lib, Mamlakatdagi barcha shaharlar Rim shahri madaniy inshootlariga taqlid qilib, hashamli jamoa inshootlarini barpo qilganlar.

1. Diniy e'tiqod. Rimliklarning an'anaviy e'tiqodida totemizm, fetishizm va animizmning qoldiqlari mavjud edi. Rim e'tiqodi diniy qonun-qoidalariga rasman rioya qilish bilan cheklangan bo'lib, chuqur

diniy his-tuyg'udan mutloq mahrum edi. Kohinlar odamlar va xudolar o'rtasidagi vositachi rolni o'ynar edilar.

Rim dinida urug' va oila e'tiqodlari muhim o'rin tutar edi. Har bir uyda oila e'tiqodining markazi o'choq, oilaning bosh otasi kohin edi. Har bir kishida o'zining ruhiy homiysi bo'lib, u erkaklarda geniy, ayollarda yunona edi. Rimliklarning e'tiqodiga ko'ra, vafot etgan ajdodlar xudo-homiylarga aylanan edilar.

Rimda har biri qandaydir bir aniq funksiyani bajaradigan kichik xudolar juda ko'p edi. Misol uchun, xudo Forkul uy eshigi qo'riqchisi, Liment ostona, Kardiya eshik zulfinlarining qo'riqchisi edi. Lekin asosiy e'tiqod qilinadigan qudratli xudolar alohida o'rin tutar edi. Ularning orasida eng birinchisi chaqmoq xudosi Yupiter bo'lib, uning ibodatxonasi Kapitoliyda Tarkviniy Mag'rur davrida qurilgan edi. Uning xotini Yunona nikoh va onalik hamda ayollar homiysi edi. Ularning qizi Minerva-hunar, san'at va urushlar ma'budasi; Vesta-fuqarolik jamoasi homiysi va uy o'chog'i ma'budasi; Mars-urush xudosi; Yanus-o'tmish va kelajak, kirish va chiqish, boshlanish va tugallanish, ikkiyuzlamachilik xudosi; Venera-sevgi va hosildorlik ma'budasi; Serera-ekinlar va hosil ma'budasi; Neptun-dengiz xudosi; Merkuriy-savdo va o'g'rilar homiysi; Vulkan-temirchilar xudosi; Pluton-narigi dunyo zulmat xudosi; Baxus-vinochilik xudosi; Diana-oy va ovchilik xudosi; Silvana-o'rmon xudosi va boshqalar. Rimliklar biror bir muhim ishni boshlashdan oldin bu ish to'g'risida xudolar irodasini bilmasdan bu ishni boshlamaganlar. Shu sababli avgurlar (kohinlar) qushlarning uchishi va o'zini tutishi, qurbonlikka keltirilgan hayvonlarni ichki organlari (ayniqsa jigari)ga, yashin chaqnashiga qarab, xudolarning irodasini o'qiganlar. Har bir toifa ma'lum bir mabudga e'tiqod qilgan (suvoriylar – otliq Neptun va Dios-nuraga, plebeylar Sestsera, liber, liberaga), alohida kasblar (savdogarlar-Merkuriyga, hunarmandlar, yozuvchilar, o'qituvchilar – Minerva)ga sig'inganlar. Har bir familiya-oila o'z homiy xudosisiga ega bo'lgan.

Rim e'tiqodining shakllanishiga o'z vaqtida etrusk e'tiqodi o'z ta'sirini o'tkazdi. Rimliklar etrusklarning Yunona, Minerva, Vulkan kabi ilohlarini o'zlashtirib oldilar. Mil.avv. III-I asrlarda Italiyaga sharqdan Serapis, Isida, Mitra va boshqa diniy e'tiqodlar kirib keldi. Etrusklardan hayvonlarning ichki a'zolariga qarab fol ochish o'zlashtirib olindi. Pompeyning sharq yurishlari bilan Mitraga sig'inish Rim shahri, Britaniya va Dunay bo'ylarida tarqaldi. Mitraga sig'inuvchilar kohinlar boshchiligida jamoalar tuzdilar. G'orlar va yer osti galereyalarida Mitraga sajda qilib, uning marosimlari o'tkazildi. Mitraga qurbonlik qilinadigan bunday inshootlar Mitreum deb atalib, ular butun imperiya bo'yicha tarqalgan.

Mitraga sig‘inish III asrning II yarmida imperatorlar Diokletian va Maksimian davrida keng tarqaldi. Imperator Maksimian harbiy yurishlari vaqtida Mitraga davlat homiysi deb hurmat bajo keltirdi.

Rim jamiyatining mafkuraviy tushkunligini ifodasi sifatida nasroniylik e‘tiqodi milodiy I asrida Falastin hududida paydo bo‘ldi va II asrdan imperiyaning barcha hududlariga tez tarqala boshladi. Eski diniy e‘tiqodlar, ma‘bud va ma‘budalar, ularning marosimlari jamiyatning ma‘naviy ehtiyojini qondirmadi. Nasroniylik shu tarzda kirib keldi. Yangi e‘tiqod dastlab kambag‘allar va qullar orasida tarqaldi. Uning rasm-rusumlari sodda, tenglik va u dunyoga ishonch bilan odamlarni o‘ziga jalb qilardi. Rasmiy hokimiyat nasroniylarga shubha bilan qarab, ularni ta‘qib qildi. II asrdan nasroniylik aholining turli qatlamlari orasida jadal tarqaldi. Bu e‘tiqodning kuchli tashkiloti shakllandi. Hukmron tabaqa asta-sekin yangi e‘tiqodni davlat hokimiyatiga foydasini tushunib yetdi va uni rasmiy din sifatida e‘tirof etdi. Imperator Konstantin 313-yilda o‘zining Milan edikti (qonuni) bilan nasroniylik diniga e‘tiqod qilishga ruxsat berdi. Konstantin 330-yilda nasroniylikni qabul qildi. Imperator Feodosiy 381-yilda nasroniylikni davlat dini deb e‘lon qildi.

Davlat hokimiyati diniy e‘tiqodga katta e‘tibor berdi. Rim koinlari davlat xizmatchilari hisoblansada, lekin hech qachon qadimgi Sharqdagidek alohida toifaga birlashmagan edilar. Rimda koinlar bir necha kollegiyalarga birlashgan edilar. Koinlar elitasi oliy pontifik (barcha ilohiy va insoniy ishlar sudyasi), pontifiklar kollegiyasining bevosita rahbari va uch bosh flamin (ular Yupiter, Mars va Kvelin e‘tiqodlarini boshqarganlar)dan iborat edi. Pontifiklar dastlab 6 ta bo‘lib, Sezar davrida 16 taga yetdi. Pontifiklar diniy marosimlarning qat‘iy bajarilishini nazorat qilardi edilar. Oliy pontifik taqvim tuzib, diniy bayramlarni o‘tkazilishiga mas‘ul edi. Unga 15 flamin bo‘ysunib, flaminlar alohida xudolarga qurbonlik keltirardi edilar. Avgurlar fol ochish bilan shug‘ullanardi edilar. Rim diniy kalendarida 70 ga yaqin diniy bayramlar mavjud edi. Bu bayramlar mo‘l-ko‘l qurbonlik keltirish, marosimlar va quvnoq tomosha - bazmlar bilan tantanali o‘tkazildi edi. Respublikaning oxirida bayramlar bir yilda 115 kunning tashkili qildi. Rim fuqarosi diniy marosimlarda ishtirok etishi majbur edi.

Vesta ibodatxonasi koinalari. Vesta qadimgi Rimda fuqarolik jamoasi va uy o‘chog‘i homiysi bo‘lgan ma‘buda Vesta ibodatxonasi koinalari alohida mavqega ega bo‘lganlar. Vesta ibodatxonasida xizmat qiladigan koinalar 6-10 yoshdan erkin fuqaro oilasida tugilgan 6-10 yoshli va hech qanday jismoniy nuqsoni bo‘lmagan qizlardan tanlab olingan.

Kelajakda Vesta ibodatxonasiga xizmatga kirgan qiz 10 yil katta kohinalardan saboq olib, o'zini oliy xizmatga tayyorlagan. Keyingi 10 yilda u ibodatxonada kohina bo'lib xizmat qilgan va turmushga chiqmay ma'budaning mehrobida olovni saqlab turishga xizmat qilgan. Keyingi 10 yilda kohina yangi kelgan qizlarga saboq bergan. Kohina 30 yildan keyin Vesta ibodatxonasida xizmatni tugatgandan so'ng oila qurish huquqiga ega bo'lgan. Lekin 36-40 yoshga kirib, so'lib qolgan qariqiz kamdan kam holda o'ziga turmush o'rtogini topolgan. Shu sababli Vesta ibodatxonasi kohinalarini turmush qurishi juda siyrak bo'lgan. Lekin bu kohinalarning ijtimoiy mavqei juda yuqori bo'lgan. Kohinani yo'lda tasodifan uchratgan konsul ham unga yo'l bo'shatgan. Kohinaga duch kelgan jinoyatchi qatldan ozod etilgan. Kohinaga oliy davlat sirlari, vasiyatnomalarni saqlash ishonib topshirilgan. Kohinaning guvohligi qasamyodsiz qabul qilingan. . Katta lavozimdagi davlat amaldorlari kohinalarning homiyiligini olishga intilganlar. Kohinani haqorat qilgan kishi o'lim jazosiga hukm qilingan. Kohinalar o'z mulk senzlarining to'la egasi bo'lganlar, ular teatrlarda eng faxrli o'rinlarga o'tirganlar. O'z aravalarida yurganlar, piyoda yurganlarida liktor yo'lni boshatib yurgan. Lekin Vesta ibodatxonasi kohinalari ko'rsatilgan bunday faxrli hurmat uchun ibodatxonada katta mas'uliyat bilan xizmat qilganlar. Lekin vestalkalar tegishli qoidalarni buzganlarida shafqatsiz jazolanganlar. Agar mehrobda olov o'chib qolsa, aybdor kohina bosh kohin tomonidan shafqatsiz savalangan. Turmushga chiqmaslik ahдини buzgan vestalka qat'iy jazoga tortilgan. Bunga aybdor bo'lgan kishini qamchi bilan o'lguncha savalaganlar. Kohinani esa sochlarini kesib, tiriklayin o'raga ko'mganlar, bu o'rada u ochlik bilan o'limga yuz tutgan. Bu marosim tantanali amalga oshirilgan.

2. Huquq. Rim huquqi antik sivilizatsiyaning eng katta yutuqlaridan bo'lib, asrdan-asrga yuridik tafakkurning klassik namunasi bo'ldi. Rim huquqining manbalarini odatdagi huquq, senat qabul qiladigan qonunlar, magistrantlarning ediktleri va yuristlarning faoliyati tashkil qilar edi. Rim tarixida huquqiy normalarni kodifikatsiya qilish natijasida mil. avv. IV asrda XII qonunlar jadvalining yaratilishi bo'ldi. Mil.avv. 366-yilda xususiy kishilar o'rtasidagi huquqiy qarama-qarshiliklarni tartibga solish uchun Rimda shahar pretori lavozimi joriy etildi. Pretorlarning yuridik amaliyotidan fuqarolik prosessual huquqi paydo bo'ldi. Kvint Musey Stsevola (mil.avv. 159-83 yillar) o'zining "Sivil huquqi" asarida O'n ikki jadval qonunlarini sharhlash bilan birga vasiyatlardan boshlanib va jayrayon bilan tugaydigan Rim huquqining to'la tizimini yaratdi. Mashhur huquqshunos Kvint Servidey Stsevola mil. II asr oxiri- III asr boshlarida

40 kitobdan iborat “Digest”, “Javoblar” nomli 6 kitob, “ Savollar” nomi bilan 20 kitob tuzdi.

I-III asrlar Rim huquqi tarixi davrida klassik davr hisoblanadi. Rim imperiyasida 212-yilgacha huquq va sud amaliyotini ikki shakli: kvirit (Rim) huquqi va xalqlar huquqi mavjud edi. Bundan tashqari, ba’zi provin-siyalarda mahalliy huquqiy tizimlar va Rim noiblarining ediktleri amal qilar edi. Imperator Adrianning abadiy ediktini e’lon qilinishi imperiya hududida yagona huquqiy kenglikni yaratish yo’lidagi muhim qadam bo’ldi. II asrning ikkinchi yarmida Gay 4 jilddan iborat huquq darsligi (institutsiyalar) to’plamini tayyorladi. II asr oxiri III asrning boshlarida mashhur huquqshunoslar Emiliy Papiyan, Domisiy Ulpian va Yuliy Pavel faoliyat ko’rsatdilar. 429-438-yillar imperator Feodosiy II buyrug’i bilan “Feodosiy kodeksi” nomi bilan imperator qonunlari to’plami tayyorlandi. 529-yilda “Yustinian kodeksi”, 533-yilda “Digetslar”-Rim huquqshunoslarining asarlaridan olingan ma’lumotlar to’plami 50 jildda e’lon qilindi.

Notiqlik san’ati. Qadimgi davrda Rimda notiqlik maktablari mashhur bo’lib, 15-16 yoshli qobiliyatli o’quvchilar notiqlik san’atini o’zlashtirganlar. Bizgacha mashhur siyosat arbobi va notig’i Sitseronning notiqlik san’ati to’grisidagi bir necha asarlari va nutqlari, Dion Xri-zotomning 78 nutqi, Eliy Aristidning 55 nutqi yetib kelgan.

Notiqlik san’ati fanlar orasida eng obro’li fan hisoblangan. 16 yoshdan o’smirlar notiqlik san’ati bo’yicha notiq -o’qituvchilardan saboq olganlar. Ritor nutq so’zlash sir-sinoati bilan o’quvchilarni tanishtirgan. Oquvchilar nutqlarni tuzish va va o’ziga xos, hafis nutq so’zlashga o’rgatilgan. Notiqlik san’ati darslari taniqli huquqshunosning Rim huquqidan mashg’ulotlari bilan to’ldirilgan. Imperiya davrida o’qituvchilar, ayniqsa notiq-ritorlar professor deb aytilgan. Rimlik notiqlik o’qituvchisi Kvin-tilian (milodiy I asr) birinchi professor bo’lgan. Milodiy 68-yildan davla hokimiyati huquqshunos o’qituvchi va notiqarga ish haqi to’lagan. O’rta asrlarda professor unvoni universitet o’qituvchilari-doktor, va magistr-larga oliy malaka unvoni bo’lib o’tdi. Kvintilin “Notiqni o’qitish” nomli 12 jildli notiqlik nazariyasi to’plamini, Sitseron notiqlik san’ati nazariyasi va amaliyoti bo’yicha qator asarlarni yaratdilar.

Eng kuchli notiq va notiqlik san’ati o’qituvchisi Libaniy (314-391 yillar) edi. U Antioxiyada vaqti bilan imperatorlar, lashkarboshilar va oliy amaldorlarga qarata ijtimoiy dolzarb muammolar yuzasidan erkin nutqlar bilan murojaat qilgan. Ma’jusiyinga e’tiqod qilgan Libaniy imperator Yulianing ashaddiy muxlisi bo’lib, Yulian ham unga homiylik qiladi. O’sha davrdagi Rim notiqalaridan IV asr oxirlarida oliy davlat mansablarini egallagan Kvint Avremiy Simmaxni aytish mumkin. Imperiya davrida

siyosiy notiqdarga o‘rin qolmagani uchun notiqlik maktablari faxrli va daromadli kasb bo‘lgan advokatlarni tayyorladi. IV asr ritorika-notiqlikning yangidan gullab-yashnagan davri bo‘ldi. O‘rtayer dengizining notiqlik maktablarida bo‘lg‘usi oliy amaldorlar va xristian targ‘ibotchilari tarbiyalandi. Bu davrda Afinada Gimeriy, Konstantinopolda Femistiy kabi mashhur ritorlar dars berdilar.

3. Adabiyot. Rim adabiyotining shakllanishi va taraqqiyotida xalq og‘zaki ijodi va yunon adabiy an‘analari muhim o‘rin tutadi. Rim adabiyoti tarixi mil.avv. III asr o‘rtalarida yunon janrlariga taqlid qilish bilan boshlandi. Tarentlik ozod qo‘yilgan qul, yunon Liviy Andronik (mil.avv. 280-204-yillar) birinchi latin muallifi edi. U Gomerining “Odissey”ni latin tiliga tarjima qildi. Shuningdek, u yunon dramalarini erkin tarjima qilish va badiiy qayta ishlash bilan shug‘ullandi. Liviy Andronikdan Rim badiiy adabiyoti boshlanadi. Andronik Rim patrisiylarining bolalari uchun maktab ochib, yunon tili va adabiyotini o‘qitishni boshladi.

Andronikning zamondoshlari shoirlar Neviy va Enniy edi. Giney Neviy (mil.avv. 201-yilda vafot qilgan) Rim syujetlariga asoslangan birinchi tradegiyalarni yaratdi. Yunon mualliflari syujetlaridan o‘zlashtirib, dramalar yozdi. Neviy I Puni urushi to‘g‘risida 7 jildda epik poema yaratdi. Kvint Enniy (mil.avv. 239-169-yillar) Rim tarixiga bag‘ishlangan “Annallar” epik poemasini 18 jildda yozdi. Bu shoirdan 1100 dan ortiq she‘rlar meros qoldi.

Tit Maksetsiy Plavt (mil.avv. 250-184-yillar) birinchi Rim komediografi bo‘lib, uning 130 komediyasidan 21 tasi saqlanib qolgan. Ikkinchi buyuk Rim komediografi afrikalik Publiy Terensiy (mil.avv. 185-159-yillar) bo‘lib, uning pyesalaridan 6 tasi bizgacha yetib kelgan.

Rimda tradegiya keng tarqalmadi. Rim tragiklari Mark Pakui (mil. avv. 220-130-yillar) va Lusiy Aksiy (mil.avv. 170-90-yillar) o‘z tragediyalarini yaratish uchun buyuk yunon dramaturglarining asarlaridan foydalandilar. Rimda keng tarqalgan adabiy janr satira (she‘r, masal, latifa va dialoglar aralashmasi) edi. Vaqt o‘tishi bilan u bizga yaxshi tanish bo‘lgan satiraga aylandi. Birinchi Rim satirigi Gay Lusiliy (mil. avv. 180-102-yillar) 30 kitobdan iborat satiralar to‘plamini yaratdi. Latin prozasining ilk namunalaridan biri Mark Porsiy Katon Kattaning (mil. avv. 234-249-yillar) “Dehqonchilik to‘g‘risida” nomli asari edi. Uning 7 jildli Rimning qadimgi davrlaridan II puni urushigacha bo‘lgan tarixi yoritilgan kitobi, tibbiyot bo‘yicha traktatlari, notiqlik san‘atiga bag‘ishlangan asarlari, 150 nutqlari bizgacha yetib kelmagan. So‘nggi respublika davrining latin poeziyasi Tit Lukretsiy Kar (mil.avv. 95-51-yillar) va Gay Valeriy Katull (mil.avv. 87-54-yillar) kabi taniqli vakillari bilan mashhur.

“Narsalarni tabiati to‘g‘risida” nomli 6 jildli falsafiy poema Lukretsiyga tegishli. Katull mashhur Rim lirik shoiri bo‘lib, u 116 she‘rdan iborat to‘plam qoldirgan.

Lotin madaniyatining mashhur vakillari Mark Terensiy Varron (mil. avv. 116-27-yillar) va Mark Tulliy Sitseron (mil.avv. 106-43-yillar) adabiyot sohasida muhim iz qoldirdilar. Varron 620 jildda 74 asar muallifi bo‘lgan ensiklopedist yozuvchi edi. Uning asosiy asarlari “Qadimiyatlar” (41 jild) va “Latin tili to‘g‘risida” (25 jild) kitob edi. Sitseron qadimda notiqlik san‘atining nazariyotchisi va amaliyotchisi, davlat arbobi, huquqshunos va advokat, faylasuf va filolog-tarjimon, adabiy tanqidchi va san‘atshunos edi. Sitseronning 58 siyosiy va sud sohasidagi nutqlari, 12 ta falsafiy to‘plami, notiqlik san‘ati bo‘yicha 7 traktati, 800 xatlari, ko‘pgina nutqlari va poetik asarlari ma‘lum. Bizgacha Sitseronning sudda so‘zlagan 70 nutqlari va siyosiy nutqlari, do‘stlari va yaqinlariga yozgan 37 xati hamda notiqlik san‘ati va falsafadan yozgan traktatlari yetib kelgan.

Oktavian (mil. avv. 30- milodiy 14 yillar) davri lotin poeziyasining “oltin asri” hisoblanadi. Bu davrda shoirlar Publiy Vergiliy Maron (mil. avv. 79-19-yillar), Kvint Goratsiy Flakk (mil.avv. 65-8-yillar) Publiy Ovidiy Nazon (mil.avv. 49-yil-Milodiy18-yillari) yashab ijod qildilar. Vergiliy dehqonlar mehnatiga bag‘ishlab 14 jildli didaktik poema, 12 jildli “Eneida” poemasi va “Bukolika” she‘riy to‘plamini yaratdi.

Goratsiy imperator kotibi lavozimini rad etdi. U shoir sifatida erkinlik va mustaqillikni afzal ko‘rdi. Harbiy tribun unvoniga sazovor bo‘ldi. Kvestor kotibi lavozimida ishlab tirikchilik qildi. Goratsiy o‘z ijodini satira va munozara janrida boshladi (Epodlar, 2 jildda satiralar). Keyin esa, 4 jildli “Odalar”, “Maktublar” kitobini, 5 jildli elegiyalar, parodiya-didaktik janrda “Sevgi fani”, “Sevgi da‘vosi” asarlari, 15 jildli “G‘amgin elegiyalar”, 4 jildli “Pontdan maktublar” asarlarini yozdi. Publiy Ovidiy Nazon (mil.avv. 43-yil-Milodiy 17-yili) mifologik syujetlarga murojaat qildi. Uning asosiy asarlari “Fastlar”, “Metamorfozalar”, “Pontdan maktublar”. Qobiliyatli lirik shoirlar Albiy Tibull (mil.avv. 50-yil-Milodiy19-yili) va Sekst Propersiy (mil.avv. 49-15-yillar) elegiyalar yozdilar. Tibull Rim suvoriysining o‘g‘li edi. Tibull o‘zidan elegiyalarning ikki to‘plamini, Propersiy bir to‘plamini qoldirdi. Imperator Oktavianning o‘zi proza va she‘riyatda asarlar yozdi.

Satirik janrda Kichik Seneka (mil.avv. 4-yil-milodiy 65-yillari) va Petroniy Arbitr mashhur edilar. Petroniyning mashhur romani “Satirikon” bo‘lib, uning 20 bobidan 3 bobi bizgacha yetib kelgan. Persiy Flakk (34-62-yillar), Mark Valeriy Marsial (40-102-yillar), Detsiy Yuney Yuvonal (60-127-yillar) hamda Lukian (120-190-yillar) satira janrida ajoyib asarlar yaratdilar.

Apuliyning “Oltin eshak”, “Afnis va Xloya”; Geliodorning “Efi-opika” asarlari sarguzasht roman janrida mansub. Bu davrda dramatik janr to‘la tushkunlikka uchradi. Undan faqat pantomima, atellan va mim shakllari qoldi. Bizgacha yunon klassik obrazlariga taqlid qilib yozilgan Senekaning 10 tragediyasi yetib kelgan.

IV-V asrlarda poeziyada klassik namunada asarlar yaratish an’anaga aylandi. Bu davrning eng mashhur mifologik eposiga misrlik Nonning “Dionis to‘g‘risida”gi dostonini aytish mumkin. Bu asar boy fantaziya, ifodali obrazlarga ega bo‘lib, epik tarzda yozilgan.

IV-V asrlarda latin shoirlari mifologiyadan tashqari, tabiatni tasvirlashga jiddiy e’tibor berdilar. Ana shunday latin shoirlaridan biri Detsim Magin Avzoniy edi. U tajribali ritor, yunon, lotin tillari va adabiyotining bilag‘oni, salohiyatli shoir edi. So‘ng ikki mashhur Rim shoirlari: iskandariyalik Klavdiy Klavdian, kelib chiqishi Galliyadan bo‘lgan Klavdiy Rutimiy Namasian she‘rlari Rim davlatini sharaflaydigan ruhda bo‘lib, ularda Rimga murojaat qilinib, uning buyuk o‘tmishi va g‘alabalari madh etilgan. Klavdian imperator Gonoriy saroyida yashab, hukmdorning yaqinlaridan biri Stilixonga bag‘ishlab “Stilixonga maqto‘v” va “Gotlar bilan urush to‘g‘risida” poemasi Rimga buyuk ke-lajakni bashorat qildi.

4. Me‘morchilik va haykaltaroshlik. Rim me‘morchiligi va haykaltaroshligi etrusklarning kuchli ta’siri ostida rivojlandi. Rimliklar etrusklardan qurilish texnikasining usullarini o‘zlashtirib oldilar. Rimda mil. avv. I asrdan boshlab g‘isht, paxsa inshootlar o‘rniga tosh va marmar xomashyosidan foydalanib qurilgan jamoat inshootlari paydo bo‘ldi. Mil. avv. II asrda beton kashf qilindi. Binolar qurilishida g‘isht, tuf, travertin toshlari va marmar ishlatila boshlandi. Rim qurilish san’atining ko‘p asrlik tajribasi Mark Vitruviy Polliionning 10 jildlik “Arxitektura to‘g‘risida” (mil.avv. I asrda) asarida umumlashtirildi. Bu vaqtda Rimda ko‘p qavatli uylar, ko‘priklar, termalar, zafar arklari qurildi. Mil.avv. 55-yilda Mars maydonida toshdan qurilgan birinchi amfiteatr “Pompeya” qurildi.

Respublika davrida Rimning jamoatchilik markazi forum-maydon bo‘ldi. Forumda davlat xazinasi va arxivi (tabulyariy), notiqlar minbari (rostra), senat majlislari o‘rni (Kuriya), davlat qamoqxonasi (tullianium) binolari qurilgan. Ellin davrida Rim yunon haykallari va boshqa san’at asarlari bilan bezatila boshlandi. Imperiya davrida forum, ibodatxona, bazilika, portik, zafar arklari, me‘morial ustunlar va otliqlar haykallari bilan bezatildi. Ularning orasida daklar bilan urushga bag‘ishlangan Trayan bunyod etgan ustun va hashamatli forum ajralib turadi. Imperator Adrian barcha xudolar ibodatxonasi -Panteonni bunyod qildi. Panteonning ulkan

gumbazi diametri 9 metr bo‘lgan aylana teshik bilan tugaydi. Bu teshik orqali quyosh nurlari pastga g‘aram bo‘lib tushib, marmar polda sinib, atrofga mayin va bir tekis yorug‘likda taraladi.

Termalar. Rim hammom (terma)lari Italiyaning barcha shaharlarida Rim davlatining ilk davrida gigienik maqsadlarda qurilgan, keyinchalik katta hajmdagi inshootlarga aylangan. Har bir Rim shahrida hammomlar (terma), jamoat hojatxonalari bo‘lgan. Hammomdan nafaqat cho‘milish joyi, balki uchrashuvlar, bitimlar tuziladigan, sport bilan shug‘ullanadigan joy bo‘lgan.

Milodiy II asrdagi Rimdagi eng mashhur termalarni Imperator Trayan qurdi. Imperator Karakalla (mil 211-217) hammomi (terma) sida bir vaqtni o‘zida 2500 kishi yuvinishi mumkin bo‘lgan. Terma (hammom) sovuq, iliq va qaynoq suvli uch bo‘lim va bug‘ beradigan xonadan iborat edi. Termada yugurish yo‘lakchalari, gimnastika zali, gimnasiya (sport bilan shug‘ullaniladigan zal), kutubxona, sayr uchun xiyobon, gulzor, suhbatlashadigan joy va rasm galereyasidan iborat bo‘lgan. Konstantin davrida bunday hammomlar Rim shahrida 10 ta bo‘lgan, kirish uchun ozgina haq to‘langan. Rim shahrining o‘zida IV asrda 1000 ta jamoa hammomlari bor edi. Rim hammomlarining ayrimlari yuvinish joyi, kutubxona, dam olish, muloqot va bitim tuziladigan joy va stadion edi. Barcha shaharlarda hammomlar qurilgan edi.

Rim va boshqa shaharlarda me‘morlar bir tomoni yoki uch tomoni ayvon bilan o‘ralgan portiklar, to‘gri burchakli uzun, ichkarisida o‘nlab ustunlar bilan ko‘tarilgan inshoot-bazilikalar qurilgan. Rimda katta g‘alabaga erishgan sarkardalar, imperatorlarga bag‘ishlangan zafar arklari va ustunlar bunyod etilgan. Rimda eng mashhur zafar arklari imperatorlar Tit, Septimiy Sever va Konstantin sharafiga bunyod etilgan. Rimda imperator Trayan sharafiga ustun qurilgan.

Boy rimliklarning hashamatli saroylari marmar kolonnalar, san’at asarlari, mozaika, haykallar bilan bezatilgan va isitgichlarga ega edi. Kambag‘al fuqarolar esa, ko‘p qavatli hech qanday qulayliklarga ega bo‘lmagan, rejasiz qurilgan uylarda yashar edilar.

Rim shahrini ichimlik suvi bilan ta‘minlashga katta e‘tibor berilgan. Rim shahrini ichimlik suvi bilan ta‘minlaydigan 11 suv quvuri, 600 ga yaqin favvora (fontan) bo‘lib, eng uzun suv quvuri 90 km uzunlikdagi Marsiy quvuri bo‘lgan, bu quvur hozir ham ishlab turadi. Mil. avv. III asrda bir kunda suv quvurlari orqali daryo va tog buloqlaridan Rimga 1 mln. kub suv oqib kelgan. Rimliklar me‘moriy inshootlardan ulkan tosh akveduk – suv quvurlarini qurdilar. Appiy Klavdiy rahbarligida mil. avv. 312-yilda rimlik injenerlar o‘sha vaqtda mashhur bo‘lgan suv

quvurini o'tkazdilar. Oktavian davrida Rimda suv quvurlari soni ko'paydi. Akveduklardan suv katta hovuzlarga quyilgan, bu hovuzlarning devorlarining tashqi tomoni haykallar va ustunlar bilan bezatilgan. Bu hovuzlardan suv quvurlar orqali termalar, va aholiga yuborilgan.. Oktavian davrida Agrippa tomonidan Rimda 700 hovuz qurilib ulardan 105 tasi favvora, bo'lib, bu favvoralar 300 haykal va 400 ustunlar bilan bezatilgan. Eng katta akveduk milodiy II asrda qurilgan bo'lib, uzunligi 132 km, uning ikki qavatli arkining balandligi 40 metr edi. Ispaniyaning Segoviya shahridagi akveduk hozir ham ishlaydi. Imperiya davrida 100 ga yaqin shahar akveduklar yordamida suv bilan ta'minlandi.

Rim va boshqa hududlarda qurilgan ko'priklar me'morchilik san'atining namunalariga aylandi. Arianning Rim shahrida qurgan ko'prigining kengligi 11 metr bo'lib, u haykallar bilan bezatilgan edi. Me'mor Gay Yuliy Laser Ispaniyada Taxo daryosida suvdan 45 metr baland bo'lgan ko'priq qurdi.

Rimda imperiya davrida hashamatli saroylar, ippodrom, sirklar, zafar arklari, kolonnalar, termalar stadionlar, forumlar va ibodatxonalar bunyod etildi. Me'morlar bu ishootlarni qurishda tosh, g'isht, beton va marmar xomashyosidan unumli foydalandilar. Flaviylar sulolasi Rimda jamoat binolarini katta hajmda qurdilar. Ular Tinchlik forumini (115m X 125 m) bunyod etdilar. Imperator Vespasian Rim shahrida milodiy 70-yilda suniy ko'l o'rnida ulkan amfiteatrni (hozirgi hajmi 156 m X 188 m. keyinchalik bu inshoot ulkan bo'lgani uchun Kolizey deb ataldi) qurishni boshladi. Qurilishda Rim aholisining 25foizi ishtirok etdi. Imperator hunarmandlar uyushmasi ko'magida yuqori malakali hunarmandlarni qurilishga jalb qildi. Xomashyo sifatida tosh va tuf (yumshoq tosh) ishlatildi. Qurilishning beshinchi yilida vulqon qumi va ohak qo'shib, sement hosil qilindi, u toshdan yengil bo'lib, Kolizey arklarini juda yengil og'irlikda qurishga erishildi. Arkklarning birinchi qavatli toshdan bo'lib, keyingi qavatlar ohaktosh va sementdan ko'tarildi. Qizil rangli g'isht kashf qilindi. 200 ming tonna ohak tashib kelindi, 1 mln dona g'isht ishlatildi. G'isht zavodlari qurilib, ular tinimsiz konveyer usulida ishlatildi. Qurilishning o'ninchi yili imperator Vespasian vafot etdi. Uning vorisi imperator Tit qurilishni ikki yil muddatda tugatdi. Ulug'vor inshootning balandligi 50 metr bo'lib, 80 minggaacha tomoshabin kirishi mumkin edi. Amfiteatrda birinchi qatorlarda senatorlar, zodagonlar, suvoriylar uchun o'rindiqlar ajratilib, keyin oddiy fuqaro uchun qatorlarda yog'och o'rindiqlar, eng oxirgi qatorlar kambag'allar uchun ajratilgan. Amfiteatrda beshta kirish yo'li bo'lib, har bir kirish ma'lum bir ijtimoiy qatlamga mo'ljallangan. Kirib joylashuv yarim soat vaqtga mo'ljallangan bo'lib, kirish uchun bir

necha yo'laklar qilingan edi. Vespasianning o'gli Tit Kolizey yaqinida hammom –termalar bunyod qildi. Vespasianning ikkinchi o'gli Domitsian Rim forumi yaqinida hashamatli Ilohiy Vespasian ibodatxonasini, uning ukasi imperator Tit Rimda hashamatli zafar arkini bunyod etdi. Rimda o'sha vaqtda otlar poygasi uchun ippodrom-sirkalar qurildi. Poyga ishqibozi bo'lgan Kaligula sirk binosini qurdi. Imperator Klavdiy 140 mingdan 385 mingacha tomoshabinni sig' diradigan Katta Sirkni ta'mirladi.

Imperator Trayan davrida Rimda damashqlik me'mor Apollodor tomonidan 107-113 yillarda Trayan Forumi(maydoni – 300 m X 185m) ansambli qurildi. Bu ansambl Trayan kolonnasi (balandligi 39, 83 metr), Trayanning otliq haykali, ayvonlar va kutubxona binolaridan iborat edi. Bundan tashqari Mars maydonida stadion qurildi.

Imperator Adrian birinchi bo'lib Rimni abadiy shahar deb atagan edi. Bu imperator o'z hukmronligi davrida katta qurilish ishlarini olib bordi. Adrian Rim tarixida eng katta Venera ibodatxonasi va Roma ibodatxonasini qurdi. O'zi uchun mavzoley bunyod etdi, bu inshoot o'rta asrlarda qal'a vazifasini o'tadi. Adrian eski inshootlarni qayta qurib, ularga hayot bagishladi. Mars maydonida mil. avv. 27-25 yillarda barpo etilgan barcha ilohlarga bag'ishlangan Panteon ibodatxonasi milodiy 120 yilda me'mor Apollodor loyihasi asosida qayta qurildi. Panteon hashamatli marmardan ishlangan ilohlar haykallari (inshoot markazida Yupiter haykali) bilan bezaldi. Inshootning 43 metr diametrli radiusga ega bo'lgan gumbazning markazida 9 metr diametrli ochiq tomi ibodatxonani yorug'lik bilan ta'minlar edi. Gumbaz beton qorishmasida singdirilgan g'ishtlardan bunyod etilgan edi. Panteon binosi hozirgi kunda mashhur kishilar dafn qilinadigan mavzoley hisoblanadi.

II asrda Rimda imperator Mark Avreliyning otliq haykali va uning 176-192 yillarda germanlarga qarshi urushlariga bagishlangan 30 metrli kolonna barpo qilindi. Rim san'atining eng katta yutuqlaridan biri haykal-portretlar edi. Yunon haykallari barkamol fuqaro obrazini yaratgan bo'lsa, Rim haykalida inson har qanday ideallashtirishdan xoli holda tasvirlangan. Qadimgi odatga ko'ra, rimliklar uylarida ajdodlarining mum niqoblarini saqlaganlar. Ilk davrda etrusklar jez haykallarni yaratdilar. Mil. avv. I asrdan haykaltaroshlikda jezning o'rniga marmar ishlatila boshlandi. Rim haykaltaroshligining so'nggi respublika davrida yaratilgan asarlaridan "Orator", "Togatus" va "Brut" haykallarini, hamda Mariy, Pompey, Sitseron, Kichik Katon va Sezarning byustlarini ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari, imperator va malikalar, amaldor, sarkarda, shoir va faylasuflarning ko'plab marmar byustlari saqlanib qolgan.

Karfagenning dengizdagi cheksiz hukmronligi, etrusklar bilan den-

gizdagi raqobatda magʻlub boʻlish va istilochilik urushlar natijasida Rim chegaralarini dengizga chiqishi Rimda kemasozlikni jadal rivojlanishiga turtki boʻldi. Rim shahrida olti burchakli Ostiya dengiz porti qurildi. Ostiya porti ulkan Rim shahrini oʻziq-ovqat va boshqa xom ashyoga boʻlgan ehtiyojlarini qondirishda yetakchi oʻrinni egalladi. Ostiya portida kemalar turadigan joy, verflar (kema quriladigan, tamirlanadigan), doklar (port xoʻjaligi), va omborlarga ega edi. Imperiya davrida dengiz boʻyidagi har bir shaharning oʻz flotiliyasi mavjud edi. Rimliklar Dengiz portlari, gavanlar yaxshi jihozlandi. Rim davlati portlaridan chiqqan kemalar Oʻrtayer dengizi, Adriatika, Qora dengiz va boshqa dengizlarda kezib tranzit savdo bilan shugullanar edilar.

Rimliklar mustahkam qalʼalar, shahar devorlari va boshqa mudofaa inshootlarini bunyod qildilar. Mamlakat hududida harbiy qoʻshinlarni harakat qilishi va savdo-hunarmanchilikni rivojlantirish maqsadida tekis tosh yoʻllar qurildi. Mil.avv. 312-yilda sensor Appiy Klavdiy Seka davrida rimliklar ilk bor tosh toʻshalgan Appiy yoʻlini qurdilar. Odatda rimliklar yoʻllarni 5 qatlamli tuzilma bilan qurar edilar. Yollarning koʻpi Rim shahriga olib borar edi. Bir necha asrlar davomida 372 ta yoʻl qurilgan, odatda yoʻlning kengligi 8 metr boʻlib, har bir chaqirimda ustunlar qoʻyilgan. Yoʻl qurilishida asosan askarlar va qullar mehnatidan foydalanilgan. Rimda 9 ta tosh koʻprik qurilgan. Ispaniyada imperator Trayan qurgan uzunligi 180 metr boʻlgan koʻprik hozirgacha saqlanib qolgan.

4.Taʼlim. Rimda taʼlimning birinchi bosqichi boshlangʻich maktab edi. Maktablar xususiy boʻlib, davlat taʼlim jarayoniga aralashmas edi. Oqituvchining ish haqi juda kam boʻlib, tirikchiligini oʻtkaza olmagan uchun boshqa ishlarni ham qilishga majbur boʻlgan. Maktabda ishi yurishmagan, kelib chiqishi nomaʼlum boʻlgan kimsalar va ozod qoʻyilgan qullar dars bergan.. Boy oilalarda bolaga 7 yoshidan yollangan qul-pedagog mashgʻulot olib borgan. Boshlangʻich maktabda 7-12 yoshli bolalar oʻqish-yozish, ogʻzaki sanashga oʻrgatilar, oʻqish faqat bir semestrni tashkil etgan. Oʻquvchilar boshlangich maktabda oʻqishni alfavitdagi harflarni yodlashdan boshlab, keyin harflarni yozishni oʻrganganlar. Shu sababli oʻqish bir necha yillarga choʻzilib ketgan. Maktabda tan jazosi qoʻllangan. Dars xonalari tor va noqulay boʻlib, guruhlar katta boʻlgan.

Boy oila farzandi grammatikadan taʼlim olishi mumkin boʻlgan. Grammatika oʻqituvchisi rahbarligida oʻquvchilar qadimgi yozuvchilarning asarlaridan parchalarni oʻqish va sharhlashni oʻrgandilar. Oʻsmir 12-16 yoshda grammatika va adabiyotni oʻqitadigan maktabga borganlar. Bundan tashqari logika, arifmetika, geometriya, astronomiya fanlari va musiqaning ayrim unsurlarini oʻrganganlar

Rimda ilk kutubxonalarni xususiy kishilar ochdi. Ular oʻz

kutubxonalaridan fuqarolarga foydalanishga ruxsat berdilar. Omma uchun birinchi kutubxonani Oktavian ochdi. Misr papirusiga yozilgan kitob qimmat bo'lgani uchub fuqarolar kutubxonalardan foydalandilar. Kitob sotish ham yaxshi yo'lga qoyilgan edi. Kitob uchun papirus xomashyosi Misrdan keltirilar edi.

Aniq va tabiiy fanlar. Rimda tabiiy fanlar rivojlanib, qator ilmiy asarlar yaratildi. Texnik bilimlarning nazariy asoslari yaratildi. Vitruviyning 10 jildli "Arxitektura to'g'risida", Sekst Yuliy Frontinning "Akveduklar to'g'risida", Aleksandriyalik Geronning "Mexanika" asarlarida texnika sohasining nazariy asoslari tavsiflandi. Tiniq shisha kashf etilib, shishasozlik sohasi rivojlandi. Binolarni isitish tizimi yaratildi. Qurilishda sement kashf qilinib, qishloq xo'jaligida suv tegirmonlari, vintli press va hosilni o'radigan mexanizm ixtiro qilindi.

O'z davrining taniqli mexanigi, matematigi va astronomi Arximed (mil. avv. 287-212) Sitsiliyadgi Sirakuza shahrida o'z qarindoshi Sirakuza tirani Gieronning uyida yashadi. Imperator Oktavian davrida yashagan mexanik va arxitektor Vitruviy shunday guvohlik beradi: Sirakuza shahar -davlatida o'z mutlaq hokimiyatini o'rnatgan Gieron ma'budlarga o'z minnatdorchiligi sifatida ibodatxonalarning biriga oltin toj in'om qilmoqchi bo'ladi, Gieron bir zargarni chaqirib ma'lum haq evaziga oltin tojni tayyorlashga buyurtma beradi. Zargarga tegishli miqdorda oltinni o'lchab beradi. Shartnomada belgilangan muddatda zargar o'ziga berilgan miqdordagi oltindan nafis ishlangan oltin tojni Gieronga olib keladi. Oz vaqt o'tib, tojni tayyorlashda berilgan miqdordagi oltinning bir qismi yashrib qolinib, uning o'rniga shuncha miqdorda kumush qo'shilgani to'grisida xufiya xabar keladi. Gazabga mingan Gieron haqiqatni aniqlab berishni so'rab Arximedga murojaat qiladi. Arximed bu muammo ustida bosh qotira turib hammomga borib vannaga o'tiradi. Vannaga o'tirayotib Arximed o'z tanasiga teng miqdorda suv vannadan oshib ketayotganini ko'radi. Suvni bunday oshib ketishi muammoni yechish usulini ko'rsatdi. Arximed sevinib ketib, vannadan tura solib qip-yalang'och uyi tomon yuguradi va yugurayotib vaqti-vaqti bilan topdim, topdim-yunoncha evrika, evrika deb qichqira boradi. Shu tarzda Arximed go'yoki gidrodinamikaning ikkinchi qonunini ochadi. Bu qonun asosida Arximed tajriba o'tkazib oltin tojda kumush qoshilmasi borligini aniqlab zargarning qalloblik qilganini asoslaydi.

Klavdiy Ptolemey nazariy astronomiya va astrologiyani matematika bilan birlashtirdi. Bu olim Harakatsiz Yer kurrasi atrofida boshqa planetalar aylanadi (deb geosentrik nazariyani ilgari surdi. Ptolemey yerni o'z o'qi atrofida aylanishini inkor qildi. Olim musiqa nazariyasi, opti-

ka, xronografiya va geografiya fanlari bilan shugʻullandi. Olim oʻzining 13 jildli "Matematik toʻplam" nomli asarida oʻzining ilmiy qarashlarini bayon qildi.

Strabon (mil. avv. 63-milodiy 19 yil) kelib chiqishi Qoradengiz janubidagi Amasiyadan boʻlib koʻp sayohat qilib geografik maʼlumotlarni toʻpladi. Ilgari rimliklarga kam maʼlum boʻlgan Galliya, Germaniya va Britaniya hududlari toʻgʻrisida yangi maʼlumotlarni yigʻdi. Strabon koʻpchilik uchun 17 tomli "Geografiya" asarini yozdi. Olim tarix fanidan bizgacha yetib kelmagan 43 jildli asar yozdi. Strabonning zamondoshi Pomponiy Mela "Yer tuzilishi toʻgʻrisida" nomli 3 jildli geografik toʻplam muallifi edi.

Italiyaning milodiy birinchi asrdagi qishloq xoʻjaligi toʻgʻrisida Kolumellaning argonomiyaga oid "Qishloq xoʻjaligi toʻgʻrisida" nomli 12 jildli asari va Katta Pliniy (24-79-yillar) ning "Tabiiy tarix" nomli 37 jildli asarining 14-19 kitoblari asosiy manba bolib xizmat qiladi. Katta yer egasi boʻlgan Kolumella oʻtmishdagi agronomiyaga oid maʼlumotlarni umumlashtirib agromadaniyat nazariyasini yaratadi. U yana gʻallakorlik, bogʻdorlik va uzumchilik toʻgʻrisida asarlar yozdi. Pliniy qishloq xoʻjaligining ahvoli toʻgʻrisida maʼlumot beradi. Bu asar ensiklopedik mazmunda boʻlib, fizika, geografiya, botanika, zoologiya, mineralogiya va boshqa fanlar boʻyicha maʼlumotlar beradi. Qadimgi Rimda qishloq xoʻjaligi toʻgʻrisidagi fan koʻpgina sohalarni oʻz tarkibiga olgan: tuproqning turli korinishlarini oʻrganish, ekish va yer haydash, turli daraxt va osimliklari va ularni yerga oʻtqazish va parvarish qilish, mevali daraxtlarni payvand qilish, sabzavotlarni ekish, atirgul va zaytun yetishtirish texnikasi, chorva mollarini parvarish qilish va xoʻjalik yuritish.

Tibbiyot-Meditsina. Rim tibbiyoti boshda yarim diniy, yarim xalq tibbiyotiga asoslandi. Ilk rim tibbiyoti vakillari Katon va Pliniy katta boʻldilar. Davolash maʼbudi Eskulap boʻlgan. Medicus – meditsina atamasining kelib chiqishi Rim qishloq familiyasi bilan bogʻliq. Qishloqda quldor xoʻjaligida koʻp kishi ishlagan. Oʻz xoʻjaligida ishlaydigan qullar va oila aʼzolarini sogʻlom boʻlishidan manfaatdor boʻlgan oila boshligʻi- pater zaruriy dori-darmonga ega boʻlib, zaruriyat tugʻilganda kasalni davolash koʻnikmasiga ega boʻlgan. U qishloqda davolashning anʼanaviy vositalari boʻlgan yogʻ, moy, qoʻyning toza juni va dorivor oʻsimliklardan foydalangan. Qadimgi sharqda tarqalgan kasallikni davolashdan koʻra, uni oldini olish yengilroq, eng yaxshi dori bu jismoniy mehnat tushunchalari Rimga ham kirib keldi. Tablik bilan erkaklar, ayollar va ozod qoʻyilgan qullar shugʻullanganlar. Vrachlarning ijtimoiy ahvoli ogʻir boʻlgan.

Umumqabul qilingan vrachlik kasbiga qoyilgan mezonlar mavjud

bo‘lmagan. Yagona mezon bu vrachlik tajribasi edi. Ilk imperiya davrida tibbiy ta’lim tizimli emas edi. Vrachlarning bilim saviyasi va kasbiy malakasi har xil bo‘lgan. Vrach anatomiya, fiziologiya va farmakologiyani bilishi shart bo‘lgan, bilimli vrach Rimda katta obro‘ga ega bo‘lgan. Kasallar vrachning kundalik tajribasi asosida va xudoga ishonish va sehr-afsun bilan davolanganlar. Ko‘pchilik tibbiy vosita va dorilar qadimgi sharqdan kirib kelgan. Jarrohlar urushda olingan yaralarni, singan suyaklarni davolaganlar, tajribali jarrohlar hatto bosh miya qopqog‘ini ochib operatsiya qilganlar. Operatsiya vaqtida og‘riqni qoldirish uchun ko‘knorning suti ishlatilgan.

Lekin Rimda aksariyat vrachlar tibbiyot fanlarini yaxshi bilmaganlar. Uncha bilimli bo‘lmagan vrachlar o‘z amaliyotlarida asosan xalq tabobatidan foydalanganlar. Odatda vrach kasalni ko‘rib, plastir qo‘yib, klizma qilgan. Davolash uchun qirqoyoq, odam va hayvonning axlatidan foydalanganlar. Kliyent uchun vrachlar orasida kuchli raqobat bo‘lgan. Kliyent uchun kurashib vrachlar to‘gridan to‘gri maydon va ko‘chalarda “ilmiy” ma’ruzalar o‘qishgan. Tabiblar tibbiyot san’atini xohlovchilarga, ayniqsa uy qullarga qisqa vaqt 6 oyda o‘rgatishini aytib odam to‘plaganlar. Vrachlar ko‘p hollarda patsientni ko‘chada topib olib, arzon narxlarda davolashga va’da berganlar. Tibbiyotda tibbiyot ilmidan xabarsiz qalloblar ham bo‘lib, ular qimmatbaho kiyimlarda, tibbiyot asboblari bilan bemorning uyiga kelishgan. Qul egalari xo‘jalikda o‘z vrachiga ega bo‘lish uchun qullarni bajonu-dil vrachlikka o‘qitishga berganlar. Qullarga tibbiyot bilan shug‘ullanishga Trayan maxsus edikt bilan yo‘l ochdi. Shu bilan bir vaqtda bu edikt bilan vrach va oqituvchilarga Vespasian tomonidan berilgan soliq imtiyozlari bekor qilindi.

Imperiya davrida Antoniy Piy dekreti bilan har bir shaharning kataligiga qarab yirik shaharlarga 10 ta vrach, o‘rta aholiga ega shahariga 7, uncha katta bo‘lmagan aholi joylari uchun 5 vrach belgilangan. Bu vrachlar shahar hokimiyati ta’minotida bo‘lib, ular harbiy xizmat majburiyatidan va majburiy ishlardan ozod etilgan. Bunday imtiyozlarga faqat vrachlardan tashqari yurist va o‘qituvchilar ega bo‘lganlar. Imperiya davrida jarrohlar, terapevtlar, okulistlar, akusher, stomatologlar, harbiy vrachlar va kutubxona va gladiator maktablarida vrachlar bo‘lgan. Meditsina xizmati oliy tabaqaga ko‘rsatilgan xolos. Vrachlar kasb bo‘yicha kollegiyalarga birlashganlar.

Rimda sanitariya va gigienaga alohida e’tibor berilgan. Botqoq yerlar quritilgan, shaharlar toza ichimlik suv bilan ta’minlangan va hammomlar qurilgan. Rim shahrining o‘zida IV asrda mingta katta kichik hammom bo‘lgan. Rim hammomi yer osti isitish tizimi orqali isitilgan. Quvurlarda

suv oʻrniga qaynoq havo aylangan. Hammomda isitish va namlik har xil boʻlgan xonalar boʻlgan. Bugʻ xonasi (kalʼdariy), iliq vannalar va dushlar bilan bir necha xona (tepidariy), sovuq xona (frigidariy), yuvinish uchun hovuz-basseyn va yechinish xonalari mavjud boʻlgan. Hammomdan kelib chiqishi va lavozimidan qatʼiy-nazar shaharning barcha aholisi foydalan-gan. Rimda tibbiyot nazariyasi va amaliyoti anatomiya, fiziologiya, diag-nostika, dietika va profilaktikada ancha yutuqlarga erishdi. Meditsinaning asosiy markazlari Kichik Osiyo shaharlari va Aleksandriya shahri edi. Ki-chik Osiyodagi Pergamda tugilgan fiziolog Klavdiy Galen (129-199-yil-lar) 8 yil meditsinani oʻrganib, vrachlik faoliyatini Pergamda gladiatorlar maktabidan boshladi. U poytaxt vrachlari davolay olmagan malyariya kasalini davolashi bilan ilk bor tanildi. Galenga imperator Mark Avre-liy homiylik qildi. Galen matematika va falsafa fanlari sohasida 125 asar yozdi. Akusher va pediatr Soran amaliyoti bilan shuhrat qozondi. Avl Ko-rneliy Sels “Fanlar” asarida dehqonchilik, ritorika, harbiy ish va tibbiyot toʻgʻrisida turli maʼlumotlarni jamladi. Rimlik vrach Marin anatomiyada yunon Gippokratidan oʻtib ketdi, Rimda yashagan Efeslik Ruf koʻrish nervlari toʻgrisida, Efeslik Soran akusherlik va Aretey keskin va uzluksiz kasalliklar toʻgrisida rahbarlik qoʻllanmalarini yozdilar.

6. Tarix asarlari. Ilk imperiya davrida tarixiy asarlar va tarjimai hollar yozish janri keng rivojlandi. Mil.avv. 59-yil-milodiy 17-yillari-da Paviya shahrida yashagan notiq Tit Liviy latin tilida “Shaharni asos solinganidan Rim tarixi” nomli 142 jildli tarix asarini yozdi. Tit Liviy voqealar bayonini mil.avv. 9-yilgacha olib bordi. Yangi era boshlarida Pompey Trog “Jahon tarixi” asarini 44 jildda latin tilida yozdi. Yahudiya podshosi Irod I ning maslahatchisi damashqlik Nikolay tomonidan yana bir “Jahon tarixi” asari yunon tilida 144 jildda yozildi. Asarda voqealar mil.avv. IV asrgacha yoritilgan.

Mil.avv. I asrda Korneliy Nepot “Mashhur kishilar toʻgʻrisida” bi-ografik asarini yozdi. Mil.avv. I asr oxirida galikarnaslik Dionisiy “Rim qadriyatları” nomli tarixiy asarini yozdi. Bizgacha bu asardan faqat 9 tasi yetib kelgan. Italiya va uning provinsiyalari tarixi va geografiyasi toʻgʻrisida qimmatli maʼlumotlar Strabonning “Geografiya” asarida (17 kitob) beriladi. Strabonning yana bir asari “Tarixiy yozishmalar” bizga-cha yetib kelmagan.

Milodiy I asrida Velley Paterkulning “Jahon tarixi” nomli 2 jild-li kitobi, notiq Valeriy Maksimning “Mashhur ishlar va soʻzlar” nomli 9 kitobda tarixiy latifalar keltiriladi. Kvint Kursiy Ruf “Makedoniyalik Iskandar tarixi” nomli 10 jildli kitob yozdi. Imperatorlar Vespasian va Titning klienti yahudiy Iosif Flaviyning 7 jildli “Yahudiya urushi tar-

ixi”, 20 jildli “Yahudiya qadimiyatlari” asarlari sharqiy provinsiyalar to‘g‘risida boy ma‘lumotlar beradi. Davlat arbobi, tarixchi, yozuvchi Gay Pliniy Sekund (24-79-yillar) san‘at, madaniyat va fan sohasida noyob ma‘lumotlar to‘plami – “Tabiiy tarix” nomli 37 jildli entsiklopedik asar yozdi. Bu ulkan asarda 500 muallifning 2 ming kitobidan olingan ma‘lumotlar umumlashtirilgan. Tarixchi Publiy Tatsit (mil.avv. 58-120 yillar) prokurator oilasida tug‘ilgan, pretor (88 yil), konsul (97 yil), Osiyo provinsiyasi prokonsuli (112/113 yillar) lavozimlarida ishlagan. Tatsit 16 jildli “An`analar”, 14 jildli “Tarix” asarlarini yozdi. Bu asarlar Yuliy Klavdiy va Flaviylar sulolalarining milodiy 14-96-yillardagi davrini aks ettiradi. Tatsitning “Germaniya” asari german qabilalarini ijtimoiy tuzumi, dini va turmushi to‘g‘risidagi tarixiy-geografik qissa hisoblanadi.

Imperator Adrian davrida imperator devonining “yozishmalar bo‘yicha” maslahatchi lavozimida ishlagan Gay Svetoniy Trankvill (70-140-yillar) “O‘n ikki Sezar hayoti tasviri” asarida Sezardan Domitsiangacha bo‘lgan Rim imperatorlarining tarjimai hollari to‘plamini yaratdi. Svetoniy 12 Rim imperatorining tarjimai holini batafsil dalillarga asoslanib yoritadi. Har bir hukmdorning tug‘ilishi, nasl-nasabi, hokimiyatga kelishi va hukmdorligi vaqtidagi faoliyatining ayrim tomonlari to‘g‘risida ma‘lumotlar beriladi. Hukmdorlarning xulq-atvori, faoliyatining ijobiy va salbiy jihatlari bayon qilinadi. Asar orqali Rim siyosiy hayotining asosiy ishtirokchilari bo‘lgan imperatorlarning hayot faoliyati tahlil etiladi. Svetoniyning asarini to‘rt bo‘limga bo‘lish mumkin: imperatorning hokimiyatga kelgunga qadar hayoti, hukmdorlik faoliyati, xususiy hayoti, o‘limi va dafn etilishi muallif hukmdorlar faoliyatini xolisona va dalillarga asoslanib yoritgan Tatsitning zamondoshi, 46-126-yillarda yashagan yunon yozuvchisi Plutarx 210 ta. turli xil asarlar yozgan. Bizgacha ulardan 150 tasi yetib kelgan. Plutarx mashhur yunon-rim arboblarning 50 biografiasini, bitta makedon-Iskandarning bir fors-Artakresks I ning biografiasini yozadi.

Makedoniyalik Appian 160-165-yillarda 24 jildli “Rim tarixi” asarini, senator Dion Kassiy Koksian (155-235-yillar) yunon tilida 80 jildli “Rim tarixi”ni yozdi. Bu kitobdan 25 jildi va ko‘p sonli parchalar bizgacha yetib kelgan. Dion Kassiyning kichik zamondoshi Gerodian “Markdan keyin imperator hokimiyati” (Mark Avreliyning o‘limidan so‘ng, Gordian III hukmronligigacha, 180-238-yillar) 8 jildli tarix kitobini yunon tilida yozdi.

Mashhur davlat arbobi Gay Yuliy Sezar (mil.avv. 100-44-yillar) Rim tarix sohasida bir necha asarlar yozdi. Bizgacha uning faqat “Galliya urushlari to‘g‘risidagi yozuvlar” (7 kitob) va “Fuqarolik urushi

to'g'risidagi yozuvlar" (3 kitob) asarlari yetib kelgan. Tarixiy monografiya janrining asoschisi Gay Sallyustiy Krisp (mil.avv. 86-35-yillar) keksalik paytida "Katilina fitnasi", "Yugurta urushi" hamda mil.avv. 78-67-yillar voqealarini qamrab olgan "Tarix" asarini yozgan.

III-IV asrlarning ikkinchi yarmida Rim tarixshunosligi tushkunlikka yuz tutdi. IV asrda "Imperatorlar tarixi yozuvchilari" nomi bilan II-III asrlar imperatorlari biografiyalari to'plami paydo bo'ldi. Bu to'plam materiallarida Antoniylar boshqaruv davridan imperiyaning yemirilish davriga o'tishi yaqqol ko'rsatiladi. So'nggi mashhur Rim tarixchisi Ammian Martsellin (330-400-yillar) edi. Uning kelib chiqishi yunon bo'lib, latin tilida "Faoliyat" nomli 31 jildli tarixiy asarini yozdi. Bu asar Tatsit "Tarix"ini davom ettirib, 96-378-yillardagi voqealarni o'z ichiga oladi. IV asrda so'nggi imperiya davrining siyosati va mafkurasi tarixi bo'yicha imperatorlarga maqto'vlar, notiq Libaniyning nutq va xatlari paydo bo'ldi. IV asrda xristian tarixshunosligining shakllanishi boshlandi. Xristian cherkovi tarixi bo'yicha "Cherkov tarixlari" latin va yunon tilida paydo bo'ldi. Ularning orasida kesariyalik taniqli tarixchi va ilohiyotshunos Yevseyviyning "buyuk Konstantin tarjimai holi" va "Cherkov tarixi" asarlari alohida o'rin tutadi. Rimning tushkunlik sabablarini xristian tarixchilari ham o'z nuqtai nazarlarida yoritdilar. Yepiskop Avgustin o'zining nomli asarida, ispan diakoni Oroziy, marsellik prisviter Salvian o'z asarlarida "Xudoning shahari to'g'risida" Rimning halokatini uning o'tmishi, o'zaro urushlar, hukmdorlarning adolatsizligi, birinchi xristianlarning ta'qib qilinishidan keltirib chiqardilar.

Rimliklarning turmush tarzi. Boy rimliklar hashamatli uylarda yashaganlar. Bu uylarning pollari mozaika qoplanib, devorlarida tasvirlar tushirilgan. Faqat boylargina o'z xususiy uylariga ega bo'lganlar. Qolgan rimliklar ko'p qavatli uylarda ijarada yashaganlar. Rim shahrida uylar 7 qavatgacha qirilgan, lekin bu uylar hech qanday kanalizatsiyaga ega bo'lmay, sanitariya va gigiena holati juda yomon bo'lgan. Aksariyat uylar yogochdan qurilgan va yong'inlarni chiqishi odatdagi hol bo'lgan shu sababli dunyo tarixida ilk bor yong'inga qarshi kurashadigan qismlar qadimgi Rimda tuzilgan va ular o't o'chirish uchun maxsus mexanizm-asboblardan va transport bilan ta'minlangan.

Amfiteatrlarda o'tkaziladigan gladiatorlik janglarini rimliklar yaxshi ko'rganlar. Gladiator (gladius-latin tilida qilich) janglari Rimda ilk bor mil.avv.264 yilda o'tkazilgan. Gladiator janglari etrusklarda kelib chiqqan. Boshda etrusklarda bu o'ziga xos dafn o'yinlari bo'lgan. Vafot etgan kishi sharafiga o'limga hukm etilgan jinoyatchilar, qullar yoki harbiy asirlarning qabr atrofida oqibati o'lim bilan tugaydigan janglari uy-

ushtirilgan. Gladiatorialik o'yinlari Rimda keyinchalik katta va tantanavor rasmiy qonunlashtirilgan o'yinlarga aylangan. Gladiatorialik o'yinlarini o'tkazish uchun boshda yog'ochdan, keyin toshdan amfiteatr qurilgan. Gladiatorialik maktablari paydo bo'lgan, bu maktablarda shafqatsiz, qat'iy intizom asosida bo'lg'usi gladiatorlarda odamni shafqatsiz o'ldirish psixologiyasi shakllantirilgan. Gladiatorialar qurol turi va jang bo'yicha bir necha toifalarga bo'lingan. Metall simdan to'qilgan to'r va uch shoxli nayza bilan qurollangan gladiator retiariy deb atalgan. Amfiteatr sahnasiga gladiatorlarning yuzga yaqin juftligi chiqqan. Sahnaga yovvoyi yirtqich hayvonlar – sherlar, yo'lbars va qoplonlar chiqarilgan, ular bir-biriga gij-gijlangan yoki ular tomoshabinlar ko'z oldida o'ldirilgan. Rimning taniqli arbobi G.Pompey tashkil etgan 5 kunlik o'yinlarda bir tomoshada sahnaga birdan 500 sher chiqarilgan, 410 qoplon va leopard o'ldirilgan. Yuliy Sezar vaqtida birdan sahnaga 50 sher chiqarilgan. Imperator Oktavian davrida sahnada birdan 3500 fil o'ldirilgan. Tomoshabinlar sherlarni o'lim lahzalaridan rohatlanib qichqiriqlar, gulduros qarsaklar bilan o'z his-hayajonlarini ifoda qilganlar. Tomoshalarda junbushga kelgan yovvoyi hayvonlar oldiga qurolsiz odamlarni ham tashlaganlar. Rimliklar shafqatsiz bo'lganlar, ular jangda o'layotgan gladiator yoki yirtqich hayvonni o'lim lahzalaridan lazzat olib junbushga kelganlar. rimliklar gladiator janglarini muhokama qilganlar, jang g'oliblari uchun mukofotlar belgilangan. Rimliklarda sirkda o'tkaziladigan jang aravalarida poyga juda keng tarqalgan. Poygada chavandozlar 4 guruhga bo'linib bellashganlar va ular muxlislari yashil, qizil, zangori va oq rangdagi kiyimlarni kiyganlar.

Ovqat. Rim kuni 12 soatdan tashkil topgan. Boylar so'rida yonboshlab ovqatlanib, ovqat qo'l bilan yeyilgan. Vilka-sanchqi keyinroq 1400-yillarda paydo bo'lgan, Angliyada 17 asrda ham sanchqi bo'limgan. Qoshiq kamdan kam ishlatilgan. Nonning qattiq joyi qoshiq bilan o'yib olingan. Boy rimlik uchun nonushta non hamda suv aralashtirilgan vino, ba'zida asal, pishloq va mevalardan iborat bo'lgan. Kambag'alning nonushtasi bo'tqa yoki bir parcha non va nordon vinodan iborat bo'lgan. Boy rimlik uchun tushlik issiq yoki yaxna taomlar, baliq, meva, non va vinodan tashkil topgan. Asosiy ovqat kechki ovqat bo'lgan. Taom salat yoki chig'anoqlardan boshlanib, cho'chqa, buzoq, tovuq yoki g'ozning qovurilgan go'shti hamda desertga mevali yoki asalli pechen'ye yeyilgan.

Hashamatli ziyofatlarda maxsus boqilgan hayvonlarni go'shti, sayroqi qushlar, flamingo, buzoq miyasidan va shipovnik mevalaridan ko'pchitilgan krem tortilgan. Desertga shirinlik, mevali yoki shirin pechen'ye tanovul qilingan. Rim oqsuyak zodagonlari kim o'zarga

ziyofatlar berganlar. Bunday ziyofatlarda tansiq taomlar, Afrika, Osiyo provinsiyalaridan keltirilgan noyob hayvonlar, parrandalar va tirik olib kelingan baliqlardan taom tayyorlab dasturxonga tortilan. Mil. avv. I asr o'rtalarida Rimning eng boy zodagonlari – nobillardan bo'lgan Lukull o'zining ziyofatlari bilan mashhur bo'lgan. Lukull bergan ziyofatlarda 1000 kishidan ko'proq kishilar taklif qilingan va mingdan ortiq taom tortilib, noyob vinolar qo'yilgan. Ziyofat bir necha kunga cho'zilgan. Bu patritsiyning ziyofatlaridan “Lukull bazmi” iborasi kelib chiqqan. Rimda tansiq taomlarni iste'mol qilishga ishqiboz kishilar- gurmanlar ishtahani qo'zg'atish uchun g'oz patlari bilan og'iz boshliqlarini qitiqlab, yeyilgan ovqatni qusib yana ovqat tanovul qilganlar. Ovqatga quyuq qilib ziravorlar qo'shilgan, ovqat ko'pincha baliq sousi bilan tortilgan. Vinoga suv aralastirilgan, ba'zida asal yoki ziravorlar qo'shganlar. Mehmonlar ziyofatdan qolgan har qanday yog'li luqmani o'zlari bilan olib ketishlari mumkin bo'lgan.

Rimlik oqsuyak zodagonlar o'zlarining hashamatli uylarida mehmonlar uchun kubikulyariy deb ataladigan –gladiatorlarning uy janglarini yushtirganlar. Ziyofat o'tayotgan zalda shirakayf mehmonlar gladiatorlar qonli jangini tomosha qilganlar.

Rim oilasi. Rimliklar hayotida oila muhim o'rin tutgan. Oilaning boshlig'i – pater (ota) oila a'zolari ustidan cheksiz hokimiyatga ega bo'lgan. Oila boshlig'i pater familiyasiga oilaning barcha mulki, uning hokimiyati ostidagi xotini, o'g'illari o'z xotinlari, o'g'illari va qullari tegishli bo'lgan. Ulardan birortasi hech qanday mulkka egalik huquqiga ega bo'lmagan, ularning topgani ham otaning mulki hisoblangan. Ota ishchi kuchi bilan o'z xohishiga ko'ra sotish, ijaraga berish, jazolash, toki o'lim jazosi berishgacha huquqqa ega bo'lgan. XII jadval qonunlari otaning o'g'lini sotish huquqini bir muncha chekladi: agar o'g'ilni sotib olgan kishi unga ozodlik bersa, o'g'il ota hokimiyati o'stiga qaytgan. Lekin uch marta ota tomonidan sotilib ozodlikka chiqqandan so'ng ota hokimiyatiga qaytmay mustaqil kishi bo'lgan. Keyinchalik ota tomonidan bolalarini sotish noqonuniy deb topildi. Lekin ota hokimiyati ostidagi bolalarning iqtisodiy qaramligi abadiy saqlanib qoldi. O'g'il yuqori mansablarga ko'tarilishi mumkin, lekin u qul kabi biror bir mulkka ega bo'lishi mumkin emas edi. Agarda fuqaroning oti, quli va o'g'li musobaqa va poygalarda galaba qilganda, beriladigan mukofot oila boshlig'i otaga tegishli bo'lgan. Qizlar 13 yoshda, o'g'il bolalar 14 yoshda unashtirilgan, o'rtacha umr ko'rish – 50 yoshgacha bormagan.

Boy rimliklar so'rida yonboshlab past xontaxta ustiga qoyilgan taomni yeganlar. Faqat qishloqda, chet elliklar va qullar stol atrofida

o'tirib ovqatlaniganlar Rimliklar chetdan olib kelinadigan yong'oq, xurmodan shirin ovqatlarni xush ko'rganlar. Boy rimliklar ziyofatlarda kumush idishlardan tuzilgan servisni qo'yib o'z mavqeilarni bildirganlar.. Ovqatlanish vaqtida so'kinish va bahslashish ta'qiqlangan, lekin tupurush, ko'ngli aynib qolguncha ovqatni iste'mol qilish va ko'ngli aynisa ovqatni qusishga ruxsat berilgan.

Qadimgi rimliklar qimor o'yinlarini yaxshi ko'rganlar. Ular ot poygalari, xo'roz urushtirishlarga va kubik tashlashda pul tikkanlar. Lekin qimor o'yinlari bayramlardan tashqari paytda qonun bilan taqiqlangan. Rimdagi katta sirkda aravalarida o'tkaziladigan poygalarga tomoshabinlar sig'magan.

Rimlik boy ayollar uchun yuzlarini oqargan bo'lishi moda bo'lgan. Shu sababli rimlik olifta ayollar yuzlarini oqartirish uchun yuzlariga bo'r yoki hatto zaharli oq qumni ishqalaganlar. Ayollar sochlarini did bilan turmaklaganlar, erkaklar sochlarini kalta qirqib, yuzlarini silliq qirib yurganlar. Ayollar bilakuzuk, baldoq, marjon va munchoqlar taqqanlar.

Rimliklarning ko'p kiyimlari jundan qilingan. Barcha rimliklar o'z rafiqa va qizlari uyda to'qigan kiyimlarni kiyganlar. Hind ip matolari, xitoy ipagi juda taqchil va nodir hisoblangan. Odatda ko'pchilik birdaniga bir yoki ikkita uzun yengli yoki umuman yengsiz tunika-ko'ylak kiygan. Oktavian davrida 4 tunika kiyish rasm bo'lgan. Tunika beldan pastda belbog' bilan bog'langan. Obro'li fuqarolar 6 metrli matodan toga kiyganlar. Qizlar turmushga chiqquncha oq rangda kiyinganlar, keyin esa yorqin bo'yalgan kiyim kiyganlar. Senatorlar qizil yo'l o'tgan toga kiyganlar. Diktator ham shunday kiyim kiygan. Hokimiyatning boshqa vakillari: pretor, sudya, kvestor-xazinachilar va sensorlar ham oq toga kiyganlar.

Dafn. Boshda mayit tobutda dafn etilgan, lekin vaqt o'tishi bilan rimliklar mayitni gulxanda yoqishni afzal ko'rganlar. Dafn kuni alohida jarchi mayitga hurmat bildirishni istagan kishilarni baland ovoz bilan chaqirgan. Vafot etgan kishini jasadi yuvilib, xushbo'y moylar sepib, gullar qo'yib, Uyning tashqi devoriga uyda mayit borligini bildiradigan kiparis daraxti novdasini ilib qo'yganlar. Mayitning jasadi uyda bir hafta turgan. O'lgan paytda uyda o'choqdagi olov o'chirilgan va faqat mayit dafn etilgandan keyin yoqilgan. Uyda mayitni oyoq tomoni chiqishga qaratib qo'yilgan. Mayitni yoqish uchun qalangan o'tin juda qimmat turgan. Tartib bilan qalangan o'tin ustiga mayit ko'zi ochiq holda yotqizilib, uni yana bir marta xushbo'y moylar sachratib, gulchambarlar va turli nar-salar bilan o'rganlar. Mayitning yaqin qarindoshi teskari qarab, gulxan yoqqan. Dafn musiqasi sadosi va go'yandalarning yig'isi ostida gulxan yongan. Mayitdan qolgan kul o'lgan kishining soyasini chaqirish bilan

yig'ib olinib, bu kulga vino va sut sepganlar. Keyin esa kulni quritib, dafn urnasiga solib qo'rganlar.

Rimliklarda mayitlar tiriklarning ishlariga ta'sir qiladilar, o'zlari uchun belgilangan udumlarga tirik qarindoshlar mensimay qarasa vafot etgan kishi o'ch oladilar deb hisoblangan. Vafot etgan ota, o'g'illari uchun xudoga aylangan. O'g'il dafn gulxanidan otasining suyagini ko'tarib, o'lgan otasi xudoga aylanganini e'lon qilgan. Erkaklar tog'asini kiymagan o'smirlar hech qanday marosimsiz tuproqqa dafn qilingan. Rim qonuniga ko'ra dafn marosimi va krematsiya shahar devoridan tashqarida o'tkazilgan. Rimliklar qabrlar ustiga yozuvlar bilan sag'ana va mavzoleylar barpo qilganlar, marhumlarni haykallari va byustlarini qo'rganlar.

Takrorlash uchun savollar.

1. Qadimgi rim tarixiga tegishli manbalarni turkumlang.
2. Qadimgi Italiyadagi etnoslar to'g'risida ma'lumot bering.
3. Rim shahar davlati va rim respublikasi davlat qurilishini qiyosiy tahlil qiling
4. Rim imperiya davrida qanday davlat boshqaruviga ega edi?

Mustaqil ish mavzulari.

1. Serviy Tulliy islohotlari
2. Rim respublikasining ijtimoiy iqtisodiy hayoti
3. Qadimgi rim madaniyati
4. Rim imperiyasining halokati sabablari

O'RTA ASR YEVROPA SIVILIZATSIYASI

16-mavzu. O'RTA ASRLARDA YEVROPA

1. Yevropa sivilizatsiyasini davrlashtirish. 2. Yevropaning tushkinlik davri. 3. Iqtisodiy hayot. 4. Madaniyat.

1. Yevropa sivilizatsiyasini davrlashtirish. O'rta asrlar turli mam-lakatlar uchun turli asrlarda kirdi. O'rta asrlar madaniyati ham turli mam-lakatlar uchun turli ko'rinishda bo'ldi. Yevropada Rim davlati halokatidan keyin qariyb ming yil davomida og'ir sukunat qa'rida qoldi. Uning uyg'onishi 16 asrdan boshlandi, qaysiki Qoloq, qashshoq Yevropaning endigina oyoqqa turayotgan bozor iqtisodiyoti uchun ulkan hajmda xomashyo, oziq-ovqat, moddiy boyliklar suv bilan havoday zarur edi. Bunday zahirani faqat uzoq qit'alar hisobidan zo'ravonlik va kuch bilan olib kelish mumkin edi. Shu sababli Yevropa tashqi dunyoga ekspansiyani 15

asrdan boshladi. Bu davr Yevropa adabiyotida balandparvoz “buyuk geografik kashfiyotlar” deb ataldi. Bu Yevropaning boshqa qit’alarga ekspansiyasini boshlanishi edi.

O’rta asrlar renessansi turmush tarzi va dunyoqarashda o’zgarishlar davri edi. 30 yillik urush bu birinchi Umumyevropa urushi, siyosiy xaritalarni paydo bo’lishi, yangi tartiblarni tubdan o’zgartirdi. Muqaddas Rim imperiyasi o’z ahamiyatini yo’qotdi. Hududlar, qit’alar mamlakatlar tubdan o’zgardi. Bu 17 asr edi. Shimoliy Amerika, Angliya burjua inqilobi, konstitutsiyali monarxiya keldi. O’rta asrlar o’z qarama qarshiliklarga ega bo’lgan diniy mafkuraning hukmronligi va tantanasi davri ham edi. Me’morchilik saan’atidagi portlashlar: roman, barokko, gotika, diniy mustassiblik va renessans o’rta asrlar madaniyatining tubida dunyoqarashda tub o’zgarishlar, barqarorlik davri edi. Qadriyatlarining mukammalligi – gumanizm g’oyalari tarqaldi.

Yevropa tarixida milodiy V asrdan yangi davr boshlandi. Eski qadimgi jamiyatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, tartib qoidalari yuvilib ketdi. Sharq dunyosi, Afrika, Amerika bu davrda ibtidoiy jamoa tartiblari hamda o’ziga xos va mos bo’lgan siyosiy tizim va tuzumda yashashni davom ettirdi. Yevropa milodiy 476-yilidan (so’nggi Rim imperatori taxtdan tushirilgan yil G’arbiy Rim imperiyasining tugashini bildirardi) 1973-yilgacha 1.5 ming yilni o’z ichiga olgan feodal va industrial jamiyatni boshidan kechirdi. Bu davrni to’rt bosqichga bo’lish mumkin:

Yevropada o’tish davri (milodiy 476 yildan VIII asr oxirigacha);

O’rta asrlar sivilizatsiyasi (IX – XVI asrlar);

Industriya arafasi (XVI asr o’rtalaridan XVIII asrgacha);

Industrial (yetukbozor munosabatlari) (XVIII asr so’nggi choragidan (sanoat inqilobi boshlanishidan) XX asrning so’nggi choragigacha);

Yuqoridagi to’rt bosqich bir-birini to’ldirib keladi. Bu bosqichlar feodal davrida bozor munosabatlariga asoslangan bo’lg’usi jamiyatning shart-sharoitlarini yetilishi, shakllanishi va yetukligi, yoki industrial jamiyatning bosqichlari deb qarash mumkin. Bu faqat Yevropa tarixiga tegishli.

Yevropa tarixi hisobiga ko’ra katta yer egasi – feodal davri V asrdan X–XI asrgacha genezis (shakllanish), rivojlangan feodalizm (XI – XV asrlar), so’nggi feodalizm(birinchi burjua inqiloblari, dastlabki kapital jamg’arish davri bilan qo’shilgan holda XV – XVIII asrlar). Feodal, feodalizm iborasi fanga XVIII asrda kirib keldi.

XVIII asr oxiridan bozor munosabatlariga asoslangan sivilizatsiya hisobi olib boriladi, lekin uning shakllanishini ikki yuz yil orqaga surish mumkin. Uning shart-sharoitlari uyg’onish davridan yaratilgan edi. “Ka-

pitalizmning paydo bo'lishiga qadar uning ko'p belgilari oldindan darak berilgan edi. Shaharlar va ayirboshlashning o'sishi, mehnat bozorining paydo bo'lishi, jamiyatning jipslashuvi, pulning tarqalishi, ishlab chiqarishning o'sishi, uzoq masofalarga savdo, agar aytish lozim bo'lsa, "xalqaro bozor" degan nuqtai nazarni bildirgan edi. Fransuz tarixchisi Jan Goff "Uzoq o'rta asrlar" konsepsiyasini ilgari surdi. Qarangki, u II-III asrdan (so'nggi antik davrdan) boshlandi va XVIII asrgacha davom etdi. Fransuz inqilobi, XIX asrdagi sanoat to'ntarilishi va XX asrning buyuk o'zgarishlari oldida asta-sekin o'z umrini tugatdi.

Biz o'rta asrlarning so'nggi moddiy va intellektual qoldiqlari orasida yashamoqdamiz. (19.C.5-6). De Goffning o'zi ham Yevropada o'rta asrlar sivilizatsiyasini X-XIII asrlar davri deb tushunadi. XIV-XV asrlarni esa uning tushkunlik fazasiga taqaydi. (o'sha joyda 375b) "Yevropa tarixi" asarining mualliflari jamoasi bu davrni quyidagicha davrlashtirishni taklif qiladilar: Yevropaning barcha hududlarini feodal ishlab chiqarish usuliga tegishligi bilan birlashgan o'rta asrlar (IV asrdan XV asr oxirigacha). Ming yildan ko'proq davrni qamrab olgan, lekin Yevropaning ko'pgina hududlarida feodalizm faqat endigina o'rtnashgan, bir yarim ming yillik o'tish davrini unga tegishli qilish asosli bo'ladimi?

So'nggi o'rta asrlar bir yarim asr atrofida (XV asr oxiridan XVII asr o'rtalarigacha)gi davrni o'z ichiga oladi. Bozor munosabatlariga asoslangan ishlab chiqarish munosabatlari va dastlabki kapital jamg'arish paydo bo'ldi. Yosh burjuaziya kuch to'play boshladi. Davlatni markazlashtirish kuchaydi. Ilk burjua inqiloblari yuz berdi. Uyg'onish davrida dunyoviy madaniyatning buyuk parvozigacha erishildi. Reformatsiya ma'naviy hayotda ulkan ta'sir o'tkazdi. Amerikadan oltin va kumushning oqib kelishi kapitalizmga o'tishni jadallashtirdi. Oddiy kooperatsiyadan manufakturaga o'tish kengaydi.

Sobiq sovet tarix fanida fransuz inqilobidan Parij Kommunasigacha (XIX asrning 80-yillar arafasida) Yevropada kapitalistik iqtisodiyotning qaror topishi, manufaktura ishlab chiqarilishidan sanoat kapitalizmiga o'tish, proletariat kurashining kuchayishi, burjua millatlarining shakllanishi yuz berdi deb ko'rsatildi.

Sovet tarixshunosligida keyingi davr 1870-yildagi Parij Kommunasidan 1917-yil Oktyabr voqealarigacha (yarim asrga yaqin) erkin kapitalizmdan imperializmga o'sib o'tish va kapitalizmning umumiy tushkunligining boshlanishi, ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashuvi va iqtisodiy tushkunliklar, burjua madaniyatining tushkunligi va fanlarning yutuqlari vaqti hisoblanadi deb belgilandi.

Rossiyadagi Oktyabr voqealaridan II jahon urushining tugallanishigacha (1917-1945-yillar, 30 yildan kamroq) SSSRda sotsializmning

g'alabasi bilan boshlangan 20-30 – yillar oralig'idagi chuqur jahon tushkunligi va o'chog'i bo'lgan Yevropa qonli II jahon urushiga olib kelgan fashizmning tug'ilishi bilan boshlangan qisqa davr ajratiladi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin ilmiy texnika inqilobi (ITI) ishlab chiqaruvchi kuchlarning kuchli rivojlanishiga olib keldi va shu bilan bir vaqtda insoniyatni yadro urushi xavfi ostiga qo'ydi. Sotsialistik mamlakatlar hamdo'stligi shakllandi. Mustamlakachilik tizimi jadal yemirildi. Yevropada integratsiya jarayoni kuchaydi. Ikki jahon tizimida qarama-qarshilik kuchaydi. Davr oxirida keskinlikning yumshash belgilari paydo bo'ldi.

I.M.Dyakonov davrlashtirishda uch fazani ajratadi: o'rta asrlar (ming yil atrofida; Xitoyda milodiy I asrdan; Yevropada milodiy III–V asrlardan, Yaponiyada milodiy IX asrdan); barqaror-absolyut o'rta asrlar yoki "absolyut kapitalizm arafasi" (Yevropada XVI asrdan XIX asrgacha-30 yil atrofida); kapitalistik faza (XX asrning 50-yillarigacha).

Vizantiya yo'li o'tmish sivilizatsiyaning barcha asosiy unsurlarini (savdo va hunarmandchilik yetakchi bo'lgan katta shaharlar) saqlab qolishga erishdi. Vizantiya jamoa yer egaligi bilan quldorlik rivojlangan madaniyat, rivojlangan Rim huquqi bilan kuchli davlat hokimiyatini saqlab qoldi. Ammo asta-sekin ular feodal jamiyati unsurlari bilan to'ldirila boshlandi. Feodal yer egaligi, qaram dehqonlar paydo bo'ldi. Shaharlarda hunarmand savdogarlar, kema egalari, dengizchilarning uyushmalari shakllandi. Feodal jamiyatga o'tish Vizantiyada XI asrda tugallandi.

Italiya modeli. Feodalizm genezisining Italiya modeli Vizantiyaga qaraganda vayronkor, lekin qisqaroq edi. Zaiflashgan Rim german qabilalari bosqinlari uchun asosiy nishon bo'ldi. Varvar qabilalari to'lqini butun Italiyani qamrab oldi va mahalliy aholi bilan aralashib, bir qism mavjud madaniyat va iqtisodiyotni o'zlashtirib oldi.

Germanlarning yuqori qatlamlari yirik yer egaloriga aylandilar. Jangchilar esa kichik yer egasiga aylandilar. G'arbiy Yevropadagi shaharlar, savdo – hunar IX asrgacha tushkunlikni boshdan kechirdi. Feodal tartib qoidalari IX asrda qaror topdi, lekin yagona davlat qaror topmadi. 781-yil Italiyada Karl davlati alohida qirollik mavqeini oldi. 843-yil mustaqil davlatga aylandi. Janubiy Italiya Vizantiya tarkibida qoldi. Sitsiliya Normand qirolligi tarkibiga kirdi.

Feodali jamiyatning fransuz yo'li Rim hukmronligi ostida bo'lgan ba'zi mamlakatlarga xos edi. Lekin jamoa urug'chilik tizimi asoslarini saqlab qolgan, shu bilan birga, temir asrining ba'zi texnik yutuqlarini va antik merosning bir qismini o'zlashtirgan holda, u eng tezkor bo'ldi. Qabila oqsoqollari-feodal ("feod" – yer, "dal" - ega)ga, erkin jamoachilar va yer olgan jangchilar qaram dehqonlarga aylandilar. Kuchli Frank

davlati vujudga keldi. VIII-IX asrlarda yirik feodal mulki ustuvor edi. Feodal mulkida yerga ishlov beruvchi qaram kolonlar yoki shaxsiy qaram boʻlgan (servlar) dehqonlar mehnat qilar edilar.

Skandinav-rus yoʻli qulchilik, shaharlarni bilmagan, birdaniga ibtidoiy jamoa tuzumidan feodalizm genezisiga oʻtgan xalqlarda kuzatiladi. Qabila boshliqlari, harbiy boshliqlar (knyazlar, konunglar) va ularning yaqin safdoshlari boʻlgan feodalyer egalariga sobiq erkin jamoachilar qaram dehqonlarga aylandilar.

Zaiflashayotgan Rim imperiyasi hududiga sharqdan va shimoldan temir asriga kirib kelayotgan gotlar, vandallar, varyaglar, daniyaliklar; sharqdan xunlar, avarlar, vengerlar va bolgarlar siljib, koʻchib borib joylashdilar (xalqlarni buyuk koʻchishi xaritasi). Koʻchib borayotganlar hududlarda oʻrnashib qoldilar. Oʻzlari egallagan hududlarda uning iqtisodi va madaniyatini oʻzlashtirib oldilar hamda oʻz davlatlarini tuzdilar. Xunlar Markaziy Yevropada oʻzlarining ulkan davlatlarini tuzdilar. Bu davlat hukmdori Atillaning hujumi xavfidan zaiflashgan Rim imperiyasi dahshatga tushdi. Faqat Atillaning oʻlimi imperiyani halokatdan saqlab qoldi.

2. Yevroning tushkinlik davri. Rim imperiyasining 476 yildagi halokatidan soʻng Yevropa XV asrgacha uzoq davom etgan tushkinlik-turgʻinlik davriga kirdi. Uygʻonish davri gʻarb adabiyotida aytilganidek XIV asrda emas, XVI asrda boshlandi. Yevropada iqtisodiyot uzoq tushkinlik davrini boshidan kechirdi. Natural xoʻjalik, yerga feodal mulkchilik, oʻzaro feodal urushlari, bundan tashqari qurgʻoqchiliklar, yuqumli kasalliklar Yevropani ogʻir ahvolga solib qoʻydi. Yevropa tushkinlikdan chiqish uchun sharqning moddiy boyliklarini bosib olish uchun salb yurishlarini uyushtirdi. Lekin bu urushlar ham katta boylik olib kelmadi. Shundan soʻng Yevropa Amerika, Afrika va Osiyoda moddiy boyliklarga ega boʻlishga otlandi (geografik kashfiyotlar). Bu yurish Yevropaga katta moddiy boyliklar, arzon ishchi kuchini olib keldi. Yevropada markazlashgan davlatlarning paydo boʻlishi iqtisodiyot, savdo-hunarmandchilikni rivojlanishiga shart sharoit yaratdi. Bu ham Yevroning rivojlanishiga yana bir omil boʻldi.

Feodal jamiyati uchun iqtisodiy qaramlik bilan birga (katta yer egaligi), dehqonning shaxsiy qaramligi ustuvor unsur boʻlib qolaverdi. Manufakturalar, xizmat koʻrsatish sohalari, aqliy mehnat sohasida iqtisodiy majburlashning turli shakllari mavjud edi.

Yevropada toifaviy – koʻp qatlamli jamiyat shakllandi (Dunyoviy feodallar-qirol, gersog, graf, baron; diniy cherkov pogʻonasi-papa, kardinal, arxiyepiskop, yepiskop, abbat, oddiy ruhoniylar). Erkin dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar va boshqa aholi qatlamlari shahar va qishloq-

da mavjud edi. Jamoada teng huquqli bo‘lgan ayrim dehqonlar feodalga shaxsan qaram bo‘ldilar lekin Yevropada erkin dehqon kuchli ijtimoiy qatlamlar sifatida saqlanib qoldi. Feodallarning o‘zi oliy syuzeren (qirol)ning vassali edilar. Vassallar o‘z harbiy qismlari bilan qirol qo‘shinida xizmat qilib, uning sudiga bo‘ysunar edilar. Oliy tashkilotlar (davlat hokimiyati, sud hokimiyati, cherkov) mavjud feodal toifasiga xizmat qilar edilar. Cherkovning o‘zi katta yer mulklariga ega edi.

Qadimgi davrdan o‘rta asrlarga o‘tishda erkin fuqarolar soni kamaydi. Feodallarning pog‘onaviy toifasi shakllandi (qirol, gersog, graf, baron; podsho, amir, bek, dehqon). Iqtisodiyotning asosi bo‘lgan yerning katta qismi feodallar, cherkov qo‘liga o‘tdi. Faqat bir qism yerlar erkin dehqonlar qo‘lida qoldi. Sharqda esa yerga davlatning oliy egaligi mustahkamlandi. Ilgari erkin bo‘lgan jamoa a‘zolarining ko‘pchiligi og‘ir majburiyatlarni bajaradigan qaram dehqonlarga aylandilar.

Industriya arafasi, renessans va ma‘rifatparvarlik inson ruhining tananasi, shaxsning ulug‘lanishi, fuqarolarning teng huquqligi, erkinligiga yana qaytish edi. Antik fan, san‘at va demokratiyaning g‘oyalari yana qayta tug‘ildi. Bu davrda g‘arbda Venetsiya, Florensiya, Genuya, Amsterdam, Toledo va boshqa shaharlar gullab-yashnadi.

3. Iqtisodiy hayot. Yevropada har bir tarixiy davrda ishlab chiqarishda yangi texnologiyalar qo‘llanildi. Inson, yangi bilim va ko‘nikmalari paydo bo‘ladi. Feodal ukladi yirik yer egalari va qaram mayda yer egalari ko‘rinishida so‘nggi quldorlik jamiyati bag‘rida vujudga keldi.

Shaharlarda hunar – savdoning jonlanishi bilan sex tashkiloti, savdogarlar toifasi oyoqqa tura boshladi. Qishloqda natural xo‘jalik ustuvor bo‘lib, jamoa tuzumining ko‘pgina unsurlari bilan feodal pog‘onasi hukmronlik qilar edi. Dehqonlarning shaxsiy qaramligi mustahkamlandi. O‘tmishdagi quldorlik tizimining og‘ir noiqtisodiy, majburiy mehnatiga nisbatan o‘rta asrlarda Yevropada dehqonlar va shahar hunarmandlarining shaxsiy erkinligi va iqtisodiy manfaatdorligini yuzaga kelishi iqtisodiy-ijtimoiy o‘zgarishlarga olib keldi. Yerga ko‘p bo‘g‘inli pog‘onaviy mulkchilik va yerga u yoki bu shaklda dehqonlarni biriktirib qo‘yish qishloqdagi iqtisodiy munosabatlarning ustuvor ko‘rinishi bo‘ldi. Syuzeren (xo‘jayin) ning cheklanmagan huquqlari dehqonlarni ko‘p sonli feodal va cherkov soliqlari, majburiyatlarini o‘tashini ta‘minladi.

O‘rta asr yevropa shaharlarida hunarmandlar, sex uyushmalari va savdogarlar birlashmalari qattiq qoidalar bilan cheklangan edi. Ko‘pgina shaharlar “hurfiylik” va “shakkoklik” o‘choqlari, savdo – hunarlar, me‘morchilikning o‘sishi, fanning qayta uyg‘onishi va ta‘limda navbatdagi inqilob markazlari edi (Universitet inqilobi).

Yevropada X-XII asrlardan boshlab savdogarlar tomonidan ichki va tashqi savdoni rivojlantirish uchun bir necha ittifoqlar tuzildi. Boltiq va Shimoliy dengizlardan muhim savdo yo‘llaridagi birinchilikni dastlab Bryugge, keyin esa Lyubek boshchiligida 70 dan ortiq nemis shahri kirgan Ganza ittifoqi egallab oldi. Ganza savdogarlari Novgoroddan tortib Londongacha va Shimoliy Yevropa savdosini o‘z qo‘llariga oldilar. Venetsiya va Genuya shahar-davlatlari Yevropadagi eng kuchli savdo markazlariga aylandi. Bu shaharlar Sharq dunyosi bilan savdoda yetakchi bo‘ldilar. Ular Sharq va G‘arb o‘rtasidagi savdoda yetakchilik uchun raqobat qildilar. Venetsiya va Genuya mustaqil respublika bo‘lib, ularda hokimiyat boy savdogarlar qo‘lida edi. Venetsiya amalda o‘z qishloq xo‘jaligi, moddiy resurslari, hatto, chuchuk suviga ega emas edi. Bu shahar-davlat rivojlangan savdo-hunarmandchilik, va kuchli dengiz flotiga tayanib, G‘arbiy Yevropa, O‘rtayer dengizi, Qora dengiz bavzasida o‘z ta‘sirini o‘tkazdi.

O‘rta asrlarda Shimoliy Italiyaning shaharlari Venetsiya, Genuya va Florentsiyada savdo-hunarmandchiligi rivojlandi. Bu shaharlarda respublika tuzumi o‘rnatilgan edi. Venetsiya va Genuya dengizlarda hukmronlik uchun o‘zaro kurashdi. Bu shaharlar tashqi savdoda o‘z mavqeilarini mustahkamlash maqsadida O‘rtayer dengizi va Qora dengiz qirg‘oqlarida bir necha tayanch nuqtalarni barpo qildilar. Venetsiya tashqi savdodan katta foyda oldi. Bu boyliklarning katta qismi noyob madaniyat namunalari bo‘lgan saroylar va boshqa jamoatchilik binolarining bunyod qilishga sarflandi. Dengizga chiqish yo‘li bo‘lmagan Florentsiya jun mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashdi. Bu yerda jahonda birinchi jun manufakturalari paydo bo‘ldi. Birinchi sanoat burjuaziyasi va yollanma ishchilar-kelgusi ikki sivilizatsiyaning asosiy sinflari ham shu yerda shakllandi.

Ishlab chiqarish, dehqonchilik texnikasi, uch dalali almashlab ekish savdoning kengayishi, bozor iqtisodiyotiga o‘tish uchun qulay zamin yaratdi. Siyosiy soha bu davr feodal monarxiyalar (qirolliklar) ning kurashi, ko‘p sonli va “ko‘p qatlamli” vassallarining o‘z boshimcha hokimiyati, ko‘plab qonli urushlar, to‘qnashuvlarni keltirib chiqargan feodal tarqoqligi bilan ajralib turadi.

Yevropada feodal zodagonlar, cherkovning ta‘siri kuchli edi. Shaharlarda mayda hunarmandlar, savdogarlar ko‘pchilikni tashkil qilar edi. O‘rta asrlarda g‘arbiy Yevropa iqtisodiyotida erkin shaharlar sezilarli o‘rinni egalladi. XV asrgacha Yevropa iqtisodiy tushkinlik, yuqumli kasalliklar va o‘zaro urushlar girdobida qoldi. O‘zini tiklab olish uchun tushov bo‘lib turgan cherkovning bosimidan xalos bolishga urindi. Shu sababli reformatsiya o‘tkazildi. Yevropa tushkinlik, qashshoqlikdan qutu-

lish uchun katta boylikka ega bo'lish maqsadida savdo-hunarmanchilik gullab yashnagan yaqin sharqqa salb yurishlarini uyushtirdi. Lekin bu yurishlar muammoni hal qilmadi.

Faqat XIV asrdan boshlab markazlashgan davlat hokimiyati o'rnatilishi, erkin shaharlarning kuchayishi bilan xo'jalik hayoti bir qadar jonlandi. XIII asrda ilk manufaktura ishlab chiqarishi yuzaga keldi. Savdo-hunarmandchilik rivojlandi va aholi ko'paydi.

O'rta asrning ilk davrida dehqonchilik va harbiy texnikada qator o'zgarishlar yuz berdi. Bu vaqtda yerga motiga bilan ishlov berishdan takomillashtirilgan plugni qo'llash asosida haydab ekiladigan dehqonchilikka o'tildi. Dehqonchilikda uch dalali almashlab ekish keng tarqaldi. Organik o'g'itlarni qo'llash bilan birga, yerning hosildorligini saqlab qolish va barqaror hosil olishga imkoniyat yaratildi. Uch dalali almashlab ekish yakka, mayda dehqon xo'jaligining rivojlanishini ta'minladi va mehnat unumdorligini oshirdi. Shu bilan birga, bir gektar yerga uch barobar kam mehnat sarf qilinib, ikki barobar ko'p hosil olindi. Harbiy sohada himoya va hujum qurollari takomillashtirildi. Kamon o'qining kuchi va uzoqligini bir necha bor oshirgan arbalet (texnik takomillashtirilgan o'q-yoy)lar paydo bo'ldi. G'arbda og'ir to'g'ri qilichlar, sharqda egri qilichlar, jangovar bolta, xanjar va gurzilar jangda qo'llanilar edi. Xitoyda poroxning kashf etilishi natijasida o'q otadigan qurollar arkebutz, artilleriya paydo bo'ldi va muntazam takomillashtirildi. Qadimgi sharqda azaldan mavjud bo'lgan shaharlarni qamal qilish uchun ballist, katapult endi Yevropada o'zlashtirildi. Poroxdan qal'a devorlarini buzish uchun foydalanildi. Dehqonchilik, harbiy qurilish va maishiy texnikaga talabning o'sib borishi mehnat qurollarini ishlab chiqarish, metallurgiya va tog'-konchilik ishini rivojlanishiga olib keldi. Mis, temir rudasi, toshko'mirni qazib chiqarish shaxta usulida olib borilar edi (ba'zida shaxtaning chuqurligi 500 metrgacha yetar edi). Cho'yan, po'lat, misni quyish, turli qotishmalar olish metodi yaxshilandi. Savdo va uzoq joylarga harbiy yurishlar arava, aslzodalar uchun karetarlar, foytunlar, tosh yo'llar, daryo ko'priklarini qurishni jadallashtirdi. Ko'p to'plar bilan qurollangan palubali yelkanli kemalar qurildi. Kompasning ishlatilishi uzoq dengiz va okean sayohatlarini yanada ishonchli qildi.

Bu davrda suv va shamoldan foydalanib energiya hosil qilish keng tarqaldi. Ularning konstruksiyasi muntazam takomillashdi. Yevropa, asosan uning shimoliy qismi shamol tegirmonlari bilan qoplangan edi. Bu davrda sharqda mexanik soatlar mavjud edi.

4. Madaniyat. Milodiy V-IX asrlarda Yevropada xo'jalik hayoti va madaniyat tushkinlik holatida bo'ldi. IX-XI asrlarda Rus yerlarida ilk dav-

lat va jamiyatiga ilk oʻrta asr madaniyati shakllana boshladi. XII-XIII asrlarda Yevropa madaniy taraqqiyotida Fransiyaning yetakchiligi kuzatildi. XIV asrdan ikki yarim asr mobaynida Italiya madaniy hayotda yetakchilikni egallab, yevropada madaniyatni tiklanish-uygʻonish davri boshlandi. XVI-XVII asrlarda Ispaniya, Niderlandiya, Germaniya va Fransiyada tasviriy sanʼatning ajoyib namunalari yaratildi. XVIII-XIX Yevropada bozor munosabatlarining iqtisodiyotda shakllanib ustivor oʻrinni egalashi oqibatida diniy aqidalardan xoli boʻlgan dunyoviy madaniyat ustivor ahamiyat kasb eta boshladi. Uning markazi Gʻarbiy Yevropa boʻlib, keyin esa sharqiy Yevropa va Shimoliy Amerikada tarqaldi.

Asrlar Yevropa madaniyatining shakllanishiga Sharqning boy madaniyati bilan boʻlgan har tomonlama aloqalari taʼsir koʻrsatdi. Qadimgi va Oʻrta asrlarda Sharqning ilmiy tafakkurining asoslarini qabul qilgan Gʻarbiy Yevropa fani Yevropada ilm-fan taraqqiyotiga kuchli turtki berdi. Sevilyalik Isidor (570-630-yillar) 20 kitobdan iborat katta (“Etimologiya” yoki “Boshlangʻich”) asarida grammatika, ritorika, dialektika, geometriya, kimyo, astronomiya kabi ilmiy bilimlar toʻplangan edi.

Foma Akvinskiy (1225/26-1277-yy.) oʻz asarlarida eʼtiqod va bilimni murosaga keltirishga urindi. Bilimning qimmatini tan oldi, lekin din aqidalarga birinchilikni berdi.

XI asrda Yevropada tabiiy ofatlar, yuqumli kasalliklar, xoʻjalikning nochor ahvoli va uzluksiz feodal urushlar Yevropani ogʻir ahvolga solib qoʻydi. Rim cherkovi ogʻir vaziyatdan qutulishi uchun sharqning boyliklarini oʻzlashtirish uchun ommani sharqqa yurishga daʼvat qila boshladi. Iso qabrini qutqarish uchun muqaddas yurishga davʼat qilish boshlandi. Rim papasi bu ishga hukmdor qirollarni jalb qildi. Sharq mamlakatlarining barqaror rivojlanishi, gavjum savdo-hunarmandchilik taraqqiyoti Yevropa Sharq bilan savdo aloqalari, Arab xalifaligi davrida Yevropaga boy Sharq madaniyatini jadal ozlashtirilishi, salib yurishlari kelajak Yevropa maʼnaviy-madaniy taraqqiyoti uchun ayniqsa muhim ahamiyat kasb etdi. Vizantiya madaniyati sharq madaniyatining eng yaxshi yutuqlarini oʻzlashtirib rivojlandi. Vizantiya madaniyati arab musulmon madaniyatini yevropaga kirib kelishida koʻprik vazifasini oʻtadi. Qadimda yunonlar Misr va boshqa old Osiyo madaniyati, ayniqsa meʼmorchilik yutuqlarini oʻzlashtirib olganidek Vizantiya sharqning ulkan va hashamatli inshootlarini oʻzlashtirishida yaqqol aks etdi. Bu Konstantinopol shahridagi Sofiya ibodatxonasi qurilishida yaqqol koʻrinadi. Meʼmorlar Isidor va Anfily 523-537-yillarda mashhur Sofiya ibodatxonasini Konstantinopol shahrida bunyod qildilar. Ibadatxonalarda paygʻambar-avliyolar suratini chizish keng tus oldi. Oʻrta asr ispan meʼmorchiligida sharq meʼmorchiligi

lik san'atining tasiri yaqqol korinadi. Vizantiya cherkov madaniyati ta'siri ostida rus yerlarida cherkov me'morchiligi rivojlandi.

G'arbiy Yevropada me'morchilikda X-XII asrlarda roman usuli yetakchi o'rin egalladi. Haykallar bilan mo'l-ko'l bezatilgan ulkan ibodatxonalar qurildi. Keyinchalik me'morchilikda gotika uslubi paydo bo'ldi. Reyms, Kyoln va Siyenadagi ibodatxonalar gotika me'morchiligining mahsulidir.

“Roland to'g'risidagi qo'shiq” (Fransiya), “Nibelunglar qo'shig'i” (Germaniya), “Qirol Artur va doira stol ritsarlari” to'g'risidagi kelt eposi, “Tristan va Izolda” to'g'risidagi ertak, ko'p sonli romanlarida o'z ifodasini topdi. O'rta asrlar Yevropasining tasviriy san'ati xristian cherkovi motivlari bilan sug'orilgan edi.

Uyg'onish bayrog'i bilan boshlangan uyg'onish boshlarida Dante Aligeri (Ilohiy komediya) va Franchesko Petrarka turdilar. Italyan uyg'onish (Renessans) davri 3 asrni qamrab olib, protorenessans (XIII asr oxiridan), ilk Renessans (XV asrdan), yuqori Renessans (XV asrning g'oyalari) va so'nggi Renessans (qaysiki, ko'p miqdorda Venetsiyaga tegishli XV asr oxirida)ga bo'lindi. G'arbiy Yevropaning boshqa mam-lakatlarda Uyg'onish davri zaif ifodalangan.

Uyg'onish davrida adabiyot sohasidagi asarlar sanoqli edi. Bu davr san'atining yetakchi sohasi tasviriy san'at bo'ldi. Proto renessans davri-dayoq psixologik realizmning belgilari Jotto R, ayniqsa, uning mashhur (Iudaning o'pishi) freskasi hamda ilk Uyg'onish davrida Sandro Botichelli ijodiyoti (uning eng mashhur “Veneraning tug'ilishi” asari)da aks etdi. Tasviriy san'atning cho'qqisini Leonardo da Vinchi, Rafael Santi, M.Buonarotto ijodiyoti va haykallari egalladi. XIII asrgacha Yevropa amalda shishani bilmagan. Yevropa Suriyadan shisha ishlash texnologiyasini o'zlashtirdi. Birinchi shishasozlik ustaxonalari XIII asrda Venetsiyada paydo bo'ldi. Shu davrdan boshlab shishadan qadahlar va boshqa badiiy buyumlar ishlana boshlandi.

Yuqori va so'nggi uyg'onish madaniyatiga Jovanno Bokachcho, Jorj Jone, Paolo Verzeni, Fitsion Vechello (uning “Kesar denariy”si, “Flora”, “Vakxanaliya”, “Kain va Avel”, “Tavba qilayotgan Mariya Magdalena” asarlari) hissa qo'shdi.

Germaniya “Uyg'onish an'analari” tasviriy san'atda Albrext Dyurer asarlarida aks etdi. O'sha davrda Niderlandiya va Flandriya san'ati VanEyck, Iyeronim Bosx, Bregel, Rubens, Rembrantning ijodiyotida eng cho'qqisiga chiqdi. O'sha davr ispan tasviriy san'atida El-Greko, Diego-Velaskes mashhur edilar.

Haykaltaroshlik (Nikolo Pizano, Donatello, Bruneleski, Mikelanjelo, Benvenuto Chellini); me'morchilik (Ispaniyadagi Eskoriral saroy-monas-

tiri, Florensiya, Venetsiya, Pizadagi ajoyib ansambllar; Rimdagi muqaddas Pyotr ibodatxonasi), musiqa (1594-yildagi Ya Perining “Dafna” nomli birinchi operasi; Andrey va Jovanni Gabrieli, Ge Shyutes, I.S. Baxning to‘plamlari); adabiyot (Torkvato Tasso, Rotterdamlilik Erazm, Tomas Mor, Migel Servantes, Saks, Chosel, F.Rable); teatr san’ati (Italiyada niqoblar komediyasi, K.Marlo, V.Shekspir, Lope de Vega) rivojlandi. 1455-yilda Rimda birinchi bosma dastgoh o‘rnatildi. Kutubxona va litseylar soni o‘rdi.

XVIII asrda ma’rifatparvar olim Volter diniy dunyoqarashga kuchli zarba berdi. Uning yutug‘ini ateizm(xudosizlik)ga kirganlar har tomonlama qudratli ekanligiga ishonch yo‘lini ochib bergan ensiklopedistlar qabul qildilar va davom ettirdilar.

Ijtimoiy fikrning uyg‘onishida bosma nashrlar katta rol o‘ynadi. Yevropa Xitoydan bosma ishini o‘zlashtirdi. Natijada 1445 yilda Guttenbergning bosmaxonasi paydo bo‘ldi. 1631 yilda Parijda Le gazett nomi bilan bosma nashr chiqdi. Shundan keyin gazeta nomi keng tarqaldi. Gazet iborasi o‘rta asrlarda mayda chaqa-tanga ma’nosini bildirgan.

O‘rta asrlarda xristian cherkovi. Diniy e’tiqod. Bu davr dunyo dinlari – islom, xristianlik, buddaviylikning jamiyat ma’naviy-madaniy hayotida hukmronlik davri edi. Dastlab budda va islom dinlari, keyinchalik xristian dini jamiyatlarda o‘z hukmronligini o‘rnatdi.

Katolik cherkovi siyosiy va ma’naviy sohalarida, iqtisodiyotni sezilarli qismida o‘z hukmronligini o‘tkazdi. Xristian cherkovi Yevropadagi eng katta yer egasi edi. Yevropaning barcha hududlarida xristian cherkovi madaniy-ma’naviy hayotda yetakchi bo‘lib jamiyatning bosh mafkurasini xristian cherkovi hukmronligi ostida edi. San’at ham din homiyligida rivojlandi. Ilk universitetlar cherkov va qirol hokimiyati rahnamoligida ochildi. Xristian dinida diniy mafkuraning salbiy tomonlari inson quvonchlarini inkor qilish, ilohiy hayotni targ‘ib qilish, dunyo lazzatlaridan o‘zini tiyishga (asketizm)chaqirish, qullik, o‘zgacha fikrlashga toqatsizlik, boshqa e’tiqoddagi odamlar va dinsizlarni shakkoklikda ayblab, ta’qib qilish boldi. Diniy mafkuraning xalq ma’naviy hayotiga ta’siri to‘la qamrovli emas edi. Xalq turmushida to‘la tabiiy kelajakka umid bilan qarash, insonparvarlik, hajv tuyg‘usi, hayotdan zavqlanish saqlanib qoldi.

Rim papasi dunyoviy hokimiyat hukmdorlarini o‘ziga bo‘sunishini talab qildi. Xristian cherkovi missionerlik faoliyati bilan shug‘ullandi, harbiylashgan diniy ordenlarni tuzdi va ularning yordami bilan bosqinchilik urushlari olib bordi.

Yevropada cherkov tashkilotlari, olim-ilohiyotshunoslar, rassomlar, me’morlar, musiqachilar insoniyat ma’naviyat qadriyatlarini xazinasiga kirgan noyob asarlarni yaratdilar. Dindorlardan tushgan soliq-majburi-

yat, sovg'alar hisobiga cherkov, monastirlar qurildi. Cherkov, ibodatxonalar, dindorlar hissiyotiga ta'sir qiladigan haykallar, rasmlar, muqaddas kitoblardan olingan rivoyatlar avliyo-anbiyolar ta'siri bilan boy bezaklar bilan bezatildi. Ulug'vor qo'shiqlar, kuylar yaratilib, ibodat jarayonida ijro etildi. Monastr va cherkovlarda qo'lyozmalar, cherkov adabiyoti ko'chirib yozildi. Cherkov maktablarida savod, fan va san'at asoslari o'qitildi.

Monastirlardagi rohiblar savodi sayoz edi. Yevropada o'rta asrlarda barcha monastirlarda atigi o'nga yaqin kitob bo'lib, ular yo'qolib ketmasligi uchun zanjir bilab bog'lab qo'yilgan XIII asrdan boshlab Yevropada ilm-fan va madaniyatda sezilarli ish o'zgarishlar yuz berdi. XIII asrgacha Yevropaning 95 foiz aholisi o'qish-yozishni bilmas edi..

Katolik cherkovi o'z hokimiyati va iqtisodiy qudratini mustahkamlashga urinib, cherkov sudi orqali inkvizitsiya uyushtirib, shakkoklar va g'ayridinlarni qirg'in qildi. Shakkoklikda ayblangan o'n minglab kishilar, ularning ichida buyuk mutafakkirlar (Jordano Bruno) gulxanda yoqildilar, "qon to'kmasdan qatl qilish", "autodafe"ga duchor qilindilar. Yevropa jamiyatida birinchi bor mafkura diniy shaklda ustuvor omil bo'ldi. G'arbda diniy hurfikrlilikka toqatsizlik aqidaparastlik va turg'unlikka olib keldi. Salib yurishlari xristian dinining eng mash'um tarixi bo'ldi. Salib yurishlari Old Osiyo xalqlariga katta kulfatlar keltirdi "G'ayridinlar"-ga qarshi ko'plab urushlar cherkov tashabbusi bilan uyushtirildi. Misol uchun, 8 ta salib yurishlari (1096-1099-yillardan 1270- yilgacha) sharqda shaharlarning vayron bo'lishi, iqtisodiy-moddiy yo'qotishlarga, minglab odamlarning qurbon bo'lishiga olib keldi. Katolik cherkovi uyushtirgan inkvizitsiya shakkoklarni ta'qib qilish bahonasida minglab begunoh kishilarni, olimlarni gulxanda yoqishga olib keldi Cherkovning qattiq mafkuraviy tazyiqi erkin fikrni bo'g'di. Belgilangan diniy qonun-qoidalar chegarasidan chiqqan olimlar, rassomlar va boshqalar ta'qib ostiga olindi. Cherkov monopoliyasida rahna soladigan har qanday hur fikr yoki ilmiy g'oya shubha ostiga olindi. Cherkovning zo'rvonligi, diniy aqidalarning cheklanmagan hukmronligi kuchayib borayotgan savdo-tijorat va tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan ijtimoiy qatlamlarning manfaatlariga zid edi. Katolik cherkovining jamiyat hayotidagi mutlaq hukmronligiga qarshi reformatsiya – cherkovni yangilash harakati Germaniyada boshlanib, keyin Yevropaning boshqa mamlakatlariga tarqaldi.

Reformatsiyani mafkuraviy tayyorlashda Uyg'onish davri gumanizmi harakati katolik dinining nazariy tayanchi aqidaparastlikka qarshi, cherkovning haddan tashqari katta xarajatli marosimlari, ruhoniylarning ilmsizligiga qarshi kurashi bilan muhim rol o'ynadi. Reformatsiya ijobiy

ahamiyatga ega bo'lib, katolik cherkovining jamiyat ma'naviy hayotiga cheksiz hukmronlik qilishiga chek qoydi. Cherkovning mulklari sekulyarizatsiya qilinishi bilan uning iqtisodiy qudrati yemirildi. Rimdan mustaqil bo'lgan yangi xristian e'tiqodlari, jamiyatlari, milliy cherkovlar yuzaga keldi.

Cherkov yangi g'oya va oqimlar tazyiqi ostida boshda shoshib qoldi. Keyinchalik cherkov hujumga o'tib (kontrreformatsiya), o'z qudratini tiklashga urindi. Inkvizitsiya tashkil etilib, u qator mamlakatlarda o'z faoliyatini yo'lga qo'ydi. Iuzeutlar ordeni, boshqa puxta tashkil etilgan jangari diniy ordenlar, qattiq senzura kiritilib, muxolif kuchlarga qarshi ayovsiz urush kuchaydi. Bu tadbirlar natijalarni berdi, lekin bu vaqtinchalik edi, qaysiki, endi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayoti shart-sharoitlari keskin o'zgardi.

Reformatsiya natijasida Yevropa jamiyati hayotida diniy dunyoqarashning mutlaq hukmronligi barham topdi. XVIII asrda ma'rifatparvarlik asrida ateizm goysi tarqaldi. Yevropada bu davrda xristian dini ma'naviy hayot, siyosat va iqtisodiyotda o'z hukmronligini yo'qotdi. Inson o'zining dunyodagi o'rni va o'zining jamiyat, davlat va ma'naviy-madaniy sohalar bilan munosabatini tahlil qila boshladi.

Tayanch iboralar: O'rta asrlar, shahar kengashi, erkin dehqon manufaktura, birja, bank. Dastlabki kapital jamg'arish, Geografik kashfiyot, siyosiy tuzum, xartiya, qirol hokimiyati kapital

Takrorlash uchun savollar

1. O'rta asr Yevropa sivilizatsiyasining asosiy xususiyatlarini aniqlang
2. O'rta asrlarda shahar aholisining turmush tarzini ta'riflang.
3. O'rta asrlarda Yevropaning tushkinligiga nimalar sabab bo'ldi?
4. Nima uchun universitetlar "hurfiylik" va "shakkoklik" o'choqlari bo'ldi?
5. O'rta asr Yevropa renessansi bo'lgan edimi?
6. Yevropa tasviriy san'atining noyob namunalari qachon yaratildi?

Mustaqil ish mavzulari

1. O'rta asrlarda Yevropa iqtisodiyoti
2. O'rta asrlarda Yevropa dehqonlari
3. O'rta asr Yevropa renessansining mazmun mohiyati
4. O'rta asrlarda xristian cherkovi

17-mavzu. INDUSTRIAL SIVILIZATSIYAGA O‘TISH

1. Industriya arafasi iqtisodiyoti. 2. Industrial sivilizatsiyaning xronologik chegaralari. 3. Yevropaning Amerika, Afrika, Avstraliya va Osiyoga ekspansiyasini boshlanishi va uning oqibatlari. 4. Jamiyat ijtimoiy stratifikatsiyasining evolyutsiyasi.

1. Industriya arafasi iqtisodiyoti. XVI asr – XVII asrlarning I yarmi. Dastlabki kapital jamg‘arishning barcha qo‘pol shakllari to‘la, chuqur va obrazli qilib K. Marks tomonidan “Kapital” asarining I jildining 24-bobida tasvirlangan. Bu vaqt kapitalistik iqtisodiyotning butun dunyo bo‘ylab zafarli yurishi davri edi. Aynan shu davrda ko‘p sonli lokal va hududiy bozorlar xalqaro savdo bilan mahkam bog‘langan yagona milliy bozorlarga birlashdi. Industriya arafasida barqaror mutloq monarxiyalar mavjud bo‘lgan davlatlarning vujudga keldi. Zamonaviylik huquqiga tayanib ish ko‘radigan davlat hokimiyati feodal xo‘jayinlar beboshligi, o‘zaro nizolariga chek qo‘ydi. Ishlab chiqarish va savdo uchun qulay sharoit yaratdi. O‘sha davrda ilk kapital jamg‘arish tarixi Yevropaning tarixiy taraqqiyotini bir necha yuz yilga belgilab bergan bozor iqtisodiyoti erasining boshlanishi boshqa mamlakatlar, qit‘alarning hayotiga ko‘p hollarda fojiali ta‘sir qilgan jarayonlar, bizning davrimizdagi sifat jihatdan yangi o‘zgarishlar, buyuk burilishlarga olib keldi.

Industriya arafasidagi sivilizatsiyaning tushkunligi va so‘nishi, keyingi sivilizatsiyaga o‘tish davri XVII asrning oxiri XVIII asrni to‘la o‘z ichiga oladi. Bu vaqtda aholi o‘sish sur‘ati o‘sdi. Angliya aholisi 1700-yilda 5,08 million kishidan 1790-yil 8,2 million kishiga ko‘paydi.

Ishlab chiqarishning texnologik usulida to‘ntarish takrorlanmas bo‘ldi. U XVIII asrning so‘nggi choragi XIX asr boshlarida sanoat inqilobi ko‘rinishida yuz berdi. Industrial jamiyatga o‘tish davri XVIII asrning so‘nggi choragida sanoat to‘ntarishi va fransuz inqilobidan boshlandi. Angliya burjua inqilobi Yevropada feodalizmning bozor munosabatlariga asoslangan jamiyat bilan almashuv davrini boshlab berdi. Ilg‘or mamlakatlarda manufaktura seh hunarmandchiligi ustidan g‘alaba qildi va bo‘lg‘usi mashinalashgan ishlab chiqarish uchun shart-sharoit yaratdi. Bozor munosabatlariga o‘tish yangi davrdan boshlab Yevropa, Shimoliy Amerika, keyinroq Osiyo, Afrikaning bepoyon hududlarini qamrab oldi.

Oilaviy hunarmandchilik ustaxonalarini birlashtirgan sehlarining keng tarqalishi hunarlarning rivojlanishi va ixtisoslashga olib keldi. Sehlar hunarmandchiligi mehnat qurollarining ixtisoslashuvi, texnologi-

yalar va tayyorlanadigan qurollarni standartlashtirish, kooperatsiyalashga yordam berdi. Lekin qattiq reglamentatsiya va texnologik konservativlik XV asrga kelib u texnik o'zgarishlarga to'siq bo'ldi. Lekin ilk sanoat korxonalari – manufakturalarda texnikani yangilash, mehnat taqsimoti muntazam bordi.

Domna pechi va toshko'mirning qo'llanilishi yanada arzon metallni mo'l-ko'l bo'lishini ta'minladi. Dengiz orti mustamlakalaridan xomashyoning yangi manbalarini oqib kelishi va uni qayta ishlashda samarali texnologik usullarning qo'llanilishi, mahsulot turini ko'payishiga olib keldi. Yevropa shu vaqtdan boshlab o'zga yurtlardan olib kelinadigan xomashyoga bog'lanib qoldi. Shahar aholisi ko'paydi. Endilikda oziq-ovqat va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi muntazam o'sib bordi. Bozorlar kengayib aholining soni va daromadining o'sishi jun, paxta-ip, shisha va chinni manufakturalarining tez rivojlanishiga olib keldi.

Qadimgi sharqda mil. avv. II asrdan ishlatilgan qog'oz XII asrda Yevropaga yetib keldi. Dastlab matodan, keyin yog'ochdan qog'oz tayyorlash boshlandi. Yevropada birinchi qog'ozni ishlab chiqargan mamlakat Ispaniyahududidagi arab davlati qurdoba amirligi (XII asr) edi. Kitob bosish dastgohi ham Xitoydan o'zlashtirib olinib, u Germaniyada 1445-yilda Ioann Guttenberg tomonidan takomillashtirdi. Natijada bu davrda kitob bosish jadal rivojlandi. 1500-yilda Yevropa mamlakatlarida 40 000 kitob nashr qilindi. Kitob orqali bilimlarning tarqalishi, texnik progressning tezlashuvi yuz berdi. Kitob yangi ilmiy bilimlarni amalda qo'llashning qurollaridan biri bo'ldi. Bu yangilik madaniyat taraqqiyotida tub burilish yasadi. Kitob bosishni tarqalishi ta'limni rivojlanishida muhim o'rinni egalladi, savodli odamlar soni keskin o'sib bordi, kitobga bo'lgan ehtiyoj ham kuchaydi.

O'q otuvchi qurolni manufakturada ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi (artilleriya, pistolet). Artilleriya bilan jihozlangan harbiy dengiz floti yuzaga keldi. Yevropada industriya arafasi sivilizatsiyasining iqtisodiy munosabatlari amalda materikning butun aholisini qamrab olgan bozor chegaralarining mustahkamlanishi va kengayishi, kapitalizmning asta-sekin savdo, sanoat, dengiz transporti, qisman qishloq xo'jaligi (Angliyadagi g'ov tutish jarayoni)da qisman shakllanishi bilan tavsiflanadi. Dastlab Italiya, keyin Amsterdam, Parij, Londonda savdo, veksell aylanishi bank va birja faoliyatining mukammal mexanizmi, bozor infratuzilishi shakllandi.

Iqtisodiy hokimiyat asta-sekin katta yer egalari, aslzodalar va cherkovdan savdo-moliya sanoat kapitaliga o'tdi. Bozor munosabatlari qishloq xo'jaligiga kirib bordi. Shahar va qishloqda yollanma mehnat

keng tarqala boshladi. Yevropada o‘z umrini o‘tab bo‘lgan eski feodal tartib-qoidalaridan yangi ijtimoiy tuzum bozor munosabatlariga asoslangan tuzumga o‘tish boshlandi. Yangi davr burjuaziya ishlab chiqarish munosabatlarining birinchi shaklini alohida taraqqiyoti bilan tavsiflandi. “Manufaktura kapitalizmi” dastlab ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda ilg‘or bo‘lgan mamlakatlar – Angliya va Niderlandiyada ko‘zga ko‘rindi. Siyosiy tenglik uchun feodal toifachiligini tugatish, syuzerenlarning (o‘z vassallariga ega bo‘lgan, feodal-senor (qirol, gersog, graf)) cheksiz hukmronligi va o‘zboshimchaligini tugatish uchun kurashni kuchaytirdi. Niderland va ingliz burjuaziya inqiloblari natijasida “uchinchi toifa” (boy shaharlik savdogar-hunarmand va tadbirkorlar)ning siyosiy ta’siri kuchaydi, lekin davlat darajasida hokimiyat avvalgidek, monarx (qirol), oqsuyak feodallar va cherkovning yuqori tabaqasi qo‘lida edi. Faqat Angliyada parlamentning kuchayishi bilan qirol hokimiyatining vakolatlari cheklandi. Venetsiyada an’anaviy respublika tuzumi saqlanib qolindi.

Ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashgan davri xalq g‘alayonlari, qonli fuqarolik va diniy urushlar vaqti edi. Qirollar va feodallar to‘xtovsiz urushlar olib bordilar (Angliya va Fransiya o‘rtasida yuz yillik urush, Umumyevropa 30 yillik urushi 1618-1648-yillar). Urushlar katta miqdordagi mablag‘larni talab qilar edi. Bu shahar aholisi va dehqonlar uchun soliq va majburiyatlar yukini ko‘paytirar edi. Bu xalq qo‘zg‘olonlariga olib keldi. Ulardan Fransiyadagi Jakeriya qo‘zg‘oloni, Germaniyadagi dehqonlar urushini aytish mumkin.

Jahon savdosi va iqtisodiy qudratning markazi XVI asrda Antwerpen, XVI asrning so‘nggi choragi – XVII asrning birinchi choragida – Genuya, keyin Amsterdam, davrning so‘nggida – London (bu shahar 1700-yilga kelib 550 ming aholiga ega bo‘lib, Yevropadagi eng katta shahar edi) bo‘ldi. Shu bilan bir vaqtda bu davr savdo va bank burjuaziyasining siyosiy hokimiyat uchun kurashining boshlanishi edi. Bu niderland va ingliz burju inqiloblarida yaqqol ko‘rindi.

Mustamlakachilikdan orttirilgan katta boyliklar dastlab Angliyada keyin Yevropaning boshqa mamlakatlarida sanoat inqilobining boshlanishi, manufakturalarning hukmronligi, toshko‘mirning o‘zlashtirilishi, tog‘ va metallurgiya sanoatining rivojlanishi uchun moliyaviy-iqtisodiy zamin yaratdi. XVI asrda o‘zga yurtlarga ekspansiya boshlagan Yevropa dengiz orti hududlarini talash bilan ancha o‘ziga keldi. Buni tarixchilar quyidagilar bilan tan oladilar: “XVI asr – aholining o‘sishi davrida Amerikadagi ispan mulklaridan oltin va kumush oqimining o‘sishi va Germaniyada kumush qazib chiqarish texnologiyasining yaxshilanishi natijasida pul bozorida qimmatbaho metallar oqimining o‘si-

shi, sanoatning kengayishi, qishloq xo‘jaligi mahsuldorligining o‘shishi, aholi asosiy massasining hayot sharoitini yaxshilanishi ifodalangan demografik va xo‘jalik ko‘tarilishi”. (25.T.3.C11).Bozorning boshlang‘ich shakli mahsulot ayirboshlash, ularning oldi-sottisi edi. Dastlab u oddiy ko‘rinishda bo‘lib, dehqon yoki hunarmand o‘zi tayyorlagan mahsulotni uyida sotdi. Keyinchalik ishlab chiqaruvchi bilan iste‘molchi o‘rtasida savdogar paydo bo‘ldi. U mahsulotni sotib olib, uning yo‘l xarajati, qo‘shimcha chiqimlarini o‘z zimmasiga olib bozorda sotdi. Yevropada do‘konlar, ko‘plab bozorlarning vujudga kelishi XVI asrdan boshlandi. Londonda 1663-yilda 50-60 do‘kon bo‘lsa, XVII asr oxirida 300-400 tani tashkil qildi. O‘rta asrlarda yarmarkalar paydo bo‘ldi. Ularda minglab savdogar va xaridorlar to‘planib, shartnomalar tuzilar, qarzarlar (kredit) berilar edi. Katta va kichik shaharlarda yuzlab yarmarkalar belgilangan vaqtda o‘tkazilar edi. Ularning ko‘pchiligi ixtisoslashgan edi. Savdo rivojining eng oliy shakli birjalar bo‘ldi, qaysiki, mahsulotlar savdo joyiga olib kelinmay, birjada bir xil turdagi tovarlarning yirik partiyalari bilan ulgurji savdo qilinardi. Birjalar XV asr boshlarida paydo bo‘ldi. Birinchi birja 1409-yilda – Bryuggeda, 1460-yilda – Antverpenda, 1462-yilda – Lionda, 1530-yilda – Amsterdamda, 1554-yilda – Londonda, 1558-yilda – Gamburgda, 1563-yilda – Parijda tashkil etildi. Birjalarda savdogarlar, ko‘proq ularning vositachilari – brokerlar tovar va veksellarni operatsiyalari, sug‘urta shartnomalarini amalga oshirardi.

Bu “toza” savdo bo‘lib, mavjud tovarlardan ajralgan narxlarning ko‘tarilishi va pasayishi chayqovchilik o‘yini edi. Lekin aynan shu yerda jahon bozori uchun etalon bo‘lgan narxlar aniqlanardi. Ikki asosiy tovar – mehnat (ishchi kuchi) va yer uchun savdoning o‘ziga xos sharti va uni boshqarish mavjud edi. Savdo foydasini olish uchun savdo olib borilardi edi. Uning o‘rtacha foydasi belgilanib, unga talab tuzilishi shakllantirilardi, u orqali ishlab chiqarish tuzulmasi shakllantirilardi va talabning o‘zgarishiga tez javob qaytardi.

2. Industrial sivilizatsiyaning xronologik chegaralari va fazalari.

Eng avvalo, kapitalizm va postindustrializm jamiyatining tarixiy chegaralarini ajratish kerak bo‘ladi. Industrial jamiyat gullab-yashnash, barqarorlik va so‘nishi fazalarini boshdan kechirdi. O‘zining tashkiliy aks etishi tarzida mashina va fabrika tizimini o‘ziga mos moddiy bazani shakllantirdi. Industrializmning mohiyati ishlab chiqarishning mashinalashgan ko‘rinishidan iborat. Bu iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy munosabatlarda o‘z izini qoldirdi.

Industrial jamiyatning o‘zini shakllanish fazasi XVIII asrning so‘ngi choragidan XIX asrning boshlarigacha bo‘lgan davrni qamrab oladi.

Industrial jamiyat dastlab Angliyada shakllandi. Keyinchalik esa Yevropaning qit'a qismi va Shimoliy Amerika industrial jamiyatning ilg'or hududlariga aylandi.. Industrial jamiyatning jadal tarqalish fazasi XIX asr o'rtalarigacha davom etdi. Shundan so'ng, industrial jamiyatning barqaror taraqqiyoti to'g'risida aytish mumkin.

Industrial jamiyat yuksalish va yetuklik fazasini I jahon urushining boshigacha o'z boshidan kechirdi. Shundan so'ng, uning so'nish fazasi boshlandi. XX asrning so'nggi choragida postindustrial sivilizatsiyaga o'tish davriga kirish boshlandi. Industrial jamiyatning so'nggi uzoq bo'lmagan qisqa parvozi XX asrning 50-60 yillari boshlari bo'lganini aytish mumkin.

Industrial jamiyatning rivojlanish fazalari to'g'risidagi qarashlar har xil. Sobiq sovet tarixshunosligida insoniyat tarixidagi yangi eraning boshlanishi 1917-yilda Rossiyadagi Oktyabr inqilobidan boshlanadi deb qabul qilindi. I.M.Dyakonov kapitalistik fazaning tarixiy taraqqiyotiga qisqa muddat – 100 yildan sal ko'proq vaqtni ajratdi. XIX asr o'rtalari (1832-yilda Angliyadagi parlament islohotlaridan keyin, Fransiya va Germaniyadagi inqiloblar)gacha G'arbiy Yevropaning yetakchi mamlakatlarida burjuaziyaning siyosiy hukmronligini o'rnatilishidan 1952-yil AQSH va 1953-yil SSSR da birinchi vodorod bombalarining sinovlarigacha bo'lgan davr, lekin industrial sivilizatsiyaning boshlanish va tugallanish fazalari bu doiradan chiqib ketdi.

Industrial sivilizatsiyaning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini belgilash mumkin:

- Industrial jamiyat texnologiyalarga ustuvor o'rin berdi. Texnikaning yangilanishi mahsulotning raqobatbardoshligi va sifatini o'sishi va tannarxini arzonlashuvining asosi bo'ldi.

- Inson industrial tizimda mashinalarning ijodchisi bo'ladi, ularni qurdi va ishlatdi. Inson mashinani o'z mehnatini yengillashtirish uchun yaratdi, mashina esa insonni o'ziga tiz cho'ktirdi.

- Mashinalashgan ishlab chiqarishning gumanizm davri tugadi. Bu madaniyatda o'z ifodasini topdi. Mashinalashgan, standartlashgan milliy har xillikdan mahrum qilingan gumanizm davri merosi bilan aloqasini uzgan ommaviy madaniyat paydo bo'ldi, qaysiki, u industrlashgan aksil madaniyatga aylana boshladi. Ayniqsa, bu XX asrda industrial sivilizatsiyaning so'nish fazasida yaqqol ko'rindi.

- Industrial davr iqtisodiyotida qarama-qarshi an'analar kuzatildi. Ishlab chiqarish kuchlarining qudratli va uzoq yuksalishi rivojlangan mamlakatlarda aholining keng qatlamlarining farovon hayot kechirishini ta'minladi. Industriyaning jadal olg'a borayotgan qudrati va mehnat un-

umdorligi o'n martalab o'sdi. Ko'pchilik oilalar uchun televizor, maishiy texnika, avtomobillarning tez-tez almashtiriladigan rusumlari, turistik sayohatlar odatdagi hol bo'lib qoldi. Lekin bunday taassurot qoldiradigan progressga juda o'gir to'lovlar evaziga erishildi.

Milliy va global takror ishlab chiqarishning buzilgan tuzulmasini istiqboli yo'qligi yanada yaqqol ko'rina boshladi. Bor yo'g'i 40 ga yaqin rivojlangan mamlakatlarning gullab- yashnashi va farovonligi rivojlanayotgan mamlakatlarning mehnat va tabiiy resurslarini o'zlashtirishga asoslangan. Erkin raqobat davridan faqat xotiralar qoldi.

Iqtisodiyotni aksiyalash orqali monopoliyalar hukmronligi boshlandi, qaysiki, ular keyinchalik kuchli davlat apparati bilan birlashib ketdilar. XX asrning ikkinchi yarmida transmilliy korporatsiyalarning jadal yuksalishi kuzatildi. Ular dunyo iqtisodiyotining yetakchi sohalarida jahon iqtisodiyotining qudratli hukmdorlariga aylandilar. Aholining aksiya va obligatsiyalarga ega bo'lgan, o'sib borayotgan qatlamlari mulkdorlarga aylandilar.

Yevropaning bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarida arzon xomasyo, arzon ishchi kuchi sanoat va agrar sohalarni rivojlanishida katta rol o'ynadi. Asta sekin turmush darajasi yaxshilana boshladi. Lekin yollanib ishlaydigan ishchilar o'z haq-huquqlarini qattiq kurashlar natijasida oldilar. XVIII-XIX asrlarda yollanma ishchilar ish tashlash- zabastovka, stachka, lokaut kabi norozilik harakatlari bilan ish haqini oshirish, mehnat sharoitini yaxshilash, kabi iqtisodiy talablar bilan chiqdilar. O'z kasaba uyushmalarini tashkil etdilar Bu kurashlar natijasida rivojlangan mamlakatlar ishchilari loyiq ish haqi va ish sharoiti, 8-7 soatlik ish kuni va farovon turmushga erishdilar.

3. Yevropaning Amerika, Afrika, Avstraliya va Osiyoga ekspansiyasini boshlanishi va uning oqibatlari. Yevropa o'rta asrlarda iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan og'ir ahvolda edi, Aholining o'sishi bilan oziq-ovqat va boshqa moddiy resurslarga talab kuchaydi. Xo'jalikning natural xarakteri qurg'oqchilik va yuqumli kasalliklarning muntazam yuz berishi, o'zaro feodal urushlari qashshoqlikni yanada kuchaytirdi. Dastlab Yevropa sharqqa salib yurishlari bilan o'zgalarni talash bilan bu muammolarni hal qilishga urindi. Iso payg'ambar qabrini g'ayridinlardan qutqarish bahonasi bilan Rim papasi homiyligida Old Osiyoning boy mamlakatlariga salib yurishlari uyushtirdi. lekin salib yurishlari kutilgan natijalarni bermadi.

Endi Yevropa bu muammolarni hal qilish uchun uzoq o'lka va hududlarning boyliklari, xomasho va arzon ishchi kuchiga ko'z tikdi. Yevropaning Amerika, Afrika va Osiyo xalqlarini talash maqsadida XV

ning oxirida bu qit'alarga boshlagan ekspansiyasini yevropa tarixchilari "buyuk geografik kashfiyotlar" deb atadilar. Ushbu ekspansiya Yevropani bozor munosabatlarga o'tish uchun nihoyatda zarur bo'lgan dastlabki kapital jamgarmasini ulkan qismini berdi. Amerika, Afrika, Avstraliya va Osiyodan oltin kumush va xomashyo olish uchun yurish boshlandi. Yevropa bu hududlarni moddiy boyliklari, xalqlarini talashga kirishdi. Yevropa Amerika, Avstraliya, Afrika va Osiyodan talab olgan ilk moddiy boyliklarni ishlab-chiqarish, yangi texnika va texnologiyani rivojlantirishga yo'naltirdi. Qit'alardagi hududlarni mustamlaka qilishni Yevropa tizimli amalga oshira boshladi.

Amerika va Afrikaga yevropaliklarni kirib kelishi bu hududlar uchun ulkan fojea bo'ldi. Bu qit'alardagi mavjud sivilizatsiyalar yo'q qilindi, bu hududlardagi o'ziga xos madaniyat va sivilizatsiyalar halokatga uchradi. Yuz milliondan ko'proq kishi jismoniy yo'q qilindi. Yevropaning mustamlakachiligi bu qit'alar taraqqiyotini bir necha asrlar orqaga ulotqirib tashladi va mustamlakachilikning iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy oqibatlarini hozirgacha davom etayotgani Osiyo, Amerika va Avstraliyada inqiroz-tushkinlikka olib keldi.

Portugaliya, Ispaniya, Angliya, Fransiya va Gollandiya davlatlari mablag' bilan ta'minlagan birinchi dengiz ekspeditsiyalariga aniq vazifa – bu hududlarda bo'lgan qimmatbaho metallar oltin kumush va boshqa taqchil xomashyoni topish vazifasi qo'yildi. Kolumb tadbirkor savdogar sifatida ispan qiroliga eng katta foyda keltiradigan foyda bu qul savdosi ekanligini qul savdosi bilan Ispaniya shug'ullanishi kerakligini maslahat beradi. Kolumb birinchi bosqinchilik sayohatida ispan qiroliga shunday yozgan edi: "Shu tarzda faqatgina birinchi sayohat vaqtida" oliy hazratlari ishonishlari mumkin, men ularga (ya'ni qirolga) qancha kerak bo'lsa shuncha oltin beraman, agar oliy hazratlari menga ozgina yordam ko'rsatsalar; bundan tashqari, ziravorlar va paxta – qirol hazratlari qancha amr qilsalar, shu qatorida xushbo'y qatron ... qancha kerak bo'lsa va qancha jonatishga amr qilsalar men yana aloye va qullar beraman".

Kolumb Amerika va orollarga sayohati davomida bu hududlardan qaysi boyliklarni Ispaniyaga jo'natish mumkinligi to'g'risida Ispan qiroliga shunday xat yozadi: "Bu sotish mumkin bo'lgan barcha qullarni va bo'yoq beradigan daraxtlarni jo'natish mumkin va agar mendagi ma'lumotlar to'g'ri bo'lsa, Kastiliyaga, Portugaliya, Aragon, Italiya va Sitsiliyaga 4000 qullarni sotish mumkin..., Portugaliya va Aragonga tegishli orollarga, Kanar orollarida qullarga talab katta; meni o'ylashimcha, ular Gvineyadan yetarli miqdorda olib kelinmaydi. Bu joylardan qullar, agar ular (yuqorida aytilgan mamlakatlarga) olib kelinsa, Gvineyadan ko'ra

uch marta qimmat bo‘ladi. Bu yerda menimcha daromad beradigan qullar va bo‘yoq beradigan daraxt bor. Va bundan tashqari, oltin.. Qullarni tashish uchun to‘lovni qullarni sotishdan kelgan birinchi foydadan ajratish mumkin. Va, mayli yo‘lda qullar o‘lgan taqdirda ham – baribir ularni hammasiga ham bunday taqdir dahshat solmaydi... 18 noyabr 1498 yil. **“История средних веков (XV-XVII вв.): Хрестоматия ч. 2. М. Просвещение 1981 стр 125-126.**

Afrikadan millionlab afrikaliklar Amerika va Yevropaga olib kelib sotib yuborildi. Portugaliyaning Gvineya kompaniyasi qul savdosini boshlab berdi. Qul savdosi katta foyda keltirar edi. Yevropa, keyinchalik shimoliy Amerika o‘z taraqqiyotini barqaror rivojlanishini ta‘minlash uchun boshqa qit‘alarning xom-ashyo, yoqilg‘i zahiralari va arzon ishchi kuchini o‘zlashtirib kelmoqda.

Yangi hududlarni mustamlakaga aylantirishi Yevropada endigina shakllanib kelayotgan bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni rivojlanishi uchun kuchli va mustahkam moliyaviy-moddiy zamin yaratdi. Dengiz orti istilolari bilan oqib kelgan oltin, kumush va boshqa moddiy boyliklar Portugaliya, va Ispaniyada hukmron feodal tabaqaning hashamatli hayotini ta‘minladi, qirol hokimiyatini mustahkamladi. Boshqa mamlakatlar Angliya, Fransiya va Gollandiyada bozor munosabatlariga o‘tish uchun dastlabki kapital jamgarilishida Amerika, Afrika va Osiyoni talashdan kelgan boyliklar eng katta ulushni tashkil etdi. Mustamlakalardan oqib kelgan oltin, kumush va boshqa moddiy boyliklar, arzon xom ashyo, ishchi kuchi, qullar iqtisodiyotni ko‘tarilishiga sanoat, xizmat ko‘rsatish sohalari ulkan sakrashlar bilan olg‘a rivojlanishiga olib keldi. Bundan tashqari ekspansiya xalqaro savdoning rivojlanishi, kemasozlik va dengizchilikda to‘plangan yutuqlarni o‘zlashtirishga yordam berdi.

4. Jamiyat ijtimoiy stratifikatsiyasining evolyutsiyasi. Shimoliy Yevropa va Osiyoning ko‘pchilik xalqlari ibtidoiy jamoa tuzumidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri feodalizmga o‘tdi. Bunday xalqlarda qulchilikning rivojlangan shakllarini uchratmaymiz. Misol uchun, quyidagi xalqlarni shu tipga kiritishimiz mumkin: Shimoliy Yevropada-Skandinaviya, Boltiqbo‘yi, Slavyan xalqlari; Osiyoda-arablar, O‘rta Osiyo xalqlari.

O‘rta asr jamiyati qadimgi sivilizatsiyadan murakkab ijtimoiy tuzilmani meros qilib oldi. Lekin feodal jamiyatning taraqqiyoti jarayonida unga mos ijtimoiy guruhlar shakllandi. O‘rta asr Yevropasida quyidagi ijtimoiy tabaqalar mavjud edi: erkin dehqonlar, katta yer egaligi paydo bo‘lishi bilan qaram dehqonlar qatlami vujudga keldi. Feodal jamiyat ijtimoiy pog‘onasining eng yuqorisida feodallar sinfi – yer egalari, oliy ruhoniylar, harbiy boshliqlar u yoki bu darajada imperator turar edi. Ular doimiy ravishda soliqlar yig‘ish, o‘zaro urushlar bilan band edilar.

Ularga qarama-qarshi tomonda o'zining tirikchiligi va feodalga pul va mahsulot hisobida bir qism hosilni beradigan, chek yerga ega bo'lgan qaram dehqonlar va erkin dehqonlar turar edi. Qaram dehqon xo'jayin tomonidan sotilishi, askarlikka berilishi va jazolanishi mumkin edi. Dehqonlar ham feodal zulm va majburiyatlar bilan nihoyatda ezilganligi sababli, davriy holda zulmga qarshi qo'zg'olon qildilar. (Fransiyada Jakeriya – 1358-yil; Angliyada Uot Tayler qo'zg'oloni – 1381-yil; Germaniyada dehqonlar urushi – 1524-1525-yillar; Xorvatiya va Slovakiyada dehqonlar qo'zg'oloni – 1573yil; Rossiyada Ivan Bolotnikov qo'zg'oloni – 1606-1607-yillar).

O'rta asrlarda ishlab chiqarish usuli o'zgarishi bilan ijtimoiy sohada ham o'zgarishlar sodir bo'ldi. Hunarmandlar, savdogarlar, ruhoniylar, erkin mehnat kishilari (rassomlar, musiqachilar, artistlar, o'qituvchilar, shoirlar) va yollanib ishlovchilar (quruvchilar, xizmatkorlar). Hukmron tabaqa – qirol va uning oilasi, gersoglar, graflar, baronlar, ritsarlar alohida toifani tashkil etdilar. Rusda knyazlar, boyarlar, ularning xizmatchilari, erkin dehqonlar, qaram dehqonlar (xolop), hunarmandlar, savdogarlar. O'rta Osiyoda hukmron tabaqa: katta yer egalari, qaram dehqonlar, erkin jamoachi dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar, yollanib ishlovchilar, qullar, ruhoniylar, harbiylar. Qadimgi sharqda mavjud bo'lgan qishloq jamoasi o'rta asrlarda ham saqlanib qoldi.

Turmush tarzi. O'rta asrlarda Yevropada yuvinishni yoqtirmaganlar. Salib yurishlari davrida arablardan o'lib kelingan xushboy hid tarqatadigan atir Yevropada yuqori baholangan. Satang zodagonlar badanlaridagi badbo'y hidni yo'qotish uchun kiyimlariga arab atirini sepqanlar. O'z go'zalliklarini namoyon qilish uchun turli zeb-ziynat buyumlarini taqqanlar. Uzun bo'yin ayollar uchun go'zallik mukammallik ramzi bo'lgan. Orta asrlarda xitoylik ayollar bo'yinlarini o'stirish uchun bo'yinlariga halqa kiydirilgan. Xitoylik zodagon ayollar uchun kichik oyoqlar moda bo'lgan. Shu sababli zodagon oilalarda balog'atga yetmagan qizlarni oyoqlari o'smasligi uchun barmoqlarini o'rqaga tortib bog'lab qo'yilgan. Bu juda katta jismoniy azob bo'lgan. O'rta asrlarda Yevropada gavdaning to'laligi ayollarning go'zalligi hisoblangan. Rassomlar ayollarni to'lalikda tasvirlaganlar. Lekin o'rta asr odamlarining bo'yi o'rtadan past bo'lgan.

Tayanch iboralar: O'rta asrlar, shahar kengashi, erkin dehqon manufaktura, birja, bank. Dastlabki kapital jamg'arish, Geografik kashfiyot, siyosiy tuzum, xartiya, qirol hokimiyati kapital

Takrorlash uchun savollar

1. O'rta asr Yevropa sivilizatsiyasining asosiy sifat ko'rsatgichlarini ayting.

2. O'rta asrlarda shahar aholisining turmushtarzini ta'riflang.
3. Manufaktura ishlab-chiqarishini ta'riflang.
4. Industrial jamiyatga o'tish davrida iqtisodiyotdagi o'zgarishlarni aniqlang.
5. Dastlabki kapital jamgarish nima u?
6. Yevropaning boshqa qit'alarga ekspansiyasi qachon boshlandi?

Mustaqil ish mavzulari

1. Bozor munosabatlari tushunchasi.
2. Industrial sivilizatsiya tushunchasi va uning bosqichlari.
3. Industrial sivilizatsiyaning yuksalish fazasining umumiy tavsifi.
4. Industrial davrning siyosiy, davlat-huquqiy tizimi.
5. Industrial davr iqtisodiyotida qarama-qarshi an'analar.

18-mavzu. IJTIMOY-SIYOSIY TUZILMALAR EVOLYUTSIYASI (XV-XX asrlar)

1. Jamiyat ijtimoiy stratifikatsiyasining evolyutsiyasi. 2. Zamonaviy Yevropa sivilizatsiyasining siyosiy-iqtisodiy asoslarini yaratilishi 3. Sanoat to'ntarishi. 4. Yevropada davlatchilik an'analari 5. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar 6. Totalitar tizimlar 7. Ijtimoiy-siyosiy kuchlarning joylashuvi. 8. Industrial jamiyatda inson.

1. Jamiyat ijtimoiy stratifikatsiyasining evolyutsiyasi. Yangi davrda Yevropada Ijtimoiy kuchlarning yangi joylashuvida ham o'zgarishlar yuz berdi. Iqtisodiy va siyosiy hokimiyatga ega bo'lgan burjuaziya, u bilan bog'langan eski oqsuyak-zodagonlar, ularga qarama-qarshi yollanma ishchilar, mayda savdogarlar turar edi. Ularning oralig'ida texnik va ijodiy ziyolilar, davlat muassasalari xizmatchilari, harbiylar o'rta qatlamni tashkil qilar edi. Jamiyatning eng quyisida o'z sinfi, qatlamidan ajralgan unsurlar – lyumpen proletariat turar edi ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi nisbat doimo o'zgarib turar edi. Hukmron tabaqa bo'lgan katta yer egalari, keyinchalik burjuaziya va huquqlari kamsitilgan qatlamlar (mayda savdogarlar, dehqonlar va yollanma ishchilar) o'rtasida davriy ravishda fuqarolik urushlari, inqiloblar ko'rinishida qarama-qarshiliklar yuz berar edi.

Shaharlarda boy savdogar-hunarmandlar, sex oqsoqollari, sudyalari, sudxo'r bankirlar, amaldorlar, kambag'al hunarmandlar, xizmatkorlar, xalfalar, mayda savdogarlar va qullar yashar edi. O'rta asrlar oxirida sha-

harlarda burjua jamiyatining sinflari tadbirkor-kapitalistlar va yollanma ishchilar shakllana boshladi. Katta yer egalari uzoq vaqt o'z mavqelarini saqlab turdilar, lekin asta-sekin ular qo'shimcha qiymatning bir qismini o'zlashtirib, tadbirkorlik bilan shug'ullandilar va burjua sinfiga transformatsiya qildilar.

XVI-XIX asrlarda industrial ijtimoiy-siyosiy tizimning shakllanishi va keng tarqalishi jamiyat tuzilmasida tub siljishlarga olib keldi. Ijtimoiy pog'onaning cho'qqisida o'z tarkibiga ko'ra, bir xil bo'lmagan kapitalistlar sinfi turar edi. Uning asosida savdo va tadbirkorlik orqali katta jamg'arma to'plagan va bu mablag'ni manufaktura-fabrika, qishloq xo'jaligi va qurilish kompaniyalariga qo'ygan savdo-moliya kapitalistlari turdi.

Industrial iqtisodiyotning shakllanishi jarayonida ijtimoiy o'zgarishlar yuz berib, tabaqalanish jarayonida bu jamiyatning eng asosiy ishchi kuchi bo'lgan, ko'p sonli ishchilar sinfi paydo bo'ldi. O'z ishchi kuchini sotib yashaydigan ishchilar sinfi tarkibi bir xil bo'lmay, yuqori malakali va malakasiz ishchilar ishchilardan iborat edi. Ishchilarning asosiy qismi sanoat ishlab chiqarishida ishlab shaharlarda yashar edi. Yarim proletariat va mavsumiy ishchilar bir qism yerga ega bo'lib, ozgina ish haqi olar edilar. Lyumpen proletariat tasodifiy ish haqi olib yashar edi.

Dehqonlarning ham qiyofasi o'zgardi. Tabaqalanish jarayonida dehqonlar qatlami tarkibidan bevosita ishlab chiqarishga ishtirok etishdan ajralmagan qishloqlarning burjuaziyasi ajralib chiqdi. O'rta hol dehqonlar o'z ehtiyojlarini o'z shaxsiy xo'jaliklaridan qondirib yashar edilar. Ulardan tashqari, ozgina yerga ega bo'lgan qashshoq dehqonlar, batraklar, qishloq hunarmandlari, yersiz dehqonlar qishloqda ko'pchilikni tashkil qildi.

Shahar mayda burjuaziyasining ancha katta qatlami: mayda savdogarlar, maishiy xizmat ko'rsatish do'konlari, sartaroshxona, oshxona, restoran, ustaxona egalari shakllandi. Ular xizmat ko'rsatish – tovar va xizmatlarni sotish hisobidan yashab, turli soliq va majburiyatlarni o'tar edilar.

Industrial jamiyatda ziyolilarning o'sib borayotgan qatlami shakllandi: ilmiy-texnik (olim, injenerlar, texniklar, agronomlar), ijodiy-badiiy: (rassom, artist, musiqachi, yozuvchi va boshqalar), iqtisodiy (menejerlar, boshqaruvchilar). Ularning sezilarli qismi industrial mashinaning ziyoli bo'g'ini – “oq yoqalilar” sifatida chiqib, o'z malakali ish kuchini sotish hisobiga yashar edilar; bu qatlam qisman gonorar, homiylar hisobidan yashovchi erkin mehnat kishilari edilar.

Byukrokatik davlat mashinasiga xizmat qiladigan, buning uchun ish haqi oladigan va ishdan ketgandan keyin nafaqa oladigan amaldorlar qatlamini alohida ko'rsatish lozim. Anchagina katta ijtimoiy qatlamni harbiy xizmatchilar tashkil etdi. Eng avvalo, jamiyatda alohida o'rinni egallagan

ko'p sonli zobit va generallar asosan zodagon va burjuaziya ichidan tanlab olinar, ular hukmron tabaqaning tayanchi edilar. Vaqti-vaqti bilan ular ochiq harbiy diktaturani o'rnatar edilar.

Industriya arafasi sivilizatsiyaning so'nishi reformatsiya va kontrreformatsiya davrlarida yana qirolning mutlaq hokimiyati mustahkamlanishi, inkvizitsiya va zulmning kuchayishi yuz berdi. Lekin bu jarayon uzoq davom etmadi. Feodal – toifaviy tuzum halokatga uchradi. Burjuaziya erkinliklari fuqarolarning teng huquqliklaridan shaxs ustuvorligi, raqobat kurashida teng imkoniyatlardan kelib chiqib, ingliz va fransuz inqiloblari, Shimoliy Amerikada mustaqillik uchun g'olibona kurash natijasida qaror topdi. Shaxs erkinligi va raqobat kurashida teng imkoniyatlar burjua tuzumining ishonch-e'tiqod ramziga aylandi, industrial sivilizatsiyaning yuksalishi va gullab-yashnashiga olib keldi. XVIII asr cherkovning jamiyat ma'naviy hayotidagi to'la hukmronligiga chek qo'ygan ma'rifatparvarlik asri bo'ldi. Shakllanayotgan burjua tartib-qoidalari diniy xurofotlardan xalos bo'lgan fanlar, kashfiyotlar, ta'limning jadal taraqqiyoti uchun yo'l ochdi. Din inson aqli, qudrati oldida chekinishga majbur bo'lib, jamiyatning yangi sharoitlariga moslashishga majbur bo'ldi. Hurfikrlilik, fan-texnika taraqqiyoti yangi ilmiy kashfiyotlar va ixtirolarga olib keldi. Bu o'z navbatida, insonning og'ir jismoniy mehnatdan qutulishi va turmush sharoitini yaxshilash, moddiy ehtiyojlarini to'laroq qondirishga shart-sharoit yaratdi. Lekin XX asrda industrial sivilizatsiyaning so'nishi natijasida inson ulkan industrial mashinaning vintchasiga aylandi. Germaniya va Italiya va Yevropaning bir necha mamlakatlarida fashizmning hukmronligi o'rnatildi. Militarizm kuchayib jahon urushlari kelib chiqdi. Millionlab kishilar urush qurbonlari bo'ldilar.

G'arbiy Yevropa mamlakatlari – Italiya, Angliya, Niderlandiya, Fransiya va German davlatlarida Industriya arafasi jamiyati shakllana boshladi. Bu mamlakatlarda yangi g'oyalar va ijtimoiy-siyosiy harakatlarni paydo bo'ldi. Burjua iqtisodiy munosabatlari qaror topdi. Mutlaq monarxiya tuzumidagi davlatlar paydo bo'ldi. Markazlashgan davlatlar asosan feodallarning o'zaro urushlariga chek qo'ydi. Siyosiy barqarorlik va dastlabki kapital jamg'arish natijasida bozor munosabatlari rivojlana boshladi

G'arb jamiyatidagi bu o'zgarishlar oila tuzilishida ham o'zgarishlarga olib keldi. Oila muassasasida siljishlar yuz berdi. Odatda uch avloddan iborat patriarxal oila feodal qishlog'i va o'rta asr shahrida hukmron edi. Hukmron tabaqa uchun ham ko'p bolalik xos bo'lib, merosni taqsimlashda ko'plab jinoyat va ixtiloflarga olib kelar edi. Oila va nikoh diniy muassasalar himoyasida edi. Bozor munosabatlari hukmronligi va shax-

siy erkinlikning kengayishi eski oilani yemirdi. U shaharda o‘z mavqeini yo‘qotib, qishloqda o‘zini saqlab qoldi. Oila eski iqtisodiy ahamiyatini, ayniqsa, ishchilar sinfi va ziyolilar qatlamida yo‘qotdi. Ayollarning erkinligi va ijtimoiy faolligi oshdi. Sharq mamlakatlarida oila o‘zining kuchli mavqeini saqlab qoldi. Urf-odat, an‘analalar oilaning mustahkamligini ta‘minladi. Oilada ota-onaning inkor qilib bo‘lmas obro‘-e‘tibori saqlanib qoldi. Islom dini ham oilaning asoslarini himoya qilib, uni qo‘llab-quvvatladi.

Inson va oilaning o‘sib borayotgan ehtiyojlari jamiyatning rivojlanishida progressiv siljishlarga olib keldi. Biologik va ijtimoiy ehtiyojlarning nisbati to‘lqinsimon o‘zgardi. Antik asrlarga o‘tish davrida antik jamiyatga qaraganda, biologik va moddiy ehtiyojlar foydasiga siljishlar yuz berdi. O‘rta asr boshlarida ishlab chiqarish kuchlarining yemirilishi odamlarning bir qismi, moddiy-ma‘naviy qadriyatlarining yo‘q qilinishi, mehnat unumdorligini pastligi ehtiyojlarni keskin qisqarishiga olib keldi. Jamoa, qishloq, shahar, oila, inson faqatgina tirik qolish uchun kurashdi. O‘rta asrlar shaharlaridagi antisaniitariya epidemiyalarning tez tarqalishi va shahar aholisining yoppasiga qirilib ketishiga olib keldi.

XX asrda industrial sivilizatsiyada ijtimoiy o‘zgarishlar yuz berdi. Industrial sivilizatsiyaning so‘nish davrida inson davlat byurokatiyasi bilan qo‘shilib ketgan monopoliyalar manfaatlariga bo‘ysundirilgan ulkan industrial mashinaning vintchasiga aylandi. Germaniya va Italiyada fashizm, sobiq SSSRda totalitar tuzum hukmron bo‘ldi. Inson tafakkurining eng oliy yutuqlari, eng yaxshi ishchi qo‘llari militarizmga xizmat qilishga berildi. Inson tafakkurining eng ajoyib kashfiyotlari odamning o‘zini qirib yuborishga xizmat qiladigan ommaviy qirg‘in qurollarining yaratilishiga jalb qilindi. Oqibatda bu jahon urushlarida millionlab kishilarni qirilib ketishiga olib keldi. Insoniyatni termoyadro halokati yoqasiga olib keldi.

Lokal, milliy va kontinental bozorlarning shakllanishi va rivojlanishi, hunarmandchilik, manufaktura, XVIII asr oxirida mashinalashgan sanoatning tez rivojlanishi natural xo‘jalikni yemirdi. Birinchi o‘ringa iqtisodiy manfaatlar chiqdi. Burjua jamiyatning odami – bu homo economicus shakllandi.

Ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlar iqtisodiy manfaatlariga bo‘ysundirilgan edi. Qiyinchilik bilan erishilgan siyosiy erkinliklar va fuqarolik tengliklari raqobat uchun teng shart-sharoitlarni ta‘minlashga qaratilgan bo‘lib, merosga qoldirilgan yoki olingan mulkni himoya qilish kerak edi. Davlat apparati, sudlar, qonunchilik ham shu maqsadlarga xizmat qilar edi. Ma‘naviy ehtiyojlar ham iqtisodiy manfaatlariga bo‘ysundirilgan bo‘lib,

ba'zida uning doirasidan tashqariga chiqar edi. Farovonlikning o'sishi, faoliyat turlarining xilma-xilligi, xalqaro aloqalarning rivojlanishi, fan, ma'daniyat va san'atning rivojlanishi ehtiyojni kuchaytirdi.

Insoniyat qobiliyatlari rivojida uning bilim va ko'nikmalari yordami bilan amalga oshadigan siklik o'sish kuzatildi. Industriya va asosan industrial jamiyatda faoliyat turlarining ko'payishi va murakkablashuvi, ishlab chiqarish, boshqaruv, harbiy ishda fanning yutuqlarini keng qo'llanilishi xodimlardan yangi bilim-ko'nikma, maxsus ta'limni talab qiladi. Bu o'rta va maxsus ta'lim, kasbiy tayyorgarlik tizimining shakllanishiga olib keldi. Bu masjid-cherkovlardagi maktablar, gimnaziya va litseylar, aholining ozchilik qismi uchun universitetlar, keyin injener va texnik xodimlar tayyorlaydigan turli xil texnikum va universitetlar edi. Manufaktura va korxonalarda ishlab chiqarish bilan bog'langan shogirdlik muassasasi saqlanib qoldi.

Tub burilishlar davrida ishlab chiqarish va hayot sharoitlari o'zgaranda, xodimlarning layoqatsizligi va kasbiy layoqatsizligi sezilarli o'sdi. Millionlab kishilarning ilgari olgan kasb-malakalari eskirib qoldi. Odamlar mutaxassisliklarini o'zgartirishga majbur bo'ldilar. Bu ta'lim tizimining sifat jihatdan o'zgarishi o'z qobiliyat-tafakkuri darajasi bilan yangi davr talablariga javob beradigan xodimlarning yangi avlodini kelishiga turtki berdi. Jamiyatlarda ta'lim tizimi davriy ravishda isloh qilina boshlandi. XIX asrning 80-yillaridan boshlab G'arb mamlakatlarida ta'lim tizimi davlat qaramog'iga o'tdi.

Industrial jamiyatda iqtisodiy majburiy mehnat asosiy va yetakchi bo'ldi, lekin majburiy mehnat hollari ham mavjud edi. Fuqarolar urushigacha AQShda qulchilik, Germaniyada fashizm konslagerlari, SSSRda kolxozchilarni majburan yerga birlashtirib, 1953-yilgacha o'z xohishi bilan ishdan bo'shshiga ta'qiq mavjud edi. Mustamlakalarda feodal va yarim feodal ekspluatatsiyaning shafqatsiz turli shakllari saqlanib qoldi. Industrial sivilizatsiyaning so'nish fazasida mehnatga majburlashning davlat byurokratik shakllari ayniqsa kuchaydi. Barcha jahon dinlarida mehnatni ulug'lash, unga undash unsurlari mavjud. Mehnatga ijobiy rag'batlantirish asta-sekin o'sib bordi. Lekin tushkunlik davrlarida ular o'z mavqelarini yo'qotdilar.

2. Zamonaviy Yevropa sivilizatsiyasining siyosiy-iqtisodiy asoslarini yaratilishi. Siyosiy jarayonlar. XIII asr o'rtalaridan XVIII asr o'rtalarigacha Yevropada iqtisodiy-siyosiy jarayonlar qator siyosiy o'zgarishlarga olib keldi. XIII-XIV asrlarda Fransiya va Angliyada markazlashgan davlatlar shakllanib, mutlaq monarxiyalar paydo bo'ldi.

Rossiya va Ispaniyada ham markazlashgan davlatlar tashkil topdi (XV asr).

Biz quyida mumtoz bozor munosabatlari shakllangan Angliya misolida oʻtmish oʻrta asrlar soʻngida Yevropadagi siyosiy-iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishga harakat qilamiz. Tyudorlar sulolasi davrida siyosiy kuchaydi. Qirol qudratli feodallarni oʻz harbiy qoʻshinlarini tugatishga majbur qildi, bu qirol hokimiyatini xavfsizligini taʼminladi. Genrix VIII maʼmuriy islohot oʻtkazib, mustahkam davlat apparatini tuzdi, vazirlar endi qirolning yaqini emas, hukumat tizimining bir qismiga aylandi. Cherkov yerlari qirol tomonidan musodara qilinib, endi cherkov dunyoviy hokimiyatning raqibi boʻla olmadi. Aholining keng tabaqalari endi qirol va hukmron elita oldiga oʻzining koʻp sonli talablarini qoʻya boshladi.

Yelizaveta I 1603 yilda vafoti bilan ingliz taxtiga Styuartlar sulolasi keldi. Qirol Yakov I Styuart va uning vorisi Karl I qirol hokimiyatini kuchaytirish, parlamentning taʼsirini kamaytirishga harakat qildi. Iqtisodiyot ustidan qirol nazoratini kuchaytirishga urindi.

1629 yilda taxtga chiqqan Karl I Styuart ham qirol hokimiyatini kuchaytirishga kirishdi, koʻplab soliqlarni joriy qildi. Oqibatda qirol bilan parlament oʻrtasida 1642 yilda urush kelib chiqdi. Parlament qirolning mutlaq hokimiyati tugatishga bel bogʻladi. Bu urushda parlament golib chiqdi, lekin siyosiy hokimiyat oʻzgarmadi. Qirol hokimiyatini oʻrniga Kromvel diktaturasi oʻrnatildi. 1658 yilda Kromvel vafotidan bir oz oʻtgach qirol hokimiyati 1660 yilda yana qayta tiklandi.

1649 yilda qatl etilgan Karl I Styuartning oʻgli Karl II va 1685 yilda taxtga chiqqan uning ukasi va vorisi Yakov II qirolning mutlaq hokimiyatini tiklashga harakat qildilar. Bu harakat parlamentning keskin qarshiligiga uchradi va 1688 yilda Angliyada ikkinchi marta fuqarolar urushi boshlandi. Angliya parlamenti gollandiyaning shtatgalteri Vilgelm Oranskiyga maʼlum bir shartlar asosida ingliz taxtini taklif qildi. Vilgelm ingliz parlamenti shartlariga rozi boʻlib 1688 yilda ingliz taxtiga chiqdi. Sobiq qirol Yakov II Fransiyaga qochib ketdi.

Angliya parlamenti bilan kelishuv asosida qirol parlamentning ruxsatisiz yangi qonunlarni joriy qila olmaydi, parlament qabul qilgan qonunlarni bekor qilmaydi va parlamentning ruxsatisiz qoʻshin toʻplay olmaydi. Parlament ushbu qoidalarni 1689 yilda qabul qilgan Huquqlar deklaratsiyasida aks ettirdi., keyinchalik bu deklaratsiya qonun kuchiga ega boʻlib Huquqlar toʻgʻrisidagi Bill deb nom oldi. Shu tarzda Angliyada konstitutsiyali cheklangan monarxiya tuzumi oʻrnatildi. Shu paytdan ingliz parlamenti davlat siyosatini qattiq nazorat ostiga oldi. Parlament

a'zolarining ko'pchiligi savdo va tadbirkorlik bilan shug'ullanar edi. Shu sababli parlament mulk huquqiga rioya qilinishiga jiddiy e'tiborni qaratdi.

Shu vaqtdan boshlab oddiy ingliz fuqarosi parlament a'zosi bo'lish imkoniyatiga ega bo'ldi. Lekin XVIII ASRDA Angliyaning faqat 2 foiz aholisi saylov huquqiga ega edi. Angliyada XIX asrda o'tkazilgan parlament islohotlari bu muammoni hal qilib demokratik saylov huquqi qaror topdi.

Ingliz parlamenti moliya tizimini ham isloh qildi. 1694 yilda Angliya Bankini ochilishi bilan sanoat uchun mablag' manbai ochildi va moliya bozorlari va bank ishini rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar paydo bo'ldi. XVIII asr boshlarida bank krediti garov qo'yishga imkoniyati bo'lgan har qanday kishiga beriladigan bo'ldi. Endilikda bankdan kredit oladiganlarning uchdan ikki qismi savdogar va tadbirkorlar edi.

Ingliz parlamenti 1688 yilgacha markaziy davlat hokimiyatining kuchayishi va uning resurslari o'sishiga qarshi turar edi, 1688 yildagi shonli inqilobdan keyin avol o'zgardi. Endilikda davlat o'z faoliyati so-halarini kengaytira boshladi, davlat xarajatlari milliy mahsulotning 10 foizini tashki etdi. Parlament davlat xazinasiga tushadigan mablag'ni mi-qdorini ko'paytirishga jiddiy e'tiborni qaratdi. Soliqqa tortilish jarayoni parlamentning nazorati ostida bo'ldi. Yevropaning boshqa mamlakatlar-ida ham ingliz inqilobidan keyin qirolning mutlaq hokimiyatiga qarshi inqiloblar turli shakllarda amalga oshib, davlat hokimiyatini demokrat-lashtirish jarayoni turli shakllarda amalga oshirildi.

Ingliz parlamenti iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish uchun qattiq kurash olib bordi. Angliyada XV asrdan iqtisodiyotning barcha sohala-rini 7 ming monopoliya egallab olgan edi. Monopolistlar o'zlariga tegish-li bo'lgan ishlab-chiqarish yoki xizmat ko'rsatish sohasiga o'zi egallagan hududda boshqi bir kompaniya yoki tadbirkorni faoliyat ko'rsatishiga yo'l qo'ymas edi. Bu iqtisodiyotning rivojlanishiga salbiy ta'sir qilar edi. Angli-yadan boshqa mamlakatlarda ham iqtisodiy taraqqiyotga monopoliyalar shunday to'siq edi. Misol uchun tarqoq Germaniyada yuzlab davlatlar-da shunday monopoliyalar hukmron edi. Misol uchun biror bir daryoda kema suzishini monopoliya qilgan qayiqchilar uyushmasi biror bir bir kemani bu daryoda suzishiga yo'l qo'ymas edilar. Agar kimdir bu tartib-ni buzadigan bo'lsa uning kemasi yoqib yuborilgan. Monopoliyalar qirol tomonidan ko'pcha o'z tarafdorlariga berilar edi. Bu o'z navbatida tad-birkorlarni faolligini cheklab, iqtisodiy taraqqiyotga to'siq edi. Parlament qirol Yakovning monopoliyalar berishini taqiqlovchi qonunni 1623 yilda qabul qilib, qirolning iqtisodiyotga aralashuvini chekladi. Angliyada par-lament tashabbusi bilan 1688 yilda har qanday monopoliya tugatilgach,

ahvol o'zgarib iqtisodiyot taraqqiyoti uchun eng katta to'siq olib tashlandi.

Yevropada demokratik tuzum va burjuaziyaning siyosiy yetakchiligini qaror topishi uchun kurash kuchaydi. Uning jarchisi XVII asrdagi ingliz burjua inqilobi bo'lib, parlament monarxiyasining shakllanishi bilan tugadi. Iqtisodiy muammolar muntazam holda yevropa jamiyatining iqtisodiy- ijtimoiy sohalariga bevosita ta'sir etib ularga tegishli o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Jamiyatning ijtimoiy tuzulmasining o'zgarish jarayonlari keskin siyosiy qarama-qarshiliklar, inqiloblar va urushlar, nisbatan barqaror va turg'un taraqqiyot davrlari bilan almashdi. Ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning qonuniyatlari tarixiy voqealarda o'z aksini topdi.

3. Sanoat to'ntarishi. Sanoat to'ntarishi jarayonida Yevropaning rivojlangan mamlakatlari ilm-fan va ta'limni maqsadli rivojlantirishga kirishdilar. Ixtisoslashtirilgan ilmiy muassasalar paydo bo'ldi, davlat hokimiyati bu sohalarga homiylik qilishni tizimli amalga oshira boshladi. Natija yomon bo'lmadi. Ayniqsa harbiy sanoat kuchli rivojlandi. Qurol-yarogning yangi turlari paydo bo'ldi. Artilleriya, o'q otish qurollari, harbiy kemalar jadal ishlab chiqarildi va davlat hokimiyati zamonaviy quollar bilan ta'minlangan kuchli armiyani tashkil etib yangi qit'alarni bosib olish va talashga kirishdi.

Logistika yaxshi yo'lga qo'yildi. Dengiz va okeanlarda yevropaning harbiy va savdo kemalari, quruqlikda temir yo'llarda poezdlar qatnay boshladi. Bosib olingan jopylarda mustamlakachilar o'z tartib qoidalarini o'rnatdilar. Angliya Fransiya, Ispaniya, Portugaliya va Gollandiya Amerika, Afrika, Avstraliya va Osiyo mamlakatlarini bosib olib bu hududlar xalqlarini ayovsiz taladi. Yuzlab gullab yashnagan sivilizatsiyalar, xalqlar yo'q qilindi. Yevropa mamlakatlarga qaram bo'lib qolgan qator hududlar, mamlakatlar hozirgacha qoloqlik botqogidan chiqa olmadi.

Mustamlakalardan oqib kelgan ulkan moddiy boyliklar Yevropa mamlakatlarida iqtisodiy xo'jalik hayotini jonlantirdi. Savdo va tadbirkorlik bilan bilan shug'ullangan qatlamlar boyib ketdi. Dastlabki kapital jamg'arildi. Natijada yangi ijtimoiy qatlam burjuaziya paydo bo'ldi. Endi tadbirkorlik bilan boyib ketgan bu qatlam uchun yanada tadbirkorlikni rivojlantirish uchun huquqiy himoya kerak edi. Lekin hokimiyat eski hukmron qatlam katta yer egalari qo'lida edi. Bu hukmron qatlamdan hikimiyatni tortib olish uchun bir necha burjua inqiloblari bo'lib o'tdi. Angliya, Niderlandiya, Fransiyada bu inqiloblar 1556, 1642, 1660. 1688, 1789, yillarda, 1776 yil, shimoliy Amerikada bo'lib o'tdi. Bu inqiloblar oqibatida burjuaziya qator mamlakatlarida hokimiyat tepasiga keldi. Lekin feodal tartib-qoidalari qoldiqlari saqlanib qoldi bu qoldiqlar XIX – XX asr boshlarida yuz bergan burjua inqiloblarda tugatildi.

Sanoat to'ntarishi. XVII asr oxirida Angliyada boshlandi. Sanoat inqilobi ingliz iqtisodiyot hayotbaxsh ta'sir ko'rsatdi. Transport, metallurgiya, bug' energiyasidan foydalanishda ijobiy o'zgarishlarga olib keldi. Sanoat to'ntarishi 1688 yildagi shonli inqilob ingliz iqtisodiyoti muassasalarini o'zgarishlaridan boshlandi. Ichki monopoliyalar, turli soliqlarga ta'qiq, moliya, bank kreditlarining barcha uchun ochiqligi sanoat to'ntarishiga zamin yaratdi. Shu bilan birga Ingliz iqtisodiy muassasalarining tadbirkorlar, ishlab chiqaruvchilar va ixtirochilar manfaatlariga mos ravishda tubdan qayta qurilishi, xususiy mulkning daxlsizligini kafolatlarining mustahkamligini yuqori darajada ta'minlanishi sanoat to'ntarishiga yo'l ochdi. Transportdagi o'zgarishlar ijobiy rol o'ynadi. 1688 yildan keyin kanal va pullik yo'llarni qurishgamablag' ajratish keskin ko'paydi. Bu investitsiyalar transport xizmatlarinin qiymatini pasaytirdi. Angliyada yuk va odam tashiydigan transport kompaniyalari soni tez ko'paydi. Shahar, qishloqlar va hududlarni bog'laydigan taransport harakati uzluksiz tus oldi.

Yerdan foydalanish va yer egaligining umri tugagan arxaik usullaridan voz kechildi. Yerdan samarali foydalanishga to'siq bo'lgan barcha g'ovlar olib tashlandi. Yerga egalik qilish va undan foydalanish bo'yicha parlament yuzga yaqin qonun hujjatlarini qabul qildi. Parlament jamiyatning barcha qatlamlarini manfaat va ehtiyojlarini ko'zlab ish olib bordi va ularni talab va fikrini eshitdi.

Ingliz Ost Ind kompaniyasi 1688 yilgacha qirol hokimiyatiga katta pora berib Osiyo bilan savdo qilishni monopoliya qilgan edi. Lekin Angliyadagi boshqa savdo-sanoat vakillari ham Osiyo mamlakatlari bilan savdo qilish uchun qirol hokimiyatini petitsiyalar (har bir ingliz fuqarosi qirolga o'z talablarini yozma – petitsiya tarzida berish huquqiga ega edi.) bilan ko'mib tashlagan edi. 1688 yildan keyin qirol o'zining ko'p vakolatlaridan mahrum etilgach Ost-Ind kompaniyasi og'ir ahvologa tushib qoldi.

Ingliz tekstil sanoati vakillari ham Hindiston bilan savdo qilish huquqini berishni talab qildilar, bundan tashqari Hindistondan Angliyaga import qilinadigan arzon matolarga boj solig'ini oshirish va hatto arzon hind matolarini mamlakatga kiritishni taqiqlash niyatida edilar. Chunki ingliz tekstil sanoati uchun arzon va sifatli hind matolari bilan raqobat qilish juda og'ir edi. Oxir oqibatda ingliz to'quvchilarining istagi bilan parlament 1701 yilda Osiyodan ipak va chit matolarni Angliyaga kiritishni ta'qiqlovchi qonun qabul qildi. Ingliz parlamenti xalqaro savdoda ham o'z manfaatlarini ko'zlaydigan qonun hujjatlarini qabul qildi. Angliyaga boshqa yurtlardan keltiriladigan mahsulotlar faqat ingliz kemalarida olib kelishga ruxsat berildi, chet el kemalariga esa har qanday mahsulotni

Angliyaga olib kelishga ta'qiq qo'ydi. XVIII asrning oltmishinchi yillardan xususiy mulk daxlsizligini mustahkamlanishi, infrastrukturani yaxshilanishi, soliqa tortishni takomillashtirilishi, moliyaviy mablag'lardan foydalanishni ochiqligini ta'minlanishi hamda tadbirkorlar, ishlab chiqaruvchilarni qo'llab quvvatlash omillari o'z natijalini berdi. Texnologik o'zgarishlar jadallashdi, ixtiro va kashfiyotlar va ularni amalga tadbqiq etish bir necha martaga o'sdi, Ushbu siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar Yevropaning boshqa mamlakatlarida ham keyinroq takrorlandi. Shu tarzda zamonaviy Yevropa sivilizatsiyasining mussasaviy asoslari yaratildi.

Fransiyada sanoat inqilobi XVIII ning 80 yillarida Angliyadan mashina-asbob-uskunalarni tashib kelish bilan jadallashdi. Iqtisodiyotning asosiy sohalarida qo'l mehnatini mashnalarga almashtirilishi 1838-1848 yillarda keng avj oldi. Natijada Fransiya aholisining 2/3 qismi qoshloq xo'jaligida band bo'lgan mamlakatdan industrial-agrar mamlakatga aylandi. Siyosiy tarqoq bo'lgan Germaniyada sanoat to'ntarishi kech boshlangan bo'lsada, mamlakatda harbiy sanoat va og'ir sanoat o'sishi va ishlab chiqarish tuzilmasi jadal takomillashdi.

Rossiyada sanoat to'ntarishi keyinroq XIX asrning 30-40 yillarida boshlangan bo'lsada 1861 yildagi krepostnoy huquqning bekor qilinishi bilan sanoatlashuv jarayoniga yo'l ochildi. Boshqa sharqiy Yevropa manlakatlarida sanoat to'ntarishi belgilari XX asr boshlarida ko'rindi.

Sharqda Yaponiyada sanoat inqilobi 1867-68 yillardagi Meydzi inqlobidan keyin boshlanib 90 yillarda tugadi. Davlat hokimiyati metallurgiya zavodlarini, temir yo'llarni, harbiy verflarni qurilishini o'zi amalga oshirdi va 1880 yildan bu sanoat ob'ektlarini yirik savdo-sanoat kompaniyalariga sotdi. Shu vaqtdan boshlab boshlab yapon hukumati ishlab-chiqarishni moliyalashtirishdan voz kechdi va shu bilan birga tadbirkorlikni keng miqyosda qo'llab quvvatlashni boshladi. Xitoy va boshqa sharq mamlakatlarida esa mavjud feodal tartib qoidalarning mavjudligi zamonaviy bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni rivojlanishiga to'siq bo'lib turdi. Bu og'ir vaziyat Yevropaning sharq dunyosi va boshqa qit'alarga ekspansiyasini kuchayishiga olib keldi.

Yangi davr va undan keyin ham Yevropa sivilizatsiyasi eng katta muammolardan biri bo'lgan kulfat urushlardan xoli bo'la olmadi (Angliya Fransiya o'rtasidagi 1337-1453-yillardagi yuz yillik urush; Germaniyada 30 yillik urush 1618-1648-yillar), qaysiki, bu urushga deyarli barcha Yevropa davlatlari tortildi. Amerika, Afrika va Osiyoga Yevropaning ekspansiyasi qator mustamlakachilik urushlari, keyin esa mustamlakala-

rni takror taqsimlash uchun urushlarni keltirib chiqardi. Yevropada o'rtasrlardan boshlab paydo bo'lgan milliy mustaqil davlatlar mamlakat ichida o'zaro feodal urushlarni tugatdilar. Ichki barqarorlikni ta'minlab, qirol hokimiyatini mustahkamlab endilikda qo'shni hududlarni bosib olishga urindilar.

Bunga yaqqol misol rus davlati bo'ladi. XIV asrdan boshlab rus yerlari Moskva knyazligi atrofida birlashib, qo'shni hududlarni bosib olishga kirishdi. XV asrda Ivan IV hukmronligi davrida podsho hokimiyatining markazlashuvi kuchaydi. Ivan IV feodallarga tarxon yorlig'ini bershni tugatdi, Yirik feodallarni yerlariga davlat solig'i solindi. Monastir yerlarining bir qismi davlatga qaytarildi. Xizmatdagi dvoryanlarga yer-mulk berilib, podsho hokimiyatiga ximati uchun rag'batlantirildi. 1550 yilda bevosita podshoga bo'ysunadigan qo'shin tizildi. Oltin O'rdaga 220 yillik qaramlikdan qutulgach Rus davlati tajovuskor tashqi siyosatga o'tdi. Eng avvalo turkiy xalqlarning azaliy yerlarini bosib olish boshlandi. 1552, 1556 yillarda Qozon va Astraxan davlatlari bosib olindi. Volga bo'yi to'la rus davlati hududiga aylandi. Rus davlatining Sibir, Kavkaz, O'rtasiyoga tomon istilochilik g'olibona urushlari XIX asrning 80 yillarigacha davom etdi. Bir necha million kv. km. hudud ruslar tomonidan bosib olindi. Ayniqsa birgina Yekaterina II hukmronligi davrida (1764-1794) 5 mln.kv.km. hudud bosib olindi. Ruslar Boltiq bo'yi, Sharqiy Yevropa tomonga siljib Yevropada katta hududlarni bosib oldilar. Yevropa va Osiyo qit'asida egallangan bepoyon yerlar turkiy davlatlar,xalqlar va urug'-qabilalarning ota meros bo'lgan azaliy yerlari bo'ldi.

Yevropa sivilizatsiyasining jadal taraqqiyoti, va uning natijasida xalqning farovonligini ta'minlanishi va Yevropaning butun dunyoga ekspansiyasining omili mamlakatlarda hukmdorning mutlaq hokimiyatini tugatilishi va jamiyatning barcha ijtimoiy qatlamlarning manfaat va ehtiyojlariga xizmat qiladigan hokimiyat organlarining shakllanishi bo'ldi. Bu hokimiyat barcha ijtimoiy qatlamlar uchun siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ochiq edi. Ushbu omil yevropada yangi texnologiya, texnika va yangi texnologiyaga asoslanib yashaydigan jamiyatning rivojlanishi uchun keng yo'l ochdi. Yangi texnologiya, texnika, yangi ishlab chiqarish usulini shakllanish jarayoni uzluksizligi ta'minlandi. Bu omil Yevropa sivilizatsiyasini kuch-qudratini ta'minlab, uning jahonda hukmronligini ta'minladi. 1775 yilda Osiyoning jahon iqtisodiyotidagi ulushi 80 foiz edi. Hindiston va Xitoy birgalikda yalpi jahon mahsulotining 3/2 qismini ishlab chiqardilar.

Yevropa 18 asrdan o'z taraqqiyotida yuksalish tomon ilk qadamlarni tashladi. Bu qadamlar Yevropa uchun qutli,boshqa hududlar uchun asrlar-

ga cho‘zilgan qaramlik, ochlik, kulfatli asrlarining boshlanishi bo‘ldi. Yevropa Amerika, Avstraliya, Afrikaning bepoyon hududlarini 16 asrdan boshlab mustamlaka qildilar ba bu hududlardan ulkan moddiy boyliklarni tashib keishni boshladilar. Bu hisobsiz boyliklar almisoqdan qolgan texnika texnologiyalarini yangilariga almashtirishga imkoniyat yaratdi. Bu boyliklar Yevropani zamonaviy sanoat hududiga aylantirdi. Natijada Yevropa iqtisodiy-harbiy jihatdan kuchli hududga aylandi. Sharqning qudratli davlatlari Usmoniylar imperiyasi, Safaviylar, Xitoy davlati paydo bo‘layotgan kuchli tahdidni ko‘rmadilar, faqat o‘z atroflaridagi qo‘shni hududlarga ta‘sir qilish yoki bosib olish bilan cheklandilar. Yevropaning qit‘alar, okean va dengizlarni bosib olishiga e‘tibor bermadilar va qudratli davlatlar Amerika, Avstraliya va qudratli biror bir ekspeditsiya yubormadilar.

4. Yevropada davlatchilik an‘analari. Yevropa tarixida o‘rta asr davlati taraqqiyotini uch bosqichga ajratish mumkin: ilk feodal davlatning paydo bo‘lishi va shakllanishi, markaziy davlat organlarining zaifligi feodal tarqoqlik holati, markazlashgan davlatning shakllanishi; Ilk o‘rta asrlarda Yevropada qirollik harbiy demokratiya tamoyili asosida shakllandi. Harbiy boshliqning kuchli hokimiyati ko‘ngillilar qo‘shini va bir qism shaxsiy qismga asoslangan edi.

Yevropada o‘rta asr ijtimoiy-siyosiy tuzumining shakllanishi va hukmronligi davri V asr o‘rtalaridan – XIII asr o‘rtalarigacha davom etdi. Bu jarayon o‘tmish jamiyatning asta-sekin transformatsiyasi asosida feodalizmning ijtimoiy kuchlari va siyosiy muassasalarini shakllanishidan iborat edi (markazlasgan davlat, dehqonlarning yerga birkelib qo‘yilishi).

XIII-XV asrlarda Garbiy Yevropaning ko‘pgina mamlakatlarida qirolning markazlashgan hokimiyati mustahkamlandi, Angliya, Fransiya kabi milliy davlatlar paydo bo‘ldi. Asta-sekin qirolning funksiyasi kengaydi. Qirolning hokimiyati boshda mutlaq bo‘lmay, keyinchalik mutlaq shaklni oldi Asta-sekin oliy hukmdorning funksiyasi kengaydi. Uning hokimiyati endi muntazam qo‘shin, davlat apparati, huquq normalariga asoslanar edi. Qirol yerlarning oliy egasi, feodal rentani oluvchiga aylandi. Hukmdorning qo‘lida harbiy, sud, siyosiy-ma‘muriy hokimiyat to‘plandi. Qirol ilk o‘rta asrlar oxirida eng katta feodal yer-mulk egasiga aylandi.

Yevropada qirolning mutlaq hokimiyati, ijtimoiy tabaqalarning feodal zo‘ravonligiga qarshi kuchli harakati yuzaga keldi. 1215 yilda Angliyada imzolangan “Buyuk ozodlik xartiyasi” qirol hokimiyatini cheklagan birinchi rasmiy hujjat bo‘ldi, vaqt o‘tishi bilan bu hujjat Angliyaning asosiy qonuni sifatida qarala boshlandi. Shaharlar qirolning o‘zboshim-

chaligini cheklashda asosiy kuch edilar. Aynan XIII asrda hokimiyatlarni taqsimlash tamoyilini amalga oshirish asosida qirol hokimiyatini sezilarli cheklaydigan toifaviy vakillik organi – parlament paydo bo‘ldi. Shunday ilk parlament-korteslar Ispaniyadagi davlatlarda XII asr oxiri - XIII boshlarida paydo bo‘ldi. Angliyada parlament 1265 yilda, Fransiyada 1302 yilda paydo bo‘ldi. XIV asrda G‘arbiy Yevropaning ko‘pchilik mamlakatlarida bunday toifaviy vakillik organlari tashkil topgan edi. Shu tarzda toifaviy – vakillik monarxiyalari shakllandi.

Boshda parlamentlarning faoliyati tartibga solinmagan edi, parlamentlarning yig‘ilish muddati, kun tartibi belgilanmagan edi- bularni barchasini qirol aniq vaziyatga mos holda hal qilardi. Parlament muhokama qiladigan eng dolzarb muammo soliqlar masalasi edi. Parlamentlar maslahat organi va qonun chiqaruvchi hamda sud hokimiyati sifatida ish ko‘rishlari mumkin edi. Asta-sekin parlamentlar qonun chiqaruvchi organga aylandilar. Parlamentlar bilan bir qatorda siyosiy partiyalar ham ijtimoiy hayotga kirib keldilar. Ilk siyosiy partiyalar Italiyada XIII asrda, Fransiyada XIV asrda shakllana boshladi.

Qirol hokimiyati tomonidan feodal yer-mulkining vorisligida mayorat tartibi joriy qilindi. Mulk maydalashib ketmasligi uchun faqat katta o‘g‘ilga qoldiriladigan bo‘ldi. Feodalning qaram dehqonga nisbatan suiste‘moli cheklandi. Erkin shaharlarning imtiyozlari tugatildi. Bu ma’lum darajada feodal tarqoqligini bir muncha chekladi, yetuk feodal jamiyatning bozor munosabatlarini tartibga solish va kelgusi burjua jamiyatining unsurlarini shakllantirishga shart-sharoit yaratdi. Garbiy Yevropada feodal suverenitetiga qarshi turgan qirolning kuchli davlat apparati shakllandi. Hukmdorga bo‘ysungan qo‘shin tashkil topdi. Taxt vorisligi muammosi hal qilindi. Bu masalada qat’iy tartib-qoida o‘rnatildi. Sharq mamlakatlarida esa taxt vorisligi muammosi qonli kechdi. Bu ko‘p holda markaziy hokimiyatni zaiflashtirdi.

Davlatlilikning keyingi bosqichi Yevropada ko‘pgina mamlakatlarda mutlaq monarxiyalarning XV asr oxirida shakllanishiga olib keldi. Mutlaq monarxiyalarning paydo bo‘lishining ijobiy tomonlari: bir mamlakat doirasida feodalning o‘zaro urushlari tugatildi. Qirol markazlashtirish siyosatini olib borish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Ikkinchidan iqtisodiy ijtimoiy taraqqiyot uchun qulay shart-sharoit vujudga keldi; mamlakatda viloyatlar, shaharlar o‘rtasida mehnat taqsimoti mamlakat miqyosida umumiy bozor shakllandi. Bu milliy davlatlarning tashkil topishiga yordam berdi. Fransiya, Angliya, Ispaniya, Rech Pospolitasi va Rus davlatlarida markazlashgan davlathokimiyatining kuchayishi, shuningdek vakillik toifaviy organlarning davlat boshqaruvidagi faoliyati kuchaydi.

Gollandiya va Bu davrda Germaniya va Italiya tarqoq, kichik davlatlarga bo‘lingan holda qolaverdi.

Yevropa bir qadar feodal tarqoqlikni tugatib, rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Endi kuchli davlatlar o‘zidan zaif bo‘lgan mamlakat, xalqlarni talashga tayyorgarlik ko‘ra boshladi. Bunday mamlakat va xalqlar Afrika, Osiyo va Amerika qit‘asida mavjudligi aniq bo‘ldi. Yevropa bu mamlakatlarni bosib olish uchun ekspansiyani boshladi. Bu ekspansiya yevropa tarixiy adabiyotida jarangdor nom bilan ”buyuk geografik kashfiyotlar “ deb ataldi. Aslida bu Yevropaning dunyoning boshqa qit‘alarini talash uchun ekspansiyasining boshlanishi davri edi. Birinchilardan bo‘lib, Portugaliya, Ispaniya, Angliya, Fransiya, Niderlandiya o‘zga yurtlarga bosqinchilikni boshladilar. Boshda Ispaniya yangi yerlarni bosib olishda yetakchilik qildi. Amerikaning katta qismini mustamlaka qilinishi natijasida Ispaniya eng katta jahon imperiyasiga aylandi. Ispan mulklari G‘arbiy Yevropa va Amerikaning katta qismini qamrab olgan edi. Keyinchalik bu ekspansiyaga Germaniya, Italiya, AQSh, Rossiya va hatto kichkina Bel’giya ham qo‘shildi.

XVII asrda g‘arbiy Yevropada o‘rta asr feodal tartib qoidalarining tushkinligi qirol hokimiyatining zaiflashuvida ko‘rindi. Kuchga to‘lib borayotgan burjuaziya siyosiy maydonda o‘ziga tegishli o‘rinni talab qila boshladi. Niderland, ingliz va fransuz burjua inqiloblari qirol hokimiyatiga kuchli zarba berdi. Angliya v Fransiyada qirollar o‘lim jazosiga tortildi, zodagon feodallarining sezilarli qismi jismonan yo‘q qilindi. Siyosiy hokimiyatga intilgan burjuaziya Yevropada XIX asrda hokimiyatni egalab, o‘z tartib-qoidalarini o‘rnatdi. Feodal tartib-qoidalarni, uning ramzi bo‘lgan qirolning mutlaq hokimiyatini tugatib o‘zi hukmron bo‘lgan yangi davlat va jamiyat tuzumini o‘rnatdi. Fransiyada inqilob natijasida hokimiyatga kelgan Napoleon mutlaq hokimiyatning qator belgilarini takror tikladi. Bu yangi – bozor munosabatlariga asoslangan jamiyatning ilg‘or yetakchi ijtimoiy qatlami-tadbirkor savdo-sanoatchilarning hokimiyati shakli boldi. XIX asrning ikkinchi yarmida nemis davlatlari birlashib Germaniya imperiyasi, Italiya birlashib Italiya qirolligi tashkil topdi.

Yevropaning ko‘pgina davlatlarida mutlaq monarxiyalar o‘z hokimiyatini saqlab qolishga urinmasin, uni liberal islohotlar bilan yumshatish yangi siyosiy tuzum demokratiyaning qaror topishiga to‘sqinlik qila olmadi. Industrial jamiyatlarning asosiy konsepsiyalari shakllandi, liberal g‘oyalalar keng tarqaldi, bu g‘oyalarga ko‘ra insoniyat hayotining asosiy qadriyati erkinlik, Individning erkinligi jamiyatdan yuqori turadi. Alohi-

da shaxslarning har qanday foydali faoliyati jamiyat uchun foydali bo'ldi. Hayot bu musobaqa, davlatning vazifasi barcha odamlar uchun musobaqaning boshlanishida teng imkoniyatlar bilan ta'minlash. Keyin esa barchasini raqobat hal qiladi va barchasini joy joyiga qoyadi. Liberalizmning asosiy raqibi marksizm edi. AQShdagi prezidentlik respublikasi, Angliyada konstitutsiyaviy monarxiya liberal g'oyalarning yaqqol ko'rinishi edi. Demokratiya asosida barcha fuqarolarning teng huquqli va erkinligini tan olish, alohida guruhlar uchun feodal toifaviy, kasta va boshqa cheklashlarni bartaraf qilish, shaxsiy va mulkiy huquqlarni huquqiy himoya qilish, irqiy, milliy, diniy belgilarga ko'ra kamsitishlarni tugatish, ma'lum bir belgilangan yoshga yetgan fuqarolarga markaziy, mahalliy va munitsipial organlarga saylash va saylanish huquqini berish yotar edi.

Yevropaning zamonaviy taraqqiyotining asoslari XVII da qo'yildi. Yevropa davlatchiligi 1688 yilda shonli ingliz inqilobidan boshlab siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy faoliyatini qonun ustivorligiga asoslanib amalga oshirdi. Oqibatda inklyuziv siyosat Yevropa davlatlarining bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy munosabatlarni yo'lga qo'yishi jamiyatni ham keskin o'zgartirdi. Bir necha asrlar davomida Yevropa davlatlarining barchasida demokratik jamiyat shakllandi.

Demokratiyaning asosiy tamoyili davlat hokimiyatining asosiy – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo'linish edi. Bu hokimiyatni monopoliya qilish va biror bir diktaturani o'rnatilishiga yo'l qo'ymas edi. Albatta, turli mamlakatlarda demoktariyaning bu asosiy tamoyillari ijtimoiy-siyosiy kuchlarining nisbatidagi o'zgarishlarni aks ettirgan holda keskin siyosiy kurash natijasida o'zgardi. Lekin bu industrial sivilizatsiyalarning yetuklik bosqichida erishilgan siyosiy inqilobning cho'qqisi edi.

5. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. Hokimiyatni egallagan tadbirkor burjuaziya barqaror davlat tuzumini yaratish uchun turli ijtimoiy-siyosiy nazariyalarni yaratdi bu nazariyalar asosida davlat va jamiyatni boshqara boshladi. Demokratiya tamoyillari davlat siyosiy tizimi va tuzilmasini oqilona tashkil etishda muhim surgarga aylandi. Mavjud davlat hokimiyatining huquqiy asoslari shu tarzda mustahkamlana bordi. Garbda kuchli va barqaror ijtimoiy-siyosiy davlat qurilmasi shakllandi. Ana shu davlat qurilmasi mamlakat ichida ijtimoiy siyosiy barqarorlikni ta'minlab, bor kuchini o'zga qit'alardan ulkan hududlarni bosib olishga kirishdi. Sharqda esa qudratli bo'lgan imperiyalar eski tartib qoidalarga mahkam yopishib olib, Yevropaning yangiliklarini qabulk qilishdan hali yiroqda turar edi. Garbda XVIII asrning so'nggi choragi (Shimoliy Amerikada

mustaqillik uchun kurash va fransuz inqilobi)dan XX asrning soʻnggi choragigacha boʻlgan davrda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar industrial jamiyatni rivojlanib, XX asrning 70-yillaridagi tushkunlik ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yangi bosqichi postindustrial jamiyatga oʻtish boshlandi.

Yevropa va Shimoliy Amerikada 1775-1830-yillarda burjuaziyaning siyosiy hukmronligini oʻrnatilishi;

1831-1870-yillarda industrial ijtimoiy-siyosiy tizimlar tez tarqalib, Gʻarbiy Yevropaning koʻpchilik mamlakatlarida burjua demokratiyasining qaror topishi;

1871-1913-yillarda asosiy ijtimoiy sinf boʻlgan yollanma ishchilarning oʻz ijtimoiy manfaatlarini uchun kurashi;

Monopol kapitalizmning paydo boʻlishi dunyoning taqsimlanishini tugallanishi va uni qayta taqsimlash uchun kurashning boshlanishi.

1914-1945-yillar – Industrial jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tizimini tushkunlikka uchrashi. Ikki jahon urushi, sotsialistik inqiloblar va mustamlakachilikka qarshi kurashning kuchayishi; Germaniya, Italiya, Yaponiya va Rossiyada totalitar davlat tuzumining shakllanishi.

1946-1975-yillarda industrial ijtimoiy-siyosiy tuzum tushkunligi keng tarqaldi. Bu davrda ikki jahon tizimining shakllanishi va qarama-qarshiligi, ikki harbiy blok, mustamlakachilik tizimining yemirilishi, uchinchi dunyo - oʻnlab mustaqil davlatlarning paydo boʻlishi, lokal urushlar qatori “sovuq urush”, qurollanish poygasi, yadro urushi xavfining kuchayish jarayoni yuz berdi.

Demokratik tartiblarning qaror topishi yoʻnalishida davlat-huquq tuzumining evolyutsiyasi yuz berdi. Bu jarayon asosan ikki shaklda – parlament respublikasi va konstitutsiyaviy monarxiya koʻrinishida bordi. Britaniya, Germaniya, Avstriya-Vengriya imperiyalari jahon siyosatida nufuzli oʻrinni egalladilar. Yevropaning koʻpgina davlatlarida mutlaq monarxiyalar oʻz hokimiyatini saqlab qolishga urinmasin, uni liberal islohotlar bilan yumshatish yangi siyosiy tuzum demokratiyaning qaror topishiga toʻsqinlik qila olmadi. Industrial jamiyatlarning asosiy konsepsiyalari shakllandi, liberal gʻoyalar keng tarqaldi, bu gʻoyalarga koʻra insoniyat hayotining asosiy qadriyati erkinlikdir. Individning erkinligi jamiyatdan yuqori turadi.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi jamiyat, davlat va alohida insonga tez taʼsir qildi. Yangi jamiyatning kreativ fikraydigan fuqarosi paydo boʻldi. Zamonaviy davlat hokimiyatining vazifasi barcha odamlar uchun teng imkoniyatlarni taʼminlashdir. Keyin esa barchasini

raqobat hal qiladi va barchasini o'z o'rniga qoyadi tushunchasi insonni ongini egalladi. Liberalizmning asosiy raqibi marksizm edi. AQShdagi prezidentlik respublikasi, Angliyada konstitutsiyaviy monarxiya liberal goyalarining yaqqol ko'rinishi edi. Demokratiya asosida barcha fuqarolarning teng huquqligi va erkinligini tan olish, alohida guruhlar uchun feodal toifaviy, kasta va boshqa cheklashlarni bartaraf qilish, shaxsiy va mulkiy huquqlarni huquqiy himoya qilish, irqiy, milliy, diniy belgilarga ko'ra kamsitishlarni tugatish, ma'lum bir belgilangan yoshga yetgan fuqarolarga markaziy, mahalliy hokimiyat organlarga saylash va saylanish huquqini berish yotar edi.

Siyosiy raqqobat erkinligi bag'rida erkin bozor raqqobati harakat qildi. Demokratiyaning asosiy va muhim tamoyili-qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo'linish edi. Bunday bo'linish hokimiyatni monopoliya qilish va biror bir diktaturani o'rnatilishiga yo'l qo'ymas edi. Albatta, turli mamlakatlarda demoktariyaning bu asosiy tamoyillari ijtimoiy-siyosiy kuchlarning nisbatidagi o'zgarishlarni aks ettirgan holda siyosiy kurash natijasida o'zgardi. Lekin bu industrial sivilizatsiyalarning yetuklik bosqichida erishilgan siyosiy inqilobning cho'qqisi edi. Bozor munosabatlari taraqqiyotining XX asr boshlaridagi monopolistik, keyin esa davlat-monopolistik bosqichlariga o'tishi hokimiyatni elita qo'lida to'planishiga olib keldi.

6. Totalitar tuzumlar. Industrial sivilizatsiyaning davomiyligida siyosiy hayotning barcha muassasalari harakatida bir necha fazalar aniq ko'rinadi. Qator burjua demokratik inqiloblar (Niderland, Fransuz, Shimoliy Amerika va boshqalar) natijasida burjua demokratiyasining tarqalish va qaror topish davri; XIX asrning ikkinchi yarmida rivojlangan mamlakatlar (Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSh va boshqalar)da demokratiyaning tantanasi; XX asrning 20-yillarida va yuz yillikning deyarli oxirigacha totalitar davlatlarda so'nish va o'z qarama-qarshiliklarni kuchayishi bilan tavsiflanadi.

XX asr boshlarida yetakchi davlatlarning taqsimlangan dunyoni qayta taqsimlashga urinishi, xomashyo, moddiy resurslarga boy hududlarni egallashdagi raqqobat, demokratiya asoslarining cheklanishi umummilliy tushkunliklar sharoitida qator inqiloblarga diktaturalarning ochiq o'rnatilishiga olib keldi. Bu totalitar davlatlar - Germaniya, Italiyada fashizm, SSSRda, keyin esa boshqa sotsialistik mamlakatlarda hamda Lotin Amerikasi, Osiyo, Afrikaning qator ozod bo'lgan mamlakatlarida avtoritar - totalitar tuzumning qaror topishida yaqqol ko'rindi.

Dastlab Italiya, keyin keng qamrovli shaklda Germaniya va Yaponi-

ya, Bolgariya, Portugaliya va Ispaniyada fashizmning qaror topishi bo'ldi. 1922 yilda tashkil topgan SSSRda boshqaruvni qo'lga olgan kommunistik partiya hokimiyatlarning bo'linishida demokratik tamoyilidan voz kechib, bir sinfning (ishchilarning kambag'al dehqonlar bilan ittifoqligidagi) diktaturasini e'lon qildi. Amalda esa partiya-davlat yuqori tabaqasining hokimiyatga monopoliyasi o'rnatildi. Rossiyada bolsheviklar o'rnatgan siyosiy tuzum totalitar tuzum edi. Inson totalitar siyosiy tizimda ulkan, hamma narsani yutib yuboradigan davlat byurokratik mashinaning vintchasiga aylantirildi. Totalitar davlat hokimiyatlarni taqsimlash tamoyilini chetga uloqtirdi. Hokimiyat to'raligicha hukmron tabaqaning qo'lida to'plandi. Davlat boshqaruvining markazlashuvi va mamlakatning militarizatsiyalashuvi o'ta haddan oshib ketdi. Huquqiy suiste'mol keng avj olib, repressiyalar keng qo'llanildi.

G'arb mamlakatlarida industrial sivilizatsiyaning so'nish davrida hokimiyatni hukmron elita tomonidan monopollashtirish, militarilizmning kuchayishi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini cheklanishi kuzatildi.

Industrial davrning siyosiy, davlat-huquqiy tizimida qarama-qarshi an'analar mavjud edi. Iqtisodiy kuch-qudratning konsentratsiyasi siyosiy hokimiyatning demokratiya pardasi bilan yashiringan diktaturaga olib kelmasligi mumkin emas edi. Bu umumiy an'anaga aylandi va totalitar tuzumlarning o'rnatilishida o'z ifodasini topdi. Totalitar tuzumlar chuqur tushkunlik va to's-to'polon sharoitlarida, (1917-yilda Rossiyada bolsheviklar zo'ravonlik bilan hokimiyatni egalladilar) ba'zida hokimiyatga demokratik yo'l bilan keldilar (misol uchun, 1933-yil Germaniyada fashizm diktaturasining saylovlar natijasida hokimiyatga kelishi).

Mafkuraviy ta'sir qilishning qudratli industrial vositalari bunday tuzum uchun asos yaratdi. Kishilarning siyosiy qarashlarini yo'naltirdi va ana shu asosda ommaviy siyosiy partiyalarni shakllantirdi. Agar ilgari siyosiy hukmronlik uchun kurash hokimiyatga ma'lum bir sinf-qatlam yoki ustuvor diniy e'tiqodni monopoliyasida o'z ifodasini topsa, endi industrial jamiyatda u yoki bu siyosiy partiyalarning saylovdagi g'alabasining natijasi asosida hukmron elitani shakllantirish imkoniyati paydo bo'ldi.

Bu davrda bir (SSSR, XXR), ikki (AQSh, Buyuk Britaniya) va ko'p partiyali tizimlar (Fransiya, Germaniya, Italiya) shakllandi. Saylov asosida hokimiyatga kelgan partiyalar davlat boshqaruvida asosiy lavozimlarni egalladilar. Hukmron partiya siyosiy hayotning markazida asosiy unsur bo'ldi. Siyosiy partiyalarning rahbarlari, nufuzli siyosatchilar va davlat boshqaruvi elitasining bir-biriga qo'shib ketish holati yuz ber-

di. Totalitar davlatlarda jamiyatda bir mafkuraning monopol hukmronligi oʻrnatildi (SSSR, Germaniya, Xitoy).

Industrial jamiyatda barcha fuqarolar va ijtimoiy qatlamlarning qonun oldida tengligini tan olishga asoslangan huquqiy munosabatlarni boshqarishda qonun ustuvorligining huquqiy tartibi qaror topdi.

Lekin XX asrning soʻnggi oʻn yilligidagi voqealar, asr boshida sodir boʻlgan Oktyabr toʻntarishi faqat industrial jamiyatning soʻnish davridagi sotsialistik gʻoyalarni amalga oshirish yoʻliga oʻtish bilan sodir etilgan yirik toʻntarishlardan biri ekanligi yaqqol koʻrindi. Lekin insoniyat oʻzi uchun juda qimmatga tushgan tajribadan baʼzi xulosalarni chiqardi. Insoniyat ulkan moddiy va odam qurbonliklari bilan amalga oshiriladigan inqiloblardan voz kechib tinch, islohotlar yoʻli bilan amalga oshiriladigan islohotlar bilan jamiyatni oʻzgartirish yoʻlini tanladi. Shu tarzda insoniyat XX asrning soʻnggi choragida zamonaviy texnika va texnologiyaga asoslangan farovonlik jamiyati post industrial yoki yangi industrial jamiyatga oʻtishni boshladi.

7. Ijtimoiy-siyosiy kuchlarning joylashuvi. Ikkinchi jahon urushidan keyin dunyo miqyosida va mamlakatlar ichida ijtimoiy-siyosiy kuchlarning joylashuvi oʻzgardi. Agar oʻtgan bosqichda dunyo siyosatining uch markazi-fashizm, sotsializm va gʻarb demokratiyasi mamlakatlari shakllanib, bir-biri bilan kurashgan boʻlsa, shuningdek, oxirgi ikki markaz birinchisini yoʻq qilish uchun birlashgan boʻlsa, endilikda qarama-qarshilik ikki jahon tizimlari – AQSh boshchiligidagi kapitalistik va SSSR boshchilik qilgan sotsialistik dunyo oʻrtasida bordi. Yevropaning uncha katta boʻlmagan mamlakatlari-Shvetsariya, Shvetsiya, Finlandiya, Avstriya “neytral chiziq”ni tashkil qildi. Bir-biriga qarama-qarshi turgan harbiy-siyosiy bloklar- NATO va Varshava shartnomasi tashkil topdi.

Qurollanish poygasi, sovuq urush, lokal urushlar va ziddiyatlar uchinchi jahon yadro urushiga olib kelishi mumkin edi (Shimoliy Koreyadagi urush, Berlin va Karib tushkunliklari). Xalqaro keskinlikni yumshatish uchun bir necha bor urinishlar, tinchlik uchun kuchli harakat yadro urushiga yoʻl bermadi, lekin urush xavfi saqlanib qoldi.

Mamlakatlar ichida ham ijtimoiy-siyosiy vaziyat oʻzgardi. Burjua-demokratik tuzum zonasi kengaydi. Italiya, GFR, Yaponiya, koʻpgina ozod boʻlgan mamlakatlar (Hindiston va boshqalar)da demokratik tuzumlar qaror topdi. Feodal-industrial jamiyatlarda siyosiy hayot, davlat va huquq, oʻrta asrlar jamiyatida ichki va tashqi siyosat amir, sulton, xon, qirol (imperator), yirik feodallar, ularning yaqinlari, vazirlarning asosiy mashgʻuloti edi. Xalq ommasini noroziligi qoʻzgʻolon va xalq harakatlari

shaklida siyosiy kurash shaklini oldi. Bu harakatlar soliq va majburiyatlarning oshib ketishi, ijtimoiy zulmga qarshi norozilik edi.

Siyosiy partiyalar. Siyosiy partiyalar ijtimoiy qatlam, guruhlarining manfaatini himoyachisi sifatida burjua jamiyatida paydo bo'ldi. Angliyada 1215-yilda erkinlik ozodlik ramzi ibtidosi bo'lgan hujjat "Buyuk ozodlik xartiyasi" qabul qilindi. Toifalar vakillik organlari: Angliya parlamenti (1265-y), Fransiyada General shtatlar (1302-y), German knyazliklarida lantaglar (XIII asr oxiri) yuzaga keldi. Birinchi haqiqiy siyosiy partiya Angliyadagi tori va viglar partiyalari edi. Lekin siyosiy partiyalar industrial jamiyat qaror topishi bilan o'z o'rnini topdi. XIX asrda Yevropa va Shimoliy Amerikada har bir sinf o'z partiyasiga ega edi. Asosan bular parlament partiyalari edi. XIX asr o'rtalarida ezilgan sinflarning manfaatlarini himoya qiladigan, mavjud tuzumni ag'darib, yangi jamiyatni qurishga ahd qilgan yangi partiyalar paydo bo'ldi. Bu blankistlar, kommunistlar ittifoqi, internatsional anarxistlar edi. XIX asr oxirida ko'pgina Yevropa mamlakatlarida sotsial-demokratik partiyalar paydo bo'ldi.

Rossiyadagi inqiloblar vaqtida sotsial-demokratlar (bolsheviklar, mensheviklar), eserlar, kadetlar, oktyabristlar faoliyat ko'rsatdilar. Qaram Turkiston o'lkasida ham sotsial-demokratlar partiyasining bo'limlari rusiyzabon aholi ichida tashkil topdi. Turkiston o'lkasida, Buxoro va Xiva xonliklarida ilk siyosiy patriyalar 1917 yilda paydo bo'ldi. Bolsheviklar partiyasi hokimiyatni egallab, davlat apparati, sovetlar, kasaba uyushmalari, yoshlar harakatini to'la o'ziga bo'ysundirdi. Siyosiy hayotni bunday cheksiz monopollashtirish industrial jamiyatning so'nishi uchun xos xususiyat edi va halokat bilan tugashi aniq edi. Shu bilan birga, saylovchilar yirik burjua va sotsial-demokratik partiyalarga ishonchni yo'qotdilar. Qator G'arb davlatlarida ikki partiyali tizim saqlanib qoldi (AQSH, Angliya).

8. Industrial jamiyatda inson. Yevropa jamiyatida birdaniga farovonloik jamiyati paydo bo'lmadi. Industriyal jamiyatgacha aholining aksariyat qismi qashshoqlikda zo'rga kunini o'tkazgan. Quyida yozuvchi J.Londonning XX asr boshlarida yozilgan "Tubanlik odamlari" qissasidan parcha keltiramiz. Londonning ko'chalarida hech qayerda o'ta qashshoqlik manzarasidan qochib bolmaydi: har qanday joydan besh minutlik yurish-sizning qarshingizda choldevor. Lekin endi mening ekipajim kirayotgan shaharning o'sha qismi yoppasiga nihoyasiz choldevorlar edi. Ko'chalar men tanish bo'lmagan odamlarning zoti-past bo'yli yoki holdan toygan, yoki ichkilikbozlikdan hushini yo'qotgan odamlar bilan to'lib toshgan edi. Ayanchli g'isht uylar ko'p milga cho'zilgan, har bir chorra-

hadan, har bir muyilishdan ana shunday g'isht devorlar qatori va shunday faqirona manzara ochilar edi. Hali bu yerda hali uyerda mast-alastning qoqingan figurasi ko'rinish qolar edi, ichib olgan ayollar ham tushib qolar edi; Havoda keskin qichqiriqlar va so'kinishlar yangrar edi. Bozorda qandaydir titkilab, chirigan kartoshka, lo'viya va ko'katni ajratib olar edilar. Bolachalar esa pashsha kabi meva tashlandiqlariga yopishib olgan edilar. Va, aynigan suyuq qorishmaga qo'llarini yelkalarigacha suqib, vaqti vaqti bilan uyerdan hali chirishga ulgurmagani bo'laklarni topib, shu yerdayoq ularni o'chko'zlik bilan yutar edilar. Qaerga koz tashlanmasin, yoppasiga g'isht devorlar, va suyuq ko'lmakli ko'priklar ko'rinar edi. Va bularning hammasini tepasida to'xtamaydigan shovqin-suron turar edi. Birinchi bor mening butun hayotimda olomon menga qo'rg'inch uyg'otdi. hayotimda. ...ko'chalarda yopirilib, meni cho'ktirib yuborishga tahdid qilayotgan cheksiz, sassiq hid tarqatayotgan dengiz to'lqinidek kambag'allar olomoni ko'rindi. **(muallif tarjimai. Д. Лондон. Собрание сочинений 14-томах. том 3 Люди бездну. стр 11-12)**

Tayanch iboralar: uzoq muddatli sikl, transformatsiya, rush, demokratik tuzum, kapitalistik, proletar, kapitalistik jamiyat, parlament, general shtatlar, diktatura, totalitar, turmush darajasi, inson ehtiyoji, shaxsiy erkinlik, huquqmotivatsiya, iqtisodiy manfaat, majburiy mehnat, qulchilik, ijodiy mehnat, jamoa manfaati, sintoizm, konslager.

Tarixda shaxsning roli. Napoleon. XIX – XX asr dunyo taraqqiyotida shunday o'zgarishlar sodir bo'ldiki, bu o'zgarishlarda yo'l boshchilar yoki tarixiy shaxsning roli katta vo'ldi. Ko'p bhollarda yo'l boshchilik siyosat bilan manlatat, hudud va hattoki qit'a siyosatiga ta'sir etdilar. Ana shunday tarixiy shaxslardan biri, Yevropaning XIX asrdagi siyosatiga hozirgi Yevropa siyosiy xaritasining tuzilishiga ta'sir o'tkazgan kishi.

Napoleon Bonapart (1769-1821) bo'lgusi Fransiya imperatori 1769 yilda Korsika oroli Fransiya tarkibiga o'tgandan bir yil keyin shu orolda kambag'allashgan zodagon oilasida tugildi. U 9 yoshida Parijda gimnaziyaga oqishga bordi. Ozining korsikacha shevasi bilan tenqurlari orasida kulgiga qoldi. XIX asr boshlarida Yevropa siyosatida Fransiya yetakchi o'ringa chiqdi. 1804 yilda o'zini Fransiyani imperatori deb e'lon qilgan Napoleon Bonapart qit'ada istilochilik urushlarini keng qamrovda olib bordi.

Qadimgi Rim imperiyasi davridan bunday golibona urushlar Yevropaning biror bir hukmdori tomonidan olib borilmagan edi. Napoleon past bo'yli odam bo'lib o'zining mustahkam irodasi bilan boshqa yo'l boshchilardan ajralib turar edi. Uning teshib yuboradigan nigohi har qanday

odamni oyoqlarini qaltirab o‘zini yo‘qotib qo‘yishiga olib kelar edi. U o‘zining baland bo‘yli generallariga sovuq teshib yuboradigan nazar tashlab “sizning bo‘yingiz baland, lekin meni buyrug‘imni ijrosini ta‘minlamasangiz, ana shu bo‘ylaringizni past qilib qo‘yishishimni bilasiz albat-ta” deb sovuqqonlik bilan aytishi generallarni o‘zini yo‘qotib qo‘yishiga sabab bo‘lar edi. O‘ta sovuqqon va qat‘iyatli sarkarda odamlarni ko‘nglini olishni ham yaxshi bilar edi. Napoleon ”Faxriy Legion ordenini ta‘sis qildi, o‘zning 1500 askarini xoch bilan mukofotladi, o‘zining 18 generaliga Fransiya marshali unvoni berdi hamda o‘z qo‘shinini Buyuk Armiya deb nomladi. Gitler va uning yaqinlari Napoleonning dahosiga sajda qildilar. Gitler Napoleonning o‘glini tobutini Venadan tantana bilan Parijga olib kelib dafn qildi. German armiyasi Fransiyani okkupatsiya qilishi bilan Gitler Parijga kelib, vokzalda poezddan tushib, birinchi navbatda Napoleonning Invalidlar uyidagi qabrinu ziyorat qildi. U Napoleonning tugallanmay qolgan istilochilik yurishlarini tugallashni reja qilgan edi.

Napoleon hokimiyatga kelishi bilan Fransiya davlatchiligi va jamiyatini barqaror rivojlanishiga xizmat qiladigan chuqur islohotlarni o‘tkazdi. Fransuz jamiyatini barcha ijtimoiy qatlamlari manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qonunchilik, boshqaruv va sud hokimiyati yo‘nalishlarida adolatni ta‘minladi. Napoleonning ichki va tashqi siyosati fransuz jamiyatining barcha qatlamlarini to‘la qondirdi. Napoleon bostirib kirgan mamlakatlar aholisi Napoleonning faoliyatiga ijobiy qaradilar. Napoleon Istilo qilingan mamlakatlarda feodal tartib-qoidalarini tugatdi, millionlab qaram dehqonlarni ozod qilib krepostnoylik tartib qoidalarini yo‘q qildi. Qo‘shni Italiyani istilo qilganda ital‘yan dehqonlarini har qanday noqoniniy to‘lov va majburiyatlardan ozod qildi va Italiya bilan Fransiya o‘rtasidagi iqtisodiy-savdo aloqalarini yo‘lga qo‘ydi. Bosib olingan hududlarda yo‘llar va ko‘priklar qurdi. Fransiya va Yevropaning boshqa mamlakatlarida dehqonlarni feodal tartib qoidalar, to‘lov va majburiyatlardan ozod qilib ularni dehqonchilik qilib boy qatlamga aylantirish maqsadini qo‘ydi va uni amalga oshirdi. Shu sababli dehqonlar qatlami Napoleonn qo‘llab-quvvatladi. Napoleon armiyasi asosan dehqonlardan tuzilgan edi Napoleon Elena orolida hayotining so‘ngi kunlarida qilgan vasiyatnomasida oltin hisobida 200 million frank pulni yarmini o‘zi bilan yurishlarda qatnashgan askarlarga, yarmini generallarga vasiyat qildi. Qolgan mablag‘ni 1814 va 1815 yillarda chet el armiyasi Fransiya bostirib kirganda zarar ko‘rgan hududlarga qoldirdi. Og‘liga hech qachon Fransiya qarshi chiqmaslikni va ” barchasi fransuz xalqi uchun ”devizini unutmashlikni vasiyat qildi. Uning jasadi vafotidan 19 yil keyin Fransiya qaytdi.

Napoleon oltin ekvivalentidagi valutani joriy qildi. Bu valyuta tizimi Napoleon urushlaridan keyin ham saqlanib qoldi. Fransiya va unga qarab mamlakatlarning iqtisodiy xo‘jalik hayoti barqaror rivojlanishi uchun Napoleon qator o‘zgarishlarni amalga oshirdi. Shu sababli uning davrida Yevropa iqtisodiyoti barqaror rivojlanib, hech qanday iqtisodiy tushkinlik, ochliklar yuz bermadi. Napoleon Fransiyani moliyaviy, iqtisodiy tushkinlikda qabul qildi, lekin Fransiyani kuchli moliya va barqaror rivojlantirgan kuchli iqtisod bilan qoldirdi. Napoleon besh marta uylandi, yana bir necha ayollar bilan yaqin aloqada bo‘ldi. Bu shonli sarkara, davlat arbobiga bag‘ishlab 200 ming asar yozilgan.

Napoleon hech qachon biror urushni o‘zi boshlamadi. Angliya, Avstriya, Prussiya va Rossiya hech qachon Fransiyani Yevropada g‘e‘mon bo‘lishiga yo‘l qo‘ya olmas edilar. Ayniqsa bu mamlakatlarda asrlar davomida hukm surib kelgan sulolalarga Napoleon kabi oddiy fuqaroni imperator taxtini egallashi yoqmas edi. Rossiya 1804 yilda fransiya bilan tuzilgan shartnomani buzib 1810 yilda Angliya bilan yana savdo aloqalarini tikladi. Avstriya, Prussiya bilan yashirin aloqaqa bo‘lib, Fransiyaqa qarshi zimdan urushga tayyorlana boshladi...

Takrorlash uchun savollar.

1. O‘rta asrlar, industriya arafasi va industrial jamiyatda demografik an‘analalar.
2. Feodal industrial sivilizatsiyalarda insonning qobiliyati, ehtiyojlari va uning o‘rni qanday o‘zgardi?
3. So‘nggi bir yarim ming yillikda asosiy yuqori uzoq muddatli ijtimoiy siyosiy sikllarni ayting?
4. O‘rta asr, industriya arafasi va industrial jamiyatda jamiyatning ijtimoiy sinfiy tuzilmasida qanday o‘zgarishlar yuz berdi? Davlat taraqqiyotining asosiy bosqichlari qanday bo‘ldi?

Mustaqil ish mavzulari

1. Insonning jamiyatdagi mavqeining o‘zgarishi.
2. Industrial jamiyatda oila.
3. Sharq va g‘arb dunyosida inson o‘rnining qiyosiy tavsifi.
4. Ijtimoiy-siyosiy sikllar.
5. Ijtimoiy kuchlarning yangi joylashuvi.
6. Feodal-kapitalistik jamiyatlarda siyosiy hayot.
7. XX asr boshlarida yuz bergan katta siyosiy voqealar.

V bob. AVSTRALIYA. AMERIKA SIVILIZATSIYASI

19-mavzu. AVSTRALIYA

1. Avstraliya aholisi. 2. Avstraliya liklarmimg mashgʻuloti Avstraliyaliklar madaniyati va turmush tarzi

1. Avstraliya aholisi. Geograflar XVI asrda Yangi Gvineya va Olovli Yerni bitta ulkan materik “No‘ma‘lum Janubiy Yer” (“Terra australis ingognita”) ya‘ni Avstraliya eb atadilar. Okeaniya arxipelagi va orollari etnik va madaniy jihatdan farqlarga ega bo‘lgan uch geografik hududga bo‘linadi. Melaneziya (“Qoralar oroli”) materikning garbidagi katta uch orol-Yangi Gvineya, Yangi Zelandiya va Polineziya (“ko‘p sonli orollar”). Polineziya orollari Tinch okean havzasida uchburchak shaklda yastanib yotadi. Melaneziyadan shimolda uchinchi hudud Mikroneziya (“Kichik orollar”) arxipelagi- Marian, Karolin, Marshall va Gil‘bert orollarini tashkil etadi.

Shuning uchun ba‘zi olimlar, Avstraliyaga ko‘chishning ikki to‘lqini bo‘lgan deb taxmin qiladilar. Ayrim mutaxassislarning tasdiqlashicha, tarixgacha bo‘lgan odamlarning turli ko‘rinishi hozirgi aborigenlar ajdodlarining chetki variantlarigina xolos. Hozirgi aborigenlarning ko‘z usti bo‘rtmalarining tuzilishi eng qadimgi vorisiylik alomatlaridir.

Bundan uch asr oldin yevropaliklar Avstraliyaga ilk bor kirib kelgan vaqtlarida, qit‘ada 500 qabila mavjud edi. Aborigenlar so‘ngi paleolit, mezolit va ayrim joylarda neolit bosqichida yashar edilar. Asosiy mashg‘ulot erkaklar uchun ovcharmilik, ayollar uchun terimchilik edi. Qurollar tosh va yog‘ochdan tayyorlangan.

Kenguru va mayda havonlar, qanalarni ovlashda irg‘ituvchi qurollar – nayza, sopqon va bumerangdan foydalanilgan. Faqat York yarim orolida yashagan qabilalar qo‘shni Melaneziyadan o‘zlashtirib olgan o‘q – yoyni ishlatganlar. Avstraliya qabilalari mavsumga qarab ovchilik va terimchilik bilan shug‘ullanar edilar. Ko‘p sonli urug‘-qabilalar so‘ngi paleolit, mezolit va ba‘zi joylarda neolit davrida yashar edilar. Deyarli yalang‘och odamlarning katta bo‘lmagan yarim ko‘chmanchi guruhlarining har biri o‘zining doimiy hududida daydib yurar edilar. Nayza va bumerang bilan qurollangan erkaklar ov bilan mashg‘ul edilar. Mifologiya va urf-odatlar ularning hayotida muhim o‘rin tutgan, bu raqslarda, tasviriy san‘atda, og‘zaki tarqaladigan qo‘shiq va afsonalarda o‘z aksini topdi. Bularning barchasi hozirgi kunda ham saqlanib qoldi.

Birinchi avstraliyaliklar o‘zlariga tegishli bo‘lgan hududda ozuqa izlab muntazam ko‘chib yurganlar. Ular vaqtinchalik turar-joylar, chaylalar quradilar. Joylarda mavsumiy – o‘troq qo‘rg‘onlar maydoni 120 kv. m gacha bo‘lgan tomli uylar qurilgan. Bu qo‘rg‘onlarlarda odamlar surunkali yog‘ingarchiliklardan panoh topganlar. Avstraliyada tunda harorat 0^o gacha tushadi va sovuqdan himoya qilishga to‘g‘ri keladi. Opposum yoki yosh kenguruning isitadigan terilaridan hamma ham foydalana olmagan. Ko‘pincha yog‘ yoki yog‘ va oxra (bo‘yoq) aralashmasi badanga surtilgan. Sovuqdan asosiy himoya olov bo‘lib, uni ishqalash yo‘li bilan hosil qilganlar. Yerda o‘yilgan chuqurlarda olov yoqilib, hayvon go‘shini qovurganlar, dimlaganlar yoki yopib dimlaganlar.

Avstaraliyaga XVII asrda yevropaliklarni kirib kelishi mahalliy aholi uchun halokat bilan tugadi. Kelgindilar Avstraliyaning eng hosildorlar yerlarini mahalliy aholidan tortib oldilar. Ingliz sayyohi Jeyms Kuk yangi qit‘ani Britaniya tojining mulki deb e‘lon qildi. Avstraliyada tub joy aholi aborigentlar 50 ming yildan beri yashar edi. Qit‘ani o‘zlashtirishning birinchi 100 yilligida 20 ming aborigenlar qirib tashlandi, ularning soni 80%ga kamaydi. Avstaraliyaga Angliyadan jinoyatchilar, katorga mahbuslari ko‘chirib keltirildi. Ular Avstraliyaning yevropalik ilk aholisiga aylandi.

Tasmaniyaning mahalliy aholisi 10 ming yil yopiq yashadi, ingliz J. Kuk orolga qadam qo‘yishi bilan inglizlar yopirilib kirdilar. Mahalliy aholining yerlari tortib olindi, inglizlar hatto ular ov qiladigan oroldagi chekka joylarni ham bosib olib, aholisini qirib tashladilar. Kuk kelgandan 100 yil o‘tgandan keyin Tasmaniyaning mahalliy aholisi to‘la qirib tashlandi. Tirik qolga ozgina aholi ham o‘z turmush tarzidan, ozodligidan voz kechishni istamadi va o‘limni afzal ko‘rdi.

20-mavzu. Amerika sivilizatsiyasi

1. Qadimgi Amerika sivilizatsiyasi 2. Olmeklar 3. Totonaklar 4. Teotixuakan 5. Atsteklar davlati va jamiyati 6. Atsteklar madaniyati. 7. Ispanlar istilosi 8. Muisklar madaniyati 9. Inkklar davlati 10. Maya sivilizatsiyasi 11. Ijtimoiy-xo‘jalik hayot 12. Mayyalar madaniyati. 13. Diniy e‘tiqod. 14. Shimoliy Amerika hindulari 15. Diniy e‘tiqod.

1. Qadimgi Amerika sivilizatsiyasi. Ilk odamlar sibir hududidan bundan 120- 12 ming yilliklar oralig‘ida Bering bo‘g‘ozidan Shimoliy

Amerikaga o'tib qolgan ovchilar bo'lgan deb aytiladi. Katta muzlash davrlarida, bu vaqtda dengiz chekinib, quruqlik bo'yni paydo bo'ldi. Sibir va Alyaskadan ovchi-terimchilar oyoqqa nam tekkizmay, Bering bo'ynidan o'tdilar. Ular janubga, muzdan xoli bo'lgan yo'l orqali siljib, Buyuk tekisliklar bo'ylab tarqaldilar va Janubiy Amerikaga kirib, Patagonyaga yetdilar.

Antropologlarning fikricha, bu paleo – osiyoliklar bo'lib, ularda to'g'ri qora soch, mis rang teri, qora ko'zlar, keng daxanlar va kuraksimon tishlar mavjud edi. Yuqorida sanalgan mongoloid belgilar hozirgi Amerika hindularida saqlanib qolgan. Antropologlar amerika hindularini uch guruhga bo'ladilar: bo'yi, terisining rangi va boshqa belgilari bilan janubiy amerika va markaziy amerika hindulari, shimoliy amerika hindulari. Taxminan shu vaqtda Alyaskadan Meksikagacha bo'lgan hududda asosida san'atkorona o'yiqlar qilingani o'ziga xos nayzalar uchun uchliklar paydo bo'ldi. Klovis deb ataladigan madaniyatga tegishli bu uchliklarning paydo bo'lishi, qachonki, paleohindular shimoliy muzlik qatlamlaridan siljib, janubda hayvon va parrandalarga boy bo'lgan yerni topishlari bilan bog'liq edi.

Tilshunoslar tomonidan Janubiy Amerikada 94 til guruhiga tegishli 558 til aniqlangan. Amerika hindularining 90 foizi Markaziy va Janubiy Amerikada va 10 foizi Shimoliy Amerikada yashagan va hozir ham yashaydi. Shimoliy Amerikaning hozirgi aholisining 2 foizini hindular tashkil etadi. Amerika sivilizatsiyasi xuddi sharq sivilizatsiyasi kabi ovchi-terimchilar, baliqchi – ovchilar, jamoa tuzumidagi ilk dehqonlar va atsteklar, mayalar, inklat va chibchalarning rivojlangan sivilizatsiyalaridan tashkil topgan edi. Amerkashunos olimlar qit'ada ilk sivilizatsiyalar paydo bo'lgan alohida madaniy-geografik hududga nisbatan Mezoamerika yoki Mesoamerika tushunchasini ishlatadilar. Mezoamerika-Amerikaning yuqori rivojlangan sivilizatsiyalar markazi bo'lgan Markaziy va Janubiy Meksika, Gvatemala, Beliz, Salvador va Gondurasning g'arbiy tumanlarini tashkil etadi. Yevropa mustamlakachilari kelgunga qadar Mezoamerika va And tog'lari etaklarida amerikaning tubjoy aholisi yuksak rivojlangan sivilizatsiyalarni yaratgan edilar.

Meksika hududida bundan yetti ming yil oldin ilk bor makkajo'xori madaniylashtirilgan. Makkajo'xori va tugilayotgan dehqonchilik mesoamerika hindularining madaniyati va turmush tarzini o'zgartirgan. O'troq hayotga o'tib dehqonchilik bilan shugullanayotgan jamoalar, don saqlash uchun loy xumlar tayyorlab kulolchilikni va to'qimachilikni kashf qildilar. Mezoamerikaning qadimgi sivilizatsiyalariga teotixuakan (Marka-

ziy Meksika) va maya (Meksikaning janubi, Beliz, Gvatemala, Sal’vador va Gondurasning garbiy tumanlari) madaniyatlari kiradi.

2. Ol’meklar. Mezoamerikaning “birinchi sivilizatsiyasi” Meksika qo’ltig’ining janubiy qismida “ol’meklar” madaniyati mil. avv.800-400 yillarda shakllanib o’zining yuqori cho’qqisiga chiqdi. Mezoamerikaning boshqa sivilizatsiyalari bo’lgan teotixuakan va maya sivilizatsiyalari ana shu ol’meklar madaniyatidan tarqalgan deb faraz qilinadi. Ol’meklar somon va loydan piramidalar qurdilar, mifologiya va diniy e’tiqod mazmuni bilan sug’orilgan naqshli tosh yodgorliklar bunyod qildilar. Bunday yodgorliklar orasida qalpoq kiygan ulkan antropomorf bosh kallasi ham mavjud, uning ogirligi 20 tonnani tashkil etadi. Ol’meklar san’atida bazal’t va nefritdan o’yib ishlangan past rel’efli naqshlar ajralib turadi. Rel’ef-tavirlarning asosiy motivi yaguar qiyofasi berilgan yig’layotgan bolaning tasviri. Bu “go’dak-yaguarlar” tasvirlari nafis nefrit tumorlar va hosildorlik ramzi bo’lgan boltalar bilan bezatilgan.

Yaguar ol’meklar ijodining va e’tiqodining asosiy mavzusi edi. Ol’meklarning haykallarida odam tasviri va La Ventadagi bosh mehrobdagi mashhur tosh haykalda yaguarning kallasi tasvirlangan. Olmeklarning La Ventadagi yetti metr uzunlikdagi sagonasida yaguarning tishlari ko’rinishida baldoqlar topilgan. Arxeologik qazishmalarda ol’mek bolalarini boshlari, mongoloid yuzlari ham yaguar ko’rinishida ko’plab uchraydi. Bundan kelib chiqadiki, yaguar omeklarning totemi bo’lgan, ol’meklar o’zlarini “yaguar-odamlar” deb ataganlar.

Ol’meklar Amerikada eng birinchilardan bolib yozuvni kash qilganlar. Ol’meklarning yozuvlari iyeroglif yozuvi edi, hozirgacha 50 dan ortiq ol’mek ierogliflari topilgan. Ol’mek ierogliflarining 35 foizi mayalar ieroglifinining arxaik varianti edi. Ol’mek, maya va sapotek yozuvlari Amerikaning eng qadimgi yozuvlaridir. Yozuv chapdan o’ngga yuqoridan pastga qarab yozilgan.

Mayalar kabi ol’meklar ham sonlarni kashf qildilar, ular bir sonidan to’rtgacha tegishli nuqtalar bilan ifodaladilar, besh va uning ko’p marta takrorlanishi tayoqchalar bilan ifodalangan. 17 santimetrli qush qanoti bilan tasvirlangan nefrit odam haykalchasida ol’mek raqam belgilarini tushirilgan., bu belgilar bizning 162 yilga toi’g’ri keladi. Ol’meklar matematika fanida katta yutuqlarga erishdilar. Amerikaning eng qadimgi kalendarlaridan birini ol’meklar yaratdilar.

Ol’mek madaniyati Amerikadagi eng qadimgi madaniyat bo’ldi. Ol’mek madaniyati mil. avv. VIII asrda mavjud bo’lib, boshqa madaniyatlardan sezilarli darajada yuqori edi. Bu madaniyat Meksikaning boshqa hududlaridagi madaniyatlarga hayotbaxsh ta’sir qilgan. Qo’shni hudud-

larda ol'meklarning nefritdan yasalgan haykalchalari, niqoblari topilgan. Ol'meklar asta-sekin tarix sahnasidan tushib ketdilar, ularning o'rniga teotixuanlar, tol'tek va atsteklar kirib keldi. Ol'mek yaguari tasvirini qush pati bilan ilon tasviri almashtirdi. Ol'mek davri Mezoamerikada mil. avv. VIII asrdan milodiy VI asrgacha, aniqrog'i 593 yilda o'rnatilgan ol'mek vaqt hisobi tushirilgan ustunning ornatilishi bilan tugaydi.

3. Totonaklar. Ol'meklar kabi Meksika qo'ltig'ida yashaganlar. Totonaklar dehqonchilik bilan shug'ullanib, manioka va batat yetishtirganlar. Ular qishloq va shaharlarga yashab ulkan davlatga asos solganlar Har bir qishloqni urug' jamoasi yo'lboshchisi boshqargan. Sempoalu (bosh markaz), Taxin va Xalapu shaharlarini barpo etganlar. Totonaklar toshdan me'moriy inshootlar-e'hromlar barpo qilganlar. Sempoalada diniy e'tiqod inshootlari 5 ming kv.km.ni tashkil etgan ansamblga birlashtirilgan.

Totonaklarning ikkinchi shahri Taxinda ilonlarning rel'ef tasvirlari bilan bezatilgan yetti qavatli tosh piramida qurilgan. Piramidaning bir tomonida chiqish uchun 364 zinapoya barpo etilgan. Mezoamerika aholisining hayoti kalendar bilan mahkam bog'langani uchun yilning har bir kuni bilan 364 zinali piramida qurilgan.

Totonaklar ko'plab xudolarga sig'inganlar (osmon xudosi, quyosh, makkajo'xori va boshqalar) va diniy e'tiqod xizmatchilari ko'p sonli bo'lgan. Yomg'ir xudosi sig'inish keng tarqalgan bo'lib, ushbu ilohga ko'p odam qurbonlikka keltirilgan. Barcha mezoamerika diniy e'tiqodlarida odamni qurbonlikka keltirish marosimi an'ana bo'lgan. "Bosh chanoqlar ehromi" deb ataladigan ibodatxona devorlari 5 qatorga loydan terilgan boshchanoqlar bilan bezatilgan. Yilning 365 kunida ham ko'rinishidan odam qurbonliklari keltirilgan. Maya va atsteklar kabi totonaklar ilohlarga bolalarni muntazam qurbonlikka keltirganlar. Har uch yilda o'tkaziladigan katta bayram marosimlarida kohinlar bolalarning qoni bilan xushbo'y hidli daraxt sharbatlari va o'simliklarning urug'ini qo'shib aralashma tayyorlaganlar. Kohinlar tayyorlangan aralashma bilan marosimning barcha yoshi katta ishtirokchilarini tozalaganlar.

4. Teotixuakan. Milodiy birinchi ming yillik boshlarida Meksikaning markazida teotixuakan madaniyati ivojlanadi. Bu madaniyatning yaratuvchilarining etnik kelib chiqishi noma'lum. **Teotixuakan.** madaniyatidan bizgacha ulkan me'moriy inshootlar, nefrit va obsidiandan ishlangan kichik rel'ef tasvirlar va buyumlar yetib kelgan. Tol'teklarning o'tmishdoshlari bo'lgan xalq yoki klassik tol'teklar bu madaniyatni yaratuvchilari deb faraz qilinadi.

Teotixuakan shahri bu madaniyatning bosh markazi bo'lib, ulkan shahar bo'lgan. Aholi dehqonchilik bilan shug'ullangan va makkajo'xo-

ri, no‘xat va paxta o‘stirganlar. To‘qimachilik rivojlanib paxtadan uzun yubkalar, koftalar to‘qilgan. Hozirgacha Meksikaning hindu ayollari bu kiyimlarni kiyadilar. **Teotixuakan**lar ajoyib kulol va rassomlar bo‘lganlar, ular rangli toshlardan nafis mozaikalar yaratganlar.

Eng sifatli obsidian koni **Teotixuakanda** topilgan. Obsidian juda o‘tkir bo‘lgani uchun temir o‘rnida foydalanilgan. Teoteokand obsidian savdosini nazorat qilgan. Chiganoqlar juda qimmatbaho hisoblanib, undan faqat zodagon va kohinlar foydalangan. Milodiy 3 asrda Teoteokan juda boy shahar bo‘lgan. Shaharda me‘morchilikda katta o‘zgarishlar yuz bergan. Barcha turar joylar vulqon toshlaridan qurilgan. Oddiy odamlarning uylari ham barcha qulayliklar bilan qurilgan, uylarga vodoprovod o‘tkazilgan.

Teotixuakan jamiyatini boshqargan hukmdor bir vaqtini o‘zida bosh kohin ham bo‘lgan. Kohinlar katta obro‘ga ega bo‘lib, qora ko‘ylak kiyib yurganlar. Bosh xudo yomgir xudosi bo‘lgan. Yomg‘ir xudosiing ramzi qush patli ilon tasviri bo‘lgan. Bu xudoning tasvirlari **Teotixuakan** va boshqa shaharlarning barcha inshootlari devorlariga tushirilgan.

750 ga maydoni egallagan **Teotixuakan** hashamatli shahar bo‘lib, mil. avv. I ming yillikda butun Mezoamerikaning siyosiy-iqtisodiy, madaniy va diniy markazi bo‘lgan. Shaharda amalda aholi yashamagan, ko‘plab piramidalar, ibodatxonalar va kohinlarning turar joylari qurilgan. Shaharning markazi bir-biri bilan to‘g‘ri burchak bilan kesishadigan dunyoning to‘rt tomoniga qaragan, shimoldan janubga uzunligi 5km bo‘lgan “O‘liklar Yo‘li” xiyoboni, sharqdan g‘arbga uzunligi 4km bo‘lgan ikki asosiy nomsiz xiyobondan iborat bo‘lgan. Bu ikki keng xiyobon-ko‘chada tantanali diniy marozim qatnashchilari va ziyoratchilar yurganlar. “O‘liklar Yo‘li” xiyobon-ko‘chasining shimoliy nihoyasida Markaziy Amerikadagi eng baland- 42 metrli xom g‘isht va ishlov berilmagan vulqon toshidan bunyod etilgan Oy Piramidasi qad ko‘targan. Bu asosiy xiyobonda o‘nlab hashamatli ibodatxona va saroylar qurilgan. Xiyoboning chap tomonida ulkan besh pog‘onali, tepasi yassi (qachonlardir ibodatxona turgan) balandligi 64,5 metr, perimetri 1000 metr bo‘lgan Quyosh Piramidasi bunyod etilgan. Barcha inshootlar loy yoki toshdan qurilgan bo‘lib, silliq suvalib yorqin ranglarda bo‘yangan.

Teotixuakan Mezoamerikada yirik hunarmandchilik va savdo markazi ham bo‘lgan. Arxeologlar bu yerda 500 hunarmandchilik ustaxonasini qazib ochganlar, bu ustaxonalardan 300 tasi obsidian (vulqon toshi) ga ishlov beradigan ustaxona bo‘lgan. Obsidiandan diniy marosimlar uchun turli kichik hajmdagi haykalchalar, marosim buyumlari tayyorlangan. Teotixuakan usta-hunarmandlarining mahsulotlari milodiy birinchi

ming yillikda butun Mezoamerikaga tarqalgan. Shahar birdan milodiy VII asrning oxirida katta yong'in tufayli halokatga uchraydi.

5. Atsteklar davlati va jamiyati. Atstek nomi ularning asl vatani bo'lgan afsonaviy Astlan nomidan kelib chiqqan. Atsteklar qadimgi urug' yo'l boshchilari Meshitli nomi bilan o'zlarini meshik deb ataganlar. Atsteklar 200 yil davomida ko'chib yurdilar va nihoyat XIII asrda Meksika vodiysidagi Teskoko ko'li havzasiga kelib joylashdilar. Teskoko ko'li qirg'oqlarida bu vaqtda o'nlab shaharlar mavjud bo'lib, ular hosildor yerlar uchun o'zaro urushlar o'lib borganlar. Atsteklar boshda yarim qaram holda yashadilar. faqat 1325 yilda hech kim yashamagan botqoq orolda qo'nim topdilar. Va shu 1325 yil sanasi atsteklarning haqiqiy tarixi boshlanishidan dalolat beradi. Ular orolga shahar bunyod etib, bu shaharga o'z yo'l boshchilari Tenoch nomini berib Tenochtitlan deb atadilar, o'z xudolari Uisilopochtli sharafiga ibodatxona bunyod etdilar. Atsteklar orolni to'rt kvartalga bo'lib qurilish ishlarini olib bordilar. Qurilish materiallarini qo'shnilardan sotib oldilar, Ko'lda yashaydigan parrandalar, qamish va chig'anoqlar asosiy tirikchilik manbai bo'ldi. Botqoqli orolda ekishga yaroqli yerlar taqchilligi uchun atsteklar ko'lda novda va daraxt shox-shabbalari ustiga tuproq tashlab chinampa – "suzuvchi boglar" yaratdilar. Askanosal'ko shahar-davlati ko'lga da'vo qilgani uchun atsteklar bu davlatga xiroj to'lashga majbur edilar. Atsteklar qo'shni shahar davlatlarning o'zaro urushlariga tortildilar. Uzoq yillar davomida ular o'z mustaqilliklarini saqlab qolish uchun turli ittifoqlarga qatnashdilar.

Nihoyat 1427 yilda atsteklar Tenochtitlan, Teskoko, Tlakopana shaharlarining ittifoqini tuzdilar va qo'shni hududlarga istilochilik urushlarini boshladilar. Uch shahardan iborat bo'lgan davlat birlashmasida tez orada Tenochtitlan shahri yetakchi o'rinni egalladi. Atsteklar imperiyasi vujudga kelib, uning chegaralari Shimoliy Meksikadan Gvatemalagacha va Tinch okeani qirg'oqlaridan Meksika qo'ltig'igacha cho'zilib ketgan bo'lib, 200 ming kv.km va 5-6 million aholiga ega edi.

Davlat boshqaruvi. Atsteklar davlati amalda uch shaharning konfederatsiyasi edi. Tenochtitlan shahri bosh markaz bo'lib, bu yerda "Oliy kengash" davlat boshqaruvi ishlari bilan shugullangan. Uch shaharning hokimlari boshqaruvda teng huquqli bo'lib, vazifalarni o'zaro taqsimlab olganlar: Teskoko hokimi qonunchilik va jamoa qurilishi; Tlakopani shahri hokimi san'at va hunarmandchilikni rivojlanishi uchun mas'ul bo'lgan; Tenochtitlan hokimi Iskoatl siyosat, konfederatsiya a'zolari o'rtasidagi ixtiloflarni bartaraf qilish va birlashgan qo'shinni oily qo'mondoni vazifasini bajargan. Tez orada Iskoatel uch shahar birlashmasining haqiqiy rahbariga, Tenochtitlan shahri Markaziy Amerikadagi eng katta poytaxt shaharga aylanadi.

Atstek kengashi – **Tlatokan** davlatning 6 oliy vakilini “ barcha xalq nomidan “saylagan. 6-oliy vakil orasidan tashqi ishlar bilan shugullanadigan, shu bilan bir vaqtda atstek armiyasi bosh qo‘mondoni vazifasini bajargan vakil asosiy rolni o‘ynagan. Bu vakil atsteklar yo‘lboshchisi, Tenochititlan shahri hokimi bo‘lgan. Bu lavozimni imtiyozli zodagon atstek oilalari egallagan. Atstek hokimi o‘z vorisini o‘z yaqin qarindoshlari orasidan tayinlagan. Atstek davlatining hukmdori umrbod saylab qo‘yilgan. Tenochititlandan farq qilgan holda qo‘shni Teskokoda qonunga ko‘ra hokimning birinchi xotini o‘g‘li voris bo‘lgan. Teskoko hokimining bosh xotinidan boshqa yana yuzlab, hatto mingdan ortiq xotini bo‘lgan. Misol uchun Teskoko hokimi Nesual’pillining go‘yoki ikki mingdan ortiq xo‘tini bo‘lgan.

Tenochititlan hukmdoridan keyin amaldor siuakoatl – aynan ma’nosi – “ayol- ilon” turgan. Hukmdor harbiy safarga ketganda siuakoatl davlatning barcha ichki ishlarini boshqargan va 13 oliy martabali amaldor a’zo bo‘lgan Oliy sudga rahbarlik qilgan.

Atstek jamiyati. Atsteklar jamiyati 5 qatlam-kohinlar, harbiylar, savdogarlar, oddiy fuqarolar va qullardan iborat bo‘lgan. Atsteklar jamiyatida savdogarlar imtiyozli tabaqa bo‘lgan.

Tekuxtli deb atalgan Jamiyatning imtiyozli qatlamli kohinlar va harbiylar tashkil etgan. Masualli deb hech qanday imtiyozga ega bo‘lmagan qatlamlarga aytilgan. Atsteklar jamiyatida savdogarlar ham imtiyozlarga ega bo‘lgan. Keyinchalik Tenochitlanning oliy amaldorlari, viloyatlarda atstek shahar va qishloqlari hokimlariga tekuxtli unvoni berilgan. Tekuxtli soliqlardan ozoq qilingan. Davlat ularga oliy lavozimlar, hashamatli kiyimlar bergan. Shahar va qishloqlar hokimga xizmatkor va joriyalar berishi, uy-joy oziq ovqat bilan ta’minlashi lozim bo‘lgan. Ular o‘z tabaqalari ichida nikoh qurganlar, savdogarning o‘g‘li savdogar bo‘lishi mumkin bo‘lgan va o‘z qatlamidan uylangan. Markaziy hukumatdan mustaqil bo‘lgan o‘z sudyalari bo‘lgan Savdogarlarning o‘z ilohlari bo‘lgan.

Barcha atsteklar hatto kohinlar ham harbiy xizmatni o‘taganlar. Atsteklar armiyasi 150 ming kishini tashkil etgan. Armiyada xizmat qilish oddiy fuqaro uchun jasorati uchun mukofotlar olish jamiyatning imtiyozli qatlamiga ko‘tarilishga kafolat bergan.

Atstek jamiyatining yana bir qatlamli qandaydir sabablar bilan yersiz qolgan dehqonlar qatlamli bo‘lib, ular yollanma mehnat bilan kun ko‘rganlar.

Qullar eng quyi pog‘onada turgan. Atsteklar orasidan jinoyat qilganlar qulga aylantirilgan. Kambag‘allashib qolgan dehqonlar o‘zlarini qullikga sotganlar. Qul atsteklar ma’lum bir vaqtdan keyin to‘lov to‘lab

ozodlikka chiqishlari mumkin boʻlgan. Golibona urushlarda olingan asirlarning barchasi qul qilingan. Qullar safi golibona urushlarda olingan asirlar bilan toʻldirilgan. Atsteklar qaram mamlakatlardan oʻlpon oʻrniga qullarni berishni talab qilganlar. Urushga asir tushganlardan yuzlab kishilar diniy marosimlarda qurbonlikka keltirilgan.

Xoʻjalik hayoti. Atsteklarning asosiy mashgʻuloti dehqonchilik boʻlgan. Makkajoʻxori ekib, undan un qilinib non yopilgan. Atstek dehqonlari yana qalampir, agava va noʻxat va tamaki yetishtirganlar. Qaram hududlardan kakao olinib undan chokoatl deb atalgan ichimlik tayyorlangan. Shokolad soʻzi shundan kelib chiqqan. Atsteklar birinchi boʻlib pomidor-tomat ekkanlar. Tomat yoki tomatli soʻzi ham bizga atsteklardan kelgan. Atsteklar kuchuk va kurkani goʻsht uchun boqqanlar. Agava oʻsimligining ildizidan ovqat tayyorlangan, barglari uylarning tomlari yopilgan. Agava barglaridan kuchli spirtli ichimlik tayyorlangan. Asosiy dehqonchilik quroli yogʻoch motiga-ketmon boʻlgan. Atsteklar suvga tuproq tashlab suniy ekin maydoni yaratganlar, bu ekin maydoni suvda barqaror turishi uchun tol daraxtlarini dala chetlariga ekkanlar. Yer oʻgʻitlanib, moʻl hosil bergan. Atsteklar jamiyatida savdogarlar imtiyozli tabaqa boʻlgan.

6. Atsteklar madaniyati. Atsteklarning diniy eʼtiqodiga koʻra dunyo yuqori, oʻrta va quyi qatlamlarga boʻlingan. Orta dunyoda odamlar, oʻrmon, togʻ, suvning ruhi yashagan kenglik toʻrtburchak shakldaboʻlib, suv bilan oʻralgan.

Atstek xudolari uch darajaga boʻlingan. Yuqorida hayotni paydo qilgan ikki xudo turgan. Ulardan pastda, oʻzaro raqobatda boʻlgan ikki oʻgil xudolar turgan. Quyida osmon jismlariga homiylik qilgan xudolar turadi. Atstek xudolari xuddi maya xudolari kabi qonxoʻr boʻlib odamlarni qurbonlikka keltirishni talab qilganlar. Atstek qabilalarining barcha yoʻlboshchilari koinlik vazifasini bajarib kalendar boʻyicha dehqonchilik bilan bogʻlangan marosimlarni amalga oshirganlar.

Qurbonlik keltirish 1481 yilda atstek hukmdori Utskoatl tomonidan rasmiy qonunlashtirilgan. Quyoshni oziqlantirish uchun davriy marosim oʻtkazish boshlanadi. Urush xudosa asir askarlar qurbonlikka keltirilgan; ularni yuragi yulib olingan, qurbonlik qilinganlarning qoni bilan xudoning yuzi va labi yuvilgan qurbonlik qilingan odam tanasini esa koinlar yoki marosim ishtirokchilari yeganlar. Shundan boshlab, qurbonlik keltirish marosimi muntazam oʻtkazilgan.

Fan. Atsteklar jamiyatida ilm-fan yaxshi rivojlangan. Falsafa va tibbiyot fanlari yuqori darajada rivojlangan. Atstek tabiblari odam anatomiyasini va odamning alohida organlarini funksiyalarini yaxshi bilganlar.

Astronomiya fani rivojlanib atsteklar aniq taqvim tizimini yaratdilar. Atstek quyosh yili 365 kun, har biri 20 kun bo‘lgan 18 oydan iborat bo‘lgan Yil oxirida “ baxtsiz kunlar” deb aytiladigan 5 kun qo‘shilgan. Yilning boshlanishi Bizning taqvimdagi 12 fevralda atstek yili boshlanib, tugashi 11 fevralga to‘g‘ri kelgan. Atsteklarda “kohinlarning muqaddas taqvimi” ham bor edi. Atstek kohinlari o‘z diniy taqvimlarini tuzganlar. Kohinlar taqvimi 260 kun bo‘lib, 20 kundan iborat 13 oyni tashkil qilgan.

Ta’lim. Atsteklarda ta’lim uyda boshlangan. Qiz bolalar uy-ro‘zg‘or tutish, o‘g‘il bolalarga otalarini kasbi o‘rgatilgan. Atstek oilasida gunoh qilgan o‘gil bolalarni 9 yoshidan xivich bilan savalash jazosiga ruxsat berilgan. Bolalar 12-15 yoshda maktabga berilgan, ular maktabda marosim qo‘shiqlarini aytishni va diniy e’tiqod qonun-qoidalarini o‘rganishgan. Oddiy aholining bolalari harbiy maktabda o‘qiganlar va tunda uy-erda qolganlar. Boy odamlarning bolalari boshqa maktabga qatnaganlar. Ularga harbiy ish, me’morchilik, matematika, astrologiya, tasviriy san’at va tarix fanlaridan saboq berilgan. Barcha ruhoniylar va amaldorlar shu maktab bitiruvchilari bo‘lgan.

Atsteklar hozirgi basketbol va futbolga o‘xshash o‘yin o‘ynaganlar. Ochiq maydon atrofiga erkaklarning bo‘yidan uch marta baland devor qilingan. Devorning yuqori qismiga tosh halqa o‘rnatilgan, ana shu halqaga kauchuk koptokni tizza, son va tirsak yordamida tushirish kerak edi. O‘yinga faqat zodagonlar ishtirok etgan, golib bo‘lgan komandaga tomoshabinlarni talashga urinishga ruxsat berilgan. Ba’zida o‘yin maydonida qurbonlik keltirilgan. Tomoshabinlarga komandalarga pul tikishga ruxsat berilgan, Yutqizgan kishi puli bo‘lmagani uchun ba’zida o‘zini qullikka sotishga majbur bo‘lgan.

Tibbiyot. Atsteklarda tibbiyot yaxshi rivojlangan. Tabiblar tictil deb atalgan. Tabiblar o‘simliklardan tayyorlangan shifobaxsh dorilar va har xil magiya bilan davolaganlar. Atstek qo‘lyozmalarida 1550 davolash retsepti, 180 xil o‘simlik va daraxtlardan olinadigan dorilar ro‘yxati kiritilgan. Bosh og‘rig‘ini kalla suyagini terisini obsidian vulqon shishasi bilan kesib davolaganlar. Dezinfeksiya vositasi sifatida agava o‘simligi ishlatilgan, hozir ham agava tibbiyotda qo‘llaniladi.

Alkogol ichish qat’iy taqiqlangan, faqat 50 yoshdan keyin ichishga ruxsat berilgan. Atsteklar kakao donidan qaynoq shokolad (tayyorlab) ichishni yaxshi ko‘rganlar, uning retsepti mayalardan o‘zlashtirilgan. Qandaydir o‘simlikdan mast qiladigan ichimlik ham tayyorlab iste’mol qilingan, uning retseti mayalardan olingan. Sport bilan shug‘ullanish, jangchining badanini jangovar bo‘yoqlar bilan bo‘yash jangchining ruhi va jismini mustahkamlagan.

Atstek poeziyasida turli janrlar shakllangan. Me'morchilik san'ati yuksak daraja rivojlangan. Atsteklar toshdan piramidalar, ibodatxonalar va saroylarni bino qildilar. Atsteklar poytaxti Tenochtitlan maydoni 1200 gektarni tashkil etib, aholisi 120-300 ming kishiga yetgan. Shahar orolda joylashgan bo'lib, to'g'ri kocha va kanallar bilan bo'lingan. Shahar markazida diniy-ma'muriy markaz – bir necha hashamatli ibodatxonalar, kohinlarning uylari, koptok marosim o'yinlari maydonchasidan tashkil topgan 400 metrli devor bilan o'rab olingan. Singiatstek podshosi Montesuma II (1502-1520)ning saroyida 300 xona, zoopark, katta bog' va cho'milish xonalari bo'lgan.

Atsteklar badiiy hunarmandchilikda turli qimmatbaho toshlar, oltin va kumushga ishlov berib nafis san'at buyumlarini yaratdilar. Bosqinchi ispanlar yuksak san'at asarlarini quyma oltinga aylantirib Ispaniyaga jo'natdilar.

7. Ispanlar istilosi. 1519 yil iyul oyida ispan qaroqchisi Fernan Kortes Meksika qirg'og'iga tushdi va mahalliy aholiga o'zini ispan qirolining elchisi deb tanishtirdi. Atsteklarga dushman bo'lgan mahalliy qabila Kortesda ozuqa va yo'boshlovchilar berib atsteklar poytaxti Tenochtitlanga yo'lni ko'rsatib jo'natdilar. Atsteklar ispanlarni poytaxtga kirishiga monelik qilmadilar, aksincha qo'llansa hid taratib turgan bu odamlarni hukmdor Montesuma saroyiga kuzatib bo'rdilar. Atsteklar kuchli chidab bo'lmaydigan qo'llansa hid kelib turgan bu kelgindilarga hamroh bo'lganda o'zlariga xushbo'y atir sepdilar. Montesuma Kortes va uning hamrohlarini qabul qiladi. Kortes qabulning o'rtasida sheriklariga podshoga hujum qilishga ishora beradi. Po'lat qilich bilan qurollangan ispanlar Montesumaning yog'och nayza va tosh pichoqlar bilan qurollangan tansoqchilarini o'ldiradilar va Kortes hukmdorni asirga oldi. Kortes atstekar xazinasini qo'lga kiritdi. Atsteklar bosqinchi ispanlarga qarshi urush boshladilar. Ispanlar atsteklarga qarshi bo'lgan qabilalarni o'z tomoniga og'dirib oldilar. Urushda atsteklar yengildi va Kortes o'zining 500 kishilik qaroqchilar to'dasi bilan ulkan atsteklar davlatini bosib oldi. Ispanlar Meksikaga kelgandan kundan yuz yil o'tgach mahalliy aholining soni 10 martaga qisqardi.

Bu davrda Osiyo qit'asida dunyoda eng qudratli bo'lgan Boburiylar, Xitoy, Usmoniylar va Safaviylar saltanati biror marta Amerikaga kichkina bir kemani yubormadi. Va bu o'zga hududlarga qiziqmadi. Hatto Yevropadagi kichik Shotlandiya va Daniya davlatlari Amerikaga kichik ekpeditsiya yubordilar. Osiyoning hukmdor sulolalari uchun Osiyo yer sayyorasining markazi bo'lib qoldi. Ular dengiz yo'llari uchun yevropa mamlakatlari bilan kurashga kirishni xayollariga ham keltirmadilar,

chunki bunga ehtiyoj yo‘q edi. Ular uchun bu vaqtda Yevropa uzoq kuch-siz bir hudud bo‘lib, ular uchun hech qanday xavf sola olmas edi. Bundan tashqari Osiyo mamlakatlardagi ishlab-chiqarish usuli, shakllangan an’anaviy siyosiy ustqurma mutlaq hokimiyatga ega bo‘lgan hukmdor (sulton, podsho, shoh, osmon o‘g‘li, tenno) va hukmron tabaqani to‘la qondirar edi. Ayrim davlatlar o‘z an’anaviy turmush tarzlarini saqlab qolish uchun “yopiq eshiklar” siyosatini yuritdilar (Xitoy, Yaponiya).

8. Muisklar madaniyati. Janubiy Amerikaning shimoli-sharqida hozirgi Kolumbiya respublikasi hududida o‘rta asrlarda muisklar madaniyati shakllangan. Muisklar hindularning chibcha til guruhiga mansub bo‘lib, bu til guruhigagi urug‘-qabilalar alohida davlatlarni tashkil etdilar. Ular XVI asrda Janubiy Amerikaning shimoli-g‘arbi va Markaziy Amerikaning viloyatlari:hozirgi Panama, Kosta-Rika va Nikaraguaning janibini egalladilar.

Muisk jamiyati zodagonlar, oddiy dehqon-hunarmandlar va qullardan iborat edi.Urushlarda olingan asirlar qulga aylantirilgan. Qullar davlat, zodagonlar, kohinlar va harbiy boshliqlar foydasiga mehnat qilganlar.

Hududda o‘rmonlar deyarli yo‘q bo‘lgan. Lekin ko‘llar ko‘p bo‘lib, yomg‘ir mo‘l-ko‘l yoqqani uchun yerlar hosildor bo‘lgan. Muisklar bu tog‘ vodiylarida dehqonchilikni yo‘lga qo‘ydilar. Ular kartoshka, makajo‘xori, batat, koku, pomidor va tamaki ekishni yo‘lga qo‘ydilar. Hayvonlardan faqat kuchuk madaniylashtirilgan. Hunarmandchilik, tog‘-kon ishi rivojlangan .Muisklar mamlakatida aholi zichligi 1 kv.kmga 60-70 kishi to‘g‘ri kelgan.

Muisklar mohir hunarmand- to‘quvchilar bo‘lganlar, kulolchilik mavjud bo‘lgan. Zargarlik yuqori darajada rivojlanib, qimmatbaho toshlarga ishlov berilgan. Ayniqsa zumrad toshiga ishlov berish keng tarqalgan. Muisklar yaxshi savdogar ham bo‘lganlar.Muisklar Amerikadagi pul zarb qilgan yagona xalq. Tog‘ tekisliklarida mineral toshlar parlanib tuz olingan. Har to‘rt kunda bir necha shaharlarda katta savdo yarmarkalari o‘tkazilgan. Yarmarkada tuz, gazlamalar, koku barglari sotilgan. Tuz asosiy eksport manbai bo‘lgan.

Hokim aholidan yigilgan soliq to‘lovlarining bir qismini zodagonlar, kohin va harbiy boshliqlarga taqsimlab bergan. Muisklar qabilalar ittifoqlarini tuzdilar. Ittifoq tarkibiga alohida qabilalar-usaka kirgan. Odatda har bir qabila 80-120 qishloqdan iborat bir vodiyni egallagan, Usakani davlat hukmdori tasdiqlagan merosiy oliy yo‘lboshchi boshqargan. Har bir qishloqda barcha ishlarni mahalliy yo‘lboshchi yo‘lga qo‘ygan..

Ispanlar Amerikada paydo bo‘lgan paytda muisklar 9 davlatda yasahar edilar. Davlat hukdori vafot etganda, taxtga uning singlisini o‘g‘li

chiqqan. Eng qudratli muisk davlatlaridan biri Bogotada taxt vorisi taxtga chiqishdan oldin Chia viloyatini boshqargan.

Taxt vorisi taxtga chiqish uchun olti yil tayyorgarlik ko'rgan. Voris olti yil faqat ibodatxonada chiqmasdan yashagan. Unga faqat tunda chiqishga ruxsat berilgan. Ovqatlanishda cheklovlarga qat'iy rioya qilgan, go'sht yemagan, ovqatiga tuz va ziravor, murch solinmagan, eng asosiysi o'ziga ayollarni yaqinlashtirmagan. Ozini nazorat qila olish va o'zini har qanday vaziyatda idora qila olish ko'nikmasini shakllantirish taxt vorisligiga nomzod uchun muhim sinov bo'lgan.

Misol uchun, Bogotaga qaram davlatlardan birida hokim vafot qilganda uning singlisining o'gil farzandi bo'lmasa, hokim da'vogarlardan orasidan ularni sinovdan o'tkazib o'ziga voris tanlagan. Taxtga da'vogarlardan qip yalangoch bo'lib yechinishlari kerak bo'lgan. Kim agarda yalangoch go'zal ayol oldida muz kabi sovuqqon bo'lib, hech qaysi sezgi organi uygonmasa bu da'vogar taxt vorisiga aylangan. Taxtga chiqayotgan hukmdor oltin taxtiravonda muqaddas ko'lga kelgan. Ko'l qirg'og'ida taxtiravondan tushib kiyimlarini yechgan. Kohinlar uning badaniga xo'shbo'y yog'lar surtib, hashamatli kiyimlar kiyintirib, oltin qum sepganlar. Shundan so'ng hukmdor kohinlar bilan qayiqqa chiqib, ko'lning o'rtasiga to'xtab turli qimmatbaho toshlar, tilla uzuklar, taqinchoqlarni muqaddas ko'lga tahlagan.

Muisklarning har bir hukmdori o'zida xudoning ifodasini, quyosh yoki boshqa xudoning yerdagi soyasini ko'rgan va shunga mos hurmat-e'tibor ko'rsatishni talab qilgan. Hech kim hukmdorga tik qarashga botinmagan, unga yuzlashadigan odam oldinroq xazinaga qimmatli sovg'a qilgan. Hokim qimmatbaho yog'ochdan ishlangan, oltin plastinalar qoplangan taxtiravonda sayohat qilgan. Hukmdorning hashamatli kiyimlariga oltin plastinalar taqilgan, boshida oltin toj kiygan. Hukmdorning yog'ochdan qurilgan saroylari ham hashamatli bo'lib, o'yma naqshlar, devoriy tasvirlar bilan bezatilib devorlariga oltin plastinalar qoplangan. Hukmdorning rafiqalarining soni cheklanmagan. Muisklar hukmdor saroyiga oziq-ovqat, hunarmandchilik mahsulotlari berish bilan bir qatorda o'z qizlarini hokimning haramiga berganlar.

Diniy etiqod. Muisklar asosan quyosh va oyga topinganlar. Rivoyatlarga ko'ra ilk odam Ato quvg'in qilinganga qadar samoda yashagan. Faqat odamlar yerga o'rtnashganda, muisklarga sharqdan Bochika xudosi kelgan. Rivoyatga ko'ra Bochika oq tanli, oq soch, uzun mo'ylov va soqolga ega bo'lgan. Bochika janchi va hukmdorlar homiysi bo'lgan, muisklarni ezgulikka, o'zaro hurmat va mehribonlikka o'rgatgan. Diniy marosim va rasm-rusumlarni kohinlar ijro etganlar. Muisklarning har bir

shahar, qishloqlarida ibodatxonalar qurilgan. Ibodatxonalarda xudolarga mo'l-ko'l hadyalar qilingan. Ko'pincha maxsus qurbonlik savatchalarida oltin va zumrad toshlar joylanib ibodatxonaga hadya qilingan. Muishklar ko'p sonli odam qurbonliklari keltirganlar. Qurbonlikka ko'pincha asirlar va boshqa qabilalardan 15-16 yoshli o'spirinlar keltirilgan. Moxas deb atalgan bu qurbonlikka keltirilgan o'spirinlar xudolar bilan odamlar o'rtasida vositachi bo'lganlar. Ular baland tepaliklarda endigina quyosh tongda ilk nurlarini sochayotgan paytda qurbonlikka keltirilganlar.

9. Inklar davlati. Janubiy Amerikaning garbida And tog'lari tekisliklarida XII asrda inklarning ilk afsonaviy hukmdori Manko Kapake Kusko vodiysida kichik bir davlatni tuzadi. Inklar davlati tarixida ispanlar bosqiniga 12 hukmdor o'tgan. Har bir hukmdor istilochilik urushlari olib borib, inklar davlatiuning hududlarini kengaytirdi. Inklarning kuchli armiyasi Peruning to'g'li viloyatlarini katta qismi 1438-1460 yillarda hukmronlik qilgan Pachakuto davrida bosib oladilar. Uning o'g'li Topa davrida (1471-1493) Ekvadorning bir qismini, Peruning janubi va Boliviyaning tog'lari va Chilining shimoli bosib olingan. G'olibona istilochilik urushlari natijasida inklar imperiyasi hududi 900 ming. kv. km ni tashkil qilar va u Tinch okeani bo'ylab 4800 km ga cho'zilib ketgan edi. G'olibona urushlarda inklar dushman armiyasining sarkardalarini asirga olib, ularni o'z poytaxtlari Kusko shahrida zaharli ilonlar to'lib toshgan binoga qamab, halok qilganlar. Dushmanning oddiy askarlari esa Kusko shahrida ink hukmdori oldida tiz cho'ktirilib, ink hukmdoriga tiz cho'kib ta'zim qilganlaridan so'ng ularga uylariga ruxsat berilgan.

Ulkan imperiyaning boshida ilohiy hukmdor sapa-inka turgan. Bu imperiyaning yuksalishi XIII asrdan boshlandi. Ayniqsa Pachakuto hukmronligi davrida (1438-1471) mamlakatda keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o'tkazilishi davlatni kuch-qudratiga zamin yaratadi.

Ink jamiyatining asosiy bo'g'ini urug'-ayl bo'lgan. Har bir ayl cheklangan ma'lum miqdordagi yer ulushiga ega bo'lgan. Har bir ink shahri va qishlog'ida odatda bir necha ayl bo'lgan. Bir necha qishloq bir okrugga birlashtirilib, unga inka tayinlagan kuraka-amaldor boshqargan. Bir necha okrug mamlakatdagi 4 provinsiyaning biri tarkibiga kirgan.

Inklar mamlakatida ekin yerlaridan olinadigan hosil va chorva mol-lari uch qismga taqsimlangan.: biri-oila, boshqasi-Inka, uchinchi-Quyosh (ibodatxona) ehtiyojlari uchun. Asosiy ekin makkajo'xori, kartoshka, no'xat va qizil qalampir bo'lgan. Ink jamiyatida mehnat qilish barcha aholi uchun majburiy edi. Aslzodalar va sapa-inka ham jismoniy mehnat qilishga majbur bo'lganlar. Inklar mamlakatining aholisi o'z oilaviy yer ulushiga ishlov bergandan keyin, Inka (davlat)ga va Quyosh (ibodatxon-

alari)ga tegishli yerlarga birgalikda mehnat qilganlar. Davlat va ibodatxona yerlaridan olingan mahsulotning bir qismi sug'urta jamg'armalarini yaratish va beva-bechora, yetimlar, keksalar va nogironlarning ta'minotiga ajratilgan. Hunarmandlar tayyorlagan mehnat qurollari va qurol-aslahalar davlat omborlarida saqlanar edi. Ayirboshlash natural holda edi. Barcha oila boshliqlari quyi va o'rta darajadagi boshqaruv jarayoniga ishtirok etar edilar. Oliy hokimiyat inkaga tegishli bo'lib, otadan o'g'ilga meros bo'lib o'tar edi. Davlat hokimiyatini bir qancha imtiyozlarga ega bo'lgan zodagonlar vakillari boshqargan.

Mamlakatda savdo aloqalari, pochta aloqasi yo'lga qoyildi. Ink davlati choparlari estafeda shaklida bir kunda 240 km. masofadga davlat pochtasini yetkazar edilar.

Katta shaharlar minglab km ga cho'zilgan yo'llar qurilib, jarliklar ustida osma ko'priklar, 750 km gacha uzunlikdagi kanallar bunyod qilingan Ink davlat hokimiyati oilani mustahkamligiga alohid e'tibor bergan.

Ta'lim. Inklarda iqtisodiyot yuksak darajada rivojlanishi bilan o'ziga xos yozuv kipu-tugunli yozuvni kashf qildilar. Inklar imperiyasida o'ziga xos ta'lim tizimi shakllandi. Bu yerda maxsus o'quv yurtlarining 2 xili mavjud edi. Ularning birida zodagonlar ta'lim olar edi. Ular til, tarix, harbiy ish, qurilish texnikasi, boshqaruv san'atini o'rganar edilar. Boshqa turdagi maktablarda quyosh xudosiga alohida xizmat qilish yoki oliy tabaqa zodagonlariga turmushga chiqishga mo'ljallangan eng go'zal qizlar ta'lim olganlar. Bu yerda poeziya, musiqa, raqslarni o'rganishga e'tibor qaratilgan.

Inklar davlatida dehqonchikda yuqori mehnat unumdorligiga erishiladi, natijasida barcha qatlamlarining aholining turmush farovonligi nisbatan yuqori darajada bo'lishi ta'minlangan. Balog'at yoshiga yetgan har bir ink yigit-qizining fuqarolik majburiyati hisoblangan. Agar 25 yoshga yetgan yigit, 18 yoshga yetgan qiz turmush qurmagan bo'lsa davlat hokimiyatining maxsus amaldori turmushga chiqmagan va uylanmagan yigit-qizlar bir kunga chaqirilib,, amaldorning ko'rsatmasi bilan ular turmushga chiqqanlar. Inkalar hukmdorining haramida uch ming joriyabo'lgan. Inkaning rafiqasi odatga ko'ra faqat o'z tugishgan singlisi bo'lgan. Sulolada urug'dan tashqari nikoh qat'iy taqiqlangan. Shu sababli hukmdor inkaning to'g'ridan to'g'ri avlodi kam sonli bo'lgan. Ispanlar Peruni bosib olgan paytda hukmdor inkaning urug'ini a'zolari faqat 518 kishidan iborat bo'lgan. So'ngi ink hukmdori Tupak Amaru bo'lgan.

Kortesdan 10 yil keyin (1529 yil ispan qaroqchisi Pissaro 168 qaroqchi sheriklari bilan inklar manlakatida paydo bo'ldi. U ham ink huk-

mdori Atualpani asirga oldi va mahalliy qabilalar yordami bilan inklar davlatini bosib oldi.

10. Maya sivilizatsiyasi. Maya sivilizatsiyasi Mezoamerikada milodiy I asr boshida paydo bo'ldi, 500 yil davomida gullab yashnadi va 900 yillar atrofida halokatga uchradi. Maya sivilizatsiyasi hozirgi Gvatemala, Gonduras va Meksika hududlarini qamrab oldi. Bu sivilizatsiyaning halokati sababi maya shaharlari o'rtasidagi raqobat edi. Tikal mayalarning eng katta va nufuzli shahri bo'lgan.

Tikal shahri. Tikal Gvatemalada maya sivilizatsiyasining markazi. Tikal shahri maya sivilizatsiyasining klassik davrida 16 km² maydonda bunyod qilingan. Shaharda ibodatxonalar, rasadxonalar, tantanali marosimlar o'tkaziladigan jamoa inshootlari, uy-joylardan iborat jami 3 ming inshoot joylashgan. 3-asrda Tikal davlati gullab yashnagan. Bu vaqtda Tikalning 3 mln aholisi va o'nlab shaharlari bo'lgan, Tikal Gondurasdagi boshqa maya shaharlari bilan savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatgan. 4 asr oxirida Tikal Markaziy Amerikadagi (Meksika hududi) kuchli Tevotekan shahri bilan yaqin diplomatik aloqa o'rnatgan, Tevotekanning me'morchilik san'atini yutuqlarini o'zlashtirgan. Lekin IV asrda Tikal zaiflashgach bu shaharga qaram bo'lgan. Tikal shahri hududi 60 kv.km. ni tashkil etib, 60 ming kishi yashagan. 1000-yillar atrofida o'nta maya shahri bir biri bilan raqobatda bo'lgan.

Maya hukmdori. Maya teokratik davlat bo'lib, davlat tepasiga xalach-vinik (buyuk odam) turgan. Uning hokimiyati mutlaq va umrbod edi. Vafot qilgan hukmdorning katta o'g'li taxt vorisi bo'lgan. Hukmdor oddiy xalq va zodagonlardan kiyimlari va tashqi ko'rinishi bilan farq qilishi kerak bo'lgan uning hashamatli kiyimi, katta toji- ekzotik qush patlaridan qilingan bosh kiyimi; nefrit uzuklari, rangli oyoq kiyimi-sandal bo'lgan. Uning yuzi boy tatuirovka bilan bezatilgan Ibodatxona devorlarida hokimiyat ramzi sifatida yaguar tasvirlangan. Hukmdorning kiyimi ham ham yaguar terisidan tikilgan, hukmdorning ko'rinishi burgutsimon ko'rinishda bo'lishi uchun uning burni maxsus plastik buyum bilan o'stirilgan va katta burgut tumshug'i hosil bo'lgan. Xalach-vinikning qolgan yuzi va tanasi uning o'ziga xosligini ko'rsatish uchun sun'iy buzilgan. Tishlari egovlanib, nefrit plastinkalari bilan bezatilgan, qulog'ining uchlari teshilib, ularni cho'zish uchun kurka tuxumidan foydalanilgan. Podshoning obroyi u olib borgan urushlar soni bilan belgilangan. Maya hukmdori oldida zodagon va kohinlarning taniqli vakillaridan tuzilgan davlat kengashi bo'lgan.

11. Ijtimoiy-xo'jalik hayoti. Maya zodagonlari va kohinlari shahar markazida hashamatli saroylarda yashaganlar. Quyi tabaqalar shahar

atrofida alohida yashagan. Bosh shahar Tikalda aholi zich joylashagan. Shahar ekin yerlari va qishloqlar qurshovida yashagan. Qishloq aholisi qo'shni jamoa bo'lib yashagan. Maya patriarxal oilasi asosiy ishlab chiqaruvchi bo'lib, dehqonchilik va hunarmandchilik xo'jaligini bilan shug'ullangan.

O'sha vaqtda maya aholisi 15 mln kishini tashkil etgan. Hozir Meksika va Markaziy Amerikada 6 mln maya xalqi yashaydi. Mayyalar o'tib bo'lmas o'rmonlar, vulqonli tog'lar, botqoqli yerlar, noqulay tabiatni bo'ysundirib, o'ziga xos buyuk madaniyatni yaratdilar. Maya dehqonlari tropik vohada dehqonchilik qilganlar, lekin jungli ekin yerlarining hosildorligi past bo'lgan. Iqlim dehqonchilik qilish uchun noqulay bo'lgan, mayalar yashagan hududda qurg'oqchilik 6 oygacha davom etgan. Shu sababli mayalar sugorma dehqonchilik bilan shug'ullanib, sun'iy sugorish inshootlari kanal va hovuzlar qurganlar. Maya podshosining asosiy vazifalaridan biri aholini suv bilan ta'minlash bo'lgan. Qurg'oqchilik paytida zahira suv uchun podsho hovuzlar qurilishini amalga oshirgan. Shahar o'rtasida chuqur hovuz qurilib, suv turishi uchun hovuz devorlari va tubi ohak bilan suvalgan. Hovuzga balandlikdan yotiq ariqdan suv keltirilgan. Ichimlik suvini filtr qilish ya'ni tozalash tizimi kashf qilingan.

12. Mayyalar madaniyati. Mayalar chuqur mazmunga ega bo'lgan o'ziga xos madaniyatni yaratdilar. Iqtisodiyotni rivojlanishi uchun aniq hisob-kitoblar kerak edi Iqtisodiyotning asosiy sohasi qishloq xo'jaligi edi. Mayalar xo'jalik hayoti ehtiyoji uchun astronomiya fani yutuqlaridan foydalanib, milodiy I asrda quyosh kalendarini yaratdilar. Maya kalendari afsonaviy sana 3113 yildan boshlanadi. Maya kalendari sanalari Drezden muzeyida mavjud. Ispan bosqinchilari maya yozuvlarini gulxanlarda yoqib yo'q qilganlar. Ispan gulxanidan omon qolgan yozuvlar Drezden muzeyida saqlanadi. Quyosh tutilishi yozilgan yozuvlar maya ibodatxonalari devorlarida saqlanib qolgan. Mayalar Amerikada yagona bo'lgan rivojlangan iyeroglif yozuvini kashf qildilar, matematikada noldan foydalandilar, quyosh va oy tutilishlarini matematika va astronomiya fanlari hisob-kitoblari asosida ishonch bilan bashorat qildilar. Maya yozuvini XX asr oxirigacha hech kim o'qiy olmadi. Faqat 1992 yilda 15 yoshli Devid mayalarning 800 ramziy belgilarini o'rganib, maya yozuvini kodini topdi va mayalar tarixini o'qishga muvassar bo'ldi.

Mayalar me'morchilik san'atini yuksak darajada rivojlantirdilar. Ulkan me'moriy inshootlar, piramidalar, sun'iy sug'orish inshootlarini barpo qildilar. Amerika temirni bilmas edi. Shuning uchun bu yerda "oltin jez asri" XV asrgacha toki yevropaliklar Amerikaga kelganlariga qadar davom etdi

Hech qanday metallni bilmagan mayalar tosh qurollar bilan toshdan piramidalar, sulola sagʻanalarini bunyod etdilar. Mayalar 3 metr balandlikda tosh taxtalar oʻrnatdilar. Etiqodga koʻra piramidalar va ibodatxonalar odamlarni ilohlar bilan yaqinlashtirgan. Mashhur maya piramidalarini 150 ming fuqaro qoʻl mehnati bilan bunyod etgan. Piramidalar qurilishida asosiy xomashyo loy va tosh boʻlib, ustalar tarashlangan toshlarni ohak bilan loydan qurilgan inshootlarga yopishtirganlar. Tikaldagi piramidalarning poydevoriga tosh qalanib koʻtarilgan. Har bir piramidaning balandligi 45 metrdan 60 metrgacha boʻlgan.

Mayalar ohakni maydalab chuqurlarda kuydirib, qum bilan aralastirganlar. Aholi uchun yoqilgi xomashyo taqchil boʻlmagan. Tosh bolta bilan balandligi 60 metr boʻlgan daraxtlar kesilib oʻtin tayyorlangan. Kulolchilik rivojlanib mayalar sopol idishlarni sanʼat darajasida yaratdilar. Haykaltaroshlar toshdan yoʻnilgan haykallar, oʻyma relʼef tasvirlar bilan inshootlarni bezadilar.

Mayalar koptok oynaganlar, bu oʻyin ramziy marosim boʻlgan. Koptok quyosh ramzi boʻlgan. Oʻyinga mehmonlar taklif qilingan. Kaucukdan qilingan koptok oyoq, qoʻlga tegishi va yerga tushishi mumkin boʻlmagan. Koptok biqin va yelkalar bilan oʻyналgan. Koptok oʻyini paytida marosim bajo keltirilib, odamlar qurbonlikka keltirilgan.

13. Diniy eʼtiqod. Maya xudolar panteoni bosh xudosi Itsamna deb atalgan. Yum Kash – makkajoʻxori xudosi, “Ax Puch oʻlim xudosi. Maya diniy anʼanalari urf-odat, rasm-rusum va marosimlari mukammal shakllantirilgan edi. VIII asr boshlarida Tikalda balandligi 47 metr boʻlgan ibodatxona qurilgan. Mayalar uchun sharq tomon quyosh tomoni boʻlgan. Ibodatxona Tikalning yigirma yettinchi hukmdoriga bagishlab qurilgan. Hukmdor ibodatxona tepasida kohinlar va musiqachilar bilan marosim oʻtkazgan. Marosimni pastda yuz minglab fuqarolar kuzatib turgan.

Asosiy diniy marosim odamni qurbonlik keltirish boʻlgan. Mayalarda “qon xudolarining taomi” boʻlgan. Shu sababli odamlar moʻl-koʻl qurbonlikka keltirilgan. Qurbonlikka keltiriladigan kishi piramida tepasiga chiqarilgan. Uning koʻkragi yorilib, yuragi sugʻurib olingan va uning yuragining qoni qurbonlik atalgan xudoning haykaliga sachratilgan. Qurbonlikka keltirilgan kishining tanasi pastga tashlangan. Pastda kohinlar oʻlikning tanasidan terisini shilib olganlar va va kohin teri bilan tanasini oʻrab olib, minglab tomoshabinlar oldida jazavaga tushib marosim raqsini ijro etgan. Keyin qurbonlikka keltirilgan odamning tanasi yoqilgan. Agar u jasur jangchi boʻlsa, uning tanasi mayda boʻlaklarga burdalanib, shu zahoti zodagon va kohiblar tomonidan yeyilgan. Mayitning jasorati va boshqa fazilatlarini yeydigan odamni jismiga oʻtadi deb oʻylaganlar.

Maya podshosi bosh kohin vazifasini o'tab yulduzlarga qarab ke-lajakni bashorat qilgan. Bashorat maya kalendari bo'yicha belgilangan kunda qilingan. Mayalarda marosim kalendari bo'lgan. Qizil rang hayot va quyosh rangi bo'lgan. Piramidaning tomidan turib quyosh kuzatilgan. Quyosh, Oy va Venera sayyorolari harakati kohinlar tomonidan kuzatilgan. Kohinlar oy va quyosh tutilishini ming yil oldin bashorat qilganlar.

Mustamlakachilar orqasidan katolik missionerlari Amerikaga yopirildilar. Birinchi bo'lib fransiskan ordeni missionerlari keyin iyezeutlar keldi. Missionerlar yot e'tiqod kishilariga yengilroq yo'l bilan xristianlikni singdirishga urindilar. Piramidalar o'rniga katolik cherkovlari qurilgan.

14. Shimoliy Amerika hindulari. Yevropaliklarning istilosiga qadar Amerikaning 20 foiz hindulari Shimoliy Amerikaning bepoyon hududlarida yashar edi. Markaziy va Janubiy Amerikada qolgan 80 foiz hindulari yashagan. Hozirgi kunda Snimoliy Amerikada hindularning 2 foizi yashaydi. Shimoliy Amerika hindulari quyidagi til guruhlariga bo'linadi: Shimoliy Amerikaning shimoli-g'arbida asosan Kanada hududida yashaydigan atapasklar, Shimoliy Amerikaning sharqida yashaydigan ko'p sonli algonkinlar, irokezlar va chirokilar, guro va boshqa qabilalar kiradigan irokez til guruhi, hozirgi AQSH hududida muskog til guruhiga kiradigan seminal, choktav, chikahoshontil guruhi hamda amerika preriya(chol) larida yashaydigan hindularning siu til guruhi. XVI asrda yevropaliklar istilosi arafasida Shimoliy Amerikada 400 hindu qabilalari yashagan.

Tadqiqotchilar Shimoliy Amerika hindulari tarixini uch davrga bo'ladilar. 1. Arxaik davr yoki o'zlashtiruvchi xojalik davri-mil. avv. II ming yillik. Bu davrda urug'-qabilachilik tzumida mulkiy tabaqalanish jarayoni boshlanadi.

2. O'rta davr mil. avv. II asrdan - milodiy VII asrgacha Arxaik davr madaniyati davom etadi va termachilik-ovchilik mashg'ulplariga dehqonchilik qo'shiladi. Mais o'simligini ekish boshlanadi. . Missisipi, Ogayo, Illinoys daryo vodiylarida xoupevell madaniyati hududiy markazlari paydo bo'la boshlaydi. Bu hududlarda topilgan katta sog'ona-qo'rg'onlar, va murakkab dafn marosimlari ijtimoiy tabaqalanshni mavjudligini ko'rsatadi.

3-Davr- VII-XV asrlar Shimoliy Amerika hindulari taraqqiyotining so'ngi davri. Bu davrda mesoamerika madaniyatining ta'siri seziladi.

Amerikaning o'ziga xos lokal sivilizatsiyalari o'zining barcha texnik va madaniy yutuqlari bilan XV asrning oxiri XVI asrda yevropalik mustamlakachilar tomonidan vahshiylarcha yo'q qilindi. Bu vaqtda Amerikada 30 million odam yashagan.

Shimoliy Amerika hindulari yevropaliklar kelgan paytda urug‘-qabila tuzumida yashar edilar. Urug‘ asosan yetakchi bo‘lib, hindu onasi yoki otasining urug‘iga mansub edi. Bir necha urug‘lar qabilani tashkil etgan. Qabila boshida yo‘lboshchilar kengashi turar edi. Qabila hech qanday boshqaruvchilik funksiyasini o‘tamas edi. Katta yoshli erkaklar alohida erkaklar jamiyatiga birlashganlar. Urug‘ qabila yo‘lboshchilariga qaraganda shomon va jodugarlar katta hurmatga ega edilar. Ularning asosiy vazifasi ruhlar bilan muloqot qilish bo‘lgan. Ular diniy marosimlarni boshqarib, kelajakni bashorat qilish, noqulay iqlimni bartaraf qilish bilan shug‘ullanib kasallarni davolash bilan band bo‘lganlar. Hindularning tushunchasiga ko‘ra shomonlar o‘z kasblariga hayotga kelgunga qadar tayyorgarlik ko‘radilar. Dakotlar shomonlar tug‘ilguncha samoda chaqmoqlar orasida yashaydilar, ulardan o‘z bilimlarini oladilar. Chaqmoq ruhlar tanlagan jodugarga qachon va qaysi vaqtda u shomon bo‘lishiga buyruq beradilar. Preriya hindulari ona yerga, chaqmoqqa va ayniqsa quyoshga siginar edilar. Hindular quyoshga bag‘ishlab katta diniy marosim “quyosh raqsi”ni uyshtirganlar, bu marosimni o‘tkazish uchun qabila har yili yoz oyida to‘plangan. Hindularning tasavvuriga ko‘ra sehrli kuch (manito) qushda, baliq, daraxt, maysa yoki gulda bo‘lishi mumkin edi. Bunday muloqot uchun hinduning jismi poklangan- hindu uzoq cho‘milgan va bir hafta ro‘za tutgan va bunga ruhiy jihatdan odamlardan xilvatda bo‘lish bilan erishilgan. Bu sirli kuch bilan muloqot qilish to‘la yakka holda va uxlab yotgan paytda amalga oshirish mumkin edi.

Hindu hayotida tush ko‘rish muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Ko‘pincha hindularni tush ko‘rishi balogatga erishuv paytida yuz bergan. Ayollar tushlarida ornament tasvirlarini ko‘rib, keyin ko‘rgan ornament tasvirlar bilan ular belbog‘larini bezaganlar. Bo‘lg‘usi jangchi o‘smirlar “ilohiy” tush ko‘rganlar, ko‘pincha bu tushlarda o‘smirning bo‘lgusi hayotida katta o‘zgarishlar yuz berishi bashorat qilingan. Hindularning bu asriy urf-odatları va turmush tarziga asoslangan sivilizatsiyasini oq tanlilar sivilizatsiyasi siqib chiqardi. Oq tanlilar istilosidan yuz yil keyin bu sivilizatsiya halok bo‘ldi.

Ispanlar 1540 yilda Amerikaga ilk otlarni olib keldilar. Tezda hindular otlarni o‘zlashtirib oldilar. Otlar ovda hindular uchun ayni mudao bo‘ldi. Hindular otlar paydo bo‘lguncha bizonlarni yozda maxsus gov tutilgan joylarga haydab kiritib, keyin ularni o‘ldirganlar. Endi otliq hindular bizonlarni tez quvib yetib joyida kamondan o‘q o‘tib tez ov qilar edilar. Hindular otlarni sotib ola boshladilar. Kop otlar ispan plantatsiyalaridan qochib preriyalarga chiqib ketdi. Ulan yovvoyilashib poda bo‘lib, tez ko‘paydi. Bunday yovvoyilashgan otlarni Amerikada mustang

deb atadilar. XIX asr boshlarida preriylarni o'zlashtirishga kelgan oq tanlilar minglab otlar tabuniga ega bo'lgan hindularni ko'rdilar.

Shimoliy Amerika preriylari sharqda Misisipi daryosi, garbda qoyali tog'lar oralig'i, shimolda Kanadaning o'rta qismigacha, janibda Meksika qo'ltig'igacha cho'zilib ketgan pasttepaliklar va tekisliklardan iborat bepoyon tekisliklardan tashkil topgan 4 million kv.km bepoyon hudud edi. Preriylar millionlab bizon podalari uchun asosiy ozuqa bo'lgan" bizon o'ti " deb ataladigan o't bilan qoplangan edi.Hindular ovchilik, termachilik, sohil bo'yarida baliqchilik va dengiz jonivorlarini ov qilish bilan kun ko'rganlar. Shimoliy Amerikaning janubi-sharqida yashagan natchi qabilasi dehqonchilik bilan shug'ullangan. Shahar aholisi to'rtburchak shakldagi chiroyli uylarda yashagan hamda dehqonchilik, savdo va hunarmandchilik bilan shug'ullangan.

Yevropalik mustamlakachilar Amerikaning qadimgi madaniyatlarini yo'q qildilar. Yevropa bosqinchilariga qarshi mahalliy hindular ozodlik urushlarini olib bordilar. XVII asrda Metak boshchiligida, XVIII asrda ottav qabilasi yo'lboshchisi Pontiak, XVIII asrning oltmishinchi yillarida Tekumse boshchiligida, seminol qabilasi yo'lboshchisi Oseola boshchiligida ozodlik harakatlari bo'lib o'tdi.

Amerikadagi istilolar natijasida Ispaniya dunyodagi eng katta mustamlakachilik imperiyasiga aylandi. Amerikaning oltin kumush va boshqa tabiiy boyliklari Yevropaga oqdi. Yevropaga shakllanayotgan bozor munosabatlarining moliyaviy asosi dastlabki kapital jamg'arishdagi asosiy mablag' yevropalik mustamlakachilar tomonidan Amerika sivilizatsiyasini vashiyona yo'q qilish va hindularni talash hisobidan to'plandi. Bu Yevropada rivojlangan bozor munosabatlariga asoslangan farovon jamiyatlarni poydevorini yaratdi.Ispaniya, Portugaliya, Britaniya, Fransiya, Gollandiya o'rtasida mustamlakalarni bosib olish, takror taqsimlash uchun to'xtovsiz urushlar olib borildi. Qadimgi madaniyatlar halokatga uchradi, mustamlakachilar katta-kichik xalqlarni qirib tashladilar.Gollandlar hozirgi 200 kron qiymatida Mantxetten orolini sotib oldilar va bu orolda Yangi Amsterdam manzilgohiga asos soldilar. Bu kelajakdagi N'yu York shahri edi.

15. Hindularning kiyimi. Amerika preriyasi (preriya-franzuz tilida "katta o'tloqli tekislik")da yashaydigan hindu erkak va ayollar bizon terisidan tayyorlangan oq kiyim kiyganlar. Kundalik kiyim erkaklarda lungi-povyazka, oyoqni tizzadan balandini yopadigan "gamash" edi. Barcha erkak va ayollar oyoqlariga oshlangan teridan dikoobraz ignalari bilan bezatilgan yumshoq charm mokasin kiyganlar. Ayollar zamshadan uzun to'g'ri kiyim kiyganlar. Faqat yo'lboshchi va dongi ketgan jangchilar

skalplar bilan bezalgan jangovar ko‘ylak kiyganlar. Preriyadagi hindular pechonalarini burgut patlari bilan bezalgan povyazka bog‘laganlar. Povyazkaga qadalgan har bir burgut pati egasi ko‘rsatgan qandaydir jasorat ramzi bo‘lgan. Har bir pat alohida bo‘yalgan va kesilgan. Har bir rang, har bir kertik o‘ziga xos mazmunga ega bo‘lgan. Jangchilar grizli ayig‘ining tirnoqlaridan ishlangan marjon bilan bezalganlar. Hindularning asosiy ov quroli va jangda qo‘llaydigan quroli o‘q-yoy va Tomagavk-jangovar boltacha bo‘lgan. Jangda hindular bugu yoki bizon terisidan qalqon bilan o‘zlarini himoya qilganlar.

Hindularning ovqatlari. Mais noni, no‘xat, qalampir-chili va pomidordan sous tayyorlangan. Ov o‘ljasi yovvoyi hayvon va parranda go‘shiti qovurilgan, quritilgan va dudlangan go‘shiti iste‘mol qilingan.

Amerikaning Gaiti orolida 1791-yilda qullar qo‘zg‘oloni g‘alaba qildi. 100 mingdan ortiq qul ozodlik, mustaqillik uchun kurashdi, qo‘zg‘olon davomida 4 ming quldor-plantator yo‘q qilindi. Gaiti 1801-yilda latin Amerikasidagi birinchi mustaqil davlat edi. Janubiy va Shimoliy Amerika xalqlarining taqdirleri turlicha bo‘ldi. Ispanlar va portugallar bosib olgan dengizorti mulklarida mavjud bo‘lgan qadimgi jamiyatlar yo‘q qilindi. Mustamlakachilar hududlarda Feodal, qisman quldorlik munosabatlarini o‘rnatdilar. XIX asr boshlarida Lotin Amerikasida Simon Bolivar va boshqa milliy yo‘lboshchilar boshchiligida olib borilgan ozodlik urushlari natijasida hududda mustaqil davlatlar shakllandi.

Shimoliy Amerika Angliya va Fransiya mustamlakalariga aylandi. Ikki o‘rtada mustamlakalar o‘rtasida raqobatda Fransiya mag‘lub bo‘ldi va Shimoliy Amerika ingliz mustamlakasiga aylandi. Ingliz hukumati bu mustamlakalarni iqtisodiy taraqqiyotiga qarshilik qildi. Amerikaga ko‘chib kelgan ingliz aholisi bu siyosatdan norozi bo‘lib Angliyaga qarshi 1774-1781 mustaqillik uchun urush olib bordilar. Bu urushda Angliya yengildi va 1783 yil 3 sentyabrda Versalda Angliya bilan bitimi imzolab, AQSh mustaqil davlat deb tan olindi.

Yevropaning Amerikani mustamlaka qilishi mahalliy xalqlar uchun fojiali boldi. Mustamlakachilar yuksak rivojlangan sivilizatsiyalarni yo‘q qildilar. Mahalliy aholining bir qismi qirib tashlandi, qolgan qismi ochlik va yevropaliklar olib kelgan yuqumli kasalliklardan halok bo‘ldi. Tirik qolganlar qulga aylantirilib og‘ir mehnatga tortildi.

Shimoliy Amerikadagi hindi qabilalari o‘z ona yerlaridan maxsus ajratilgan joylar-rezervatsialarga quvg‘in qilindi. Markaziy va Janubiy Amerika Yevropa uchun arzon xomashyo va arzon ishchi kuchi va mahsulot sotiladigan hududga aylandi Hindu qabilalari bir necha marta mustamlakachilar zulmiga qarshi ozodlik urushlarini olib bordilar.

Tayanch iboralar: Amerika sivilizatsiyasi, musklar, diniy e'tiqod, tushlar, taxtga nomzod tanlash, piramidalar, tosh qurollar, mokasin

Takrorlash uchun savollar

1. Amerikaning aborigin aholisi qachon va qayerdan kelib qolgan edi?
2. Qadimgi va o'rta asrlar Amerika sivilizatsiyalarini ketma-ketlikda ko'rsating
3. Atstek, maya va inklar sivilizatsiyalarini qiyosiy tahlil qiling.
4. Amerika jamiyatlarida diniy e'tiqodning o'rni va ahamiyatini ko'rsating.
5. Yevropa mustamlakachilari amerika sivilizatsiyalariga qanday baho berdilar.
6. Amerka sivilizatsiyalarining yutuqlarini ko'rsating

Mustaqil ish mavzulari

1. Ink, maya va atsteklarda davlat va jamiyat tuzilmalari
2. Amerika sivilizatsiyalarining iqtisodiy hayoti
3. Amerika sivilizatsiyalarining o'ziga xos tomonlari
4. Inklar, mayalar va atsteklar madaniyati
5. Yevropaning Amerikaga ekspansiyasi va uning oqibatlari

21-mavzu. AFIKA SIVILIZATSIYASI

1. Afrika aholisi 2. Qadimgi Afrika sivilizatsiyasi O'rta asrlarda Afrika 3. Afrika sivilizatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari 4. Zamonaviy Afrika sivilizatsiyasi

1. Afrika aholisi. Afrika Osiyo qit'asidan keyingi katta materik. Afrikaning maydoni orollar bilan birga 30, 3 mln km kv., ili dunyo quruqligining 1/5 qismini egallaydi. Madagaskar eng katta orol. Qit'aning 1/2 qismi tropik va subtropik sahro va yarim sahrolardan tashkil topgan.

Afrika qit'asi ilk odam paydo bo'lgan va ilk insoniyat sivilizatsiyasi shakllangan hudud. Zamonaviy odam bundan 200 ming yil oldin Afrikada yashagan bir ayoldan paydo bo'lgan. Afrika insoniyat sivilizatsiyasida ilk odamsimonlar va zamonaviy odamning ajdodlari paydo bo'lgan ko'hna qit'a hisoblanadi. Afrikada xronologik ketma-ketlikda avstrapolitek, pitekantrop, neandertal va zamonaviy odam turlari ketma-ketlikda paydo bo'ldi. Hozirgi kungacha Afrikadan eng qadimgi tik yuruvchilarning qoldiq suyaklari va manzilgohlari topilmoqda. Afrika ilk mehnat qurollari va davlat va jamiyat paydo bo'lgan qit'a, Afrikaliklar dunyo tarixida birinchi bo'lib metall qurollardan foydalanganlar.

Qadimgi Afrika sivilizatsiyasi. Afrikaning eng qadimgi sivilizatsiyasining ilk o'chog'laridan biri hozirgi Sudan hududida mil. avv. IV ming yillikda shakllanadi. Sudanning janubi sharqi va Saxara hududlarini qamrab olgan davlat va jamiyat shakllanadi. Qadimgi Karma shahri kuchli mudofaa devorlari bilan orab olingan, ko'p sonly me'moriy inshootlar, ibodatxona, saroylar, turar joylar, katta galla ombori barpo qilingan. Karma shakllangan jamiyatga ega bo'lgan. Aholining asosiy qismi dehqonchilik va chorvachilik bilan shugullangan. Hokimlar ko'p sonly qoramol va echki podalariga egalik qilganlar. Sudanda hunarmandchilik sohasi keng rivojlangan, ayniqsa kulolchilik mahsulotlari yuqori darajada rivojlanib, qo'shni Misr va Afrikaning markaziy qismi bilan yaqin aloqada bo'lganidan guvohli beradi. Karma aholisi Misr, Sharqiy Saxara va Efiopiya hududlari bilan qizg'in savdo aloqalarini o'rnatadi. Karma davlati mil. avv. II ming yillik boshlarida Nil daryosining 2, 3, 3 4 ostonlari havzasini o'z nazorati ostiga olgan. Keyinchalik Sudan hududida shakllangan Qava, Napate va Meroe davlatlari Karmaning madaniy an'alarini davomchilari bo'ladilar. Karmaning me'moriy inshootlari uslubida inshootlar barpo etilgan. Sudanning bu qadimiy davlat va jamiyatlariga qadimgi Misrning boy madaniyati kuchli ta'sir qilgan. Misr Sudan hududidan oltin, qimmatli yogoch, qullar va fil suyagini olib ketgan. Qadimgi Sudandagi davlatlar Misrdan davlat qurilishi, me'morchilik, diniy e'tiqodi, kohinlar, ijtimoiy tuzilmani o'zlashtirib olganlar. Azaldan Misr bilan ko'p tomonlama aloqada yaqin bo'lgan Kush (qadimda misrliklar Sudanni Kush deb ataganlar) Misrni istilo qildi va Misrda kush sulolasi fir'avn taxtini egalladi.

Sudanning qadimgi Napate va Meroe davlatlari mamlakat janubida Nil daryosining 4, 5 ostonalarida qaror topdi. Mil. avv. VI-V asrlarda podsho qarorgohi, Meroeda bo'lib, Napat'e bosh diniy qarorgoh bo'lib qoladi. Qadimgi Sudan aholisi sherboshli Apedemak ilohiga sig'inganlar, bu ilohga bagishlab noyob san'at namunasi bo'lgan ibodatxona ansambli Musavvarar as Sufrada bunyod etilgan. Ansambl rel'eflaridagi sher tasvirlari qadimgi sharqning mamlakatlaridagidek hukmdorning qudrati, jismoniy kuchi, fuqarolarni farovonligini ta'minlatdigan hosildorlikni tashuvchisini ifodalaydigan ramz bo'lgan. Bu ibodatxonaning rel'ef tasvirlari shaklan misr an'alarini eslatadi, Apedemakka bagishlangan madhiya misr ierogliflarida bitilgan bo'lsada, mazmuni sof meroitga tegishli. ni ifodalaydi. hukm surdi. Boshqa bir iloh Apedemak ibodatxonasi rel'eflarida to'rt boshli, uch qo'lli sher boshli iloh, odam tanasi va sher boshli ilon qiyofasida berilgan. Bu mahalliy haykaltaroshlarning mahsuli bo'lib, bu tasvirlar sher boshli urush ilohi va shu bilan birga hosildor-

lik ilohini ifodalaganlar. Meroitlar yuqori darajada rivojlangan jamiyat boʻlib iqtisodiyot va madaniyatda yuksak yutuqlariga erishdilar va oʻz yozuvlarini yaratdilar. Meroit yozuvlarining mil. avv. II asrdagi namunalari bizgacha yetib kelgan.

Afrikadagi boshqa sivilizatsiyalar milodiy I asr boshlarida gʻarbiy Sudan va unga tutash saxel havzasida, unga yaqin Saxarada; hozirgi Nigeriyaning janubi-gʻarbiy qismida; Lualalaba daryosining yuqori oqimida; hozirgi Zimbabve respublikasining markaziy va sharqiy viloyatlarida hamda Hind okeanining Afrika qirgʻoqlarida shakllandi. Sharqiy Afrika mil. avv. VIII asrdan Qizil dengiz havzasi, Fors qoʻltigʻi va Janubiy Osiyo bilan aloq oʻrnatadi. Saxarada mil. avv. II-I asrlarda tuyaning paydo boʻlishi Saxara sahrosi orqali janub bilan savdo aloqalarini barqaror boʻlishiga sabab boʻldi. Ot ham Saxarada mil. avv. I ming yillikda paydo boʻldi. Qoyatosh tasvirlarida arava rasmini tushurilishi ot bilan yuk tashilganidan guvohlik beradi. Tropik Afrikada hozirgi Mavritaniyaning janubida mil. avv. VI-V asrlarda mis konlaridan mis qazib olinib eritilgan. Bundan tashqari bronza ham quyilgan. Xalqaro vaziyat keskinlashib yetakchi davlatlar oʻrtasida dunyda taʼsir doirasini kengaytirish uchun turli ekstremistik tashkilotlaridan foydalanish kuchayadi. Diniy eʼtiqod niqobi ostida turli terrorchilik harakatlari harakat qilmoqda. Aslida ular diniy eʼtiqod niqobi ostida kimlarnidir manfaatiga xizmat qilmoqda.

Tropik Afrikada rivojlangan shahar hayoti mil. avv. I asrda kuzatildi. Ilk davlatlardan biri boʻlgan Gana ham Tropik Afrikada shakllangan edi.

Mil avv. 4 ming yillikda Nil vodiysida qadimgi Misr (qadimgi misr tilida Kemet) davlati paydo boʻlgan. Misrdan janubda Nil vodiysida efioy irqi misrliklar nexsi deb atagan xalq yashagan. Tropil Afrikada pigmey qabilalari yashagan. Misrdan gʻarbda Liviya choʻllarida qadimgi liviya qabilalari yashagan, liviyaliklarning ilk davlat birlashmasi mil. avv. XI-XII asrlarda shakllangan. Liviya hududida keyinroq yana bir davlat Garami paydo boʻladi. Mil. avv. 3 asrda Hozirgi Tunis hududida Mavretaniya va Numidiya davlatlari yuzaga kelgan. Qadimgi finikiyakiklar Karfagen manzilgohini tashkil etganlar (mil. avv. 814/15 yil) Ozgina oʻtib Karfagen kuchli dengiz davlatiga aylanib gʻarbiy Ortayer dengizi havzasida Rim davlati bilan raqobat qilgan. Misrdan janubda hozirgi Sudan qadimgi Kush hududida mil. avv. 2 ming yillikda Kush yoki Kash davlati tashkil topadi. Mil. avv. 9 asrda Kush davlati Misrni bosib olgan. Kush sulolasi Misr hukmdori boʻlgan. Mil. avv. VII asrda kush sulolasining Misrga hukmronligiga ossuriyaliklar chek qoʻydi. Kush davlati Meroe nomi bilan yana ming yil milodiy 4 asrgacha yashadi. Bu davlat mil. avv. 4 asrda

Aksum davlati tomonidan tugatilgan. Kush davlati Misr, Hindiston va Rim davlati bilan savdo aloqalarini olib borgan.

Qadimdan tropik oʻrmonlarda urugʻ qabilalar ovchilik va terimchilik bilan shugʻullanganlar janubiy Saxarada chorvachilik, rivojlangan, Niger va Senegal daryo vodiylarida dehqonchilik bilan shugʻullandilar. Afrika-lik hunarmandlar mehnat quollari, harbiy qurol-aslaha, gazlamalar va boshqa buyumlarni tayyorladilar. Garbiy Sudanda Tombuktu, Gao, Jenna shaharlari paydo boʻldi. Afrikada eng qadimgi davlat Sudan hududida shakllandi. Qadimdan Afrika qadimgi Misr sivilizatsiyasi bilan yaqin aloqada boʻlib Hindiston bilan gavjum savdo aloqalarini yoʻlga qoʻygan edi. Oʻrta asrlarda Sudan hududida Gana davlati oʻz qudratini choʻqqisiga Xasrdan yetgan edi. XIII asrda Mali davlati gullab yashnadi. Hozirgi Efiopiya hududida Aksum davlati, Gvineya qoʻltigʻi qirgʻoqlarida bir necha davlat paydo boʻldi ularning orasida Benin davlati eng kuchlisi edi. Sharqiy Afrikada shahar davlatlar vujudga keldi bu davlatlar Hind okeanida suzib, Hindiston, Eron va boshqa manlakatlar bilan savdo qildilar.

Afrika xalqlari oʻziga xos madaniyatni yaratdilar. Ayniqsa Afrika xalqlari mifologiyasi juda boy boʻlib, ertak va afsonalar siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy-maʼnaviy hayotni oʻrganish uchun qimmatli manba edi. Gʻarbiy Sudan islomni qabul qilgandan soʻng islom madaniyati Afrikada tez tarqaldi. Arab meʼmorlari machit va saroylar bunyod qildilar. Maktablar paydo boʻldi. Tombuktu shahrida universitet ochilib, bu yerda ilohiy va dunyoviy fanlar oʻqitildi. Mahalliy tillarda yozuvlar yaratildi, kutubxonalar tashkil etildi. Tasviriy sanʼat yuksak rivojlandi, jez taxtalarda urushlar va ov manzarasi, saroy hayoti aks ettirildi. Benin ustalari metall quyishda yuksak natijalarga erishdilar.

Mustamlakachilikka qarshi kurash. XVI-XIX asrlarda. Mustamlakachi davlatlar Afrikani bosib olib, uni tashqi dunyodan ajratib qoʻydilar, uning boshqa qitʼa va hududlar bilan asriy aloqalarini uzib qoʻydilar. Afrikaning xalqlari uzoq asrlar davomida toʻplagan madaniy boyliklari va yutuqlarini unutishga urindilar.

Geografik kashfiyotlardan keyin Yevropa boylik izlab Afrikaga yopirildi. Portugaliyaning “Gvineya” kompaniyasi 1441 yilda Afrikadan birinchi qullarni Lissabon portiga tushirdi. Portugaliyadan keyin Afrikaga qul qilish uchun odam oviga Angliya, Fransiya, Gollandiya va boshqa davlatlar kirishdi. Golland portugal, ingliz va fransuz qul savdogarlari qul savdosidan ulkan foyda koʻedilar. Afrika qitʼasidan tirik mol- odam ovlab Amerikaga olib borib sotish eng katta miqdorda foyda keltiradigan soha boʻldi. Golland savdogarlari XVI-XVIII asrlarda Afrikadan Karib havzasiga 600000 ming qulni keltirib sotib ulkan boylik orttirdilar. XIX

asr o'rtalarigacha qul savdosi bekor qilinguncha Afrika xalqlari juda katta fojiani boshdan kechirdilar. Qul savdogarlari Afrikada odam ovi paytida juda ko'p aholini o'ldirdilar, yo'lda kema tryumlarida yuz minglab odamlar o'lib ketdi. Afrika yosh kuchli odamlaridan ayrildi, ko'plab qabilalar qirilib ketdi. Uzoq davom etgan qul savdosi oqibatida Afrika aholisi keskin qisqarib ketdi, xo'jaliik hayoti izdan chiqdi va taraqqiyot yo'li yo'qotildi. Malumotlarga ko'ra Afrikada bu jarayonda 100 mln kishi halok bo'lgan. Yevropa esa qul savdosidan ulkan boylik to'pladi. Yevropa davlatlari XIX asrda Afrikada Efiopiya, Liberiyadan tashqari barcha mamlakatlarni mustamlakaga aylantirib, bu mamlakatlar aholisini qulga aylantirdilar. Afrikadan qullarni Amerikaga, Yevropaga olib chiqarib sotdilar. Industriya davrida afrikaliklarni o'z vatanida arzon ishchi kuchi sifatida foydalanib arzon **xom ashyoga** ega olish iqtisodiy jihatdan afzal bo'ldi. Barcha Yevropa davlatlari uchun Afrika arzon ishchi kuchi, arzon xom ashyo manbai bo'lib qoldi va bu hozirgacha davom etib kelmoqda.

Qit'a mis, qo'rg'oshin, oltinga boy bo'lgani uchun bu yerda metall quyish texnologiyasi qadimdan ma'lum. Afrika Arabiston yarim oroli, Old Osiyo va Hindiston bilan qadimgi va o'rta asrlarda dengiz va quruqlik yo'li bilan qizg'in savdo qildi.

XIX asrda industrial davlatlar xomashyo va arzon ishchi kuchi uchun Afrikaga yopirildilar. 1877-yilda sayyoh Stenli Afrikaga savdo yo'lini ochdi. Kongo daryosi havzasini tekshirdi. Angliya, Germaniya, Fransiya, Portugaliya va Belgiya qora qit'ani bo'ysundirishga kirishdi. Kichkina Belgiya o'zidan 70 marta katta bo'lgan Kongoni bosib oldi. Belgiya qiroli o'z bosqinchiligini niqoblash uchun "Afrika xalqaro assosiyatsiyasi"ni tuzdi. Kauchuk plantatsiyalarida millionlab afrikaliklar shafqatsiz ishlatildi. Kongoning 10 mln aholisi qirib tashlandi. Bu aholining yarmisi edi. Belgiya yuz yilga yaqin Kongoni mustamlaka qildi. Kongo 1960-yilda mustaqillikka erishdi.

Afrika qit'asini Yevropa mustamlakachilari 15 asrdan mustamlaka qilishni boshladi. Qit'aning 80 foiz hududi 19 asrda mustamlakaga aylantirildi. Afrika boshqa qit'alardan ko'ra mustamlakachilikdan juda katta talofot ko'rdi. Mustamlakachilik bu qit'ani bir necha asrga orqaga ulotirib tashladi. Yevropaning mustamlakachilik siyosati qit'ani taraqqiyotda boshqa qit'alardan orqaga qolishiga sabab bo'ldi. Afrikani aholisini shafqatsiz ekspluatatsiya qilish, uning moddiy boyliklarini talash hisobiga yevropaning Angliya, Fransiya, Gollandiya, Belgiya Germaniya kabi davlatlari yuksak taraqqiyot, farovonlikka erishdilar. Afrika xalqlari Tunisda Ali ben Xalifa va boshqalar mustamlakachiliklarga qarshi ozod-

lik urushini olib bordilar. Angliyaning mustamlakachilik siyosatiga qarshi 1879 yilda Zulus xalqi yo'lboshchi Ketchayvo rahbarligida ozodlik harakatini boshladi. G'arbiy Afrikada fransuz mustamlakachilariga qarshi harbiy sarkarda Samora Ture qattiq kurash olib bordi. Jazoirda Abdul Qodir, Misrda Arab poshsho zulmga qarshi ozodlik urushi olib bordilar. Mustamlakachilar afrika xalqlarini ozodlik urushlarini shafqatsiz bostirdilar. Lekin XX asrning elliginchi yillaridan boshlab Afrikadagi barcha xalqlar ozodlik mustaqillik uchun kurash boshladilar oxir oqibatda mustamlakachilar Afrikadan chiqib ketishga majbur bo'ldilar. 1960 yilda Afrikada birdaniga 17 mamlakat siyosiy mustaqillikka erishdi. XX asrning 80 yillarida Afrika qit'asi xalqlari mustamlakachilikdan ozod bo'ldilar.

Afrikada hozirgi kunda 55 davlat mavjud. Afrika mamlakatlari mustaqillikka erishgandan keyin ko'pchilik mamlakatlar bozor munosabatlariga asoslangan jamiyat qurish tomon yo'l tutdilar. Ayrim mamlakatlar esa nokapitalistik taraqqiyot yo'lini tutdilar. Mustamlakachilar Afrikada juda og'ir meros qoldirdilar. Iqtisodiy tizim va tuzilmaning shakllanmagani, bir tomonlama monokulturaga asoslangan iqtisodiyotni o'zgartirish juda og'ir muammo bo'ldi. Qit'adagi yuzdan ko'proq millat va xalqlar taraqqiyotning turli darajasida turadilar. Qit'ada paleolit sharoitida yashaydigan urug'-qabilalar bilan o'rta asrlar va zamonaviy jamiyat sharoitida yashaydigan millat va xalqlar mavjud.

Aholi. Etnograflar Afrikada 300 dan 500 gacha etnos yashashini qayd qiladilar. Hozirgi kunda, ulardan 11 xalq 100 mln kishidan ortiq bo'lib butun Afrika aholisining 1/3 qismini tashkil etadi. Birgina Misr xalqining o'zi 100 milliondan ko'p. Afrikada 111 xalqning har biri bir milliondan ko'p odamga ega bo'lib butun Afrika aholisining 87 foizini tashkil etadi.

Ijtimoiy tuzilma. Shimoliy Afrika va Janibiy Afrikaning ayrim industrial davlatlaridan mustasno, aksariyat aholi qishloq xo'jaligi, ayrim hududlarda termachilik va ovchilik bilan shug'ullanadi. Ishchilar sinfi asosan tog'-kon, neft va qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlash saqnoat sohalari va plantatsiyalarda mehnat qiladi. Ko'p sonli bo'lmagan burjuaziya, mayda savdogar, tadbirkorlar va hunarmandlar bilan birga aholining iqtisodiy faol bo'lgan 5-10 foizini tashkil etadi.

Uzoq asrlar davom etgan mustamlakachilik Afrika xalqlarining taraqqiyotini to'xtatib qo'ydi. Mustamlakachilar afrika xalqlarining taraqqiyotiga suniy to'siq qo'yish siyosatini olib bordilar. Bir necha etnoslar urug'-qabilachilik turmush tarzini saqlab qoldilar (pigmey, bushmen, mbuti, masai, kung va boshqalar). Ko'pchilik afrika mamlakatlarida aho-

lining asosiy qismi qishloqlarda an'anaviy turmush tarzini saqlab qolgan holda yashaydilar.

Madaniyat. Afrika mamlakatlarida mustamlakada ozod bo'lgandan keyin aholini savodsizligini tugatish uchun ta'lim tizimi shakllandi, savodsizlikni tugatish uchun bu sohada keng qamrovli ishlar boshlandi. Lekin ko'pchilik mamlakatlarda katta yoshli aholi o'rtasida savodsizlik 50 foizni tashkil qiladi. Mali, Niger, Somali, Burkina Fasso da aholining 16 yoshdan katta qismida savodsizlik 90 foizni tashkil etadi. Afrika madaniyati yaxlit va oziga xos madaniyat. Hozirgi kunda Afrikada 300-500 xalqning an'anana, asrlar davomida shakllangan madaniyatlari mavjud.

Shimoliy va Markaziy Afrika qadimda Old Osiyoning boy madaniyati ta'siri ostiga tushdi. O'rta asrlardan boshlab arab musulmon madaniyati kuchli ta'sir ko'rsatdi. Mifologiya. Afrika xalqlari mifologiyasi boy va xilma-xil. Xalq og'zaki ijodiyotida turli yo'nalishlarda afsona va rivoyatlar yuzaga keldi. Aynan shu folklor asosida Afrika yozma adabiyoti shakllandi.

Mustamlakachilik davrida afrikaliklarning mahalliy madaniyati ta'qib ostiga olindi. XX asr boshlarida afrika ziyolilari mahalliy madaniyatlar, urf-odat va an'analarni va tillarni saqlab qolish va rivojlantirish chaqirig'i kuchaydi. Ikki jahon urushi oralig'ida afrikaliklar o'rtasida va Yevropada ta'lim olayotgan afrikaliklar orasida madaniy millatchilik konsepsiyasi tuzildi va bu konsepsiya ikkinchi jahon urushidan keyin to'la shakllandi.

Adabiyot. Qadimgi Misrda ilk yozuv va adabiyot shakllandi. Shimoliy Afrikaning milodiy VII asrda arab xalifaligi tarkibiga kirishi bilan Misr va shimoliy Afrikaning milodiy VII asrdan yozma adabiyotning gullab yashnashi kuzatiladi. XII asrda Fotimiylar sulolasi davrida yozma adabiyotning poeziya,, proza va tarixshuboslik janrlari yuksaldi. Mashhur arab adabiyotining yodgorligi "Ming bir kecha" ertaklari paydo bo'ldi. Islom yozma adabiyoti Sharqiy Afrikaning suaxili, xausa va fulu xalqlarining yozuvi va adabiyotining rivojlanishiga qulay zamin yaratdi.

Afrika xalqlarining mustamlakachilarga qarshi kurashi davrida arab tilida yaratilgan yozma adabiyotda milliy ozodlikka chaqiriqlar yangradi va Shimoliy Afrika xalqlarining milliy ozodlik harakatini ma'naviy ilhomlantirdi. XX asrda Afrikaning barcha Arab mamlakatlarida arab tilidagi adabiyot jadal rivojlandi.

Afrika mustaqillikka erishgandan keyin har bir mamlakatda yozma adabiyot, poeziya, proza va drama shakllandi. Afrika xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti muammolari proza va publisistikada keng o'rin oldi. Afrika adabiyotining taniqli yozuvchilari paydo bo'ldi.

XX asrda Afrikaning arab mamlakatlarida arab tilida adabiyot rivojlandi. Misr adabiyotida ijtimoiy hayotning dolzarb muammolariga bag'ishlangan asabiyot salmoqli o'rinni egalladi. XX asrning 70 yillarida adabiyotda yetakchi o'rinni psixologik mavzu, folkloridan foydalanish keng tarqaldi.

Me'morchilik. Afrika me'morchiligining asoslari qadimgi Misrning ulug'vor inshootlariga borib taqaladi. Orta asrlarda ham qadimgi Misr me'morchiligining ulug'vor korinishlari saqlanib qoldi. Shimoliy Afrikaning mil. avv. XII asrda iqlim, hududga mos bo'lgan, hamda qat'iy reja asosida bunyod etiladigan shahar me'morchiligi shakllandi. Hozirgi Tunis, Jazoir va Marokko hududida qurilgan shaharlarda keng ko'chalar, maydonlar, sirk-anfiteatrlar, ibodatxonalar barpo etilgan va shaharlar mustahkam devorlar bilan himoyalangan.

Fotimiylar va Mamluk sulolalari davrida X-XV asrlarda o'ziga xos me'moriy shakldagi musulmon machitlari va ko'p yarusli sog'onalar va gumbazlardagi rel'ef chizmalari bilan bunyod etildi.

G'arbiy Afrikada karvon yo'llarida o'rta asrlarda devorlar bilan o'ralgan qator shaharlar paydo bo'ldi. Tropik Afrikada an'anaviy xalq inshooti-kulbalar qurish keng tarqalgan edi. Kulbalarning qurilishida kulolchilik hunari, chetan devorlarni badiiy to'qish va boshqa xalq badiiy hunarmandchilik san'ati kulbalarni bezashda keng qo'llanilgan. Mustamlakachilik davrida Afrikaga yevropa arxitekturasi kirib keldi. Shaharlarni afrika va yevropa qismlariga bo'lib qurish an'anasi paydo bo'ldi.

Tasviriy san'at. Afrikada eng qadimgi qoyatosh tasvirlaridan boshlanadi (mil.avv. VIII-VI ming yilliklar). Qoyatosh tasvirlarda qadimgi afrika ovchi-chorvador va dehqonlarining hayoti manzarasi va qadimgi hayvonot dunyosi aks etadi. Bunday tasvirlar qit'aning barcha hududlarida uchraydi.

Musiqa va raqs san'ati. Afrikada har bir xalq qadimdan o'zining musiqa madaniyatini shakllantirgan. Musiqa asboblari, raqs va qo'shiq aytishda har bir xalqning o'z an'analari mavjud. Shimoliy Afrikada berber arab musiqa madaniyati, tropik Afrikada bushmen, gottentot, efiop, nilot, masai va kushit musiqa madaniyati uzoq asrlar davomida shakllandi.

Afrika musiqa asboblari sirasiga do'mbiralalar, ksilofonlar, bir ohangda tovush chiqaradigan qo'ng'iroqchalar, shaqildoqlar va boshqalar kiradi. Musiqa va qo'shiq, raqslar ko'pchilik afrikaliklarda ovchilik va dehqonchilik faoliyati bilan bog'liq. Ov oldidan ovchilar marosim qo'shiqlari va raqsga tushib ovni omadli bo'lishiga ishonganlar. Dehqonlar yomgir chaqirib, yogayotgan yomg'ir, chaqmoqni o'z marosim qo'shiqlari va raqslarida ifodalaganlar. Afrikada ajdodlar ruhiga sig'inish bilan bog'liq

marosim raqslari va qo‘shiqlar keng tarqalgan. Tropik Afrida ibtidoiy jamoa davriga xos bo‘lgan insiatsiya marosimi – ya‘ni yigit va qizlarni mustaqil hayotga tayyorlash, balog‘atga yetganiga bagishlangan marosimlar saqlanib qolgan.

Teatr. Insoniyat sivilizatsiyasida ilk teatr san‘ati Afrikada qadimgi Misrda paydo bo‘lgan. Qadimgi Misr teatri yunon-rim teatr san‘atini rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan. Birinchi arab drama teatri Qohirada 1870 yilda tashkil etiladi.

Kino san‘ati. Afrikada ilk kinofilm 1896 yilda Misrdagi Iskandariya shahrida qo‘yilgan. Keyin Misrda hujjatli va badiiy filmlar XX asrning 20 yillarida paydo bo‘lgan. Jazoida kino san‘ati 1958 yilda tropik Afrikada XX asrning 60 yillarida paydo bo‘ladi. Afrika kinomatografiyasi 1966 yilda federatsiyaga birlashdi.

Diniy e‘tiqod. Islom dini. Afrika islom dini tarqalgan birinchi qit‘a bo‘lib islom VII asr boshlarida tarqala boshladi. Dunyodagi musulmonlarning uchdan bir qismi shu qit‘ada yashaydi. 2002 yil ma‘lumotlariga ko‘ra Afrikaning 45 foiz aholisi hozirgi kunda islomga siginadi va ularning soni o‘shirda da‘vom etmoqda. Afrikadagi ko‘pchilik musulmonlar sunniy mazhabida. Musulmonlarning katta qismi Shimoliy Afrikada, Afrika roqida va Garbiy Afrikada yashaydi. Nigeriya va Misr aholining asosiy qismi islom diniga e‘tiqod qiladigan mamlakatlardir.

Mahalliy an‘anaviy e‘tiqodlar. G‘arbiy va markaziy Afrikada keng tarqalgan. Bu diniy e‘tiqod magiya, sehqarlik, fetishizm va totemizm bilan boglanib ketgan. Mahalliy diniy e‘tiqodlar afrika aholisining hayot mazmuni, turmush tarzi bilan chambarchas bog‘langan. Uning marosim va rasm rusumlari afrika madaniyatining tarkibiy qismiga singib ketgan. Mahalliy ibtidoiy e‘tiqodlarning mifologiya, tasaviriy san‘at va marosim haykaltaroshligidagi o‘rni juda kuchli. Nasroniylik dinining katolik va protestant mazhablari ham Afrikada tarqalgan.

Tayanch iboralar: qadimgi Afrika, ilk davlat va jamiyatlar, Songai, efioplar, diniy e‘tiqod, yevropaliklar, qulchilik.

Takrorlash uchun savollar

1. Afrika dunyoda ilk odamlar paydo bo‘lgan hudud. Qit‘ada ilk odamlar yashgan hududlar va manzilgohlarni ko‘rsating?
2. Afrikadagi ilk davlat va jamiyatlar geografik xaritasini tuzing
3. Afrikaning qadimiy madaniyatini asosiy yo‘nalishlarga ajrating.
4. Afrikaning o‘rta asrlardagi ijtimoiy-madaniy hayotini tasbirlang.
5. Yevropaliklarni Afrikaga kirib kelishi nima uchun Afrika uchun fojia bo‘ldi.

6. Afrika mustamlaka davrida qanday yashadi?
7. Afrikaning mustamlakadan ozod bo'lishining ijobiy natijalarini ko'rsating.
8. XX asrda Afrika sivilizatsiyasi.

Mustaqil ish mavzulari

1. Afrika insoniyat urug'i paydo bo'lgan hudud.
2. Afrikadagi ilk davlat va jamiyatlar
3. Orta asr Afrika sivilizatsiyasi. Iqtisodiy, madaniyat, ijtimoiy hayot.
4. Afrikaning mustamlaka qilinishi va uning fojiali oqibatlarini.
5. XX asrda Afrika sivilizatsiyasi taraqqiyotining o'ziga xos belgilari.

VI bob. XX ASR SIVILIZATSIYASI

22-mavzu. XX asr sivilizatsiyasi

1. Totalitar tuzumlar. 2. Sotsialistik sivilizatsiya. Industrial jamiyatning halokati.

1. Totalitar tuzumlar. Kapitalizm taraqqiyotining monopolistik, keyin esa davlat-monopolistik bosqichlariga o'tish hokimiyatni yirik burjuaziya qo'lida to'planishiga olib keldi. Demokratiya asoslarining cheklanishi umummilliy tushkunliklar sharoitida qator inqiloblarga ochiq diktaturalarning o'rnatilishiga olib keldi. Bu totalitar davlatlarni – Germaniya, Italiyada fashizm, SSSRda, keyin esa boshqa sotsialistik mamlakatlarda hamda Lotin Amerikasi, Osiyo, Afrikaning qator ozod bo'lgan mamlakatlarida avtoritar – totalitar tuzumning qaror topishida yaqqol ko'rindi.

Fashizm Germaniyada monopolistik burjuaziyaning irodasini bajarish uchun xizmatkor bo'ldi va uning manfaatlarini uchun dunyoni qayta taqsimlash, dunyoga hukmron bo'lish uchun kurash boshladi. Bu tabiiyki, yetakchi davlatlar-AQSh, Fransiya, Angliyaning qarshiligiga uchradidi. Dastlab ular fashizmni sotsializmga qarshi qo'yimoqchi bo'ldilar, keyinchalik esa nemis fashizmi dunyoga hukmron bo'lish siyosatini qat'iy olib borgani uchun bu xavfga qarshi kurashishga majbur bo'ldilar.

Bir necha lokal urushlardan so'ng, 1939-yil sentabrda II jahon urushi boshlandi. Uning dastlabki bosqichida Germaniya butun Yevropaning katta qismini bosib olib, Shimoliy Afrika tomon yo'naldi. Bu urush insoniyat tarixidagi eng katta va qonli urush bo'lib, millionlab kishilar

qurbon qilindi. Minglab shahar va qishloqlar, madaniyat yodgorliklari, san'at asarlari yo'q qilindi. II jahon urushi antigitlerchilar koalitsiyasining to'la g'alabasi, Germaniya, Italiya, Yaponiya va ularning ittifoqchilari mag'lubiyati bilan tugadi.

XXasrning 20- 30 yillarida Rossiya va Germaniya, Italiya va boshqa bir necha mamlakatlar (Portugaliya, Bolgariya, Ruminiya, Vengriya)da o'rnatilgan totalitar tartib-qoidalar ijtimoiy tenglik va irqchilik, g'oyalari, demokratik va etatik konsepsiyalarni o'zida aks ettirdi. Fashizm (ital'yan tilida "bog'lam") birinchi jahon urushidan keyin iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy tushkinlik natijasida paydo bo'ldi. Germaniyada Milliy sotsialistik, nemis ishchi partiyasi (NSDAP)ni 1919 yilda A.Gitler, R. Gess, G. Shtrasserlar tuzdilar. 1921 yilda Italiyada fashistlar partiyasi tuzildi. Birinchi jahon urushi va urushdan keyingi og'ir vaziyatda fashizm go'yaviy oqim sifatida yevropa mamlakatlarining ko'p sonli aholisi o'rtasida targ'ibot-tashfiqot olib borib, ogir iqtisodiy-ijtimoiy tushkinlikdan chiqish, aholini turmush darajasini ko'tarish va farovon hayotni targ'ib etib keng xalq ommasi orasida katta yutuqlarga erishdi. Tez orada Germaniya, Italiyada fashistlar harakati ko'p sonli siyosiy partiyalarga aylandi. Bu partiyalarning a'zolarini 40 foizi ishchilar edi. Fashistlar harakati tez orada Portugaliya, Bolgariya, Ruminiya va boshqa mamlakatlarga tarqaldi. Germaniyada fashistlar dunyo marksistlar aytgandek sinfiy emas milliy belgi bo'yicha taqsimlangan. Millatlar teng emas, oliy va quyi millatlar mavjud. Tabiiyki nemislar oliy millatga kiradi deb aholi o'rtasida tashfiqot olib bordilar. Gitlarning fikricha nemis millatiga alohida tarixiy misiya yuklatilgan "yangi dunyo tartibi"ni yaratish uchun asosiy harakatlantiruvchi kuchga aylanishi lozim. Buning uchun birinchi jahon urushi yakunlarini qayta ko'rib chiqib, Versal shartnomasini tugatish kerak. Bu ishni faqat Gitlerni irodasi bilan yonaltiriladigan, faqat kuchli monolit Germaniya amalga oshirishi mumkin degan g'oya Gitlarning "Mening kurashim" nomli kitobida bayon qilindi. Shu asosda jamiyat hayotining barcha sohalari: siyosat, mafkura, iqtisodiyot, madaniyat va axloqni boshqaradigan "total davlat" g'oyasi paydo bo'ldi. Birinchi jahon urushida Germaniyaning mag'lubiyati bilan german kompaniyalari ulkan zarar ko'rdilar va ularning kuch-qudrati so'ndi. Endi german iqtisodiy-moliya magnatlari o'larining o'tmishdagi mavqeini tiklash uchun kurashga butun e'tiborni Gitler boshliq fashistlarga tikdilar. Germaniyaning moliya-sanoat doiralari Gitlarning g'oyalariga ishonch bildirdilar va 1931 yilda tuzilgan uyushmada Gitlerni mablag bilan qo'llab quvvatlashga kelishib oldilar. Germaniyaning yetakchi partiyasi Sotsial demokratik partiya omma orasida o'z obro'sini yo'qotdi. Aholining katta qismi Gitlarning

goyasini qabul qildi. Sotsial demokratlar partiyasining vakili keksayib qolgan Gindenburg 1932 yildagi reyxprezidenti saylovida golib chiqdi. Mamlakatda iqtisodiy ahvol yomonlashdi, prezident Gindenburg 1933 yil Gitlerni reyxskansler lavozimida tasdiqladi.

1933 yilda reystagga yangi navbatdan tashqari saylovlarda milliy sotsialistlar uchun 17 million saylovchi ovoz berdi. Bu saylovchilarning 43 foizini tashkil etar edi. Nemis kommunistik partiasi Reyxstag binosiga o't qo'yishda ayblanib, kommunist deputatlar jami 81 kishi deputatlik mandatidan mahrum qilindi. Bu o'rinlar milliy sotsialistlarga berildi va reyxstag Gitlarga favqulodda vakolatlar berdi. Hukumat parlament nazoratidan chiqarildi. Hukumat endi har qanday qonun qabul qilishi va hatto konstitutsiyani ham o'zgartirishi mumkin edi Gindenburg 1934 yilda 84 yoshda vafot etganidan so'ng Gitler reyxspresident lavozimini ham egalladi. Sal keyinroq umrbod reyxkansler va butun nemis xalqining fyureri (yo'lboshchisi) deb e'lon qilindi. Milliy sotsialistlar partiyasi Germaniyada mamlakat hayotini to'la nazorat qiladigan yangi davlat – uchinchi reyx tashkil topdi.

Italiyada og'ir tushkinlik davrida 1921 yilda B. Mussolini boshchiligida fashistlar partiyasi tashkil topdi. Bu partiya 300ming a'zoga ega bo'lib, uning 40 foizi ishchilar edi. Fashistlar partiyasi Italiyada katta obro'ga ega bo'ldi. Italiya qiroli V. Emmanuel bu partiyaning kuchli siyosiy kuchga aylangani uchun 1922 yilda partiya yo'lboshchisi (duche) Mussoliniga hukumat tuzishni topshirdi. Shu tarzda fashistlar Italiyada hokimiyat tepasiga keldilar.

Totalitar davlatning yana bir shakli Rossiyada shakllandi va boshqa hududlarga tarqaldi. Hukmron kommunistik mafkuraga asoslangan partiya o'z yo'lboshchisi qat'iy toifaviy boshqaruv tamoyiliga asoslangan (Kommunistik partiyada demokratik sentralizm tamoyili) davlat boshqaruv tizimini shakllantirdi. Totalitar davlatning mazmun mohiyatini jamiyatshunos olimlar quyidagicha tavsifladilar: 1. Qabul qilingan hukmron kommunistik mafkura inson va jamiyat hayotining barcha muhim sohalarini qamrab oladi va aholining ko'pchilik qismi tomonidan qo'llab quvvatlanadi. Totalitar davlatda hukmron mafkura boshqa ilgari mavjud bo'lgan tartib qoidalarni tan olmaydi va yangi jamiyatni yaratish uchun ommani jipslashtirishni maqsad qilib qo'yadi, buning uchun zo'ravonlik metodidan ham qaytmaydi. 2. Partiya byurokratik davlat apparati ustidan nazorat funksiyasini o'taydi, yoki u bilan singib ketadi; 3. Mamlakat hayotining barcha sohalarini qamrab olgan politsiya nazorat tizimi ostida bo'ladi. O'zgacha fikrlaydiganlar ta'qib ostiga olinadi; 4. Partiya ommaviy axborot vositalari ustidan to'la

nazorat oʻrnatadi. 5. Partiya armiya, politsiya, davlat xavfsizligi organlari ustidan toʻla nazorat oʻrnatadi; 6. markaziy davlat hokimiyati mamlakat iqtisodiy-xoʻjalik hayotiga rahbarlik qiladi. Iqtisodiyotga rahbarlik hukmron mafkura goyalari asosida amalga oshiriladi. Shu tarzda totalitar davlat tuzumi oʻrnatildi.

Yevropada totalitar tuzumlarni vujudga kelishi jahon sivilizatsiyasining mukammal emasligi, moʻrtligi va oʻzini halokatiga loqayd ekanligini koʻrsatdi. Yetakchi davlatlar Germaniyada totalitar tuzumni oʻrnatishi va uning butun dunyoga hukmronlik qilish uchun faoliyatiga kuzatuvchi sifatida qarab turdi. Yetakchi davlatlarning har biri oʻz manfaatlarini koʻzlab Gitler bilan muzokaralar olib borishga va u bilan kelishishga urindi. Bunga yaqqol misol 1938 yildagi Myunxen konferensiyasi va 1939 yilda ikkinchi jahon urushidan sakkiz kun oldin sovet-german shartnomasini tuzilishidir. SSSR va boshqa yetakchi davlatlar Germaniyaning ekspansiyasini toʻxtatib qolishlari, jahon urushi xavfini bartaraf qilib, dunyoda kollektiv xavfsizlikni taʼminlashlari mumkin edi. Lekin har bir davlatning goʻz manfaatini ustun qoʻyishi va mafkuraviy antagonizm bunga toʻsiq boʻldi. Ikkinchi jahon urushi insoniyat sivilizatsiyasini naqadar moʻrtligini, uning halokatga uchrashi ehtimoli yuqori ekanligini angladi. Bunday halokatni oldini olish uchun ikkinchi jahon urushidan keyin Birlashgan millatlar tashkilotining tuzilishi jiddiy ahamiyatga ega boʻldi. Bu tashkilot dunyoda tinchlikni saqlash xalqlar, mamlakatlar oʻrtasida hamkorlikni yoʻlga qoʻyishi, kelishmovchiliklarni muzokaralar asosida hal qilishga yordam berishi lozim edi.

Totalitar tizimga yaqin boʻlgan harbiy diktaturalar dunyoning turli mamlakatlarida XIX-XX asrlarda yuzaga keldi. Mamlakatda siyosiy iqtisodiy va ijtimoiy tushkinliklar yuz berganda harbiylar hokimiyat tepasiga keldilar. Turkiya, Yunoniston, Pokiston, Chili va latin Amerikasidagi ayrim mamlakatlarda harbiy diktaturalar vaqti vaqti bilan hokimiyat tepasiga keldilar.

2. Sotsialistik sivilizatsiya. Sovet totalitar tizimi yoki proletar diktaturasi. Sotsialistik jamiyat. Barcha ijtimoiy qatlamlarni teng qilish, barcha kelishmovchilik va urushlarga sabab boʻlgan xususiy mulkchilik orniga umumxalq mulkini joriy qilish orqali moʻl-koʻlchilik jamiyatini barpo qilish insoniyatning azaliy orzusi edi. Bu goyani amalga oshirishning utopik va ilmiy asoslari oʻz aksini topgan sotsialistik jamiyat gʻoyasi yaratildi. Sotsilaizm goyasi Marks, Engel's va Lenin tomonidan rivojlantirildi va XX asrda ayrim mamlakatlarda amalga tadbiq etildi.

XX asrning boshlarida eng katta siyosiy voqea Rossiyadagi Oktabr

toʻntarishi boʻldi. XX asrda iqtisodiy hayotning sezilarli voqeliklaridan biri sotsialistik ukld edi. Rossiyada 1917 yilda hokimiyatni davlat toʻntarishi asosida noqonuniy qoʻlga olgan bolʻsheviklar totalitar tartib qoidalarini oʻrnatdilar. Bu toʻntarish Rossiyada monarxiyani agʻdarib, ulkan mamlakatda bolsheviklar hokimiyatni qoʻlga olib, sotsialistik gʻoyalarni amalga oshirishga olib keldi. Bu toʻntarish Yevropa, Osiyo va Afrikaning boshqa mamlakatlarida aks sado berdi. Bu tuzumning siyosiy asosi sovet hokimiyati boʻldi.

SSSRda jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi keskin oʻzgardi. Burjuaziya va pomeshchiklar sinfi jismoniy yoʻq qilindi. Uning qoldiqlari emigratsiya qildi. Zoʻravonlik bilan kollektivlashtirish dehqonlarni kolxoz yerlariga birlashtirib, uni partiya-davlat byurokriyasiga qaram qilib qoʻydi. Hunarmandlar kooperativlashtirildi. Mayda savdogarlar siqib chiqarildi. Oʻrta qatlamni tashkil qilgan texnik va ijodiy ziyolilar, oʻqituvchi, shifokorlar, xizmatchilarning ulkan massasi hokimiyat qaramogʻida qolib, xavfsizlik xizmati va targʻibot mashinasining sinchkov nazorati ostida turdi. Bu repressiv kazarma-sotsializm tuzumi, utopist-sotsialistlar, ilmiy kommunizm asoschilari eʻlon qilgan sotsialistik gʻoyalarni amalga oshirishga hajv edi. Stalin vafotidan soʻng, sotsialistik mamlakatlarda partiya-davlat diktaturasining rejimi yumshadi. Ommaviy repressiyalar tugadi (faqat Xitoyda “katta sakrash” siyosati va “madaniy inqilob” davridan tashqari). XX asrning ikkinchi yarmida J. Gelbreyd va boshqa olimlar ikki jahon tizimlari (sotsializm va kapitalizm dunyosi) yaqinlashuvining oʻsib borayotgan anʻanasini koʻrsatdilar. Har ikki tomonning mafkurasi esa bu anʻanani oʻjarlik bilan inkor qildi.

SSSRda totalitar tizim oʻtgan asrning 30 yillarida Stalin boshchiligi-da qatagʻon qilish siyosati bilan amalga oshirildi. Bu ukld SSSR va unga ergashgan Yevropa, Osiyo va Amerikada hamda boshqa mamlakatlarda qaror topdi. Sotsialistik ukld haqiqiy umumxalq xoʻjalikning rejali yuritilishi tushkunliklarsiz oʻsishiga asoslangan deb kapitalistik ukldga qarama-qarshi qoʻyildi. Lekin XX asrning soʻnggi oʻn yilliklarning tarixiy tajribasi sotsialistik ukldning mazmuni, afzalligi va istiqbollari-ga qarashni oʻzgartirdi. Sotsialistik ukld davlat monopolistik kapitalizmining boshqa bir koʻrinishi edi. Davlat sotsialistik mulkchiligi bevosita ishlab chiqaruvchilarni ishlab chiqarish vositalariga egalik qilish, uning natijalari va qoʻshimcha mahsulotdan bahramand boʻlishdan mahrum qildi. Rejali boshqaruv iqtisodiy jarayonlarga zoʻravonlik bilan kirish, voluntarizm va avantuurizm-da oʻz ifodasini topdi. Bularning oqibatida SSSR-da jamoalashtirish, Xitoyda “katta sakrashlar” siyosati natijasida ishlab chiqarish kuchlarining qisman yemirilishiga olib keldi.

XX asrda sotsializmning xolisona asoslari, ommaviy va intellektual qo‘llab-quvvatlash bo‘lmasa, u deyarli bir asrga yaqin mavjud bo‘lmas edi. U o‘zining ijobiy rolini ham o‘ynadi. Keng tarqalgan kommunistik aqidalarning ba’zilarini xatoligini ko‘rsatib qolmay, balki u taklif qilgan va qo‘llagan qator ijtimoiy-iqtisodiy boshqarish metodlari Yaponiya, Shvetsiya, Fransiya va boshqa mamlakatlarda rahbarlik sifatida qabul qilinib, o‘zini oqladi. Sotsialistik variantda so‘nggi industrial jamiyatda ijtimoiy stratifikatsiya tubdan o‘zgardi. Pomeschiklar (katta yer egalari) burjuaziya, quloqlar, ruhoniylar nafaqat iqtisodiy, huquqiy balki jismoniy yo‘q qilindi. Ishchilar sinfi *gegemon* deb e‘lon qilindi, lekin davlat – byurokratik apparat tomonidan ekspluatatsiya qilinadigan sinfga aylandi. Dehqonlar majburiy jamoalashtirish natijasida yerdan ajralib, kolxoz dalalarida ozgina ish haqi hisobiga ishlashga majbur bo‘ldilar. Tomorqa xo‘jaligi ham ozgina daromad berar, uning uchun soliq to‘lanar edi. “Ziyolilar” qatlami injenerlar, loyihachilar, fan-ta’lim, madaniyat xodimlari hisobiga miqdoriy o‘sdi, lekin “shubha” ostida turgan huquqsiz ijtimoiy qatlam kamyayib qoldi. Ijtimoiy piramidaning cho‘qqisida esa yangi humkron sinf paydo bo‘ldi. Bu sinfga partiya-davlat xodimlari, armiya generaliteti, xavfsizlik xizmati xodimlari kirar edi. Aynan shu sinf amalda “umumxalq” va shirkat mulkiga xo‘jayinlik qildi, qo‘shimcha qiymatni o‘zlashtirib oldi, jamiyatga rahbarlik qildi, norozilik va o‘zgacha fikrlashni shafqatsiz bostirdi. Jamiyatning boshqa qatlamlari teng va huquqsiz edilar. Milliy farqlar nazarga ilinmadi. Milliy urf-odat, an‘analar, diniy e‘tiqod ta‘qib ostiga olindi. Respublikalar o‘rtasida chegaralar hukmron elita tomonidan takror-takror o‘zgartirilib, ko‘plab xalqlar jazolandi, ke-lajakda milliy va etnik guruhlar o‘rtasida ixtiloflarda urug‘ tashlandi.

Sobiq SSSRda ijtimoiy soha og‘ir ahvolda edi. Milliy respublikalarda ayniqsa tibbiy xizmat qishloqda ayanchli ahvolda bo‘lib, feldsherlik nuqtalari, transport ajratilmagan edi. Ozbekistonda sovet davrida ayollar va bolalarda o‘lim ko‘rsatgichi yuqori bo‘lgan. Qashqadaryo vohasida XX asrning 80 yillarida bolalar o‘limi 1000 kishiga 50 bolaga to‘g‘ri kelgan. Ayollar va bolalar o‘limida Qashqadaryo, Xorazm, Qoraqalpog‘iston va Andijon 1000taga 80 o‘lim to‘g‘ri keladi. Bolalar o‘limining o‘rishining yana bir sababi ekologik vaziyatning yomonlashuvi bo‘ldi. Mahalliy kadrlar taqchilligi xalq xo‘jaligining barcha sohalarida yuqori darajada bo‘ldi.

Oddiy xalq o‘z diniy e‘tiqodi, milliy qadriyatlari va an‘analariga sodiq qoldi va asketik turmush tarzida yashadi. Lekin partiya –davlat boshqaruvida ishlaydigan mahalliy aholi vakillari markazni boshqaruvi-ga tez moshlashdilar, Moskvadan berilgan buyruq va torshiriqlarni bar-

chasini soʻzsiz, qullarcha bajardilar. Bu toifa markazning ruslashtirish siyosatini amalda keng qoʻllab quvvatladi. Milliy respublikalarda mahalliy davlat apparati masʼul xodimlarining koʻpchiligi oʻz farzandlarini rus tilida taʼlim tarbiya beradigan maktabgacha taʼlim muassasalari, orta umumtali maktablari va oliy maktablarda oʻqitishga intildilar. Oʻzlari rus tilini toʻla qabul qildilar hatto uyda ham rus tilida gapirish udumga aylandi. Chunki bu hukmron toifa kelajak uchun oʻz farzandlaridan voris tayyorlashga urindi. Oliy oquv yurtlarida taʼlim rus tilida olib borildi. Oʻzbek tilida oʻquv metodik adabiyotlar halokatli darajada yetishmas edi. Shu sababli rus tilini bilmaydigan talabalar kasbiy tayyorgarligi, bilimi juda past saviyada boʻlgani uchun u xalq xoʻjaligida toʻlaqonli mutaxassis sifatida ishlay olmadi. Natijada mahalliy yosh vrachlar, injener-texnik xodimlarning kasbga yaroqligi talab darjasida boʻlmadi.. Jamiyatda korruptsiya urugʻ-aymoqchilik, tanish- bilishlik kabi illatlar XX asrning 70 yillarida keng tus oldi.

SSSRda davlat hokimiyatini egallab olgan kommunistik partiya apparati oʻzi uchun barcha imtiyozlarni yaratdi. Umummamlakat miqyosida xalq isteʼmoli mahsulotlari taqchil boʻlgani uchun barcha darajadagi partiya apparati xodimlari uchun maxsus magazinlar tashkil etilib, bu magazinlar partiya xodimlarini taqchil mahsulotlar bilan muntazam taʼminladi. Partiya apparati xodimlari uchun SSSR hududida 22 kurort – davolanish muassasalari tashkil etildi. Bu kurortlarga aholining boshqa qatlamlari kirishi taʼqiqlangan edi. Viloyat partiya qoʻmitalari birinchi kotiblari sotsialistik mamlakatlardagi dunyoga mshhur kurortlariga dam olib, davoloandilar. Kvartira va dala hovlilar bilan birinchi navbatda partiya apparati xodimlari taʼminlandi.

SSSR iqtisodiy tuzulmasida harbiy-sanoat, yoqilgʻi-xomashyo komplekslari sanoat mahsulotlari va shaxsiy xizmatlarga qaraganda ustuvor boʻldi. Agrosanoat sektorining hissasi yuqori boʻlsada, uning samarasi past edi. Iqtisodiyotning pogʻonaviy tuzilmasida oʻtish davriga qaraganda, natural uy-xoʻjaligining ulushi koʻp marta kamaydi. Mahsulot va xizmatlar ishlab chiqaradigan mayda va yirik korxonalarda yakka qayta ishlab chiqarish taxminan ikki marta oʻsdi. Hududiy takror ishlab chiqarish ulushi eski darajada qoldi. Oʻrta asrlar sivilizatsiyasida milliy takror ishlab chiqarishning ulushi keskin oshdi. Industrial davr oxiridan baynalmilal ishlab chiqarish oʻsdi.

Sotsialistik variant milliy (asosan, harbiy sanoat kompleksi va transport) ishlab chiqarishning katta salmogʻi bilan ajralib, yakka va baynalmilal darajada egallagan oʻrnidan past edi.

Iqtisodiyotning texnologik tuzilmasi dinamikasi ishlab chiqarish va

ukladlarning texnologik ukladlari almashinuvini aks ettiradi. Ular o'tish davrida oldingi sivilizatsiyalardan meros qilingan edi. Har bir navbatdagi sivilizatsiyada o'tmish qoldiqlarini saqlab qolgan holda va ishlab chiqarishni keyingi usullarining kurtaklarida paydo bo'lgan ishlab chiqarish texnologik usuli yetakchi edi. Hukmron texnologik ukladlar davriy almashdi. SSSRda XX asr o'rtalarida, ayniqsa, shaxsiy yordamchi uy xo'jaligi, agrosanoat, xizmatlarni ishlab chiqarish, ishlab chiqarishning industriyagacha bo'lgan usullarning salmog'i katta edi. Industrial texnologiyalar harbiy sanoat, yoqilg'-xomashyo va transport majmualarini qamrab olgan edi.

XX asrning 80-90-yillar boshida mavjud bo'lgan ikki siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum: sotsializm va kapitalizmga bo'lingan dunyo tub o'zgarishlar pallasiga kirdi. Xalqaro miqyosda katta obro'-e'tiborga ega bo'lgan kapitalizmga qarshi turgan, dunyoning aholisining milliarddan ko'p qismini o'z ta'siri ostida saqlab turgan kommunistik mafkura va unga asoslangan siyosiy tuzum halokatga uchradi (Xitoy, Shimoliy Koreya va Kuba bundan mustasno). Bu o'z navbatida insoniyat tarixiy taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdi. Postsotsialistik mamlakatlarda yangi jamiyatlar shakllana boshladi. Bu jamiyatlar G'arbning an'anaviy bozor iqtisodiga asoslangan siyosiy va iqtisodiy tuzilmasining etalon sifatida olib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatni qurishni boshladilar. Shuningdek, xalqaro munosabatlarda ikki qutbli dunyodan ko'p qutbli dunyoga o'tish boshlandi. Boshda jamiyatning siklik dinamikasi an'analar, ularning kelajak taraqqiyotida yuz berishi mumkin bo'lgan manzaralariga umumiy baho beramiz. Keyin esa bu an'analar va manzaralar jamiyat piramidasi uchun har bir qavatida qanday aks etishini ko'ramiz.

3. Industrial saivilizatsiyaning halokati. Fashizm Germaniyada monopolistik burjuaziyaning irodasini bajarish uchun xizmatkor bo'ldi va uning manfaatlari uchun dunyoni takror taqsimlash, dunyoga hukmron bo'lish uchun kurash boshladi. Bu tabiiyki, yetakchi davlatlar-AQSH, Fransiya, Angliyaning qarshiligiga uchradi. Dastlab ular fashizmni sotsializmga qarshi qo'yimoqchi bo'ldilar, keyinchalik esa nemis fashizmi dunyoga hukmron bo'lish siyosatini qat'iy olib borgani uchun unga qarshi kurashishga majbur bo'ldilar.

Bir necha lokal urushlardan so'ng, 1939-yil sentabrda II jahon urushi boshlandi. Uning dastlabki bosqichida Germaniya butun Yevropaning katta qismini bosib olib, Shimoliy Afrika tomon yo'naldi. Bu urush insoniyat tarixidagi eng katta va qonli urush bo'lib, millionlab kishilar qurbon qilindi. Minglab shahar va qishloqlar, madaniyat yodgorliklari,

san'at asarlari yo'q qilindi. II jahon urushi antigitlerchilar koalitsiyasining to'la g'alabasi, Germaniya, Italiya, Yaponiya va ularning ittifoqchilari mag'lubiyati bilan tugadi.

Tayanch iboralar. Industrial sivilizatsiyaning halokati, inqiroz, jahon urushlari.

23-mavzu. INDUSTRIYA DAVRIDA ILMIY-TEXNIK TARAQQIYOT

1. Ilmiy-texnika inqiloblari natijalari. Ilmiy kashfiyot va ixtirolar
2. XX asr ilmiy texnika inqiloblari 3. XX asrning ikki I.T.lining asosiy yakunlari.

1. Ilmiy-texnika inqiloblari natijalari. Ilmiy kashfiyot va ixtirolar. Sanoatning yuksalishi manufaktura ishlab chiqarish markazlariga aylangan shaharlarning o'sishiga olib keldi. Iste'mol mahsulotlarining turlari va soni ko'paydi. Aholining asosiy qismining turmush sharoiti yaxshilandi.

G'alla, baliq, go'sht, vino, pivo, shakarni iste'mol qilish o'sdi. Aholi soni ko'paydi. XVI-XVII asrning birinchi yarmidagi o'zgarishlar jarayonining moddiy bazasi aholining o'sishi, yangi texnik tajriba va injener tafakkurining rivojlanishi, suvning energetik kuchidan foydalanishning kuchayishi, mehnatning intensivikasi, kommunikatsiya vositalarining takomillashuvi, mehnat taqsimoti va mahsulot ishlabchiqarish, savdo kapitali va tadbirkorlikning o'sishi kapitalistik manufakturaning tug'ili-shi bilan jadallashdi.

Industrial jamiyatning ishlab chiqarishining texnologik usuli XVI-II asrning 60-yillari Angliyada boshlangan sanoat inqilobidan boshlandi. Dastlab texnik to'ntarish yengil sanoatning to'qimachilik sohasida yigiruv mashinasi, mexanik to'quv dastgohining kashf etilishi bilan boshlandi. Bu mehnat unumdorligining keskin o'sishi, ip-gazlama qiymatining pasayishiga imkoniyat yaratdi. Angliyada 1788-yildan 1850-yilgacha gazlama ishlab chiqarish 50,6 marta oshdi, bahosi esa 5,5 marta pasaydi. Gazlama ingliz eksportining yarmini tashkil qildi. Hunarmadchilik buyumlari past sifati va yuqori narxi bilan arzon industrial ishlab chiqarish bilan raqobat qila olmas edi.

To'qimachilik mashinalarining keng qo'llanilishi nisbatan arzon energiya manbai mashina-dvigateldan foydalanishga olib keldi. 1784-yilda

mexanik Jeyms Uatt bug‘ mashinasini ixtiro qildi. Bu ixtiro Angliyaning yetakchi sanoat sohasi-paxtani qayta ishlashda jadal va keng qo‘llanildi.

Mashinalarning yaratilishi koksni qo‘llash asosida cho‘yan va po‘lat ishlab chiqarishning yangi usullarini o‘zlashtirish uchun kengliklar yaratdi. Toshko‘mir ishlab chiqarish kengaydi. Yuk tashish vositalarining takomillashtirilishi yangi transport vositalarining paydo bo‘lishiga olib keldi. Parovoz va paroxodning paydo bo‘lishi bilan temir yo‘l transporti va kemachilik rivojlandi (1806-1825 yillar).

Eski manufaktura bazasida ishlab chiqilgan mashinalarning o‘zi mashinalar yordamida ishlab chiqildi. Mashinasozlik yuzaga kelib, tez rivojlana boshladi. Shu bilan industrial texnologiya o‘z asosiga ega bo‘ldi. Bu industrial texnologiya tuzilmasini bir xil qildi va uning jadal o‘sishiga olib keldi. Tabiiy bo‘yoqlarning taqchilligi sun‘iyalarini yaratish talabini tug‘dirdi va kimyoning rivojlanishiga turtki berdi. Angliyada manufaktura o‘rniga kelgan mashinalashgan fabrika paydo bo‘ldi. Mashinalashgan ishlab chiqarishni yangi texnologiyasi qishloq xo‘jaligiga tarqaldi. Angliyada paydo bo‘lgan mexanizatsiyalashgan qishloq xo‘jaligi yangi ochilgan Amerika yerlari, Yevropaning aholisi zich joylashgan hududlariga tarqaldi. Shun tarzda, Angliya texnik inqilobning markaziga aylandi. U iqtisodiyotning barcha sohalarida texnologik bazani o‘zgartirdi va jadal Shimoliy Amerika va G‘arbiy Yevropaga tarqaldi.

Jorj Stefenson kashf qilgan parovoz 1825-yilda Angliyaning Stokton va Darlington o‘rtasidagi 40 kmli temir yo‘l aloqasini yo‘lga qo‘ydi. Temir yo‘lning qurilishi iqtisodiyot va ijtimoiy hayotda katta o‘zgarishlarga olib keldi. Fabrika, zavodlarning ko‘payishi yollanma ishchilarga ehtiyojni kuchytirdi. Qishloq aholisining shaharlarga ommaviy migratsiyasi boshlandi. Sanoatning o‘sishi xomashyoga bo‘lgan ehtiyojni oshirdi. Yevropa industrial inqilobi Osiyo, Afrika va Amerika xalqlari uchun halokat bo‘ldi. Ushbu hududlar Yevropa uchun arzon xomashyo, arzon ishchi kuchi hamda mahsulot sotiladigan hudud vazifasibi o‘tab kelmoqda.

Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasining ko‘pchilik mamlakatlari bilan Yevropaning yetakchi davlatlari iqtisodiyotining texnologik darajasidagi farqlarni yanada kuchaytirdi. Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi texnologiyalar, mashinalashgan ishlab chiqarishda Yevropadan orqaga qoldi. Shu sababli bu hududlar Yevropa ekspansiyasiga uchrab mustamlakalarga aylandi.

XIX asro‘rtalarida sanoat ishlab chiqarishining asosi bo‘lgan ogir mashinasozlik sohasi vujudga keldi. Ogir mashinasozlikni yuzaga keliishi bu davrda parovozlar ishlab chiqarish, temiryo‘llar, kema yuradigan kanallar, paroxodlarni ishlab chiqarishni rivojlantirdi. Elektromagnitizm,

telegraf, dinamo-mashina, gaz dvigateli kashf qilindi. Kimyo sanoati shiddat bilan rivojlandi. Lekin XVIII asr soʻnggiga xos boʻlgan inqilobiy yangiliklar bu davrda boʻlmadi, balki mavjud yangiliklarni oʻzgartirish bosqichi edi xolos. Bu manufaktura metodlarini uzluksiz takomillashtirish davri boʻlib, yanada keng hajmlarda qoʻllanildi.

Angliya sanoat inqilobi natijasida erishgan yutuqlaridan ishlab chiqarish, tashqi savdoda oʻzining raqiblariga qarshi turishda foydalandi. Angliya XIX asrning 80-yillarigacha jahon ustaxonasi mavqeini saqlab qoldi.

XIX asrning oxiri XX asr boshlaridagi texnik inqilob hajmi va chuqurligi bilan yanada yirik edi. Uning markazida energetika, bugʻdan toshkoʻmir, elektr va suyuq yoqilgʻiga oʻtish boʻldi. Elektrenergiyasini ommaviy ishlab chiqarish va uzoq masofalarga uzatish, undan mashinani harakatga keltirish va yoritishda foydalanish, aloqa, elektrotexnikaning shiddatli rivojlanishi sababli, bu asrni baʼzida elektrotexnika asri deb atashadi. Neftni oʻzlashtirish, undan ichki yonuv dvigatellarida yoqilgʻi sifatida foydalanish yuklarni tashishni ancha arzonlashtirdi. Yangi transport turlari, avtomobil, samolyotni yuzaga keltirdi. Ishlab chiqarish jarayonlarini elektrlashtirish, energiyani boʻlish va tarqatishning yangi imkoniyatlarini ochdi. Mehnat sharoitining yaxshilanishi chekka hududlarni oʻzlashtirishga olib keldi. Avtomobil va havo transporti yangi bosqichlarga koʻtarildi. Metallurgiya, mashinasozlik, kimyo sohalarining oʻrganishiga turtki berdi. Yanada arzon poʻlatni ishlab chiqishni koʻpaytirish ehtiyoji, turli sifatli metallar va rangli metallurgiyani rivojlantirishni talab qildi.

Bu jarayonlar togʻ-kon sanoatining rivojlanishiga olib keldi. Kimyo sanoatining progressi boʻyoqlar, katalizatorlar, dorilar, mineral oʻgʻitlarni ommaviy ishlab chiqarishga imkon berdi. Mineral oʻgʻitlar, mukammal qishloq xoʻjalik mashinalari va agrotexnik usullar bilan qoʻllanilishi qishloq xoʻjaligida texnologik toʻntarishlarning asosi boʻldi. Bu jarayon qishloq xoʻjaligida mehnat unumdorligining oʻsishi, ekinlarning hosildorligi, chorva mahsulдорligining ortishi, agrar sektorda anchagina ishchi kuchining ozod boʻlishi va undan shiddatli rivojlanayotgan sanoatga yoʻnaltirishga olib keldi.

Fan va texnika yutuqlari harbiy sohani rivojlanishini taʼminladi. Harbiy aviatsiya, tanklarning paydo boʻlishi, kuchli harbiy dengiz flotining tashkil topishi, portlovchi moddalarning yangi turlari, zaharli gazlar, radioaloqa vositalaridan foydalanish – harbiy sohani kuchayishiga, militarizatsiyaning kuchayishiga olib keldi. Natijada I va II jahon urushlarining moddiy texnika bazasi yaratildi, qaysiki, bu urushlarda oʻn mil-

lionlab kishilar halok bo'ldi. Dunyoning ko'pgina xalqlari iqtisodiyoti va madaniyatiga ulkan zarar yetkazildi.

Ilmiy-texnika inqiloblari natijalari. Ilmiy kashfiyot va ixtirolar ishlab chiqarishning texnologik asoslarini o'zgartirishda fanning o'rni keskin o'sdi. Qator sohalar (elektrotexnika, motor qurilishi, aviatsiya, neftni qayta ishlash, kimyo, mineral o'g'itlarni ishlab chiqarish va h.k.) bevosita ilmiy kashfiyotlar va yirik ixtirolar asosida shakllandi. Ishlab chiqarishning fan bilan bog'lanishi kuchaydi. Mashinalar tizimi qo'l mehnatining tor doirasini bartaraf qilishga imkon berdi. Uning unumdorligini o'sishi uchun kenglik ochdi.

Energiyaning manbalari toshko'mir, bug' kuchi, neft mahsulotlari va elektr energiyasi xalq xo'jaligi ehtiyojlari uchun xizmat qildi. Qazilma boyliklar, ishlab chiqarish sanoati, dehqonchilik ishlab chiqaradigan iqtisodiyotning rivojlanish manbalariga aylandi.

Ijtimoiy mehnatni tashkil qilish shakllarida o'zgarishlar yuz berdi. Hunarmandchilik ustaxonalari va manufakturalar o'rnida bir-biri bilan yaqin o'zaro bog'langan industriya gigantlari turar edi. Ishlab chiqariladigan texnik o'zgarishlarning ulkan hajmlari aksioner jamiyatlar, XIX asr oxirida monopoliyalari yaratishni talab qildi. Mehnatning ijtimoiylashuvi gigant hajmlarga yetdi. Texnologik o'zgarishlar va mashinalashgan ishlab chiqarish ishchi kuchining tarkibi va malakasi darajasida sifat o'zgarishlariga olib keldi. Murakkab texnikada ishlash, ishlab chiqarish va foydalanish jarayoniga bevosita ishtirok etadigan olimlar, injenerlar va texniklarning soni keskin o'sdi. Ishchilar malakasiga talab kuchaydi. Bularning barchasi ta'limni rivojlanishiga turtki berdi. Ta'lim tizimi jamiyat ishlab chiqarishining yangi ehtiyojlarini qondirishga qodir bo'lgan yangi kadrlarni tayyorlashga o'tdi.

Texnologik o'zgarishlar natijasida mehnat unumdorligi o'sdi, ko'pgina mahsulotlar arzonlashdi va sifati oshdi. Rivojlangan mamalakatlarida qayta ishlab chiqarish samaradorligi notekis o'sdi. Aholining turmush darajasi keskin yaxshilandi. Aholining moddiy va ma'naviy ehtiyojlari to'laqonli qondirila boshlandi. Texnik o'zgarishlarning salbiy jihatlari ham yaqqol ko'rindi. Iqtisodiyotni qalqitib turadigan davriy iqtisodiy tushkunliklar mashinalar avlodini davriy ravishda o'zgartirish zaruriyatini keltirib chiqardi. Insonning mashinaga bog'lanishi, mehnatning intensivligi kuchayib, insonning turmush tarzini ham ishlab chiqarish tizimi belgiladi. Xomashyo, yoqilg'i tanqisligi kuchayib, ularga egalik qilish uchun rivojlangan mamlakatlar o'rtasida raqobat keskinlashdi. Urush xavfi kuchayib bordi. Fan va texnika yutuqlari odamlarni qirib tashlash

vositalarini yaratishga yo'naltirildi. Lokal va jahon urushlari mislsiz vayronkorlik xususiyatini oldi.

2.XX asr ilmiy texnika inqiloblari. XX asr industrial jamiyatning so'nishi va postindustrial jamiyatning tug'ilishi davridir. Bu davrning texnologik to'ntarishlariga jamiyatning moddiy texnik bazasining yangilanishida ikki asosiy harakatlanuvchi kuch – ilmiy intellekt va uning texnikaning yangi avlodlarida moddiylashuvini chambarchas bog'lanib ketishidir. XX asrda fan va texnika to'liqinsimon siklik dinamika, yangi integral shakllarda ko'rindi. XX asrning 50-60 yillarida rivojlangan mamlakatlarda birinchi ilmiy texnika inqilobi (I.T.I.) yuz berdi. Uning manbalari fizika, kimyo, biologiya, texnika fanlaridagi yirik kashfiyotlar edi. Birinchi I.T.I. uch ilmiy texnik yo'nalishga asoslandi: atom energiyasining o'zlashtirilishi; energiyaning elektron o'zgaruvchanligi; lazer texnikasining yaratilishi, Kvant elektronikasi, kibernetika, hisoblash texnikasi, elektron hisoblash mashinalari (EHM) avlodlarining yaratilishidir. Atom energiyasi issiqlik energiyasining o'rnini ola boshladi. Sintetik materiallar-sintetik smola (qatron), plastmassa, kimyoviy tola keng rivojlandi. XX asrning oliy ilmiy texnik yutuqi inson tomonidan koinotning o'zlashtirilishi bo'ldi. Bu matematika va kosmonavtika, boshqaruv nazariyasi va EHM, metallurgiya va pribor qurilishi, raketa va optika kabi ilmiy texnik yo'nalishlarning sintezi natijasi edi.

Texnik progress maishiy sohaga keng ta'sir qildi. Kimyo fanida katta yutuqlarga erishildi. Buyumning tuzilmasiga maqsadli yo'nalishda ta'sir qilishning yangi yo'llari ochildi. Gerbitsid va pestitsidlar yaratildi. Katalitik jarayonlar mexanizmi egallandi. Biologiya va tibbiyot fanlari yutuqlari vitamin va mikrobiologiya sanoatining yaratilishi, antibiotiklarning birinchi avlodlarini yaratilish asosi bo'ldi. Harbiy texnika inqilobining XX asrdagi yutuqlari: atom va termoyadro quroli, ularni yer sharining har qanday burchagiga yetkazadigan raketa vositalari, kimyoviy va biologik qurol, samolyot, vertolyot, tank, artilleriya, avtomatik o'q otuvchi qurolning takomillashuvi, harbiy suvosti kemalarining takomillashgan sinflarining yaratilishi-bu yutuqlarning hammasi insoniyatning o'zini halokat yoqasiga olib keldi.

Birinchi I.T.I.ning yutuqlari bilan birga, salbiy tomonlari ham bor edi. Ishlab chiqarishga tabiiy resurslar (ayniqsa, mineral)ning misli ko'rilmagan darajada jalb qilinishi ularning tugashi va atrof-muhitning ifloslanishiga olib keldi. Qator tog'-kon va metallurgiya hududlarida ekologik halokat xavf sola boshladi. Bularning hammasi dunyoda XX asrning 70-yillarida to'satdan yoqilg'i-energetika, ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy tushkunliklarning yuz berishiga sabab bo'ldi. Bu tushkunliklarni

bartaraf qilinishning moddiy asosi XX asrning soʻnggi choragida yuz bergan ikkinchi I.T.I. boʻldi. Bu inqilob ishlab chiqarishning trial texnologik usuliga oʻtish boshlanganini bildirar edi.

Ilmiy texnika inqilobining yadrosi uch asosiy ilmiy-texnik yoʻnalishlar: mikroelektronika, biotexnologiya, informatika boʻldi. U kvant fizikasi, molekulyar biologiya, kibernetika, axborot nazariyasi fundamental yutuqlarini aks ettiradi. Katta va yuqori integral sxemalarning yaratilishi, mikroprotsessor, texnika, resurs saqlovchi, xalq xoʻjaligining barcha sohalarida texnik tizimlarning avtonomligini koʻtarish va miniatyurizatsiya qilish uchun yoʻl ochdi. Gen injenerligi metodlari bilan vorislik buyumlari tuzulmasi va oʻzgartirish imkoniyati uchun ochib berish foydali boʻlgan bakteriyalarning shtammalarini qurish, vorisiylikka taʼsir qilish mutlaqo yangi jarayonlar va narsalar yaratish imkoniyatini berdi.

Yangi axborot texnologiyalari axborotdan foydalanish, uni uzatish, toʻplashning mukammal vositalari jamiyat va tabiatda murakkab jarayonlarni bilish va ularni boshqarish ufqlarini ochdi. Kompyuter texnologiyasi, INTERNET tizimining shakllanishi ilmiy-texnika inqilobining yangi erasi-axborot texnologiyalari hukmron boʻlgan yangi bir davrni boshlab berdi.

Ikkinchi I.T.I.ning asosiy yoʻnalishlari ishlab chiqarish texnikasining barcha sohalarida sifat oʻzgarishlari poydevori boʻlib xizmat qildi. Dasturlashtirilgan ishlab chiqarish, robototexnika, egiluvchan ishlab chiqarish tuzulmalari, avtomatlashtirilgan loyihalashtirish kompleks avtomatlashuvga yoʻl ochadi.

Anʼanaviy tabiiy resurslarning tugashi va ularning yuqori ekologik xavfi noanʼanaviy amaliy tuganmas energiya manbalari (quyosh, shamol, toʻlqinlar va qaytishlar va h.k.), energiya saqlaydigan, yuqori haroratli yuqori oʻtkazish va mikroprotsessor texnikasidan foydalanishni izlash va oʻzlashtirishga majbur qiladi. Lekin haqiqiy energetik inqilob hali oldinda.

Uch ming yil davomida asosiy qurilma ashyosi sifatida hukmron boʻlgan temir asri tugallanmoqda. Kompozit-sopol, plastmassa, sintetik qatron, metall kukuni kabi berilgan xossalarga ega boʻlgan ashyolar afzal koʻriladi. Ishlab chiqarish va isteʼmol sohasida bu xomashyolardan foydalanish keng qamrovli amalga oshirila boshlandi. Yaqin oʻn yilliklarda metall xomashyosi umuman isteʼmoldan chiqish ehtimoli bor.

Xomashyoni qazib olishda geobiotexnologiyalar, kam chiqitli va chiqitsiz, membronal plazmali, lazer, elektr impulslu kabilar oʻzlashtirildi. Bu qisqa muddatda kam chiqim mahsulotni olish qator oraliq epozatsiya jarayonlardan voz kechish imkoniyatini beradi.

Aloqa texnikasi va transportda tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Aloqaning tolali-analitik liniyalari, kosmik, faksimal, uyali aloqa bu sohada haqiqiy to'ntarishni yuzaga keltirmoqda. Transportda qator yangiliklar sodir bo'ldi (havo yostig'idagi kemalar, magnitli temiryo'l transporti, elektromobil va h.o.). Shaharlarda avtomobillarning haddan tashqari ko'payishi yuz berdi. Vaqtni tejaydigan, soatiga 570 kmgacha tezlikda harakat qiladigan poyezdlar Yaponiya, Buyuk Briyaniya va Fransiyada yo'lga qo'yildi. Mamlakatimiz tarixida birinchi marta 2011-yilda "TALGO" tezyurur poyezdi Toshkent-Samarqand yo'nalishida yo'lga qo'yildi.

Birinchi "yashil inqilob"dan keyin ikkinchisi boshlandi. Unda birinchi o'rinda ekologik toza oziq-ovqatni ishlab chiqarish ustuvor bo'ldi. Bu gerbitsid va pestitsid, mineral o'g'itlar bilan ifloslantirmaslik hosilni dasturlashtiradigan mikroprotsessorlar agrotexnikasi va intensiv texnologiyalarni qo'llash asosida amalga oshiriladi.

Agar birinchi I.T.I. uchun kosmosni ilmiy va harbiy o'zlashtirish xos bo'lsa, ikkinchisi, uni sanoat maqsadida o'zlashtirishga qaratilgan edi. Yo'ldoshlarni kommersiya maqsadida uchirish boshlandi. Kosmosda kristallarni o'stirish, noyob biotexnologiyalardan foydalanish mumkin. Ikkinchi I.T.I. ishlab chiqarishni tashkil qilishda tub o'zgarishlar olib keldi. Industrial gigantlar o'rniga tez dasturlashtiriladigan va qayta quriladigan ishlab chiqarishga asoslangan kichik va o'rta korxonalar paydo bo'ldi. Ular "yumshoq" integratsion shakllar – konsernlar, assotsiatsiyalar, moliyaviy sanoat guruhlariga birlashdi. Bu bozordagi o'zgarishlarga moslashishni yengilashtiradi va qo'shimcha chiqimlarni kamaytiradi. Yaponiya, Italiya, Fransiya va boshqa mamlakatlarda kichik va o'rta biznes yordamida milliy mahsulotning ko'p qismi ishlab chiqarilmoqda. Kichik va o'rta biznesning rivojlanishi qo'shimcha ish o'rinlarini ta'minlaydi, innovatsiyalarni tez tadbiiq qilishga yordam beradi.

EHM axborot texnologiyalaridan foydalanish (ayniqsa, shaxsiy kompyuter) va ishlab chiqarish iqtisodiyot va ijtimoiy jarayonlarni boshqarishning nozik va murakkab jarayonlarini avtomatlashtirishga imkoniyat yaratdi. Axborot texnologiyalari jamiyatning barcha sohalariga kirib bordi va tub o'zgarishlarga olib keldi. Moddiy va ma'naviy taraqqiyot uning ta'siri ostida jadal sur'atlar bilan misli ko'rilmagan o'zgarishlarni boshidan kechirmoqda.

Muomala sohasi texnologik to'ntarish uchun qulay kenglik bo'ldi. Marketing tadqiqotlari va prognozlar uchun narxlarni o'zgaruvchan shakllantirish uchun bozor talabini o'rganish, bank va kommersiya axborotlarini qayta ishlash uchun zamonaviy axborot texnologiyalari zarur. Meditsina texnikasi va biotexnologiya metodlari bilan olinadigan dorilar,

diagnostika va davolashning zamonaviy mukammal vositalari yaratilmoqda.

Ta'limni kompyuterlash va axborotlash o'quv jarayonini intensivlashtirish, o'quvchilar e'tiborini faollashtirishga yordam berilmoqda. Ta'lim tizimi axborot texnologiyalaridan unumli foydalanadigan eng birinchi sohalaridan biriga aylandi. Zamonaviy kadrlar tayyorlashni axborot texnologiyalari ishtirokisiz tasavvur qilish mumkin bo'lmay qoldi. Chunki u ta'lim tizimi va boshqa sohalar rivoji uchun beqiyos imkoniyatlarni o'zida mujassamlashtiradi.

3. XX asrning ikki I.T.I.ning asosiy yakunlari. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilgari asosan mustaqil rivojlangan fan endi ishlab-chiqarish bilan qo'shilib ketish jarayonini boshidan kechirmoqda. Bu jamiyatning moddiy asosidagi o'zgarishlar sur'atini sezilarli tezlashtirdi. Fan yangiliklari jamiyatning barcha sohalarida keng qo'llanilmoqda. Moddiy ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarining amalda barcha yo'nalishlari zamonaviy ilmiy-texnika asosiga ko'chirildi. Elektron maishiy texnika va telekommunikatsiya, internetning rivojlanishi odamlarni jahon axborot kengligiga kirishga imkoniyat yaratdi. Fanning ixtiro va kashfiyotlarini ishlab chiqarishga qo'llanilishi natijasida yuzaga kelgan yangi texnika va texnologiya jamiyatning barcha sohalarida ulkan o'zgarishlarga sabab bo'ldi.

I.T.I. ishlab chiqarishni tashkil qilish darajasi va shakllari, uning ixtisoslashuvi, to'planishi va integratsiyasida tub o'zgarishlarga olib keldi. Birinchi I.T.I. ishlab chiqarishning konsentratsiya va internatsionallashuv jarayonini soddalashtirdi. Qudratli ilmiy texnika monopoliyalari va transmilliy kompaniyalarning shakllanishiga olib keldi. Lekin jahon texnologik tushkunligi ba'zi innovatsiyalar uchun monopollikning xavfini ko'rsatdi. Ishlab chiqarishning dekontsentratsiyasi kichik innovatsiya biznesi rivojiga turtki berdi.

XX asrdagi birinchi I.T.I. va navbatdagi harbiy texnika inqilobi ommaviy qirg'in qurollarini yaratishga olib keldi. I.T.I. ishlab chiqarishga nisbatan arzon tabiiy xomashyo, yangi g'oya va texnologiyalarni ommaviy asosda jalb qilish orqali iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini uzoq vaqt mavjud bo'lishiga asos bo'ldi. Ikkinchi I.T.I. uchun resurslarni kam iste'moliga asoslangan ekologik toza texnologiyalarga o'tish xosdir. Bu inqilob fanda keyingi olanshumul ixtiro va kashfiyotlar uchun qulay zamin yaratdi. XX asrning so'ngi o'n yilligida yuqori texnologiyalar, axborot texnologiyalarining iqtisodiyotga kirib kelishi tub burilishlarga olib keldi. Rivojlangan jamiyatlarda fan ishlab-chiqarish bilan qo'shilib ketdi. AQSHda "Silikon vodiysi", Yaponiyada "texnopolis", Hindis-

tondagi shunga o'xshash markazlar bir tom ostida kuchli ilmiy-tadqiqot markazlari va sanoatning nanotexnologiya, molekulyar texnologiyalarga asoslangan eng ilg'or sohalarni to'planishi bo'ldi. Bunday o'choqlarning vazifasi xalq xo'jaligining barcha sohalarini yuqori darajadada foyda beradigan, fanga asoslangan va ekologik jihatdan atrof muhitni bulgamaydigan ishlab-chiqarish va xizmatlarni asosida qayta qurish edi. Shu asosda yaponiya sanoati mahsuloti yengil, ingichka va mitti hajmda bo'lishi rejalashtirildi. Yaponiya texnopolislarida sanoatning 14 sohasi : aviatsiya kosmik texnikani ishlab chiqarish, optik tola, integralsxemalar, sanoat robotlari, tibbiyot,elektronika, kompyuterlar, axborot tizimlari,, dori-darmon, yangi metallar, xotirada saqlovchi dastur va qurilmalar, aniq mashinasozlik, nanotexnologiya, biotexnologiya yetakchi negiz etib belgilandi. Butun yapon jamiyati ilmiy jamiyatlari tashkil etildi. Ilmiy jamiyatlarta'limning barcha bosqichlari, korxonalar va boshqa davlat va nodavlat tashkilotlarni barchasini qamrab oldi.

Tayanch iboralar: sanoat inqilobi, ilmiy texnika inqilobi, molekulyar biologiya, kibernetika, o'rta biznes, integratsion shakl, konsern, ilmiy texnika progressi, EHM, kristal, texnologik to'ntarish, kommersiya, membronal plazma, telekommunikatsiya, ikkinchi I.T.I., "yashil inqilob", texnika progressi, kompozit.

Takrorlash uchun savollar

1. Feodal jamiyatning shakllanish va rivojlanish davrida texnik yangililar.
2. Sanoat inqilobining mazmuni va tarixiy ahamiyati nimada?
3. Texnik inqiloblar va sanoat to'ntarishining o'zaro bo'g'liqligi
4. Industrial jamiyatda texnik inqiloblarning asosiy xususiyatlarini aytg? XX asr I.T.I lari mazmuni va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari nimada?

Mustaqil ish mavzulari

1. Sanoat inqilobining sabablari, natijalari va geografiyasi.
2. Industrial jamiyatning texnologik to'ntarishlari.
3. XX asr I.T.I.Larining mazmuni va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni.
4. Harbiy-texnika inqilobi va uning oqibatlari

VII bob. XXI ASR SIVILIZATSIYASI

24-mavzu. POSTINDUSTRIAL SIVILIZATSIYANING ILMIY-NAZARIY KONSEPSIYALARI. POSTINDUSTRIAL SIVILIZATSIYANING MANZARASI

1. Daniel Belli konsepsiyasi 2. Olvin Toffler konsepsiyasi 3. Postindustrial sivilizatsiyaning manzarasi.

XX asrning 40 yillaridan boshlab rivojlangan industrial jamiyatning barcha jabhalarida chuqur o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Jamiyatshunos olimlar tomonidan bu o'zgarishlar jamiyatning barcha sohalariga ya'ni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy sohalarida jiddiy o'zgarishlarga olib kelayotganini ta'kidlab, yangi postindustrial jamiyatga o'tilayotgan haqida fikr yurita boshladilar.

XX asrning 50 yillarida garbda jamiyatshunos olimlar ijtimoiy qatlamlarda yuz berayotgan o'zgarishlarni sinchiklab tahlil qildilar. Ijtimoiy qatlamlar, guruhlarda odamlarning gorizontal va vertikal mobillik-harakatining tezlashuv jarayoni aniqlandi. Gorizontal mobillikka bir joydan boshqa joyga ko'chib o'tish, ish joyi, turar joyini o'zgartirish kiradi. Vertikal mobillik-ijtimoiy zinapoya bo'yicha insonning yuqoriga yoki pastga, boyib ketishi yoki kambag'allashuviga aytiladi. Sinfy to'siqlar yo'q bo'lib, barcha uchun teng imkoniyatlar ochildi. Jamiyatda yuqori bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan kishilar yuqori lavozimlarni egallay boshladilar. Oddiy ishchilar ham oliy ma'lumot olish, aksiyalarni sotib olish, korxonaning foydasidan o'z ulushini olish va korxonani boshqarish imkoniyatlariga ega bo'la boshladilar. Ijtimoiy mobillikning asosiy sharti sifatida jamiyatshunos olimlar texnika taraqqiyoti darajasini, ta'lim, madaniyat darajasini ko'rsatdilar. Jamiyatshunos olimlar ijtimoiy faollikning eng yuqori darajasini AQShda kuzatdilar va "yangi ochiq – sinfy ko'rinish" deb e'tirof etdilar. Turli ijtimoiy qatlamlarning iqtisodiy ahvolini tenglashuvi "farovonlik jamiyati" yuzaga kelayotgani dalili deb aytila boshlandi. Adolf Berl o'zining "XX asrdagi kapitalistik inqilob", "Tushkinlikning rivojlanishi", "Mulksiz hokimiyat" asarlarida AQShning ijtimoiy-iqtisodiy tizimini o'zgarishini "xalq kapitalizmi", "industrial jamiyat" yoki "davlat sotsializmi" deb atash mumkin deb qayd qildi. Bu yangi industrial jamiyatning ilk bosqichi boshlanayotganidan dalolat berar edi.

Yangi postindustrial sivilizatsiyaning konsepsiyalari g'arb olimlari R.Aron, D.Bell, Dj.Gelbreyt, P. Drakker, U.Rostou, Alvin Toffler, E.Jak, J.Furastye, G.Kan va E Viner, K. Kenningston, A.Raym, A.Touraine, R.Bendix, R.Gustav Darendorf, S. Martin Lipset⁷ kabi olimlar tomonidan tarixiy, siyosiy va falsafiy jihatdan tahlil va talqin qilishgan. Ular oxirgi Ilmiy texnika inqilobi postindustrial jamiyatga transformatsiya qilishning yetakchi omili bo'ladi deb ko'rsatdi. Bu konsepsiyalarbi olimlar garb jamiyatining yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida sodir bo'lgan ilmiy texnika inqilobi oqibatida yuz bergan tub o'zgarishlarni kuzatish va tadqiq etish asosida ishlab chiqdilar.

Daniel Bell konsepsiyasi. XX asrning 60 yillaridan boshlar garb dunyosida yuz bergan iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy va ma'daniy ma'naviy o'zgarishlarni ilmit tadqiq qilgan jamiyatshunos olimlar insoniyat yangi sivilizatsiya boshida turganini bashorat qildilar. Ilmiy adabiyotda xalq kapitalizmi, yalpi farovonlik jamiyati, iste'molchilik jamiyati, yangii industrial jamiyat, postindustrial jamiyat, to'rtinchi sanoat inqilobi kabi tushuncha va ilmiy nazariy konsepsiyalar paydo bo'ldi.

D. Bell 1962 yilda garb dunyosida shakllanayotgan yangi industrial jamiyatni tadqiqi muammolariga to'liq bag'ishlangan keng qamrovli maruzasini e'lon qiladi.⁸ Uning fikricha tarix jamiyatda texnika taraqqiyotining darajasiga bog'liq holda rivojlanadi. U jamiyat taraqqiyotining: industriyagacha, industrial va postindustrial bosqichlarini ajratiladi va boshqalar tomonidan ishlab chiqildi⁹. K. Marksning o'limidan 90 yil keyin ham kapitalizm garbiy yarimsharda hukmronlik qilmoqda, kommunistik harakat asosan agrar va industrial davlatlarda yuzaga keldi, ularda "sotsialistik rejalashtirish" industrilallashtirishning sezilarli darajada olg'a siljishiga yordam beradi. Lekin sotsialistik tizim asosan 73 yil yashagandan so'ng halokatga uchradi. Faqat Xitoyda sotsializm g'oyasi asosida industrial jamiyatni qurilishi jadal boshlandi. Ikkinchi bir mam-

⁷ Qarang. 1БеллД "Грядущее пост индустриальное общество", М: "Academia" 1999 г, KhanH, WienerA.J. The Year 2000 N. Y. 1967, Brzezinski Zb Between Two Ages: America's Role in the Tehnetronic Era. N.Y., 1970 . Keniston K. Youth and Dissent N.Y. 1971. Уистоков новой цивилизации. М.:Дело, 1993. 2018. ENGAGEMENT AND POLITICS IN THE CONTEXT OF INDUSTRIAL SOCIETY . July 26, ISSN.A. Touraine The post-industrial society. 1971. Reinhard Bendix. Work and Authority in Industry.1956. Ralf Gustav Dahrendorf. Class Conflict in Industrial Society .1959. Seymour Martin Lipset. Social Mobility in Industry Society. 1959.

⁸ БеллД. Грядущее пост индстриальное общество. М: "Academia" 1999 гю С 21

⁹ QodirovaL.B. "Jahon sivilizatsiyalari tarixi" o'quv-uslubiy qo'llanma. 10-bet, Guliston, 2015

lakat Shimoliy Koreyada esa sotsialistik jamiyat hali ham mavjud, albatta bu mamlakatdagi bu tizim odamlarga baxt keltiradi. Bell kapitalizmning halokati hali beri yuz brmasligiga ishonch bildirdi.

Lekin shu bilan birga kapitalistik tizimning funksonal asoslari o'zgarib, yangi jamiyatning aniq belgilari yaqqol korinmoqda. Tarixiy o'zgarishlar muhim yo'nalishlarda sodir bo'lmoqda. Iqtisodiy funksiyalarning boshqa asosiy ijtimoiy funksiyalarga munosabati birinchi bo'ladi. Marks kapitalistik tuzumni halokatiga iqtisodiy tizimning ishchilarni ekspluatatsiyasi sabab bo'ladi va siyosiy to'ntarish yuz berib jamiyatning ijtimoiy xili bartaraf etilib, yangi ijtimoiy tartib o'rnatiladi deb bashorat qilgan edi. Shu bilan bir vaqtda Dyurkgeym industrial jamiyat nazariasiga asoslanib, qonunsizlik manbasi va ijtimoiy hayotni yemirilishida iqtisodiy funksiyalarni o'zini ko'rishini cheklaydigan mexanizmlarni yo'qligida ko'rdi. "Ijtimoiy funktsiya axloqiy intizomsiz yashay olmaydi" deb tushunirdi u 1890 yilda, Aks holda individual ishtahalardan boshqa hech nima qolmaydi qaysiki u o'z tabiatiga ko'ra cheksiz va, agarda ularning ustida nazorat mavjud bo'lmasa, ular o'zini ushlab tura olmaydi. Haqiqatan ham bizning jamiyatimizda hozirgi kunlarda iqtisodiy faollik kuchayib borayotgan bir paytda individlar turli noqonuniy yo'llar bilan boyishga harakat qilib mavjud qonunlarni chetlab o'tib, ijtimoiy adolat tamoyillarini oyoq osti qilmoda. Dyurkgeym aytganidek unga qarshi qonun va axloqni to'siq qilib qo'yishga harakat qilmoqda. Lekin korrupsion holatlar, yildan yilga kuchayib bormoqda, bunga qarshi davlat hokimiyatining chora tadbirlari bilan birga "Ijtimoiy funktsiya axloqiyintizom"ni shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday sotsiuminf asosiy muammosi sinfiy ziddiyat emas, qaysiki u ish haqi sohasida cheklanmagan qo'shimcha jihat bo'lib bo'lib qoldi., asosiy muammo bu yerda iqtisodiy funktsiyaning boshqarilmaydigan jihati bo'lib qolmoqda, qaysiki hatto davlatni aralashuvi (ayrim holda) kuzatilsa ham. ... Lekin asosiy dalil yaqqol ko'rinib turibdi. Iqtisodiyotning avtonomiyasi (uni boshqaradigan odamlarning hokimiyati) nihoyasiga yetmoqda. Boshqaruv tizimining yangi, sifat jihatidan a'lo tizimlari paydo bo'ladi. Jamiyat ustidan nazorat qilishni asosan iqtisodiy mazmuni tugaydi, va ko'proq siyosiy tus oladi.

Olvin Toffler konsepsiyasi. Olvin Toffler (1928-2016 yil.) Amerikalik sotsiolog, futurolog., Kornell universiteti professori. Ozining "Uchinchi to'lqin" va boshqa asarlarida insoniyat XXI asr boshlarida ijtimoiy global muammolarga duch kelishini aytdi. Insoniyat yangi texnologik inqilobni boshidan kechiradi. Insoniyat birinchi to'lqin-agrar sivilizatsiyani, uning o'rniga kelgan ikkinchi to'lqin – industrial sivilizatsiyadan yangi industrial sivilizatsiyaga o'tadi.

Navbatdagi to‘lqin tarixda ulkan burilish bo‘lib, sotsium transformatsiyasi, ijtimoiy va individual turmushning barcha shakllari har tomonlamma o‘zgaradi. - Texnologik o‘zgarishlar asta-sekin evolyutsion yo‘l bilan yetishib boradi, Natijada ular iqtisodiy-ijtimoiy hayotda chuqur o‘zgarishlarga olib keladi Toffler yangi texnologik baza asosida industrial sivilizatsiyagacha bo‘lgan davrga qaytadigan jamiyat manzarasini chizishga harakat qiladi. Uning asosiy asarlari: ”Kelajak talvasasi ”1970, “Kelajak bilan to‘qnashuv” 1972, “Ekospazma to‘g‘risida” 1975, “Uchinchi to‘lqin” 1980, “Hokimiyat metaforfozasi ”1990 . Toffler 1983 yilda Xitoy islohotlarining me‘mori Den Syao Pin bilan uchrashdi va uni o‘z konsepsiyasi bilan tanishtirdi. Den Syao Pin unga ishonmagan bo‘lsada lekin Tofflarning g‘oyalaridan Xitoyda o‘tkazilayotgan islohotlarda foydalandi. Xitoy rahbari Szinpin xitoy rahbariyatiga Tofflarning asarlarini o‘qishni maslahat berdi.

Tofflarning fikricha, jamiyat taraqqiyotida to‘rt soha ishtirok etadi: Texno-, sotsio, info- va ruhiy soha. Shu sababli jamiyatda yangiliklarni harakatga keltiruvchi kuch sifatida texnologik inqiloblar chiqadi. Bunday inqilobning xususiyatidan uning asosida paydo bo‘ladigan sivilizatsiyaning mazmun-mohiyati belgilanadi. Otmishdagi birinchi texnologik inqilob oqibatida agrar sivilizatsiya paydo bo‘ldi. Bu sivilizatsiyaning asosiy belgilari: yer – iqrison, oila va siyosiy tashkilot, madaniyat; 2 . oddiy mehnat taqsimotining hukmronligi va bu bilan bog‘liq kasta va sinflar: zodagonlar, ruhoniylar, harbiylar, qullar yoki qaram dehqonlar; 3. qattiq avtoritar hokimiyat.; 4 sotsial mavqe-individning va ijtimoiy guruhning mavqeini belgilaydigan parametr; 6 iqtisodiyot desentralizatsiya qilingan, har bir jamoa o‘ziga kerakli bo‘lgan mahsulotni katta qismini ishlab-chiqarad. Bu sivilizatsiya o‘rniga ikkinchi to‘lqin- yangi industrial sivilizatsiya keladi. Uning ramzi zavod trubasi, asosiy dvigateli- sanoat ishab chiqarishining muskul kuchi ishchilar.Industrial zavod tizimi ommaviy mahsulot uchun eshikni ochadi. Ommaviy savdo, ommaviy madaniyat. Shunga mos holda ijtimoiy soha industrial texno sohaga mos va asoslanadigan ijtimoiy soha paydo bo‘ladi. Fabrikaga mos nuklear oila paydo bo‘ladi, korporatsiyalar, ommaviy ta’lim, maktab oliy maktab, kasaba uyushmalar, sa’nat, fabrikaning ekvivalenti bo‘lgan hukumat ham shakllanadi. Toifaviy tuzilma va bozorga yo‘naltirilgan tuzilmaga ega bo‘ladi. Turmush tarzi paydo bo‘ladi, bu hayot ijtimoiy kekinliklar, oilaviy fojialar bilan to‘lgan. Toffler kelajak jamiyatni industrial sivilizatsiyagacha mavjud bo‘lgan sivilizatsiyaga yangi texnologik bazada qaytish manzarasini chizishga harakat qiladi.

XX asrning ikkinchi yarmida industrial sivilizatsiya doirasida tex-

nologik va ijtimoiy transformatsiyaning yangi to'liqini boshlandi. Yangi paydo bo'lgan Kompyuterlar, lazer texnologiyasi, biotexnologiya, gen injenerligi, informatika, elektronika, tele-video kommunikatsiyalar postindustrial sivilizatsiyaning poydevori bo'lib xizmat qildi. Qayta tiklanadigan yoqilg'idan foydalanishga katta e'tibor qaratildi. Mashinalshgan texnologiyaga asoslangan Industrial ishlab chiqarishdan farq qilib, postindustrial ishlab chiqarishning rivojlangan sohalari axborot, ijodkorlik va intellektual texnologiyaga ya'ni ilm-fanga asoslandi.

Insoniyat sivilizatsiyasidagi texnologik o'zgarishlar oldingi davrlarlarga qaraganda yanada tezlashdi, jamiyatda yuz yillar davomida bo'lgan o'zgarishlar o'n, besh va uch yil mobaybida yuz bermoqda. Agarda, o'rta asrlar va industrial jamiyatda shakllangan tarixiy shaklning jadallashuv sur'ati saqlanib qolsa (har bir keyingi bosqich oldingiga qaraganda, 1,5 marta qisqaroq). Uning jadallashuv sur'ati 1,4 martagacha qisqaradi.

3. Postindustrial sivilizatsiyaning manzarasi. XX asrning so'nggi choragida rivojlangan mamlakatlar postindustrial sivilizatsiyaga o'tish davriga kirdi Hozirgi rivojlanib borayotgan jamiyatimiz postindustrial jamiyatning o'tish davrini boshdan kechirmoqda. Yevropa, AQSh va dunyoning ba'zi mamlakatlari esa postindustrial jamiyatni boshdan kechirmoqdalar. Г.Кани va Э Винернинг "Год 2000" nomli asarida <<постиндустриальное общество>> iborasini ishlatib bu atamaga faqat iqtisodiy ma'no beradi. Ya'ni postindustrial jamiyat dastavval iqtisodiy sohaga ta'siri va birinchi navbatda yangi jamiyatning belgilari aynan bu sohada namoyan bo'lishi, jamiyatning o'zgarishiga olib kelishi va asta sekinlikda industrial jamiyatning barham topishi va postindustrial jamiyatiga o'tish jarayonini ham o'z ichiga oladi Amerikalik siyosatshunos B. Bzejnskiy ilm-fanning insoniyat sivilizatsiyasiga ta'sirini shunday ko'rsatadi: "ilm-fan inson va uning jamiyatdagi o'rniga katta ta'sir o'tkazishi, rivojlangan davlatlarda zamonaviy o'zgarishlarga olib kelishi mumkin". Bundan tashqari Z. Bzejnskiy "texnotron jamiyat" iborasini kelajak jamiyatning aniq ta'rifi deb hisoblaydi. Texnotron jamiyat mavjud eski jamiyatning ma'naviy psixologik, ijtimoiy va iqtisodiy xususiyatlari, texnologiya, elektronika shuningdek, kompyuter va kommunikatsiya sohalari ta'sirida shakllanadi. Axborot va yangi texnologiyaning rivojlaniishi, XX asrning so'nggi 30 yilligida yuz bergan yangi texnologik inqilob, uning umumiy komputerlashtirish va jamiyatning axborotlashuvi, ishlab chiqarishning intellektuallashuvi kabi jarayonlar texnotron jamiyatni mazmun-mohiyatini tashkil etdi.

Yaponiya axborotlashgan jamiyat instituti asoschisi va prezidenti Yonedzi Ma'suda Axborotlashgan jamiyatni quyidagicha ta'rifladi:

«Kompyuter texnologiyalari va kommunikatsiya vositalarining yaratilishi natijasida kirib kelgan axborotlashgan davr sanoatlashgan jamiyatga shunchaki ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ta'sir qilibgina qolmay, katta o'zgarishlar natijasida tamomila yangi ko'rinishdagi inson jamiyatini yarata-di. Ana shu jamiyat axborotlashgan jamiyatdir»¹⁰. Ishlab chiqarishning intellektuallashuvi bu – ishlab chiqarish tobora fan asosida rivojlanish an'anasiga ega bo'lishi demak. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda intellektual mehnat bilan band bo'lgan aholi soni butun ishchi kuchining yarmiga yaqinlashmoqda. Bu yo'nalishda” AQSh va Yaponiyada bu ko'rsatkich yanada yuqori. Agar Afrika aholisining uchdan ikki qismi qishloq xo'jaligi sohasida band bo'lsa, AQShda agrar sohada ko'rsatkich 3% dan oshmaydi. AQShda axborot texnologiyalari sohasida 80% aholi mehnat qiladi.»¹¹

Insoniyat XX asr davomida fan va texnika, iqtisodiyat va madaniyat sohasida katta yutuqlarga erishdi. Insonning beqiyos imkoniyati va ijodiy qobiliyatlari namoyon bo'ldi. Yadro quvvatiga ega bo'lish, raketasozlik kosmonavtika, gen muhandisligi, mislsiz iqtisodiy o'sish, komputer dizayni, kinosanoat va boshqa sohalar jadal rivojlandi.

Hozirgi kunda – Internet tarmog'i barcha a'nanaviy axborot tizimlari- telekommunikatsiya, teleradio eshittirish, ma'lumotlarni xalqaro miqyosda faol almashtirish va komputerning texnologik imkoniyatlarini uyg'unlashtirib ishlatgani uchun u bir necha vazifani – axborot va bilimlar manbai; ommaviy axborot vositalari; jamiyatning barcha sohalar: ta'lim-tarbiya, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va shunga tegishli axborot xizmatlari tizimi; istiqbolli bozor va milliy kompaniyalarning xalqaro axborot maydoni va jahon bozoriga eng tejimli va tezkor usulda qo'shilish imkonini bergan vositaga aylanib bormoqda. Eng so'ngi yutuq bu sun'iy intellektning yuzaga kelishi bo'ldi.

Jamiyatshunos olimlar XXI asrga nisbatan “axborotlashgan jamiyat” iborasini ishlatishmoqda. Amerikalik tadqiqotchi J.Nesbitt esa o'z asarlaridan birida postindustrial jamiyatni “axborot jamiyati” deb ham atadi. “Axborotlashgan jamiyat” tushunchasi ilk marotaba 1966-yilda Yaponiyada ilmiy-texnik va iqtisodiy yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot qilgan bir guruh olimlarning ilmiy ma'ruzalarida qo'llanilgan.¹² Ma'ruzada axborotlashgan jamiyat o'zida yuqori sifatli axborotni mujassam

¹⁰ Масуда.Ё.«Информационное общество». Вашингтон, 1981.

¹¹ Ergashev Sh, Xodjayev B, Abdullayev J. Jahon tarixi (1991-2017-yillar) 11-sinf o'quvchilari uchun darslik. 135-bet, T: “TURON-IQBOL” 2018.

¹² Otaqo'ziyeva. S “Axborotlashgan jamiyat” shakllanishining ilmiy va nazariy asoslari. 2015.

etuvchi, uni saqlash, tarqatish, va foydalanish uchun zarur shart-sharoitni yaratgan jamiyat sifatida aks etgan. D. Bell, O. Tofflerlar konsepsiyasiga muvofiq, axborotlashgan jamiyat – bu postindustrial jamiyatning bir ko‘rinishidir. Axborotlashgan jamiyat haqida yana bir taniqli yaponiyalik jamiyatshunos olim Yonedzi Ma’suda shunday ta’rif beradi: «Kompyuter texnologiyalari va kommunikatsiya vositalarining yaratilishi natijasida kirib kelgan axborotlashgan davr sanoatlashgan jamiyatga shunchaki ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ta’sir qilibgina qolmay, katta o‘zgarishlar natijasida tamomila yangi ko‘rinishdagi inson jamiyatini yaratadi. Ana shu jamiyat axborotlashgan jamiyatdir».¹³

Bu olimlarning konsepsiyasini asosida jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarini hisobga olib, axborotlashgan jamiyatni, iqtisodiy taraqqiyot bosqichlarida asosiy fenomen sektorlar hisoblangan: qishloq xo‘jaligi, sanoat va xizmat tarmoqlaridan keyingi bosqichda shakllangan axborotlashgan tarmoqning vujudga kelishi bilan bog‘laydilar. Ularning fikricha, sanoatlashgan jamiyatning asosi – kapital va mehnat hisoblansa, axborotlashgan jamiyat negizida axborot va bilimlar yotadi. Ba’zi olimlar tomonidan “axborotlashgan jamiyatni” G‘arb mamlakatlarida vujudga kelgan rivojlangan postindustrial jamiyat sifatida izohlanadi. Masalan G‘arb olimlaridan biri professor U. Martinning fikricha “Axborotlashgan jamiyat shunday jamiyatki, aholi turmush darajasi, mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari ushbu jamiyatda axborotning muhimligi va undan keng foydalanish darajasiga bog‘liq. Bunday jamiyatda mehnat va dam olish shakllari, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa muhim tarmoqlar axborot va ilm sohasidagi erishilgan yutuqlarga bog‘liq bo‘ladi”¹⁴ shunday ta’rif berib o‘tadi.

XX asrning songi o‘n yilligidan boshlab texnologik jarayonlar ijtimoiy munosabatlarni jiddiy modifikatsiya qildi, ommaviy istemolni tug‘dirdi va ularga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish vositalarini yaratdi. Shu bilan bir vaqtda unifikatsiya qilingan ishlab chiqarish va istemoldan vos kechish yuz berdi. Boshqacha aytganda ishlab chiqarish va istemolni individuallashtirish jarayoni jadallashdi.

Tarixiy taraqqiyotning o‘n ikki ming yillik (mezolitdan boshlab) halqalari to‘g‘risida to‘plangan bilimlarga asoslanib, zamonning dolzarb muammolariga javob topish mumkin. Insoniyatni XX asr oxirida qamrab olgan, odatdagi turmushni buzib tashlagan bo‘ronli o‘zgarishlarning maz-

¹³ Масуда Ё. «Информационное общество». Вашингтон, 1981.

¹⁴ Мартин. У. Дж. «Информационное общество: Реферат «Теория и практика общественно-научной информации». Ежеквартальник. — ИНИОН, 1990. №3. — 115 с.

muni va uning istiqbollari qanday? Dunyo va mamlakatimizda mavjud bo'lgan qadriyatlardan nimalar o'tmishga ketadi, nimalar tarixiy meros va qadriyat sifatida kelajak avlodlarga uzatiladi va ming yillar davomida tug'ilgan tub yangiliklardan qaysilari hayotga qobil, kelajakda saqlanib, haqiqatda qoladi va yangi sivilizatsiyani skeletini tashkil qiladi?

Hozirgi davrni baholashda tarixiy yondashuvning afzalligi shundaki (tarixni yuz bergandan keyingina, ma'lum bir vaqt o'tgandan keyin o'rganish mumkin, lekin bo'lib o'tgan tarixiy voqea-hodisalarni o'zgartirib bo'lmaydi), sodir bo'layotgan voqealarni uzoq bo'lmagan va uzoq o'tmishdagi o'xshashliklarini topish va tarixiy vaqt shkalasi bo'yicha yuz berayotgan o'zgarishlarning miqyosini baholash mumkin. Albatta, o'xshashlik mutloq dalil bo'la olmaydi. Har bir tarixiy lahza o'ziga xos-individual va takrorlanmas bo'lganidek, har bir tarixiy voqea o'ziga xos va qaytarilmas bo'ladi. XXI asr insoniyatning go'yoki tartibga tushgan bir me'yorda rivojlanayotgan hayotiga jadal va bo'ronli tusda kirib keldi. Insoniyat kutmagan, misli ko'rilmagan tarixiy voqealar bir asr yillikda sodir bo'ldi. Bu voqealar dunyoning milliardlab aholisining hayotida tub burilishlarni yuzaga keltirib, hammani hayrtaga soldi. Dunyo mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotida ilgari ko'rilmagan yangi jarayonlar boshlandi. Bu jarayonlar ilgari ko'rilmagan, amaliyotda sinalmagan edi.

Shu bilan birga, XX asrning 50-yillari ikkinchi yarmida boshlangan ilmiy texnika inqilobi (ITI)ning rivojlanishining yangi bosqichi insoniyat taraqqiyotiga o'z ta'sirini keng qamrovli amalga oshirdi (globalizatsiya, integratsiya, ommaviy madaniyat). Axborot texnologiyalari asri (XX asrning 80-yillaridan) dunyoning barcha xalqlari, davlatlari va jamiyatlari hayotida tub o'zgarishlarga olib keldi. Yangi axborot texnologiyasi shiddat bilan insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotida ustuvor ahamiyat kasb etdi. Inson tafakkuri bu ta'sirning hayotbaxsh va shu bilan birga, halokatli kuchini mushohada qilish hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot texnologiyalari jamiyat hayotining barcha jabhalariga ta'sir qilib, kutilmagan natija va oqibatlarni sodir bo'lishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Davlat va jamiyatlar hayotining barcha sohalarida, davlatlararo munosabatlarda, madaniyatlarning o'zaro munosabatlarida axborot texnologiyalari muntazam ishtirok etib, keskin siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. Ishlab-chiqarish jarayoni, texnika-texnologiyalarda axborot texnologiyalarining kuchli ta'siri natijasida tub burilishlar boshlandi. Xalqaro maydonda axborot texnologiyalaridan turli davlatlar o'z manfaat ehtiyojlarini amalga oshirish vositasi sifatida foyda-

lanmoqdalar. Axborot texnologiyalaridan unumli foydalangan davlat va taraqqiyot sur'atlari boshqalarga nisbatan yuqori bo'lmoqda.

XX asr oxiriga kelib, dunyo mamlakatlarida industrial jamiyatning tubdan o'zgarishiga sabab bo'ladigan, yangicha davrning ilk belgilari namayon bo'la boshladi. Bu jarayon asta-sekinlikda jamiyat hayotini iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy va ma'naviy jihatdan o'zgarishiga olib keldi. Texnologiyaning yangi turlari paydo bo'la boshladi.

XX asrning ikkinchi yarmida yuz bergan ilmiy texnika inqilobi ishlab chiqarish, texnologiya va ijtimoiy-siyosiy tuzilmada tub burilishlarga olib keldi. Yangi postindustrial jamiyat (sivilizatsiya)ning asoslari tug'ildi. Post industrial jamiyatga o'tish davrida texnologiyalar, iqtisodiyot, ijtimoiy-siyosiy tuzumning aralashligi hamda jamiyatning barcha sohalarida bir-birini kuchaytiradigan tushkunliklar qatori bilan tafsiflanadi. Yangi jamiyatning tug'ilayotgan ukladlari (texnologik, iqtisodiy, ijtimoiy-iqtisodiy) va yangi sivilizatsiya belgilarini o'zida olib boradi va o'tish davri bo'lgani uchun, ularning yetarlicha samaradorligi bo'lmagani, qiyin shakllanishi bilan shartlanadi. Faqat ikkinchi tarixiy (uzoq muddatli siklda) postindustrial sivilizatsiya o'zining shaxsiy asosida quriladi.

Rivojlangan dunyo axborot texnologiyalaridan o'z iqtisodiy-siyosiy maqsadlarida unumli foydalanishni boshladi. Shu bilan birga qudratli davlatlar rivojlanayotgan dunyoga nisbatan yuritayotgan siyosatida g'arazli maqsadlarda ham foydalanmoqda. Jumladan, XXI asrning birinchi o'n yilligida turli mamlakatlarda yuz bergan sariq inqiloblar, arab dunyosini chulg'ab olgan permanent inqiloblar (Misr, Liviya, Yaman Arab respublikasi, Suriya)ning amalga oshirishda AQSH va G'arbiy Yevropaning ayrim mamlakatlari axborot texnologiyalaridan unumli foydalandilar. Bu mamlakatlarda yuz bergan "inqiloblar" G'arb dunyosining bu hududlardagi ta'sirini kuchayishiga hamda **siyosiy** beqarorlikka olib keldi.

Postindustrial jamiyat bu mehnat unumdorligining eng yuqori darajasi, yuqori darajadagi hayot sifatiga ega bo'ladi, va yuqori texnologiyalar va venchur biznesiga hamda innovatsion iqtisodiyotga asoslanib yashaydi. Xo'jalikni yuqori texnologiyalar va ijtimoiy rivojlangan tuzilmasi postindustrial jamiyat nomini oldi. Insoniyat intellektual yetakchilik, innovatsiyaga asoslangan va xizmat ko'rsatish sohalari yetakchi bo'lgan yangi eraga kirdi. Hukumatlar ijtimoiy masalalarga, ta'lim va ilmiy ba'zalarini yaratishga e'tibor qaratadi.

Postindustrial jamiyatning rivojlanish belgilari:

- Ishlab chiqarishning asosiy omili axborot bo'ladi. Shu sababli bunday jamiyatning xili axborot jamiyati deb aytiladi. Bu jamiyatda ijtimoiy faollik yuqori darajaga yetadi, jamiyat yanada demokratlashadi. Jamiyat-

da insonning mavqeini kapital emas, jamiyatga foyda keltiradigan bilim, malakalar belgilaydi- meritokratiya tamoyili amalga **oshiriladi**. Siyosatda plyuralizm qadriyatlarini, fuqarolik jamiyati va demokratik murosa eʼlon qilindi.

Nano texnologiya. ATI, quyosh, shamol energiyasi, gen injeneriyasi, immunobiologiya va boshqa aniq-tabiiy fanlarning yutuqlari ishlab chiqarishga keng joriy qilinadi. postindustrial jamiyatda aholining katta qismi xizmat koʻrsatish sohasida ishlaydi.

Postindustrial mamlakatda yalpi mahsulotning 65-80 foizi xizmat koʻrsatish sohasiga, sanoat ulushi esa 20-30 foizni tashkil etadi. Bunday mamlakatlarda qishloq xoʻjaligiga 3 foiz toʻgʻri keladi. Bu raqam Germaniyada xizmat koʻrsatish sohasiga 69 foiz, sanoatga 30 foiz, Fransiyada 77/ 20/, Angliya 76/23, AQSh 76/ 22, Yaponiya -77/22 ga, Estoniyada esa 65/28 ga toʻgʻri keladi. Bu maʼlumotlar 2009-20010 yillarga tegishli.

Mikroelektronika amalda inson faoliyatining barcha sohalari boʻyicha kompyuter va mikroprotessor texnikasini qoʻllashga yoʻl ochib berdi. U unumdorlik va operatsiyalar aniqligini koʻp marta oshirishga imkon berdi. Insonning jismoniy mehnatini bir maromlikdan, va aqliy mehnatdan ozod qildi, texnologik jarayonlarni optimallashtirdi.

XX asrning ikkinchi yarmidagi ilmiy-texnik inqilob soʻnggi yuz yil davomida ilm-fan rivojlanishining qonuniy natijasi boʻldi. Bu inqilobning asosiy belgilari tabiiy va sintetik materiallardan mahsulotlarni ommaviy ishlab chiqarish, mashinalardan keng foydalanish, ishlab chiqarishning konveyerli liniyalarini, zavod-avtomatlarni va sanoat robotlarini yaratish boʻldi. ITI jahonning ilgʻor mamlakatlarini sivilizatsiyaning industrial bosqichidan sifat jihatdan yangi industrial sifatlarga ega boʻlgan jamiyat davriga olib chiqdi. Industrial jamiyatning gullab yashnasining nihoyasi boʻlgan XX asr boshlarida bu jamiyatning kuch qudrati tugab borayotgani, tub oʻzgarishlar muqarrar ekanligi maʼlum boʻldi. Tadqiqotchi N.Tangriyev bu haqda shunday deydi: “XX asrning boshlaridayoq jahonning mashhur olimlari kishilik jamiyati oʻz taraqqiyotining Noosfera davri – Aql bosqichiga qadam qoʻygani haqida bong urgan edi”¹⁵. Bu yangi davrning ijtimoiy –falsafiy taʼlimoti negizida tabiat, jamiyat va insonning uygʻun rivojlanishini saqlab qolish, butun sayyora boʻylab insonparvarlik ruhini qaror topishi kabi ezgu maqsadlar yotadi .

Nanotexnologiya. “**Nanotexnologiya**” atamasini ilk bor yapon olimi Norio Taniguchi 1974-yil fanga kiritdi. “Nano”-yunon tilida “mitti” maʼnosini bildiradi. Ilk nanotexnika asboblari Shvetsariyaning IBM kom-

¹⁵ Tangirov N. «Noosfera davri: tarixiysohoqlar, yangi imkoniyatlar». Taffakur. Toshkent. 2008. 85 bet

paniyasi laboratoriyalarida yaratilgan. Har bir nanometer (nm) bir metrning milliarddan bir qismiga teng o'lchamidir. "Nanotexnologiya tushunchasining mukammal tarifi mavjud emas, lekin hozirgi mavjud mikro-texnologiyaga o'xshash holda nanotexnologiya bu nanometr o'lchamlari bilan ishlovchi texnologiya ekanligi kelib chiqadi. Bu shunchalik kichik qiymatki, u atomlar o'lchamlari bilan taqqoslanuvchi ko'rinuvchi nur to'liqlari uzunligidan yuzlab marta kichik. Shuning uchun ham "mikro"dan "nano"ga o'tish bu miqdoriy emas, balki sifat o'tishi, moddalar manipulyatsiya sidan alohida atomlar manipulyatsiyasiga keskin o'tishdir"¹⁶.

Nanotexnologiya bu – moddani boshqarishdan atomni boshqarishga o'tish; o'lchami atom va molekular o'lchamlari bilan qiyoslanadigan elektron sxemalarni tayyorlash; nanomashinalarni loyihalash va ishlab chiqish; alohida atom va molekularni boshqarish, ulardan alohida mikroob'yektlarni yig'ishdir. Nanotexnologiya fizika, biologiya va kimyo fanlarining yutuqlariga asoslangan yangi zamonaviy ishlab chiqarishdir. Kelajak iqtisodiyotning asosi nanotexnologiya bo'ladi. Mikroelektronika fanining yangi sohasi nano elektronika fani jadal rivojlanmoqda. Bugungi global (yoqilg'i-energiya, ekologiya, sog'liqni saqlash, ishsizlik) muammolarning yechimini topishda nanotexnologiyalar jiddiy o'ringallaydi. Nanotexnologiyalardan jamiyat hayotining barcha sohalarida keng foydalanish tomon yo'l tutildi. Yaratiladigan nanotexnologiyalar XXI asrda insoniyat taraqqiyotida ulkan sakrashlarga olib keladi. Insoniyat jamiyati turmush-tarzi misli ko'rilmagan darajada o'zgaradi. Bir so'z bilan aytganda nanotexnologiya bugungi kunda yangi fan sifatida namoyon bo'layotgan istiqbolli soha bo'lib, uning barcha xususiyatlari bilan yaqindan tanishish hamma uchun qiziqarli va hayotiy zarurat hamda dolzarb masaladir.

Nanotexnologiyalarning rivojlanishi ustida dunyoda ko'plab olimlar ish olib bormoqda. Ular XXI asr davomida nanotexnologiyaning rivojlanishida bir qator natijalarni ko'zlamoqdalar. Masalan bugunga kelib "tibbiyot sohasida odamning tanasida paydo bo'ladigan barcha kasalliklarning oldini oluvchi yoki davolovchi molekulyar nanorobotlarni yaratish, gerontologiya sohasida insonlarning jismoniy boqiyiligiga, odam tanasidagi hujayralar qirilibishining oldini oluvchi, odam organizmi to'qimalarining ishlashini yaxshilash va qayta qurish uchun molekulyar robotlarni kiritishga erishish kabi juda muhim ilmiy ishlarni amalga oshirishmoqda". Bu kabi o'zgarishlar ham yurtimizda tibbiyot, biologiya, kimyo, texnologiya,, ITI sohalarining rivojlanishiga olib kelmoqda,

¹⁶ Primov U.R. "Nanotexnologiya istiqbollari" . Toshkent: "Kamalak" 2015.

Postindustrial jamiyatda nanotexnologiyalar-ishlab chiqarishning asosiy sohasiga aylanadi. Ilmiy jihatdan buni talqin qilgan olim Komil Muqimov o'zining "Mitti bunyodkorlar yoxud nanotexnologiyalar nima?" maqolasida shunday deydi: "Nanotexnologiyalar HP, NEC, IBM kabi yirik kompaniyalar uchun eng muhim ustuvor yo'nalishga aylandi. Bu kompaniyalar nanotexnologiyalar sohasida ilmiy izlanishlar va nano qurilmalarni ishlab chiqarishga tatbiq qilish uchun juda katta miqdorda mablag' ajratishmoqda".¹⁷

Bugungi kunda biz nanotexnologiyasiz dunyoni tassavur etishimiz qiyin. Dunyo olimlari tomonidan yangi texnologiyalar yaratilmoqda. Mitti zarrachalardan eng yirik ilmiy kashfiyotlargacha insoniyotni bir pog'ona yuqoriga olib chiqmoqda. Nanotexnologiyani rivojlantirish uchun rivojlangan davlatlar tomonidan bu sohaga juda katta mablag'lar ajratilib kelinmoqda.

Gen injenerligi shunday organizmlarni yaratish arafasida turibdiki, agar ular yaratilib, erkin tabiat qo'yniga qo'yib yuborilsa, odam nasliyiligi o'zgarishi mumkin (misol uchun, klonlashtirish). Biotexnologiya yo'nalishida jadal tadqiqotlar olib borilmoqda. Lekin biotexnologiyaning o'simliklar dunyosiga qo'llanilishi, o'simlik navlarini o'zgarishiga olib keldi. Navlarning o'zgarishining cheksiz davom etishi mumkin emas. Yratilgan gibrid navlar insonning sog'lig'iga ijobiy va ta salbiy ta'sir qilishi aniqlangan. Biotexnologiya sohasidagi yangiliklarni suiste'mol qilish, inson ruhiga ta'sir qilish uni zombiga aylantirish xavfini tug'diradi.

Biotexnologiya. Texnologiyalarning o'zgarishining oldingi safida biotexnologiya bo'ldi. U molekulyar biologiyaning kashfiyotlarini amalga tatbiq qiladi. Qaysiki, u haqiqiy to'ntarish qilib, nasliy buyumning kodini o'qish va tuzatish kiritishga qobil gen injenerligining asoslarini qo'ydi. Bu mikroorganizmlar, o'simlik va hayvonlarning yanada mahsuldor turlarini maqsadli yo'naltirilgan holda yaratish imkoniyatini beradi. Irsiy kasalliklarni tuzatish, dori-darmonlar, fermentlarning yanada samarali turlarini dasturlashtirilgan xususiyatlar bilan materiallarni ishlab chiqish, eng mahsuldor hayvonlarni klonlashtirishda biotexnologiya juda katta ishlarni bajaradi.

Jahon iqtisodiyotida biotexnikaning o'rni tobora kuchayib bormoqda. Barcha rivojlangan mamlakatlarda biotexnologiyalardan foydalanish ustivor ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy Yaponiyaga qarang: Yaponiya iqtisodiyotining asosi uch soha – mikrotexnika, biotexnologiya va informatikada yotadi. Inson ular bilan nafaqat ishlab chiqarish sohasida, balki

¹⁷ Muqimov.K "Mitti bunyodkorlar yoxud nanotexnologiyalar nima?". T: "Kamalak" 2016. 5-bet

kundalik hayotida ham ish ko'radi. Insonning oziq-ovqati va dori-darmoni biotexnologik jarayonlarni qo'llash bilan uyda yasalgan mikroto'lqinli pech, suyuq plazmali rangli televizorlar, kompyuter va fakslar bilan jihozlangan. Odam avtomobilning eng so'nggi elektron tizimlari bilan jihozlangan modellardan foydalanadi. Yaponiyada tashqi muhit bilan o'zaro munosabatda eng yangi ilmiy texnologiyalarni qo'llash asosida tabiatga yetkaziladigan zararlarni keskin kamaytirishga erishildi.

Rivojlangan mamlakatlar orasida Yaponiya jahonda eng zamonaviy texnologiya bo'yicha yetakchi davlatga aylandi. Buning sababi, Yaponiyaning fan yutuqlarini keng hajmda ishlab chiqarishga jadal tatbiq etishi, iqtisodiyotni demilitarizatsiya qilishi, ta'lim tizimiga jiddiy e'tiborni qaratishi edi. Bu yo'nalishda Yaponiya noosfera sivilizatsiyasiga tomon yo'lining etalonini belgilaydigan mamlakat deb qaralishi mumkin.

Yapon mo'jizasi juda og'ir va mashaqqatli bo'lib, bu millionlab mehnatsevar yapon millatining ulkan mehnat natijasi edi. Yapon olimi, konstruktori, muhandisi, ishchisi, programmisti va dizayneri hayoti industrial ritmning qattiq doirasiga kiritilgan. Yapon fuqarosiga xos sabr-toqat, chidam, yangilikka intilish, adolat, birdamlik, halollik, ma'suliyatni his qilish, yuksak milliy o'zlikni anglash, korrupsiyadan xoli bo'lish, insonparvarlik yapon mo'jizasini amalga oshirish omili bo'ldi. Yuqori mehnat unumdorligi aqliy va jismoniy mehnatni ulkan sarfi asosida yuzaga keltiriladi. Aqliy va jismoniy mehnat o'rtasidagi chegara yo'q bo'lmoqda, lekin aqliy mehnat ustuvor bo'lmoqda.

Yangi sivilizatsiyada fanning hal qiluvchi roli yaqqol ko'rinmoqda. XX asrning 50-60 yillarida jamiyatshunos olimlar yangi jamiyat yuzaga kelayotganini bashorat qildilar (Raymon Aron, Uilyam Rostou). Navbatdagi ulkan ilmiy inqilobning belgilari yuzaga kelmoqda, qaysiki, u rivojlanayotgan, notekis qonuniyatlari o'zgarayotgan dunyoning yangilangan manzarasini yaratadi. Yangilangan fan postindustrial sivilizatsiyaning yo'lboshchisi va asosi bo'lib xizmat qilishi lozim. Nafaqat ishlab chiqarishning fanga asoslanishi, balki jamiyatning butun hayoti uning dinamikasi asosi bo'ladi. **Tayanch iboralar.** Adol'f Bern, Xalq kapitalizmi, ijtimoiy mobillik, yangi industrial jamiyat, Viner, Olvin Toffler, yangi texnologiya, yalpi farovonlik jamiyati.

Takrorlash uchun savollar

1. XX asrning 50 yillaridagi garbdagi ilk ijtimoiy konsepsiyarning kurtaklarini ayting
2. Adol'f Bern asarlarining assiy mag'zi nimada edi?
3. Yangi nazariyalarning asosiy dalili nima edi.?

Mustaqil ish mavzulari

1. Yangi industrial jamiyat konsepsiyalarining mazmun mohiyati.
2. Daniell Bell konsepsiyasi
3. Olvin Toffler nazariyasining asosiy unsurlari
4. Postindustrial yoki yangi industrial jamiyat tushunchasi

25-mavzu. XXI asr sivilizatsiyasi

Yerdagi saxovat ona tabiatni vaxshiy yo‘q qilayotgan o‘zini inson deb atayotgan maxluqlar kim ular?

Zaminning unsiz nidosi

1. Postindustrial jamiyatga o‘tishda iqtisodiyotdagi o‘zgarishlar
2. Ijtimoiy-siyosiy sohada tub o‘zgarishlar
3. Insondagi o‘zgarishlar.

1. Postindustrial jamiyatga o‘tishda iqtisodiyotdagi o‘zgarishlar

XXI asrning birinchi choragi boshlanishida postindustrial sivilizatsiyaning o‘z asosida qaror topishi uchun keng yo‘l ochildi. Bu o‘smirlik fazasi, yangi jamiyatning shakllanishi va tarqalishi, qachonki, u birinchi postindustrial sivilizatsiyaning asosiy belgilari va afzalliklarini o‘zida aks ettiradi (u boshqa nom olishi ham mumkin). Lekin bu nomni qanday bo‘lishini aniqlash keyingi avlod olimlarining ishi. Har holda bu uzoq muddatli sikl sivilizatsiyalarning navbatdagi triadasida o‘tish davrini tugallaydi. Yangi sivilizatsiyaning unsurlari asta-sekin qiyinchilik bilan qaror topayotgani va uning mavjudligi va kuchga kirayotganini ko‘rish lozim.

Yangi sivilizatsiyaning shakllanish davrida iqtisodiy ukladlar va bozor munosabatlari, boshqaruv tizimida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. 1. XX asrning so‘nggi choragi va XXI asr boshlarida iqtisodiy o‘zgarishlar kuzatildi. Birin-ketin jahon iqtisodiy tushkunliklari yuz berdi.

Postsotsialistik mamlakatlarda ishlab chiqarish va turmush darajasining pasayishi tinchlik davrida yuz berdi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda qashshoqlik va ochlikning yangi to‘lqini boshlandi.

Industrial ishlab chiqarishning iqtisodiy usulining sotsialistik varianti o‘z umrini o‘tab bo‘lgani yaqqol ko‘rindi. Bozor munosabatlari hukmron bo‘lgan mamlakatlarda ham iqtisodiyotda jiddiy o‘zgarishlar zaruriyati mavjudligi ko‘rinib qoldi. Uni yangi postindustrial ishlab chiqarish usuli bilan almashtirish vaqti keldi. Butun dunyoni sanoat inqilobi davridan keyin tub iqtisodiy o‘zgarishlar qamrab oldi. Iqtisodiyot tuzilmasi, mulkchilik munosabatlarida tub siljishlar boshlandi. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi sezilarli qisqardi. Bozor va raqobat qayta uyg‘ondi.

Kichik va oʻrta biznes salmoqli oʻrinni egallay boshladi. Ayniqsa, aholi uchun isteʼmol mollari va xizmatlar sohasida kichik va oʻrta biznes ustuvor ahamiyat kasb etdi.

Madaniyat. Hozirgi kunda barcha mamlakat va hududlarda zamonaviy texnika va texnologiya bilan yevropacha turmush tarzi ham kirib kelmoqda. Gʻarb dunyosi keng hududlarni mustamlaka qildi va bu joylarda oʻz mafkurasi, turmush tarzini singdirishga harakat qildi va bu insoniyat sivilizatsiyasiga kuchli taʼsir oʻtkazdi. Anʼanaviy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar tushkinlik holatida turibdi. Mustamlakaga aylantirilgan Amerika, Osiyo va Avstraliyaning betakror oʻziga xos sivilizatsiyalari yoʻq qildim. XX asr boshlarida O. Shpengler va A. Toytnbi gʻarbning hukmronligi oʻtkinchi ekanligi, vaqt oʻtishi bilan yangi avlod va birlashgan dunyo oʻzini tashkil etgan turli madaniyatlar oʻrtasida tenglik shakllanishini koʻrsatib oʻtgan edi. Industrial jamiyatning shakllanishi va rivojlanishi jarayonida gʻarb sivilizatsiyasining butun dunyo boʻylab ekspansiyasi boshlandi Postindustrial jamiyat sharoitida madaniyat ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Rivojlangan mamlakatlar aholisining turli qatlamlarini oziq-ovqat, kiyim, qulay uy-joy, maishiy elektron va axborot texnikasi (audio-video, kompyuter)ga boʻlgan ehtiyojlarini nisbatan yuqori darajada qondirilgan. Tabiiy ehtiyojlarni toʻla qondirgan odam endi madaniy va maʼnaviy ehtiyojlarini toʻlaroq qondirishga harakat qiladi. Sanʼatning turli sohalarini egallash yoki undan bahramand boʻlishga intiladilar. Zamonaviy axborot texnologiyalarning yutuqlari oliy madaniyatga ommaviy ravishda qiziqishni kuchaytiradi. Hozirgi kunda dunyoning eng mashhur muzeylari Luvr, Ermitaj, Britaniya muzeyi eksponatlarini koʻrish yoki mashhur teatrlarda opera-baletni koʻrish, taniqli bastakorlarning mumtoz asarlarini tinglash uchun uydan chiqish shart emas. Televizor, videopleyer, dvd, kompyuter yoki internet tarmogʻiga ulanish kifoya. Hozirgi kunda 3D, 5D va 7D formatdagi qisqa metrajli kinolar odat tusiga kirdi.

Anʼanaviy kinoteatrlar oʻz ish uslubini oʻzgartirishga majbur boʻlmoqda. Rivojlangan mamlakatlar uchun odatiy tusga jadal kirgan bu jarayon boshqa anʼanaviy jamiyatlarga ham oʻz taʼsirini oʻtkazadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari, internet tarmogʻi bu mamlakatlar turmush tarzida ijobiy taʼsir qilish bilan birga, bu yerdagi asrlar davomida shakllangan anʼanaviy madaniy qadriyatlarning yoʻqolishiga sabab boʻlmoqda. Anʼanaviy qadriyatlar ruhida taʼlim-tarbiya olgan yuzlab, yuzlab mln kishilar uchun Gʻarb dunyosi ommaviy madaniyati, turmush tarzi halokatli taʼsirini oʻtkazadi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar oʻrtasida ixtilof yanada keskinlashadi.

Ta'lim. Jamiyatda samarali ta'limga bo'lgan ehtiyoj kichayib bormoqda. Shu sababli jamiyatning o'sib borayotgan ehtiyojlari ta'limning mazmuni, shakllari va usullarini tubdan o'zgartirishni talab qiladi. Ta'lim shaxsning o'rta miyonali bo'lishiga qaratilmaydi, industrial mashinani zombilashgan unsurlariga aylanmaydi. Yangi zamonaviy ta'lim jamiyatning buyurtmasi asosida kreativ fikrlaydigan, bilimli va tegishli ko'nikma-malakaga ega shaxsni shakllantirishga harakat qiladi.

Zamonaviy texnologiyalar asosida ishlaydigan korxonalar va muassasalar uchun yuqori bilim va ko'nikma-malakaga ega bo'lgan xodimlar kerak. Ta'lim tizimi ana shunday xodimlarni tayyorlashga qodir bo'lishi lozim. Zamonaviy raqobatbardosh ta'lim yuqori saviyadagi ta'limni beradi. Samarali ta'lim juda qimmat bo'ladi. Ta'lim muassasalari o'rtasida malakali kadrlar tayyorlashda raqobat kuchli bo'ladi. Stenford, Garvard, Kembrij universitetlarini yuqori sifatli ta'limi ularni butun dunyoga tanitdi. Birgina Stenford universitetidan 75 olim Nobel mukofoti laureati bo'ldi.

Ta'limning uzluksizligi e'tirof etildi. Har bir odamning bilim va ko'nikmalarini yangilaydigan, to'ldiradigan, har bir odamni hayotini barcha bosqichlarini qamrab oladigan bo'ladi. Ta'limning axborotlashuvi, mantiqiy va obrazli tafakkur qilishning birlashuvi, distansiyali ta'lim, multimedia vositalarining tarqalishi bilimlarni samarali o'zlashtirishni ko'p marta oshiradi, ta'lim olayotgan odamni faollashtiradi. Ta'lim mazmunining o'zi ham o'zgarimoqda.

Tor kasbiy tayyorlash o'rnini gumanitar fanlarning birinchiligi, keng politexnik ta'lim, mehnatni bir necha marta o'zgartirishga tayyorlikni tarbiyalash egallamoqda. Bu an'analar dunyoning ko'pchilik mamlakatlari ta'lim tizimlarida mavjud. AQSH, Yaponiya, Germaniya va qator boshqa mamlakatlarda ta'limning ratsional xususiyati kuchayib borishi ko'rinadi. Bu holat XXI asr jamiyatiga mos ta'lim tizimi vujudga kelishidan dalolat beradi. Ta'lim milliy ko'rinish, mahalliy an'analar bo'yicha xilma-xil, lekin umumiy tub belgilarga ega.

Ta'lim sohasi jamiyat taraqqiyotida boshqa sohalardan doimo orqada qoladi. Shu sababli ta'lim tizimini o'rtacha har o'n yilda isloh qilish taqozosi paydo bo'ladi. Yangi ta'lim tizimiga o'tish davri eski tushkunlikdan boshlandi. Amalda barcha mamlakatlarda savodsiz va kasbiy layoqatsizlik o'sdi. O'n millionlab ishchilar ta'lim vaqtida va amalda singdirilgan bilim va ko'nikmalar tubdan o'zgargan vaziyatda yaroqsiz bo'lib qolganini birdan his qildilar. Bu o'zini yo'qotib qo'yishga, mehnatni samaradorligining pasayishiga olib keldi. Bu oliy va maxsus ta'limni qayta qurish, eng avvalo, xodimlarni ommaviy qayta tayyorlashni talab

qildi. Bu o‘z navbatida uzluksiz ta’lim tizimining tarqalishiga turtki berdi. Ta’lim tizimi markazida bo‘lgan ustoz-o‘qituvchilarning jamiyatdagi mavqei yuqori darajada bo‘lib, o‘qituvchi kasbi eng kuchli talab qilinadigan mutaxassisliklarning birinchi beshligida turadi.

XXI asrning yigirmanchi yilida butun dunyoni qamrab olgan kovid-19 pandemiyasi ta’limni yangi hali korilmagan sharoitlarda rivojlantirish zaruriyatini ko‘rsatdi. Pandemiya mavjud ta’lim tizimini zaif va kuchli tomonlarini ko‘rsatdi. Bizning mamlakatimiz uchun masofaviy ta’limning nihoyatda istiqbolli ekanligini yana bir bor ko‘rsatdi.

Yuqori saviyadagi zamonaviy ta’lim barcha mamlakat va xalqlar uchun farovon hayot, barqaror iqtisodiyotni yaratish uchun asosiy omil bo‘ladi. Ta’limga qilingan xarajat o‘zini yuz baravar oqlaydi. Ixtiro va kashfiyotlar-ilmii yangiliklarning yuqori darajasiga yuqori saviyadagi ta’limni yo‘lga qo‘yish bilan amalga oshiriladi. Yuqori saviyadagi samarali ta’lim qimmat bo‘ladi. Mamlakatimizda ta’lim samarasini oshirish bu zamonaviy izlanuvchi, ijodkor kadrlarni tayyorlashni amalda yo‘lga qo‘yishdir. Jahon mamlakatlarining ta’lim sohasida to‘plagan tajribalari deyarli o‘rganib bo‘lindi. Endilikda ularni birini tanlab olib, amaliy ishga o‘tish vaqti keldi. Fan bilan yo‘g‘rilgan ishlab chiqarish va xizmat sohalarining yuqori darajasi mamlakatni barqaror rivojlanishining asosiy omillaridan biridir.

Etika. Etika va mafkurada chuqur o‘zgarishlar yuz bermoqda. Bu ikki sohadagi o‘zgarishlar jamiyatning boshqa sohalaridagi o‘zgarishlar bilan bog‘langan. XX asrda etikaning tushkunligini XX asrning 40-yillaridan Pitirim Sorokin, Karl Yaspers va boshqa jamiyatshunos olimlar chuqur tahlil qildilar. Pitirim Sorokin muqobil insonparvar etikaning shakllanishiga e‘tibor berdi. U shunday xulosaga keldi: “Beqaror yaratuvchan muhabbat, agar undan aql bilan foydalanilsa, bu shunday kuch bo‘ladiki, odamlar va odamlar guruhi orasidagi agressiv to‘qnashuvlarning oldini olish mumkin. Dushmanlik munosabatlarini do‘stona munosabatlarga aylantirish mumkin. Muhabbatning xalqaro siyosatga global ta’sir qilishi, millatlararo ziddiyatlarni bartaraf etishi mumkin. Beg‘araz dono sevgi jismoniy, aqliy, axloqiy sog‘liq uchun hayotiy kuch bo‘lishi mumkin. Alturistlar egoistlardan ko‘ra ko‘proq yashaydilar” degan xulosaga keldi.

XX asr oxirida ideallarning yalpi yemirilishi boshlandi. Bu din va axloq sohasida uch an’anani yuzaga keltirdi: Birinchi an’ana. E’tiqod, fan va barcha axloqiy qoidalarni inkor qiladigan nigilizmning tarqalishi kuzatildi. Nigilizm axloqning an’anaviy normalari bilan qarama-qarshi bo‘lgan hodisa. U faqat kuchlining qoidasini tan oladi, inson hayotini qadrlamaydi. Nigilizm jinoyat, korrupsiya, buzuqlikning mafkurasi. U

o'tish davrida tartibsizliklarni barham topishi bilan yashirin holatga o'tadi. Jamiyat doimo bu kasallikka qarshi kurashishga majbur bo'ladi.

Ikkinchi an'ana. Diniy e'tiqodlar qayta jonlandi. Dunyo dinlari XXI asrda o'z mavqeini saqlab qolishga harakat qildi. Lekin bu diniy uyg'onish ba'zi konfessiyalar uchun sezilarli istiqbolga ega bo'lmaydi. Islom e'tiqodining ta'siri kuchayib boradi. Lekin bu e'tiqodni ta'sirini kamaytirish maqsadida uni turli yo'llar bilan obro'sizlantirishga harakat qilish saqlanib qoladi. Diniy adabiyotlar ko'plab chop etiladi.

Xristian cherkovi va boshqa yangi oqimlar missionerlik faoliyatini kuchaytirdilar. Ular ayniqsa, rivojlanayotgan dunyoda missionerlik faoliyatini kuchaytirdilar. XX asrning so'nggi choragidan turli sektalar paydo bo'ldi. Ayniqsa, yoshlar orasida bunday sektalarga qiziqish kuchaydi. XXI asrda ham yangi diniy oqimlarning paydo bo'lishini ko'ramiz. Ularning ayrimlari tezda o'zini ko'p sonli muxlislarini topadi, boshqalari yo'q bo'lib ketadi. XX asrda integratsiya jarayonlarining kuchayishi va globallashuv jarayonlari insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotida tub o'zgarishlarga olib keldi. Rivojlangan mamlakatlarda turmush farovonligi o'sdi, an'anaviy madaniyatlar yemirila boshladi, milliy qadriyatlar orqaga chekindi va vesternizatsiya-garblashuv boshlandi. Ayrim an'anaviy madaniyatga ega bo'lgan jamiyatlar garb turmush tarzini va ommaviy madaniyatni inkor qildi va o'zining diniy e'tiqodi, milliy-ma'naviy qadriyatlarini saqlab qolish va uni davom ettirishga kirishdi. Islom e'tiqodi qadriyatlari asosida hayot kechirish Eron, Afgoniston, arab dunyosi va boshqa musulmon mamlakatlarida yuz millionlab aholinining kundalik hayot manzarasidir. Hozirgi kunda bu mamlakatlarda musulmonlar Islomni anglashga va islom qadriyatlari asosida yashashga harakat qilmoqdalar. Bu hududlar aholisi diniy e'tiqod qadriyatlariga ko'ngilli rioya qilib, o'z hayot tarzlaridan rozi bo'lib yashamoqdalar.

Yangi jamiyatda yangi etikaning unsurlari shakllanadi. Shaxslararo munosabatlarning yangi qoidalari har bir jamiyat a'zosining shaxs sifatida mustaqillikka intilishini ta'kidlab, o'z yurish-turishi, xatti-harakatini mustaqil quradi, U boshqalarning manfaatlarini hisobga olgan holda buni amalga oshiradi. Bunday axloqiy normalarning ustuvorligini Finlyandiya, Shvetsiya va Norvegiyada ko'rish mumkin, shuningdek, boshqa rivojlangan mamlakatlar uchun ham bu xarakterli.

Postsotsializm mamlakatlari, sobiq SSSRning sobiq respublikalari aholisi bozor munosabatlari hukm suradigan jamiyatga ota boshladilar. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot asosida farovon yashayotgan jamiyatlarning ko'pchiligi Yevropada joylashgan. Shu bilan birga bu jamiyat individualistik jamiyat bo'lib, insonda xudbinlik tuyg'usi

shakllanadi. Ishini yo‘qotgan, o‘z muammolari doirasida o‘ralashib qolib yolg‘izlanib qolib paryaga aylanadi. Mavjud davlat hokimiyati va boshqa ijtimoiy-siyosiy muassasalar barcha ijtimoiy qatlamlarlarni manfaatlarini amalga oshirish uchun faoliyat ko‘rsatadilar.

Shu tarzda, erkin ijodiyot kishisi faoliyatning turli xil ko‘rinishlari va muloqotidagi yorqin individuallik asta-sekin jamiyatning yangi modeli mazmuni va oliy maqsadiga aylanadi. Bu albatta jamiyatlarda ziddiyatlar, jinoyatlar, qarama-qarshiliklar, jaholat yo‘q bo‘ladi degani emas. Lekin muntazam yuz beradigan ziddiyatlarni yechishning yanada madaniy usullari ko‘payadi. Shaxs ustidan zo‘ravonlik yo‘qola boshlaydi.

Texnika va texnologiya. Ishlab chiqarishning texnologik uslubi va texnologiyasi inson tomonidan yaratiladigan ishlab chiqarish va turmushda foydalaniladigan texnika dunyosi boshqacha bo‘ladi. Nozik avtomatlashgan ishlab chiqarish, texnika va barcha mehnat faoliyati turlarini kompyuterlashtirish insonni og‘ir jismoniy mehnat turlari va shafqatsiz mashinalashgan ritmdan ozod qiladi, uning vaqti va kuchini ijodiy jarayon uchun qaratish imkoniyati paydo bo‘ldi. Lekin og‘ir jismoniy mehnatdan xalos bo‘lish kishilarni semizlik, ya‘ni ortiqcha vazn muammosini keltirib chiqaradi. Millionlab kishilar semizlik kasaliga muhtalo bo‘ladilar.

Fanga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishda inson ishlab chiqarish jarayonining ijodkoriga aylanadi. Biotexnologiya, noan‘anaviy energoresurslar, chiqitsiz texnologiyalar, tabiat buyumlarini o‘zgartirishning yanada tejamkor usullarining o‘zlashtirilishi muntazam o‘sib borayotgan ehtiyojlarni yanada kamroq xarajatlar bilan qondirishga imkon beradi. Yangi texnologiya va fanga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishga asoslangan yuqori samarali iqtisodiyotni shakllantirgan yangi mamlakatlar (Yaponiya, Xitoy, janubiy Koreya, Tayvan, Singapur, Malayziya) rivojlangan mamlakatlarga qaraganda jadal rivojlanib jahon xo‘jalik hayotida oldingi o‘rinlarga chiqib oldilar.

XXI asrda quyosh tizimidagi boshqa sayyorlarni egallash uchun kuchli harakat boshlandi. AQSh, Xitoyda Marsni o‘zlashtirish uchun ilmiy ekspeditsiyalarni uyushtirish boshlandi. Bu sohada yetakchi davlatlar, davlatlar guruhining o‘zaro raqobati yaqqol ko‘rinadi. Yevropa ittifoqi, Xitoy Mars va Oy planetalarini kolonizatsiya qilish uchun uzoqqa mo‘ljallangan dastur asosida ilmiy izlanishlarga ulkan miqdorda mablag‘ sarflamoqdalar. Birinchi o‘zga planetalarni o‘zlashtirib uyerlarda yashab qoladigan-kolonizatorlarni Marsga uchirish rejasi XXI asrning 20 yillariga rejalashtirilgan.

Hozirgi kunda sun‘iy intellektning kuchayishi butun insoniyat sivilizatsiyasiga katta xavf soladi. Sun‘iy intellekt- bu insonning an‘anaviy

mulki bo‘lgan ijodiy funksiyalarni sun‘iy intellektual tizimlarini bajarishi bo‘lib, intellektual mashinalarni yaratish, ayniqsa intellektual kompyuter dasturlarini yaratishdir. Lekin sun‘iy intellekt inson kabi ijodiy fikrlashdan o‘jiz, u faqat insonga taqlid qiladi. Ushbu xavfni oldini olish uchun AT ni rivojlantirishning meyor‘iy chegaralarini belgilash va undan chiqmaslik kerak bo‘ladi. Hozirgi kunda sun‘iy intellektni cheksiz rivojlanishi yer sivilizatsiyasiga xavf tug‘diradi. Insonning aqliy degradatsiyasiga olib keladi, ko‘pgina kasblarni kompyutlashuvi ishsizlikni keltirib chiqaradi.

Fan texnika-texnologiya rivojlanishi bir lahzada ham to‘xtagani yo‘q. Dunyo mamlakatlarida fanda yangiliklar har lahzada tugilmoqda. Lekin fan, texnologiya taraqqiyoti turli mamlakatlarda turli darajada bormoqda. Misol uchun hozirgi o‘n yillikda bir yilda dunyo miqyosida fan yangiliklari, ixtiro kashfiyotlarining 50 foizi AQShda, 37 foizi Yaponiyada, 2 foizi Rossiyada amalga oshiriladi. Qolgani dunyoning boshqa boshqa mamlakatlariga to‘g‘ri keladi.

3. Postindustrial sivilizatsiyaga o‘tish davrining mazmuni va tarixiy ko‘lami. Insoniyat hozirgi kunda postindustrial sivilizatsiyaga o‘tish davriga kirdi. Ozbekiston ham postindustrial sivilizatsiyaga o‘tish jarayonini boshidan kechirmoqda. Bu to‘g‘risida tarixiy dinamikaning uch asosiy parametrlari guvohlik beradi, o‘zgarishlar tezligi go‘yoki buzilmas tuyilgan, yillar, o‘n yillar, hatto, yuz yillarda shakllangan jamiyat to‘satdan bir necha oylar, hatto, kunlarda tubdan o‘zgardi. Ularning chuqurligi, siljishlar jamiyat piramidasining barcha qavatlar va barcha xonalarida kuzatiladi. Geografik hajmlar beqiyos (bu toshib-ko‘pirayotgan o‘zgarishlar girdobiga tortilmagan birorta mamlakatni ko‘rsatish mumkin emas). Jadal va qiyinchilik bilan jamiyat hayotining barcha qirralariga tegib o‘tgan keskin tushkunlik sharoitida barcha odatdagi turg‘un bo‘lgan holatlarda mavjud bo‘lgan tartib-qoidalar o‘zgaradi, kelajak jamiyat azob bilan tug‘iladi.

Yetakchi texnologik, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy ukladlar, hukmron ilmiy, madaniy, mafkuraviy paradigmalar bir-birini almashtiradi. Bunday holda industrial jamiyatning asoslari o‘zgaray qoladi, faqat ularni amalga oshirishning shakllari va mexanizmlarigina o‘zgaradi. Episentrd o‘tish davri o‘n yil atrofida bo‘ladi va o‘sadigan to‘lqin asoslarini ikki, uch o‘n yilliklarda tayyorlaydi. Chekka hududlarda bu jarayon kechroq boshlanadi va yana uzoq muddatga cho‘zilishi mumkin. Lekin dunyo taraqqiyotining shiddatli o‘zgarishlari ta‘siri ostida jarayonlarning boshlanishi va muddatlari qisqarishi mumkin.

Ayrim mamlakatlar o‘z tushkunliklarini boshqa mamlakatlar hisobidan hal qilishga urinadilar. Buning yaqqol misoli, 2008-yilda jahon

moliyaviy inqirozi Shimoliy Amerika va Yevropadagi rivojlangan mamlakatlarda muammolarni vujudga keltirdi. Bu muammolarni yechish uchun AQSh va G'arbiy Yevropa arab dunyosidagi siyosiy vaziyatni keskinlashtirish, arab inqirozlari (Misr, Iroq, Yaman, Liviya, Suriyada)ni amalga oshirishga kirishdi. Neft-yoqilg'i zahiralarga boy bo'lgan arab dunyosining G'arb banklarida saqlanayotgan oltin-valyuta zahiralari moliyaviy tushkunliklardan chiqish uchun G'arb davlatlari iqtisodiga inyeksiya qilinishi mumkin. Lekin sharq mamlakatlaridan Yaponiya, Xitoy bu tushkunlikdan yanada kuchli bo'lib chiqdilar. Hozirgi kunda 2023 yil ma'lumotlariga ko'ra Yaponiyaning oltin-valyuta zahirasi 2 trln. dollarni Xitoyning oltin-valyuta zahirasi 3 trln. dollarni tashki etadi.

Arab dunyosida internet orqali G'arb o'ziga foydali "inqiloblarni" amalga oshirishga kirishdi va bu yerdagi siyosiy tizimlarni o'z foydasiga o'zgartirishni boshladi. Bir tomondan AQSH- Yevropa Ittifoqi, Rossiya o'rtasida o'z ta'sir doirasini kengaytirish uchun tizimli raqobat kuchaydi va bu uzluksiz davom etadi. Bu yo'nalishda olib borilayotgan siyosat mamlakatlarning harbiy xarajatlarini keskin o'sishiga olib keladi. Jumladan, Rossiya va AQSh 2020-yilgacha o'z harbiy xarajatlarini astronomik raqamlarda oshirishni rejalashtirdilar. Bu o'z navbatida xalqaro vaziyatni keskinlashtiradi va urush xavfini kuchaytiradi. Lekin buni halokatli ekanligini nsoniyatning hushyor tafakkuri anglab yetishi lozim bo'ladi. XXI asr boshlaridan yetakchi davlatlar o'rtasida keskin raqobatni kuchayishi oqibatida yangi lokal urush o'choqlari kelib chiqadi. Lokal urushlar bo'layotgan hududlarda siyosiy-iqtisodiy tangliklar yuz beradi. Urush olovi ostida qolgan mamlakatlarda xo'jalik izdan chiqib, millionlab kishilar boshpana va ish izlab dunyoning barqaror, farovon hayot yo'lga qo'yilgan mamlakatlariga ommaviy ko'chishi boshlanadi. Bu o'z navbatida barqaror iqtisodiy-ijtimoiy hayot yo'lga qo'yilgan mamlakatlarda migrantlarga qarshi millatchilik, milliy-etnik nizolarni kuchayishiga olib keladi. Milliy-etnik, diniy nizolar kuchayib, xalqaro xavfsizlikka tahdid soladi.

Insoniyat sivilizatsiyasiga tahdid qilayotgan xavflar. XX asning 90-yillari yetakchi davlatlarni qamrab olgan dunyo iqtisodiy tushkunligi bilan o'tdi. Siyosiy-iqtisodiy- ijtimoiy tushkunlik post sotsialistik mamlakatlarda yanada chuqurroq va uzoq kechdi. 90-yillar sobiq SSSRning mustaqillikka erishgan sobiq sovet respublikalari uchun eski tuzum va tuzilma asoratlaridan qutulish va yangi jamiyatning huquqiy asoslarini yaratish davri yoki azobli o'tish davri bo'ldi. Bu o'tish davri hali ba'zi mamlakatlarda qachon tugashi noma'lum. 2008-yilda dunyoda moliyaviy

inqiroz yuz berdi. Bu inqiroz dunyoning iqtisodiy qurilmasi mo'rtligini yaqqol ko'rsatdi.

90-yillar boshlarida sobiq SSSR va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida erkin bozor munosabatlariga o'tish jarayoni boshlandi. Bu mamlakatlarda yovvoyi bozor munosabatlari, davlat mulki, umumxalq mulkini o'g'irlash bilan shafqatsiz dastlabki kapital jamg'arish boshlandi.

Mavjud yoqilg'i-energetika zahiralarga egalik qilish uchun yetakchi mamlakatlar o'rtasida raqobat kuchayib, uning oqibatida boshqa mamlakatlar, hududlar, siyosiy-iqtisodiy barqarorligi katta tahdid ostida qolmoqda.

Urush va tinchlik muammosi. Yangi ming yillikka kelib insoniyat o'zi va yer yuzidagi boshqa barcha tirik mavjudotlarni yadro urushi bilan yo'q qiladigan yetarli texnik imkoniyatlarga ega bo'ldi. XXI asrda lokal urushlar muammosi saqlanib qoldi, Jahon hamjamiyati urush xavfini tugatish, mavjud lokal urush o'choqlarini tugatish uchun samarali mexanizmlari ishlab chiqishga harakat qilmoqda. Xalqaro terrorism, ekstremizmning turli ko'rinishlari kabi muammolarni tug'dirishdan manfaatdor bo'lgan qudratli davlatlarning ambitsiyalarini tugatish kerak bo'ladi.

Jahon urushi xavfi, termoyadro va kimyoviy-bakteriologik urushlar xavflari bartaraf qilinmadi. Dunyoda lokal urushlar hali ham davom etmoqda. Ularni to'xtatish uchun bo'lgan harakatlar zoye ketdi. Yaqin Sharqda Falastin–Isroil mojarosi, Suriya, Yugoslaviya, Kavkazortida Checheniston, Abxaziya, Shimoliy Osetiya, Ukraina va Afg'onistondagi lokal urushlar ushbu mamlakatlarning taraqqiyoti va hududiy tinchlikka jiddiy xavf tug'dirib, uzoq yillar bu hududlarda beqarorlikka olib kelmoqda. Bu lokal urushlarga o'nlab katta-kichik mamlakatlar aralashib qoldi. Rivojlangan mamlakatlar uchun bu beqaror zonalar o'z ta'sir doirasini kuchaytirish maydoniga aylanib qoldi.

XX asrning 80-yillaridan etnik, diniy kelishmovchiliklar kuchayib ketdi. Dunyoning ayrim mamlakatlaridagi etnik ziddiyatlar qonli urushlarga olib keldi. Sobiq Yugoslaviya, Kavkazortida Tog'li Qorabog' bo'yicha ozarbayjon – arman mojarosi va boshqalar vaziyatni yana chigallashtirdi. 1991 yilda SSSR tarqalib yangi mustaqil davlatlarni vujudga kelishi insoniyat sivilizatsiyasi yangi bosqichga kirganini bildirdi. O'zini sobiq SSSRni vorisi deb hisoblagan Rossiya davlati o'tmishdoshi darajasidagi mavgeni tiklashga urinib, uning ta'sir doirasidan chiqishga uringan sobiq sovet respublikalarini (Gruziya va Ukraina) yana o'z ta'sir doirasida ushlab turishga urindi. Joylarda mustaqil respublikalarni Rossiya Yevropa ittifoqi bilan yaqin aloqada bo'lishga harakat qilgan mamlakatlarga qarshi jiddiy xavf soladigan siyosat yuritishni davom ettirdi. 2008

yilda Gruziyaga qarshi Rossiyaning urushi, ayniqsa 2014 yilda Rossiya federatsiyasining mustaqil Ukraina respublikasiga qarshi agressiyasini boshlanishi xalqaro vaziyatni tubdan o'zgartirib yubordi. Rossiyaning urushqoq siyosati uchinchi jahon urushi xavfini tug'dirdi, bundan tashqari jahon iqtisodiyotiga salbiy ta'sir qilib iqtisodiy-ijtimoiy tushkinlik, narx-navoni o'sishi va inflyatsiyaga olib keldi. Yetakchi davlatlar Rossiyaning agressiyasi boshlanishi bilan shundoq ham yuqori bo'lgan harbiy xarajatlarini keskin oshirdilar. Birgina Ukrainaning harbiy xarajati 2022 yil iyun oyida 6 mlrd dollarni tashkil etdi. Endilikda insoniyat sivilizatsiyasi halokatiga sabab bo'ladigan yadro urushi xavfi yuzaga keldi. Dunyo endi 2014 yildan oldingi davrga qayta olmaydi. Kuchlar nisbati o'zgardi. Yetakchi davlatlar taqsimlangan dunyoni qayta taqsimlash uchun yana raqobatga kirishadilar. Ular o'rtasidagi raqobat ulkan yo'qotishlarga olib keladi. Lokal urushlarning yangi o'choqlari paydo bo'ladi. Harbiy xarajatlar uzluksiz o'sib boradi. Bu yo'lda ulkan xarajatlar qilinib, moddiy boyliklar sarflanib fuqarolar qurbon bo'ladi va ulkan moddiy yo'qotishlar sodir bo'ladi. 2022 yil ma'lumotiga ko'ra Rossiyaning Ukrainaga qarshi urushi oqibati Ukrainaning vayronaga aylangan shahar va qishloqlarini qayta tiklashga 800 mlrd. dollar mablag' kerak bo'ladi.

Hozirgi dunyoda lokal sivilizatsiyalar o'rtasidagi samarali yechimini topish, ular o'rtasidagi o'zaro hamkorlik munosabatlarini muvozanatga keltirishning barqaror mexanizmlarni ishlab chiqish zaruriyati mavjud.

Yadro urushi xavfi hali insoniyat uchun yo'q bo'lgan emas. Ayrim yetakchi davlatlar o'tmishni qo'msab dunyo siyosiy xaritasini qayta ko'rib chiqishga urinadilar. XX asrning Ilmiy texnika inqiloblari asosida ishlab-chiqarishda yangi texnologiyalarning qo'llanilishi butun dunyoda ochlik va qashshoqlik muammosini tugatish uchun barqaror shart sharoit va imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Fan va ishlab-chiqarishning birlashib ketishi insoniyat sivilizatsiyasining barqaror taraqqiy qilishi, farovon yashashi uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlarni ochadi. Lekin insoniyat yuzaga kelgan bu imkoniyatlardan foydalana oladimi?

Ekstremizm XX asrning 80-yillaridan xalqaro xavfsizlikka jiddiy xavf tug'dira boshladi. Amerikadagi 2001-yilda sentabr portlashlari, Rossiyaning Ukrainaga agressiyasi butun dunyoda tinchlikning mo'rtligini ko'rsatdi. Jahon miqyosida bu xavfga qarshi kurash boshlandi. Diniy ekstremizm ayrim davlatlar-jamiyatlarning halokati xavfini tug'dirdi. Etnik-diniy ziddiyatlar kuchaydi.

Yangi ming yillikning birinchi 20 yilligi o'tdi. Qit'alar, mamlakatlar taraqqiyotidagi notekislik bartaraf qilinmadi. Urush o'choqlari tugatilmadi. Mamlakatlar, hududlar va jamiyatlar o'rtasidagi va ichidagi siyosiy, ij-

timoiy-iqtisodiy ziddiyatlar o'z y echimini topmadi. Qurollanish poygasi yanada kuchaydi. Dunyoni qayta bo'lib olish, o'z ta'sir doiralarini kengaytirish uchun yetakchi mamlakatlar o'rtasida musobaqa qayta boshlandi. Nisbiy barqarorlik saqlanib qolgan bo'lsada, lekin urush xavfi siyosiy yo'qotish, mamlakatlardagi beqarorlik an'anasi kuchayib bormoqda.

Xalqaro vaziyat keskinlashib yetakchi davlatlar o'rtasida dunyda ta'sir doirasini kengaytirish uchun turli ekstremistik tashkilotlaridan foydalanish kuchayadi. Diniy e'tiqod niqobi ostida turli terrorchilik harakatlari harakat qilmoqda. Aslida ular diniy e'tiqod niqobi ostida kimlarnidir manfaatiga xizmat qilmoqda. Ekstremizm va xalqaro terrorizm jahon xavfsizligiga jiddiy xavf tug'diradi.

Yetakchi davlatlar, hududlar o'rtasida o'rtasida raqobat kuchayib, bu o'z navbatida qurollanish poygasini kuchaytirdi. Ko'p hollarda bu raqobat kichik davlatlarga salbiy ta'sir qildi. Davlatlar o'rtasidagi import-eksport hajmi qisqaradi. Misol uchun: Rossiyaning Ukraina bo'yicha G'arb dunyosi bilan 2014 yildan boshlangan qarama-qarshi turishi natijasida 2014 yilda Rossiya 140 milliard dollar miqdorida iqtisodiy zarar ko'rdi. Yetakchi davlatlar o'z mavqelarini sobiq metropoliyalarda qayta tiklashga urinadilar. Yetakchi davlatlar o'zlariga bo'ysunishni istamagan kichik davlatlarga nisbatan bu davlatlarning ichki ishlariga aralasib, ularning iqtisodiy-siyosiy barqaror rivojlanishini buzish uchun mamlakat ichida turli etnik-diniy ixtiloflar keltirib chiqaradilar.

Milliy nizolar, lokalur ushlar va qudratli davlatlar o'rtasida yetakchilik uchun raqobat tugamadi. Yaqin va O'rta sharqda lokal urushlar o'chog'i o'chmadi (arab-isroil mojarosi, Suriya, Iroq, Afg'oniston). XXI asr boshlarida Rossiyaning Gruziya, Ukrainaga qarshi uruslari dunyoda tinchlik mo'rt ekanini yana bir marta tasdiqladi. Rossiya sobiq SSSRni tiklashga intilayotgani yaqqol ko'rinadi. Sobiq sovet respublikalarining tinch taraqqiyotiga xalaqit berish uchun bu mamlakatlarga nisbatan ularni hududiy yaxlitligiga putur yetkazish va yana o'z ta'sir doirasiga olish uchun turli ig'vogarliklar yushtirilishi kuchayib boradi. Gruziya, Ukraina, Moldova, Qozogiston, Ozbekistondagi voqealar). Teng huquqli davlatlarning ko'ngilli ittifoqlar asosida rivojlanishi ko'rinadi va yangi baynalminal an'analar saqlanadi. Katta-kichik harbiy to'qnashuv-urushlar boshda yuz berib turadi. Lekin asta-sekin ziddiyatlarni kuch bilan yechishdan, murosa, kelishuvlar yo'li bilan yechish tomon qiyinchilik bilan bo'lsada asta-sekin oldinga siljish yuz beradi. Davlatlararo va xalqaro hakamlik va yalpi xavfsizlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari- BMT va Xalqaro sudning roli o'sib bormoqda.

Xalqaro terrorizm jahon xavfsizligiga jiddiy xavf tug'diradi. Hudud-

diy siyosiy-harbiy bloklar oʻrtasida raqobat kuchayib, bu oʻz navbatida qurollanish poygasini kuchaytirdi. Koʻp hollarda bu raqobat kichik davlatlarga salbiy taʼsir qildi. Yetakchi davlatlar oʻz mavqelarini sobiq metropoliyalarda qayta tiklashga urinadilar. Bu davlatlar oʻzlariga boʻysunishni istamagan kichik davlatlarga nisbatan bu davlatlarning ichki ishlariga aralashib, ularning iqtisodiy-siyosiy barqaror rivojlanishini buzish uchun mamlakat ichida turli etnik-diniy ixtiloflar keltirib chiqaradilar.

Davlatlar oʻrtasidagi import-eksport hajmi qisqaradi. Misol uchun: Rossiyaning Ukraina boʻyicha Gʻarb dunyosi bilan 2014 yildan boshlangan qarama-qarshi turishi natijasida 2014 yilda Rossiya 140 milliard dollar miqdorida iqtisodiy zarar koʻrdi. Ukraina bilan urush Rossiyaga 2022 yilda 144 mlrd dollarga tushdi.

Milliy madaniyatlar tushkinligi. Globallashuv jarayoni kuchayib ketishi oqibatida milliy madaniyatlar, urf-odat, anʼanalarning yuvilib ketish jarayoni ham kuchaib ketdi. Umuminsoniy qadriyat boʻlgan tillar, kam sonli xalqlar yoʻqolib ketmoqda. Anʼanaviy qadriyatlar unutilib ketmoqda. Yevropa turmush tarzi, yevropacha tafakkur asosida yashashga intilish kuchayib bormoqda. Bu toʻgʻri yoʻlmi? Sharq sharqligicha, garbligicha qolishi kerak emasmi? Kimnidir standartlari asosida yashash kerakmi? Har bir millatning asrlar davomida shakllangan milliy urf-odat va anʼanalarini qayta tiklash bu millatni saqlab qolish va rivojlanishi uchun ustivor omil boʻladi. Gʻarblashuv anʼanasi keskin kuchayib bormoqda, bu jarayon ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar va shu jumladan Oʻzbekistonga ham tegishlidir. Yangi texnologiya va texnikani qabul qilish mumkin albatta, lekin garbdan kirib kelayotgan va taʼsiri kuchaib orayotgan ommaviy madaniyatni taʼsirini zaiflashtirishning birdan bir yoʻli milliy qadriyatlarni saqlab qolish va ularni zamon ruhida rivojlantirishdir. Mamlakatda ishsizlik, qashshoqlik, kambagʻallik va korrupsiya tugamas ekan yoshlari oʻzga yurtlarga ketish surʼati oʻsib boraveradi. Kosmopolitizm- vatansizlik goyasi kuchayadi.

Xalqimiz oʻz porloq kelajagi sari dadil qadamlar bilan olgʻa bormoqda. Ozligini anglagan xalq millat boʻla oladi. Buyuk daho Al Gʻazzoliy shunday taʼkidlaganlar: “manmanlik, takkabburlik, raqobat, tarqoqlik va hasad xalqlarga kulfat keltiradi. Ana shular tufayli avval xalqlar oʻrtasida ajralish yuz beradi, soʻngra tartibsizlik boshlanadi”¹⁸. Biz ham oʻzligini anglagan millat boʻlishimiz uchun mavjud illatlarni tugatishimiz poklanishimiz, ilm-maʼrifat sari yoʻl tutishimiz zarur. Taqlid qilish, gʻarbga tiz choʻkish, milliy turmush tarzini yoʻqotish halokatga olib kelishi muqarrar. Inson ideali, uning axloqiy qoidalari boshqa odamlar, jamiyat bilan oʻzaro munosabatlarda, madaniy qadriyatlar bilan murojaat qilishi eʼtiqod

¹⁸ 100 мумтоз файласуф Тошкент “Янги аср авлоди” 2013. -бет

va bilimga asoslanadi. Milliy qadriyatlarni tiklash, ularni zamon ruhiga mos rivojlantirish o'zligimizni saqlab qolishning eng muhim omili, ruhiyatimizdagi qullik illatini yo'q qilish, ozod va erkin hayot uchun olg'a intilishimiz hayotiy zaruriyat.

Ekologik xavf. Insoniyat yer kurrasida tabiat qo'ynida paydo bo'lib, o'sdi, ulgaydi. Tabiat insonga barcha noz-ne'matlarini tekinga berdi, inson tabiat qo'ynida yashab uning barcha ne'matlaridan bahramand bo'ldi. on oziq-ovqatni 90 foizini o'simliklardan qondiradi. Osimliklarning 3000 xilini oziq-ovqat sifatida iste'mol qilish mumkin. Odam faqat 200 xil o'simlikni oziq-ovqat sifatida ishlatadi. Aholi oziq-ovqatining 60 foizini bug'doy, makkajo'xori va sholi tashkil etadi.

Insoniyat bundan yuz yil oldin yovvoyi o'simliklarga urush e'lon qilib ularni muntazam yo'qotib kelmoqda. Osimliklar insoniyatdan ko'ra yoshi kartta bo'lib, 500 million yildan buyon yashab kemoqda. Inson o'zi yashaydigan tabiatni, o'simliklarni asramas ekan u halokatga mahkum bo'ladi.

O'lkamizda buning yaqqol misoli: Rus mustamlakachilari XX asr boshida o'lkamizning tabiatini uyg'unligiga katta zarar keltirishni boshladilar. Boy o'simlik va hayvonot dunyosi yo'q qilina boshladi. 1890-1920 yillargacha ruslar Sirdaryo havzasida ko'plab yo'lbarzlarni ovlab qirib tashladilar. Yo'lbars terisi juda qimmat baholangan. Mustamlakachilar ovchilar jamiyatini tuzib go'yoki yo'lbarslar aholini chorva mol-lariga hujum qilib katta zarar keltiryapti deb bahona qildilar. Shu tarzda Turon yo'lbarslari qisqa vaqt ichida qirib tashlanadi. Paxta monokulturasi ham ulkan ekologik zarar keltirdi.

Insoniyat sivilizatsiyasi uchun hozirgi kundagi eng katta ikkita xavf mavjud. Birinchisi kundan kun yomonlashib borayotgan ekologik vaziyat. Ikkinchisi insoniyat o'z o'tmish tarixida ko'rmagan yuqumli kasalliklarning tarqalishidir. Bunday kasallikka misol qilib pandemiya yoki kovid 19 kasalligining taqalishidir. Odam tabiat qo'ynidan ajralib chiqishi bilan ekologik xavf paydo bo'ldi. Biologik-ijtimoiy tur sifatida shakllangan inson urug'i ishlab-chiqaruvchi xo'jalikka o'tishi bilan yer yuzida mavjud bo'lgan flora va faunadan ekstensiv foydalanishni boshladi. Flora va faunaning ko'plab turlari yoq qilindi. 2022 yilning ma'lumotiga ko'ra 1970 yillardan yovvoyi tabiatning 65 foizi shu kungacha qayta tiklanmadi. Bu jarayon ona tabiatning jadal halokat sari borayotganidan dalolat beradi.

Inson o'zning tabiat ug'unligini buzish faoliyati bilan tizimli davom ettirib, ekologik halokatga shart-sharoit yaratmoqda. 2020 yilda Parijda kuchayib borayotgan ekologik halokatlarni oldini olish muammolari ko'rib chiqildi. Dunyo mamlakatlarida ekologik masalariga e'tibor

kuchaydi. Jumladan atrof-muhitni azon gazi bilan zaharlaaslik uchun noan'anaviy yoqilgi- qayta tiklanadigan energiya turlaridan foydalanishga kirishildi. 2022 yilda shamol va quyosh energiyasi dunyoda ishlab chiqarilgan elektr energiyasini 12 foizini tashkil etdi. Germaniya 2023 yil 12 aprel kuni so'ngi atom elektrstansiyasi reaktorini to'xtatdi. Ayrim katta avtomobil kompaniyalari elektromobil ishlab chiqarishni boshladi. Angliya hukumati 2030 yildan benzin bilan ishlaydigan avtomobillarni yurishini ta'qiqlashini e'lon qildi. Insoniyat nihoyat ekologik xavfni oldini olish o'z sivilizatsiyasini saqlab qolish uchun o'ta dolzarb ekanligini anglab yetdi.

Industrial jamiyatning so'nish fazasida mineral, o'rmon va yer resurslarining tugashi, daryo, dengizlar, okeanlar havo muhitining yirik hajmda ifloslanishi, Chernobil, Fukusima kabi yirik texnogen avariylarni yuz berish xavfi saqlanib qoladi.

Insoniyat sivilizatsiyasi tobora kuchayib borayotgan ekologik xavfni oldini olish uchun quyidagi choralarni ko'rishi zarur:

a) Dunyo bo'yicha aholining ehtiyojlarini qondirishda barcha hududlar bo'yicha adolatli bir tekisda qondirish yo'llarini izlab topish va xalqaro hamkorlikning bu sohadagi samarali yo'llarini qo'llash;

b) Rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirishning uzoq muddatli samarali yo'llarini izlash;

v) Hamma joyda asta-sekin kam chiqitli va chiqitsiz, ekologik toza texnologiyalarni o'zlashtirish, shu tarzda tabiiy xomashyodan foydalanishni tubdan qisqartirish, tabiiy resurslardan vahshiylarcha foydalanish, atrof- muhitni ifloslantirishdan voz kechish;

g) Rivojgan mamlakatlar tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarni xomashyo resurslarini talon-taroj qilishiga chek qo'yish;

d) Qurollanish poygasiga chek qo'yish, ichki va tashqi ziddiyatlarni hal qilishda kuch ishlatishdan voz kechish, eng xavfli qurollar turlarini bosqichma-bosqich yo'q qilish va qolgani ustidan qattiq xalqaro nazorat o'rnatish;

c) Xalqaro hamkorlik faoliyatida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi xavfli farqni bartaraf etish, yalpi ekologik siyosat va dasturlarni tizimli amalga oshirishni ishlab chiqish va ta'minlash;

e) Dunyo aholisining barchasi tabiat uyg'unligini buzadigan hozirgi yetakchi an'analarning istiqboli yo'qligi va o'ta xavfli ekanligini anglab yetishi, yangi ilmiy va siyosiy paradigmalarni ishlab chiqish va ular aholini faol qatlamlari, siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlar barcha mamlakatlar, jahon hamjamiyatining maqsadli yo'naltirilgan harakatlarining asosi bo'lishi lozim.

Ekologik xavf halokat bilan tugashi muqarrar. Endilikda insoniyat o'zini saqlab qolish uchun tabiatning mo'l-ko'l zahiralardan oqilona foydalanishning o'tmishdagi tajribasi va fan va texnologiyalar erishgan yutuqlardan samarali foydalanish asosida tabiat bilan uygun yashashga qaytishi shart. Inson o'zining tabiatga nisbatan talonchilik, buzg'unchilik faoliyatidan voz kechishi insoniyat sivilizatsiyasining hayot mamot masalasi bo'lib qoladi.

Qashshoqlik. Ochlik. Uysizlik. 2020 yilda dunyoda yaratilgan moddiy boylikning uchdan ikki qismi dunyo aholisining bir foizini tashkil etadigan boy odamlar tomonidan ozlashtirildi. Shu bilan bir vaqtda 2022 yilda pandemiya, inflyatsiya va tabiiy ofatlar natijasida hayot kechirish qiymatining keskin o'sishi natijasida dunyo aholisining 10 foizi och qoldi. 2022 yilda 95 energetika va oziq ovqat kompaniyalarining olgan sof foydasi ikki baravarga teng bo'ldi. Shvetsariyaning Davos shahrida o'tkaziladigan har yilgi xalqaro iqtisodiy forumga taqdim etilgan ma'ruzada dunyoning eng boy odamlariga 2023 yilda soliqni 75 foizga oshirish taklif qilindi. Bu boylar va kambag'allar o'rtasidagi oraliqni ozgina kamaytiradi.

Yerdagi har bir mehnatga qobiliyatli odam. yetarlicha oziq-ovqat bo'lganda, to'la kuchda ishlashi mumkin. Insoniyat uchun eng ayanchli muammolardan biri qashshoqlikni ham yengish mumkin. 2021 yildagi hisob-kitoblarga ko'ra dunyodagi sakkiz ta boy odamning mablag'i bilan hozirgi butun dunyoda och odamlarni to'ydirishi mumkin ekan. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti texnika, texnologiya va boshqa vositalar bilan ta'minlansa, bu mamlakatlarning iqtisodiyoti rivojlanib, aholining farovon hayotini ta'minlash, qashshoq mamlakatlar aholisining rivojlangan mamlakatlarga o'sib borayotgan migratsiyasiga chek qo'yish mumkin bo'ladi.

Qashshoqlik, ochlik, uy-joy muammosi, ekologik xavf, spid, giyohvandlik va terrorizmning turli ko'rinishlari yalpi muammolarga aylandi. Rivojlangan mamlakatlardan tashqari boshqa barcha mamlakatlarda ochlik, muntazam ishsizlik, nochorlik odamlarni doimiy hamrohi bo'lib qoldi. Hali ham Osiyo, Afrikada yuz millionlab odamlar qashshoqlikda yashamoqdalar. Yuzlab, millionlab odamlar, ayniqsa, sobiq sovet respublikalarining aholisidan millionlab kishilar ishsizlikdan Rossiya va Yevropa mamalakatlariga ish qidirib borib, huquqsiz, tahdidli, og'ir ahvolda qolmoqdalar. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar aholisi mehnat ta'tili vaqtida ham tirikchilikni o'tkazish uchun ishlashga majbur. Hozirgi kunda dunyodagi global muammolardan biri aholini uy-joy bilan ta'min-

lash masalasidir. Dunyoning rivojlangan mamlakatlaridan biri AQSHda 2019 yilda 519 uysiz kishi qayd etilgan. Hindisotonda uysizlar 100 mln. kishini tashkil etadi.

Separatizm. Hududlarda separat kayfiyat kuchayib ketdi. Dunyoning 1/6 qismini egallagan SSSR davlati parchalanib ketdi. Yugoslaviya federatsiyasi barbod bo'ldi. Chexoslavakiya ikki davlatga ajraldi. Tashqi kuchlarning ta'siri ostida Dnestr bo'yidagi gagauzlar Moldaviyadan ajralib chiqishga urindi. Kanadada fransuz tilida so'zlashadigan aholi ko'pchilikni tashkil qilgan Kvebek provinsiyasi mustaqillikni talab qilib chiqdi. Etnik muammolarni ko'targan terrorchilik tashkilotlar paydo bo'ldi (Ispaniyada Eta, Shri-Lankada Tamil-ilama va boshqalar). Shotlandiya Qoshma qirollikdan ajralib chiqishga tayyorlanmoqda.

Demografik xavf. Insoniyat sivilizatsiyasi uchun eng katta xavfdan biri XXI asrda dunyo aholisining qarish jarayoni kuchayib borayotgani, tugilishning keskin qisqarib borayotganidir. XX asrning 80-yillari oxiridan aholi eng zich joylashgan qator mamlakatlarda aholi tabiiy o'sishining sur'atini qisqarish an'anasi yaqqol ko'rinadi. 2023 yil ma'lumotlariga ko'ra rivojlangan mamlakatlarda ayollarning 17 foizi, rivojlanayotgan mamlakatlardagi ayollarning 16 foizi bepusht. Butun dunyo bo'ylab tugilishning qisqarishini ko'rish mumkin. Xitoyda aholi 1970-yilda-25,8 kishidan 1994-yilda-11,3 kishigacha (aholini 1000 kishisiga), Yaponiyada 1970-yilda-11,9 kishidan 1994-yilda-3,1 kishigacha, Rossiyada 1960-yilda-15,8 kishidan 1995-yilda-5,7 kishigacha, AQSHda 1970-yilda-8,9 kishidan 1994-yilda-6,8 kishigacha, Meksikada 1970-yil 32,5 kishidan 1994-yil-27,7 kishigacha, Fransiyada 1970-yilda – 6,1 kishidan 1994 yilda-3,1 kishigacha kamayib ketdi. Yaponiyada o'tgan asrning 70 yillarida bir yilda 21 mln bola tug'ilgan bo'lsa 2021 yilda 600 ming bola tug'ildi. XXI asrning 60 yillarida Yaponiya aholisi soni 80 mln kishiga tushib qolishi kutilmoqda. Italiyada 2022 yilda bo'r -yo'g'i 400 ming bola tug'ildi. Mamlakatda bolalar o'limi yuqori darajada. Hindiston 2022 yilda aholisi soni bo'yicha Xitoydan o'zib ketdi. Bu an'ana XXI asr boshlarida ham saqlanib qolib, yana kuchaydi. Bu o'z navbatida aholi va uning ehtiyojlarini o'sishi va tabiiy resurslarning cheklangani, biosferaning holati o'rtasidagi qarama-qarshilikni yumshatish imkoniyatini beradi. Bunga yana postindustrial ishlab chiqarish texnologik usuliga xos bo'lgan resurslarni tejaydigan ekologik toza texnologiyalarning keng tarqalishi ham yordam bershi mumkin.

O'zbekistonda hozirgi vaqtda aholining tabiiy o'sishi barqaror davom etmoqda. Lekin bu vaqtinchalik holat. Bundan keyin mamlakatimizda iqtisodiy-ijtimoiy omillar asosida ijtimoiy-iqtisodiy tabiiy ko'payish sur'ati asta sekin pasayib boradi. Rivojlanayotgan O'zbekiston uchun

ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyoj muntazam o'sib boradi. 2023 yilda Jahon banki O'zbekistonda yaqin kelajakda tug'ilish sur'atlarini kamayib borishi ehtimoli yaqqol ko'rinishini ta'kidlab nafaqaga chiqish yoshini ko'tarish taklifini berdi. Barqaror oqilona demografik siyosat aholini tabiiy o'sishini barqarorligi sharti: Mamlakatda iqtisodiy o'sishni barqarorligini ta'minlash; oilaga g'amxo'rlikni haqiqiy davlat siyosati darajasiga ko'tarish: oilani iqtisodiy-ijtimoiy himoyasini yuqori darajada ta'minlash, ekologik toza havo-suv, atrof muhitni yuzaga keltirish aholini barqaror o'sishini ta'minlaydi.

Tayanch iboralar: Tarixiy progress, antik sivilizatsiya, texnologik ukladlar, industrial jamiyat, F.Brodel, kapitalizm, P. Eburdin, Renessans, nigilizm, Pitirim Sorokin, K.Yaspers, ateizm, ideal, etika normalari, siklik progress, tolerantlik, mafkura.

Takrorlash uchun savollar

1. XXI asrda yer aholisining soni va tuzilmasi o'zgarishlarining ishtiqbollari qanday? Boy va kambag'al mamlakatlar orasidagi o'sib borayotgan jarlikni qanday bartaraf qilish mumkin?
2. Kelajak jamiyatda oilaning hozirgi funksiyalari saqlanib qoladimi?
3. Postindustrial jamiyatning odami hozirgi odamdan qanday farq qiladi?
4. Postindustrial ishlab chiqarish texnologik usulining asosiy analari va bosqichlarini ayting?
5. Postindustrial jamiyatga o'tish davrida iqtisodiyotning tuzilmasida qanday o'zgarishlar bo'ladi?
6. XX-XXI asrlarda jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini tavsiflaydigan lavhani chizing?
7. O'tish davridagi siyosiy sohadagi asosiy o'zgarishlar qanday bo'ladi?
8. Kelajak jamiyatda davlatning funksiyasi qanday bo'ladi?
9. Ma'naviy sohada postindustrial jamiyatning shakllanish davrida qanday o'zgarishlar yuz bermoqda va qanday o'zgarishlar kelajakda bo'ladi?

Mustaqil ish mavzulari

1. Postindustrial jamiyatga o'tish davrida inson.
2. Jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi o'zgarishlar.
3. Postindustrial ishlab chiqarishning texnologik shakllanishi.
4. ostindustrial sivilizatsiyaga o'tish davri mazmun-mohiyati.
5. Postindustrial jamiyat shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari.
6. Postindustrial jamiyat shakllanishida ta'lim tizimining o'rni.

GLOSSARIY

A

Adaptatsiya -moslashish,organizmningtashqimuhitning har

Abu Rayhon Beruniy – (973-1048-yy.) Oʻrta Osiyolik mashhur ensiklopedist olim, tarixiy taraqqiyotda tarixiy sikllar gʻoyasini ilgari surgan.

Alkuin – Buyuk Karlning Axen saroyida tashkil etilgan akademiyaning boshligʻi, shuningdek, madaniyat-cherkov ishlari boʻyicha maslahatchi boʻlib, xalq taʼlimini rivojlantirish gʻoyasini ilgari surgan.

“Avitsenna” - Ibn Sino (980- 1037) yillarda yashagan olim. Uning “Tib qonunlari”, “Hay ibn Yaqzon”, “Solomon va Absol” kabi nodir asarlari bor. Uning “Tib qonunlari” asari XII asrdayoq lotin tiliga tarjima qilingan.

B

Birinchi sanoat inqilobi – F.Brodel XI – XII asrlarni Yevropadagi inqilob deb belgilaydi. Ularga dehqonchilik inqilobilar bu energetik inqilob, shahar inqiloblari nazarda tutiladi.

“Baholar inqilobi” – XVI asrda xalqaro savdoda ulkan boyliklarni oqib kelishi natijasida sarroflik cheklari, veksellar keng yoyildi. Bu oʻz navbatida narx-navoning doimiy oʻsib borishiga nisbat berilishi edi.

Biotexnologiya – noanaʼnaviy resurslar, chiqitsiz texnologiyalarni, tabiat buyumlarining oʻzgartirilishining yanasa tejamkor usullarini oʻzlashtirish .

D

“Donolar uyi” – “Bayt ul-hikma”. Bagʻdoddagi xalifa Maʼmun akademiyasi hisoblanadi (XI asr).

F

Fiqh- islom huquqshunosligi fani, bu fan oʻrta asrlarda taʼlim tizimiga kiritilgan asosiy fan sifatida oʻqitilgan.

“Fiqhlar madarasasi” – XII asrda Buxoroda musulmon huquqshunosligi boʻyicha ixtisoslashgan madrasa boʻlib, ularda taʼlim tizimli oʻqitilgan.

Foma Akvinskiy (1225 – 1277) oʻz asarlarida eʼtiqod va bilimni murosaga keltirishga urindi, bilimni qimmatini tan oldi, lekin diniy aqidalariga birinchilikni berdi.

Frist Baade - nemis siyosatchisi va olimi, 1960-yilda oʻzining “2000 – yil tomon musobaqa” nomli kitobini eʼlon qildi.

G

Globallashuv – (*lotin. “dumaloqlashuv” soʻzidan olingan*) muayyan madaniyatlar kuchining boshqa madaniyatlarga taʼsir etishi, bu jarayonda nisbatan kuchsiz va mayda, qoloq boʻlgan sivilizatsiyalar yoki etnoslar butunlay yoʻqolib ketishi mumkin.

I

Iqtisodiy turgʻunlik – ishlab chiqarishning barcha sohalarida turgʻunlik holatining koʻzga tashlanishi, ishlab chiqish munosabatlarini izdan chiqishi.

J

“Jahon ustaxonasi” – bu atama Angliyaning oʻta rivojlanganlik darajasi uchun XIX asrning 80-yillarigacha ishlatilgan.

K

“Katta sakrash” – Xitoyda amalga oshirilgan siyosiy tartiblar natijasida ishlab chiqarish kuchlarini qisman yemirilishiga olib keldi. **Kapitalizm** – bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat.

Koalitsiya – (*lotincha “koalitsio” – “birlashma”, “tuzulma”*) maʼlum maqsad yoʻlida birlashuvchi turli guruhlardan iborat birlashma.

M

Manufaktura – XV asrga kelib ishlab chiqarishda qoʻl mehnatiga asoslangan, mehnat taqsimotiga koʻra mahsulot yaratish usuli.

Metropoliya – mustamlakaga ega boʻlgan davlat.

M.M.Gerasimov – antropolog olim.

Monopolistik kapitalizm – bu ulkan kapitallarni yangi kapital qoʻshiladigan sohalarga toʻplab, ularga kengaytirilgan qayta ishlab chiqarish sharoitlarini yaratadi va monopol baho yordami bilan monopol yuqori foydani taʼminlaydi.

N

Nanotexnologiya – rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotidagi ajralmas, muhim tarmoq boʻlib, “nano – kichik, mayda”, “texnika-asbob” hajman kichik sifati ulkan, imkoniyatlari yuqori hajmda boʻlgan taxnik vositalar ishlab chiqarish koʻzda tutiladi.

Noosfera – akademik V. I. Vernadskiyning fikricha, biosferani qayta qurish, bu uning yangi holati boʻlib, biz sezmaganda unga yaqinlashib boramiz va bu noosfera deb ataladi.

P

Pessimizm – optimizmning aksi boʻlib, dunyoni tushunishning imkoni yoʻqligiga qattiq berilib, ularning qarashlarida umidsizlik gʻoyalari nihoyatda balqib, birinchi oʻrinda boʻlgan.

O

Optimizm – falsafa fanida dunyoni tushunishda uning tushunishning imkoni borligiga umid va ishonch bilan qaragan oqim vakillari, ularda doimo tavakkalchilik jihati yuksak bo‘lgan .

“Oq yoqalilar” – ziyolilar qatlami (olim, injenerlar, texni, agronomlar) industrial jamiyatda shakllangan malakali ishchilar sinfi bo‘lib, ular o‘z malakalarini sotish hisobiga yashar edilar, qisman gonorar, medsenat(homiy)lar hisobidan yashovchi erkin mehnat kishilari.

“Oltin milliard” konsepsiyasi-yer aholisi sonining 1 mlrd kishigacha kamaytirish, hozirgi soniga nisbatan olti marta qisqarish va qolganlarini yuqori turmush darajasini kamaytirish konsepsiyasi.

S

Sanoat inqilobi – XVIII asrning 60-yillaridagi Angliyada boshlandi.

Separatizm – yaxlit davlat tarkibidan ajralib chiqishga harakat qilish.

Sofiya ibodatxonasi – Konstantinopol shahrida me’mor Anfily va Isidor tomonidan qurilgan.

T

Texnikum – ixtisoslashgan texnik ta’lim beriladigan muassasa.

Texnogen jamiyat – jamiyatda ishlab chiqarishda rivojlangan ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish.

Tolerantlik- diniy bag‘rikenglik hisoblanadi.

Totalitar – (*lotincha “yalpi” so‘zidan olingan*) hukmronlikning bir yakka shaxs qo‘lida to‘planib qolishi, zo‘ravonlik va kuch ishlatishga asoslangan boshqaruv shakli.

“To‘rtichi hokimiyat” – demokratik jamiyatda ommaviy axborot vositalari.

V

Veksel – davlat tomonidan boylarni qimmatbaho qarzlarini olishga majbur qiladi, muomalaga o‘ziga xos davlat veksellarni chiqaradi(zayomlarini) uning egasi belgilangan foizlarni tizimli ravishda olish huquqi kafolatlangan edi.

X

“Xanlin” akademiyasi – VIII asrda Xitoyda mavjud bo‘lgan ilk akademiya.

Y

Yan Amos Komenskiy – pedagogika fanini fan sifatida shakllanishida asosiy rol o‘ynagan chexiyalik gumanist olim, o‘zining didaktika nazariyasini yaratgan.

Z

“Zij”– ya’ni astronomik jadval

Tavsiya etiladigan manba va adabiyotlar

1. **Мирзиёев Ш.М.** Буюк келажигимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курагимиз. Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.
2. Всемирная история. М.Госполитиздат 1956.Т.1.
3. Шпенглер О. Закат Европы Iyuboe izdanie.
4. Тойнби А.Ж.Постижение истории М. Прогресс 1991
5. Данилевский Н.Я. Россия и Европа М. Книга 199
6. Ergashev Shuhrat. Qadimgi sivilizatsiyalar tarixi Т. 2016
7. Жаҳон тарихи. Қадимги ва ўрта асрлар даври. Дарслик. Т.: ТДПУ., 2013.
8. Rajabov R. Jahon tarixi I-qism: Qadimgi Sharq. O‘quv darsligi. Yangi asr avlodi. 2018.
9. Rajabov R. Jahon tarixi II-qism : Qadimgi Yunon-Rim tarixi. O‘quv darsligi. Yangi asr avlodi. 2020.
10. Shayx Muxammad Sodiq Muxammad Yusuf Olam. Odam. Din va ilm. Т.: “Hilol-nashr”, 2019
11. Глазьев С.Ю. Теория долгосрочного технико-экономического развития. - М.:Владос, 1993.
12. Глазьев С.Ю. Теория долгосрочного технико-экономического развития. - М.: Владос, 1993.
13. Гумилев Л.Н. Этногенез и биосфера Земли. 2-е изд. - Л.: изд-во ЛГУ,1989.
14. Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi xrestomatiyasi. O‘quv qo‘llanma.Т., Adib 2013. 2018.
15. Rajabov R. Jahon tarixi: Ibtidoiy jamoa davri. O‘quv qo‘llanma. Yangi asr avlodi. 2013.
16. Rajabov R. Tarix fani metodologiyasi. O‘quv darsligi. Yangi asr avlodi. 2018.
17. RajabovR. va boshqalar. Jahon sivilizatsiyalari tarixi. O‘quv metodik qo‘llanma. 2009 Toshkent. Istiqlol /
18. Rajabov R. Qadimgi sharq harbiy san‘ati. Yangi asr avlodi. 2018.
19. Rajabov. R. Auganbayev.J.Ye. Shumer tarixini o‘rganishning metodologik masalalari “Zilol buloq” nashriyoti, 2023.
20. Shayx Muxammad Sodiq Muxammad Yusuf Olam. Odam. Din-vailm. Т.: “Hilol-Nashr”, 2019
21. Глазьев С.Ю. Теория долгосрочного технико-экономического развития.-М.:Владос, 1993.
22. Гумилев Л.Н. Этногенез и биосфера Земли. 2-е изд.- Л.: изд-во ЛГУ,1989.
23. Дьяконов И.М . Пути истории: От древнейшего человека до наших дней.- М.: Восточная литература, 1994.

24. Мендельсон Л.А. Теория и история экономических кризисов. – М.: Соц эгиз, 1959. – Т.2.
25. Моисеев Н.Н. Алгоритмы развития.- М.: Наука,1987.
26. Сорокин П.А. Человек, Цивилизация, Общество. – М.: Политиздат, 1992.
27. 1. Тойнби А. Дж. Постижение истории. – М.: Прогресс, 1991.
28. Чижевский А.Л. Физические факторы исторического процесса. - Калуга: Маркс, 1924.
29. Тигнор, Роберт. Word Тоgetхе, Word Апарт: А.W.W. Нортон. УСА, New Нёрк. 2008. 978-0-393-11968-8.
30. Малиничев Г. «Археология по следам легенд и мифов», М., «Вече» 2006.
31. Ражабов Р. Қадимги дунё тарихи хрестоматияси. – Т.: Навоий Давлат педагогика институти, 2008.
32. “Хрестоматия по истории древнего мира” Под. ред. Н.И.Минитского, Минск., “Белорусская энциклопедия” 2003.
33. Непомнящий Н.Н. “100 великих загадок истории” М., “Вече” 2004.
34. Варакин А., Зданович Л. “Тайны исчезнувших цивилизаций” М., РИПОЛ классик. 2004.
35. “7 чудес света”, Ростов на Дону, “Феникс” 2006.
36. “Всемирная история” М., “Большая Российская энциклопедия”, 2003
37. Питер Томкинс “Тайны великой пирамиды Хеопса” М., Сетрополиграф. 2005.
38. Непомнящий Н.Н. 100 великих загадок истории М., «Вече» 2004
39. Нуриддинов Э, Пономарева Т. Новая история (1 период) “Иктисод-молия”, 2009.
40. Новая история стран Азии и Африки. Под.ред. А.М.РодриГЭСа, Част-1. М., «Владос», 2004
41. Валтер Раушер “Гинденбург”. М., “Ладомир” 2003.
42. Непомнящий Н.Н. 100 великих загадок истории М., «Вече» 2004.
43. Новейшая история стран Европы и Америки. Част-1. М., «Владос» 2003, Учебник для ВУЗов.
44. Axborot manbalari
45. www.tdpu.uz
46. www.pedagog.uz
47. www.ziyonet.uz
48. www.edu.uz
49. [tdpu-internet. Ped](http://tdpu-internet.Ped)
50. www.Yandex.ru.
51. www.Rambler.

MUNDARIJA

I bob. SIVILIZATSIYA NAZARIYASI.....	3
1-mavzu. Sivilizatsiyalar tushunchasi	3
2-mavzu. Sivilizatsiya tuzilmasi	15
II bob. EVOLYUTSIYA	24
3-mavzu. Inson evolyutsiyasi.....	24
4-mavzu. Sivilizatsiya arafasi. Neolit sivilizatsiyasi	37
5-mavzu. Ma'naviy-madaniy hayot	52
III bob. SIVILIZATSIYA. LOKAL SIVILIZATSIYALAR.....	63
6-mavzu. Sharq sivilizatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari	63
7-mavzu. Ikki Daryo oralig'i (Mesopotamiya) sivilizatsiyasi	96
8-mavzu. Hind sivilizatsiyasi.....	122
9-mavzu. Qadimgi Xitoy mil.avv. II -mil.avv. III asrgacha.....	140
10-mavzu. Yaponiya sivilizatsiyasi	168
11-mavzu. Sak-skif sivilizatsiyasi	183
12-mavzu. Qadimgi Eron sivilizatsiyasi.....	198
13-mavzu. O'rta Osiyo sivilizatsiyasi	207
IV bob. YEVROPA SIVILIZATSIYASI.....	258
14-mavzu. Qadimgi Yevropa sivilizatsiyasi	258
15-mavzu. O'rta asr Yevropa sivilizatsiyasi.....	301
16-mavzu. O'rta asrlarda Yevropa	301
17-mavzu. Industrial sivilizatsiyaga o'tish	314
18-mavzu. Ijtimoiy-siyosiy tuzilmalar evolyutsiyasi (XV-XX asrlar)...	323
V bob. AVSTRALIYA. AMERIKA SIVILIZATSIYASI	346
19-mavzu. Avstraliya	346
20-mavzu. Amerika sivilizatsiyasi	347
21-mavzu. Afrika sivilizatsiyasi	368
VI bob. XX ASR SIVILIZATSIYASI.....	377
22-mavzu. XX asr sivilizatsiyasi	377
23-mavzu. Industriya davrida ilmiy-texnik taraqqiyot	385
VII bob XXI ASR SIVILIZATSIYASI.....	394
24-mavzu. Postindustrial sivilizatsiyaning ilmiy-nazariy konsepsiyalari. Postindustrial sivilizatsiyaning manzarasi.....	394
25-mavzu. XXI asr sivilizatsiyasi	407
Glossariy.....	424
Tavsiya etiladigan manba va adabiyotlar	427

QAYDLAR UCHUN

QAYDLAR UCHUN

Ravshan Rajabov

JAHON SIVILIZATSIYALARI TARIXI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan 7010101 Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish
metodikasi (Tarix) mutaxassisligi talabalari uchun
darslik sifatida tavsiya etilgan*

Nashriyot litsenziyasi AI № 303. 21. 06. 2017.

«Zilol buloq» nashriyoti MChJ, Toshkent sh., Qamarniso k., 3.

Bosishga ruxsat etildi 4.06.2024. Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$.

27,0 nashr taboq. 26,5 shartli bosma taboq.

Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 403.

«Saydana-print» MJCh bosmaxonasida bosildi.

Toshkent sh., Qamarniso k., 3. e-mail: saydana-print@mail.ru

Tel.: +998 91 162-08-43; +998 99 862-08-43.